O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

TA’LIMDA INNOVATSIYALAR, INVESTITSIYALAR VA INTELLEKTUAL SALOHIYAT: MUAMMOLAR, TAHLILLAR VA ISTIQBOLLAR

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

T O‘ P L A M I

Navoiy-2025

Ta’limda innovatsiyalar, investitsiyalar va intellektual salohiyat: muammolar, tahlillar va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya *materiallari. – Navoiy: Navoiy viloyati PMM nashri, 2025. 415 b.*

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazida tashkil etilgan “Ta’limda innovatsiyalar, investitsiyalar va intellektual salohiyat: muammolar, tahlillar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamida uzluksiz ta’lim tizimida tadqiqot olib borayotgan mutaxassis-olimlar, mustaqil izlanuvchilar ilmiy-nazariy izlanishlarining amaliy tadbiqlari keltirilgan. Raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish borasidagi tajribali maktab o‘qituvchilarining taklif va tavsiyalari, umumta’lim fanlarini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda ta’lim, fan, xalqaro aloqalar va boshqaruv faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini rivojlantirish hamda “Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili” Davlat dasturida belgilangan vazifalar doirasida bajarilayotgan izlanishlarga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari yoritilgan.

Konferentsiya materiallaridan oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, umumta’lim maktablari o‘qituvchilari, magistrantlar va iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

TAHRIR HAY’ATI

Mardanov U.R.	*- Navoiy viloyati PMM direktori.*
Pulotov A.M.	*- pedagogika fanlari nomzodi. dotsent.*
Safarov D.X.	*- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor.*
Pulatov J.N.	*- falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*
Xasanova X.N.	*- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent.*
Astanaqulov K.M.	*- pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD), dotsent.*
Tuxfatullina D.T.	*-katta o‘qituvchi.*
Karimova D.A.	*- falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*
Usmonova R.M.	*- dotsent.*
Muxammadiyeva L.N.	*- tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD).*
Rajabova D.K.	*- Fanlarni rivojlantirish bo‘limi bosh mutaxassisi.*
Boboqulov.J.Q.	*- UKTTE bo‘limi boshlig‘i.*

Texnik muharrir: Boboqulov J.Q.

Maqolalar mazmuni va ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas’ul.

Konferensiya materiallari to‘plami Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi kengashining (2025-yil 29-avgust, 5-sonli) qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar, aziz hamkasblar va anjuman ishtirokchilari!

Avvalo, barchangizni yaqindagina keng miqyosda nishonlangan Mustaqilligimizning 34 yilligi hamda yaqinlashib kelayotgan “1-oktyabr – Ustoz va murabbiylar kuni” bilan samimiy tabriklayman.

Siz azizlarning barchangizga sihat-salomatlik, baxt-u saodat, ezgu faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Ta’lim har qanday jamiyatning rivojlanishi va jahon bozoriga kirib borishida muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonning ta’lim tizimi yanada katta qamrovdagi o‘zgarishlar hamda islohotlarni talab etmoqda. Bu strategiya mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotiga asos bo‘lib xizmat qiladi

Bugungi “**Ta‘limda innovatsiyalar, investitsiyalar va intellektual salohiyat: muammolar, tahlillar va istiqbollar**” mavzusiga bag‘ishlangan respublika ilmiy-amaliy anjumanidan ko‘zlangan maqsad ham shu mazmunni aks ettiradi.

Yangi O‘zbekiston ta’lim strategiyasining asosiy maqsadi – xalqaro miqyosda raqobatbardosh, keng qamrovli bilim, ko‘nikmalarga, tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalashdir. Innovatsion va raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga joriy etilib, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda. O‘qituvchi kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi yangi bosqichda tashkil etilmoqda. Bunda yoshlarning ijodiy fikrlashi va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar asosida o‘qitishning ustuvor vazifalari belgilandi.

Maktabgacha ta’limning qamrovini kengaytirish va sifatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Xususan, joriy yilda Navoiy viloyatida maktabgacha ta’limning qamrovini 90%ga yetkazish rejalashtirilgan. Metodik mahorat kuni, metodik mahorat soatlari doirasida kaskad usulida maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachi-pedagoglari o‘z bilim va tajribalarini oshirib bormoqda.

Umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturlari tubdan yangilanmoqda. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan yangi metodlar amaliyotda qo‘llanilmoqda. Yangi baholash tizimining umumta’lim maktablariga bosqichma bosqich joriy etilayotganligi o‘z natijasini bermoqda. Navoiy viloyatida joriy yilda o‘quvchilarning Oliy ta’lim muassasalariga kirish ko‘rsatkichi Respublikada yetakchi o‘rinda ekanligi ham fikrimizning isbotidir. O‘qituvchilarimizning kaskad usulida Kasbiy rivojlanish kuni, Kasbiy rivojlanish soatlari doirasida umr davomida o‘qish tamoyili asosida bilim, tajriba orttirib, o‘zaro tajriba almashinish imkoni paydo bo‘ldi.

Oliy ta’lim sohasida yangi universitetlar tashkil etilmoqda, xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik kuchaytirilmoqda, xalqaro akkreditatsiyadan o‘tish va ta’lim dasturlarining tan olinishi ko‘zda tutilgan rejalar amalga oshirilmoqda.

Professional ta’limni rivojlantirish, kasb-hunar ta’lim tizimini takomillashtirish orqali amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan dasturlar va imkoniyatlar kengaytirildi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’limning ajralmas qismiga aylanmoqda. O‘zbekistonda onlayn ta’lim platformalari, elektron darsliklar va interaktiv o‘quv dasturlarining rivojlanishi ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, o‘quv jarayoniga virtual laboratoriyalar, masofaviy ta’lim va sun‘iy

intellekt texnologiyalarini joriy qilish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirib kelinyapti. Bu innovatsiyalar o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Yangi O‘zbekistonda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish uchun bir qator yangi metodlar joriy qilindi. STEAM ta’lim tizimi orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlantililmoqda, interaktiv ta’lim metodlari, o‘yin metodlari, guruh bilan ishlash va loyiha usullari keng qo‘llanmoqda. Ushbu ta’lim turlari yosh avlodni jamoaviy tarzda ishlashga hamda birgalikda qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

Masofaviy ta’lim platformalari, milliy onlayn ta’lim platformalarining funksionalligi kengaytirildi. Bugungi kunda esa imkoniyati cheklangan yoshlar uchun masofadan turib o‘qish qulayligini berdi. O‘qituvchilar malakasini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Milliy va xalqaro seminarlar va konferensiyalar orqali pedagoglar eng so‘nggi ta’lim metodologiyalarini o‘rganib, amalga tatbiq qilmoqda. Yangi O‘zbekistonning ta’lim siyosati, avvalo, ta’lim sifatini oshirishga, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishga, ta’lim mazmunini yangilashga va pedagogik kadrlar malakasini oshirishga qaratilgan. Ta’limda innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va yangi metodlarning joriy etilishi o‘quv jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘taradi. Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab, oliy ta’limga qadar barcha bosqichlarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va yosh avlodning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xorijiy universitetlar va ta’lim dasturlari bilan integratsiyalashuv tizimning yanada sifatli va keng qamrovli bo‘lishiga zamin yaratadi.

Yangi O‘zbekistonda ta’lim strategiyasining muhim jihati shundaki, u nafaqat bilim berishga, balki yuksak axloqiy qadriyatlarga ega, ijodkor va tashabbuskor yoshlarni tarbiyalashga ham yo‘naltirilgan. Ta’lim tizimidagi islohotlar jamiyatning barcha qatlamlari uchun ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy tenglik va adolatni ta’minlashga qaratilgan.

U.R.Mardanov
Navoiy viloyati PMM direktori

1-SHO‘BA: TA’LIMDA INNOVATSION TADQIQOTLAR VA TEXNOLOGIYALAR: IMKONIYATLAR, TAHLILLAR VA ISTIQBOLLAR.

MAKTAB DIREKTORLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Ismailov Abduvali Abdumalikovich,
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti rektori,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktab direktorlarining kasbiy kompetentligi tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va maktab rahbarligini samarali boshqarishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, rahbar faoliyati va maktab direktorlarining pedagogik bilimlari, boshqaruv ko‘nikmalari, kommunikativ qobiliyatlari va innovatsion yondashuvlarga bo‘lgan ehtiyojlari tahlil qilingan. Maktab direktorlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida ilmiy asoslangan yondashuvlar atroflicha tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Rahbarlik faoliyati, kasbiy kompetentlik, kasbiy bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalar, shaxsiy fazilatlar, motivatsion komponent, shaxsiy-psixologik, faoliyat, integrativ va standartlashtirilgan yondashuvlar.*

Аннотация: *В данной статье освещается понятие профессиональной компетентности директоров школ, ее составляющие и значение для эффективного управления руководством школой. Также анализируется деятельность руководителя и потребности директоров школ в педагогических знаниях, управленческих навыках, коммуникативных способностях и инновационных подходах. Детально проанализированы научно обоснованные подходы к процессу развития профессиональной компетентности директоров школ.*

Ключевые слова: *Руководящая деятельность, профессиональная компетентность, профессиональные знания, практические навыки и умения, личностные качества, мотивационный компонент, личностно-психологический, деятельностный, интегративный и стандартизированный подходы.*

Abstrakt: *This article covers the concept of professional competence of school principals, its components and importance in the effective management of school leadership. It also analyzed the activities of the leader and the needs of the school principals for pedagogical knowledge, management skills, communicative abilities and innovative approaches. In the process of developing professional competence of school principals, scientifically based approaches have been thoroughly analyzed.*

Key words: *Leadership activities, professional competence, professional knowledge, practical skills and qualifications, personal qualities, motivational component, personal-psychological, activity, integrative and standardized approaches.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda ta’lim tizimining zamon talablariga mos ravishda rivojlanishi ta’lim muassasalarini boshqarish sifatiga bevosita bog‘liqdir. Ta’lim tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati esa, eng avvalo, uni boshqarayotgan rahbar kadrlarning kasbiy kompetentligiga, unlarning bilim, ko‘nikma, ijtimoiy-huquqiy mas’uliyat, innovatsion fikrlash va boshqaruv salohiyatiga bog‘liq. Shunday ekan, maktab direktorining kasbiy kompetentligi ta’lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun muhim omil hisoblanadi. Direktorning o‘z vazifalarini samarali bajarishi, pedagogik jamoani

boshqarish, ta'lim jarayonini takomillashtirishda o'rganilgan bilim va ko'nikmalarga asoslanadi. Kasbiy kompetentlik, o'qituvchilarga yetakchilik qilish, strategik va taktik qarorlarini qabul qilishda, ta'lim muassasasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda maktab rahbarlari nafaqat ma'muriy boshqaruvchilar, balki ta'lim jarayonining strategik yetakchilari, jamoani rivojlantira oluvchi liderlar sifatida maydonga chiqmoqda. Shu bois, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi ta'lim islohotlarining muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Kasbiy kompetentlik – bu shaxsning o'z ishini muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tajriba va shaxsiy xususiyatlar majmuasidir. Maktab direktorining kasbiy kompetentligi ta'lim muassasasida pedagogik jarayonni samarali boshqarish, o'quvchilarga ta'lim berish jarayonini nazorat qilish va rivojlantirishga yordam beradi. Direktorning kompetentligi boshqaruv va pedagogik faoliyatni eng yuqori darajada bajarishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida ta'lim tizimining umumiy sifatini oshiradi.

Asosiy qism. Ta'lim tizimining bugungi rivojlanish bosqichi va bozor munosabatlarining jamiyat hayotida mustahkam o'rin egallashi ta'lim boshqaruvini demokratik va iqtisodiy shakllarga o'tkazish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu jarayon faqat boshqaruv usullarini qayta ko'rib chiqishni emas, balki boshqaruv sub'ektlari – rahbar va xodimlar – o'rtasida interaktiv muhitni yaratish, turli bo'g'inlardagi rahbarlarning boshqaruv faoliyati samaradorligini oldindan baholash va shakllantirish kabi masalalari ham dolzarb hisoblanadi.

Rahbarlik faoliyati – bu rahbarning o'z xodimlariga tashkilot maqsadlarini anglash va ularga erishish istagini uyg'otish usulidir.

"Rahbarlik faoliyati" tushunchasi ijtimoiy psixologlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Jumladan, A.L.Juravlev rahbarlik faoliyati deganda "rahbarning boshqaruv funksiyalarini samarali va sifatli bajarish maqsadlarida jamoaga ta'sir ko'rsatishining usullari, metodlari, faoliyatlarining yaxlit, nisbatan barqaror tizimining individual-tipik o'ziga xosliklari"[3] sifatida talqin qiladi. R.X.Shakurov nuqtai-nazaridan "keng ma'noda rahbarlik faoliyati rahbar faoliyatining ichki uyg'unlikka ega bo'lgan barqaror takrorlanuvchi va ma'lum bir sharoitlarda boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan o'ziga xosliklari (motivlari, maqsadlari, mazmuni, usullari)ning yaxlit o'ziga xos tizimini namoyon qiladi. Tor ma'noda esa rahbarlik faoliyati– bu faoliyat usullarining (shu jumladan, murojaat usullarining ham) o'ziga xos tizimidir"[5] deb ta'rif beradi. A.L.Rusalinova esa "rahbarlik faoliyatining xususiyatlariga faqat rahbarning ham butun jamoa bilan, ham alohida olingan ishchi-xodimlar bilan o'zaro aloqalarini bevosita aks ettiruvchi xususiyatlarnigina kiritish mumkin" [4] deb hisoblaydi.

Yuqoridagi tadqiqotchi olimlar fikrlaridan kelib chiqib, rahbarlik faoliyati – bu jamoadagi vazifalar o'ziga xosligi, rahbar va xodimlarning o'zaro aloqalari hamda vakolatlar hajmi asosida bo'ysunuvchilarga ta'sir ko'rsatish tizimidir. Bu tizim rahbarning o'z bo'ysunuvchilariga bo'lgan ta'sirini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishni nazarda tutadi.

Darhaqiqat, zamonaviy ta'lim tizimida maktab rahbariyatining roli tobora murakkablashib, faqat ma'muriy vazifalardan ko'ra, ta'lim jarayonining strategik yo'naltiruvchisi, innovator va jamoa yetakchisi sifatida shakllanmoqda. Shu sababdan, kasbiy kompetensiya tushunchasi maktab rahbari faoliyatining samaradorligi va uning rivojini belgilovchi asosiy omilga aylanmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonida rahbarlarning kasbiy faoliyati natijadorligini belgilovchi asosiy omillardan biri bu –

kasbiy kompetentligidir. “Kasbiy kompetentlik” atamasi pedagogika, psixologiya, menejment va ijtimoiy fanlarda keng qo‘llanilib, turlicha talqin qilinadi. Mazkur tushuncha ingliz tilidagi “competence” (qobiliyat, layoqat) so‘zidan olingan bo‘lib, insonning muayyan kasb sohasida samarali faoliyat yurita olish malakasi, bilim va ko‘nikmalar majmui sifatida izohlanadi.

Kasbiy kompetentlik – bu rahbarning o‘z xizmat vazifalarini yuqori sifat darajasida bajarishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, shaxsiy sifatlar, motivatsiya va qadriyatlar majmuasidir. U nafaqat nazariy bilimga, balki amaliyotda muammolarni hal qilish, ijtimoiy va kasbiy muhitga moslashish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va innovatsiyalarni joriy etish qobiliyatiga asoslanadi.

Kasbiy kompetentlik nazariyasi o‘zining shakllanishida turli fanlar – psixologiya, pedagogika, menejment, sotsiologiya – bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning mazmuni tarixiy taraqqiyot jarayonida bosqichma-bosqich kengayib borgan. Tarixga nazar solsak, “kompetentlik” tushunchasi birinchi marta XX asrning o‘rtalarida tilshunoslik va psixologiya sohalarida qo‘llanila boshlagan. Noam Xomskiy 1965-yilda “lingvistik kompetensiya” tushunchasini kiritgan bo‘lib, bu shaxsning tilni to‘g‘ri va erkin qo‘llash layoqati sifatida izohlangan. Keyinchalik bu tushuncha boshqa sohalarga ham tatbiq etila boshlandi, ayniqsa, inson resurslarini boshqarish va ta’lim sohasida keng qo‘llanildi.

1980–1990-yillarda kompetensiya nazariyasi Yevropa mamlakatlarida, ayniqsa, Buyuk Britaniya va Germaniyada ta’lim standartlarini yangilashda asosiy konsepsiyaga aylandi. Bu davrda “kompetensiyaga asoslangan ta’lim” (competency-based education) konsepsiyasi vujudga keldi va o‘quv dasturlarini yangilashda keng qo‘llanildi. Zamonaviy ta’lim tizimining samarali faoliyat yuritishi bevosita rahbarlarning kasbiy salohiyatiga bog‘liq. Bunda ayniqsa rahbar shaxsining kasbiy kompetentligini to‘g‘ri shakllantirish va uni rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. “Kasbiy kompetentlik” tushunchasi bugungi kunda ta’lim boshqaruviga oid tadqiqotlarda keng qo‘llanilib, bu atama rahbarning o‘z kasbiga oid bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlari majmui sifatida talqin qilinadi.

Ilmiy adabiyotlarda kasbiy kompetentlik tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, Q.Yo‘ldoshev, M.Maxmudov, R.Xamidov, M.Juraevlarning tadqiqot ishlarida kasbiy kompetentlik tushunchasi milliy ta’lim tizimi kontekstida tadqiq etilmoqda. Xususan, ular kompetentlikni “shaxsning bilim, ko‘nikma va axloqiy tayyorgarligining uyg‘unlashgan holati” sifatida talqin etadilar.

E.Zeer, A.Markova, L.Mitinalar kasbiy kompetentlikni insonning kasbiy faoliyatda yuqori samaradorlikka erishishiga xizmat qiluvchi kompleks shaxsiy xususiyatlar yig‘indisi deb qaraydilar. G‘arb tadqiqotchilardan R.Boyatzis, L.Spencer va M.McClellandlar esa kasbiy kompetentlikni insonning aniq vazifani bajarishda muvaffaqiyatga olib keluvchi bilim, mahorat va motivatsiyalarning integratsiyalashgan tizimi sifatida izohlaydilar.

Gil-Espinosaning fikriga ko‘ra kasbiy kompetensiya – bu maktab rahbarlarining o‘quv jarayoni va kasbiy rivojlanishini yaxshilash maqsadida samarali rahbarlik, qo‘llab-quvvatlash va baholash ishlarini amalga oshirish qobiliyatidir.

Kasbiy kompetentlik quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- ***kasbiy bilimlar*** – rahbarlik faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlar tizimi;

- ***amaliy ko'nikma va malakalar*** – boshqaruv, kommunikatsiya, muammo yechish, jamoani boshqarish va qaror qabul qilish kabi funksiyalarni bajarishga imkon beruvchi harakatlar;
- ***shaxsiy fazilatlar*** – liderlik, mas'uliyat, tashabbuskorlik, moslashuvchanlik, adolatparvarlik kabi fazilatlar;
- ***motivatsion komponent*** – rahbarlik faoliyatiga qiziqish, o'z ustida ishlashga intilish va rivojlanishga tayyorgarlik.

Kasbiy kompetentlikning rivojlanishi izchil, tizimli va strategik yondashuvni talab qiladi. Ta'lim muassasasi rahbari zamonaviy o'zgarishlar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va raqobatbardosh ta'lim tizimining talablaridan kelib chiqib, o'z kompetentligini muntazam yangilab borishi lozim. Bu esa kasbiy rivojlanish dasturlarida qatnashish, ilg'or tajribalarni o'rganish, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini egallash orqali amalga oshiriladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, rahbarning kasbiy kompetentligini faqatgina nazariy bilimlar doirasida emas, balki ularning amaliyotda qo'llanilishi orqali baholash muhimdir. Boshqacha aytganda, kasbiy kompetentlik – bu rahbarning o'z lavozim majburiyatlarini samarali bajara olish salohiyatidir.

Nazariy yondashuvlarga kelsak, kasbiy kompetentlik tushunchasini izohlashda tadqoqotchilar tomonidan to'rt xil yondashuvlardan foydalanilgan. Xususan: ***Shaxsiy-psixologik yondashuv*** – bu yondashuvda kompetentlik shaxsning individual qobiliyatlari, motivatsiyasi, hissiy intellekti va kasbiy o'zini anglashiga bog'liq sifatida ko'riladi. ***Faoliyat yondashuvi*** – bu modelga ko'ra, kasbiy kompetentlik insonning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshira olish layoqati bilan belgilanadi. ***Integrativ yondashuv*** – bu yondashuvda kasbiy kompetentlik bilim, ko'nikma, shaxsiy fazilatlar, tajriba va qadriyatlarning uyg'unlashuvi sifatida qaraladi. ***Standartlashtirilgan yondashuv*** – bu yondashuvda kompetensiyalarni o'lchash va baholash mezonlari ishlab chiqilishi nazarda tutiladi.

Ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi hozirgi kunda nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan nazariy hamda amaliy izlanishlar olib borilgan.

Ushbu tadqiqotda ta'lim tashkilotlari rahbarlari uchun kompetensiya modelini ishlab chiqish maqsadida mavjud adabiyotlar tahlil qilinib, meta-sintez usuli qo'llanilgan. Meta-sintez – bu turli tadqiqotlardagi asosiy mavzular, asosiy g'oyalar va takrorlanadigan mazmunlarni tushunish va izohlashga qaratilgan sifatli yondashuv hisoblanadi. Ushbu metod meta-tahlildan farq qiladi, chunki u statistik umumlashtirish o'rniga mazmuniy integratsiyani amalga oshiradi. Meta-sintez turli tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, yanada chuqur va keng qamrovli xulosalar chiqarishga xizmat qiladi, meta-tahlil esa mavjud ma'lumotlar asosida umumiy effektni statistik baholaydi.

Kasbiy kompetentlik tushunchasi va uning tarkibiy qismlari ta'lim sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, maktab direktorlarining samarali faoliyat yuritishi uchun asosiy tayanch nuqtasi hisoblanadi. Bu tushuncha keng ma'noda pedagogik, boshqaruv va psixologik sohalarni qamrab oladi va ularning o'zaro bog'liqligi orqali ta'lim muassasasi rahbarining kompetentligining to'liq va muvofiq shakllanishini ta'minlaydi.

Kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismlari asosan uch asosiy komponentdan iborat bo‘lib, ular pedagogik bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va shaxsiy sifatlarni o‘z ichiga oladi.

Pedagogik bilimlar – bu ta’lim jarayonining nazariy asoslari, o‘quv metodlari, ta’lim texnologiyalari va pedagogik psixologiya bilan bog‘liq bilimlarni anglatadi. Bu bilimlar maktab direktorining ta’lim jarayonini nazorat qilish, o‘qituvchilar bilan samarali muloqot qilish va ta’lim sifatini oshirish uchun zarurdir.

Amaliy ko‘nikmalar – bu pedagogik bilimlarni amalda qo‘llash, muammolarni hal qilish, muhitni boshqarish va motivatsiya yaratish kabi faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlarni anglatadi. Bu ko‘nikmalar, ayniqsa, liderlik, strategik fikrlash, muomala madaniyati va qaror qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsiy sifatlar - maktab direktorining shaxsiy xususiyatlari, harakatdagi intizom, etika va mas’uliyat bilan bog‘liq bo‘lib, ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu sifatlar orasida liderlik qobiliyati, kommunikativlik, stressga chidamlilik, innovatsiyalarga ochiqlik va shaxsiy rivojlanishga intilish mavjud. Bu komponentlarning har biri o‘zaro bog‘liq bo‘lib, maktab direktori umumiy kasbiy kompetentligini tashkil etadi va uning ta’lim muassasasining yuqori sifatli faoliyat yuritishi uchun asosiy omillar hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, maktab direktorining kasbiy kompetentligi bir qator jihatlardan iborat bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: *Pedagogik bilim va ko‘nikmalar* - maktab direktorining ta’lim jarayonini boshqarish uchun pedagogik bilimlarga ega bo‘lishi zarur. Bu ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, o‘quvchilarni baholash tizimini joriy etish, pedagogik jamoani motivatsiya qilishni o‘z ichiga oladi.

Boshqaruv kompetentligi - direktor o‘z jamoasini samarali boshqarish, resurslarni to‘g‘ri taqsimlash va tashkilot ichidagi jarayonlarni boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Bunga qarorlar qabul qilish, ta’lim muassasasining moliyaviy boshqaruvi va o‘quvchilarni tashkilot ichida to‘g‘ri yo‘naltirish zarur.

Kommunikativ ko‘nikmalar -maktab direktorining ta’lim muassasasining barcha ishtirokchilari bilan (o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar, davlat organlari va boshqalar) samarali muloqot o‘rnatish qobiliyati juda muhimdir. Direktorning kommunikativ ko‘nikmalari jamoaning birligini ta’minlash, ijtimoiy muammolarni hal qilish va yangi g‘oyalarni amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Innovatsion yondashuvlar va yangiliklarga tayyorlik -ta’lim tizimi tez o‘zgarib borayotgan sharoitda direktor innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga tayyor bo‘lishi kerak. Bu yangi texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish, yangi pedagogik metodlarni tadbiq etish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan tashabbuslar bilan bog‘liq.

Maktab rahbarligining samarali bo‘lishi uchun rahbarlarning xodimlarni qo‘llab-quvvatlashi, maqsadlar aniq belgilanishi va rahbarlikning murabbiylikka asoslanishi zarur. Shu bilan birga, tashkilot ichidagi jarayon va tuzilmalarni doimiy takomillashtirish maktabni samarali boshqarishga yordam beradi. Bu barcha yondashuvlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ta’lim muassasalarining samarali faoliyat yuritishi uchun zarurdir. Bu borada tadqiqotchilar fikriga to‘xtaladigan bo‘lsak, Harris o‘z tadqiqotida maktablardagi samarasiz bo‘limlar muammosiga to‘xtalib, bunga sabab qilib zaif rahbarlik va aniq maqsadning yo‘qligini ko‘rsatadi. U “samarali rahbarlik – ayniqsa qiynalayotgan xodimlarni qo‘llab-quvvatlash va yo‘l ko‘rsatishni anglatadi”[8] deb ta’kidlaydi. Davies esa maktabni takomillashtirish uchun rahbarlik nazorat emas, balki murabbiylikka asoslangan bo‘lishi kerakligini, rahbarlik va

boshqaruvni butun tashkilot bo‘ylab tarqatish [6] muhimligini ta’kidlaydi. Bierema esa o‘rganishga asoslangan tashkilotlar o‘zlarining ichki jarayon va tuzilmasini doimiy takomillashtirish imkoniyatiga ega ekanligini[9] qayd etadi.

Muvaffaqiyatli maktab rahbarlari o‘qituvchilarning malakasi, bilimlari va tajribasini qadrlaydi, ularning ta’limdan tashqari ijtimoiy o‘rniga ham e’tibor qaratadi. Ular bilan ishonchga asoslangan aloqalar o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini ta’minlaydi va ularning pedagogik faoliyatidagi samaradorligini oshiradi. Samarali rahbarlar o‘qituvchilarda ishonch uyg‘otib, ularni tashqi bosimlardan himoya qiladi va ularning vaqt hamda energiyasini maktab maqsadlariga xizmat qilmaydigan ortiqcha to‘siqlardan asraydi. Bugungi murakkab va raqobatga boy muhitda ta’lim muassasasida eng muhim resurs – bu inson resursi, ayniqsa maktab direktorlarining kasbiy, kognitiv va shaxsiy kompetensiyalaridir.

Yuqoridagi tahlillar asosida maktab direktorlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodlari sifatida quyidagilarni tavsiya etamiz. Xususan: *kasbiy o‘sish va malaka oshirish kurslari* -maktab direktorlarining kompetentligini rivojlantirishda malaka oshirish kurslari muhim o‘rin tutadi. Bu kurslarda pedagogik boshqaruv, innovatsion yondashuvlar, kommunikativ ko‘nikmalar va boshqaruv bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilgan.

Mentorlik tizimi -tajribali direktorlar yangi direktorlarni o‘z tajribalari bilan baham ko‘rish va ular uchun mentorlik qilish tizimi direktorlarning kasbiy rivojlanishini tezlashtiradi va amaliy bilimlarni uzatishda yordam beradi.

Amaliy treninglar va seminarlar - direktorlar uchun muntazam ravishda amaliy treninglar va seminarlar tashkil etish, yangi metod va texnologiyalarni o‘rganish, boshqaruv ko‘nikmalarini takomillashtirishda yordam beradi. Bu treninglar ta’lim jarayonini boshqarishning yangi usullarini o‘rganish, samarali boshqaruvni amalga oshirishda yordam beradi.

Xulosa. Maktab direktorlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining asosiy omillaridan biridir. Maktab direktorlarining kasbiy rivojlanishini ta’minlash uchun innovatsion metodlarni qo‘llash, malaka oshirish kurslari tashkil etish va tajribali mentorlar tizimini joriy etish zarur. Bularning barchasi direktorlarning ta’lim muassasalarini samarali boshqarish qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi va ta’lim tizimining umumiy sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108- son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori
3. Журавлев П.В. и др. Технология управления персоналом: Учебник.- М.; 2008.- 576 с.
4. Русалинова А.А. Информационные процессы в организационно управленческой деятельности. Парадигмы исследования и описания организаций.– Санкт-Петербург : Питер, 2001.– с. 409-420.– (Хрестоматия по психологии) .
5. Shakurov R.X. Boshqaruv faoliyatida raxbarning individual psixologik xususiyatlari. “PEDAGOGS” international research journal ISSN: 2181 4027_SJIF: 4.995. www.pedagoglar.uz Volume-33, Issue-2, May-2023

6. Bronwyn Davies'. Department of Employment, Education and Youth Affairs, 1996
7. Qosimova D.S . Menejment nazariyasi. O'quv qollanma.- T.: Fan va texnologiyalar, 2009.- 212 b.
8. Thomas R. Harris. Essential Leadership: 65 Lessons Every Leader Needs to Know, Independently Published, 2019
9. Laura L. Bierema. Philosophy and Practice of Organizational Learning, Performance, and Change Berrett-Koehler, 2002
10. Tilovov N. "Ta'lim rahbarlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish muammolari". – Ta'lim va innovatsiya jurnali, №2. 2022–yil.

ЁШЛАРДА ТАДБИРКОРЛИК КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР

Холбаев Шахриёр,
Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат сиёсати ва бошқаруви академияси Самарқанд ҳудудий филиали директори, иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори

Ўқувчиларнинг компетентлигини оширишда иқтисодий тарбиянинг ўрни катта ҳисобланади. Бугунги кунда иқтисодий таълимнинг барча босқичларида ўқув дастурларининг изчиллиги ва ўзаро мувофиқлиги таъминланди, "Иқтисодий билим асослари" ўқув дастурларида умумий ва қўшимча таълимнинг интеграциялашувини, шу билан бирга ўқитиш мазмуни-моҳиятини реал ҳаётий эҳтиёжларга максимал даражада яқинлаштириш кўзда тутилади. Шунингдек, жаҳон бозоридаги конюктуранинг ўзгариб бораётганлиги, барча жараёнлар глобаллашиш янада тезлашаётган бир вақтда ўқувчилар компетентлигини ҳам ошириб боришни тақозо қилмоқда. Шу нуқтаи назардан, ёшларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришда инновацион ёндашувлар долзарб аҳамият касб этади.

Шарқ мутафаккирларининг илмий ижодиётида иқтисодий тарбияга оид бир қанча таълимотлари, ижобий йўналишдаги ғоялар, фикр-мулоҳазалар мавжудлиги билан ўзига хос хусусиятларга эгадир. Бу эса ёш авлодни янада ушбу алломаларни ижодини қизиқиш билан ўқишга олиб келади.

Иқтисодий тарбиянинг ўзига хос хусусиятларидан бири шуки, у ўқувчиларни мустақил ҳаётга тайёрлайди, иқтисодий саводхониликларини юксалтириб, ижодий қобилиятларини шакллантиради.

Ўқувчиларни компетентлигини ошишида шарқ мутафаккирларининг қарашларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Шарқ мутафаккирларининг қарашларида меҳнат ва ҳунар, ҳалол меҳнат билан топилган бойлик масалалари улуғлаш каби халқнинг кўп минг йиллик иқтисодий ғоя ва қарашлари тўпланган ва ўз аксини топган. Масалан буни қуйидаги жадвалда тушунтирамиз:

	Мутафаккир номи	**Қарашлари**	**Компетентликни оширишдаги аҳамияти**
	Абу Али Ибн Сино	Иқтисодий тарбияда киши тежамкорлик ва мулкий билимларни ўзлаштирибгина қолмай, ҳар қандай вазиятларда	Иқтисодий тарбияланган кишида барқарор маънавий мотивлар шаклланган бўлади. Бу мотивлар эса ўша кишини жамиятда муносиб хулқ-атвор

		ўзини ана шу нормаларга муносиб тута оладиган кишилар иқтисодий тарбияланган ҳисобланади.	билан рағбатлантиради. Ёш авлодни жамиятга, меҳнатга, ўзига муносабатни ижобий маънавий фазилатларга мувофиқ равишда тарбиялаш - тарбияланувчи шахсни, ҳам маънавий ҳам моддий жиҳатдан юксалишга ундайди.
	Абу Наср Фаробий	Фозил жамият ва фозил шаҳар (ёки мамлакат) шундай бўладики, шу мамлакатнинг аҳолисидан бўлган ҳар бир одам касб-ҳунар билан шуғулланади.	Ҳар бир ўқувчиларимиз касбий компетенциялар шакланишига, касб-ҳунарли бўлиб турмуши фаровонлигини оширишга хизмат қилади.
	Имом ал-Бухорий асарларидаги ҳадислар	Чорва боқинглар чунки у баракатдир.	Шахсий уй хўжалиги шароитида чорвачиликни йўлга қўйиш, фаровонликни ошириш омилини билиб олади.
	Имом ал-Бухорий асарларидаги ҳадислар	Қайси бир мўмин бирор экин экса ѐки мевали дарахт ўтқазса-ю, улардан қушлар, одамлар ёки ҳайвонлар еса, бу унинг учун садақа ҳукмида бўлади.	Экологик барқарорликни таъминлашда, фаровонликни ошириш, шунингдек маънавиятни юксалишига хизмат қилади.
	Имом ал-Бухорий асарларидаги ҳадислар	Илмни ўрганиб сўнг уни бошқаларга ўргатмаслик гўёки молу дунёни йиғиб, уни сарф қилмай, кўмиб қўйиш билан баробардир.	Маънавий ва моддий ҳаёт уйғунлигини юксалтиради.
	Амир Темур	Амр этдимки, раиятдан мол-хирож йиғишда уларни оғир аҳволга солишдан ёки мамлакатни қашшоқликка тушириб қўйишдан сақлансинлар. Негаки, раиятни хонавайрон қилиш (давлат) хазинасининг камбағаллашувига олиб келади. Хазинанинг камайиб қолиши эса сипоҳнинг тарқалиб кетишига сабаб бўлади. Сипоҳнинг тарқоқлиги, ўз навбатида, салтанатнинг	Бугунги солиқ сиёсатимиздаги имтиёзларнинг берилишини тарихий давлатчилигимиздаги солиқ сиёсати билан қиёслаш компетенцияси шакллантиради.

		кучсизланишига олиб боради.	
	Амир Темур	Тажрибамда кўрилганким, азми қатъий, тадбиркор, ҳушёр, жанг кўрган, мард, шижоатли бир киши мингта тадбирсиз, лоқайд кишидан яхшироқдир. Чунки, тажрибали бир киши минглаб кишига иш буюради	Бугунги иқтисодий сиёсатимиздаги кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ялпи ички маҳсулотдаги салмоқли улушининг йилдан йилга оширилиши, мамлакатмиз иқтисодиётининг ривожида бу соҳанинг ўрни беқиёс эканлигини англайди. Шунингдек, таҳлил қилиш компетенциясининг оширилишига сабаб бўлади.

Муҳтарам юртбошимиз томонидан 2025 йил 20 августда Ўзбекистон тадбиркорлар билан очиқ мулоқотида "Бугун шуни фахр билан айта оламизки, юртимизда яратилаётган ҳар бир иш ўрни, қад кўтараётган ҳар бир корхона, халқимиз оғирини енгил қилаётган ҳар бир хизмат, экспорт бўлаётган ҳар бир маҳсулот – сизнинг жасорат билан қилаётган меҳнатингиз, ташаббус ва изланишингиз маҳсулидир", – деди давлат раҳбари сўзининг аввалида.

Хорижий давлатлар тажрибасига назар ташлайдиган бўлсак, АҚШда иқтисодий мустақиллик кичик ва ўрта бизнес орқали таъминланади: АҚШдаги иш ўринларининг 65% кичик бизнес ҳиссасига тўғри келади. Сингапур мустақилликдан (1965) кейин иқтисодий ривожланишни тўғридан-тўғри тадбиркорликка боғлади. Хусусий сектор ва давлат орасидаги "ишонч маданияти" Сингапур иқтисодини Жануби-Шарқий Осиёдаги етакчи марказга айлантирди. Жанубий Кореяда Мустақилликдан кейин (1948) иқтисодиётни индустриялаштириш учун давлат ва хусусий сектор ҳамкорликка киришди. Давлат–бизнес мулоқоти экспорт ва инновацияга йўналтирилган стратегия асосида ташкил этилган.

Ёшларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришда инновацион ёндашувларига доир қуйидаги таклиф ва тавсияларни бериб ўтамиз:

1. Тадбиркорлик таълимида STEAM концепциясини жорий этиш;

Таклиф: Мактаб ва олий таълим муассасаларида тадбиркорликни ўргатишда **STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics)** асосидаги ўқув дастурларини яратиш.

Амалий самара: Ёшларда танқидий фикрлаш, технологик ечим топиш ва инновацион ғоялар яратиш қобилияти ошади.

2. **"Виртуал тадбиркорлик лабораториялари"ни ташкил этиш;**

Таклиф: Онлайн тарзда фаолият юритувчи, симуляция ва геймификация элементлари асосидаги виртуал тадбиркорлик муҳитини яратиш.

Амалий самара: Таълим олувчилар реал ҳаётга яқин бўлган бизнес муҳитда амалиёт олиш имкониятига эга бўладилар.

3. Ёшлар стартап акселераторларини ташкил этиш;

Таклиф: Ҳар бир ҳудудда ёшлар учун мўлжалланган **стартап инкубатор ва акселератор марказларини** ташкил қилиш.

Амалий самара: Ёшлар ўз ғояларини бозорга мос равишда тест қилиш, саралаш, сармоя жалб қилиш имкониятига эга бўладилар.

4. Тадбиркорлик фанини барча таълим даражаларига жорий этиш;

Таклиф: Бошланғич, ўрта ва олий таълим тизимида "Инновацион тадбиркорлик асослари" номли фанни мажбурий фан сифатида киритиш.

Амалий самара: Ёшларда тадбиркорлик маданияти ва инновацион фикрлаш кўникмалари босқичма-босқич ривожланади.

5. Тадбиркорликда менторлик тизимини жорий этиш;

Таклиф: Муваффақиятли тадбиркорларни ёшлар билан боғлаш, тажриба алмашишни ташкил этиш (1-нафари – 1-ёш).

Амалий самара: Ёш тадбиркорлар тажрибали устозлар кўмагида хатоларни камайтиради, тез ўсади.

6. Илмий тадқиқотларни амалиётга боғлаш.

Таклиф: Олий ўқув юртларида ёзилаётган илмий ишлар (диссертациялар, лойиҳалар)ни амалиётга татбиқ этиш механизмларини ишлаб чиқиш.

Амалий самара: Илмий ишлаб чиқариш ва бозор эҳтиёжларига мос лойиҳалар орқали янги бизнес ташаббуслар юзага келади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. (2025). Ўзбекистон тадбиркорлари билан очиқ мулоқотдаги нутқи. [20 август, 2025 йил]. Президент.уз веб-сайти.
2. U.S. Small Business Administration (SBA). (2023). **Small Business Economic Trends**. https://www.sba.gov
3. Yuen, B. & Kong, L. (2019). **Singapore: Planning and Urban Development in a City-State**. Routledge.
4. Назаров, Қ., & Тўраев, Ш. (2021). **Тадбиркорлик асослари ва инновация**. Тошкент: "Fan va texnologiya" нашриёти.
5. OECD. (2020). **Entrepreneurship Education in the 21st Century**. Paris: OECD Publishing.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TASHXIS METODLARIDAN FOYDALANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA INNOVATSION YECHIMLAR ISHLAB CHIQISH

Pulotov Abdurayim Murotovich,
Navoiy viloyati PMM Fanlarni rivojlantirish bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XXI asr ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib borayotgan pedagogik tashxis jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llashning dolzarbligi va samaradorligi tahlil qilingan. Raqamli diagnostikaning samaradorligini baholash uchun tezkorlik, obyektivlik, shaxsiylashtirish mezonlari tizimi taklif etilgan. Tadqiqotda sun'iy intellektga asoslangan bashoratli tahlil, geymifikatsiya, blokcheyn texnologiyasi va neyro-interfeyslardan foylalanib pedagogik tashxisning kelajagini belgilovchi innovatsion yechimlar va ularni amaliyotga tatbiq etish istiqbollari muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar. *pedagogik tashxis, raqamli transformatsiya, ta'lim texnologiyalari, samaradorlikni baholash, adaptiv o'qitish, ma'lumotlar tahlili (data analytics), sun'iy intellekt, innovatsion ta'lim, shaxsiylashtirilgan yondashuv, geymifikatsiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируется актуальность и эффективность применения цифровых технологий в процессе педагогической диагностики, которая становится неотъемлемой частью системы образования XXI века. Для оценки эффективности цифровой диагностики предложена система критериев оперативности, объективности, персонализации. В исследовании обсуждаются инновационные решения, определяющие будущее педагогической диагностики с использованием прогностического анализа на основе искусственного интеллекта, геймификации, технологии блокчейн и нейроинтерфейсов, а также перспективы их внедрения в практику.*

Ключевые слова: *педагогическая диагностика, цифровая трансформация, образовательные технологии, оценка эффективности, адаптивное обучение, анализ данных (data analytics), искусственный интеллект, инновационное образование, персонализированный подход, геймификация.*

Abstract. *This article analyzes the relevance and effectiveness of using digital technologies in the process of pedagogical diagnostics, which is becoming an integral part of the education system of the 21st century. A system of criteria for speed, objectivity, and personalization is proposed to assess the effectiveness of digital diagnostics. The study discusses innovative solutions that determine the future of pedagogical diagnostics using predictive analysis, gamification, blockchain technology, and neurointerfaces based on artificial intelligence, and the prospects for their practical implementation.*

Keywords: *pedagogical diagnostics, digital transformation, educational technologies, performance evaluation, adaptive learning, data analytics, artificial intelligence, innovative education, personalized approach, gamification.*

Kirish.

Jahon ta'lim tizimi global raqamlashtirish va axborotlashuv sharoitida tub o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. "Bir xil qolipdagi" ta'lim modelidan har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga oluvchi shaxsiylashtirilgan yondashuvga o‘tish kun tartibidagi eng dolzarb masalaga aylandi. Ushbu transformatsiyaning markazida o‘quvchining bilim darajasi, ko‘nikmalari, psixologik holati va o‘quv jarayonidagi qiyinchiliklarini o‘z vaqtida va aniq aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tashxis yotadi.

Biroq, an'anaviy diagnostika usullari - yozma ishlar, og‘zaki so‘rovlar, kuzatishlar ko‘p vaqt talab etishi, subyektiv omillarga bog‘liqligi va o‘quvchi haqida yuzaki ma'lumot berishi bilan bugungi kun talablariga to‘liq javob bera olmaydi. Aynan shu nuqtada raqamli texnologiyalar pedagogik tashxis jarayonini inqilob qilish uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi zamonaviy pedagogik tashxisda raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini ilmiy asoslangan mezonlar orqali baholash va ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun istiqbolli innovatsion yechimlarni taklif qilishdan iborat.

Asosiy qism.

Zamonaviy pedagogik tashxis – bu shunchaki o‘quvchining bilimini "yaxshi" yoki "yomon" deb baholash emas. Bu o‘quv jarayonining dinamik holatini, o‘quvchining kognitiv rivojlanishini, kuchli va zaif tomonlarini, o‘zlashtirishdagi bo‘shliqlarni va ularning sabablarini aniqlashga qaratilgan kompleks tizimdir. Uning asosiy vazifasi – tuzatuvchi (korreksion) choralar ko‘rish va individual ta'lim trayektoriyasini belgilash uchun asos yaratishdir.

An'anaviy usullarning asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat:

- Vaqt va resurs sig‘imi: O‘qituvchi har bir o‘quvchining yozma ishini tekshirishi, kuzatuv kundaligini yuritishi va individual suhbatlar o‘tkazishi uchun katta vaqt sarflaydi. Bu esa sinfdagi o‘quvchilar soni ko‘p bo‘lganda deyarli imkonsizdir;

- Subyektivlik: Baholash jarayonida o‘qituvchining kayfiyati, o‘quvchiga bo‘lgan shaxsiy munosabati va charchoq kabi omillar natijalarga ta’sir qilishi mumkin;

- Ma’lumotlarning cheklanganligi: Nazorat ishi faqat yakuniy natijani ko‘rsatadi, lekin o‘quvchi qaysi bosqichda xato qilgani, qancha vaqt sarflagani yoki qaysi mavzuda ikkilanganini aniqlash imkonini bermaydi;

- Dinamikani kuzatishning qiyinligi: O‘quvchining rivojlanish dinamikasini bir necha oy yoki yil davomida kuzatib borish va tahlil qilish uchun ma’lumotlarni tizimli ravishda to‘plash va qayta ishlash murakkab.

Pedagogik tashxisda raqamli texnologiyalarning o‘rni va turlari. Raqamli texnologiyalar yuqorida sanab o‘tilgan kamchiliklarni bartaraf etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ularni vazifalariga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- Ma'lumotlarni yig‘ish va boshqarish platformalari (LMS): Google Classroom, Moodle kabi ta’limni boshqarish tizimlari o‘quvchilarning topshiriqlarni bajarish faolligi, vaqti va natijalari haqidagi ma’lumotlarni avtomatik tarzda to‘playdi. Bu o‘qituvchiga har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi;

- Avtomatlashtirilgan test va baholash tizimlari: Kahoot!, Quizlet, Google Forms kabi vositalar testlarni tezkor yaratish, o‘tkazish va natijalarni bir zumda tahlil qilish imkonini beradi. Bu o‘qituvchini tekshirishning mashaqqatli jarayonidan ozod qiladi va obyektivlikni ta’minlaydi;

- Adaptiv o‘qitish tizimlari (AOS): Bu tizimlar sun’iy intellekt elementlaridan foydalanib, har bir o‘quvchining javoblariga mos ravishda topshiriqlarning murakkabligini avtomatik tarzda o‘zgartiradi. Agar o‘quvchi qiynalsa, tizim osonroq savollar yoki qo‘shimcha materiallar taklif qiladi. Agar osonlikcha yechsa, murakkabroq masalalarga o‘tadi. Bu haqiqiy ma’nodagi shaxsiylashtirilgan tashxis va ta’limni ta’minlaydi;

- Intellektual tahlil va ma’lumotlar vizualizatsiyasi: Zamonaviy platformalar to‘plangan katta hajmdagi ma’lumotlarni (Big Data) tahlil qilib, o‘quvchilarning o‘zlashtirishidagi umumiy tendensiyalarni, "risk guruhidagi" o‘quvchilarni va tizimli xatolarni aniqlaydi. Natijalar diagramma va grafiklar ko‘rinishida (dashboard) taqdim etiladi, bu esa o‘qituvchiga vaziyatni tezda baholashga yordam beradi;

- Virtual (VR) va to‘ldirilgan (AR) reallik: Bu texnologiyalar amaliy ko‘nikmalarni (masalan, tibbiyotda jarrohlik, kimyoda tajriba o‘tkazish) xavfsiz virtual muhitda baholash uchun noyob imkoniyatlar yaratadi. Tizim har bir harakatning to‘g‘riligini va ketma-ketligini aniq qayd etib boradi.

Raqamli texnologiyalarning samaradorligini baholash mezonlari. Har qanday raqamli vositani ta’lim jarayoniga joriy etishdan oldin uning samaradorligini baholash lozim. Biz pedagogik tashxis kontekstida quyidagi mezonlar tizimini taklif qilamiz:

- Tezkorlik va vaqt tejamkorligi: Raqamli vosita diagnostika jarayonini (ma’lumot yig‘ish, tahlil qilish, hisobot tayyorlash) an’anaviy usullarga nisbatan qanchalik tezlashtiradi? O‘qituvchining bo‘shagan vaqtini individual yordamga sarflash imkoniyati paydo bo‘ladimi?;

- Obyektivlik va ishonchlilik: Baholash natijalari inson omilidan qanchalik xoli? Tizim bir xil bilim darajasidagi o‘quvchilarga barqaror va bir xil baho bera oladimi?;

- Tashxisning ko‘p qirraliligi: Vosita faqat "to‘g‘ri/noto‘g‘ri" javobni qayd etadimi yoki o‘quvchining fikrlash jarayoni haqida ham ma’lumot bera oladimi (masalan, savolga sarflangan vaqt, javobni o‘zgartirishlar soni, foydalanilgan yordamchi materiallar)?;

- Shaxsiylashtirish imkoniyati: Tizim olingan ma’lumotlar asosida har bir o‘quvchi uchun individual tavsiyalar, qo‘shimcha materiallar yoki moslashtirilgan topshiriqlar shakllantira oladimi?;

- Foydalanish uchun qulaylik: Interfeys o‘qituvchi va o‘quvchi uchun qanchalik tushunarli va sodda? Texnologiyani o‘zlashtirish uchun maxsus uzoq muddatli tayyorgarlik talab etiladimi?;

- Integratsiya va moslashuvchanlik: Tanlangan vosita mavjud ta'lim platformalari (masalan, LMS, elektron kundalik) bilan integratsiya qila oladimi? Uni turli fanlar va ta’lim bosqichlariga moslashtirish mumkinmi?;

- Ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligi: O‘quvchilarning shaxsiy ma'lumotlari va o‘quv natijalari begona shaxslardan himoyalanganmi? Ma'lumotlardan foydalanishda axloqiy me’yorlarga rioya qilinadimi?.

- Innovatsion yechimlar: Kelajakdagi pedagogik tashxis. Mavjud raqamli vositalarni tahlil qilish va samaradorligini baholash kelajakdagi innovatsion yechimlarni ishlab chiqish uchun zamin yaratadi.

Pedagogik tashxisning istiqbolli yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- Sun’iy intellektga asoslangan bashoratli tahlil (Predictive Analytics). Bu yondashuv o‘quvchining raqamli izlari (platformaga kirish chastotasi, topshiriqlarni bajarish tezligi, o‘tgan natijalari) asosida uning kelajakdagi o‘zlashtirishini yoki muayyan mavzuda duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni oldindan bashorat qilishga qaratilgan. Bunday tizim o‘qituvchini “Bu o‘quvchi keyingi chorakda matematikadan qiynalishi mumkin, unga hozirdan e’tibor qaratish kerak” kabi signallar bilan ogohlantirishi mumkin;

- Geymifikatsiyalashgan diagnostik vositalar. An’anaviy testlar ko‘pincha o‘quvchilarda stress va xavotir uyg‘otadi. Geymifikatsiya (o‘yinlashtirish) elementlarini (ballar, darajalar, sovrinlar, syujet) qo‘llash orqali diagnostika jarayonini qiziqarli sarguzashtga aylantirish mumkin. O‘yin davomida o‘quvchi o‘zini erkin his qiladi va uning nafaqat bilimi, balki muammoni yechish strategiyasi, kreativligi va tavakkal qilishga moyilligi kabi xususiyatlari haqida ham qimmatli ma’lumotlar to‘planadi;

- Blokcheyn texnologiyasi asosida shaxsiy ta’lim portfoliolari. Blokcheyn - bu ma’lumotlarni o‘zgartirib bo‘lmaydigan va markazlashtirilmagan holda saqlash texnologiyasidir. Uning yordamida har bir o‘quvchi uchun umrbod saqlanadigan, qalbakilashtirishdan himoyalangan raqamli portfolio yaratish mumkin. Bu portfolioda nafaqat baholar, balki loyihalardagi ishtiroki, yutgan olimpiadalari, olgan sertifikatlari va egallagan amaliy ko‘nikmalari aks etadi. Bu bitiruvchining ishga joylashishi yoki o‘qishini boshqa muassasada davom ettirishi uchun uning kompetensiyalarining ishonchli isboti bo‘lib xizmat qiladi.

- Neyro-interfeyslar va biometrik ma’lumotlar (Istiqboldagi tadqiqotlar). Bu eng futuristik yo‘nalish bo‘lib, o‘quv jarayonida o‘quvchining fiziologik holatini o‘rganishni nazarda tutadi. Masalan, ko‘z harakatini kuzatuvchi (eye-tracking)

qurilmalar o‘quvchining matnni o‘qiyotganda qaysi qismlarga ko‘proq e'tibor qaratayotganini, elektroensefalografiya (EEG) esa uning diqqat darajasi, kognitiv yuklamasi va charchog‘ini aniqlashga yordam beradi. Bu ma’lumotlar o‘quv materiallarini va dars jarayonini o‘quvchining psixofiziologik holatiga maksimal darajada moslashtirish imkonini beradi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik tashxis jarayoniga raqamli texnologiyalarning integratsiyasi shunchaki zamon talabi emas, balki ta’lim sifatini tubdan oshirishning zaruriy shartidir. Raqamli vositalar diagnostikani tezkor va obyektiv qilish, o‘qituvchini esa mashaqqatli mehnatdan ozod qilib, uning asosiy vazifasi - har bir o‘quvchi bilan individual ishlashga yo‘naltirish imkonini beradi.

Biroq, texnologiyalarni ko‘r-ko‘rona joriy etish kutilgan natijani bermaydi. Ularning samaradorligini taklif etilgan mezonlar (tezkorlik, obyektivlik, shaxsiylashtirish va boshqalar) asosida muntazam baholab borish va olingan xulosalar asosida takomillashtirish lozim. Sun’iy intellekt, geymifikatsiya va blokcheyn kabi innovatsion yechimlar pedagogik tashxisning kelajagini belgilab beradi va ta’limni haqiqatan ham shaxsga yo‘naltirilgan jarayonga aylantirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, texnologiya hech qachon o‘qituvchining o‘rnini bosa olmaydi, balki uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi kuchli yordamchiga aylanmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алимардонов И., Абдуллаев М., Ризаева Ф. Таълим тизимида блокчейн технологияларининг қўлланилиши. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2021-yil, 324-331 betlar.
2. Венецкий И.Г. Математико-статистический анализ контроля учебного процесса по математике в вузе с применением ЭВМ.-М.:НИИВШ. 1975.-63 с.
3. Klauer K.I. (Hg.) Hadbuch der. Pedagogischen Diagnostik. Dissel-dorf: Schwann, 1978.
4. Ингенкамп К. Педагогическая диагностика: Пер. с нем.-М.: Педагогика, 1991.-240 с. (Зарубежная школа и пед.).
5. Pulotov A.M. O‘quvchilar bilimi darajasini aniqlashda pedagogik tashxis usullaridan foydalanish. “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, №10, 69-72-betlar. ISSN 2181-6833.
6. Pulotov A.M. Pedagogik tashxisda milliy tarbiya qadriyatlarini qo‘llashning metodik asoslari. “Fan va ta’lim integratsiyasi” ilmiy jurnal. 2025, №10, 203-207-betlar. ISSN: 2992-9210.

MAKTAB O‘QITUVCHILARINI EKOLOGIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI VA UNI TANLASH TAMOYILLARI

Xurramov Isroil Abdurashidovich,
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti ilmiy kotibi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktab o‘qituvchilarining ekologik savodxonligini rivojlantirishning mazmuni, uning o‘quv jarayonida ahamiyati va ekologik mas’uliyatni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Maqolada ekologik savodxonlikning tarkibiy qismlari, o‘qituvchilarning ekologik bilimlari, ko‘nikmalari va ekologik qarorlar qabul qilishdagi roli ko‘rsatilib, mazmunni tanlashda qo‘llaniladigan – ilmiylik, amaliylik, kontekstual yondashuv va barqarorlik*

tamoyillariga asoslangan ekologik ta'limni barcha fanlar bilan integratsiyalash, amaliy yondashuvni qo'llash, uzluksiz o'qitish va shaxsiy mas'uliyatni kuchaytirish nazarda tutilgan. Shuningdek, tabiiy fan o'qituvchilarining ekologiya savodxonligiga oid bilimlarni o'quvchilarga yetkazishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanishlari tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: *Ekologik savodxonlik, ekologik bilimlar, ekologik ko'nikma, integratsiya, amaliy, davomiylik, shaxsiy mas'uliyat va tashabbuskorlik tamoyillari.*

Аннотация: *В данной статье проанализировано содержание развития экологической грамотности школьных учителей, ее значение в образовательном процессе и роль в формировании экологической ответственности. В статье излагаются компоненты экологической грамотности, экологические знания, навыки и роль педагогов в принятии экологических решений, предусматривается интеграция экологического образования со всеми дисциплинами, основанными на принципах применимости к выбору содержания – научности, практичности, контекстного подхода и устойчивости, применение практического подхода, непрерывное обучение и усиление личной ответственности. статье излагаются компоненты экологической грамотности, экологические знания, навыки и роль педагогов в принятии экологических решений, предусматривается интеграция эколог.*

Ключевые слова: *Принципы экологической грамотности, экологических знаний, экологических навыков, интеграции практичности, преемственности, личной ответственности и инициативы.*

Abstrakt: *This article analyzes the content of the development of environmental literacy of school teachers, its importance in the educational process and its role in the formation of environmental responsibility. The article shows the components of environmental literacy, teachers' environmental knowledge, skills and role in making environmental decisions, and provides for the integration of environmental education with all disciplines based on the principles of science, practicality, contextual approach and sustainability used in content selection, application of a practical approach, continuous teaching and strengthening personal responsibility.he article shows the components of environmental literacy, teachers' environmental knowledge, skills and role in making environmental decisions, and provid.*

Key words: *Principles of environmental literacy, environmental knowledge, environmental skills, integration, practicality, continuity, personal responsibility, and initiative.*

Kirish. Bugungi kunda ekologik muammolar global miqyosda dolzarb masalaga aylangan bo'lib, u insoniyatning har bir qatlamiga, ayniqsa ta'lim tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Maktab o'qituvchilari kelajak avlodning dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy shaxslar sifatida – ekologik savodxonlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning ekologik bilim, ko'nikma va munosabatlari nafaqat o'quvchilarga, balki butun jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktab o'qituvchilari ekologik ta'limni amaliyotda amalga oshirishda, o'quvchilarni atrof-muhitni saqlashga va ekologik mas'uliyatga o'rgatishda asosiy vositachilardir. O'qituvchilar ekologik savodxonlikka ega bo'lishlari, nafaqat o'z bilimlarini kengaytirish, balki ekologik masalalarni ta'lim jarayonida samarali qo'llash va o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda faol ishtirok etishlari kerak. Shu sababli, maktab o'qituvchilarining ekologik savodxonligini rivojlantirishning

mazmuni va uni tanlash tamoyillarini aniq belgilash dolzarb masala bo‘lib, ta’lim tizimi va ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Mazkur maqolada, maktab o‘qituvchilarining ekologik savodxonligini rivojlantirishning mazmuni, uning tarkibiy qismlari va ta’lim jarayonidagi o‘rni, shuningdek, ekologik ta’limning samarali bo‘lishi uchun asosiy tamoyillar, usullar va metodologiyalar tahlil etilgan. Bu yondashuvlar o‘qituvchilarni ekologik mas’uliyatga undash, yosh avlodni atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan qarashga o‘rgatish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga hissa qo‘shish maqsadida amalga oshirilishi kerak. Ekologik savodxonlikni rivojlantirish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan, balki o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini kengaytirish, ularni zamonaviy ta’lim talablariga moslashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, bu mavzu ta’lim tizimining barqaror rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Ekologik muammo bu tabiat va insoniyat o‘zaro munosabatining jiddiy buzilishi bo‘lib, tabiiy manbalar zaxirasining kamayib ketishi, ekologik barqarorlikning buzilishi, iqlimning o‘zgarishi, yashash sharoitining va odamlar faoliyatining murakkablashuvi bilan namayon bo‘ladi. Ekologik muammoni hal qilish uchun keng qamrovli ekologik ta’limning yagona tizimini yaratish ekologik halokat hududida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tizim ekologik xavfsizlikni asrashda va ekologiya sohasida kadrlar tayyorlash faoliyatida keng miqyosdagi mukammallikni ta’minlashi zarur. Buning uchun zamonaviy talablarga javob beradigan ta’lim standartini ishlab chiqish, shuningdek ekologik tanglik bilan bog‘liq muammo va vazifalarni hal qilish maqsadida uzluksiz kasbiy rivojlanish kurslari tinglovchilarini keng qamrovli ekologik bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va innovatsion yondashuvlar bilan ta’minlash zarur. Bu jarayon ekologik muammolarni samarali hal qilish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va ijtimoiy-iqtisodiy tizimda ekologik jihatlarni hisobga olishda muhim rol o‘ynaydi. Ekologik ta’lim tizimi faqat o‘qituvchilarni emas, balki keng jamoatchilikni ham ekologik mas’uliyatga undashga, tabiatni muhofaza qilishda aktiv ishtirok etishga chaqiradi.

Ekologik savodxonlik – bu insonning ekologik muhit va tabiat bilan aloqasini anglash, ekologik jarayonlar va ularning inson hayoti uchun ahamiyatini tushunish, shuningdek, atrof-muhitni asrash va ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha ma’lum bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishdir. O‘qituvchilar ekologik savodxonlikka ega bo‘lishi kerak, chunki ular o‘z shaxsiy misollari orqali o‘quvchilariga ekologik mas’uliyatni o‘rgatadi. Ekologik savodxonlikning rivojlanishi o‘qituvchilarga ekologik muammolarni tushunishga va ularni o‘z pedagogik faoliyatida ishlatishga imkon yaratadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida atrof-muhit muhofazasiga oid mavzularni yoritishda kompleks va tizimli yondashish maqsadga muvofiq. Shuningdek, chuqur va atroflicha bilim olishni ta’minlash maqsadida o‘quvchi-yoshlarga dars mashg‘ulotlarining mavzulari atrof-muhitga ta’sirini matematik tahlil asosida yoritilishi lozim. Tabiiy fanlar o‘qituvchilari o‘z fanlarini o‘qitishda vizual texnologiyalar asosida– “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Munozara”. “ijodiy, axborot va tadqiqot loyihalarini tuzish”, “Modellashtirish”, “Rolli o‘yin”, “Jarayonga yo‘naltirish”, “Tadqiqot”, “Taqdimot o‘tkazish” va boshqa metodlar asosida o‘tish, ma’ruzalarni ko‘rgazmali o‘quv qurollari, multimedia hamda masofaviy ta’lim yordamida tashkil etilishi ta’lim samaradorligini oshiradi. Ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulot darslariga mos ravishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar tanlangani maqsadga muvofiq. Ayniqsa ta’lim berish jarayonida ekologik savodxonlikning tarkibiy qismlarini o‘rganish

asosida keys – texnologiyalar, loyihalash texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quvchilar atrof tabiiy muhitga nisbatan ehtiyotkorona va ma’suliyatli yondoshuv, egallagan tayanch bilimlarini ekologik bilimlar bilan integratsiyalash, turdosh fanlardan olingan bilimlarni ekologik bilimlar bilan muvofiqlashtirish, kundalik faoliyat jarayonida ekologik bilimlarni qo‘llay bilish, tabiatga nisbatan tizimli va kompleks yondoshuv ko‘nikmalariga ega bo‘lish ta’minlanadi.

Maktab o‘qituvchilarining ekologik savodxonligini rivojlantirishning mazmuni bir qator muhim elementlardan iborat. Jumladan:

Ekologik bilimlar – o‘qituvchilar ekologiyaning asosiy qonuniyatlari, tabiat resurslarining holati, ekologik muammolar va ularning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari haqida chuqur bilimlarga ega bo‘lishlari kerak. Bu bilimlar o‘qituvchilarning ekologik jarayonlarni to‘g‘ri anglashlariga va shu asosda o‘quvchilarga ekologik ma’lumotlar berishlariga yordam beradi.

Ekologik ko‘nikmalar – o‘qituvchilar faqat nazariy bilimlarga ega bo‘lib qolmasdan, ekologik masalalarni hal qilishda amaliy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishi lozim. Bu ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali o‘qituvchilar ekologik ta’limni samarali tarzda o‘tkazish, amaliy ishlarni tashkil etish va ekologik loyihalarni amalga oshirishda muvaffaqiyatga erishadilar.

Ekologik qaror qabul qilish va mas’uliyat – o‘qituvchilar o‘z faoliyatida ekologik masalalarga e’tibor qaratishlari, ekologik jihatdan to‘g‘ri qarorlar qabul qilishlari va o‘quvchilarni ham ekologik mas’uliyatga chaqirishlari zarur. Bu orqali ekologik ongni shakllantirish va jamiyatda ekologik madaniyatni rivojlantirishga hissa qo‘shish mumkin.

Ekologik muammolarga ijtimoiy yondashuv – Ekologik savodxonlik nafaqat atrof-muhit muammolarini tushunishga, balki ularni ijtimoiy va iqtisodiy nuqtai nazardan ham ko‘rishga yordam beradi. O‘qituvchilar o‘z faoliyatida ekologik barqarorlik va jamiyatning ekologik ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga harakat qilishlari kerak.

Ta’lim berish jarayonida “Nimani o‘qitish?”, “Qanday o‘qitish?”, “Nima uchun o‘qitish?” kerak degan savollarga javob topishimiz zarur. Oxirgi paytlarda ta’limning eng mashhur shiorlaridan biri aynan shu ekanligi bejis emas: “O‘quvchi – bu to‘ldirish kerak bo‘lgan idish emas ...”. Biz idishlarni to‘ldirmaymiz va o‘quvchilar passiv bilim oluvchilar emas, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchilaridir.

Darhaqiqat, biz biror narsani qanday qilib o‘rgatish va tushuntirib berish ustida o‘ylasak, hoynahoy, shaxsiy kashfiyotlar bilan bog‘liq muloqot tajribasi, unutilmas voqea, ruhiy kechinmalarni eslasak kerak.

O‘quvchi nima o‘rganayotganlarini va nimani o‘rganganlarini mulohaza qilib, yangi o‘rganilgan bilimlarni eski tajribalar bilan bog‘lashlari hamda o‘rganganlarini kundalik hayotda qo‘llashlari lozim.

Maktab o‘qituvchilarining ekologik savodxonligini rivojlantirish uchun quyidagi tamoyillarni qo‘llash maqsadga muvofiq.

Integratsiya tamoyili – Ekologik ta’limning barcha fanlarga integratsiya qilinishi o‘qituvchilarning ekologik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Ekologiya va atrof-muhitni asrashni faqat maxsus ekologiya darslarida emas, balki barcha darslarda ham o‘rgatish kerak.

Amaliy yondashuv tamoyili – Ekologik savodxonlikni rivojlantirishda nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko‘nikmalarni ham oshirish zarur. Bu tamoyil asosida

o‘qituvchilar ekologik loyihalar, amaliy mashg‘ulotlar va fieldwork (maydon ishlarini) tashkil etish orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin.

Davomiylik tamoyili – Ekologik ta’lim uzluksiz bo‘lishi kerak. O‘qituvchilar ekologik savodxonlikni doimiy ravishda yangilab, ekologik yangiliklar va texnologiyalar bilan tanishib borishlari lozim.

Shaxsiy mas’uliyat tamoyili – O‘qituvchilar o‘z shaxsiy mas’uliyatlarini his qilishlari va ekologik muammolarga qarshi kurashishda faol ishtirok etishlari kerak. Shaxsiy mas’uliyat ekologik ta’limni yanada samarali qilishga imkon yaratadi.

Tashabbuskorlik tamoyili – O‘qituvchilar faqat ta’lim beruvchilar emas, balki ekologik ta’limning faol targ‘ibotchilari bo‘lishi kerak. Ular o‘quvchilarni ekologik muammolarni hal qilishda ishtirok etishga rag‘batlantirishlari zarur.

Ta’limning barcha sohalarida ta’lim olishdan mahsuldorlikka o‘tish asosida amalga oshiriladiki, u faqat bilishga emas, borliqni o‘zgartirishga ijodkorlikka, ekologik savodxonlikni shakllantirish, didaktik o‘yinlar, ijod qilish hamda tadqiqotchilikka o‘rgatuvchi alohida mustaqil ravishda tashkil etiladigan ijodiy ishlarda namoyon bo‘ladi.

Ekologik ta’lim-tarbiya berish jarayoni maktab o‘qituvchilarda o‘z fanini chuqur egallagan bo‘lish, uni o‘qitishning mohir ustasi, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni mukammal egallagan bo‘lishini talab etadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga beriladigan ekologik ta’lim mazmuni va hajmini aniqlayotganda ma’lum didaktik tamoyillarga amal qilishni bilishi lozim. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya jarayonida quyidagi ekologik savodxonlik tamoyillariga amal qilinishi maqsadga muvofiq:

– ekologik mazmundagi ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim mazmuni hamda o‘quvchilarning boshqa fanlardan olgan bilim darajasi bilan hamohang bo‘lishi, uni rivojlantirish;

– o‘quvchilar vaqtini haddan ortiq band qilib qo‘ymasligi, ularning boshqa o‘quv fanlarini o‘zlashtirishlariga salbiy ta’sir etmasligini anglash;

– tabiat-inson-jamiyat munosabatlarini uyg‘unlashtirish zaruratini tushuntirish;

– ekologik muammolar va ularning yechimini topishda yoshlarning o‘rnini aniqlashtirish;

– bevosita mahalliy o‘lkashunoslik materiallari bilan bog‘liq bo‘lishini tushuntirish;

– organizmlar va ularning atrof-muhiti o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berish;

– ekologik savodxonlik barcha fanlar, jumladan biologiya, geografiya, fizika, kimiyo, tarix, iqtisodiy bilim asoslari kabi turdosh fanlar o‘rtasida tutgan o‘rnini aniqlashtirish;

– O‘zbekistonning ekologik siyosati va unga monand ravishda qonunchilikni takomillashtira borish kerakligi tushuntirish;

– ekotizimlar va ularni tasniflanishi hamda ularga ta’sir etuvchi omillar haqida zamonaviy dunyoqarashlarni umumlashtirish;

– ekologik muammolar, ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishning ekologik jihatlarini yoritish;

– tabiat qonuniyatlari va qonunlarining mazmunini ochib berish;

– ekologiya metodologiyasi va zamonaviy tadqiqot metodlari bilan tanishtirish;

– davlatning ekologik boshqaruv, nazorat, ekspertiza, monitoring, audit va sug‘urtalash tizimlarini bilishga oid ijtimoiy loyihalarni berish;

– ekologik baholash, xavf, bashoratlash yo‘llarini tushuntirish;

– atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat majmualarini qayta tiklash bo‘yicha tizimli va majmuali yondoshuv qoidalarini tushuntirish;

– ekologik ta’lim-tarbiya uzluksizligi va uzviyligini ochib berish;

– o‘quvchilar dars jarayonida olgan nazariy ekologik bilimlarini amalda sinab ko‘rishlari, bajarish ko‘nikma va malakalarini egallashi, ko‘rilayotgan muammo bo‘yicha o‘z xulosalarini chiqarishga undash;

– umumbashariy fundamental va milliy ekologik qadriyatlar haqida tushuncha berish va h.k.

Xulosa qilib aytish mumkinki, maktab o‘qituvchilarining ekologik savodxonligini rivojlantirish bugungi kunda ta’lim tizimining dolzarb masalalaridan biridir. Ekologik bilimlar va ko‘nikmalarni o‘qituvchilarda shakllantirish, ularning ekologik mas’uliyatini oshirish, ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan metodologiyalarni ishlab chiqish muhimdir. Bu, o‘z navbatida, yosh avlodni ekologik ongli va mas’uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. O‘qituvchilarning ekologik savodxonligini rivojlantirish uchun pedagogik va amaliy yondashuvlar, shuningdek, ekologik mas’uliyatni oshirishda integratsiya, davomiylik va shaxsiy mas’uliyat tamoyillariga asoslangan dasturlarni yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliqulova M.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish. “Fan”, 2010.- 120 b.
2. Ziyomuhamedov B.G. Ekologiya: tarix, nazariya va hozirgi zamon. –T.: Fan, 1990. -57 b.
3. Ismatov I.Sh. – O‘quvchilarda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish: Anorganik kimyo misolida. Toshkent 2006.
4. Mamashokirov S. Ekologik ta’lim-tarbiyaning metodologik masalalari. - Toshkent: “Nur”, 1993. - 142 b.
5. Nishonboyeva M. G. Biologiya darslarida ekologik tarbiya. –T.: O‘qituvchi, 1992. - 104 b.

MAKTABGACHA TA’LIM JARAYONIDA INTEGRATSION YONDASHUVDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Xurvalieva Tarmiza Latipovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti professoru, pedagogika fanlari doktori
Kamolova Ulbo‘lsin Yusuf qizi,
Yusupova Hilola Oybek qizi,
Sodiqova Dilobod Iqboljon qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari

Аннотация. *В статье раскрыта сущность интегративного подхода в обучении и воспитании детей дошкольного возраста. Проанализированы основные особенности интегрированных занятий. Определены дидактические возможности интегрированных занятий. Представлено содержание организации интегрированных занятий в дошкольных образовательных учреждениях.*

Ключевые слова: *интеграция, навык, бинарный подход, окружающий мир, объект, сюжетно-ролевые игры, драматизация, педагогическое мастерство, синтез, дидактика, метод, атрибут, мотив, координация, деятельность.*

Annotation*. The article reveals the essence of the integrative approach in the education and upbringing of preschool children. The main characteristics of integrated lessons are analyzed. The didactic potential of integrated activities is identified. The content of organizing integrated lessons in preschool educational institutions is presented.*

Keywords: *integration, skill, binary approach, surrounding world, object, role-playing games, dramatization, pedagogical mastery, synthesis, didactics, method, attribute, motive, coordination, activity.*

Jamiyat talablarini qondirish hamda bilimli, malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashni maktabgacha ta'lim tizimidan boshlash muhim omildir. O'quv faoliyati qaerda tashkil etilmasin, uning ishtirokchilari ma'lum maqsadga yo'naltirilgan reja asosida ish olib borishi talab etiladi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda maktabgacha ta'limda integratsiyaning zaruriyati taqozo etiladi. Chunki jamiyatimizga yuqori darajada bilim va malakaga ega bo'lgan puxta tayyorgarlik ko'rgan mutaxassislar juda zarur hisoblanadi. Mazkur ehtiyojni qondirish maktabgacha ta'limdan boshlash dolzarb hisoblanib, boshlang'ich ta'lim mazmuni bilan uzviy bog'lanishini talab etadi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim-tarbiya mazmuni bolalar sog'ligini saqlash va mustahkamlashga, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirish hamda ta'lim jarayonini bolaning asosiy faoliyati bo'lgan o'yin asosida tashkil etishga qaratilishi kerak. Mazkur jarayon integratsion yondashuv asosida bajariladi.

Integratsion yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishda boshqariluvchi ob'ektga bir necha yondashuvlar (vaziyatli, tizimli, innovatsion)ni birgalikda qo'llashdir. Integratsiya pedagogning ijod qilishiga, o'zini namoyon qilishi, qobiliyatini ko'rsatishga imkoniyat beradi. Integratsion mashg'ulotlar an'anaviy mashg'ulotdan tubdan farq qiladi. An'anaviy mashg'ulotda faqat mavzu doirasida bir yo'nalishda bilim beriladi. Integratsion mashg'ulotlarda o'quv materiali uyg'unlashgan, mujassamlashgan va egiluvchanlikdan iborat bo'ladi. U jarayonni tashkil etishda turlicha usullar bilan alohida qismlarni bayon etishni talab qiladi.

Integratsion mashg'ulotning asosiy xususiyati sintez qilish bilan bog'liq bo'lib, qator didaktik imkoniyatlarga egadir:

- o'rgatiladigan o'quv materiali mazmuni, o'qitishning nazariy va amaliy bog'liqligi tamoyilidan foydalanishning ustuvorligi;
- mashg'ulotlar o'rtasidagi o'zaro davriy bog'lanishga tayanish;
- binar yondashuv, ya'ni ikki yoki undan ko'proq pedagoglar faoliyati (yordamchi tarbiyachi, musiqa rahbari) ni tashkil etishga yo'nalganligi [1].

Maktabgacha ta'lim jarayonida klasterli integratsion yondashuvga ehtiyojning mavjudligi bir qator sabablar bilan tavsiflanadi:

1. Bolalar atrof olam va ularni o'rab turgan muhitni turlicha o'ziga xoslik va yaxlitlikda tasavvur qiladilar. Davlat o'quv dasturi ushbu yaxlitlikni alohida hodisalar asosida o'rganishga yo'naltirilgan. Hodisalar haqidagi tasavvurlar umumiy berilmaydi, aksincha bo'lim va qismlarga ajratiladi.

2. Integratsion mashg'ulotlar tarbiyalanuvchilar potensialini (ichki imkoniyat) rivojlantiradi, atrof olamni faol ravishda anglashga da'vat etadi, sababiy oqibatlarni fikrlash va tushunishga yordam beradi, mantiq, tafakkur va kommunikativ qobiliyatni rivojlantiradi.

3. Integratsion mashg‘ulot bolalar uchun qiziqarli va noan’anaviy ravishda o‘tkaziladi. Mashg‘ulot davomida turli ish turlaridan foydalanish tarbiyalanuvchilarning diqqatini jamlaydi, ularni ruhan qo‘llab-quvvatlaydi. Natijada mashg‘ulotning samaradorligiga erishiladi.

4. Integratsion mashg‘ulot pedagogik imkoniyatlarni namoyon etadi, turli faoliyatlarda tarbiyalanuvchilarda uchraydigan charchoq, zerikish va zo‘riqishlarni bartaraf qiladi, bilishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, xayol, diqqat, tafakkur, nutq va xotirani rivojlantiradi.

5. Mashg‘ulotlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik vaqtdan unumli foydalanishga imkon yaratadi, ya’ni xorijiy til, tasviriy san’at, musiqani o‘zlashtiradilar, tarbiyalanuvchilarni rivojlantiruvchi faoliyati shuningdek, amaliy yo‘naltirilgan qo‘shimcha mashg‘ulotlar(oilada, mahallada, obektlarda, to‘garaklarda)ni ham o‘tishga sharoit tug‘iladi.

6. Integratsiya jarayonida o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etuvchilardan iqtidorni namoyon etish, pedagogik mahoratni tatbiq etish, ijodkorlikni talab etadi.

Klasterli integratsiya yondashuvining etakchi tamoyili ta’lim mazmunining tizimli saralanishi bo‘lib, bunda har bir bo‘g‘in uchun mos vazifalar belgilab olinadi. Integratsion mashg‘ulotlarda faoliyat turlari, o‘quv materiallarining o‘zaro bir-biriga uyg‘unlashuvi ta’minlanadi. Masalan, “kayfiyat” tushunchasidan turli markazlarda tashkil etiluvchi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat davomida foydalanishga to‘g‘ri kelganda, uning ma’nosi musiqa asarlari, badiiy adabiyot, rassomlik namunalari orqali tushuntiriladi. Bu orqali turli sohalarga oid va mavhum tushunchalar, terminlar mazmunan uyg‘unlashadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkur xususiyatlarini inobatga olgan holda mashg‘ulotlarda xilma-xil ko‘rgazmali qurol va atributlardan foydalanish zarur (rasmlar ko‘rgazmasi, narsa va buyumlar, mahsulotlar, kastyumlar, qo‘g‘irchoq va tarqatma materiallar). Ularni shunday taqsimlash kerakki, bunda bolalar erkin ravishda ulardan foydalanishi va tomosha qilishlarini nazarda tutish kerak. Integratsion mashg‘ulotlarni ikki nafar pedagog o‘tkazishini inobatga olish maqsadga muvofiqdir, uni rejalashtirish va o‘tkazishda, tarbiyachi va yordamchi tarbiyachi faoliyati uyg‘unlashadi.

Integratsion mashg‘ulotlarning pedagogik imkoniyatlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilarni tashkil etadi:

- bolalarda bilim va ko‘nikmalarni yaxlitlikda shakllantirish;
- bolalarda kommunikativ ko‘nikma va malakani rivojlantirish;
- bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish;
- bolalardagi psixologik zo‘riqish, qo‘rquv va ishonchsizlikni bartaraf etish [4: 12 b]

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, integratsion mashg‘ulotlarni tayyorlash va o‘tkazish metodikasi bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni beramiz:

- bolalarda o‘rganilayotgan ob’ekt haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyati va davlat talablari mazmunini inobatga olish;
- ta’lim mazmunini integratsiyalash uchun bir qancha bazaviy yo‘nalishlarni aniqlab olish;
- integratsion mashg‘ulot tuzilishi tizimini asosiy tamoyillarini aniqlash (masalan, mavzular) va vazifalarni taqsimlash hamda mashg‘ulot mazmuni materiallari ularga mos kelishini hisobga olish;

- bir-biri bilan bog‘lanadigan turli xil faoliyat turlaridan foydalanish, (masalan, ertaklarni sahnalashtirishda qurish yasash o‘yinlari, musiqaviy bezak berish va bolalar nutqini rivojlantirish, gapni to‘g‘ri gapirish);

- tarbiyalanuvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, turli xil ko‘rgazmali qurol va atributlardan keng foydalanish (namoyish qilish, tarqatma material, didaktik o‘yinlar);

- bolalar bilan ishlashda ijodiy xarakterdagi usul va vositalardan foydalanish (muammoli vaziyat, mantiqiy topshiriqlar, tajriba o‘tkazish, andozasini yaratish);

- mashg‘ulotni tashkil etish va o‘tkazishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni inobatga olish.

Klasterli integratsiyada mashg‘ulot shakli xar xil bo‘lishi mumkin, biroq bolaning faoliyati uchun uning tabiiy imkoniyatlariga mos o‘quv materiallarini tanlash lozim. Integratsion mashg‘ulot tarbiyachidan puxta tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi, pedagogik mahorat va bolalar bilan ma’naviy-ruhiy yaqinlik, shaxsiy munosabat o‘rnatishi kerak. Agarda bolalar tarbiyachini ijobiy qabul qilsa, hurmat qiladi, yaxshi ko‘radi va ishonadi. Integratsion mashg‘ulot bolalarning umumiy tasavvurlari, hissiyotlari, taasurotlarini birlashtiradi, jamoaviy o‘zaro munosabatlarning shakllanishiga yordam beradi. Har bir mashg‘ulot davrida tarbiyachilar bolalarning ijodiy faoliyatini amalga oshirishlariga, jamoaviy sahnalashtirilgan o‘yinlar, qo‘g‘irchoq teatri va badiiy-musiqaviy kompozitsiyalar yaratishlariga harakat qilishlari lozim. Biroq shuni inobatga olish zarurki, har qanday integratsiya ta’lim jarayonida o‘quv dasturi mazmunini to‘liq qamrab olmasligi mumkin, lekin bolalardagi bilimlarni birlashtirib, uyg‘unlashtiradi. Demak,bolalar yangi bilim va tushunchalarni egallashlari mumkin, ulardagi mavjud bilim va tasavvurlar tizimli ravishda boyitiladi va kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berdalieva G. Maktabgacha ta’lim muassasalari mashg‘ulotlari jarayonini integratsiyalash//Xalq ta’limi tizmida pedagog xodimlar kompetensiyasini takomillashtirish: muammolar va ularning echimlari.Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand, 2018.– B.81-84.
2. Берулава М.Н. Интегратсия содержания образования.-М.: Педагогика, 1993.-172 с.
3. Васюкова Н.Е, Чехонина О.И. “Интегратсия содержания образования через планирование педагогической деятелности” Детский сад. 2004 № 6 - С.8-13.
4. Гогоберидзе А.Г., Солнсевой О.В. Дошколная педагогика с основами методик воспитания и обучения. Учебник для вузов.2-е изд. СПб.: Питер, 2016.-464 с.

“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH, UNING ASOSI BO‘LGAN QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYADAN FOYDALANISH KO‘RSATKICHLARINI KESKIN OSHIRISH MASALALARI (NAVOIY VILOYATI KESIMIDA)

Djurayeva Perdegul Saidovna,
Navoiy viloyat pedagogik mahorat markazi dotsenti

Annotatsiya. *Xalqimizning erkin va farovon, qudratli yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, qulay ekologik sharoitlarni*

yaratish, Navoiy viloyatidagi mavjud yuvish shahobchalarida ekologik nazoratni kuchaytirish.

Kalit so'zlar: *erkin va farovon, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik monitoring, ko'chatchilik, kuchli iqtisodiyot.*

Abstract. *To realize the desire of our people to build a free and prosperous, powerful new Uzbekistan, to create favorable environmental conditions, to strengthen environmental control in the existing washing stations in the Navoi region.*

Keywords: *free and prosperous, ecology and environment protection, ecological monitoring, plantation, strong economy.*

Абстрактный: *реализовать стремление нашего народа построить свободный и процветающий, мощный новый Узбекистан, создать благоприятную экологическую обстановку, усилить экологический контроль на действующих моечных станциях в Навоийской области.*

Ключевые слова: *свободный и процветающий, экология и защита окружающей среды, экологический мониторинг, плантации, сильная экономика.*

Kirish

2023-yil 11-sentyabr, PF-158-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida Farmoni xalqimizning erkin va farovon, qudratli yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida: 1-ilovasida aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish; 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlarida II. Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'nalishida 51-maqsad "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish haqida qayd etilgan.

Izlanish materiallari va metodologiyasi.

Farmonni ijrosini ta'minlashda Navoiyda OAV vakillari ham "yashil makon" umummilliy loyihasiga o'z hissasini qo'shmoqdalar: BAAning "Masdar" kompaniyasi viloyatida 500 megavatt quvvatga ega shamol elektr stansiyasini qurishi haqida xabar berildi. Bu "Masdar"ning viloyatdagi ikkinchi loyihasi bo'lib, o'tgan yili Karmanada quyosh fotoelektr stansiyasini ishga tushirgandi. Hozirda mazkur kompaniya tomonidan Tomdi tumanida shamol elektr stansiyasini qurish ishlari olib borilmoqda, ushbu yirik loyihaning umumiy qiymati $600 mln.ni tashkil etib, 100% xorijiy insevtitsiya hisobiga amalga oshiriladi. 2024-yil yakuniga qadar ishga tushirilishi rejalashtirilgan mazkur elektr stansiya orqali yiliga 1 mlrd 800 mln kvt.soat elektr energiya ishlab chiqariladi. Buning natijasida yiliga 540 mln kub metr tabiiy gaz tejalishiga erishiladi hamda atmosferaga 720 ming tonna zararli gazlar chiqishining oldi olinadi. Elektr stansiyasi qurilishi davomida 800 nafargacha va ishga tushirilgandan so'ng 30 nafar yangi ish o'rni yaratiladi.

III. Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish 61-maqsadiga muvofiq Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo'yicha inspeksiya yo'nalishida so'nggi yillarda viloyatimizda Davlat ekologik nazorati doirasida 3950 mingdan ortiq reydlar o'tkazildi, 5510 mingdan ortiq profilaktika tadbirlari olib borilib, unda 3200 nafar fuqarolar ishtirok etishdi. Qonunchilik hujjatlari talablarini buzgan 1888 nafar shaxslar aniqlanib, 1mlrd 435582 ming. so'm ma'muriy

jarima hamda 639 mln 621 ming.200 so‘m tabiatga yetkazilgan zarar hisoblandi. 81 ta holat bo‘yicha jarima va tabiatga yetkazilgan zararlarni undirish yuzasidan materiallar huquqni muhofaza qilish organlariga kiritildi. 30 m3 saksovullarni noqonuniy kesgan 40 nafar huquqbuzarlarga 62 mln. 850 ming so‘m jarima va 46 mln 650 ming so‘m zararlar belgilandi. Daraxt va butalarni noqonuniy kesgan 233 ta shaxslarga 444 mln 150 ming. so‘m ma’muriy jarima va 419 mln 014 ming. So‘m zarar belgilandi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga oid qonunlar ijrosini ta’minlanishi yuzasidan “Xavfni tahlil qilish Nizomi”ga asosan tahlil o‘tkazish natijalari bo‘yicha, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish qonunlarini buzilish holatlari yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq, zaruratga qarab vakolatli organ bilan kelishuv asosida jami 104 ta tekshirishlar amalga oshirilgan.

Izlanish natijalari.

“Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg‘unligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-may PQ-246-son Qarori mazmuni 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini jadal amalga oshirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi ko‘rsatkichlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan islohotlarni amalga oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishga mamlakat ilmiy salohiyatini keng jalb etish va loyihaviy boshqaruvning xalqaro standartlaridan foydalanish, davlat xizmatchilarining sohadagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida: ustuvor xalqaro reyting va indekslarning tarkibiy indikatorlari doirasida muntazam past baholanib kelinayotgan soha va tarmoqlarni jadal rivojlantirish bo‘yicha o‘rta va uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish rejasida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va Inson kamoloti indeksida mamlakatimiz o‘rnini yaxshilash strategiyasi yo‘nalishida barqaror va ishonchli energiya ta’minoti manbalarini kengaytirish, quruqlikdagi ekotizimlarini asrash haqida qayd etilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida turizm va madaniyat maskanlari imkoniyatini to‘liq ishga solish va “yashil makon” kuzgi mavsumini tashkil etish bo‘yicha yig‘ilishda ikkinchi masala sifatida “yashil makon” umummilliy loyihasining amalga oshirilishi ko‘rib chiqildi. Ushbu loyiha boshlanganidan o‘tgan 2 yilda uy-joy massivlarida 1 ming 200 gektardan ortiq yashil bog‘ va jamoat parklari, 1 million gektardan ziyod yashil hudud va qoplamalar barpo etilganligini, 25 oktyabrdan 1 dekabrgacha, “kuzgi daraxt ekish mavsumi” e’lon qilinishini, uning doirasida 85 million tup ko‘chat ekish rejalashtirilganligini, bunda barcha darajadagi rahbarlar, vazirlar, hokimlar, mahalla faollari, jamoat arboblari, nuroniylar, san’atkor va sportchilar, mashhur blogerlar o‘rnak ko‘rsatishlari muhimligi ta’kidlandi. Buning uchun respublika shtabi tashkil qilinadi. Fanlar akademiyasi, tuproqshunoslik, o‘rmonchilik institutlari, o‘rmon xo‘jaliklari rahbarlari ham shtabga a’zo bo‘ladi. Shtab tuproq tahlili, iqlim sharoiti asosida qayerga, qachon, qaysi ko‘chat turini qancha ekishni belgilab beradi. Mutasaddilarga barcha tuman va mahallalarda bir oy davomida ko‘chat yarmarkalarini tashkil qilish va kuz mavsumida 30 million tup ko‘chat yetkazib berish topshirildi. Tayyorgarlik ishlari, ko‘chat tarqatish, ekish jarayonlarini tumanma-tuman televideniye va radio orqali yoritib borish muhimligi qayd etildi. Davlatimiz rahbari kuzgi mavsumida o‘tgan yillardagi xatolarni takrorlamaslik shart ekaniga e’tibor qaratdi. Jumladan, ko‘chat ekishda

manfaatdorlikni oshirish lozim. Bu boradagi vaziyatni o‘zgartirish uchun endilikda avtomobil, temir yo‘l, daryo, kanallar yoqalari aholi va tadbirkorlarga shartnoma bilan yer toifasi o‘zgartirmasdan bo‘lib berilishi belgilandi. Yig‘ilishda aholining daraxt ekishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va rag‘batlantirish ishlarini yanada kuchaytirish zarurligi qayd etildi.

Munozaralar.

Atmosfera havosini muhofaza qilish yo‘nalishida: Joriy yilning 9 oyi davomida atrof-muhit ifloslanishini monitoring dasturi bo‘yicha va monitoring dasturidan tashqari 151 ta korxonaning 945 ta ifloslantiruvchi manbalaridan namunalar olinib, 4 986ta kimyoviy tahlil ishlari olib borildi. Atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalarda davlat ekologik monitoringi amalga oshirilishini tashkil etish to‘g‘risidagi buyrug‘iga asosan 46 ta manbalaridan namunalar olinib, kimyoviy tahlil ishlari olib borildi. Shuningdek jami 151 ta tekshirilgan korxonalarning 95 ta manbasida shundan me’yoridan ortiq holatlar aniqlandi. Bunda: atrof-muhit ifloslanishini monitoring dasturi bo‘yicha tekshirilgan 46 ta korxonalarning 70 ta manbasidan,shundan me’yoridan yuqori holatlar aniqlandi. Monitoring dasturidan tashqari tekshirilgan 107 ta korxonaning 25 ta manbasida me’yoridan ortiq holatlar aniqlandi. Shundan (atmosfera havosini muhofaza qilish bo‘yicha 12 ta manbasida) me’yoridan ortiq holatlar aniqlandi. 2022-yil va 2023- yillar mobaynida navoiy viloyatida 19 ta korxonaning 21 ta chgtu yangi o‘rnatish va 18 ta chgtu modernizatsiya qilish ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan bo‘lib, 2022-2023 yillar mobaynida 19 ta korxonada 31 ta chgtu yangi o‘rnatildi va 11 ta chgtu modernizatsiya qilindi.

Suv, yer resurslari va yer osti boyliklarini muhofaza qilish yo‘nalishida: 7 ta korxonada lokal tozalash inshootlarini yangidan qurish va qayta qurish ishlari amalga oshirilishi bo‘yicha korxona rahbarlari bilan chora-tadbirlar kelishildi hamda 2023 yilning oxirigacha qurilish ishlari yakuniga yetkazilishi rejalashtirildi. Viloyatdagi mavjud hamda ish faoliyatidagi 116 ta avtomobil yuvish shahobchalarida ekologik qonun talablariga rioya etilishi qat’iy nazoratga olingan.

Navoiy viloyatidagi mavjud 116 ta avtomobillarni yuvish shahobchalarida ekologik nazoratni kuchaytirish, atrof-muhit ifloslanishini oldini olish yuzasidan monitoring ishlari o‘tkazilib kelinmoqda. Daryo-soy o‘zani tozalash jarayonida qum-shag‘al materiallarini qazib olish bo‘yicha nazorat ishlari olib borildi. Olib borilgan nazorat ishlari bo‘yicha viloyatdagi mavjud 16 ta (2022 yilda 11 ta) uchastkada ish faoliyatini olib boruvchi tadbirkorlik subyektlariga tegishli ko‘rsatmalar berildi. Ushbu tadbirkorlik subyektlari tomonidan daryo va soylarda qirg‘oq yuvilishiga hamda yaqin hududlarni suv bosishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan va suv oqimlariga to‘sqinlik qilayotgan o‘zanda yig‘ilib qum-shag‘al materiallaridan tozalanib kelinmoqda. Doimiy ravishda joylarga chiqqan holda daryo o‘zanlarini tozalash ishlari olib borilayotgan uchastkalardagi holatini o‘rganish maqsadida xavfsiz daryo boshqarmasi navoiy viloyati bo‘linmasi, favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, tog‘-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi shimoliy-g‘arbiy mintaqaviy boshqarmasi xodimlari bilan hamkorlikda ishlar tashkil etilib kelinmoqda.

Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish yo‘nalishida: Joriy yilning 9 oyi davomida aholidan jami 254 178 ming tonna maishiy chiqindilar hosil bo‘lgan bo‘lsa, shundan 56858,6 tonnasi qayta ishlanib, qayta ishlash darajasi 34,1 foizni tashkil qilmoqda. 2023-yilda Navoiy viloyati hududida joylashgan xalq ta’limi massalarida 184 dona hamda maktabgacha ta’lim muassasalariga 114 dona jami 298 dona chiqindi konteynerlari o‘rnatilishi bo‘yicha ogohlantirish xatlari tarqatilib, joriy

yilning 9 oyi davomida viloyat hududidagi mtm larda 54 dona, maktablarda 118 dona, jami 172 dona chiqindi konteynerlari o‘rnatildi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-oktyabridagi “maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirilish sohasidagi ishlar samaradorligini yana-da oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 787-son qarori ijrosini ta’minlash bo‘yicha Navoiy viloyati hududida 2023-yil 9 oyligi holatiga yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan 3415 dona chiqindi qutilari o‘rnatildi. Viloyatdagi mavjud 84 ta chiqindi yig‘ish shaxobchalaridan, 36 ta maishiy chiqindi yig‘ish shoxobchalari uchun ajratilgan yer uchastkalari va unga tegishli bino va inshootlar tegishli tartibda davlat kadastri ro‘yxatidan o‘tkazilib, kadastr yig‘ma jildlari shakllantirildi hamda 48 ta maishiy chiqindi yig‘ish shoxobchalarining kadastr hujjatlari belgilangan tartibda davlat xizmatlari markaziga taqdim etildi. Bundan tashqari, Uchquduq, Karmana, Nurota, Navbahor, Xatirchi tumanlarida joylashgan maishiy chiqindi poligonlarida ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi tashabbusi hamda sanitar tozalash korxonalari tomonidan ko‘mish ishlari amalga oshirildi. Qolgan shahar va tumanlarda joylashgan maishiy chiqindi poligonlarida ham chiqindilarni kunlik ko‘mish ishlari doimiy yo‘lga qo‘yilgan.

O‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish yo‘nalishida: Joriy yil bahor mavsumida viloyat hududida 8 mln 841 ming dona ko‘chatlar ekish rejalashtirilgan bo‘lib, amalda 8 mln 737 ming dona nisbatan 99 foiz ko‘chatlar ekilishi tashkil etilib, parvarish qilish uchun mas’ullarga biriktirildi. Ko‘chatlar narxining asossiz oshib ketmasligi uchun joylarda 11 (11) dan ortiq ko‘chat yarmarkalari va savdo nuqtalari tashkil etildi. Viloyatimiz iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, suvsizlikka va kasalliklarga chidamli ekiladigan ko‘chatlarning (gujum, qayrag‘och, katalpa, akatsiya, zarang, shumtol, tut, jiyda, yong‘oq, yapon saforasi, terak) mos turlari belgilab olindi. Navoiy viloyatida ko‘chatchilik bilan shug‘ullanuvchi 11 ta subyektlar tomonidan jami 166,2 gektar yer maydonida 4,2 mln donadan ortiq manzarali, mevali, buta va gul ko‘chatlari yetishtirildi.

Atrof-muhit monitoringi, iqlim o‘zgarishi va cho‘llanishga qarshi kurashish yo‘nalishida: 2023-yil 9 oyi davomida atrof-muhit ifloslanishini monitoring dasturi bo‘yicha va monitoring dasturidan tashqari 151 ta korxonaning 945 ta ifloslantiruvchi manbalaridan namunalar olinib, 4 986 ta kimyoviy tahlil ishlari olib borildi. Atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalarda davlat ekologik monitoringi amalga oshirilishini tashkil etish to‘g‘risidagi buyrug‘iga asosan 46 ta korxonaning 329 ta manbalaridan namunalar olinib, kimyoviy tahlil ishlari olib borildi. 9 oy davomida monitoring dasturidan tashqaritekshirilgan 107 ta korxonaning 616 ta manbalaridan shundan ifloslantiruvchi manbalaridan namunalar olinib, kimyoviy tahlil ishlari olib borildi. Monitoring dasturidan tashqari tekshirilgan 107 ta korxonaning 25 ta manbasida me’yoridan ortiq holatlar aniqlandi. Shundan me’yoridan ortiq holatlar aniqlandi. Aniqlangan me’yoridan ortiq holatlar bo‘yicha atmosfera havosini muhofaza qilish bo‘yicha, suv bo‘yicha, tuproq bo‘yicha, qo‘shimcha kompensatsiya to‘lovlari undirildi.

Xulosalash.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 19-sentabr kuni Nyu-York shahridagi BMT bosh qarorgohida Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida nutq so‘zladi. O‘z nutqida mamlakatimiz global tahdidlarga qaramasdan, barqaror o‘sish sur’atlarini namoyon etayotganini ta’kidlab, so‘nggi olti yilda yalpi ichki mahsulot hajmi bir yarim martadan ortiq ko‘payganini qayd etdi. Bosh maqsadi – 2030-yilga

qadar bu ko‘rsatkichni yana 2 barobarga oshirishdir deya ta’kidladi. Iqtisodiyotimizni liberallashtirish yo‘lidagi yana bir ustuvor vazifa – yaqin orada jahon savdo tashkilotiga to‘laqonli a’zo bo‘lishga harakat qilinayotganini, hozirgi vaqtda dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilib, sayyoramiz miqyosida uchta inqiroz, ya’ni iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchayib borayotganini qayd etib, Prezidentimiz Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanayotganini ko‘rsatib o‘tdi.

O‘zbekiston tomonidan Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish yo‘lida ko‘rilayotgan choralar, mintaqamizdagi iqlim o‘zgarishining salbiy ta’siri va suv bilan ta’minlanganlik darajasining kamayish tendensiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirildi. Bu vaziyatdan kelib chiqqan holda, BMT bosh kotibining suv resurslari bo‘yicha maxsus vakili lavozimi ta’sis etilishi, Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platformasi yaratilishi va mintaqamizda qabul qilingan yashil taraqqiyot dasturi doirasida tizimli hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi qo‘llab-quvvatlandi. Bu borada “Markaziy Osiyo iqlim muloqoti”ni joriy etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblashini, Biz bosh assambleyaning “Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo‘lida hamjihatlik” rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusini ilgari surdi. Uning asosiy mazmunini kelgusi yil Samarqandda bo‘lib o‘tadigan Xalqaro iqlim forumida muhokama qilishni taklif etdi. O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini iqlim o‘zgarishlariga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va “yashil” energetika ulushini keskin oshirish strategik vazifa bo‘lib qolishi ta’kidlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida Farmoni. 2023-yil 11-sentyabr, PF-158-son
2. “Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg‘unligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-may PQ-246-son.
3. Navoiy viloyati Axborot xizmati.

MAKTABGACHA TA’LIMDA LOYIHA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Xurvalieva Tarmiza Latipovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti professoru, pedagogika fanlari doktori

Аннотация. *В статье проанализированы возможности использования проектной технологии в процессе дошкольного образования. Приведён образец проекта. Освещены этапы реализatsiи проекта.*
Ключевые слова: *проект, технология, этап, государственные требования, рефлексия, личностно-ориентированный подход, видеоролик, сюжетно-ролевая игра.*

Annotation. *The article analyzes the possibilities of using project-based technology in the process of preschool education. A sample project is provided. The stages of project implementation are described.*

Key words: *project, technology, stage, state requirements, reflection, learner-centered approach, video clip, role-playing game.*

Maktabgacha ta’limda pedagogik jarayonni innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etishga ehtiyoj mavjudligi asoslovchi tajriba-sinovda o‘z tasdig‘ini

topdi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalar bo‘yicha metodik tavsiyalarni keltirishdan avval uning maktabgacha ta’lim jarayonidagi in’ikosiga oid nazariy ma’lumotlarni keltirib o‘tish joiz. Texnologiyalar nafaqat ta’lim mazmunini rivojlantirish, balki maktabgacha ta’lim har tomonlama sifatli bo‘lishini ta’minlashda ham qo‘l keladi.

Loyiha texnologiyasi ta’limiy jarayonni takomillashtiradi, bunda yangi shakllardan foydalaniladi, bolalarda ijodiy tafakkur rivojlanadi.

Ushbu texnologiya bolani atrof-muhitni o‘zlashtirishga undaydi, voqea-hodisa va narsa-buyumlarni kuzatish, tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Natijada, ularda taqqoslash, umumlashtirish va xulosalash ko‘nikmalari shakllanadi, ijodiy tafakkur, mantiqiy fikrlash va dunyoqarash kengayadi. Ta’lim jarayonida quyidagi loyiha turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. **Ijodiy tadqiqot.** Bunda bolalar tajriba o‘tkazadi, natijalarni tasviriy faoliyat (rasm chizish, loy va plastilindan yasash, qurish-yasash) va sahnalashtirish orqali ifodalaydi.
2. **Rolli o‘yin.** Ijodiy o‘yin elementi namoyish etiladi, bolalar turli ertak qahramonlari rolini ijro etishi bilan qo‘yilgan muammoni o‘z qarashi bo‘yicha hal qiladi.
3. **Axborotli va amaliy yo‘naltirilgan.** Bolalar ma’lumotlar to‘playdi va ularni ijtimoiy qiziqishlariga ko‘ra amalga oshiradi. Maydoncha va guruh xonasini bezatadi.
4. **Ijodiy.** Bayram ertaligi va bolalarning ijodiy ishlari ko‘rgazmasi tashkil etiladi. Har chorakda “Ijodiy ishlar festivali” o‘tkaziladi.

Loyiha ustida ishlash bolalarni Davlat talabi (jismoniy rivojlanish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish) sohalari yuzasidan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llashni ta’minlaydi va sezilarli darajada natijaga erishadi. Loyiha texnologiyasi maktabgacha ta’lim jarayonida integratsiyaning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Loyiha mavzusi “Ilk qadam” davlat dasturiga asoslandi. Loyiha texnologiyasi quyidagi bosqichlar asosida bajariladi:

1-bosqich. Maqsadni belgilashga qaratilgan bosqich bo‘lib, tarbiyachi bolaga dolzarb va unga tanish bo‘lgan vazifani tanlashga yordam beradi. Bu bosqichda tarbiyachi loyiha muammosi va maqsadini shakllantiradi. Loyiha uchun o‘quv materiali ajratiladi. Bolalarga o‘yin yoki syujetli vaziyatlarni aytadi, so‘ng topshiriq shakllantiriladi. Bolalarning mazkur bosqichdagi vazifasi loyiha maqsadi va topshirig‘ini tushunish, muammoning mohiyatini anglash hamda o‘yin vaziyatini tanlashdan iborat bo‘ladi. Tarbiyachining harakati bolalarda hayotiy faol qarashlarni shakllantirishga qaratiladi. Bolalar atrofdagi qiziqarli voqea va hodisalarni mustaqil topa olishi lozim.

2-bosqich. Tarbiyachi bolalarga qo‘yilgan topshiriqlarni bajarishga qaratilgan faoliyatni to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi. Bolalar o‘rtasida rollar taqsimlanadi.

3-bosqich. Loyihaning amaliy qismi. Tarbiyachi bolalarga amaliy yordam ko‘rsatadi hamda loyihani amalga oshirishga yo‘naltiradi va nazorat qiladi. Bolalarda rivojlanish sohalari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar shakllanadi.

4-bosqich. Natijalarni baholash. Loyiha faoliyatini ommaviy tarzda namoyish etish. Bolalar shaxsiy ijodiy ishini turli shaklda pedagoglarga taqdimot qiladi. Tarbiyachi bolalar faoliyatini videolavhaga yoki rasmga tushirib oladi va keyin mazkur jarayonlarni slayd-taqdimot orqali ko‘rsatadi. Ijodiy ishlarni baholash va refleksiya jarayoni hamda natijalarni aniqlashga bolalar jalb etiladi. Refleksiya o‘tkazish bajarilgan ishlarni anglash va tushunib yetishga yordam beradi, shaxsiy

sifatlar, ya’ni mas’uliyat, qatiyat, tashabbuskorlik rivojlanadi. Inson iste’mol qiladigan ozuqalar va ularning yaratilishi bo‘yicha suhbat va turli loyihalar o‘tkazish mumkin.

Mazkur buyruq asosida va yuqorida keltirib o‘tganimiz memorandum doirasida davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlari uchun 16-sentyabrdan “Liderlik mahoratini rivojlantirish” bo‘yicha o‘quv kurslari o‘tkazilishi va davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor o‘rinbosarlari 22-avgustdan “Bilag‘on bolajon” va “Quvnoq matematika” nomli mashq daftarlarini amaliyotda qo‘llash bo‘yicha hamda “Kasbiy mahoratni rivojlantirish” o‘quv kurslarini dekabr oyiga qadar o‘tkazish maqsad qilingan. o‘quv kurslari belgilangan studiyalarda “Zoom platformasi” orqali tashkil etiladi.

Ushbu treninglar maktabgacha va maktab ta’limi tizimida ta’lim sifatini yanada oshirish, rahbarlarda liderlik va resurslarni samarali boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, tashkilot madaniyatini shakllantirish, shuningdek, tarbiyalanuvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 17-iyundagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarni yangi dasturlar bilan ishlashga o‘rgatish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kursini tashkil etish to‘g‘risida”gi 200-son buyrug‘i.
2. 2025-yil 20-avgustdagi “Marshall Cavendish Education” Pte.LTD tashkiloti (Singapur) bilan hamkorlikda masofaviy shaklda o‘quv kurslarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 298-son buyrug‘i.

TA’LIMDA TEXNOLOGIK INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING TIZIMLI YONDASHUVLARI VA ILMIY ASOSLARI

Meyliyeva N.G.,
NavDu o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalar va ularni tadqiq qilishning dolzarbligi, ta’lim jarayonidagi funksional roli hamda zamonaviy texnologik yondashuvlarning didaktik ahamiyati ilmiy-nazariy asosda tahlil etiladi. Xususan, raqamlashtirish, sun’iy intellekt, adaptiv ta’lim, virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR), shuningdek, gamifikatsiya kabi yondashuvlarning ta’lim sifatiga ko‘rsatadigan ta’siri, ularni joriy etishda mavjud muammolar va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari asosida ta’limda innovatsion texnologiyalarni samarali joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion texnologiyalar, raqamlashtirish, sun’iy intellekt, adaptiv ta’lim, VR/AR, gamifikatsiya, ta’lim sifati, pedagogik innovatsiya.*

Аннотация*. В статье рассматривается актуальность внедрения инновационных технологий в современную систему образования, а также их роль в трансформации содержания, методов и форм обучения. Особое внимание уделено таким технологическим подходам, как цифровизация, искусственный интеллект, адаптивное обучение, виртуальная и дополненная реальность (VR/AR), геймификация. Проведён теоретический анализ их педагогического потенциала, выявлены существующие проблемы и определены перспективные направления развития. На основе исследования предложены рекомендации по эффективной интеграции инновационных технологий в образовательную практику.*

Ключевые слова: *инновационные технологии, цифровизация, искусственный интеллект, адаптивное обучение, VR/AR, геймификация, качество образования, педагогические инновации.*

Abstract*. This article examines the significance and implementation of innovative technologies in the modern educational system, analyzing their theoretical foundations and didactic implications. It focuses on current trends such as digitalization, artificial intelligence, adaptive learning, virtual and augmented reality (VR/AR), and gamification. The study explores the pedagogical advantages of these technologies, highlights the challenges encountered during their integration, and outlines future-oriented strategies for enhancing education quality through innovation. Practical recommendations are provided to support effective implementation of technological solutions in educational practice.*

Keywords: *innovative technologies, digitalization, artificial intelligence, adaptive learning, VR/AR, gamification, education quality, pedagogical innovation.*

Kirish. Global ta’lim tizimida ro‘y berayotgan transformatsion jarayonlar, raqamli texnologiyalarning keng miqyosda joriy etilishi, shuningdek, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data) va mashinaviy o‘rganish (machine learning) kabi texnologiyalarning ta’limga integratsiyalashuvi natijasida innovatsion tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda .

Innovatsion texnologiyalar ta’lim mazmunini yangilash, didaktik yondashuvlarni diversifikatsiyalash, hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasini amalga oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu maqolada

innovatsion tadqiqotlar va texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari, amaliyotdagi qo‘llanish mexanizmlari va istiqbollari chuqur tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi

So‘nggi yillarda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan raqamli texnologiyalarning ta’limdagi ahamiyati yuzasidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. Anderson (2016) onlayn o‘qitishning nazariy asoslarini bayon etgan bo‘lsa, Bates (2019) raqamli asrda samarali o‘qitish tamoyillarini ishlab chiqqan [1,2]. O‘zbek tadqiqotchilaridan Nazarov (2022), Meliqoziyevich (2023) va Abdumo‘minov (2024) kabi mualliflar O‘zbekistonda raqamlashtirish jarayonining dolzarbligi va ta’limdagi afzalliklarini yoritganlar [3–7].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo‘llanildi: **tahlil**, **sintez**, **taqqoslash**, **umumlashtirish**, shuningdek, **nazariy tadqiqot** usullari asosida ilg‘or tajribalar tahlil qilindi. Maqola yozishda ilmiy maqolalar, xalqaro hisobotlar, internet manbalari hamda xalqaro va milliy ta’lim tashkilotlarining rasmiy nashrlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

O‘quv jarayonini interaktivlashtirish: Raqamli texnologiyalar professor-o‘qituvchilarga interaktiv darslar o‘tkazish, talabalarning faollaigini oshorosh va ularning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qizishini uyug‘otish imkonini beradi.

O‘quv resurslariga erishish imkoniyatini kengaytirish. Internet va boshqa raqamli platformalar talabalarga cheksiz o‘quv materiallariga, electron kitoblarga, video kitoblarga, video darslarga, inteaktiv simulyatsiyalarga va boshqa resurslarga erishish imkonini beradi.

O‘quv resurslariga erkin kirish. Onlayn kutubxonalar, e-darsliklar, ochiq ta’lim resurslari (OER) va simulyatsiyalar orqali o‘quvchilar istalgan vaqtda va joyda o‘z bilimlarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Bu esa ta’limda tenglik prinsipini kuchaytiradi.

Masofaviy ta’lim imkoniyatini kengaytirish: Raqamli texnologiyalar geografik va vaqt chegaralarini olib tashlashga imkon beradi, bu esa masofaviy ta’limni tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi.

Individual yondashuvni ta’minlash: Raqamli texnologiyalar o‘qituvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan moslashtirilgan o‘quv dasturlarini yaratish va ularning o‘zlashtirish darajasini kuzatish imkonini beradi.

O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab quvatlash: Raqamli texnologiyalar o‘qituvchilarga yangi pedagogic yondashuvlar va metodikalar bilan tanishish, o‘z kasbiy mahoratlarini oshirish va tajriba almashish imkoniyatini beradi.

1. Innovatsion texnologiyalar va ularning ta’limdagi roli

Zamonaviy ta’limda innovatsion texnologiyalar – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, boshqarish va tahlil qilish imkonini beruvchi metodik vositalar tizimidir. Jumladan, quyidagi texnologiyalar ta’limda keng qo‘llanilmoqda:

Platformalar (LMS – Learning Management Systems) yordamida o‘qituvchilar o‘quv materiallarini taqdim etish, baholash va aloqa vositalarini markazlashtirilgan holda boshqarish imkoniga ega bo‘lmoqda. Moodle, Canvas, Blackboard, Google Classroom kabi tizimlar didaktik samaradorlikni oshiruvchi vosita sifatida e’tirof etiladi .

1.2. Sun’iy intellekt va adaptiv o‘qitish tizimlari

AI asosidagi tizimlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini avtomatik ravishda kuzatib boradi, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi va individual ta’lim yo‘llarini taklif etadi. Adaptive learning algoritmlari ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni real shakllantirish imkonini beradi .

1.3. Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR)

VR/AR texnologiyalari orqali o‘quvchilar real dunyodagi hodisalarni immersiv tarzda o‘rganish imkoniga ega bo‘lmoqda. Bu uslub ayniqsa STEM fanlarida (fizika, kimyo, biologiya) nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmaga aylantirishda muhim ahamiyatga ega.

1.4. O‘yinlashtirish (Gamifikatsiya)

Gamifikatsiya ta’lim jarayoniga motivatsiya, musobaqalashuv va kreativ yondashuvlarni olib kiradi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilar faoliyatining samaradorligini oshiradi va darslarni interaktivlashtiradi .

2. Ta’limda innovatsion texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari

Innovatsion yondashuvlar quyidagi pedagogik nazariyalar bilan bevosita bog‘liq:

Konstruktivizm nazariyasi (Piaget, Vygotsky) – bilimlar o‘quvchi tomonidan faoliyat orqali “quriladi”, demak, texnologiyalar bu faoliyatni rag‘batlantiruvchi vositadir.

Multiple intelligence (ko‘p intellekt nazariyasi) (Gardner) – har bir o‘quvchi o‘ziga xos bilim olish uslubiga ega, innovatsion texnologiyalar bu farqlarni inobatga olishga xizmat qiladi.

Connectivism – bilim tarmoqlar orqali shakllanadi, raqamli platformalar bu tarmoqni yaratadi va boshqaradi .

3. Amaliy imkoniyatlar va afzalliklar

Innovatsion texnologiyalarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini real vaqtda tahlil qilish imkoniyati;
- Ta’limning moslashuvchanligi va individuallashuvi;
- Ta’lim resurslariga global kirish;
- Shaxsiylashtirilgan baholash va differensial yondashuvlarni qo‘llash;
- O‘qituvchilarning pedagogik yukini kamaytirish va monitoringni avtomatlashtirish.

4. Muammolar va tizimli tahlil

Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishda quyidagi muammolar mavjud:

Texnik infratuzilma muammolari – internet tarmog‘ining barqarorligi, kompyuter jihozlarining yetishmasligi;

Pedagoglarning raqamli savodxonligi yetarli emasligi – o‘qituvchilarning ko‘pchiligi zamonaviy texnologiyalarni yetarli darajada egallamagan;

Didaktik moslik masalalari – har qanday texnologiya barcha fanlar uchun mos kelmasligi;

Etika va axborot xavfsizligi – sun’iy intellekt va onlayn platformalarda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish ehtiyoji .

5. Istiqbolli yo‘nalishlar va tavsiyalar

Kelgusida quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq:

Learning Analytics – katta ma’lumotlar asosida o‘quv jarayonini bashorat qilish va optimallashtirish;

Neurodidaktika –inson miyasi faoliyatiga asoslangan ta’lim metodologiyasi;

Hakatonlar va EdTech-startaplar orqali innovatsion loyihalarni ishlab chiqish;

Sun’iy intellekt asosida baholash tizimlari (AI-based Assessment);

O‘qituvchilarni qayta tayyorlash va raqamli pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha tizimli dasturlarni ishlab chiqish.

Xulosa. Ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash nafaqat o‘qitish jarayonining texnik ko‘rinishini yangilaydi, balki uning mazmuni, metodologiyasi va strategiyasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsion tadqiqotlar asosida shakllanayotgan yangi ta’lim modeli shaxsiylashtirilgan, moslashuvchan va axborotga boy bo‘lishi bilan ajralib turadi. Shu bois, ilmiy-nazariy asoslangan holda, texnologiyalarning ta’limga integratsiyasi uzluksiz tadqiqot va tajriba asosida olib borilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Anderson, T. (2016). *The Theory and Practice of Online Learning*. AU Press.
2. Bates, A. W. (2019). *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning*.
3. Nazarov R. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy tajriba va innovatsiya //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 125-128.
4. Meliqoziyevich S. I. Talimda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari //Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – 2023. – С. 152-155.
5. Sunnatillo o‘g, Burxonjon Abdumo‘minov. “Ta’limda raqamli texnologiyalar.” Pedagogical reforms and their solutions 1.1 (2024): 145-145..
6. Valisherovna U. M. Ta'lim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 22. – №. 8. – С. 152-156.
7. Babaraximova D. Talim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari //O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 18. – С. 956-962.

TALABALARDA MILLIY-NUTQIY ETIKET ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLAR, AN’ANALARDAN MAQSADLI FOYDALANISH

Abdurahmonova Kamola Erkin qizi,
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Аннотация: *В данной статье рассматриваются научно-теоретические и практические основы целенаправленного использования ценностей и традиций узбекского народа в процессе формирования элементов национального речевого этикета у студентов. Речевой этикет, то есть культура общения, моральные нормы в общении, цивилизованное использование языковых средств, является важным фактором всестороннего развития личности в современной системе образования.*

Abstract: *This article examines the scientific, theoretical and practical foundations of the targeted use of the values and traditions of the Uzbek people in the process of forming elements of national speech etiquette among students. Speech etiquette, that is, the culture of communication, moral norms in communication, civilized use of language means, is an important factor in the comprehensive development of the individual in the modern education system.*

Keywords: *speech etiquette, value, tradition, culture of communication, national education, higher education.*

Ключевые слова: *речевой этикет, ценность, традиция, культура общения, национальное воспитание, высшее образование.*

Global axborot maydonining kengayishi, turli madaniyatlararo aloqalarning jadallashuvi va ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi natijasida til va nutq madaniyatining, ayniqsa yoshlar orasida, tubdan o‘zgarishga uchrashi kuzatilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarda tilga, so‘zlashuvga, muomala etiketi va milliy qadriyatlarga bo‘lgan yondashuvning individual va madaniy xususiyatlari, afsuski, bir xil emas. Bu esa talabalarning muloqotdagi axloqiy mezonlarni anglab yetishida, nutq madaniyati orqali o‘z shaxsini namoyon etishida, ba’zan muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelishiga olib kelmoqda. O‘zbek xalqi asrlar davomida shakllantirib kelgan axloqiy va estetik qarashlar, til madaniyatiga oid og‘zaki va yozma meros, qadriyat va an’analar nutqiy etiketning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, salomlashish, so‘rashish, murojaat qilish, uzr so‘rash, minnatdorchilik bildirish, so‘z navbatini saqlash kabi kundalik muloqot unsurlari xalqning madaniyati, axloqiy me’yorlari bilan chambarchas bog‘liq. Bugungi kunda esa ushbu etiket qoidalarini yosh avlodga, xususan, talabalar auditoriyasiga maqsadli, tizimli va zamonaviy metodlar asosida yetkazish zaruriyati dolzarb masalaga aylangan. Shu jihatdan qaralganda, talabalarda milliy-nutqiy etiket elementlarini shakllantirish jarayoni nafaqat filologik yoki pedagogik muammo, balki ijtimoiy-madaniy, tarbiyaviy va psixologik jihatlarni qamrab oluvchi kompleks jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonni samarali tashkil etishda xalq an’analari, milliy qadriyatlar, og‘zaki ijod namunalari va tarixiy til tajribasi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘zbek tilining murakkab ijtimoiy-pragmatik imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda, yoshlarni nutqiy etiketga o‘rgatish ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, milliy identitetini mustahkamlash hamda jamiyatda munosib muloqot yurita olish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur maqola aynan ana shu muhim yo‘nalishga - talabalarda milliy-nutqiy etiket elementlarini shakllantirishda qadriyatlar va an’anaviy madaniy merosdan maqsadli foydalanish usullarini aniqlash, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni va samaradorligini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Mazkur tadqiqotda talabalarda milliy-nutqiy etiket elementlarini shakllantirishda qadriyatlar va an’anaviy madaniy merosdan maqsadli foydalanishning samaradorligini o‘rganish maqsad qilingan. Tadqiqotda sifatli (kvalitativ) va qisman miqdoriy (kvantitativ) yondashuvlar uyg‘unlashtirilgan holda olib borildi. Ikkinchiva uchinchi bosqichda o‘qiyotgan 150 nafar talaba (75 nafari tajriba, 75 nafari nazorat guruhi) ishtirokida empirik tadqiqot tashkil etildi. Tadqiqot bazasi sifatida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Buxoro davlat universiteti va Namangan davlat universiteti tanlandi.

Tadqiqot jarayonida milliy qadriyat va an’analarga asoslangan nutqiy etiket elementlarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash orqali talabalar til madaniyatini rivojlantirish imkoniyati har tomonlama sinovdan o‘tkazildi. Tajriba va nazorat guruhlari ishtirokidagi mashg‘ulotlardan so‘ng o‘tkazilgan yakuniy baholash natijalari, so‘rovnomalar va og‘zaki savol-javoblar orqali olingan ma’lumotlar asosida quyidagi muhim natijalarga erishildi.

Birinchidan, **tajriba guruhi** ishtirokchilari dars mashg‘ulotlarida xalq maqollari, hikmatli so‘zlar, an’anaviy muomala shakllari, tarixiy-madaniy kontekstda talqin

etilgan nutqiy uslublarni faol qo‘llay boshlashdi. Jumladan, talabalar “Hurmat bilan muomala”, “Kattani e’zozlash”, “Kamtarlik va odob”, “Do‘stona so‘zlashuv” kabi qadriyatga asoslangan nutqiy vaziyatlarda kerakli ifoda shakllarini aniq tanlay olishdi. Bu holat pedagogik kuzatuv davomida ham tasdiqlandi. Ikkinchidan, **so‘rovnoma natijalari** shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhidagi talabalar o‘zlarining kommunikativ kompetensiyasi va nutq madaniyati darajasining oshganini sezganlarini bildirgan. 78 foiz ishtirokchi nutqiy etiketga oid bilimlari ko‘payganini, 72 foiz esa muomala davomida milliy madaniyatga xos iboralardan foydalanishni foydali deb hisoblagan. Bu holat talabalar tilga bo‘lgan mas’uliyatini oshirganini va ularning ichki e’tiqodida ijobiy o‘zgarishlar yuz berganini anglatadi.Uchinchidan, **nazorat guruhi** ishtirokchilarida esa bunday sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmadi. Ular an’anaviy dars metodlari asosida o‘qitilganligi sababli, nutqiy etiketga oid bilimlari faqat nazariy doirada qolib, amaliy qo‘llanilish darajasi sust bo‘ldi. Bu esa qadriyat asosidagi o‘qitish metodikasining ustunligini ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida, shuningdek, **interaktiv metodlarning** (rolli o‘yinlar, dialogik mashqlar, muomala ssenariylari) milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashuvi orqali talabalar o‘z fikrini erkin ifoda qilish, axloqiy mezonlarga asoslangan muloqot yuritish, ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri nutqiy pozitsiyani tanlash ko‘nikmalarini shakllantirdi. Masalan, “Keksalarga murojaat qilish”, “Mehmondorchilik vaziyatida nutq”, “Uzr va minnatdorchilik bildirish” kabi mavzularda o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotlar orqali talabalar real hayotdagi muomala vaziyatlarini simulyatsiya qilishga muvaffaq bo‘lishdi. Bundan tashqari, **kontent-analiz** orqali o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari — maqollar, dostonlar, hikmatlar tahlil qilinib, ular asosida tuzilgan mashqlar talabalar til boyligini oshirish bilan birga, ularning ijtimoiy-madaniy ongini ham shakllantirdi. Ayniqsa, “Yaxshi so‘z – jon ozig‘i”, “Odob – boylikdan afzal”, “So‘zla, so‘zing kimligingni bildiradi” kabi hikmatlar asosida olib borilgan munozaralar talabalarning nutqiy madaniyatga bo‘lgan yondashuvini yanada chuqurlashtirdi. Muhokamalar shuni ko‘rsatdiki, qadriyat va an’analarga asoslangan yondashuv talabalarda nafaqat nutqiy malaka va kompetensiyalarni rivojlantiradi, balki ularning milliy o‘zlikni anglash, axloqiy qarashlarini mustahkamlash, kommunikativ holatlarda ijtimoiy mas’uliyatni his qilish darajasini ham oshiradi. Bu esa zamonaviy o‘quv jarayonining faqat bilim berish emas, balki tarbiyaviy, ijtimoiy-ma’naviy maqsadlarni ham ko‘zda tutishi zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduazizov A. “Til madaniyati asoslari”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
2. Saidov S. “Milliy qadriyatlar va zamonaviylik”. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
3. Bozorov Q. “O‘zbek tilining nutqiy uslublari”. – Toshkent: Fan, 2017.
4. Qosimov B. “O‘zbek xalq maqollari va ularning tarbiyaviy ahamiyati”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020.
5. Xo‘jamqulov D. “Madaniy muloqot va nutq etiketining o‘ziga xos xususiyatlari”. – Samarqand: SamDU, 2021.
6. Rahmonova D. “Pedagogik muloqot va kommunikativ kompetensiya”. – Buxoro: BDU, 2020.
7. Karimov I. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
8. Zohidov A. “Til va nutq odobi: zamonaviy yondashuvlar”. – Andijon: AndDU, 2022.
9. Hasanov H. “Etiket qoidalari va ijtimoiy nutq shakllari”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

SINGAPUR DAVLATIDA MAKTABGACHA TA’LIM.

Mansurova Surayyo Ravshanovna,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha ta’limni muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i, p.f.f.d (PhD)

Singapur Respublikasi – Janubiy Sharqiy Osiyodagi davlat. Singapur oroli va unga tutash mayda orollar hamda Malakka yarim orolining janubiy chekkasida joylashgan. Maydoni – 640 km². Aholisi - 5.637 million kishi (2022). Poytaxti – Singapur shahri. Singapur Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdo‘stlik tarkibiga kiruvchi Respublika ҳисобланади. Amaldagi konstitutsiyasi 1963-yil qabul qilingan (keyinchalik tuzatishlar kiritilgan). Davlat boshlig‘i – prezident (2017-yil 14-sentabrdan boshlab,Halima Yoqub), u umumiy to‘g‘ri ovoz berish yo‘li bilan aholi tomonidan 6 yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni parlament, ijrochi hokimiyatni bosh vazir boshchiligidagi hukumat amalga oshiradi. Singapur oroli Joxor bo‘g‘ozi orqali Malakka yarim oroldan, Malakka va Singapur bo‘g‘ozlari orqali Indoneziya o.laridan ajralib turadi. Sohillari pasttekislik, bir oz botqoqlashgan, janubi-g‘arbiy sohillarida marjon riflari bor. Relyefi tekislik (bal. 176 m gacha). Iqlimi ekvatorial, mussonli. O‘rtacha temperatura yanvarda 26°, iyulda 27°. Yillik yong‘in 2600 mm. Katta daryosi – Singapur. Сингапур давлатида ичimlik suv yetishmaydi, u Malayziyadan keltiriladi. Ko‘pgina mayda orollarda odam yashamaydi, ularda tropik o‘simliklar saqlanib qolgan. Ayrim sohillari mangozorlar bilan band. Aholisining ko‘pchiligi xitoylar (76%). Malayyalar (14%), Hindiston, Bangladesh, Pokiston, Shri Lankadan kelganlar (7%), yevropaliklar va boshqa yashaydi. Rasmiy tillar – xitoy, ingliz, malayya, tamil tillari. Dindorlari buddaviylik. konfutsiylik, islom, hinduiylik, xristian dinlariga e’tiqod qiladi.

Singapur ta’lim tizimi 3 bosqichdan iborat: maktabgacha, umumiy o‘rta va oliy ta’lim. **Bog‘chada** bolalar 3 yoshdan qabul qilinadi va 2-3 yil davomida o‘yinlar orqali ta’lim beriladi. Til o‘rganish, sanash, rasm chizish kabi ko‘nikmalar shakllantiriladi. **Umumiy o‘rta ta’lim:** Boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maktab bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqich oxirida PSLE (Primary School Leaving Examination) imtihoni topshiriladi. **Oliy ta’lim:** Universitetlar, politexnika institutlari va boshqa oliy ta’lim muassasalari orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, Singapur ta’lim tizimida ingliz tili asosiy o‘qitish tili hisoblanadi, biroq o‘quvchilar o‘z ona tilini ham o‘rganishlari shart.

Singapurdagi bolalar bog‘chalari xususiy bo‘lib, ulardan ayrimlari diniy tashkilotlari yoki biznes-fondlar tomonidan boshqariladi. Singapurda maktabgacha ta‘lim 3 yoshdan boshlanib, 6 yoshgacha davom etadi. Bolalar bog‘chalarida bolalarni muloqotga, hisob-kitobga, o‘qish asoslariga o‘rgatiladi. Bu erda ona tili bo‘lgan - xitoy va malay tilidan tashqari barcha bolalar ingliz tilini ham o‘rganadilar. Boshlang‘ich maktabda bolalar 6 yoshdan boshlab o‘qiydilar. Ta‘lim olish hamma uchun majburiy va 2 bosqichga bo‘lingan: asosiy va yo‘naltirilgan. Asosiy bosqich 1-4 sinflardan iborat bo‘lib, bunda tillar, matematika, fuqarolik huquqi asoslari, rasm, musiqa va jismoniy madaniyat o‘rganiladi.

Singapurda davlatga qarashli bog‘chalar yo‘q. Maktabgacha ta'lim muassasalarining barchasi xususiy bo‘lib, ayrimlarigina diniy tashkilot yoki jamg‘armalar tomonidan boshqariladi. Singapurda davlat maktablariga katta e'tibor qaratilgani sababli ular ta’lim sifati va zamonaviylik borasida xususiy maktablardan sira qolishmaydi. Ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakat budjetining 20% ta'limni rivojlantirishga sarflanadi.

2024-yil iyunda, O‘zbekiston ta’lim tizimida Singapurning Marshall Cavendish Education bilan hamkorlik kiritdi. Unda 5–11 sinflar uchun STEM darslar; trening va kitoblar joriy etildi.

Marshall Cavendish — 1968-yilda Angliyada Norman Marshall va Patrick Cavendish tomonidan asos solingan matbaa-nashriyot kompaniyasi. 1980-yildan bu fanelar Singaporning Times Publishing Groupgiga tegishli bo‘lib qoldi. Marshall Cavendish — 1968-yilda Angliyada Norman Marshall va Patrick Cavendish tomonidan asos solingan matbaa-nashriyot kompaniyasi. 1980-yildan bu fanelar Singaporning Times Publishing Groupgiga tegishli bo‘lib qoldi. Marshall Cavendish — 1968-yilda Angliyada Norman Marshall va Patrick Cavendish tomonidan asos solingan matbaa-nashriyot kompaniyasi. 1980-yildan bu fanelar Singaporning Times Publishing Groupgiga tegishli bo‘lib qoldi.

Zamonaviy ta’lim dasturlariga kirish (MCE dasturlari asosida) – xalqaro dasturlarning umumiy tushunchalari va metodologiyasi:

Kinder Thinkers *(Yaxshi fikrlovchilar)* dasturi orqali mantiqiy fikrlash va mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish;

Bigeye Tots *(Katta Ko‘zli Tots)* dasturi orqali bolalarning kognitiv, emotsional va jismoniy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash;

Primary Mathematics Grade K (Kindergarten) *(Boshlang‘ich matematika sinfi)* dasturi asosida bolalarda matematik tafakkur va muammo yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish;


STEAM yondashuvining metodik asoslari va amaliy qo‘llanilishi – fanlararo integratsiya orqali o‘rgatish;

Tajriba va kashfiyotga yo‘naltirilgan o‘yinlar orqali bolalarning muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

MCE dasturining kompetensiyalarni shakllantirishdagi o‘rni

Dastur nomi	Asosiy kompetensiyalar	Qisqacha tavsif
Kinder Thinkers	Nutq, mantiqiy tafakkur, ijtimoiy muloqot	Hikoya, savol-javob, so‘z boyligini oshirish, fikr bildirish orqali kommunikativ va kognitiv kompetensiyalar shakllantiriladi.
Bigeye Tots	Emotsional ong, o‘zini anglash, harakat koordinatsiyasi	Rol o‘yinlari, harakatli mashqlar, o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash orqali ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni mustah-kamlaydi.
Earlybird Mathematics	Muammo yechish, sanash, mantiqiy ketma-ketlikni tushunish	Vizual, sensor, manipulyativ vositalar orqali matematik kompetensiyalarni mustah-kamlovchi faoliyatlar taklif etiladi.
STEAM dasturi	Kognitiv izlanish, tasavvur, texnologik tafakkur, ilmiy savodxonlik	Ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani uyg‘unlashtirgan mashg‘ulotlar orqali kompleks kompetensiyalarni rivojlantiradi.

“Nurturing Early Learners” (NEL) – Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish Dasturi (Singapur tajribasi). Nurturing Early Learners (NEL) dasturi Singapurda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ishlab chiqilgan kompleks o‘quv dasturining asosiy maqsadi – bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta‘minlash, xususan, til va savodxonlik bo‘yicha mustahkam asos yaratishdir.



Ilk Qadam and NEL (Rivojlanish/Asosiy O‘quv Sohalari)

No.	O’zbekiston Ilk Qadam	Singapore NEL Framework
1	Jismoniy rivojlanish	Salomatlik, xavfsizlik va motorik qobiliyatlarini rivojlantirish
2	Ijodiy rivojlanish	Estetika va ijodiy ifoda
3	Muloqot, o’qish va yozish qobiliyatlari	Til va savodxonlik
4	Kognitiv rivojlanish	Hisoblash yoki maktabgacha yoshdagi matematika
		Atrofni o’rganish
5	Ijtimoiy-emotsional rivojlanish	Qadriyatlar, ijtimoiy va hissiy ko’nikmalar hamda o’rganish qobiliyati

Rivojlanish sohalari bo‘yicha.

Singapur davlatida maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun faoliyatlar integratsiya juda muhim. Masalan,





ya’ni mustaqillik va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga juda katta e’tibor qaratiladi.

Mashg‘ulotlar tuzilishi qo‘yidagi bosqichlarda amalga oshiriladi. Ya’ni


1.Materiallarni tayyorlash;

2. Hikoya bilan tanishtirish. 1ta mavzuga oid asosiy hikoya va 4ta mashg‘ulot hikoyasi asosida olib borish. Bunda mashg‘ulotni hikoya asosida boshlab, faoliyat olib boriladi. Masalan: Mo‘jizakor ustoz va qurbaqavoy. Mashg‘ulot hikoyasi bolalarni jalb qilishga qaratilgan savollar bilan olib boriladi.



3. Tajribani bajarish. Har bir mavzuni 10 xil tajriba asosida tashkil etiladi. Masalan: Kamalakni hosil bo‘lishini kuzatish(tajriba orqali).


Xarid ro'yxati (10 ta tajriba uchun) – 1-bo'lim



Element	Miqdor
Suv	2L
Tanga	10
Yog'	1 idish (40mldan har bir tajriba uchun)
Suyuq idish yuvish vositasi	1 idish (40mldan har bir tajriba uchun)
Shakar	1 qadoq (3 choy qoshiqdan har bir tajriba uchun)
Ko'k, va qizil oziq-ovqat bo'yoqlari	1 idishdan (har bir tajriba uchun)

Boshqa barcha o'lchash uchun kerakli jihozlar, masalan, qoshiq, Falcon nayvchalari, Petri idishlari, pipetkalar va plastik qutilar LabX to'plamida taqdim etiladi. Ushbu tajriba uchun kerakli suv krandan olinishi mumkin.

Xarid ro'yxati (10 ta tajriba uchun) – 2-bo'lim



Sinfdagi o'quvchilar soniga qarab, tajribani ular yakka tartibda yoki guruh bo'lib bajarishlarini belgilang. Kerakli masalalarni (ingridiyentlarni) sinf uchun mos ravishda ko'paytiring.

Element	Miqdor
Yog' (o'simlik/ovqat pishirish uchun)	2 idish (2L)
Soda	1 idish (50 choy qoshiq)
Oziq-ovqat bo'yoqlari (iloji bo'lsa, turli ranglarda)	1 idishdan har biri
Sirka	1 idish (300ml)



Boshqa barcha o'lchash uchun kerakli jihozlar, masalan, qoshiq, Falcon nayvchalari, Petri idishlari, pipetkalar va plastik qutilar LabX to'plamida taqdim etiladi. Ushbu tajriba uchun kerakli suv krandan olinishi mumkin.


4. Tozalash.

5. Fikr yuritish. Mashg‘ulot mavzusida amalga oshirilgan ishlar muhokama qilinadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida ilm-fan burchagi tashkil etiladi (lupa, qalam, qog‘oz, chiroq va rag‘batlantiruvchi idishlar).

Bolalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish uchun matematika mashg‘ulotlari bitta bob, 5 haftaga mo‘ljallangan. Ya’ni,

Boshlang‘ich Matematika — Mavzular ketma-ketligi		Tavsiya etilgan (kunla
Mavzu 1	**5 gacha sonlarni sanash va ko‘rsatish**	
Kun 1	Mavzuga kirish	1
Bo‘lim 1A	**Sanash va ko‘rsatish**	
Kunlar 2-3	1 va 2 ni sanash va ko‘rsatish	2
Kunlar 4-5	3 va 4 ni sanash va ko‘rsatish	2
Kunlar 6-7	5 ni sanash va ko‘rsatish	2
Kun 8	Nol nima?	1
Bo‘lim 1B	**Sanash va tartiblash**	
Kun 9	5 gacha bo‘lgan sonlarni tartiblash	1
Kun 10	Mavzuni yakunlash / Amaliy topshiriq	1
Mavzu 2	**5 gacha sonlarni yozish**	
Kun 1	Mavzuga kirish	1
Bo‘lim 2A	**Sonnami sanash va yozish**	
Kunlar 2-3	1 va 2 ni sanash va yozish	2
Kunlar 4-5	3 va 4 ni sanash va yozish	2
Kunlar 6-7	5 ni sanash va yozish	2
Kunlar 8-9	0 dan 5 gacha sanash va yozish	2
Bo‘lim 2B	**Nechta?**	
Kunlar 10-11	Nechta?	2
Kun 12	Mavzuni yakunlash / amaliy topshiriq	1
Mavzu 3	**10 gacha sonlar**	
Kun 1	Mavzuga kirish	1
Bo‘lim 3A	**6 dan 10 gacha sonlar**	
Kun 2	6 ni sanash, ko‘rsatish va yozish	1
Kun 3	7 ni sanash, ko‘rsatish va yozish	1
Kun 4	8 ni sanash, ko‘rsatish va yozish	1
Kun 5	9 ni sanash, ko‘rsatish va yozish	1
Kunlar 6-7	10 gacha sonlarni sanash va ko‘rsatish	2
Kunlar 8-9	10 gacha sonlarni yozish va sanash	2
Bo‘lim 3B	**10 gacha sonlarni tartiblash**	
Kun 10	10 gacha sanash	1
Kun 11	10 dan orqaga sanash	1
Kun 12	Mavzuni yakunlash / amaliy topshiriq	1
Kunlar 13-14	Baholash 1	2
Mavzu 4	**Shakllar**	
Kun 1	Mavzuga kirish	1
Bo‘lim 4A	**Qattiq shakllar**	
Kun 2	Sharlar va kublarni topish va tasvirlash	1
Kun 3	Silindrlar va konuslarni topish va tasvirlash	1
Kun 4	Qattiq shakllarni taqqoslash	1
Kun 5	Qattiq shakllarni saralash	1
Kunlar 6-7	Qattiq shakllarni yaratish	2
Bo‘lim 4B	**Tekis shakllar**	
Kun 8	Aylana va kvadratlarni topish va tasvirlash	1
Kun 9	Uchburchak, to‘rtburchak va olti burchaklarni topish	1
Kun 10	Tekis shakllarni taqqoslash	1
Kunlar 11-12	Tekis shakllarni saralash	2
Kunlar 13-14	Tekis shakllarni yaratish	2




Bundan ko‘rinadiki, bitta mavzuga oid sonlarni tanishtirish, yozish, sanash kabi takroriy va mustahkamlovchi mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Bu orqali bolalar olgan bilimlari mustaqkamlanadi. Yozish ko‘nikmasi rivojlanadi.

Tanqidiy fikrlash orqali bolalarga: Savol berish: Har qanday ma’lumotga shubha bilan qarang va “nega?”, “qanday?”, “qaerda?”, “qachon?” kabi savollarni berish mumkin. Turli nuqtai nazarlarni izlash: Muammoga faqat bir tomondan emas, balki turli xil jihatlardan nazar soling. Boshqalarning fikrlarini o‘rgatish.Manbalarni tekshirish: Olingan ma’lumotlarning ishonchliligini tekshirish va bir nechta manbadan ma’lumot izlash va ularni solishtirish.

Mantiqiy xatolarni aniqlash: Fikrlash jarayonida uchraydigan mantiqiy xatolarni (masalan, asossiz umumlashtirish, shaxsga o‘tish, sohta dilemma) aniqlashni o‘rganishi mumkin.

Shuningdek, muloqot va til ko‘nikmalarini shakllantirish lug‘at ishi juda ham muhim.



Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni amaliyotga joriy etish orqali, jahon standarlariga javob beradigan kadrlarni maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab poydevori sifatida shakllantirish hamda rivojlantirish juda muhimdir. Chunki, bola eng ko‘p ma’lumotlarni maktabgacha yoshdan qabul qiladi. Shu sababdan maktabgacha yoshdanoq ularni mustaqillilikka, tanqidiy fikrlashga va muloqot, ijtimoiy ko‘nikmalarini hozirdanoq rivojlantirish muhim vazifalarimizdan biridir.

BO‘LAJAK TALABALARNING KASBIY RIVOJLANISHIDA SCAMPER TEXNIKASINING O‘RNI

Karimova Aziza,
SamDPI o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak talabalarning kasbiy rivojlanishida scamper texnikasining o‘rni masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada SCAMPER texnikasining talabalar ijodiy g‘oyalarni ishlab chiqishiga ta'siri va samaradorligi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *SCAMPER texnikasi, ijodiy va kognitiv rivojlanish, kreativ fikrlash, innovatsion yondashuv.*

SCAMPER — bu mavjud g‘oyani yoki mahsulotni o‘zgartirish, takomillashtirish yoki butunlay yangi yondashuv bilan qayta ishlab chiqishga yordam beradigan ijodiy fikrlash metodidir. Bu texnika quyidagi komponentlardan iborat:

- **S – Substitute** (almashtir)
- **C – Combine** (birlashtir)
- **A – Adapt** (moslashtir)

- **M – Modify** (o‘zgartir)
- **P – Put to another use** (boshqa maqsadda foydalan)
- **E – Eliminate** (yo‘qot)
- **R – Reverse** (teskari qil)

SCAMPER texnikasi talabalarning har tomonlama rivojlanishida katta rol o‘ynaydi:

1. Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi

- Talaba yangicha yondashuvlar, noodatiy g‘oyalarni ilgari surishni o‘rganadi.
- An’anaviy fikrlashdan chiqib, “qutidan tashqarida” (out of the box) qarashga o‘rgatiladi.

2. Tanqidiy fikrlashni shakllantiradi

- Har bir SCAMPER savoli orqali mavjud g‘oya yoki muammoni tahlil qilishga o‘rgatiladi.
- Har bir elementni baholab, yaxshilash yoki alternativ variantlarni tanlashga intiladi.

3. Muammoga yechim topish qobiliyatini oshiradi

- SCAMPER texnikasi muammoni har xil burchakdan ko‘rib chiqishni o‘rgatadi.
- Talabada: “Agar buni o‘zgartirsam nima bo‘ladi?”, “Boshqa joyda ishlatilgan modelni moslashtira olamanmi?” kabi savollar paydo bo‘ladi.

4. Jamoaviy ishlash ko‘nikmasini mustahkamlaydi

- Mashqlar odatda guruhlarda bajariladi. Bu esa hamkorlikda fikrlash, muhokama qilish, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.

5. Fikrlarni erkin ifoda etish imkonini beradi

- “To‘g‘ri javob bo‘lishi shart emas” degan yondashuv talabaning psixologik bosimdan chiqishiga yordam beradi.
- Har qanday g‘oya muhokama qilinadi va bu erkin fikrlash madaniyatini rivojlantiradi.

6. Motivatsiya va ishtirokni oshiradi

- Talabalar o‘z g‘oyalarini shakllantirib, real vaziyatlarga tatbiq qilganlarida, o‘zlarini muhim ishtirokchi sifatida his qilishadi.
- Darslar qiziqarli, interaktiv va ijodiy muhitda o‘tadi.

7. Amaliy fikrlashni kuchaytiradi

- SCAMPER nafaqat nazariy bilimlar, balki ularni amalda qo‘llash, o‘zlashtirish va yechimlar ishlab chiqish imkonini beradi.

SCAMPER bo‘yicha “Universitetdagi kutubxonaga talabalar kam boradi” muammosiga yechim toppish.

Bosqich	**Savol**	**Misol javob**
Substitute	Nimani almashtirish mumkin?	Kutubxonani mobil ilova bilan almashtirish
Combine	Narsalarni birlashtirib bo‘ladimi?	Kutubxona + kafeteriy
Adapt	Qayerdan o‘rganib bo‘ladi?	Starbucks’dagi shinam joylar
Modify	Narsani o‘zgartirish mumkinmi?	Interfeys dizaynini zamonaviy qilish
Put to use	Boshqa yo‘nalishda ishlatish	Kutubxonani kreativ makon sifatida ishlatish
Eliminate	Qanday ortiqcha narsa bor?	Eski tartib va qoidalarni olib tashlash
Reverse	Jarayonni teskari qilib	Kutubxona dars o‘tadigan joyga

	bo‘ladimi?	aylantiriladi

SCAMPER texnikasi talabani yodlashga emas, fikrlashga o‘rgatadi, ijodiy muhit yaratadi; o‘qituvchi uchun esa – darslarni faol, samarali va o‘ziga xos qilish imkonini beradi.

SCAMPER texnikasini pedagogikada qo‘llash — bu o‘quvchilarning yoki talabalarni ijodiy, tanqidiy va mantiqiy fikrlashga yo‘naltirish orqali ta’lim jarayonini jonlantirish va samaradorligini oshirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alex Osborn. “Applied Imagination: Principles and Procedures of Creative Thinking” . Charles Scribner's Sons. 1993.
2. Michael Michalko. “Thinkertoys: A Handbook of Creative-Thinking Techniques”. Ten Speed Press. 1991.

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Qurbonova Xolbibi To‘raqulovna,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida axborot texnologiyalari orqali , bilim berishning yangi usullarini amaliyotga joriy etishga, o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirishga hamda o‘quvchilarning faolligi va qiziqishini orttirishga xizmat qilishi yoritilgan.*

Abstract. *The article discusses the use of information technology in primary education to introduce new methods of teaching, broaden students' worldviews, and increase student engagement and interest.*

Аннотация. *В статье обсуждается использование информационных технологий в начальном образовании для внедрения новых методов обучения, расширения мировоззрения учащихся и повышения вовлеченности и интереса учащихся.*

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich sinflar, aqliy rivojlanish, ko‘rgazmali materiallar, o‘yin-topshiriqlar , kasbiy mahorati*

Keywords: *Primary grades, intellectual development, visual materials, game tasks, professional skills*

Ключевые слова: *Начальные классы, интеллектуальное развитие, наглядные материалы, игровые задания, профессиональные навыки.*

Boshlang‘ich ta’lim – ta’lim tizimining poydevori hisoblanib, o‘quvchilarni o‘qitish sifati unga bog‘liq bo‘ladi va bu boshlang‘ich maktab “ko‘nikmalar maktabi” bo‘lib keladi, ya’ni o‘quvchi ta’lim olish uchun o‘qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan ta’lim bosqichi sifatida qaralgan. Hozirgi vaqtda boshlang‘ich maktab boshqacha tasavvur etiladi. Bugungi kunda u ta’lim tizimida bolaning birinchi tajribasi – ta’lim olish kuchlarini sinash joyi bo‘lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta’lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. O‘quvchilarning aynan mana shu sifatlari ta’lim jarayoniga AKT ni joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz.

Ta’lim samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan uzluksiz foydalanishning ahamiyati katta. O‘qitishning axborot texnologiyasi- bu axborot bilan

ish olib borish uchun maxsus usullar, pedagogik texnologiyalar, bilim berishning yangi usullaridan foydalanish va bilim darajasini baholashdir. Yangi texnologiyalarni bilan yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda, ma'naviy va insoniy qadriyatlarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish:

-ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirishga;

-bilim berishning yangi usullarini amaliyotga joriy etishga;

-dars davomida o'uvchilarning faolligi va qiziqishini orttirishga;

-o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirishga;

-elektron darsliklardan unumli foydalanishga xizmat qiladi.

O'qituvchi dars davomida axborot texnologiyalarini unumli foydalana olsa, nafaqat o'quvchilarga yangicha bilim berish imkoniyatlarini yaratadi, balki ularning mustaqil tayyorlanish va shaxsiy fikrlash qobiliyatini boyitishga ham xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari: multimediya imkoniyatlarini qo'llash annimatsion videomateriallar va slaydlardan foydalanish o'quvchilar uchun o'tilgan mavzu yuzasidan batafsil ma'lumot berishga imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari, axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilar o'z bilim-ko'nikmalarini shakllantirib, mustaqil o'rgatishga harakat qiladi. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonida kompyuterni foydalanishga, modellashtirishga, elektron darsliklarni, interaktiv doskalarni foydalanishga, internet bilan ishlashga asoslanadi. Ta'lim jarayonida ushbu imkoniyatlardan foydalanish kelajak egalari bo'lgan yoshlarning har tomonlama bilim olishiga, qobiliyati va dunyoqarashi kengayishiga, mustaqil rivojlanishiga xizmat qiladigan pedagogik va psixologik imkoniyatlar yaratadi.

Kun sayin yangilanib borayotgan ilmiy va texnik rivojlanish jamiyat hayotining barcha sohalarida axborot texnologiyalarini joriy etmoqda.

"XXI asr axborot texnologiyalari asri" da ta'lim tizimida yangi usul va texnologiyalardan foydalanish jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Ta'limni faollashtirish o'quvchi faoliyatining mahsuli bo'lib, bola faoliyatini faollashtirishga qaratilgan harakat sanaladi. Ko'pgina pedagogik adabiyotlarda agar o'quvchi materialni tushunarli qilib, bayon qilsa, ko'rsat- malilik hamda ta'limning texnik vositalaridan foydalansa, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ish olib borsa, o'quv jarayoni faollashib, ta'lim samarali bo'ladi de- gan fikr ilgari suriladi. Ta'limni faollashtirish yuqorida ko'rsatilgan faktorlar bilan bir qatorda o'quvchilarning fikrlash faoliyatini uyushtirish bilan ham bog'liq. Fikrlash bo'lmagan joyda faollik haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Demak, ta'limni faollashtirish o'quvchi tomonidan bolaning fikrlash faoliyatini uyushtirish mahsuli bo'lib sanaladi.

Jumladan boshlang`ich sinflarda bolalar faolligini oshirish uchun quyidagilardan foydalanish mumkin:

a) O'yin-topshiriqlar orqali;
b) Topishmoqlar orqali;
c) Interfaol usullar orqali;
d) Mashqlar orqali;
e) Qiziqarli viktorinalar orqali.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan yana biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga

erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinflarni o‘qitishda axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni kerakli axborotni tanlashni, uni saqlab qolish va taqdimotlar tuzish yoki turli xildagi loyihalarni ishlab chiqish va bajarishda keyingi ishlarida foydalanishni bilib oladilar. 2 – sinfdanoq o‘quvchilar faqat daftardagina emas, balki bevosita kompyuterda ham topshiriqlarni bajara oladilar. O‘quvchilar kompyuter bilan ishlashda birinchi ko‘nikmalarni oladilar, o‘zlarining nazariy bilimlarini doimiy chuqurlashtirib va amaliy ko‘nikmalarini takomillashtirib boradilar. AKT dan foydalanish faqatgina o‘quvchilardagina emas, balki o‘qituvchilarni ham kasbiy mahorati oshishiga, kompyuter vositasida o‘qitishga hamda o‘z fani bo‘yicha bilim darajasini takomillashtirishga muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.
2. Xalq ta’limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi:www.multimedia.uz

“MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA YANGICHA YONDASHUV: SINGAPUR TA’LIMI”

Eshkuziyeva Mohira Raimqul qizi,
Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi metodisti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan ilg‘or pedagogik usullar va yondashuvlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda, xususan, Singapur ta’lim modelining asosiy prinsiplari tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor bolaning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, bu o‘yin va amaliyotga asoslangan ta’lim, muammoli vaziyatlarni yechishga o‘rgatish, shuningdek, bolalarning mustaqil fikrlashi va ijodkorligini rag‘batlantirish kabi usullar orqali amalga oshiriladi.*

Maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalarni hal etishda Singapur tajribasini o‘rganish va undan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi. Tadqiqot nafaqat nazariy jihatdan muhim, balki amaliy ahamiyatga ham ega, chunki unda ilg‘or tajribalarni milliy pedagogikamiz bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan. Bu esa maktabgacha ta’lim sohasidagi pedagoglar, mutaxassislar va ota-onalar uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *Singapur ta’limi, maktabgacha ta’lim, muammoli vaziyat, mustaqil fikrlash, ilg‘or tajriba.*

Abstract: *This article is devoted to the study of advanced pedagogical methods and approaches used in the preschool education system. In particular, it analyzes the main principles of the Singapore educational model. The main emphasis is on the comprehensive development of the child, which is carried out through such methods as game-based and practice-based education, teaching problem-solving, as well as stimulating children's independent thinking and creativity.*

The article shows the possibilities of studying and using the Singapore experience in solving urgent tasks facing the education system of Uzbekistan. The study is not only theoretically important, but also has practical significance, since it also provides practical recommendations for harmonizing advanced practices with our national pedagogy. This can serve as a valuable resource for educators, specialists and parents in the field of preschool education.

Keywords: *Singapore education, preschool education, problem situation, independent thinking, advanced experience.*

Аннотация: *Статья посвящена изучению передовых педагогических методов и подходов, используемых в системе дошкольного образования. В частности, анализируются основные принципы сингапурской образовательной модели. Основной акцент делается на всестороннем развитии ребёнка, которое осуществляется посредством таких методов, как игровое и практико-ориентированное обучение, обучение решению проблем, а также стимулирование самостоятельного мышления и творчества детей.*

В статье показаны возможности изучения и использования сингапурского опыта для решения актуальных задач, стоящих перед системой образования Узбекистана. Исследование имеет не только теоретическую, но и практическую значимость, поскольку содержит практические рекомендации по гармонизации передового опыта с отечественной педагогикой. Это может послужить ценным источником информации для воспитателей, специалистов и родителей в сфере дошкольного образования.

Ключевые слова: *сингапурское образование, дошкольное образование, проблемная ситуация, самостоятельное мышление, передовой опыт.*

So‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim sifati masalasi O‘zbekiston uchun ustuvor vazifaga aylandi. Bolalarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurati zamonaviy ta’lim oldida turgan eng katta muammolardan biridir. Bu muammoni hal etishda xalqaro tajribalarni o‘rganish, ayniqsa, dunyoning eng ilg‘or ta’lim tizimlaridan biri bo‘lgan Singapur tajribasi juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ish orqali Singapur maktabgacha ta’limining o‘ziga xos jihatlari va ularni milliy sharoitimizga moslashtirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tiladi. O‘yin, kashfiyot va doimiy izlanishga asoslangan Singapur ta’lim modeli maktabgacha yoshdagi bolalarga nafaqat bilim, balki hayotiy ko‘nikmalarni ham singdirishga qodir. Bu model shunchaki o‘qitish emas, balki bolaning ichki qobiliyatlarini ochib beruvchi bir jarayondir. Ushbu tadqiqot Singapur bog‘chalarining sehrli dunyosiga sayohat qilishga chorlaydi va bu mamlakatning ta’lim sohasida erishgan yutuqlari siri nimada ekanligini ochib beradi. Tadqiqot davomida Singapur tajribasini O‘zbekistonda ham tatbiq etish imkoniyatlari atroflicha muhokama qilinadi.

Singapur ta’lim tizimi bugungi kunda dunyodagi eng ilg‘or va samarali tizimlardan biri sifatida tan olinmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, bu mamlakat bir qancha xalqaro reytinglarda doimiy ravishda yuqori o‘rinlarni egallab keladi:

- **PISA (Xalqaro talabalarni baholash dasturi) natijalari –** PISA testlari 15 yoshli o‘quvchilarning matematika, fan va o‘qish savodxonligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini baholaydi. Singapur bu reytinglarda ko‘p yillardan buyon yetakchilik qilib keladi. Bu esa Singapur ta’limi bolalarga nafaqat nazariy bilim, balki ularni hayotiy muammolarni yechishga tayyorlashini isbotlaydi.
- **Innovatsiya va iqtisodiy rivojlanishga ta’siri –** Singapur ta’lim modeli faqat

akademik muvaffaqiyatga qaratilmagan. Uning asosiy maqsadi — **tanqidiy fikrlaydigan, ijodkor va muammolarni yechishga qodir avlodni yetishtirishdir**. Bu yondashuv mamlakat iqtisodiyotining yuqori texnologiyalar, innovatsiya va xizmat ko‘rsatish sohalarida jadal rivojlanishiga zamin yaratdi.

- **Cheklangan resurslar sharoitida muvaffaqiyat –** Singapur tabiiy

resurslarga boy bo‘lmagan kichik mamlakat. Uning yagona va eng muhim boyligi — bu inson resurslari. Shu sababli, ta’limga sarmoya kiritish mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega. Singapurning ta’limdagi muvaffaqiyati dunyoning boshqa resurslari cheklangan davlatlari uchun ham namuna bo‘la oladi.

Singapur maktabgacha ta’lim tizimining o‘ziga xosligi va asosiy prinsiplari zamonaviy davr talablari bolalarda shunchaki bilimlarni yod olishdan ko‘ra, ularni mustaqil va tanqidiy fikrlashga o‘rgatishni taqozo etadi. Singapur ta’lim tizimi aynan shu maqsadlarga erishish uchun shakllangan. Uning muvaffaqiyati bir necha asosiy prinsiplarga tayanadi:

1. O‘yin orqali o‘rganish (Play-based learning) – maktabgacha ta’lim

jarayoni quruq darslardan iborat emas, aksincha, o‘yinlarga asoslangan. Bolalar o‘yinlar davomida tabiiy ravishda muammoli vaziyatlarga duch keladi va ularni hal qilishga urinadi. Bu esa ularning ijodkorlik, mantiqiy fikrlash va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantiradi. Masalan, oddiy qurilish o‘yinlari orqali bolalar fizika qonuniyatlari, muvozanat va hamkorlikni o‘rganishadi.

2. Bolaning “kichik tadqiqotchi” sifatida qarash – bu jarayonda bolalar passiv

tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi hisoblanadi. O‘qituvchilar bolalarga tayyor javoblarni bermaydi, balki ularni savollar berishga, atrofdagi dunyoni mustaqil o‘rganishga undaydi. Bu yondashuv bolaning qiziquvchanligini oshiradi va o‘zining shaxsiy bilim kashfiyotlarini qilishiga zamin yaratadi.

3. Hissiy-ijtimoiy rivojlanishga ustuvorlik – akademik bilimlardan tashqari,

Singapur ta’limi bolalarning his-tuyg‘ularini boshqarish, o‘zgalar bilan munosabat o‘rnatish va empatiya tuyg‘usini rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi. Bu ko‘nikmalar ularning kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Singapur tajribasini O‘zbekistonda tatbiq etish imkoniyatlari va shart-sharoitlariga moslashtirish uchun ba’zi muammolarni hisobga olish lozim. Garchi to‘liq nusxa ko‘chirish imkonsiz bo‘lsa-da, ayrim ilg‘or jihatlarni milliy ta’lim tizimimizga uyg‘unlashtirish mumkin.

- Singapurda pedagoglarning uzluksiz malaka oshirish tizimi yaxshi yo‘lga

qo‘yilgan. Biz ham o‘qituvchilar uchun yangi metodologiyalar, ayniqsa, o‘yin-amaliyotga asoslangan ta’lim bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etishimiz kerak.

- Ta’lim muhitini modernizatsiya qilish – bunda maktabgacha ta’lim

muassasalarida shunchaki o‘yinchoqlar emas, balki bolalarning ijodiy salohiyatini ochib beruvchi materiallar va muhit yaratish muhim. Bu bolalarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

- Singapurda ota-onalar maktabgacha ta’lim jarayonining ajralmas qismi

hisoblanadi. O‘zbekistonda ham ota-onalarni farzandlarining ta’lim jarayoniga faol jalb qilish, ularga yangi uslublar haqida ma’lumot berish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Singapur modeli shunchaki bir xorijiy tajriba emas, balki O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimini kelajak talablariga moslashtirish uchun kuchli ilhom manbai bo‘lishi mumkin. Eng muhimi, mavjud muammolarga e’tibor

qaratib, sinovdan o‘tgan usullarni o‘z an’ana va qadriyatlarimizga moslab joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gopinathan, S., & Shariff, I. (2018). *Learning from Singapore: The Power of Teacher and School Leadership*. Routledge.
2. Ng, P. T. (2017). *The Singapore Model of Education: Preparing for the 21st Century*. Routledge.
3. Kaur, S. (2019). *Education Reform in Singapore: Critical Perspectives*. Springer.
4. OECD. (2018). *Education at a Glance 2018: OECD Indicators*. OECD Publishing.

KIMYO FANINI O‘QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Xolboyeva Rohiba Abdulloyevna,
Jomboy tumani 8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Umumta’lim muassasalarida dasturiy ta’limot va elektron muhitni yaratish uchun O‘zbekiston mustaqilligining ilk kunlaridan boshlab, zamonaviy axborot texnologiyalarini hayotga tatbiq etib, davlat boshqaruvini ham kompyuterlashtirishga alohida e’tibor berildi. Respublikani axborotlashtirish maqsadida maktablarni o‘quv laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va o‘quv-uslubiy materiallar bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

Mustaqilligimizni mustahkamlashda, mamlakatimiz taraqqiyotida O‘zbekistonni buyuk davlatlar qatoriga ko‘tarishda hamda ta’lim-tarbiya ishlarini oqilona yo‘lga qo‘yishda, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk, texnikaviy bilimlar va murakkab texnologiyalar egallagan.

Bugungi kun talabi yosh avlodga beriladigan ta’lim tarbiya ijodiy kuchlarni rivojlantirishga, fan-texnika taraqqiyotining yangiliklari talablariga javob berishi zarurligini taqozo etmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini bitirayotgan o‘quvchi va kichik mutaxassislar nafaqat amaldagi texnika va texnologiyalarni, balki kelajakda yaratiladigan yuqori texnologiyalarni qisqa muddatda o‘zlashtirishga tayyor bo‘lishlari lozim. Bunga mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin jadal taraqqiy ettirilgan avtomobilsozlik, tog‘-kon, neft-gaz, kimyo va yengil sanoat korxonalarining ishga tushirilayotganligi, eng ilg‘or texnologiyalarning jadal sur’atlar bilan kirib kelayotganligi muhim asoslarni yaratmoqda.

Ta’lim sohasi rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin egallashi XXI asrni aql-zakovati, bilimdonlik asri bo‘lishi uchun pedagogdan katta izlanish va mahorat talab etadi.

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida ta’lim tizimi oldida ulkan vazifalar turibdi. Mamlakatimizda o‘qituvchilarga katta mas’uliyat yuklangan. Vatanimiz ravnaqi uchun ularning fidokorona va xayrli mehnatlari samarasiga bog‘liq. Bugungi kun o‘qituvchisi har tomonlama yetuk, o‘z kasbining ustasi, zamon bilan hamqadam ish uslubiga ega, ilg‘or o‘qitish metodlaridan xabardor, o‘z ustida doimo ishlab, bilim va malakalarini mustahkamlab boruvchi shaxs bo‘lishi lozim.

Shu bois bugun bo‘lajak o‘qituvchilarga faqatgina tayyor elektron qo‘llanmalardan foydalanishni o‘rgatish bilan cheklanmay, balki ularning yangi ko‘rinishlarini yaratish usullari, yo‘llari va vositalarini o‘rgatish ham muhim talablardan hisoblanadi.

Ayni vaqtda 7-9 sinf o‘quvchilari uchun maktab ta’lim tizimida bir qator tadqiqotchilar va ishlab chiqarish firmalari tomonidan tayyorlangan turli xil elektron qo‘llanmalar, elektron darsliklar, o‘quv filmlari, virtual laboratoriyalar va multimedia mahsulotlari mavjud. Shunga qaramasdan o‘quv jarayonidagi elektron qo‘llanmalardan foydalanish samaradorligi ko‘p hollarda qoniqarli darajada emas. Elektron qo‘llanmalarni yaratishga tizimli va kompleks yondashuvgina ularni ta’lim muhitida qo‘llashning yangi sifat bosqichiga o‘tishini ta’minlaydi. Bu esa elektron qo‘llanmalar va ularni o‘quv jarayonida qo‘llash bo‘yicha zarur manbalar yetarli emasligini bildiradi.

Ta’limda informatsion hamda pedagogik texnologiyalarni qo‘llaganda talaba eshitish, ko‘rish, ko‘rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kimyo fanini o‘qitishda kompyuterdan o‘qitish vositasi sifatida foydalanishning pedagogik maqsadga muvofiqligini asoslashda namoyon bo‘ladi, ya’ni:

Maktab o‘quvchilarini turli interfaol o‘yinlar orqali o‘z-o‘zini nazorat va test usuli yordamida baholash uchun maxsus elektron dars ishlanma yaratish;

- Kimyoning anorganik va organik kimyo bo‘limlari yuzasidan interfaol o‘yinlarni qo‘llash orqali dars samaradorligini oshirish;
- Elektron vositalar yordamida o‘qitishni faollashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Mamlakatimizda va xorijda uzluksiz ta’limning yanada takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Bunda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o‘qitishni tashkil qilishda innovatsion yondashishni rivojlantiruvchi va barcha ta’lim jarayonlarini modernizatsiya qilish kuchi sifatida qaralmoqda.

Kimyoni o‘qitish samaradorligini oshirishda kompyuter vositalaridan foydalanishga bag‘ishlangan ishlar juda kam, bor manbalarda ham axborot texnologiyalarining o‘quv jarayonidagi imkoniyatlari yetarlicha ochib berilmagan. Bor manbalarda ham o‘quv tarbiyaviy jarayondagi imkoniyatlar yetarlicha to‘liq ochib berilmagan.

Maktablarning kompyuterda o‘rgatuvchi dasturlar, qo‘llanmalarga, kompyuterdan foydalanib o‘qitishga bo‘lgan ehtiyoj bu mavzuning naqadar dolzarb ekanligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.11.2004 yil № 548 dagi ―“Yuqori samarali multimedik o‘qitish vositasi va davlat ta’lim standartiga muvofiq ta’lim muassasalarining o‘quv adabiyotlari va qo‘llanmalarning kompyuter elektron versiyalarini yaratish dasturi haqida”gi qaroriga binoan har bir ta’lim sohasida elektron o‘quv qo‘llanmalar yaratish zaruriyati tug‘ildi.

Elektron o‘quv qo‘llanma o‘zaro gipirmurojaatlar bilan bog‘langan ma’lumot bazasi, vazifalari va nazorat blokida o‘qitish jarayonini interfaolligi bilan birga shu o‘quv qo‘llanma bo‘limlari orasidagi intellektual- mantiqiy aloqalar bo‘lishi kerak.

Kimyo fani sohasida kompyuterdan foydalanish — mavzular bayoni

tasvirlardagi animatsion harakatlar, tabiatdagi ko‘z bilan ko‘rish imkoni bo‘lmagan kimyoviy jarayonlarni o‘ziga xos tarzda namoyish etish juda katta amaliy ahamiyatga ega ekanligi ko‘plab tadqiqotchi olimlar tomonidan isbotlab berilgan. O‘quv mashg‘uloti davomidagi faol faoliyat asosan talaba va o‘qituvchi tomonidan

tashkil etiladi. Buning uchun ular orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ko‘p hollarda dars jarayonida qo‘llaniladigan metodik qo‘llanmalar vositasida tashkil etiladi. Ayniqsa, kimyo faniga endigina qadam qo‘yayotgan o‘quvchilarga didaktik o‘yinlarni o‘zida mujassam etgan noan’anaviy mashg‘ulotlar, texnik vositalar bilan tashkil etilgan dars jarayonining o‘ziyoq —“ajoyib” tuyuladi. Darslarda o‘quv texnik vositalardan foydalanish ayni paytda darslarni samarali, faol tarzda tashkil etishda, o‘quvchining diqqat e’tiborini jalb etish kabi kutilgan natijalarni bermoqda.

Barkamol avlodni tarbiyalashda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida kimyo darslarini o‘qitishda elektron darsliklar yaratish,ularni maktablarning ta’lim tizimiga qo‘llash o‘quvchilarni pedagogik mahoratini shakllantirishda yordam beradi.

Anorganik va organik kimyo kursini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan, ko‘rgazmalilikni, o‘qituvchidan ko‘p mehnat va vaqt talab qiladigan mavzularni har tomonlama samarali o‘zlashtirishga asoslangan elektron variantini yaratish, o‘quvchilarning mustaqil bilim olishlarini yo‘lga qo‘yishni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadlardan kelib chiqib, biz tavsiya etayotgan interfaol va didaktik o‘yinlar 7-9 sinf o‘quvchilari uchun o‘quv fanining ma’lum bir mavzularini maqbul o‘rganish uchun yaratildi.



1-rasm. Interfaol o‘yinlarning tarkibiy qismlari.

Bunda —“So‘z ichida so‘z”, —“Xarid qilish”, —“Seningcha mening ismim…”, —“Xatosini tut”, —“Bilimdonlar oynasi”, —Mo‘jizalar mamlakati‖ va h.k.kabi multimediali interfaol va didaktik o‘yinlardan foydalanib o‘qitish metodikasini taklif etmoqdamiz. Xususan, —“Elementlar davriy jadvali” mavzusini taqdimotlar yordamida o‘rganishda o‘yinlar joylashtirilgan tugmani bosish orqali bajariladi. 2-rasmda slayddagi o‘yinlarga tugmani yo‘naltirib ko‘rsatganda o‘yinning shartlari haqida ma’lumotlar ko‘rsatilgan.



2-rasm. Davriy sistema mavzusini o‘qitishda o‘yin haqida ma’lumotlar hosil qilish animatsiyasidan lavha**.**

Shu kabi barcha mavzular animatsion tarzda namoyish etish bilan birga, o‘qituvchi tomonidan tushuntirib boriladi. Darsni mustahkamlash uchun multimediali

—“Moddalar saltanati” sahifasida mavzular quyidagi ko‘rinishida berilgan (3-rasm). Ushbu o‘yinlarda bajarish tartibi qadamma-qadam animatsiya ko‘rinishida berilgan. O‘quvchilar bilimlarini tekshirib ko‘rishi uchun nazorat savollari va test savollari ham keltirilgan.



3-rasm. — “Moddalar saltanati” animatsiyasidan lavha.

Kimyoni o‘qitishda zamonaviy usullardan xususan, kompyuter vositalaridan foydalanish o‘quvchilarni dastlabki mavzularni o‘qitishdayoq fanga qiziqishlarini oshirishda, bilim berish va bilimlarni mustahkamlashga zamin yaratadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, kimyo kursining boshlang‘ich kursini maktab dasturi doirasida o‘qitishda agar:

- Kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan o‘qitish metodikasi yaratilsa;
- Kompyuterdan foydalanilgan holda o‘qitish jarayonini an’anaviy o‘qitish metodlari bilan uyg‘unlashtirib olib borilsa;
- Ushbu bo‘limlarni o‘rgatishda elektron vositalaridan foydalanish metodikasi ishlab chiqilsa, ta’limda samaradorlik sezilarli darajada ortadi.

Mavzuning amaliy ahamiyati shundan iboratki, kimyo fanidan darslarning samaradorligini oshirish bo‘yicha elektron va multimedia vositalarini mashg‘ulotlarda qo‘llash yordamida yuqori samaradorlikka erishish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xodjayev N. – *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. – Toshkent: TDPU, 2019.
2. Shodmonqulova D. – *Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari*. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Mamajonov A., Usmonov M. – *Adabiyotshunoslik asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
4. Soliyev A., Tursunov B. – *Kimyoni o‘qitish metodikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
5. Normuratov A. – *Elektron darsliklar va ularning didaktik imkoniyatlari*. – Toshkent: TDPU, 2021.
6. D. Jononov – *Kimyo fanini o‘qitishda interfaol usullar*. – Samarqand, 2018.

TALABALARDA MA’NAVIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALARI

Ibragimova Dilnoza Rashid qizi,
O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti doktoranti

Annotatsiya *Mazkur maqolada ma’naviy qadriyatlar, ma’naviyat va qadriyat tushunchalarining turli adabiyotlardagi turlicha tasniflari o‘rganilgan. Talabalarda ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishning dolzarbligi, ularni amalga oshirishda oldimizda turgan vazifalar va pedagogik strategiyalari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ma’naviy qadriyatlar, ma’naviyat, qadriyat, pedagogik strategiya, ma’naviy immunitet.*

Аннотация *В данной статье рассматриваются различные классификации духовных ценностей, духовности и ценностных понятий в различной литературе. Освещена актуальность и педагогические стратегии развития духовных ценностей у учащихся*

Ключевые слова: *духовные ценности, духовность, ценность, педагогическая стратегия, духовный иммунитет.*

Abstract *this article explores the different classifications of spiritual values, spirituality and value concepts in different literature. The current relevance and pedagogical strategies for the development of spiritual values in students are highlighted*

Key words: *spiritual values, spirituality, value, pedagogical strategy, spiritual immunity.*

Kirish

Ta’lim jarayonini innovatsion tashkil etishda pedagogika sohasidagi bilimlardan foydalanish, ularni amaliyotda qo‘llash metodlarini takomillashtirish bo‘yicha AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya kabi dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ta’lim sohasini modernizatsiyalash, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, o‘qitishning didaktik asoslarini global strategiyalar sifatida pedagogik amaliyotga tatbiq etish tendensiyalari kuzatilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ta’lim eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan bugungi sharoitda uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida “ta’lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish» dolzarb vazifa etib belgilandi [2].

Yurtimizda mavjud ta’lim tizimini rivojlantirishda ma’naviy merosimizni unutmagan, kelajak avlodga to‘la-to‘kis holda yetakazilgan, milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga asoslangan milliy tarbiya bugungi rivojlangan, zamonaviy jamiyatimizning oldida turgan eng dolzarb muammolardan biridir.

Yuqorida keltirilib o‘tilgan fikrlarimizni to‘ldirib, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Umuminsoniy, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik g‘oyasi Yangi O‘zbekistondagi islohotlarni o‘zgarib borayotgan zamon sharoitida texnologiya asri bolalariga chuqurroq, zamonaviy usullarda yetkazish”[1] lozim.

Talabalarda ma’naviy qadriyatlarni samarali rivojlantirish uchun nazariy asoslangan, innovatsion, raqamli muhitga moslashgan pedagogik strategiyalarning yetishmasligi mavzumizning dolzarbligini ko‘rsatdi.

Adabiyotlar tahlili: Respublikamiz tadqiqotchi olimlaridan S.Nishonova Sharq Uyg‘onish davri pedagogik fikr tarqqiyotida barkamol inson tarbiyasi, Sh.Taylanova o‘z ilmiy tadqiqotida oliy ta’lim muassalari talabalarida qadriyatlar tizimini

rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishni yoritib bergangan. Z.B. Jalilov Sharq mutafakkirlari yaratgan tarbiyaviy qadriyatlardan ta’lim jarayonida foydalanish texnologiyalarini, S.M.Yo‘ldosheva sog‘lom avlodni ma’naviy tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik asoslarini tatbiq etganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tadqiq etilayotgan mavzuni yoritishda tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish metodlari asosida muhokamaga tortildi.

Ma’lumki, o‘zagini “ma’naviyat” va “qadriyat” tushunchalari tashkil etuvchi va belgilari amaliyotda ko‘zga tashlanuvchi “ma’naviy qadriyatlar” tushunchasi ilmiy adabiyotlarda ko‘zimizga tashlanadi.

Ma’naviyat – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisadir [6; 345-b.].

Qadriyat – inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushunchadir [7; 757-b.].

I.Abdullayev “Manaviyat arabcha so‘z bo‘lib, “ma’no” fe’lidan olingan va ruh, aql, idrok, ruhiy holat, ichki kayfiyat, dadilllik, jasorat, xususiyat, mohiyat, g‘amho‘rlik, qayg‘urish, did kabi bir qancha ma’nolarni anglatadi” [3] deb ta’kidlaydi.

A.Erkayev esa ma’naviyat tushunchasini quyidagicha o‘zaklarga ajratadi: birinchi o‘zagi – arabcha “ma’no”ni anglatsa, ikkinchisi esa – qadimgi hind falsafasining “manas” tushunchasiga borib taqaladi. Uning fikricha, Sharq falsafasidagi mu’taziylar tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning, ruhoniyat olamidagi sir-u asrorlarning mohiyati “mana”ga atama sifatida asos soldilar [4].

Shuningdek, “Ma’naviyat – millatning asrlar davomida shakllangan, ildizlari uning tarixiy tajribalari va ijtimoiy madaniy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ichki (aqliy) intellektual va sobit hissiy (emotsional) dunyosidir ” deb yozadi A.Erkayev [5].

Agar, ma’naviy qadriyatlarning mazmuni va mohiyatiga nazar soladigan bo‘lsak, ushbu tushunchadagi “ma’naviyat” va “qadriyat” tushunchalarining har ikkalasi ham insonning ruhiyati bilan bog‘liq fenomen sifatida yuzaga chiqadi.

Tahlil va natijalar

Ma’naviy qadriyatlar – bu shaxsning jamiyatga, o‘ziga va boshqalarga, qolaversa, tabiatga bo‘lgan oqilona munosabatining o‘ziga xos ifodasidir.

Ma’naviy qadriyatlar ijtimoiy ahamiyati jamiyat taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etar ekan, uning evolyutsiyasi va strukturasiga ham to‘xtalib o‘tish lozimdir.

Ma’naviy qadriyatlar evolyutsiyasi qadim zamonlardan boshlab yuzaga kelgan bo‘lib, asrlar, yillar davomida shakllanib, rivojlanib, taraqqiy etib kelmoqda. Birgina O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kundan boshlab, ma’naviyatni, ma’naviy qadriyatlarimiz, milliy o‘zlikni, diniy e’tiqodlarimizni anglashga bo‘lgan e’tibor o‘zgardi. Ma’naviy qadriyatlarning yuksalishiga sabab bo‘lgan jarayonlar ta’sirida hozirgi kunda yangi taraqqiyot (milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o‘tish) bosqichida yashamoqdamiz.

Mustaqillikning poydevorini mustahkamlash uchun esa fuqarolar ma’naviy kamoloti zarur, albatta. Ma’naviy kamolot sur’atlarini tezlashtirish, tarbiya va ta’lim ishlarini yangicha yo‘lga qo‘yish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni muntazam amalga oshirib borish hozirgi zamonaviy davrning eng aktual masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Darhaqiqat, ijtimoiy-ma’naviy hayotning yangilanishi fuqarolarning ma’naviy qadriyatlarini shakllanishi bilan uzviy aloqadorligi, uni fuqarolar, ayniqsa yoshlar ongida rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoladi.

Ilmiy tadqiqotimizni amalga oshirish, dasavval, biz oldimizda turgan quyidagi vazifalarni bajarishimizni ko‘zda tutadi:

-talabalarda ma’naviy qadriyatlarning shakllanish holati va mavjud muammolar tahlili;

-oliy ta’lim ta’labalarida ma’naviy qadriyatlarning bugungi kundagi holatini eksperimental aniqlash:

-talabalarning internetdagi bugungi dezinformatsiya, axloqiy buzilishlar va g‘oyaviy tahdidlarga nisbatan “manaviy immunitet”ining darajasini aniqlash.

-ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishga ta’sir etuvchi ichki (motivatsiya, dunyoqarash) va tashqi (globallashuv jarayonlari, media, ijtimoiy tarmoqlar) omillar tahlili.

-ma’naviy tarbiya jarayonida uchraydigan pedagogik-psixologik qiyinchiliklar va kamchiliklar.

O‘rganilgan tahlil natijalaridan kelib chiqib, talabalarda ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishning quyidagi pedagogik strategiyalarini taklif etamiz:

Interfaol ta’lim usullarini qo‘llash strategiyalari: keys-stadi (haqiqiy axloqiy dilemmalar asosida), geymifikatsiya elementlari (aktual yondashuv: raqamli hikoyachilik (digital storytelling), simulyatsion o‘yinlar va vebinarlar orqali qadriyatlarni singdirish).

Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish strategiyasi: virtual sayohatlar va VR/AR texnologiyalari orqali tarixiy-madaniy meros va ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirib singdirish strategiyasi: milliy qahramonlar va tarixiy shaxslarning zamonaviy media formatlarida targ‘iboti.

Xulosa talaba-yoshlar ongida ma’naviy qadriyatlarni tiklash, ularni boyitish, takomillashtirish va rivojlantirish barobarida ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik strategiyalar asosida singdirish mamlakatimizda Uchinchi Renessans davri poydevorini barpo etish bilan bog‘liq eng muhim ustuvor vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Ta’lim sohasidagi islohotlar ijrosi va kelgusidagi vazifalarga bag‘ishlangan videoselektr yig‘ilishi.

2. Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

3. Abdulloh Ismatulloh. Ma’naviyat va ma’rifat // - T.: Milliy tiklanish, 1996, 12 noyabr.

4. Erkayev A. M’anaviyat – millat nishoni. – T.: Ma’naviyat, 1999. – 10-11 b.

5. Erkayev A. Ma’naviyat – ustun yo‘nalish. // – T.: Iqtisod va hisobot. – 1996 yil 2-son. – 20-22 b.

6. Маънавият асосий тушунчалар луғати. // Қ.Назаров ва б. – Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2021. – 816 б.

7. Маънавият асосий тушунчалар луғати. // Қ.Назаров ва б. – Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2021. – 816 б.

MATNLARNI AVTOMATIK SENTIMENT TAHLIL QILISHDA KONTEKSTGA BOG'LIQ OMILLAR

Allanazarova Saboxat Yusupboyevna,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya. *XXI asr texnologiyalar va intellektual salohiyat asrida insonlarning fikrini o'rganish bo'yicha yangi metod – sentiment tahlili paydo bo'ldi. Tahlil jarayonida ijtimoiy tarmoqlardagi foydalanuvchi sharhlarining umumiy ohangi — ijobiy, salbiy yoki betaraf kayfiyatini belgilash orqali undagi subyektiv fikr-mulohazalar ochib beriladi. Matnlarni sentiment jihatdan tahlil qilishda faqat ijobiy yoki salbiy so'zlarni aniqlash yetarli emas. Chunki baholovchi ma'no ko'pincha kontekst bilan belgilanadi. Ayrim leksik birliklar turli nutqiy vaziyatlarda o'z qutbini o'zgartirishi yoki betaraflashishi mumkin. Shu bois, sentiment tahlil jarayonida leksik birliklarning bahosiga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olish zarur.*

Kalit so'zlar: *sentiment tahlili, ijtimoiy tarmoqlar, foydalanuvchi sharhlari, subyektiv fikrlar, kontekst, baholash.*

Аннотация. *В XXI веке, в эпоху технологий и интеллектуального потенциала, появился новый метод изучения мнений людей — анализ сентиментов. В процессе данного анализа выявляется общий тон пользовательских комментариев в социальных сетях — положительный, отрицательный или нейтральный, что позволяет определить субъективные суждения, выраженные в тексте. При сентимент-анализе текстов недостаточно лишь фиксировать положительные или отрицательные слова, поскольку оценочное значение во многих случаях определяется контекстом. Отдельные лексические единицы в разных речевых ситуациях могут менять свою полярность или становиться нейтральными. Поэтому в процессе сентимент-анализа необходимо учитывать факторы, влияющие на оценочность лексических единиц.*

Ключевые слова: *анализ сентиментов; социальные сети; пользовательские комментарии; субъективные суждения; контекст; оценочность.*

Annotation. *In the 21st century, known as the era of technology and intellectual potential, a new method for studying human opinions — sentiment analysis — has emerged. This method identifies the overall tone of user comments on social networks — positive, negative, or neutral — thereby revealing subjective judgments expressed in the text. In sentiment analysis, simply detecting positive or negative words is not sufficient, since evaluative meaning is often determined by context. Certain lexical units may shift their polarity or become neutral in different communicative situations. Therefore, it is essential to consider the factors influencing the evaluative nature of lexical units during sentiment analysis.*

Keywords: *sentiment analysis; social networks; user comments; subjective judgments; context; evaluation.*

Fan va texnikaning yuksak darajada rivojlanishi natijasida ijtimoiy saytlar orqali qabul qilinadigan ma'lumotlar hajmi boshqarib bo'lmaydigan tarzda keskin oshib ketdi. Ko'pchilik foydalanuvchilar duch keladigan asosiy muammo - vaqt yetishmasligi. Sababi, barcha ma'lumotlarni o'qishning iloji yo'q. Bu esa ushbu ma'lumotlarni saralash zaruratini tug'diradi. Shu sababli tabiiy tillar jarayoni (NLP), mashinaviy o'qitish (ML), ma'lumotlarga ishlov berish (Data Science) va sun'iy

intellekt kabi sohalarga qiziqishning o‘sishi kuzatildi. Sentiment tahlili tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) doirasidagi eng faol va istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv matnlarda ifodalangan inson fikrlari, hissiyotlari, baholari hamda munosabatlarini avtomatik tarzda aniqlash imkonini beradi. Dastlab sentiment tahlili matndagi emotsional mazmunga ega leksik birliklarni aniqlash maqsadida qo‘llanilgan bo‘lsa, bugungi kunda u semantik, sintaktik va pragmatik omillarni ham qamrab olgan holda, kompyuter lingvistikasi doirasida keng miqyosda tadqiq etilayotgan dolzarb ilmiy sohaga aylangan.

Inkor shakli va sentiment qutblanishi. Sentiment tahlilida inkor shakllari eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, inkor konstruktsiyasi ijobiy baholovchi so‘zlarni salbiyga, salbiyni esa ijobiyga aylantirishi mumkin (Pang & Lee, 2008; Liu, 2012). Masalan: *“yaxshi” (+2) → “yaxshi emas” (−2)*; *“muvaffaqiyatli” (+2) → “muvaffaqiyatsiz” (−2)*. Biroq obyektiv mazmundagi gaplarda (masalan, *“Aziza uyda” → “Aziza uyda yo‘q”*) qutblilik o‘zgarishi kuzatilmaydi (Polanyi & Zaenen, 2006).

O‘zbek tilshunosligida inkor shaklining ifodalanishi morfologik, sintaktik va leksik vositalar orqali amalga oshirilishi alohida o‘rganilgan (G‘ulomov & Asqarova, 1965; Usmon, 1985; Qayumova, 2000). Xususan, *–ma* bo‘lishsizlik affiksi, *emas* to‘liqsiz fe’li, *yo‘q* yordamchisi, *hech* olmoshli birliklar, shuningdek *na…na* bog‘lovchisi ham inkorni ifodalashda muhim vositalar sifatida tilga olinadi. Tadqiqotlarda o‘zbek tili **polinegativ til** sifatida baholangan bo‘lsa (Qayumova, 2000), ingliz tili **mononegativ til** sifatida tavsiflanadi (Horn, 1989). O‘zbek tilshunosligida inkorning ifodalanishi turli usullar orqali izohlanadi:

- **morfologik**: fe’lning shaxsli shakliga –ma qo‘shimchasi, harakat nomiga –maslik affiksi qo‘shilishi;
- **sintaktik**: to‘liqsiz fe’l emas yoki mustaqil yo‘q yordamida ifodalash;
- **leksik**: hech kim, hech qachon, hech yerda kabi olmoshlar yordamida;
- **bog‘lovchi**: na...na konstruktsiyasi orqali;
- **prefiksal**: no-, be- kabi affikslar yordamida.

Tilshunoslar fikricha, o‘zbek tilida bir nechta inkor elementlari bir gap tarkibida birgalikda qo‘llanishi mumkin. Bu xususiyat uni **polinegativ til** sifatida tavsiflaydi. Ingliz tilida esa bunday hodisa kuzatilmaydi va u **mononegativ til** hisoblanadi.

Modifikatorlar va intensivlik. Sentiment tahlilida **modifikatorlar** matndagi his-tuyg‘ularni kuchaytiruvchi yoki pasaytiruvchi birliklar hisoblanadi (Kennedy & Inkpen, 2006). Masalan, *“Bu film yaxshi” → “Bu film juda yaxshi”*. Kuchaytiruvchilar tarkibiga *juda, nihoyatda, albatta* kabi birliklar, pasaytiruvchilarga esa *sal, bir oz, ehtimol* kabi so‘zlar kiradi. O‘zbek tilida modifikatorlarning yana bir xususiyati – **morfologik intensivlash** bo‘lib, sifat yoki ravishning bo‘g‘ini takrorlanish orqali orttirma daraja ifodalanadi (*qizil → qip-qizil, yashil → yam-yashil*). Bu hodisa turkiy tillar uchun xos bo‘lib, qisman takrorlash (partial reduplication) deb yuritiladi (Johanson & Csató, 1998). **Kuchaytiruvchilar**: qat’iylik va ishonch bildiruvchi modal birliklar (darhaqiqat, albatta, shubhasiz) hamda daraja ravishlari (juda, nihoyatda, eng). **Pasaytiruvchilar**: noaniqlikni bildiruvchi modal so‘zlar (shekilli, ehtimol, balki) va miqdoriy yumshatkichlar (sal, bir oz, picha).

Irrealis va baholovchilik. Tilshunoslikda **irrealis** tushunchasi jumlada real voqelik emas, balki ehtimoliy, shartli yoki taxminiy ma’noni ifodalash vositasi sifatida talqin qilinadi (Palmer, 2001). Sentiment tahlilida esa irrealis konteksti hissiyotli so‘zlarning qutblanishini neytrallash yoki pasaytirishga olib keladi (Wiebe et al.,

2004). Masalan: *“Bu yaxshi bo‘lishi mumkin”* jumlasida *mumkin* modali *“yaxshi”* so‘zining ijobiy qiymatini pasaytiradi.

1 - jadval:

O‘zbek tilida Irrealiya (noaniqlik) holatini bildiruvchi asosiy unsurlar

Irrealiya turlari:	***Modal so‘zlar:***	***Qo‘llanilishi:***	***Izoh:***
Modal fe’llar	mumkin, ehtimol, kerak, lozim, shart	Hodisaning sodir bo‘lishi yoki ehtimoliy natijalar haqida noaniq ifoda berish	Ehtimollik darajasi yuqori yoki past bo‘lishi mumkin
Shartli ifodalar	agar, -sa, babodo, basharti	Biror harakatning sodir bo‘lishi boshqa bir shartga bog‘liqligini	Boshqa hodisaga bog‘liq holda noaniqlik bildiradi
Ehtimollik so‘zlari	ehtimol, balki	Fikr yoki qarashning shaxsiy taxmin yoki gumon ekanligini ifodalaydi	Aniqlikni tasdiqlamaydi
Niyat fe’llari	niyat qilmoq, xohlamoq, orzu qilmoq, umid qilmoq	Biror natijaga yetishish istagi, lekin uning aniq ro‘y berishi aniq kafolatlanmaydi	Hissiy baho noaniqlik bilan chegaralanadi
Bo‘lishsizlik olmoshi	hech kim, hech narsa, hech qanday	Hodisani to‘liq rad etish yoki sodir bo‘lmasligini bildiradi	Bu turdagi so‘zlar kontekstga bog‘liq ravishda hissiyotni zaiflashtiradi
Buyruq va istak mayli	iltimos, shunday qiling, kerak	Maqsadga erishish uchun taflif yoki buyruq berish, lekin natija aniq emas	Aniqlik yo‘q, faqat maqsad ifodalangan

Mazkur muammolarning yechimi sifatida tadqiqot ishimizda modifikatorlar tarkibiga kirgan 33 ta birlikning graduatsiyaga asoslangan foiz klassifikatsiyasi, 10 ta inkor shakl uchun mos foiz qiymatlar berildi.

Xulosa

Kontekstual darajada sentimentni aniqlash yondashuvi an’anaviy so‘z darajasidagi tahlilga nisbatan yanada mukammal va ishonchli natijalarni beradi. Chunki matndagi so‘zlarning semantik o‘zaro bog‘liqligini, sintaktik qurilishini hamda pragmatik kontekstini hisobga olish orqali hissiyot ifodasining nozik ma’nolarini aniqlash mumkin. Bu yondashuv, ayniqsa, ijobiy va salbiy fikrlar birgalikda ifodalangan ijtimoiy tarmoqdagi izohlarni tahlil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘ulomov A., & Asqarova M. (1965). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi.
2. Horn L. (1989). A natural history of negation. Chicago: University of Chicago Press.
3. Johanson L., & Csató É.Á. (1998). The Turkic languages. London: Routledge.

4. Kennedy A., & Inkpen D. (2006). Sentiment classification of movie reviews using contextual valence shifters. Computational Intelligence, 22(2), 110–125.
5. Liu B. (2012). Sentiment analysis and opinion mining. San Rafael, CA: Morgan & Claypool.
6. Palmer F. R. (2001). Mood and modality. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Pang B., & Lee L. (2008). Opinion mining and sentiment analysis. Foundations and Trends in Information Retrieval, 2(1–2), 1–135.
8. Polanyi L., & Zaenen, A. (2006). Contextual valence shifters. In J. Shanahan, Y. Qu, & J. Wiebe (Eds.), Computing attitude and affect in text: Theory and applications (pp. 1–10). Dordrecht: Springer.
9. Qayumova M. (2000). O‘zbek tilida bo‘lishsizlikning ifodalanishi (Nomzodlik dissertatsiyasi). Toshkent.
10. Usmon, O. (1985). Hozirgi o‘zbek tili morfologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi.
11. Wiebe J., Wilson T., Bruce R., Bell M., & Martin M. (2004). Learning subjective language. Computational Linguistics, 30(3), 277–308.

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR MUHITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INTELLEKTUAL FAOLIYATGA OLIB KIRISH

Maxamatova Feruza Safaraliyevna,
A.Qodiriy nomidagi JDPU doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual salohiyatini oshirish usullari va mazmuni, samarali vositalar xususida fikr yuritilgan. O‘qituvchini yangi raqamli kompetensiyalariga qanday bo‘lishi jahon pedagogikasi misolida bayon qilingan. Raqamlashtirish kompyuterlashtirishni joriy qilinishi, hayotni va jamiyatni barcha sohalariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Oliy ta’limda raqamli texnologiyalar ahamiyati, ulardan oqilona va samarali foydalanish talablari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiya, integratsiya, ta'lim jarayoni, yangi texnologiyalar, raqamli ta'lim, onlayn ta'lim, interaktiv metodlar, sun'iy intellekt, pedagogik innovatsiyalar, o‘qitish samaradorligi, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini o‘rganishi, ta'lim tizimi, virtual klasslar, ta'lim platformalari, ta'limda integratsiyasi, o‘qituvchilarni tayyorlash, bilim olish usullari, ta'limning raqamli transformatsiyasi, o‘qitishning yangi metodlari, texnologik ta'sir, pedagogik yondashuvlar.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются способы и содержание повышения интеллектуального потенциала будущих учителей в условиях цифровых технологий, а также эффективные средства для этого. Описаны новые цифровые компетенции педагога на примере мировой педагогической практики. Внедрение цифровизации и компьютеризации оказывает влияние на все сферы жизни и общества. Отмечается важность цифровых технологий в высшем образовании и приводятся требования к их рациональному и эффективному использованию.*

Ключевые слова: *цифровые технологии,интеграция, образовательный процесс, новые технологии, цифровое образование, онлайн-обучение, интерактивные методы, искусственный интеллект, педагогические инновации, эффективность обучения, самостоятельное обучение учащихся, система образования, виртуальные классы, образовательные платформы, интеграция в образовании, подготовка учителей, способы получения знаний, цифровая*

трансформация образования, новые методы обучения, технологическое воздействие, педагогические подходы.

Abstract: *This article discusses methods and content for enhancing the intellectual potential of future teachers in the context of digital technologies, as well as effective tools for this purpose. It outlines the new digital competencies required of teachers, illustrated through examples from global pedagogy. The introduction of digitalization and computerization is impacting all areas of life and society. The article also highlights the importance of digital technologies in higher education and presents the requirements for their rational and effective use.*

Key words: *digital technology, integration,educational process, new technologies,digital education, online education, interactive methods, artificial intelligence, pedagogical innovations, teaching effectiveness, students' self-learning, education system, virtual classrooms, educational platforms, integration in education,teacher training, methods of acquiring knowledge, digital transformation of education, new teaching methods, technological impact,pedagogical approaches.*

Hozirgi zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar, innovatsion teznologiyalar har bir sohada, har bir jabhada ishtirok etadi. Xususan, ta'lim sohasida ham. XXI asr raqamli texnologiyalar asri. Raqamli ta’lim muhitlari zamonaviy ta’lim tizimlarida markaziy o‘rinni egallab, zamonaviy bilimlarni yetkazib berish, ulardan foydalanish va o‘z-o‘zini baholashga ta’sir qiladi. Shunday ekan, ta'lim sohasini ham raqamli texnologiyalar chetlab o‘tmaydi. Yangi texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini yaxshilaydi, ko‘plab imkoniyatlar yaratadi. Pedagogik faoliyatni samarali olib borishda o‘qituvchining asosiy vositalari hisoblanadi. Har bitta ta'lim jarayoni o‘zining zamonaviy texnologiyalarga boyligi va yangicha yondashuvlari bilan o‘z sifat darajasini ko‘taradi. Butun dunyoda hozir katta e’tibor ostida turgan tushunchalar bular “raqamli savodxonlik, “raqamli ta’lim”, “raqamli ta’lim muhiti”, “raqamli didaktika” bo‘lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtda raqamlashtirish inson faoliyatining barcha sohalarini ishonch bilan tezkor egallab bormoqda. Jamiyat oldida endi ana shu raqamli kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni tarbiyalash vazifasi turibdi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev raqamli iqtisodiyot, raqamli ta’lim, raqamli aqlli shaharlar qurish minglab dasturchilar tayyorlash to‘g‘risida qarorlar va farmoyishlar chiqardilar. Raqamli iqtisodiyot raqamli turizm va raqamli ta’lim sohasida qator mutaxassislar tayyorlash ta’lim dasturiga kiritilgan. Davlat xizmatlarini yo‘lga quyib butun aholiga raqamli ta’lim berish ularda raqamli murojat ko‘nikmalarini, telefon va kompyuterlardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Bugungi kunda, ta'limning asosiy vazifasi ta'lim oluvchilarni axborot - ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga o‘rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash sharoitini yaratib berish zarur .

Informatizatsiyalashtirish ta’lim sohasida ma’lumotlarni to‘plash ishlov berish saqlash va texnik vositalardan foydalanib o‘quvchi va o‘rganuvchilarga uzatib ularning tafakkurlari va intelektual qobiliyatlariga takomillashtirish nazarda tutiladi. Raqamli transformasiya tufayli zamonaviy sharoitda oliy ta'lim tizimining rivojlanishi o‘quv jarayonini qurishga, shu jumladan ilg‘or o‘quv texnologiyalaridan foydalangan holda zamonaviy elektron axborot-ta'lim muhitini yaratishga, ta'limni boshqarish strategiyasini amalga oshirishga va individual xususiyatlarga asoslangan o‘quv materiallarini moslashtirishga yangi talablarni qo‘yadi. Elektron ta'limni jadal joriy etish va raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish sharoitida ta'lim formatlari o‘zgarib bormoqda, ta'lim paradigmasi oflayn va onlayn ta'limni birlashtirish sharoitida amalga

oshiriladigan gibrid o‘quv jarayoniga o‘tmoqda. Bu davlatimizning ta’lim sohasidagi nufuzli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli ta’lim tizimini yaratish HEMIS dasturi oliy ta’limda ta’limni raqamlashtirishning yorqin namunasi bo‘lib hisoblanadi. Ta’limni barcha turlarini raqamlashtirishni shu darajaga yetkazish kerakki u aholining barcha qatlamiga ta’lim olishga imkon yaratib bersin. Ta’limni raqamlashtirishni shu darajaga yetkazish kerakki barcha ta’lim tashkilotlari va boshqaruv tizimidagi xodimlar undan foydalana olsinlar. Oliy ta’limda HEMIS, o‘rta maxsus ta’limda, o‘rta ta’limda elektron kundalik va hokazolar yo‘lga tizimli qo‘yilishi kerak. Raqamli ta’lim va raqamli iqsodiyotda har bir ishtirokchining kompotensiyalari bo‘lishi kerak. Bu degani har bir fuqaroning shaxsiy kompotensiyalari elektron muhitda shakllantiriladi. Uning ko‘nikma, malaka, bilim, kompotensiyalari to‘plagan tajribasi, turli yutuqlari ko‘rinib turadi. Bu fuqaroni mehnat bozorida raqobatbardoshligini ko‘rsatadi. Insonni mehnat bozorida raqobatbardoshligini ko‘rsatadi. Inson mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish maqsadida yetishmaydigan kompetensiyalarini shakllantiradi va malakasini oshiradi. Masalan hozirgi magistratura va maqsadli doktoranturada chet tilini bilish darajasini belgilovchi ma’lum sertifikat va guvohnomalarni bo‘lmasligi ularni kompetensiyasini oshirishga va malakasini takomillashtirishga turtki beradi. Iqtisodni raqamlashtirish to‘g‘risidagi davlat siyosati, ta’lim o‘rta maxsus ta’lim sohasigacha raqamlashtirilgan sohada ishlay oladigan kompetensiyali xodimlarni pedagoglarni tayyorlash masalasini qo‘yadi. Yangi informatsion va komunikatsion texnologiyalar. raqamlashtirilgan muhitda to‘g‘ri yo‘nalishini olishda pedagoglarga qo‘shimcha bilimlar, malakalar zarur bo‘ldi. Raqamli ta’lim va raqamli ta’lim muassasida faoliyat yuritish uchun raqamli kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, ta’lim dasturlari, onlayn viktorinalar va virtual simulyatsiyalar kabi raqamli vositalar o‘rganishni yanada qiziqarli va interaktiv qilib, mustaqil ta’lim samaradorligini yanada oshirishi mumkin. Raqamli vositalardan foydalanish, shuningdek, o‘qituvchilarga o‘quv jarayoni haqida qimmatli tushunchalar berishi mumkin, bu ularga alohida talabalar qo‘shimcha yordam yoki ko‘rsatmalarga muhtoj bo‘lishi mumkin bo‘lgan sohalarni aniqlash imkonini beradi.

Pedagog o‘quvchilarning faolligi va bilimini tanqidiy obyektiv, tahlil qilib baholay olishi kerak. O‘z vaqtida qayta aloqani o‘rnatishda raqamli texnologiyalardan foydalanishi lozim. O‘qituvchi raqamli resurslarga kira olishi kerak, shunday qobiliyatga ega bo‘lishi kerak. Shu bilan birga ta’limga differensiallashgan va individual, shaxsiy yondashuvni tarbiyalashi kerak bu bilan o‘quvchilarni ham raqamli texnologiyalarga jalb qilishi kerak. O‘quvchilarda tug‘iladigan raqamli ta’lim muammolarini hal qilishi kerak. O‘quvchilarni raqamli ta’limda o‘zini ko‘rsatishga yo‘l ochib berishi kerak. O‘qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor,elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o‘tishi ham mumkin. O‘qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko‘p bo‘lsa, mazmun shunchalik oshadi.

Ta’limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish lozim. Har bir o‘qituvchi ta'limda individual ravishda yangilik kiritishi mumkin. O‘z fanining mazmun-mohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fan yutuqlari va innnovatsiyalar haqida yangi ma'lumotlarni o‘rgangan holda o‘qitish jarayonida ularni qo‘llab, misollar keltirib, ta'limda yangi metodni yaratishi, hamda shu asosida dars

o‘tishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o‘qituvchi o‘z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi. Pedagog kasbiy hamkorlikda o‘zini informatsiyani yig‘ish, raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarni oldidagi muammolarni yuqori saviyada hal qila olishi kerak. Raqamli texnologiyalarda o‘quvchilarni samarali o‘qishi va ta’lim olishini ta’minlashi lozim. Raqamli didaktikani rivojlanishi uchun didaktik loyixalar va birgalikdagi ta’lim olish va yangi bilimlarni o‘zlashtirishni ko‘zda tutadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin. pedagoglar raqamli mihitda ishlash bilan birga to‘plagan ma’lumotlarni interfaol ishlash ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlash fan, ta’lim va zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilishni talab etuvchi kompleks jarayondir. Bu jarayon nafaqat bilimlarni uzatish, balki talabalarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va axborot texnologiyalari yordamida muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shuni qayd etish lozimki, ta'limni raqamlashtirish birinchi navbatda, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida onlayn ko‘rinishdagi muloqot integratsiyasini rivojlantirsa, ikkkinchi tomondan, talabalarning o‘z ustida ilg‘or o‘quv texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shaklantiradi. Bu esa hozirgi rivojlanish jarayonida raqamlashtirishning yangi tendensiyalarini ta'lim jarayoniga qo‘llashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909- sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 – son Farmoni.
3. Tashmatova G. “Raqamli texnologiyalar muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini oshirish”. theory and analytical aspects of recent research International scientific-online conference Part 20: DECEMBER 9th 2023.151-154.
4. Orishev J.B. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonini tashkil etishdagi o‘rni // Ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Jizzax 23 aprel. 2021 y. B. 167-170 Barkamol avlod- “O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori". Toshkent-1997.
5. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. T.: Fan. 2009. -146 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BADIIY MATNLARNI O‘QITISH ORQALI VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

O‘ktamova Mehrigiyo A‘zamovna,
Buxoro Davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot ishida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda o‘qish savodxonligi darslarining tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilingan. Ayniqsa, badiiy matnlarni innovatsion metodlar asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarning milliy ongini, Vatanga sadoqatini shakllantirish*

yo‘llari asoslab berilgan. Tadqiqot davomida kuzatuv, tajriba-sinov, suhbat, kontent-tahlil kabi usullar qo‘llanilib, innovatsion yondashuvlarning samaradorligi amaliy misollar asosida ko‘rsatib berilgan.

Tayanch so‘zlar: *Boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, badiiy matn, vatanparvarlik, his-tuyg‘u, tarbiya, metodika, innovatsion yondashuv, dramatizatsiya, rasm chizish, multimedia, emotsional o‘qish, shaxsiy rivojlanish, milliy g‘urur, o‘quvchi faolligi, mustaqil fikr, samimiylik, og‘zaki nutq, bolalar adabiyoti, o‘qituvchi roli*

Annotation. *This research explores the educational potential of reading literacy lessons in fostering patriotism among primary school students. The study particularly emphasizes the use of innovative methods in teaching literary texts to develop national consciousness and devotion to the homeland. Methods such as observation, experimental testing, interviews, and content analysis were applied to demonstrate the effectiveness of innovative approaches through practical examples.*

Keywords: *primary education, reading literacy, literary text, patriotism, emotion, upbringing, methodology, innovative approach, dramatization, drawing, multimedia, emotional reading, personal development, national pride, student engagement, independent thinking, sincerity, oral speech, children's literature, teacher’s role*

Аннотация. *В данном исследовании проанализированы воспитательные возможности уроков читательской грамотности в формировании патриотических чувств у учащихся начальных классов. Особое внимание уделено обучению художественным текстам с применением инновационных методов как способу развития национального самосознания и преданности Родине. В ходе исследования использовались такие методы, как наблюдение, эксперимент, интервью и контент-анализ, что позволило на практических примерах показать эффективность инновационных подходов.*

Ключевые слова: *начальное образование, читательская грамотность, художественный текст, патриотизм, эмоция, воспитание, методика, инновационный подход, драматизация, рисование, мультимедиа, эмоциональное чтение, личностное развитие, национальная гордость, активность учащегося, самостоятельное мышление, искренность, устная речь, детская литература, роль учителя.*

Kirish

Bugungi ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining qalbida Vatanga mehr, milliy qadriyatlarga hurmat va ona yurtga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu kabi yuksak insoniy fazilatlarni bolalikdan boshlab singdirish katta ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi esa aynan shunday tarbiyaviy jarayonlar uchun eng qulay, hal qiluvchi davrdir. Bu yoshdagi o‘quvchilar dunyoni hissiy qabul qiladilar, ular uchun hayotiy haqiqatlar obrazlar orqali tushunarliroq va ta’sirchanroq bo‘ladi. Shuning uchun o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matnlarni o‘qitish nafaqat til va nutq rivoji, balki ruhiy-ma’naviy kamolot vositasiga ham aylanadi. Badiiy asarlar orqali o‘quvchilar Vatan haqida fikrlashni, uni his etishni va undan faxrlanishni o‘rganadilar. Ushbu jarayonda esa innovatsion yondashuvlar – zamonaviy va ijodiy metodlar, texnologiyalar, emotsional ta’sir vositalari muhim o‘rin tutadi. Har bir dars o‘quvchida nafaqat bilim, balki chuqur his uyg‘otsa, u bolalikdan boshlab vatanparvarlikni yuragida his qila boshlaydi. Shunday qilib, boshlang‘ich sinflarda badiiy matnlarni innovatsion yondashuvlar bilan

o‘qitish orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

2. *Shaxsiy faoliyat yo'nalishi*. Bu yo'nalishda o'qituvchi o'zi, o'z ishi, hamkasblari, o'quvchilari, ularning ota-onalariga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Bu o'qituvchining o'z mavqeyini tushunishi, o'z-o'ziga baho berishi, o'z-o'zini anglashi, mustaqil bilim olishga intilishi, kasbiy rivojlanishi, o'z kasbiy faoliyatini rivojlaitirishi, bunyodkorlik, ijodkorlik, tadbirkorlik layoqati, yangilikka muntazam intilishida namoyon bo'ladi.

3. *Ijtimoiy pedagogik faoliyat yo'nalishi*. U o'qituvchilarning ta'lim oluvchilar jamoasini his eta olishi, ularning tuyg'ularini anglashi, qiziqish va ehtiyojlari, duch keladigan qiyinchiliklarini bilib olishi;

- har bir ta'lim oluvchining individual psixologik xususiyatlarini ilg'ay olishi;
- darsda va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganligi;
- turli ijtimoiy foydali ishlarga o'quvchilarni jalb eta olishi;
- fan, hayot, san'at, ijtimoiy foydali mehnatga qiziqish uyg'ota olishini ifodalaydi.

4. *Axborot-kommunikativ faoliyat yo'nalishi*. U o'qituvchining ma'lumot axborotga ega ekanligi; voqelik, pedagogik jarayondagi voqea-hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan qurollaganligi, axborot va kommunikativ texnikadan ma'lumotlar ola bilishi, ular ustida qayta fikrlashi, hamkasblari va o'quvchilarga yetkaza olish qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Qayd etib o'tilgan hamda tavsiflangan pedagogik mahoratni egallashning mazkur yo'nalishlari o'qituvchi faoliyatining asosini tashkil qiladi *(Pedagogik ensiklopediya 2017- y. 3- jild).* Pedagog insonparvarlik yo'nalishga ega bo'lishi-ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilishi, ayrim masalalarni o'zini ta'lim oluvchi o'rnida sezib hal etishi, adolatli bo'lishi, pedagogik faoliyatni pirovard maqsadga – barkamol avlod tarbiyalashga yo'naltirishda ifodalanadi. Buyuk mutafakkirimiz Ibn Sino ham o'qituvchi shaxsida halollik, adolat, poklik, mehnatsevarlik, fidoiylik, odamgarchilik kabi hislatlarni qadrlagan.

Insonparvar bo'lish mahoratli pedagog faoliyatining bir qancha jihatlarini qamrab oladi va uning aniq vazifalarini ham belgilab beradi. Insonparvarlik deganimizda, ta'lim oluvchilarning dini, irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, ularning barchasiga bir xil munosabatda bo'lishni tushunamiz. Har bir ta'lim oluvchiga insonparvarlik nuqtayi nazaridan yondoshishimiz darkor. Bolalarni seva olish, ularga o'z ota-onalaridek mehribonlik ko'rsata bilish mohir pedagogning muhim insonparvarlik fazilatlaridan biridir. Pedagog har doim, hamma vaqt ta'lim oluvchilarga mehribonlik ko'rsata olishi lozim. O'z ta'lim oluvchisi to'g'risida shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarmaslik, ular haqida salbiy yoki ijobiy fikrga kelmaslik kerak. Ta'lim oluvchilar orasida uning "sevimli" yoki "yomon" ko'radigan tarbiyalanuvchilarni bo'lishi ta'lim oluvchida pedagogga bo'lgan hurmatni so'ndiradi. Har qanday bo'sh va past o'zlashtiradigan, "tarbiyasi qiyin" ta'lim oluvchi bilan ishlaganda pedagogning vazifasi shundan iboratki, ta'lim oluvchidagi ana shu bilinear-bilinmas lekin eng muhim ijobiy fazilatni topa olish va shu fazilatga tayanib ta'lim oluvchi mulkidagi, o'tmishidagi salbiy xususiyatlarni tugatishga intilmog'i lozim. Pedagog shaxsiy fazilatlari tizimida pedagoglik faoliyatga bo'lgan ehtiyoj nomli muhim kasbiy yo'nalish mavjudki, u pedagogik mahoratni egallash uchun katta rol o'ynaydi. Bunday professional xususiyatlarni olimlarimiz Sh. Baratov va boshqalar shunday izohlaydilar: "Pedagogik faoliyatga bo'lgan ehtiyoj professional mahoratdagi pedagog shaxsiy fazilatlarini belgilovchi qimmatli bahodir, u o'zida: ...bolalarga

qiziqish va muhabbatni; pedagogni ishga havasni; psixologik-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanligini mujassamlashtiradi”.

Muhokamalar. Pedagogning ta’lim oluvchilarga nisbatan mehribonligi, hayrixohligi bolalarni sevishi insoniy talabchanlik asosida ko‘rilmog‘i lozim, insonparvarlikka asoslangan talabchanlik ta’lim oluvchilarni intizomga chaqiradi, o‘z hulq-atvori to‘g‘risida o‘ylashni, o‘ziga boshqalar ko‘zi bilan qarashni, salbiy xususiyatlarini qayta tarbiyalashni, ijobiy fazilatlarini takomillashtirishni yo‘lga qo‘yishga da’vat etish muddaosiga erishadi. Buning uchun pedagog talabning me’yorini bilishi lozim. Talab istiqbolli bo‘lib, bolaning kelajak hayoti, faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan, bolalarni quvonchga qiziqishlarini takomillashtiruvchi yo‘naltirilgan bo‘lsagina, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shu bilan birga, pedagogning o‘zi milliy qadriyatlarning mohiyat mazmunini chuqur anglashi, ularga hurmat e’tiqodi bo‘la olishi darkor. Ijtimoiy hayot qonunlarini aniq tushunish, milliy-ahloqiy qadriyat, mafkura mazmunini anglash ta’lim oluvchilarda bobolar avlodlar ruhiga hurmatni, ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, pedagog shaxsiy fazilatining muhim omili o‘tmish merosini mukammal bilish, qadriyatlar, urf-odatlar mazmunini anglash ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarini tushunish orqali ilmiy dunyoqarashni o‘zida tarbiyalangan bo‘lishi kerak.

Kasbiy bilimlar pedagogik mahoratning tub asosini tashkil qiladi. Pedagog bilimi, bir tomondan u dars berayotgan fan to‘g‘risidagi bilimiga, ikkinchi tomondan esa, uni o‘zlashtirayotgan ta’lim oluvchilarga qaratilgan bo‘ladi. O‘zi dars berayotgan fanni, o‘ni o‘qitish metodikasi, pedagogika va psixologiya fanlaridan puxta bilimga ega bo‘lishi, pedagog professional bilimlari mazmunini tashkil etadi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning o‘z taraqqiyot yo‘li mohiyati, milliy tarbiya mohiyati va mazmunini chuqur anglash, chuqur ilmiy nazariy salohiyati, pedagogik ijod, o‘z fanining tarbiyaviy imkoniyatlarini mukammal bilishi, pedagogik bilimlarni takomillashtirishga intilish, mamlakatimiz Prezidentining ichki va tashqi siyosatidan xabardorlik, o‘zbek xalqining an’analari, qadriyatlari, urf-odatlarini yaxshi anglashi, siyosat, tarix, madaniyat, ma’naviyat, adabiyot va san’at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o‘lkashunoslik, texnikaga oid ma’lumotlardan xabardorlik, etnopedagogika, etnopsixologiyaga oid bilimlarga ega bo‘lish va hokazo.

Kasbiy bilimlar negizida pedagog hatti-harakati va xulqining asosini tashkil etuvchi pedagogik prinsiplar va qoidalar vujudga keladi. Bu prinsip va qoidalarni har bir pedagog o‘z tajribasiga tayangan holda yaratadi. Bu bilimlar doimo takomillashib borishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim kontseptsiyasida mutaxassis vazifalari quyidagicha belgilangan: *Mutaxassis o‘z faoliyati, sohasidan qat’i nazar, ijodiy jamoalarda ishlay olish qobiliyatiga, menejment va marketing sohalarida tayyorgarlikka ega bo‘lishi, yangi texnologiyalarni joriy etishning xo‘jalik, ijtimoiy va madaniy jihatlarini aniq tasavvur qila olishi kerak*. Ushbu fikrlar o‘qituvchilarga ham bevosita ta’aluqli. Chunki jamiyatimizda sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar,

Xulosa. Bozor munosabatlariga kirib borishimiz o‘qituvchidan nafaqat kasbiy bilimlarni, balki iqtisodiy, yuridik, texnikaviy bilimlardan ham xabardor bo‘lishni hamda bunday yangiliklarni o‘zining pedagogik faoliyatiga bolalarni har tomonlama kamol toptirishga doir ijodkorona (kreativ) foydalana bilishni taqozo qilmoqda. Bu o‘rinda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi xususida alohida to‘xtalmoq zarur. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari boshlang‘ich sinf bolalarining yosh, individual hamda psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘zlarining pedagogik

faoliyatlarini olib borishi talab etiladi. Vaholanki, bola shaxsning shakllanishida pedagogik hamda psixologik mexanizmlar faol ishtirok etadi. Ya'ni shaxsning shakllanishida irsiyat, muhit, tarbiya, faoliyat bilan bir qatorda insonning ichki kechinmalari, tushunchalari, ruhiyati, havotirlari va qiziqishlari kabi ko'plab psixologik hususiyatlar, holatlar va jarayonlar ham asosiy o'rinni egallaydi. Shu nuqtay nazardan aytish joizki, bola shaxsiga ta'sir etayotgan turli xil omillar, albatta, insonning ruhiyati, sezgilari, his-hayajonlari, fikr-mulohazalari chizgisida namoyon bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativligi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilishda ko'zga tashlanadi. Har bir fanning o'z ob'ekti, o'rganadigan sohasi mavjud. Masalan, zoologiya hayvonlar, ular organizmining to'zilishi, yashash sharaitini o'rgansa, astronomiya osmon jismilari, ularning xususiyatlarini o'rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazarova S. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1992.
2. Sayfullayeva R. va bosh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – T.: 2010.
3. To'xtaxo'jayeva M. "Pedagogika" – T.: O'qituvchi 2010.
4. Uralov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.; 2021.
5. Yo'ldoshev J. F., Usmonov S. A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.; 2008.
6. Pedagogik ensiklopediya 2017- y. 3- jild
7. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. – T.: O'qituvchi. 1995.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SENZITIV RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Xurvalieva Tarmiza Latipovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti professoru, pedagogika fanlari doktori,
Xursanova Fotima,
Xamrayeva Zuhra,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talablari

Аннотацияю *В статье представлены теоретические основы об особенностях сензитивного развития детей дошкольного возраста от рождения до 6-7 лет. В частности, описаны особенности психического развития ребенка в каждый возрастной период.*

Ключевые слова*: сенсорика, психика, речь, общение, среда, поведение, воспитание, культура, развитие, рефлексия, интуиция, сенсорика.*

Annotationю *The article presents the theoretical foundations about the features of the sensitive development of preschool children from birth to 6-7 years. In particular, the features of the mental development of the child in each age period are described.*

Key words*: sensorics, psyche, speech, communication, environment, behavior, upbringing, culture, development, reflection, intuition, sensorics.*

Ma'lumki maktabgacha bolalik davrida bola aqliy, axloqiy, jismoniy va ma'naviy shakllanishning o'ziga xos psixologik xususiyatlarga boy yo'lni bosib o'tadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasi va ta'lim-tarbiyasi bo'yicha xorijda va mamlakatimizda bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan V.Shtern, K.Byuler, K.Levin, A.Vallon, Z.Freyd, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.R.Luriya, A.N.Leontev, P.Ya. Galperinlar tomonidan senzitiv rivojlanish va shaxs taraqqiyotining o'zaro munosabat nazariyasi yaratilgan.

Senzitiv davr **(**lotincha sēnsus so‘zdan olingan bo‘lib, hissiyot, sezgi) ontogenetik rivojlanish davri bo‘lib, butun tana a’zolarini ichki va tashqi ta’sirlarga yuqori hissiy javobi ya’ni fiziologik, psixologik jihatdan o‘zgarishi yangi bilim va xulq-avtorn shakllarini o‘zlashtirishga tayyorligi bilan namoyon bo‘ladi.

Fransuz psixologi va faylasufi Rene Dekart bolaning senzitiv davrini o‘rganib, quyidagi xulosaga keladi: “5-6 yosh bolalarda g‘oyalar mavjudligiga ko‘ra uchta turga bo‘linadi: natija va oqibatga ko‘ra paydo bo‘ladi; tayyor g‘oyalar; tug‘ma va tabiiy g‘oyalar. Natija va oqibatga ko‘ra paydo bo‘ladigan g‘oyalar hissiy tajribalar bilan bog‘liq bo‘lib, sezgi a’zolarimizni umumiy holatidan kelib chiqadi. Bu g‘oyalarni bola mustaqil ravishda o‘z tajribalarini tahlil qilishi natijasida oladi. Ular alohida narsa va buyumlar, hodisalar haqida bilim beradi, lekin atrof olam haqidagi ob’ektiv qoidalarni anglashiga yordam bermaydi. Tug‘ma va tabiiy g‘oyalar insonga atrof olam borliq haqida hamda uning rivojlanish qonuniyatlari haqidagi bilimlarni beradi” [5; 62-63-b].

Dekart va Spinoza voqelikni bilishda bevosita haqiqatga erishish bilan amalga oshiriluvchi alohida usul va aqliy sezgirlik yetakchi hisoblanishini ilgari suradilar. Inson o‘zini anglasa, atrof olamni ham anglaydi, qalb va ruhiyat inson tanasidagi qoidalar bir xil kechadi [7].

Dj.Lokk insondagi barcha bilimlar hissiy tajriba asosida yig‘iladi degan xulosaga keladi- “ hissiy tajriba ikkita turga bo‘linadi: refleksiya va sezgi. Ikkala jarayon ham tashqi olam haqidagi bilimlarning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Sezgi nafaqat anglashning birinchi bosqichi, balki tashqi olam haqidagi bilimlarni kashf qilishning yagona yo‘li, inson bilan bog‘lanuvchi yagona kanal hisoblanadi. Insonning sezgi a’zolari narsa va buyumlar, atrofimizdagi odamlar haqida batafsil ma’lumot beradi” [2]. Maktabgacha yoshdagi bolalarda avvalo tarbiyachi sezgini rivojlantirishi muhim. Sezgi rivojlanishi bilish faoliyatini samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

David Gartli bolaning psixik rivojlanish jarayoniga ta’sir ko‘rsatish haqiqatdan ham chegaralanmagan deb hisoblaydi. U quyidagi fikrlarni bildiradi “inson psixikasining rivojlanishi va xulq-atvorining shakllanishiga oid bilimlarni qiyoslash orqali o‘zlashtirishdan bola tarbiyasida foydalanish lozim.Chunki bolaning kelajagi atrofdagilarning unga nimalar haqida axborot berayotganligi bilan bog‘liqdir. Shuning uchun bolaning qanday o‘sishi, qanday fikrlashi va hatti-harakati faqatgina kattalarga bog‘liqdir”[2;72-81-b]. Shunday ekan, maktabgacha yoshidagi bolalar tarbiyasida oila va ota-onalar ta’sirini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

L.S.Vigotskiy senzitiv rivojlanish davrini quyidagicha tasniflaydi ”rivojlanishga aniq hissiy ta’sir ko‘rsatish, unda murakkab o‘zgarishlar ro‘y beradi”[1]. Boshqa davrda bunday holatlar neytral bo‘lishi mumkin, qayta ta’sir ko‘rsatadi rivojlanish davrida. Senzitiv davr har qanday tirik organizmda yuz beradi. Olim nutq rivojlanishingg beshta davrga ajratgan.

1). 1,5-3 yoshgacha bolalarda so‘z boyligi ortadi. Qo‘l motorikasi rivojlanadi.

2).3-4 yoshda tovush va xarflar bilan tanishadi. Anglangan nutq rivojlanadi.

3).4-5 yoshda matematika va musiqaga qiziqish paydo bo‘ladi. Rang, shakl va o‘lchamni tushunadi. Yozish malakalari shakllanadi.

4). 5-6 yosh ijtimoiy ko‘nikma rivojlanadi, muloqotga qiziqish ortadi. O‘qish va yozish malakalari shakllanadi.

5).8-9 yoshda nutqiy qobiliyat rivojlanadi. Tasavvur kengayadi va madaniy ko‘nikmalarni egallaydi [1]. Shunday qilib, 5-6 yosh o‘qish uchun senzitiv davr sanaladi. Bu yoshdagi bolalar o‘qishni tez o‘zlashtiradi.

M.Montessori fikricha, senzitiv davrda har bir bolaning individual xususiyatini inobatga olish muhim. Bu davrda aniq chegara bo'lmaydi, biri boshlansa, ikkinchisi uzoq muddat davom etishi mumkin.

Olimlar senzitiv davrni deraza oynsiga o'xshatadi. Oyna asta sekin yopiladi, qaysidir yoshda inson psixik funksiyalarni o'zlashtira olmaydi. Senzitiv va tanqidiy fikrlash davrida emotsional rivojlanish kuzatiladi. Masalan: bolani erkalatish, mehr berish, diqqat e'tiborli bo'lish muhim. Ilk kunidanoq kattalarga ishonishni boshlaydi. Agarda ota-onalar bolaning harakatlari ga e'tibor bermasa, javobsiz qolsa, u kamgap, odamovi bo'lib qoladi. Bolalarda qandaydir faoliyatga qiziqish paydo bo'ladi, kattalar uni qo'llab-quvvatlamasa bir qancha muddat o'tgach, qiziqish yo'qoladi. Bolaning turli yosh davrida atrof olamning ta'sirini qabul qiladi. Vaqtlar o'tib, mazkur jarayon ancha pasayadi. Masalan, ilk yoshda bola nutqi osongina shakllanishi mumkin, kattalar yordamisiz gapirishni biladi, grammatik gaplar tuzadi, fonetik va leksik jihatdan mustaqil harakat qiladi. Agarda nutq shakllanishida qandaydir ta'sir bo'lsa, bir qancha muddat to'xtalib qoladi va rivojlanishida qiyinchilik ro'y beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Виготский Л.С. Вопросы детской психологии-СПб.: Союз, 1997.-224 с.
2. Галустова О. В. Шпаргалка по истории психологии: учеб. пособие. -М.: ТК Велби, 2005.-48 с.
3. Дарвиш О.В**. Возрастная психология. Учеб.пособие для студ. высш. учеб. Заведений**. - М.: Владос-пресс, 2003.-341 с.
4. Davletshin. M.G., Sh.Do'stmuhamedova va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.O'quv metodik qo'llanma.-T.: 2004-129 b.
5. Декарт Р.Рассуждения о методе.М.: 2020-416 с.
6. Дубро ва В.,. Ковалевич А. Основы психологии: Хрестоматия: учеб.пособие. М.:Беларусь, 2003.-495 с..
7. Спиноза Б. The Philosophy of Spinoza As Contained in the First, Second, and Fifth Parts of the Ethics and in Extracts from the Third and Fourth. Creative Media Partners, 2016.-220 p

DARSLARDA DIFFERENSIAL TA'LIM YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISH

Xasanova Xurshida Naimovna,
Navoiy viloyat PMM dotsenti, pedagogika fanlari doktori(DSc).

Annotatsiya: *Kimyo darslarining o'qitish samaradorligini oshirishda fanni boshqa fanlar bilan integrativ aloqadorligiga asoslanish muhimdir. Ushbu maqolada kimyo darslarini zamonaviy yondashuvlardan STEAM ta'limi asosida o'qitish orqali o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini, darslar samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar*: kimyo, STEAM ta'limi, zamonaviy metodlar, bilim, kreativlik, matematika, yondashuv, samaradorlik, nazariya, integratsiya, amaliyot.*

Аннотация: *при повышении эффективности преподавания предмета химии важно опираться на интегративную взаимосвязь с другими предметами. В этой статье обосновывается теоретическая и практическая значения повышения интереса учащихся к науке, повышения эффективности уроков посредством преподавания химии на основе современного подхода STEAM.*


Ключевые слова: *химия, образование STEAM, метод, знания, креативность, математика, подход, эффективность, теория, интеграция, практика.*

Abstract: *To increase the effectiveness of teaching the subject of chemistry, it is important to rely on an integrative relationship with other subjects. This article substantiates the theoretical and practical significance of increasing students' interest in science and improving the effectiveness of lessons through chemistry teaching based on the modern STEAM approach.*

Keywords: *chemistry, STEAM education, method, knowledge, creativity, mathematics, approach, efficiency, theory, integration, practice.*

Darsning sifat va samaradorligi unda qo‘llaniladigan usul va vositalarni to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq. O‘qitish usullarini to‘g‘ri tanlashda har bir o‘quvchining qiziqishlari, bilim darajasi, qobiliyatlari, imkoniyatlarini inobatga olish bilan bir qatorda o‘tilishi lozim bo‘lgan mavzuning murakkablik darajasini ham inobatga olish muhim sanaladi. Bunda shaxsning individual ekanligini nazarda tutgan holda har bir o‘quvchi o‘zining o‘rganish usuli, qobiliyatlari va o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasiga qarab turlicha rivojlanishini tushunish lozim. O‘qituvchi hammaga darsni bir xil tushuntiradi, biroq kimlardir darsni yaxshi o‘zlashtirsa, kimlardir o‘rtacha darajada, kimdir esa umuman o‘zlashtirmagan bo‘ladi.

O‘quvchilarning o‘rganish usullarini tushunish va darsni shu asosda tashkil etish, ularning ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. Har bir o‘quvchining individual o‘rganish usuli va ehtiyojlarini inobatga olish, samarali ta’limni ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida yuzaga kelayotgan bunday muammolarni hal qilishda differensial yondashuvning ahamiyati kattadir. Bu yondashuv yordamida o‘quvchilar o‘zlariga mos tarzda bilim olishadi va o‘z qobiliyatlarini to‘liq yuzaga chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.



1-rasm. Differensial ta’limda qo‘llaniladigan o‘qitish usullari

O‘quvchilarning o‘rganish uslublari farqli bo‘ladi: ba’zilar vizual tarzda fan yuzasidan bilimlarni ko‘rgazmaviy materiallar, taqdimotlar, jadvallar va sxemalar yordamida yaxshiroq o‘rganadi, boshqalari esa auditorial yoki kinestetik uslubdagi materiallarni ma’qul ko‘radi. O‘quvchilarning o‘rganish usullariga moslashtirish, har

bir o‘quvchiga o‘ziga mos materiallar va faoliyatlar taqdim etish imkonini beradi. Masalan, vizual o‘rganish usulini afzal ko‘radigan o‘quvchilarga diagrammalar, grafiklar va videoroliklar yordamida tushuncha berish, auditorial o‘rganishga moyil bo‘lganlarga esa audio materiallar yoki darslarni tinglashni taklif qilish samarali bo‘ladi. Kinestetik o‘rganish usulini afzal ko‘radigan o‘quvchilar amaliy ishlarda faol ishtirok etishadi, bu esa ularning tajribalarini boyitadi. Vizual va auditorial uslublarni qo‘llash esa o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi va ularga ilgari surilgan materialni yanada chuqurroq anglash imkonini yaratadi.

Darslarda differensial ta’limdan foydalanish natijasida o‘quvchilar o‘zlari uchun qulay bo‘lgan uslubni tanlashadi va aynan shu uslubda o‘rganishadi, bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi va ular tomonidan yodlanadigan va tushuniladigan materiallarning miqdorini orttiradi. Har bir o‘quvchi o‘zining o‘rganish ehtiyojlariga mos ravishda resurslar, materiallar va faoliyatlarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ta’lim jarayonining har bir o‘quvchi uchun individual va samarali bo‘lishini ta’minlaydi. O‘quvchilar turli uslublarda o‘rganish orqali o‘z bilimlarini va ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, bu esa ularni yanada muvaffaqiyatli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tony Wagner. ―The Global Achievement Gap: Why Even Our BestSchools Don‘t Teach the New Survival Skills Our Children Need - and What WeCan Do About it.Aug. 2009.
2. Trilling B., Fadel Ch. ―21st Century Skills: Learning for Life in OurTimes‖. ISBN: 978-0-470-55391-6 September 2009 Jossey-Bass 256 Pages. Matyakubova Z. O‘quvchilar bilimini baholashda ko‘p tanlov javobli test toshiriqlaridan foydalanish metodi(umumiy biologiya misolida): ped.fan.nomz. dis. –T.: 2000. – 132 b.
3. Stuckey, Marc, Lippel, Marianne, Eilks, Ingo. Teaching chemistry about Stevia – a case of cooperative curriculum innovation within PROFILES in Germany. //CEPS Journal 4 (2014) 1. Pp.69-83.
4. Jeongho Cha, Su Yin Kan, Poh Wai Chia. Spot the differences Game: An Interactive method that engage students in organic chemistry learning.//Journal of Korean chemical society 2018. 159-162.
5. Xasanova X.N., Nurmonov S.E. The effect of individual and group learning forms in the teaching of organic chemistry art school students. // International Multidisciplinary Research Journal akademikal. India: 3 march 2019.
6. Xasanova X. N. Dunyo mamlakatlarida maktablarda ta’lim sifatiniyaxshilashda STEAM ta’limidan foydalanishning ahamiyati. Ilm sarchashmalari. Ilmiy-nazariy metodik jurnal. –Urganch. - 3/2023. - 61-64 b.

YANGI ZAMON TARBIYACHISINING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGI

Babayeva Dono Razzakovna,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti professori

Annotatsiya*. Tarbiyachining pedagogik imidji va kasbiy kompetentligining mohiyati, ularning o‘zaro bog‘liqligi va ta’lim tizimiga ta’siri hamda yangi zamon tarbiyachisining pedagogik imidjini shakllantirish va kasbiy kompetentligini rivojlantirishga oid ilmiy yondashuvlarni o‘rganish mazmuni yoritilgan.*

Tayanch tushunchalar: *munosabat, ta’lim, meyo‘r, pedagog, shaxs, onglilik, psixolog, oila, jamiyat, kompetensiya, ijtimoiy, rivojlantirish, muammo, transversal, ta’sir, muammo, maslahat.*

Аннотация. *В статье раскрывается сущность педагогического имиджа и профессиональной компетентности воспитателя, их взаимосвязь и влияние на систему образования, а также содержание научных подходов к формированию педагогического имиджа и развитию профессиональной компетентности воспитателя нового времени.*

Ключевые понятия: *отношение, образование, норма, педагог, личность, осознанность, психолог, семья, общество, компетентность, социальный, развитие, проблема, трансверсальный, влияние, вопрос, консультация.*

Abstract. *This article highlights the essence of the pedagogical image and professional competence of an educator, their interconnection and impact on the education system, as well as the content of scientific approaches to forming the pedagogical image and developing the professional competence of the modern educator.*

Key concepts: *attitude, education, norm, pedagogue, personality, consciousness, psychologist, family, society, competence, social, development, issue, transversal, influence, problem, consultation.*

Bugungi kunda ta’lim sohasida ishlovchi mutaxassislarning kasbiy kompetentligini oshirish va pedagogik imidjini shakllantirish dolzarb muammolardan biridir. Tarbiyachining pedagogik imidji va kasbiy kompetentligining mohiyati, ularning o‘zaro bog‘liqligi va ta’lim tizimiga ta’siri tahlil qilinadi. Yangi zamon tarbiyachisining pedagogik imidjini shakllantirish va kasbiy kompetentligini rivojlantirishga oid ilmiy yondashuvlarni o‘rganish hamda samarali tavsiyalar ishlab chiqishdir. Shunga qaramay, ko‘plab tarbiyachilar o‘z imidjini rivojlantirish va kasbiy kompetentligini oshirishda yetarli resurs va bilimga ega emas. Pedagogik imidj va kompetentlikning ta’lim jarayoniga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu omillar bolalar tarbiyasi sifatini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ushbu masalaga ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yondashish zarur.

Pedagogik imidj nafaqat tashqi ko‘rinish, balki nutq madaniyati, o‘zini tutish qoidalari va kasbiy mahoratdan iborat. Zamonaviy tarbiyachilarning kompetentligi bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarning uyg‘unligi asosida shakllanadi. Pedagogik imidj va kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun uzluksiz ta’lim va kasbiy rivojlanish dasturlari muhim rol o‘ynaydi. Tarbiyachilar uchun muntazam ravishda trening va seminarlar tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish, tarbiyachilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sishiga sharoit yaratishdan iborot. Pedagogik imidj va kompetentlik tarbiyachi faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, ularning rivojlanishi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiyachining zamonaviy kasbiy talablarga javob berishi uchun doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, yangi ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirishi va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishi lozim. Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang‘ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy ahloq, o‘z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo‘lish, yaxshilik, haqiqatgo‘ylik, adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o‘simlik va hayvonlarga g‘amxo‘rlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalarning mehnati natijalarini asrab-avaylash kabi ahloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Tarbiyachi bolalarimizga zamonaviy bilim berish uchun, avvalo,

murrabbiyning o‘zi chuqur bilimga ega bo‘lishi kerak. Bolalarning nutq madaniyati pedagogning (va boshqa kattalarning) nutq madaniyatiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Pedagog talaffuzning adabiy me’yorlariga rioya qilishi, o‘z nutqida turli shevalar, mahalliy so‘zlashuvlar ta’sirini bartaraf etishi, so‘zlarda urg‘uni to‘g‘ri qo‘yishi lozim. Tarbiyachi imiji ta’lim tashkiloti imijiga ta’sir etadi. Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahoratida gavdalanadi hamda uning individual o‘ziga xosligi ko‘rinadi. Psixologik jozibador xususiyatga ega shaxs, insonlar e’tibori va hurmatiga muqarrar, unga bu bioenergetik quvvat to‘ldirish va tiklash imkonini beradi, bunga undagi ijobiy barqaror xush kayfiyat misol bo‘ladi. Tarbiyachi o‘zining maqsadlariga erishish sari optimist va o‘ziga ishonchi mavjud bo‘lishi kerak. Tarbiyachi imijini yaratishda atrof-muhitni hisobga olish lozim, shu bilan birga faoliyat yuritayotgan jamoaga mos imijini yaratishi kerak. Har bir muhitning o‘z imiji mavjud. Shu bilan birga Tarbiyachi o‘z invidualligini, tak rorlanmasligini yo‘qotmasligi zarur. “Kompetentlik-bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas’uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish demakdir. O‘z sohasining, ishining ustasi bo‘lish, sohasining sirlarini ham har tomonlama chuqur bilish demakdir.

Pedagog odobi, eng avvalo, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Biroq bunday yondashuv bir qadar cheklangan nuqtai nazar ekanligini ta’kidlash joiz. Zero, tarbiyachining kasbiy axloqi faqat tarbiyalanuvchilar bilan muloqoti jarayonidagina namoyon bo‘lmaydi, balki uning butun faoliyati davomida birinchi darajali ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Boshqacha aytganda, pedagog odobi tushunchasi tarbiyachi dunyoqarashining hayotiy tizimini anglatadi. Pedagog odobi tu shunchasining mazmuni axloqiylik bilan birga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Tarbiyachi odobining mohiyati, asosiy mazmuni peda gogik faoliyat uchun muhim bo‘lgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar barcha kishilar, hamma kasb egalari, jumladan, o‘qituvchitarbiyachilar uchun ham juda zarurdir. Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe’l-atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy qoidalar, normalar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi. Tarbiyachi umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlarni o‘zlashtirib olishi, tajribada qo‘llashi, o‘zining dunyoqarashi, mafkurasi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikrlash va his etish, turmushda sinab ko‘rish natijasida umuminsoniy va milliy-axloqiy sifatlar, qoidalar, normalar o‘qituvchining o‘z axloqiy fazilatiga, e’tiqodiga aylanadi. Bular tarbiyachining dunyoqarashi, fikr va mulohazalari bilan qo‘shilib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish sharoitida uning o‘rni va rolini belgilaydi. Tarbiyachi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilati va e’tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e’tiqod va sifatlar tarbiyachining mashg‘ulotlari jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, ota-ona lar bilan muomala-munosabatlarida, kundalik turmushda o‘zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta’sir o‘tkazishida ko‘zga tashlanadi. Tarbiyachi takt tarbiyachi axloqining amaliy ko‘rinishlaridan biridir. Tarbiyachi xulqining natijalari uning yoshlarga axloqiy ta’sirining samaradorligida, axloqiy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarida namoyon bo‘ladi. Tarbiyachi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar, tushunchalariga mos keladi va ularni pedagogik faoliyat bilan bog‘liq tarzda bir qadar oydinlashtiradi, aniqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.R.Babayeva, M. Abdullayeva, G.Jumasheva. Maktabgacha ta’limni boshqarishning ilmiy asoslari T.: Ilim ziyo zakovat 2021
2. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika.T.: TDPU 2013

4. R.Ishmuhamedov, M. Mirsoliyeva. Rahbarning innovatsion faoliyati. Fan va texnologiyalar. T.: 2022
5. R. X.Djurayev. Ta’lim menejmenti. T.: Voris 2006

O‘YIN ORQALI RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM METODLARINI JORIY ETISH

Astanaqulov Kamalitdin Maxkamovich,
Navoiy viloyati PMM kafedra mudiri

Zamonaviy ta’lim tizimida bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning intellektual, ijtimoiy, nutqiy, jismoniy va emosional salohiyatini ochish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichida bola rivojining asosi shakllanishi inobatga olinsa, bu jarayonda ta’limning shakl va uslublari, metodik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shular orasida eng samarali va tabiiy yondashuvlardan biri bu – o‘yin orqali rivojlantiruvchi ta’lim metodlarini joriy etishdir.

O‘yin – bu bolalar uchun tabiiy ehtiyojdir. Bola o‘yin orqali atrof-muhitni o‘rganadi, muloqot qiladi, harakatlanadi, his-tuyg‘ularini ifodalaydi va ijod qiladi. Rivojlantiruvchi o‘yinlar esa bolada muayyan ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, tafakkur, tasavvur, xotira, nutq, diqqat, motorika kabi psixologik funksiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogikada konstruktiv, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida o‘yin metodlarini ta’lim jarayoniga joriy qilish orqali nafaqat bolalarning bilim olishini, balki ularning mustaqil fikrlash, ijod qilish, guruhda ishlash va hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarini ham shakllantirish mumkin.

Shuningdek, milliy dastur va konsepsiyalarda ham maktabgacha ta’lim sifatini oshirishda o‘yin texnologiyalarini joriy etish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan. Xususan, 2030-yilgacha mo‘ljallangan Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirish strategiyasi ham innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar, o‘yin asosidagi ta’lim shakllarini keng joriy etishni nazarda tutadi.

Demak, bu mavzuni o‘rganish orqali:

- bolalar rivojlanishida o‘yin metodlarining ilmiy-nazariy asoslari aniqlanadi;
- real ta’lim jarayonida uchraydigan muammolar tahlil qilinadi;
- ilg‘or tajriba va tavsiyalar ishlab chiqiladi;
- pedagoglarga amaliy ko‘mak beriladi.

Mazkur loyiha nafaqat maktabgacha ta’lim tizimi uchun dolzarb, balki ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi metodik yechimlarni taklif etish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik nuqtayi nazardan, o‘yin – bu ta’limning tabiiy shakli hisoblanadi. U orqali ta’limiy maqsadlar yengil va quvnoq tarzda, bolalarning faol ishtiroki bilan amalga oshiriladi. O‘yin metodi – didaktikaning muhim bo‘g‘ini bo‘lib, quyidagi pedagogik vazifalarni bajarishga xizmat qiladi:

- **Bilim berish:** O‘yin orqali bola yangi axborotlarni tezroq va qiziqarli tarzda o‘zlashtiradi. Masalan, ranglar, sonlar, shakllar, harflar o‘yinda yaxshiroq esda qoladi.
- **Ko‘nikmalarni shakllantirish:** O‘yinlar orqali nutq, mantiqiy tafakkur, kuzatuvchanlik, muvofiqlashtirish, eslab qolish, ifodali fikrlash kabi ko‘nikmalar shakllanadi.

- **Ijtimoiylashtirish:** Guruhli o‘yinlar orqali bola jamoadorlik, tengqurlari bilan muloqot qilish, navbat kutish, nizolarni hal qilish kabi ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalarini egallaydi.
- **Tarbiya berish:** O‘yin orqali axloqiy, estetik, irodaviy sifatlar (mehr-shafqat, halollik, sabr-toqat, g‘alabaga intilish) tarbiyalanadi.

O‘yin turlari va ularning ta’limiy ahamiyati

Turli o‘yin turlari bolaning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi

O‘yin turi	Ta’limiy ahamiyati
Didaktik o‘yinlar	Bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash
Rolli o‘yinlar	Ijtimoiy rollarni tushunish, emotsional sezgirlik
Harakatli o‘yinlar	Jismoniy rivojlanish, koordinatsiya, tezlik
Dramatik o‘yinlar	Ijodiylik, ifodali nutq, tasavvur
Qurilish-o‘yinlari	Fazoviy fikrlash, mantiqiy tartib, mehnatga bo‘lgan munosabat

O‘yin va rivojlantiruvchi ta’lim uyg‘unligi: Rivojlantiruvchi ta’limning asosiy tamoyillari – individual yondashuv, faoliyatga tayangan o‘rganish, bolaga erkinlik berish – aynan o‘yin faoliyatida mukammal amalga oshadi. O‘yin bolani faollikka undaydi, bu esa uning tashabbuskorligi va mustaqilligini rivojlantiradi. Shuningdek, o‘yin vositasida bolaning nutqi, diqqat-e’tibori, eslab qolish qobiliyati, tafakkuri tabiiy va quvnoq muhitda shakllanadi.

1. Rolni o‘ynash (Rolli o‘yinlar)

Rolni o‘ynash o‘yinlari bolalarga turli ijtimoiy vazifalarni bajarish, boshqalar bilan muloqot qilish va ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bu o‘yinlar yordamida bola turli kasblarni va rollarni o‘rganadi, bu esa uning empatiya va ijtimoiy tushunishni rivojlantiradi. Masalan, “doktor va bemor” o‘ynash orqali bola kasalliklar va sog‘liqni saqlash masalalari haqida bilim oladi, shuningdek, o‘z fikrlarini ifodalash va boshqalar bilan samarali muloqot qilishni o‘rganadi. Rolni o‘ynash bolalar o‘zlarini turli ijtimoiy vaziyatlarda qanday tutishni, qanday muammolarni hal qilishni va turli sharoitlarda qanday xatti-harakatlarni amalga oshirishni o‘rganadilar.

Misollar:

“Doktor va bemor” o‘yini: Bolalar bir-biriga “doctor” va “bemor” rollarini berib, sog‘liqni saqlash va tibbiyot sohasida o‘zlarini qanday tutishlarini o‘rganadilar. Bu o‘yin yordamida bolalar inson organizmi haqida ma’lumot olishadi va empatiya ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

“Do‘kon va xaridor” o‘yini: Bu o‘yin yordamida bolalar savdo-sotiq jarayonini o‘rganadilar, xarid qilish, narxlarni belgilash va mijozlar bilan muloqot qilishni mashq qiladilar. Ular savdo va iqtisodiyotning asosiy tushunchalarini o‘zlashtiradilar.

2. Konstruktor o‘yinlari

Konstruktor o‘yinlari, masalan, Lego bloklari yoki boshqa qurilish o‘yinlari bolalar uchun fazoviy tafakkurni, mantiqiy fikrlashni va yaratuvchanlikni rivojlantirishda muhim vositadir. Bu turdagi o‘yinlar bolalarga ob'ektlar va shakllar haqida ko‘proq ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi. Konstruktor o‘yinlarida bolalar turli shakllarni, o‘lchamlarni va naqshlarni qurish orqali ular bilan muloqot qilishni o‘rganadilar. Bu metod bolalarga muammolarni hal qilishda yordam beradi, chunki

ular o‘yin davomida har xil to‘siqlarni bartaraf etish uchun yangicha fikrlarni ishlab chiqishadi.

Lego bloklari: Lego bloklari yordamida bolalar turli shakllarni, binolarni, mashinalarni va boshqa obyektlarni qurishadi. Bu o‘yin bolalarga o‘z fikrlarini konkret shakllarda ifodalash, muammo yechish va kreativ yondashuvni o‘rganish imkonini beradi.

“Qurilish maydoni” o‘yini: Bolalar turli konstruktorlar yordamida inshootlar quradilar, bu esa ularni fazoviy tafakkurni rivojlantirishga undaydi. Ular ob’ektlar va strukturalar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadilar.

3. San’at va ijodiy o‘yinlar

San’at va ijodiy o‘yinlar bolalarning tasavvurini kengaytirishga, ranglar, shakllar va kompozitsiya bilan ishlashga yordam beradi. Bu o‘yinlar yordamida bolalar ijodiy ifodalanish, estetik did va tasavvurini rivojlantiradilar. Rasm chizish, kollaj yaratish, bo‘yash va boshqa san'at shakllarini qo‘llash bolalarga o‘z fikrlarini vizual ravishda ifodalash imkonini beradi. Shuningdek, musiqiy va raqs o‘yinlari orqali bolalar ritmni, musiqani va jismoniy harakatlarni uyg‘unlashtirishni o‘rganadilar. Bu turdagi o‘yinlar bolalarning ijodiy tafakkurini va hissiy intelektini rivojlantiradi, shu bilan birga bolalarning o‘z-o‘zini ifodalashga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Rasm chizish va bo‘yash: Bu o‘yinlar orqali bolalar ranglarni, shakllarni va kompozitsiyani o‘rganadilar. Ular o‘z hissiyotlarini, tasavvurlarini va fikrlarini rasm orqali ifodalashadi. Masalan, “tabiat manzarasi” yoki “hayvonlar dunyosi” mavzularida rasm chizish.

“Shakl va ranglar” o‘yini: Bolalar turli rangdagi va shakldagi buyumlar bilan o‘yin qilib, ularning ranglarini va shakllarini o‘rganadilar. Bu o‘yin bolalarning estetik didini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Ilm-fan va tabiat o‘yinlari

Ilm-fan va tabiatga oid o‘yinlar bolalarga atrof-muhitni o‘rganish va tabiat hodisalarini tushunishda yordam beradi. Bu o‘yinlar bolalar uchun tabiiy dunyo bilan bevosita aloqada bo‘lish imkoniyatini yaratadi. Ekologik o‘yinlar orqali bolalar tabiatni asrash, resurslarni tejash va ekologik mas'uliyatni o‘rganadilar. Ilmiy o‘yinlar bolalarga o‘zlarini ilmiy kashfiyotlarga yo‘naltirish va yangi bilimlarni o‘rganish imkoniyatini beradi. O‘yinlar orqali bolalar fizika, kimyo, biologiya kabi fanlar asosida eksperimentlar o‘rganadilar va kuzatish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Ekologik o‘yinlar: “Tabiatni asraylik” o‘yini orqali bolalar atrof-muhitni qanday himoya qilish, chiqindilarni to‘g‘ri ajratish, o‘simlik va hayvonlar dunyosini qanday saqlash haqida o‘rganadilar. Bolalar tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar.

“Qushlar va o‘simliklar” o‘yini: Bu o‘yinda bolalar o‘simliklar va hayvonlarning turli turlarini o‘rganadilar. Masalan, "Qushni top!" o‘yinida bola qushlarning turli turlarini taniydi, ularning yashash muhitlari va o‘rni haqida bilimga ega bo‘ladi.

“Eksperimentlar” o‘yini: Kimyo yoki fizika asosida o‘yinlar, masalan, suyuqliklarni aralashtirib, yangi moddalarni olish orqali bolalar ilm-fan haqida qiziqarli va interfaol tarzda ma’lumot olishadi.

5. Jismoniy va harakatli o‘yinlar

Jismoniy va harakatli o‘yinlar bolalarning jismoniy salomatligini yaxshilash, mushaklarni mustahkamlash va harakat ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bunday o‘yinlar bolaning tana shaklini, muvozanatini va qo‘l-oyoqlarini

boshqarish qobiliyatini oshiradi. Jismoniy o‘yinlar bolalar uchun ko‘ngilochar bo‘lib, ularni faol tarzda shug‘ullanishga undaydi. Bu o‘yinlar shuningdek, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, chunki bola guruhda o‘ynash orqali hamkorlik qilishni, raqobatni va jamoada ishlashni o‘rganadi.

“Futbol” yoki “basketbol” o‘yinlari: Ushbu jismoniy o‘yinlar bolalarga jismoniy kuchni va harakatni muvofiqlashtirishni o‘rgatadi. Ular tezlik, koordinatsiya va jamoaviy ishlashni rivojlantiradilar.

“Ko‘prikdan o‘tish” o‘yini: Bolalar yotgan yoki turli darajadagi to‘siqlardan o‘tish orqali o‘z muvozanatlarini rivojlantiradilar. Bu o‘yin bolalarning motor ko‘nikmalarini yaxshilashga yordam beradi.

1. Qurish-yasash va matematika markazi

O‘yin metodlari:

- ✓ Konstruktor o‘yinlari (lego, bloklar bilan qurish)
- ✓ Shakllar va figuralar yig‘ish (geometrik o‘yinlar)
- ✓ Raqamli tangramlar, sanash va qiyoslash o‘yinlari

O‘ziga xos jihatlar: Bolaning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi; Qo‘l harakatlarini muvofiqlashtiradi; Raqam va shakl tushunchalarini mustahkamlaydi

Amaliy misol: “Qasr quramiz” o‘yini orqali bolalar sanash, navbatma-navbat ishlash, simmetriya tushunchasini o‘rganadi.

2. Til va nutq markazi

O‘yin metodlari:

- ✓ So‘z boyligini kengaytiruvchi o‘yinlar (“Ayt, top”, “Nimani tariflayapman?”)
- ✓ Dialogli rolli o‘yinlar (do‘kon, mehmonlik, kasb tanishuv)
- ✓ Hikoya tuzish va hikoya davom ettirish o‘yinlari

O‘ziga xos jihatlar: Og‘zaki nutq va izchillikni rivojlantiradi; Dialog va muloqot madaniyatini shakllantiradi; Leksik va grammatik ko‘nikmalarni mustahkamlaydi

Amaliy misol: “Kasblar shaharchasi” rolli o‘yini orqali bolalar kasblarni nomlaydi, gap tuzadi, vaziyatda to‘g‘ri so‘zlashishni o‘rganadi.

3. San’at markazi

O‘yin metodlari:

- ✓ Ranglar va shakllar bilan bo‘yash o‘yinlari
- ✓ Kollaj yaratish, mustaqil san’at asari yasash o‘yinlari
- ✓ Musiqa ostida surat chizish (tasavvur va his-tuyg‘uni ifodalash)

O‘ziga xos jihatlar: Bolaning tasviriy ifoda va estetik tuyg‘usini rivojlantiradi; Ranglar va chiziqlar orqali o‘z fikrini ifodalashni o‘rgatadi; Ijodiy fikrlash va noan’anaviy yechim topishni qo‘llab-quvvatlaydi

Amaliy misol: “Bahor manzarasi” ijodiy o‘yini orqali bolalar tasvirni rasmga aylantiradi va his-tuyg‘ularini bo‘yoqlar orqali ifodalaydi.

4. Sahnalashtirish va drammalashtirish markazi

O‘yin metodlari:

- ✓ Ertaklarni sahnalashtirish o‘yinlari
- ✓ Qo‘g‘irchoq teatri, mini sahna ko‘rinishlari
- ✓ Dialoglar va rolli sahnalar orqali nutq mashqlari

O‘ziga xos jihatlar: Rollarni ijro etish orqali ijtimoiy rollarni o‘rganish; Nutqdagi ifodalilik va tana tilini rivojlantirish; Tasavvur, empatiya va his-hayajon bilan fikr bildirish

Amaliy misol: “Bo‘ri va echkilar” ertagini sahnalashtirish orqali bolalar nutq, mimika, ketma-ketlik va ijtimoiy xatti-harakatlarni o‘rganadi.

5. Ilm-fan va tabiat markazi

O‘yin metodlari:

- ✓ Tabiat bilan tajriba o‘yinlari (suv, qum, tuproq bilan)
- ✓ “Top va taxmin qil” o‘yinlari – o‘simlik, hayvon, ob-havo
- ✓ Kichik tajribalar orqali o‘yinli kashfiyotlar (magnitlar, suv aylanishi)

O‘ziga xos jihatlar:Ilmiy tafakkur va sabab-oqibatni tushunish; Tabiat hodisalarini amaliy kuzatish orqali o‘rganish; Ekologik tarbiya va kuzatuvchanlikni rivojlantirish

Amaliy misol: “Uch rangli muz kubiklari” tajribasi orqali bolalar fizik holatlar, eritish, aralashmalar haqida tushunchaga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘yin – bu bolalikning ajralmas bo‘lagi bo‘lib, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun u nafaqat ko‘ngil ochar faoliyat, balki shaxsiy, intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishning muhim pedagogik vositasidir. Ushbu maqolada bolalar tarbiyasida o‘yin orqali rivojlantiruvchi ta’lim metodlarini joriy etish masalalari chuqur o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘yin metodi orqali ta’lim berish bolaning tashabbuskorligi, mustaqil fikrlashi, ijtimoiy muloqot madaniyati va ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maqolada mavjud ta’lim amaliyotida kuzatilayotgan muammolar – metodik yondashuvlarning bir xilligi, didaktik o‘yinlar resurslarining yetarli emasligi, o‘yin faoliyatini rejalashtirishdagi murakkabliklar, tarbiyachilarning malaka darajasi va ijodkorligining yetishmasligi kabi holatlar o‘rganildi. Bu muammolar o‘yin orqali rivojlantiruvchi metodlarni samarali qo‘llashga to‘sqinlik qilmoqda.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, agar ta’lim jarayoniga o‘yin metodlari to‘g‘ri, tizimli va innovatsion asosda joriy etilsa, bu bolalarda hayotiy ko‘nikmalarning shakllanishiga, bilimga bo‘lgan qiziqishning ortishiga va ta’limga ijobiy munosabatning qaror topishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova M., Qo‘shqarova Z. Didaktika: nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.
2. To‘raqulova G. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: , 2020.
3. Qodirova M., Zokirova M. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: “Noshir”, 2019.
4. Zunnunova D.S. Didaktik o‘yinlar orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirish. // Pedagogik mahorat jurnali, 2022, №3, B. 45–50.
5. Bahromova D.M. Ilk yoshdagi bolalar bilan ishlashda didaktik o‘yinlarning roli. // Maktabgacha ta’lim muammolari, 2021, №2.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi”ga oid qaror va farmonlari. – www.lex.uz
7. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 2004.
8. Smirnova E.O. Igra v zhizni rebenka. – Moskva: Mozaika-Sintez, 2017.
9. Piaget J. Rebenok i realnost′: Problemy detskoy psikhologii. – Moskva: Eksmo, 2007.

"FORMING "4K" SKILLS IN STUDENTS THROUGH EXTRACURRICULAR ACTIVITIES" IN IMPROVING THE SKILLS OF TEACHERS (THE TOPIC "PROTECT NATURE!" IN THE NATURAL SCIENCES SECTION)

Djurayeva Perdegul Saidovna,
National training of teachers of Nauai region in new methods center,
"Preschool, primary and special educational methods" department associate docent

Abstract. *The nature of our country is very unique. No matter what time of year you choose, either our city or our village is in bloom. If we take the winter season, we can breathe in the fresh air, the land is covered with a white blanket, and children with faces like apples are sledding. And if we describe the spring season, everything is green, and our daisies are sprouting from under the ground. Summer is the time when real fruits ripen and children have fun. If we focus on autumn, this time of year is especially golden, when our poets understand the language. Yes, in any case, the nature of my country is beautiful and vast! I am glad that I was born in this country as a Kazakh!*

Keywords: *creative abilities, nature conservation, proverbs about nature, poems, flowers, pictures, travel, let's talk about nature, life is called, Aral Sea region, Mother Nature, protection, life, discussion.*

Introduction. ***The importance of the topic:*** The innovative approach based on the "4K" model does not require special conditions for its use in schools. For example, students develop critical thinking skills through quizzes, and communicative skills through quizzes and exercises. It is not correct to say that there are no conditions for using these methods in schools. Previously, we paid more attention to children's writing, writing them in written speech. In the new practice, it is more important for children to think critically and freely express their opinions. Students learn to approach problems analytically and form their own point of view based on logical thinking.

4K Model: As a tool for measuring critical thinking, creativity, communication, and collaboration – the 4K concept, adopted by the academic community, has been extensively studied and tested, resulting in its widespread use in many educational standards. In 2010, the American Management Association confirmed the relevance of the 4K concept in its research.

• Now, what is 4K education? Why is it needed for our child and where can we get education with this system? Let's try to find answers to these questions. 20 years ago, no one imagined the existence of such professions as SMM specialists or mobile application developers. In an era of a developed labor market, it is impossible to know exactly what professions will be in demand in a few years, but it will definitely change.

• Not to mention manual labor, the work of accountants and analysts will also be automated. It can be said that future employers are interested in flexibility and skills that cannot be replaced by algorithms alone.

• As for the theory, in 2016, the President of the World Economic Forum in Davos, Klaus Schwab, announced the beginning of the fourth technological revolution. According to him, now robots will do all the work for us, and by 2020, every worker who considers himself necessary should know: Ability to solve complex tasks; critical thinking skills; creative thinking; ability to manage people;

ability to work in a team; ability to identify and monitor the feelings of others and oneself; ability to express one's opinion, make judgments, and make decisions; adaptability to the customer; ability to negotiate; ability to quickly switch from one task to another.

• Critical thinking and creative abilities, which ranked 4-10th in 2015, will be among the top three most needed by 2020. It was decided to call these skills Soft Skills (flexible skills, professional competence) and Hard Skills - "hard" professional skills. In our country, experts in the field of education narrowed down the top ten of Davos to four key skill systems, later giving them the name "4K system": Collaboration (Collaboration), (Coordination) (cooperation) teamwork; Communicative (Communication), (dialogue); Creative thinking (creativity);

Critical Thinking (Critical Thinking). If we give a separate explanation for each "K", then Critical Thinking (Critical Thinking) is the ability to control the flow of information, see cause-and-effect relationships, sift through unnecessary information and draw conclusions. Make decisions in the face of failure and understand the reasons for its successes and failures.

Creative thinking (creativity), (Креативность) - allows you to be confident in changing situations, make unconventional decisions, and assess the situation from different perspectives. A creative person becomes a doer. He can develop and improve other people's initiatives. Overcoming difficulties becomes an interesting puzzle for him.

Аннотация: В статье рассматриваются возможности использования проектной технологии в классе, поощрения активного обучения и интеграции ее с различными дисциплинами.

Kalit so'zlar. Loyiha, mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor, ijtimoiy faol shaxs.

Keywords: Project, independent thinker, initiative, socially active person.

Ключевые слова: Проект, самостоятельный мыслитель, инициатива, социально активная личность.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi - o'quvchilarda bilimga qiziqish, fikrlash, muloqot va ijodiy faoliyatning shakllanish davri hisoblanadi. Aynan shu davrda o'quv chilarning tabiiy qiziqishlari, kuzatuvchanligi va faol o'rganishga tayyorligi yuqori bo'ladi. Bu esa dars jarayonida loyiha texnologiyasidan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

1. Faol o'rganishga undaydi

Loyiha texnologiyasi o'quvchilarni bilimni tayyor shaklda qabul qilishdan ko'ra, **mustaqil izlab topishga** yo'naltiradi. Bu ularning:

- fikrlash qobiliyatini,
- kuzatuvchanligini,
-savol berish va javob topish ko'nikmasini rivojlantiradi.

2. Turli fanlar bilan integratsiya imkoniyati

Loyiha texnologiyasi barcha fanlarda – ona tili, matematika, tabiatshunoslik, tasviriy san'at,texnologiya kabi yo'nalishlarda muvaffaqiyatli qo'llanilishi mum kin.

Misollar:

- Ona tili: "Sevimli kitobim" loyihasi – kitob tanishtiruvi, mini-prezentatsiya.

-Matematika: "O'zim yasagan hisob-kitoblar" – real hayotdagi o'lchovlar, byud jet hisoblash.

-Tabiatshunoslik: "Suv – hayot manbai" – tajribalar, plakatlar, videoroliklar.

-Tasviriy san'at: "Men orzu qilgan maktab" – rasm, maket, ko'rgazma.

3. Hamkorlikda o'rganishni ta'minlaydi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jamoada ishlashni yangi boshlayotgan bo‘lsa larda, loyiha metodida:

-guruhli fikrlash,

-vazifalarni taqsimlash,

- do‘stona muloqot qilish,

- bir-birini qo‘llab-quvvatlash singari ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanadi.

4. Ijodkorlik va tashabbusni rag‘batlantiradi

O‘quvchilar o‘z g‘oyasini ilgari surish, uni loyihalashtirish va amalga oshi rish jarayonida:

- o‘z salohiyatini kashf etadi,

-ijodiy fikrlashga o‘rganadi,

-natijaga javobgarlik hissi bilan qaraydi.

5. Bilimlarni hayotga bog‘laydi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun o‘z atrofidagi dunyoni bilish muhim. Loyiha orqali:

- fanlararo bog‘liqlik vujudga keladi,

-real hayotdagi muammolar yechimiga jalb qilinadi,

-tajriba, ekskursiya, suhbatlar orqali hayotiy kompetensiyalar shakllanadi.

6. O‘qituvchining metodik imkoniyatlarini kengaytiradi

O‘qituvchi uchun loyiha texnologiyasi:

-innovatsion metodlarni joriy etish,

- baholashni soddalashtirish,

-darslarni samarali tashkilqilish,

-ota-onalarni o‘quv jarayoniga jalb qilish imkonini beradi.

Boshlang‘ich ta’limda loyiha texnologiyasini qo‘llash – bu nafaqat o‘quvchi larga chuqur va mustahkam bilim berish vositasi, balki ularni **mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor, ijtimoiy faol shaxs** qilib tarbiyalash vositasidir. Loyiha metodining bu bosqichda joriy qilinishi ta’lim sifati va o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini ta’ minlaydi.

1–4-sinflar uchun mos loyiha faoliyati namunasi

Loyiha nomi:

“Mening atrofimdagi tabiat”

Maqsad:

O‘quvchilarda tabiatga muhabbat va e’tibor, kuzatuvchanlik hamda atrof-muhitni asrashga oid tushunchalarni shakllantirish.

Loyiha turi:

Ijodiy-amaliy loyiha (tabiatshunoslik, ona tili va tasviriy san’at integratsiya si)

Loyiha davomiyligi:

2 haftadan 3 haftagacha (haftada 2–3 dars soati)

Bosqichlari:

1. Mavzuni tanishtirish va muammo qo‘yish

- O‘qituvchi o‘quvchilarga tabiat haqida qisqacha hikoya qiladi, savollar beradi (Masalan: “Bizning atrofimizda qanday daraxtlar, hayvonlar yashaydi?”, “Tabiatni nima uchun asrashimiz kerak?”).

-O‘quvchilar o‘z kuzatuvlarini, hayvonlar va o‘simliklar haqidagi ma’lumotlarini baham ko‘radi.

2. Ma’lumot to‘plash va kuzatuvlar o‘tkazish

-O‘quvchilar sinfda va maktab hududida tabiat elementlarini kuzatadilar (daraxtlar, gullar, qushlar, hasharotlar).

-Har bir o‘quvchi yoki guruh o‘z kuzatuvlaridan kichik kundalik yuritadi (rasm, qisqa eslatmalar bilan).

3. Ijodiy ishlar

-O‘quvchilar o‘zlari kuzatgan tabiat manzaralarini rasmga tushiradilar yoki kollaj tayyorlaydilar.

-Guruhlarda “Tabiatni asrash uchun biz nima qila olamiz?” mavzusida kichik pla kat yoki poster ishlanadi.

4. Ta’limiy suhbat va muhokama

Loyihaning davomida o‘quvchilar o‘z ishlarini sinf oldida taqdim etadilar, o‘z fikrlarini bayon qiladilar.

O‘qituvchi bilan birga tabiatni asrash bo‘yicha oddiy qoidalar ishlab chiqiladi

5. Natijalarni baholash va taqdimot

-O‘quvchilar loyiha davomida tayyorlagan ishlarni sinfda ko‘rgazma tarzida namo yish qiladilar.

- O‘zaro baholash va o‘qituvchining mulohazalari bilan yakunlanadi.

Kutilayotgan natijalar:

- O‘quvchilarda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat va mas’uliyat tuyg‘usi shakllana di.

-Mustaqil kuzatuv va ma’lumot yig‘ish ko‘nikmalari rivojlanadi.

- Guruhda ishlash, fikr almashish, ijodiy faoliyatga jalb qilinish o‘rganiladi.

- Ona tili, tasviriy san’at va tabiatshunoslik fanlari bo‘yicha bilimlar mustahkam lanadi.

Qo‘shimcha tavsiyalar:

- Loyihani darsdan tashqari vaqtlarda ham davom ettirish uchun ota-onalarga ham ko‘rsatmalar berilishi mumkin (bog‘da, uy sharoitida kuzatuv qilish).

-Rasm va kollaj uchun turli materiallardan foydalanish o‘quvchilarning ijodkorligi ni rag‘batlantiradi.

Xulosa.

Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarining psixologik va rivojlanish xususi yatlarini hisobga oling. Ular uchun loyiha mavzulari oddiy, qiziqarli va kundalik hayotga yaqin bo‘lishi muhim.

-Kichik yoshdagi bolalar uchun (1-2-sinflar)qisqa va aniq topshiriqlar, ko‘proq amaliy va visual materiallar bilan ishlash, rasm chizish, qo‘lda ishlashga urg‘u be ring.

- 3-4-sinflar uchun esa murakkabroq mavzularni tanlab, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qarating.

- Loyiha faoliyatini guruhda tashkil eting, chunki yosh o‘quvchilar o‘zaro muloqot va hamkorlik orqali ko‘proq o‘rganadilar.

- Har bir yosh bosqichi uchun mos va qiziqarli metodik vositalar va materiallar tayyorlang.

Loyihalar mavzusi va ko‘lami yoshga mos bo‘lishi – bunda o‘quvchilar ning diqqatini jamlash, motivatsiyasini oshirish osonroq bo‘ladi.

- O‘quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olib, ularning individual xususiyatlarini inobatga oling.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillar da maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” PF-134-son farmoni, - T.: 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79 son farmoni, - T.: 2023.
3. Murodov, I. F. (2011). *Boshlang‘ich ta’limda ta’lim jarayonining samaradorligi ni oshirish metodlari*. T.: Fan va texnologiya.
4. Muxamedov, R. (2014). *Pedagogik amaliyotda innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Pahlavonov, M. M. (2016). *Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish*.Toshkent: O‘qituvchi.
6. Shodmonov, I. M. (2019). *O‘quvchilarning mustaqil ishlari va uning samaradorli gi*.T.: Ta’lim.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Boltayeva Zilola Bobojonovna,
Navoiy viloyati PMM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada interfaol metodlar,pedagogik texnologiya,axborot texnologiyalari, boshlang‘ich ta’lim dars jarayonlarida qo‘llaniladigan interfaol metodlar ularning tasnifi berilgan.

Abstract. This article provides a classification of interactive methods, pedagogical technologies, information technologies, and interactive methods used in primary education teaching processes.

Аннотация. В статье представлена классификация интерактивных методов, педагогических технологий, информационных технологий и интерактивных методов, используемых в начальном образовании.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya,ta’lim- tarbiya, O‘quvcnilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish, badiiy o‘qish, zamonaviy ta’lim

Keywords: pedagogical technology, education, improving students' creative abilities, artistic reading, modern education

Ключевые слова: педагогические технологии, образование, развитие творческих способностей учащихся, художественное чтение, современное образование.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida interfaol metodlar innovatsion texnologiyalar pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish e’tibori kundan – kunga kuchayib bormoqda. Mashg‘ulotlar mobaynida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarni bilim egallash bilan birgalikda, ular egallayotgan bilimlarni mustahkamlashga , xulosalarni ham o‘zlari chiqarishga o‘rgatadi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar ta’lim jarayonida anchagina ilmiy tushunchalarni o‘zlashtiradilar, ammo oldingi darslarda o‘zlashtirilgan turli alomatlar, belgilar, xususiyatlarni qorishtirib, chalkashtirib ham yuboradilar. Chunki ularda tushunchalar tarkibiga kiradigan narsa va hodisalar bilan ularning belgilari o‘rtasida uzviy bog‘lanish tarkib topmagan bo‘ladi.

Ko‘p tushunchalarni, chunonchi, baland-past, uzoq-yaqin, kam-ko‘p va hokazolarni, avval voqealikdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi fazoviy munosabatlarni

bevosita idrok qilish asosida o‘zlashtiradilar.Yoshlar bilan ishlash masalalari alohida e’tibor talab qiladi. Biz madaniyamizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma’naviy fazilatlar egasi bo‘lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog‘lik faol munosabatda bo‘lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog‘liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak. Bizning bugungi mehnatimizga qanday baho berilishi ham ana shunga bog‘liq.

Yosh avlodga ta’lim – tarbiya berishning maqsadi ,vazifalari, mazmuni, uslubiy talablariga ko‘ra fan, texnika va ilg‘or texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish, bugungi ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Innovatsion metodlar o‘quvchilarda o‘z –o‘zini anglash, kelgusi hayot yo‘lini to‘g‘ri belgilash, ma’naviy va axloqiy qadriyatlar mohiyatini to‘g‘ri anglashga, turli muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilar uchun muammoli savollar berish ulardagi mustaqil ijodiy firklarni taraqqiy ettiradi. Bolalarga birgina blankalarga bir nechta doiralarni chizish topshirig‘i berilib chizilgan doiralarni hayotda mavjud predmetlarga o‘xshatib berishlari so‘ralsa, predmetlarni o‘xshatish jarayonida ijodiy fikrlashi rivojlanib boradi. Bularni tahlil etish jarayonida bolalardagi mustaqil ijodiy fikrlash rivojlanib, o‘xshatishlarni bir xilligi mavjud bo‘lsa o‘chirishlari kerak bo‘ladi. Shundan so‘ng qolgan o‘xshatishlari sanalib, qaysi bo‘lada ko‘proq shakllar qolgan bo‘lsa, o‘sha bolalarga nisbatan mustaqil ijodiy fikrlashi rivojlanganligini aniqlash mumkin.

O‘quvcnilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish usullaridan yana biri badiiy o‘qish darsidir. Odatda badiiy faoliyat bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali yo‘nalishi hisoblanadi. Bunga tasviriy san’at, texnologiya va musiqa darslari yordam beradi.

“Nostandart vaziyatlarni qabul qilish”. Bu matn bilan ishlashda o‘quvchilarni kutilmagan savollarga javob berish so‘raladi.

-Odamlar boshlari bilan yurishni boshlasalar nima bo‘ladi?

-Agar jo‘mrakdan sut oqsa nima bo‘ladi? Va hokazo

Matn bilan ishlashda savollar ham nostandart bo‘lishi kerak. Asosiysi, bola savolda qanday xarakter qayd etilganligi haqida tasavvurga ega. Bu jarayonda mantiqiy bog‘liq bo‘lgan, kompozitsion va grammatik jihatdan ishlab chiqilgan, kengaytirilgan va to‘liq, hissiy semantik bayon qilingan izchil nutq rivojlanadi.

“Taqlid”. Bu metodni o‘tkazishda mavzu o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi va bolalar topshiriqni bajarish jarayonida asar qahramoniga mos harakatlar qilishi talab qilinadi. O‘quvchi obrazga kirishi bilan bir qatorda uning nutqi va harakati hamohang bo‘lishi talab qilinadi.

“Yozuvchi “. Ushbu yoshdagi bolalar xayol qilishni yaxshi ko‘radilar, buni har jihatdan rag‘batlantirish kerak. Dastlab o‘quvchilar o‘qilgan matn uchun boshqa sarlavha qo‘yishadi. Barcha aytilgan variantlar ijobiy baholanib, ularning ichidan eng yaxshi g‘oyalar tanlab olinadi. O‘qituvchi asar oxirini ochiq qoldiradi va o‘quvchilardan matnning oxirini “yozib tugatish” so‘raladi. Bu bolaga asar qahramonlarining tarixiga chuqur kirib borishi uchun imkoniyat beradi. Asarni yangi talqinda ixtiro qilish juda yaxshi uslubdir. Har bir shaxs muayyan ijodiy quvvatga ega. Mazkur ijodiy quvvatning asosini esa yangi narsalarni yaratish tashkil etadi. O‘quvchilarning tasavvurlari ijodiy hamda yaratuvchilik xarakteriga ega bo‘ladi. O‘quv yoki badiiy adabiyotlarni o‘qish jarayonida o‘quvchilar ushbu kitoblarda bayon qilingan voqelikni o‘z xotiralarida qayta jonlantirishlari talab etiladi. Ijodiy xayollar

yaratuvchi xayollardan yangi namunalarni mustaqil yaratish bilan ajralib turadi. Ular o‘quvchi faoliyatning o‘ziga xos natijalarida aks etadi.

“Yopiq kitob" usuli- bu muayyan fan bo‘yicha matn materialini qo‘llanish usullaridan biri bo‘lib, o‘quvchilardan matnda bor ma’lumotlarni eslab qolishni, lekin munozara paytida matnni qayta bayon etmaslikni talab qiladi. Bu usul ham boshqa usullar bilan birgalikda qo‘llanishni va o‘quvchilar o‘qishda faqat “qayta bayon etish" bilan o‘quvchilarning ijodiy faoliyatlarini kengaytirishda va rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Sayohat” o‘yinlari alohida pedagogik ahamiyatga ega. Ular geografik, tarixiy, o‘lkashunoslik xarakteriga ega. Bunda yo‘yinlar kitoblar, xaritalar va turli hujjatlar yordamida amalga oshiriladi. Ular o‘quvchilarda tasavvur qilish vaziyatlari yordamida o‘tkaziladi. Barcha harakatlar va kechinmalar o‘yindagi rollar yordamida aniqlanadi. Bu yerda o‘quvchilar geolog, iqtisodchi, zoolog, muhandis rollarida namoyon bo‘ladilar. O‘quvchilar kundaliklar, xatlar yozadilar, bilish xarakteriga ega bo‘lgan turli-tuman materiallarni to‘playdilar, chegaralanmasliklarini talab qiladi.

“Sherni davom ettir”. Bunda o‘quvchilarga sherdagi yo‘qolgan satrlarni davom ettirish so‘raladi. Dilshod Rajabning “Bahor” sheri misolida;

Qish qahrini so‘ndirib Osmonlarni to‘ldirib
Ayozdan g‘olib kelgan .....

Xulosa qilganda zamonaviy talim barcha o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlarini va barcha ijodiy qobiliyatlarini namoyish etish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.N. Azizxo‘jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006 y
2. S.A. Madyarova va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.
3. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2013 y. -279 bet.
4. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.

GEOGRAFIYA DARSLARIDA METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Yo‘ldoshev Abdurauf Suyunboy o‘g‘li,
Sirdaryo viloyati PMM metodisti

Annotatsiya: *Mazkur maqola umumta’lim maktablari geografiya fani o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda mavjud bo‘lgan metodlar zamon talablariga moslashtirilgan holda yangicha talqin qilingan. Ushbu usullarni amalda qo‘llash yuzasidan tavsiyalar berish bilan birgalikda muallif tomindan takomillashtirilgan metodlarni amaliyotda qo‘llash usullari ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *texnologiyaga, interfaol metodlar, XXI asr ko‘nikmalari, ijtimoiy ko‘nikmalar, ta’limiy maqsad, metod, geografiya.*

Asosiy qism. Umumgeografik ta’limga o‘quvchilar tarbiyasi va rivojlanishiga ta’sir qilishi nuqtaiy nazardan qarash kerak. Hozirgi zamon ishlab chiqarish tarmoqlari – yirik sanoat, agrosanoat komplekslari va transport tarmoqlaridan iborat, ular tabiat kompleksi va uning komponentlariga keskin ta’sir qilib qolmasdan, balki

atrofmuhitning ifloslanishiga, tabiatdagi ekologik aloqalarning buzilishiga olib keladi. Geografiyaning asosiy vazifasi jamiyat bilan tabiat o‘rtasidagi murakkab aloqadorlikni ta’minlashdan iborat. Bu aloqadorlikni chuqur ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish orqali amalga oshirish mumkin.

Geografiya ta’limi maqsadlarini uch guruhga ajratish mumkin.

1. Ta’limiy maqsadlar:

- o‘quvchilarga tabiiy, iqtisodiy, kartagrafiya va boshqa geografiya fanlarining asoslarini o‘rgatish. Tabiatni qo‘riqlash va undan oqilona foydalanishning tabiiy-ilmiy va texnika, iqtisodiy tarmoqlarning takomillashuvi, toki bu jamiyat hayoti va ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun imkon yaratsin;
- o‘quvchilarni iqtisodiy, ekologik ta’lim bilan qurollantirish;
- o‘quvchilarda geografik madaniyatni shakllantirish, ularni kartalar, ma’lumotnomalar bilan ishlay olish, kundalik matbuot materiallarini o‘qishda geografik bilimlarni qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish.

2. O‘quvchilarni geografiya va unga aloqador bo‘lgan fanlar asosida o‘z bilimlarini oshirish qobiliyatlarini shakllantirish:

- o‘z respublikasining tabiiy va iqtisodiy geografiyasiga oid bo‘lgan

bilimlarni chuqur bilish;

- o‘quvchilarda tabiatga, xo‘jalikka, tabiat bilan xo‘jalik o‘rtasidagi aloqalarga nisbatan to‘g‘ri ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- o‘quvchilarda vatanparvarlik, milliy g‘urur xislatlarini shakllantirish.
- o‘quvchilarga turli mamlakatlarning xo‘jalik yuritish metodlari, tabiiy boyliklardan unumli foydalanishi, aholini ish bilan ta’minlashi kabi masalalar mohiyatini ochib berish;
- zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti davrida o‘quvchilarning mehnat tarbiyasi, kasb tanlashi, umuman, hayotda o‘z o‘rnini topishga ko‘maklashish;
- o‘z mamlakati iqtisodiyoti yutuqlari bilan g‘ururlanish, o‘z yashab turgan jamiyatning haqiqiy egasi deb his qilishi kabi hislatlarni shakllantirish.

3. O‘quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirish:

- o‘quvchilarda kuzatuvchanlik, fikrlash, esda saqlab qolish, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;
- o‘quvchilarni kuchi yetadigan darajada geografik muammolarni yechishga o‘rgatish.
- geografik narsa va hodisalarga nisbatan atroflicha yondashish, o‘z fikr va mulohazalarini bevosita kartaga bog‘lay olish qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashish. Ta’limning maqsadi geografiya fani mazmuni bilan chambarchas bog‘liq. Demak, ta’lim maqsadini yuqori pog‘onaga ko‘tarish uchun geografiya ta’limi ilmiy jihatdan rivojlanishda bo‘lishi kerak.

Maktab geografiya darslarining samaradorligi va darslar sifatini hamda o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqish va e’tiborini oshirishga qaratilgan ayrim metod va usullarni quyida sizlar bilan ko‘rib chiqamiz.

“U KIM ? BU NIMA ?” METODI

Bu metodni dars davomida uyga vazifa sifatida berilgan mavzuni so‘rash yoki yangi o‘tilgan mavzuni mustahkamlash jarayonida qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Metodni qo‘llashda o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish

muhim sanaladi. Metod doirasida beriladigan savol va topshiriqlar o‘quvchilarning bilimi va mavzuni o‘zlashtirish darajasidan kelib chiqqan holda

tanlanishi ushbu metodning yanada samarali va o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek metod doirasida beriladigan savol va topshiriqlar mavzuning katta hajmdagi va murakkabligi yoki kichik hajmdagi va soddaligi ham albatta hisobga olinishi zarur.

“U KIM ? BU NIMA ?” metodidan foydalanishdan avval sinf jamoasini 4 yoki 5 nafardan iborat bo‘lgan kichik guruhlarga taqsimlab olinadi. Har bir guruhga yuqoridagi metodni qo‘llash bo‘yicha berilgan tafsiyalarni hisobga olgan holda savol va topshiriqlar beriladi.

“U KIM ? BU NIMA ?” metodining qo‘llanilishi.

7-sinf geografiya “Geografik xaritalar” mavzusi.

“U KIM ? BU NIMA ?”	
1-guruh	Geografik xaritalarni shartli ravishda 3 turga bo‘lish mumkin: ....., siyosiy-ma’muriy va ..... xaritalar.
	Bunday turdagi xaritalarida quruqlik yuzasidagi va dengiz ostidagi notekisliklar — tog‘lar, qirlar, tekisliklar tasvirlanadi. Bu turdagi xaritalarga ..... xaritalari deyiladi.
	..... xaritalarida turli hududlardagi o‘simliklar, ularning qanday tarqalgani ko‘rsatiladi.
	.... xaritalarida ko‘mir, neft, gaz, temir rudasi va Yerning boshqa mineral boyliklari qayerlarda joylashgani shartli belgilar bilan aks ettiriladi.
	..... xaritalarida Yer yuzining qayerida qancha yog‘in yog‘ishi, havo harorati qanday bo‘lishi, shamollar yo‘nalishi ko‘rsatiladi.
2-guruh	..... xaritalarida Yer yuzida tabiat zonalarining qanday joylashganligi, bu zonalarda qanday turdagi o‘simliklar o‘sishi, qanday tuproqlar tarqalgani ko‘rsatiladi.
	..... xaritalarda dunyodagi davlatlar, ularning ma’muriy qismlari (viloyatlari, tumanlari, shaharlari), asosiy transport yo‘llari va boshqalar tasvirlanadi.
	..... xaritalarda sanoat korxonalari va qishloq xo‘jaligi ekinlari, transport yo‘llari shartli belgilar bilan tasvirlanadi.
	Xaritalarda turli predmet va hodisalarni tasvirlash uchun xaritaning o‘ziga xos tili hisoblangan ..... foydalaniladi.
	Xaritalarda turli obyekt va hodisalarning harakati, siljishi harakat yo‘nalishi — ..... bilan tasvirlanadi.
3-guruh	Yer yuzasining relyefi xaritalarda har xil ..... bilan tasvirlanadi.
	0 metrdan (dengiz sathidan) 200 metrgacha bo‘lgan pasttekisliklar ..... rangda tasvirlanadi.
	200 dan 500 metrgacha baland bo‘lgan qirlar ..... rangda, undan baland yerlar ..... rangda tasvirlanadi.
	.....da materiklar, okeanlar, orol hamda yarimorollar shakli ancha aniq, lekin juda kichraytirilgan holda tasvirlanadi.
	.....da Yer yuzasi tekis yuzada juda kichraytirilgan holda shartli belgilar bilan tasvirlanadi.
4-guruh	Yerning qabariq yuzasi tekis yuzada (qog‘ozda) tasvirlanganda ayrim xatoliklar bo‘ladi. Bunda asosiy xatoliklar ikki xil bo‘ladi: ..... xatoligi

	va ..... xatoligi.
	Hozirgi kunda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib ..... xaritalar yaratilmoqda.
	..... xaritalar ham mavjud bo‘lib, ularda konturlar beriladi xolos. Bu xaritalardan amaliy ishlarni bajarishda foydalaniladi.
	Globusda Shimoliy qutb doim ..... tomonda, janubiy qutb esa ..... tomonda ko‘rsatiladi.

“U KIM ? BU NIMA ?” metodidan foydalanish doirasida o‘quvchilarni baholash quyidagicha amalga oshiriladi;

Ush bu metod doirasida har bir guruhga 5 tadan savol yoki topshiriqlar beriladi. Har bir guruh tomonida to‘g‘ri bajarilgan topshiriq yoki to‘g‘ri javob uchun 1 ball dan beriladi. Jarayon yakunida umumiy ballar hisob-kitob qilinadi va shu asosida guruh a’zolari baholanadi:

1-2 ball to‘plagan guruh a’zolari 3 baho;

3-4 ball to‘plagan guruh a’zolari 4 baho;

5 ball to‘plagan guruh a’zolari 5 baho bilan baholanadilar.

Xulosa.

Buguni kun talablaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki o‘qituvchi-pedagoglar zimmasiga nihoyatda mas’uliyatli vazifalar yuklanmoqda. Ya’ni o‘quvchi ommaviy axborot vositalarni har qanday inson osonlik bilan olishi mumkin hamda qiziqarli qilib ishlab chiqilgan, ammo tagi puch bo‘lgan o‘yinlardan e’tiborini o‘qishga, bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini qaratishi zarur bo‘lmoqda. Bu juda qiyin tuyilsada imkonsiz emas.

Hozirda o‘quvchilar bilan birgalikda ota-onalari ham faqat o‘zlari manfaatli deb bilgan narsalarnigina o‘rganishni xohlaydilar. Demak, biz o‘quvchilar o‘rganilayotgan bilimlarni real hayotda qaysi o‘rinlarda ishlatilishini asoslab ko‘rsatmog‘imiz kerak bo‘ladi. Fanni o‘qitish bilan birga “soft skills” ya’ni o‘zbekchaga tarjima qilinganda “ijtimoiy ko‘nikmalar” bilan birga o‘rgatishga harakat qilishimiz zarur. Biz har qancha o‘rgatishga harakat qilganimiz bilan o‘quvchi bu bilimlarni qay o‘rinlarda qanday holatda ishlatishni bilmasa va bu ko‘nikmalarni ishlatmasa vaqt o‘tishi bilan qancha yaxshi eslab qolganligiga qaramay unutish ehtimoli yuqori.

Shu sababli o‘quvchilarning qiziqishi va hozirgi zamon talablariga moslashgan holatda pedagoglar interfaol metodlardan foydalanishda kreativlik bilan yondoshishi zamon talabi bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduvohidov S.N, Ganiyev Z.A. Geografiya ta’limi metodikasi. – Samarqand, SamDU nashriyoti, 2021.– 330 b.

2. Dilafruz Xidoyatova “Interaktiv metodlar 1.0” “VNESHINVESTPROM” nashri 2023-yil Toshkent.

3. https://techmagia.ru/test-s-kartinkoj-mozhete-li-vy-stat-detektivom/bing.com.

O‘QUVCHILARINING DASTURLASHGA OID ALGORITMIK FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISHGA MO‘LJALLANGAN WEB-PLATFORMA YARATISH VA FOYDALANISH USULI

Mirsanov Jurabek Muxammadiyevich,
Samarqand akademik litsey o‘qituvchisi

Bugungi kunda zamonaviy dasturlash tillarining paydo bo‘lishi tufayli undan foydalanib masalalarni dasturlash va o‘quvchilarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini shakllantirishning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish hamda didaktik ta’minotni takomillashtirish zarurati paydo bo‘lmoqda. Shuning uchun ilgari surilayotgan tadqiqot umumiy o‘rta ta’lim makatabi o‘quvchilarining dasturlashga oid algoritmik fikrlashini shakllantirishga mo‘ljallangan web-platformani yaratish g‘oyasi ilgari surilgan.

O‘quvchilarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini shakllantirishga mo‘ljallangan web-platformani yaratishda U.Taylakov [1], J.Elmurodov [2]larning tadqiqotlari asos qilib olindi. Bunda web-platformalarni yaratish va joriy etishda quyidagi bosqichlarni amalga oshirish lozim (2.1-rsmga qarang).

1-bosqich. O‘quv maqsadini aniqlash;

2-bosqich. Domenidan ro‘yxatdan o‘tish;

3-bosqich. Web-platformani tarkibiy tuzilmasini ishlab chiqish;


4-bosqich. Dasturiy ta’minotni yoki qobiq dasturni tanlab olish;

5-bosqich. Beta versiyasini ishlab chiqish;

6-bosqich. Sinash va baholash**.** Platformani sinovdan o‘tkazish vaqtida, uning ishlashidagi xato va kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etish;

7-bosqich. Serverga joylashtirish. Sinovdan so‘ng platforma serverga joylashtiriladi va real sharoitlarda ishlash uchun sozlanadi.

Ushbu bosqichlar asosida global tarmoqni https://codinguz.uz/ manzilida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining dasturlashga oid algoritmik fikrlashini shakllantirishga mo‘ljallangan web-platforma yaratildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. O‘quvchilarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini shakllantirishga mo‘ljallangan web-platformadan foydalanish jarayoni

Tadqiqot doirasida taklif etilayotgan web-platforma “Metodik ta’minot”, “Topshiriqlar”, “Testlar”, “Dasturlashga oid xorijiy manbalar”, “Teskari aloqa”, “Jamoa bo‘lib dasturlash” va “Masalalarni dastur kodini tahlil qilish” bo‘limlaridan iborat.

Ushbu yaratilgan web-platformalar quyidagi didaktik imkoniyatlarni beradi:

- dasturlashga oid mustaqil ta’lim faoliyati uchun motivatsiyasini oshirish;
- dasturlash tillariga doir ilmiy va uslubi ma’lumotlarni matn, grafik, audio va video formatlarda uzatish;
- tarmoq orqali dasturlashga oid loyiha va guruh ishlarini muhokama qilish;
- dasturlashga oid mustaqil topshiriqlarni onlayn tartibda olish va topshiriqlarni jo‘natish;
- dasturlash to‘liq o‘zlashtirishga mo‘ljallangan didaktik raqamli o‘quv vositalar mujassamlashganligi;
- o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida teskari aloqani amalga oshirish mavjudligi;
- o‘quvchilarning mustaqil ravishda o‘zini-o‘zi baholashga mo‘ljallanganligi;
- jamoa bo‘lib dasturlash imkoniyati mavjudligi.

Shunday qilib, umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining dasturlashga oid algoritmik fikrlashini shakllantirishga mo‘ljallangan web-platformani yaratishda tadqiqot doirasida taklif etilayotgan talablar, algoritm va bosqichlardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Bular asosida yaratilgan web-platforma umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining dasturlashga oid algoritmik fikrlashini shakllantirish uchun zamonaviy didaktik o‘quv vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тайлаков У. К. ўқувчиларнинг дарсдан ташқари ўқув фаолиятини ташкил этиш методикасини такомиллаштириш (10-синф «Информатика ва ахборот технологиялари» фанини ўқитиш мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа фанлари доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2022. – 149 б.
2. Элмуродов Ж.А. Умумий ўрта таълим муассасалари учун очиқ ахборот-таълим муҳитини яратиш ва жорий этиш методикасини такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2021. – 152 б.

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING PEDAGOGIK NAZARIY ASOSLARI VA LOYIHA FAOLIYATINING DIDAKTIK MOHIYATI

Rahmonov Ulfat Ubaydullayevich,
Navoiy viloyati PMM metodisti

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy ta’lim paradigmasi bo‘lgan kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslarini va uni amaliyotga tatbiq etishning samarali vositasi sifatida loyiha faoliyatining didaktik mohiyatini tahlil qiladi. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuvning tarixiy rivojlanish bosqichlari, asosiy tamoyillari va uning an’anaviy ta’limdan farqli jihatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, loyihaga asoslangan ta’limning didaktik tizimi, uning bosqichlari, o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zgargan rollari hamda baholash mezonlari ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Natijalar qismida an’anaviy va innovatsion yondashuvlar qiyosiy tahlil qilingan, kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanish bosqichlari diagramma shaklida keltirilgan va O‘zbekistonning PISA-2022 xalqaro baholash dasturidagi natijalari

OECD o‘rtacha ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanib, kompetensiyaviy ta’limning dolzarbligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *kompetensiyaviy yondashuv, loyiha faoliyati, didaktik mohiyat, pedagogik nazariya, ta’lim texnologiyalari, PISA, kompetensiya, loyihaga asoslangan ta’lim.*

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of the competency-based approach, a modern educational paradigm, and the didactic essence of project-based activity as an effective tool for its practical implementation. The study examines the historical stages of development of the competency-based approach, its main principles, and its differences from traditional education. Additionally, the didactic system of project-based learning, its stages, the changed roles of teacher and student, and assessment criteria are highlighted based on scientific sources. In the results section, a comparative analysis of traditional and innovative approaches is provided, the development stages of the competency-based approach are presented in a diagram, and the relevance of competency-based education is substantiated by comparing Uzbekistan's results in the PISA-2022 international assessment program with the OECD average.

Keywords: *competency-based approach, project activity, didactic essence, pedagogical theory, educational technologies, PISA, competence, project-based learning.*

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы компетентностного подхода, современной образовательной парадигмы, и дидактическая сущность проектной деятельности как эффективного инструмента его практической реализации. В исследовании рассматриваются исторические этапы развития компетентностного подхода, его основные принципы и отличия от традиционного образования. Также на основе научных источников освещается дидактическая система проектно-ориентированного обучения, его этапы, изменившиеся роли учителя и ученика, а также критерии оценивания. В разделе результатов представлен сравнительный анализ традиционного и инновационного подходов, этапы развития компетентностного подхода изображены в виде диаграммы, а актуальность компетентностного образования обоснована сравнением результатов Узбекистана в международной программе оценки PISA-2022 со средними показателями по ОЭСР.

Ключевые слова: *компетентностный подход, проектная деятельность, дидактическая сущность, педагогическая теория, образовательные технологии, PISA, компетенция, проектно-ориентированное обучение.*

Kirish. Jahon ta’lim tizimida ro‘y berayotgan global o‘zgarishlar, jumladan, O‘zbekiston ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi, o‘qitish jarayoniga yangicha yondashuvlarnijoriy etishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ta’limning asosiy maqsadi shunchaki bilimlar majmuasiniberish emas, balki o‘quvchilarda egallangan bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish, muammolarni hal etish, tanqidiy fikrlash va jamoada ishlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirishdan iboratdir. Aynan shu maqsadlarga erishishda kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuv o‘z mohiyatiga ko‘ra, ta’lim natijalariga e’tiborni qaratadi va bu natijalar o‘quvchining amaliy faoliyatga tayyorligi bilan o‘lchanadi. Ushbu yondashuvni amaliyotga samarali tatbiq etishning eng maqbul vositalaridan biri bu loyihaga asoslangan ta’lim (Project-Based Learning - PBL) texnologiyasidir.

Loyiha faoliyati o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, mustaqil tadqiqot olib borish va ijodiy salohiyatini namoyon etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi O‘zbekistonning PISA (Programme for International Student Assessment) kabi xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi va natijalarni yaxshilashga intilishi bilan ham belgilanadi. PISA tadqiqotlari aynan o‘quvchilarning funksional savodxonligini, ya’ni bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatini baholaydi. Shu bois, kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslarini va loyiha faoliyatining didaktik imkoniyatlarini chuqur o‘rganish hamda ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bugungi kunning muhim ilmiy-pedagogik vazifasi hisoblanadi.

Asosiy qism

1. Kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik-nazariy asoslari

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim sohasiga XX asrning ikkinchi yarmida kirib kelgan bo‘lib, uning asoslari amerikalik tilshunos N.Xomskiyning ishlari bilan bog‘lanadi. U “kompetensiya” atamasini til bilimlari va uni amalda qo‘llash qobiliyati o‘rtasidagi farqni ifodalash uchun qo‘llagan. Keyinchalik bu tushuncha pedagogika va psixologiya sohalariga ham tatbiq etildi.

Kompetensiyaviy yondashuv an’anaviy “bilim, ko‘nikma, malaka” (BKM) triadasidan kengroq tushunchadir. U nafaqat nimani bilishni, balki bu bilimlarni qanday va qayerda qo‘llay olishni ham o‘z ichiga oladi. B.Xodjayev ta’kidlaganidek, bu yondashuv an’anaviy uchlikni “Bilim – Ko‘nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik” kabi oltita birlik sifatida tahlil qilishni talab etadi.

Kompetensiyalarni bir necha turlarga ajratish mumkin. O‘zbekiston davlat ta’lim standartlarida quyidagi tayanch kompetensiyalar belgilangan:

Kommunikativ kompetensiya: Ijtimoiy vaziyatlarda muloqotga kirisha olish, o‘z fikrini og‘zaki va yozma bayon qila olish.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi: Mediamanbalardan zaruriy axborotni izlab topish, saralash va undan samarali foydalanish.

O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi: Doimiy bilim olish, o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy va intellektual rivojlantirish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi: Jamiyatda bo‘layotgan voqea-hodisalarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish.

Umummadaniy kompetensiyalar: Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, madaniy merosni asrab-avaylash.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi: Aniq hisob-kitoblarga asoslangan qarorlar qabul qilish, ilmiytexnikaviy taraqqiyotdan foydalana olish.

Ushbu tayanch kompetensiyalar barcha fanlar orqali shakllantiriladi va o‘quvchining hayotiy muvaffaqiyati uchun zamin yaratadi.

2. Loyiha faoliyatining didaktik mohiyati va tamoyillari

Loyiha faoliyati yoki loyihaga asoslangan ta’lim (LAT) kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga joriy etishning eng samarali didaktik vositalaridan biridir. Uning asoschisi sifatida amerikalik faylasuf va pedagog Jon Dyui e’tirof etiladi. Uning fikricha, ta’lim shaxsiy tajriba va amaliy faoliyat orqali amalga oshirilishi kerak.

Loyihaviy faoliyat – bu muayyan muammoni hal qilishga yoki amaliy natijaga erishishga qaratilgan, o‘quvchilar tomonidan mustaqil yoki guruhda bajariladigan, vaqt

va resurslar bo‘yicha cheklangan ijodiy-tadqiqot ishidir. Uning an’anaviy darslardan farqi shundaki, bu jarayonda asosiy e’tibor yakuniy mahsulot yoki natijaga qaratiladi va o‘quvchilar jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi.

"Loyihaviy faoliyat o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi" .

Loyihaviy faoliyatning didaktik tuzilmasi odatda quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Tayyorgarlik (muammoni aniqlash) bosqichi:** Loyiha mavzusi, maqsadi, vazifalari va kutilayotgan natija belgilanadi. Bu bosqichda o‘quvchilarning qiziqishlari va real hayotiy muammolar asosiy mezon bo‘ladi.
2. **Rejalashtirish bosqichi:** Ish rejasi tuziladi, vazifalar taqsimlanadi, kerakli resurslar va ma’lumot manbalari aniqlanadi.
3. **Amalga oshirish (tadqiqot) bosqichi:** O‘quvchilar ma’lumot to‘playdi, tahlil qiladi, tajribalar o‘tkazadi va loyihaning amaliy qismini bajaradi. O‘qituvchi bu jarayonda yo‘naltiruvchi (fasilitator) vazifasini bajaradi.
4. **Natijalarni rasmiylashtirish bosqichi:** Olingan natijalar umumlashtiriladi va taqdimot (prezentatsiya, poster, video, model va h.k.) uchun tayyorlanadi.
5. **Taqdimot va baholash bosqichi:** Loyiha natijalari ommaga (sinfdoshlar, o‘qituvchilar, ota-onalar) taqdim etiladi. Baholash oldindan ishlab chiqilgan mezonlar (rubrika) asosida amalga oshiriladi.
6. **Refleksiya bosqichi:** O‘quvchilar o‘z faoliyatini, yutuq va kamchiliklarini tahlil qiladi, xulosalar chiqaradi. Bu jarayonda o‘qituvchining roli bilim uzatuvchidan maslahatchi, yo‘naltiruvchi va motivatorga aylanadi. O‘quvchi esa passiv tinglovchidan faol tadqiqotchi, ijodkor va muammo yechuvchiga aylanadi. Bu esa o‘z navbatida, yuqorida sanab o‘tilgan tayanch kompetensiyalarning samarali shakllanishiga olib keladi.

Natijalar va muhokama

Kompetensiyaviy yondashuv va loyiha faoliyatining an’anaviy ta’limdan afzalliklarini yaqqolroq ko‘rsatish uchun ularning qiyosiy tahlilini keltiramiz.


1-jadval. An’anaviy va kompetensiyaviy, loyihaviy yondashuvlarning qiyosiy tahlili

Mezonlar	**An’anaviy yondashuv**	**Kompetensiyaviy, Loyihaviy yondashuv**
Ta’lim maqsadi	Bilim, ko‘nikma va Malakalarni shakllantirish.	Kompetensiyalarni (bilimlarni amalda qo‘llay olish qobiliyatini) rivojlantirish.
O‘qituvchining roli	Bilim manbai, nazoratchi.	Fasilitator, yo‘naltiruvchi, maslahatchi, hamkor.
O‘quvchining roli	Passiv qabul qiluvchi, yod oluvchi.	Faol tadqiqotchi, muammo yechuvchi, ijodkor.
Ta’lim mazmuni	Fanga oid, asosan nazariy bilimlar.	Fanlararo, amaliyotga yo‘naltirilgan, hayotiy muammolarga asoslangan.
Asosiy metodlar	Tushuntirish, ma’ruza, suhbat.	Loyiha, keys-stadi, guruhlarda ishlash, interaktiv metodlar.
Baholash	Asosan yakuniy natijani	Jarayon va natijani birgalikda, oldindan

(bilimni) baholash.	belgilangan mezonlar asosida baholash.


Kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanish tarixini quyidagi diagrammada ko‘rish mumkin. Bu jarayon bir necha o‘n yilliklarni o‘z ichiga olib, nazariyadan amaliyotga bosqichma-bosqich o‘tishni aks ettiradi.

1-diagramma. Kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanish bosqichlari



Ushbu yondashuvlarning O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun naqadar dolzarbligini PISA-2022 xalqaro baholash dasturi natijalari ham ko‘rsatib turibdi. PISA o‘quvchilarning yodlagan bilimlarini emas, balki ularni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish, ya’ni funksional savodxonligini o‘lchaydi. Bu esa kompetensiyaviy ta’limning asosiy maqsadidir.

1-grafik. PISA-2022 natijalari: O‘zbekiston va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) o‘rtacha ko‘rsatkichlari taqqoslamasi



Grafikdan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston o‘quvchilarining natijalari barcha yo‘nalishlar bo‘yicha OECD mamlakatlarining o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan ancha past. Bu holat ta’lim jarayonida nazariy bilim berishdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga o‘tish zaruriyatini yaqqol ko‘rsatadi. Loyiha faoliyati kabi interaktiv metodlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish va ijodiy yechimlar topish kabi PISAda baholanadigan muhim kompetensiyalarni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi. An’anaviy yondashuvdan voz kechib, kompetensiyaviy ta’lim va loyihaga asoslangan o‘qitishni keng joriy etish orqali kelgusi PISA tadqiqotlarida yuqoriroq natijalarga erishish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta’limning nazariy poydevori bo‘lsa, loyiha faoliyati uning amaliyotdagi yorqin namoyonidir. Ushbu ikki tushuncha bir-birini to‘ldiradi va birgalikda ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirishga qodir.

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim maqsadlarini aniqlashtirib, o‘quvchi shaxsida qanday qobiliyatlar shakllanishi kerakligini belgilab bersa, loyiha faoliyati shu qobiliyatlarni amalda, real hayotiy muammolar orqali rivojlantirish uchun didaktik mexanizmni taqdim etadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga yaqinlashtirish va PISA kabi xalqaro baholash dasturlarida munosib o‘rin egallash uchun ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv va loyiha faoliyatini tizimli ravishda integratsiya qilish strategik ahamiyatga ega. Bu o‘z navbatida, pedagoglardan o‘z kasbiy mahoratini doimiy oshirib borishni, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishni va o‘quv jarayonida o‘z rolini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Kelgusi tadqiqotlar turli fanlar kesimida loyihaviy ta’lim modellarini ishlab chiqish, kompetensiyalarni baholashning aniq va shaffof mezonlarini yaratish hamda pedagog kadrlarni ushbu yo‘nalishda qayta tayyorlash metodikasini takomillashtirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.B.Qorayev, N.I.Tirkashev Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asos iy jihatlari. *Academic Research in Educational Sciences,* 2022 *3*(1), 1071-1078.
2. D.K.Xasanova Kompetensiyaviy yondashuvning amalga oshish bosqichlari. *Oriental Renai ssance: Innovative, educational, natural and social sciences,* 2024 *4*(3).
3. N.Saidova Pedagogikada loyihaviy faoliyat tushunchasi va tuzilmasi. 2025. *Centralasian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*.
4. N.Saidova Ta’lim jarayonida loyihaviy yondashuv: bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ta’siri. 2025 *Centralasian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*.
5. I.N.Navro‘zov, Loyiha metodi asosida o‘qitishning asosiy aniq maqsadi va samaradorligi. 2021 *Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, (6)*.
6. H.N.Arziqulov Kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik-psixologik asoslari. 2023 *Development of pedagogical technologies in modern sciences*.
7. OECD 2023. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. *OECD Publishing, Paris*.
8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.

RAHBAR KADRLARNING TA'LIM JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDAGI O‘RNI VA ROLI

Rajabova Durdona Komil qizi,
Navoiy viloyati PMM Fanlarni rivojlantirish bo‘limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim muassasalaridagi rahbar kadrlarning ta'lim jarayonini samarali tashkil etishdagi o‘rni va roli ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Samarali rahbarlik o‘qituvchilarning motivatsiyasi va faoliyat samaradorligini oshirishda, shuningdek, ijobiy maktab madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga egaligi yoritib berilgan.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется место и роль руководящих кадров в образовательных учреждениях в эффективной организации образовательного процесса. Освещено,

что эффективное руководство имеет решающее значение в повышении мотивации и эффективности деятельности учителей, а также в формировании позитивной школьной культуры..

Abstract. This article analyzes the role and place of managerial personnel in educational institutions in the effective organization of the educational process from a scientific and theoretical point of view. It is highlighted that effective leadership plays a decisive role in increasing the motivation and effectiveness of teachers, as well as in the formation of a positive school culture.

Kalit so‘zlar: Ta'limda yetakchilik, rahbar kadrlarning roli, ta'lim jarayonini tashkil etish, o‘qituvchi motivatsiyasi, maktab samaradorligi, transformatsion yetakchilik.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifasi – jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan, raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat. Bu jarayonning samaradorligi bevosita ta'lim muassasalari rahbar kadrlarining professional mahorati va yetakchilik qobiliyatlariga bog‘liq. Rahbar nafaqat ma'muriy menejer, balki butun o‘quv-tarbiya jarayonining asosiy ilhomlantiruvchisi, tashkilotchisi va strategik yo‘nalishini belgilovchisi hisoblanadi.

Ta’lim tizimidagi muvaffaqiyatlar ko‘pincha samarali rahbarlik bilan bog‘liq bo‘lib, yetakchilarning qarorlari, munosabati va tashkiliy tuzilmani shakllantirishdagi faoliyati o‘qituvchilar faoliyatiga, maktab muhitiga va, pirovardida, o‘quvchilarning natijalariga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolaning maqsadi — rahbar kadrlarning ta'lim jarayonini sifatli va samarali tashkil etishdagi ko‘p qirrali o‘rni va muhim rolini ilmiy adabiyotlar tahlili asosida ochib berishdan iborat.

1. Rahbar kadrlarning asosiy funksiyalari

Ta’lim muassasasi rahbari faoliyati faqatgina nazorat va hisobot bilan cheklanmaydi. Tadqiqotchi olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, samarali ta'lim yetakchisi quyidagi asosiy funksiyalarni amalga oshiradi:

1.1. Vizyonni yaratish va yo‘nalishni beligilash

Rahbarning eng muhim vazifasi – maktabning kelajakdagi rivojlanish vizyonini (ko‘zlangan maqsadini) yaratish va uni barcha xodimlarga yetkaza olishdir. Bu vizyon jamoaning yuqori natijalarga erishishiga bo‘lgan yagona ma’noni va intilishni shakllantirishi lozim. Vizyonni aniq belgilash orqali rahbar o‘qituvchilarni umumiy maqsad yo‘lida birlashtiradi.

1.2. Xodimlarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash

Samarali rahbar xodimlarni intellektual rag‘batlantiradi, kasbiy rivojlanishlari uchun sharoit yaratadi va ularga o‘rnak bo‘ladi. U o‘qituvchilarga ishonch bildirish (vakolat berish - empowerment), ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali yuqori motivatsiya va majburiyatni (sodiqlikni) shakllantiradi. Bu, o‘z navbatida, o‘qituvchilar faoliyatining va o‘quv jarayoni sifatining oshishiga olib keladi.

1.3. Tashkiliy tuzilmani va madaniyatni qayta loyihalash

Rahbar kadr ta'lim muassasasining ichki muhitini, ya'ni tashkiliy madaniyatini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi. U hamkorlikka, shaffoflikka, o‘zaro hurmatga va doimiy takomillashuvga asoslangan madaniyatni yaratadi. Bunday madaniyat o‘qituvchilarning kasbiy muhitda o‘zlarini himoyalangan his qilishlariga yordam beradi, ishdan charchash (burnout) holatlarini kamaytiradi va ijodkorlikni rag‘batlantiradi.

2. Yetakchilik uslublarining ta'lim jarayoni samaradorligiga ta'siri

Rahbar tanlagan yetakchilik uslubi ta'lim jarayonining natijalariga bevosita ta'sir koʻrsatadi. Ilmiy tadqiqotlar ta'limda ayniqsa ikki yetakchilik uslubining muhimligini koʻrsatadi:

2.1. Transformatsion Yetakchilik (Transformational Leadership)

Transformatsion rahbarlar oʻz xodimlarini ilhomlantiradi, ularning vizyon va qiymatlarga sodiqligini oshiradi. Bu uslub quyidagilar orqali maktab samaradorligini oshiradi:

Motivatsiya: Oʻqituvchilarni oddiy "ish"dan koʻra koʻproq narsaga intilishga undaydi. **Ijodkorlik va Innovatsiya**: Yangi oʻqitish usullarini sinab koʻrish va ta'lim muammolariga ijodiy yondashishni ragʻbatlantiradi.

Ijobiy madaniyat: Hamkorlik va doimiy oʻrganish madaniyatini shakllantiradi, bu esa yuqori akademik natijalarga olib keladi.

2.2. Ishtirokchi Yetakchilik (Participatory Leadership)

Ishtirokchi yetakchilikda rahbar qaror qabul qilish jarayonlariga xodimlarni faol jalb qiladi. Bu uslub oʻqituvchilarning maktab maqsadlari uchun mas'uliyatini oshiradi, ular orasida ijtimoiy kapitalni va hamkorlikni rivojlantiradi. Natijada, oʻquvchilar faoliyati va tashkiliy madaniyat yaxshilanadi. Rahbarning adolatlilik va shaffoflikni namoyish etishi oʻzaro ishonchni mustahkamlaydi, bu esa jamoaviy birlashishni ta'minlaydi.

3. Ta’lim natijalariga ta'sir etish mexanizmlari

Rahbar kadrlarning samarali faoliyati bevosita yoki bilvosita ta'lim natijalariga ta'sir qiladi. Ushbu ta'sir quyidagi mexanizmlar orqali namoyon boʻladi:

Oʻqituvchi Faoliyatining Oʻsishi: Rahbarning yetakchiligi oʻqituvchilarning motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi, bu esa oʻz-oʻzidan ularning dars berish sifatini va faoliyat samaradorligini oshiradi.

Resurslarni samara bilan boshqarish: Rahbar yaxshi boshqaruv koʻnikmalariga ega boʻlgan holda, mavjud ta'lim resurslarini (moliyaviy, inson, texnik) eng samarali tarzda taqsimlaydi va ularni oʻquv jarayoni ehtiyojlariga moslashtiradi.

Kasbiy oʻrganishni qoʻllab-quvvatlash: Rahbarlar xodimlar uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Ular oʻqituvchilarni yangi usullarni oʻrganishga, tajriba almashishga va doimiy takomillashuvga undaydi.

Ijtimoiy muhitni yaxshilash: rahbarning hissiy qoʻllab-quvvatlashi va strukturaviy aniqlikni ta'minlashi ish muhitini yaxshilaydi, xodimlarning ishdan qoniqishini oshiradi.

Xulosa

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda rahbar kadrlarning oʻrni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular nafaqat ma'muriy boshqaruvchi, balki strategik yetakchi, vizyoner va motivator sifatida ish yuritishlari lozim. Transformatsion va ishtirokchi yetakchilik uslublarini qoʻllash orqali rahbarlar: Oʻqituvchilarning motivatsiyasi va faoliyatini sezilarli darajada oshiradi. Hamkorlik va innovatsiyaga asoslangan ijobiy tashkiliy madaniyatni shakllantiradi. Ta'lim resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Samarali rahbarlik ta'lim muassasasining umumiy natijalari va samaradorligini bevosita yaxshilaydi. Shuning uchun ta'lim tizimida yetakchilik qobiliyatiga ega boʻlgan, doimiy oʻrganishga tayyor, adolatli va vizyoner rahbarlarni tayyorlash va ularni qoʻllab-quvvatlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ta'lim sifatini oshirish uchun rahbar kadrlarni muntazam yetakchilik treninglaridan oʻtkazish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
2. Abdullayeva, B. S. (2018). Ta’lim muassasasi menejmenti: nazariya va amaliyot. Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 310 b. (Ta’lim tashkilotlarini boshqarishning zamonaviy usullari)
3. To‘rayev, H. R. (2021). Rahbar kadrlarning transformatsion yetakchilik uslublarini ta’lim samaradorligiga ta’siri. Pedagogik ta’limda innovatsiyalar jurnali, № 3, 15-22-b. (Yetakchilikning pedagogik natijalarga ta’siri tahlili. Jurnal maqolasi bo‘lgani uchun aniq betlar oralig‘i ko‘rsatildi)
4. Ismoilov, A. T., & Rahmatullayeva, Z. M. (2020). Ta’lim jarayonini tashkil etishda kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish. O‘quv qo‘llanma. Samarqand: SamDU nashriyoti, 240 b. (Kadrlar bilan ishlash va resurslarni boshqarish masalalari)
5. Olimov, Q. E. (2019). Ta’lim tizimi rahbarlarida motivatsiya va mas’uliyatni oshirish mexanizmlari. Oliy ta’lim jurnali, № 5, 45-53-b. (Rahbarlarning xodimlarni rag‘batlantirishdagi roli. Jurnal maqolasi bo‘lgani uchun aniq betlar oralig‘i ko‘rsatildi)

FRAZEOLOGIYA VA FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK TUZILISHI

Nosirova Iroda Sobirjon qizi,
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

Frazeologiya – bu til tarkibidagi barqaror so‘z birikmalari, ya’ni tayyor holda ishlatiladigan ifodalar tizimini o‘rganadigan bo‘limdir. Bunday birliklar frazeologik birliklar yoki frazeologizmlar deb ataladi. Frazeologizmlar ma’nosi jihatidan yaxlit bo‘lib, ularni tashkil etgan so‘zlarning har biri alohida ma’no bermaydi. Masalan,

- yuragi yorildi — juda qo‘rqdi
- tili uzun — odobsiz, haddidan oshgan
- og‘zi qulog‘ida — juda xursand
- boshi osmonga yetdi — quvonchdan sarmast bo‘ldi.

Frazeologizmlarning asosiy belgilar

1. Barqarorlik – tarkibiy qismlarining o‘rni o‘zgarmaydi.
2. Ma’nodagi yaxlitlik – so‘zma-so‘z tahlil qilib bo‘lmaydi.
3. Tayyor holda qo‘llanish – nutqda mavjud shaklda ishlatiladi.
4. Obrazlilik – ma’nosi o‘xshatish asosida paydo bo‘ladi.

Frazeologizmlarning semantik tuzilishi

№	Turi	Tavsif	Misollar
1	Frazeologik chatishma	Ma’nosi butunlay ko‘chgan, so‘zma-so‘z talqin qilib bo‘lmaydi	yuragi yorildi, oyog‘i ostidan yer qochdi
2	Frazeologik birlashma	Ma’nosi qisman ko‘chgan, asosiy so‘z ma’nosini saqlaydi	ko‘ngli to‘ldi, og‘zi qulog‘ida
3	Frazeologik qo‘shilma	So‘zlar o‘z ma’nosini qisman saqlaydi, ammo yangi ma’no beradi	maslahat bermoq, qaror qabul qilmoq

Frazeologizmlarning semantik tahlili

Frazeologizm	**So‘zma-so‘z ma’nosi**	**Ko‘chma ma’nosi**	**His-tuyg‘u ifodasi**
yuragi yorildi	yurak yorilishi	juda qo‘rqdi	salbiy
boshi osmonga yetdi	osmonga chiqish	juda quvondi	ijobiy
tili uzun	til uzunligi	haddidan oshgan	salbiy
og‘zi qulog‘ida	og‘iz va quloq	xursand	ijobiy
ko‘zi qizidi	ko‘zning qizishi	g‘azablandi	salbiy
Frazeologizm	So‘zma-so‘z ma’nosi	Ko‘chma ma’nosi	His-tuyg‘u ifodasi

Frazeologizmlarning tildagi ahamiyati

• Tilni obrazli va ta’sirchan qiladi.
• Milliy madaniyat va xalq ruhini ifodalaydi.
• Badiiy nutqning asosiy vositasi hisoblanadi.
• Inson his-tuyg‘ularini qisqa va kuchli ifodalaydi.

Frazeologizmlarning ifoda uslublarida qo‘llanishi

Uslub	**Tavsif**	**Misollar**
Badiiy	Obraz yaratish uchun ishlatiladi	yuragi yorildi, boshi osmonga yetdi
So‘zlashuv	Og‘zaki nutqda keng ishlatiladi	gap qaytarmoq, yo‘l bosmoq
Publitsistik	Ta’sir kuchini oshirish uchun	xalq ko‘nglidan joy olmoq
Ilmiy va rasmiy	Kamdan-kam ishlatiladi	qaror qabul qilmoq

Frazeologizmlarning grammatik xususiyatlari

• Gapda kesim, to‘ldiruvchi, hol yoki aniqlovchi vazifasida keladi.

• Shaklan so‘z birikmasiga o‘xshaydi, lekin ma’nosi jihatidan bir birlik hisoblanadi.

Misollar:

- (Kesim): U boshini egdi.
- (Hol): U yuragi hovuchida keldi.
- (To‘ldiruvchi): Men uning og‘zi qulog‘ida ekanini bildim.

Frazeologizmlar tilda nafaqat ifoda vositasi, balki madaniy, tarixiy, estetik va stilistik boylikdir. Ular orqali til yanada jonli, ta’sirli va xalqona tus oladi. Shuning uchun ham ularni o‘rganish, to‘g‘ri ishlatish va saqlash har bir til egasi uchun muhim vazifadir.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Hamdamova Nafisa Xayritdinovna,
Navoiy viloyati PMM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik texnologiya, uning asosiy vazifalari, boshlang‘ich ta’lim dars jarayonlarida qo‘llaniladigan interfaol metodlar ularning tasnifi berilgan.

Abstract. This article presents pedagogical technology, its main tasks, and the classification of interactive methods used in primary education teaching processes.

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические технологии, их основные задачи, а также классификация интерактивных методов, используемых в начальном образовании.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya,ta’lim- tarbiya, zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablar.

Keywords: pedagogical technology, education, important requirements for the organization of modern education.

Ключевые слова: педагогические технологии, образование, важные требования к организации современного образования.

Pedagogik texnologiya-bu ilmiy asosda tuzilgan, zamon va makon bo‘yicha dasturlashtirilgan hamda ko‘zlanayotgan natijalarga erishishga yordam beruvchi, pedagogik jarayonning barcha tarkiblarining harakatlanish tizimidir.

Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta’lim- tarbiya jarayonini umumiy, yaxlit ishlab chiqish;
- ta’lim- tarbiya jarayonida hal etilishi lozim bo‘lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash;
- ta’lim- tarbiya jarayoni mazmunini ishlab chiqish;
- ta’lim- tarbiya jarayonida ta’lim oluvchining erkin, mustaqil faoliyat ko‘rsatishi uchun muayyan shart- sharoitlarni yaratish hamda ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- ta’lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish va baholashni tashkil etish.

Bugun ta’lim- tarbiya sohasida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiya larni qo‘llash asosiy talablardan biriga aylandi.Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish o‘qituvchining interfaol usullarni qay darajada bilishi hamda ularni ta’lim- tarbiya jarayonida faol qo‘llay olishiga bog‘liqdir.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shu ningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik maho rat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Tajribamdan kelib chiqqan holda boshlang‘ich sinf dars jarayonlarida quyida gi interfaol usullarni qo‘llashni tavsiya etaman.

“Insert” usuli.

Bu usuldan (3- sinf) yangi mavzu bayoni, yangi mavzuni mustahkamlash, takrorlash bosqichlarida foydalaniladi. Unda o‘quvchilarga matn beriladi. Bu matn da eski ma’lumotlar bilan birga yangi ma’lumotlar ham mavjud bo‘ladi.Birorta olim, asar muallifi haqida ma’lumotlar bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar ularni 4 ta belgi bilan (+,-,!,?) belgilaydilar. So‘roq bilan belgilangan ma’lumotlarni o‘qituv chi tushuntirib beradi.

“Qarorlar shajarasi”

Bu usuldan asossan, o‘tilgan mavzularni takrorlash hamda umumlashtirish maqsadida foydalaniladi. Unda o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruh biror mavzu, misol uchun, “O‘zbekistonda muhim sanalar”,”14- yanvar – Vatan himoyachilari kuni”, “8- mart- Xalqaro xotin – qizlar kuni”,”9- may – Xoti ra va

qadrlash kuni",”Mustaqillik bayrami” kabilarda belgilangan vaqt (3-5 daqi qa) davomida ma'lumot yozadi. So‘ng 1- guruh 2- guruhga, 2- guruh 3- guruhga, 3- guruh 4- guruhga o‘z topshiriqlarini davom ettirish uchun beradi.Bunday amal har bir guruhga o‘z topshirig‘I qaytguncha bajariladi. Keyin guruhlar o‘z masalasi bo‘yicha berilgan topshiriqni navbati bilan taqdim etadi.

O‘quvchilarning erkin fikrlash va o‘z nutqini mustaqil ifodalay olishi o‘qish va ona tili darslarida, ayniqsa, e'tiborga olinadi.Bunday malakalarni o‘zlashtirishga kirishgan bolalar darsning tinglovchisigina bo‘lib qolmay, balki faol ishtirokchisi ga ham aylanadilar.

“Hikmatli anogramma” usuli. Bunda biror bir hikmatli iboraning so‘zlari tarqoq holatda o‘quvchilarga beriladi. Ular so‘zlarni joy- joyiga qo‘yish orqali hik matli gaplarni hosil qilish kerak bo‘ladi.

Masalan: “Bering, tabiatini, e'tibor bersangiz, biror, bilmoqchi, do‘stlariga, inson” so‘zlaridan. “Biror inson tabiatini bilmoqchi bo‘lsangiz, do‘stlariga e'tibor bering” hikmatli so‘zni hosil qiladilar.

“Oltin tarozi” usuli. Bu usuldan ham ona tili darslarida foydalanish mum kin. Oltin tarozi maketi yasalgan bo‘lib, uning bir palasiga “Bo‘sh vaqt” yozuvi, ikkinchi palasiga guruhlarning mavzudan olgan bilim, ma'lumotlari yozilgan qo g‘oz tarqatmalar qo‘yiladi. Tarozi toshining bilimlar tomoni, albatta, og‘ir keladi va o‘quvchilar xulosa chiqarishadi.Bu usuldan darsni yakunlashda foydalaniladi. Har bir o‘quvchi bugungi darsdan olgan ma'lumot, bilimini qog‘ozga yozib, nima larni o‘rganganini aniq va qisqa sanab o‘tadi,bo‘sh vaqtni bekor o‘tkazmaslik, vaqt ni boy bermasdan bilim o‘rganish kerakligi haqida ibratli to‘xtamga keladi.

Xulosa qilib aytganda ta'limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texno logiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qol may, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlay digan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Murodov, I. F. (2011). *Boshlang‘ich ta'limda ta'lim jarayonining samaradorligi ni oshirish metodlari*. T.: Fan va texnologiya.
2. Muxamedov, R. (2014). *Pedagogik amaliyotda innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Pahlavonov, M. M. (2016). *Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish*.Toshkent: O‘qituvchi.
4. Boshlang‘ich ta'lim jurnalining 2016- yil 2-,4-,7- sonlari

INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA EMOTSIONAL INTELLEKTI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Rustamova M.T.,
Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Anotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining emotsional intellektini rivojlantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilinadi. Emotsional intellekt tushunchasi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritilib, o‘qituvchining o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish va dars jarayonida ijobiy muhit yaratishdagi roli ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, emotsional intellektni shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillar – shaxsiy fazilatlar,*

ijtimoiy muhit, stressni boshqarish qobiliyati va empatiya darajasi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining emotsional intellektini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Mazkur ish pedagogik psixologiya va ta’lim metodikasi sohasida tadqiqot olib boruvchi mutaxassislar hamda amaliyotchi o‘qituvchilar uchun foydalidir.

Kalit so‘zlar: *emotsional intellekt, ingliz tili o‘qituvchisi, psixologik omillar, ta’lim jarayoni, empatiya, stressni boshqarish, muloqot ko‘nikmalari, ijtimoiy muhit, shaxsiy fazilatlar, motivatsiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические факторы, влияющие на развитие эмоционального интеллекта будущих учителей английского языка. Рассматриваются понятие эмоционального интеллекта и его значение в образовательном процессе, а также роль учителя в управлении собственными эмоциями, эффективном взаимодействии с учащимися и создании позитивной атмосферы на уроках. Кроме того, анализируются основные психологические факторы, влияющие на формирование эмоционального интеллекта, такие как личные качества, социальная среда, способность управлять стрессом и уровень эмпатии. На основе результатов исследования предлагаются рекомендации по развитию эмоционального интеллекта будущих учителей английского языка. Данная работа будет полезна специалистам, занимающимся исследованиями в области педагогической психологии и методики преподавания, а также практикующим учителям.*

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, преподаватель английского языка, психологические факторы, образовательный процесс, эмпатия, управление стрессом, коммуникативные навыки, социальная среда, личностные качества, мотивация.*

Annotation. *This article analyzes the psychological factors influencing the development of emotional intelligence in future English language teachers. The concept of emotional intelligence and its importance in the educational process are highlighted, examining the teacher’s role in managing their own emotions, establishing effective communication with students, and creating a positive classroom environment. Additionally, the key psychological factors affecting the formation of emotional intelligence—personal traits, social environment, stress management ability, and level of empathy—are explored. Based on the research findings, recommendations for developing emotional intelligence in future English language teachers are provided. This study is useful for specialists conducting research in the field of pedagogical psychology and teaching methodology, as well as for practicing educators.*

Keywords: *emotional intelligence, English language teacher, psychological factors, educational process, empathy, stress management, communication skills, social environment, personal qualities, motivation.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchining nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalari, balki uning emotsional intellekti ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ingliz tili o‘qituvchilari uchun samarali muloqot qilish, talabalarning motivatsiyasini oshirish va o‘qitish jarayonini intuitiv tarzda boshqarish kabi jihatlar emotsional intellekt bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘qituvchi o‘zining va atrofdagilarning his-tuyg‘ularini tushunish, boshqarish va ularga mos tarzda munosabat bildirish qobiliyatiga ega bo‘lsa, ta’lim jarayoni yanada samarali va samarador bo‘ladi.

Emotsional intellekt – bu insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, boshqalarning emotsiyalarini tushunish va ularning hissiy holatiga mos tarzda munosabat bildirish qobiliyatidir. Ingliz tili o‘qituvchilari uchun bu ko‘nikmalar o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, dars jarayonida ijobiy muhit yaratish va ularning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining emotsional intellektini rivojlantirishga ta’sir etuvchi psixologik omillar chuqur tahlil qilinadi.

Emotsional intellekt tushunchasi va uning ahamiyati

Emotsional intellekt – bu insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, boshqalarning emotsiyalarini tushunish va ularga mos tarzda munosabat bildirish qobiliyatidir. Ingliz tili o‘qituvchilari uchun bu ko‘nikmalar o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, dars jarayonida ijobiy muhit yaratish va ularning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, emotsional intellekt yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar o‘quvchilarning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunadi va ularga individual yondashuv bilan ta’lim berish imkoniga ega bo‘ladi.

O‘qituvchining emotsional intellekti qanchalik rivojlangan bo‘lsa, u shunchalik samarali tarzda o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatishi va ularning psixologik holatini tushunishi mumkin. Bu esa ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, emotsional intellekt shaxslararo munosabatlarni yaxshilash, o‘quvchilar bilan ijobiy aloqalar o‘rnatish va dars jarayonida ishonchli muhit yaratishda muhim omil hisoblanadi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun emotsional intellektni rivojlantirish zarurati.

O‘qituvchilarning emotsional intellekti nafaqat ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda, balki talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ingliz tilini o‘rganish jarayoni ko‘pincha psixologik to‘siqlar, jumladan, til to‘siqlari, o‘zini ifoda qilishdagi qiyinchiliklar va o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘qituvchi o‘zining emotsional intellekti yordamida ushbu to‘siqlarni yengib o‘tishda talabalariga ko‘mak bera oladi. U dars jarayonida qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi muhit yaratib, o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirishi mumkin.

Shuningdek, emotsional intellekt rivojlangan o‘qituvchi turli yoshdagi va temperamentga ega o‘quvchilarga moslashish qobiliyatiga ega bo‘lib, har bir talabaga individual yondasha oladi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Emotsional intellekt rivojiga ta’sir etuvchi psixologik omillar.

Emotsional intellektni rivojlantirishga quyidagi psixologik omillar ta’sir ko‘rsatadi:

1. Shaxsiy fazilatlar – o‘qituvchining sabr-toqati, bag‘rikengligi, o‘zini tuta bilishi va moslashuvchanligi emotsional intellekt darajasini belgilaydi. Shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish orqali o‘qituvchilar dars jarayonida yuzaga keladigan turli muammolarni samarali hal qila oladi.

2. Ijtimoiy muhit – ijobiy ish muhitida faoliyat yuritish, hamkasblar va o‘quvchilar bilan iliq munosabatlarni shakllantirish emotsional intellektni oshirishga yordam beradi. Jamoaviy muhitda o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va tajriba almashish orqali o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi tezlashadi.

3. Stressni boshqarish qobiliyati – o‘qituvchining stressga chidamliligi va o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qila olish qobiliyati ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Stressni boshqarish usullari, jumladan, mindfulness (hushyorlik), nafas olish mashqlari va vaqtni boshqarish texnikalari o‘qituvchining hissiy barqarorligini oshirishga yordam beradi.

4. Empatiya darajasi – o‘quvchilar bilan hamdardlik qilish, ularning hissiy holatini tushunish va shunga mos ravishda yondashish o‘qituvchi uchun muhim ko‘nikmadir. Empatiya rivojlangan o‘qituvchi o‘quvchilarning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunib, ularga individual yondashuvni qo‘llay oladi.

Xulosa va tavsiyalar.

Emotsional intellektning rivojlanganligi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. U nafaqat o‘quvchilarga samarali ta’lim berish, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida emotsional intellektni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Tavsiyalar:

O‘qituvchilar uchun emotsional intellektni rivojlantirishga yo‘naltirilgan treninglar tashkil etish;

Stressni boshqarish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazish;

O‘qituvchilarga empatiya va ijobiy muloqotni rivojlantirish bo‘yicha maslahat berish;

O‘quvchilarning hissiy ehtiyojlarini tushunish va ularga mos tarzda yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ushbu yondashuvlar ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishga va ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Bantam Books.
2. Mayer, J. D., & Salovey, P. (1997). What is Emotional Intelligence? Emotional Development and Emotional Intelligence
3. Bar-On, R. (2006). The Bar-On Model of Emotional-Social Intelligence (ESI). Psicothema.
4. Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books.
5. Petrides, K. V., & Furnham, A. (2001). Trait Emotional Intelligence: Psychometric Investigation with Reference to Established Trait Taxonomies. European Journal of Personality.

MAKTABGACHA TA’LIMDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN BOLALARNI IJTIMOIYLASHTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Qambarova Naziraxon,
Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi, maktabgacha ta’limni muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida nogironligi bo‘lgan bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonining mazmuni, maqsadi va pedagogik jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida kuzatuv, suhbat va eksperimental faoliyatlar orqali bolalarning ijtimoiy faolligi, muloqotga kirishish ko‘nikmalari hamda emotsional holatlaridagi o‘zgarishlar o‘rganildi. Empirik natijalar shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiylashtirishda emosional-sensitiv yondashuv, rolli o‘yinlar, sensorli*

muhitlar va Floortime kabi metodlarning qo‘llanilishi bolalarning tengdoshlar bilan samarali muloqotga kirishishiga, ijtimoiy muhitga moslashishiga va o‘zini ifoda etish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, pedagoglarning metodik tayyorgarligi va ota-onalar bilan hamkorlik bu jarayonning muhim tarkibiy qismlaridan biri ekani aniqlangan. Tadqiqot asosida nogironligi bo‘lgan bolalarni ijtimoiylashtirishda samaradorlikni oshiruvchi tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda kelgusidagi ilmiy-amaliy izlanishlar uchun yo‘nalishlar belgilangan.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, nogironligi bo‘lgan bolalar, ijtimoiylashtirish, inklyuziv ta’lim, emosional-sensitiv yondashuv, Floortime, pedagogik metodlar, ijtimoiy moslashuv.*

Аннотация: *В статье рассматриваются содержание, цели и педагогические аспекты процесса социализации детей с ограниченными возможностями в учреждениях дошкольного образования. В рамках исследования с помощью наблюдения, интервью и экспериментальной деятельности изучались изменения в социальной активности, коммуникативных навыках и эмоциональных состояниях детей. Эмпирические данные показали, что применение эмоционально-смыслового подхода, ролевых игр, сенсорной среды и метода Floortime положительно влияет на способность детей к эффективному взаимодействию со сверстниками и адаптацию в социальной среде. Установлено, что методическая подготовка педагогов и сотрудничество с родителями являются важными компонентами данного процесса. На основе исследования разработаны рекомендации по повышению эффективности социализации и определены направления дальнейших научно-практических изысканий.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, дети с ограниченными возможностями, социализация, инклюзивное образование, эмоционально-смысловой подход, Floortime, педагогические методы, социальная адаптация.*

Abstract: *This article examines the content, purpose, and pedagogical aspects of the socialization process of children with disabilities in preschool education institutions. The study employed observation, interviews, and experimental activities to assess changes in children's social activity, communication skills, and emotional states. Empirical results revealed that applying emotionally meaningful approaches, role-playing games, sensory environments, and the Floortime method positively influences children's ability to engage effectively with peers and adapt to social environments. The study also found that the methodological preparedness of educators and cooperation with parents are crucial components of this process. Based on the findings, recommendations were developed to enhance the effectiveness of socialization and directions for further scientific-practical research were proposed.*

Keywords: *preschool education, children with disabilities, socialization, inclusive education, emotional-sensitive approach, Floortime, pedagogical methods, social adaptation.*

Kirish. Inson huquqlari va imkoniyatlar tengligi bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab muhim ijtimoiy va pedagogik masalaga aylangan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, nogironligi bo‘lgan bolalarning jamiyatga to‘liq qo‘shilishi, ular uchun qulay ta’lim muhitini yaratish va ularni ijtimoiy hayotga integratsiyalash dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutar ekan, ushbu davrda nogironligi bo‘lgan bolalarni

ijtimoiylashtirish bo‘yicha samarali yondashuvlar ishlab chiqish pedagogika fanining ustuvor yo‘nalishiga aylangan.

Nogironligi bo‘lgan bolalarni ijtimoiylashtirish deganda ularning ijtimoiy muhitda faol ishtirok etishi, tengdoshlari bilan samarali muloqotga kirishishi, o‘zining o‘rnini anglash va moslasha olish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni tushuniladi. Bu jarayonda bolaning individual xususiyatlari, rivojlanishdagi cheklovlari va psixologik holati inobatga olinishi muhim. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy yondashuvlar nogironligi bo‘lgan bolalarning ehtiyojlariga har doim ham javob bera olmaydi. Shu sababli, zamonaviy pedagogikada inklyuziv ta’lim, emosional-sensitiv va ijtimoiy faol yondashuvlar tobora keng qo‘llanilmoqda.

Emosional-sensevoy yondashuv, ayniqsa autizm spektridagi bolalar bilan ishlashda samarali usul sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, bu usulda bolaning emotsional javoblari va individual qiziqishlari asosida ijtimoiylashtirish amalga oshiriladi. Ushbu metodologik yondashuv bola va kattalar o‘rtasida ishonchli muloqotni shakllantirishga, bolaning ichki motivatsiyasini uyg‘otishga hamda uni tengdoshlar muhitiga moslashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, nogironligi bo‘lgan bolalar uchun maxsus didaktik vositalar, sensorli muhitlar, o‘yin terapiyasi va art-terapiya kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilishi samaradorlikni yanada oshirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiya asosida mamlakatimizda ham inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish borasida qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nogironligi bo‘lgan bolalar bilan ishlovchi pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, ularga metodik yordam ko‘rsatish tizimi ham bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida nogironligi bo‘lgan bolalarni ijtimoiylashtirishning samarali usullari, ularni qo‘llashda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlariga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi — mavjud metodologiyalarni solishtirgan holda, ijtimoiylashtirish samaradorligini oshiruvchi ilg‘or amaliyotlarni aniqlash va tavsiya qilishdan iboratdir.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot maktabgacha ta’lim muassasalarida nogironligi bo‘lgan bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonida qo‘llanilayotgan samarali pedagogik yondashuvlarni o‘rganish, tahlil qilish va ularni baholashga qaratildi. Ilmiy ishda sifatli (kvalitativ) tadqiqot metodlariga asoslangan kompleks yondashuv tanlandi. Tadqiqotning metodologik asosini kuzatuv, suhbat, tajriba (eksperimental ish), shuningdek, amaliyotga oid hujjatlar va mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili tashkil etdi.

Birinchidan, **kuzatuv metodi** asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nogironligi bo‘lgan bolalar ishtirokida olib borilgan mashg‘ulotlar jarayoni bevosita o‘rganildi. Kuzatuvlar bolaning tengdoshlar bilan ijtimoiy muloqoti, mustaqil faoliyati, guruhli o‘yinlardagi ishtiroki va pedagoglar bilan bo‘lgan o‘zaro aloqalari asosida olib borildi. Bu jarayonda bolaning emotsional reaksiyalari, xatti-harakatlari va moslashuv darajasi qayd etildi.

Ikkinchidan, **yarimstrukturaviy suhbat usuli** orqali maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, defektologlar va logopedlar bilan intervyular o‘tkazildi. Suhbatlarda ularning ijtimoiylashtirishda qo‘llayotgan metodlari, duch kelayotgan muammolar, shuningdek, natijadorlikka oid subyektiv qarashlari o‘rganildi. Shuningdek, ota-onalarning fikrlari ham inobatga olinib,

bolaning ijtimoiy hayotga kirishishidagi muammolar va yutuqlar haqida ma’lumot olindi.

Uchinchidan, **eksperimental yondashuv** doirasida kichik miqyosli tajriba o‘tkazildi. Unda autizm spektridagi belgilar va boshqa rivojlanishdagi cheklovlarga ega bolalar bilan faoliyat olib borilib, ularga moslashtirilgan ijtimoiy o‘yinlar, emosional-sensevoy yondashuv, Floortime va DIR-modellari asosidagi mashg‘ulotlar tashkil etildi. Tajriba davomida bolalarning ijtimoiy faolligi, ko‘z bilan kontakt, hissiy reaksiyalar va tashabbuskorlik darajasidagi o‘zgarishlar qayd etildi.

Tadqiqot natijalarini aniqlashtirish va tahlil qilishda sifatli tahlil usullaridan foydalanildi. Bolalarning ijtimoiy holatidagi o‘zgarishlar matnli yozuvlar orqali kodlanib, mavzular asosida guruhlashtirildi va semantik tahlil asosida xulosa chiqarildi. Shu tarzda, ijtimoiylashtirishning samarali usullarini aniqlashga qaratilgan ilmiy yondashuv shakllantirildi.


Natijalar va Munozara

Tadqiqot davomida maktabgacha ta’lim muassasalarida nogironligi bo‘lgan bolalarni ijtimoiylashtirish bo‘yicha olib borilgan kuzatuvlar, suhbatlar va tajriba mashg‘ulotlari asosida bir nechta muhim natijalarga erishildi. Avvalo, tajribada ishtirok etgan bolalarning ijtimoiy faollik ko‘rsatkichlari, xatti-harakatdagi ishonch, emotsional javob berish va guruhli o‘yinlardagi ishtiroki sezilarli darajada oshganligi aniqlandi. Misol uchun, tajriba boshlanishidan oldin bolalarning 58% o‘z tengdoshlariga faol murojaat qilmagan bo‘lsa, tajriba yakunida bu ko‘rsatkich 79% gacha oshdi. Bu esa ijtimoiylashtirish usullarining samaradorligini ko‘rsatadi.

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiylashtirishga xizmat qiluvchi metodlar orasida **emosional-sensevoy yondashuv, mavzuli rolli o‘yinlar, musiqiy va badiiy faoliyat,** shuningdek, **sensorli muhitdan foydalanish** eng samarali deb topildi. Ayniqsa, Floortime metodikasi asosida olib borilgan muloqot mashg‘ulotlarida bolaning o‘z tashabbusi bilan muloqotga kirishish holatlari oshdi. Bu yondashuv bolaning emotsional ehtiyojlariga tayangan holda, u bilan chuqur individual munosabat o‘rnatish orqali ijtimoiy faolligini oshiradi.

O‘tkazilgan yarimstrukturaviy suhbatlar asosida aniqlanishicha, pedagoglarning katta qismi (81%) inklyuziv guruhlarda ijtimoiylashtirish jarayonida qo‘llayotgan metodlar bo‘yicha yetarli metodik tayyorgarlikka ega emas. Shu bilan birga, ular sensorli materiallar, individual ish rejalarining mavjud emasligi va oilaviy hamkorlikning sustligi ijtimoiylashtirishdagi asosiy to‘siqlar ekanini ta’kidlashdi. Biroq, faol va kreativ yondashuvga ega tarbiyachilar bu to‘siqlarni interaktiv usullar bilan yengib o‘tishga harakat qilganlari kuzatildi.

Jadval 1. Ijtimoiy faollik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi



Yuqoridagi diagramma tajriba davomida nogironligi bo‘lgan bolalarning ijtimoiy faollik ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishni aks ettiradi. Unga ko‘ra:

- **Faol murojaat qilish** 42% dan 79% gacha oshgan;
- **Guruhli o‘yinlarda ishtirok** 39% dan 72% gacha ko‘tarilgan;
- **O‘z tashabbusi bilan muloqot** 31% dan 66% gacha rivojlangan.

Tadqiqot davomida shuningdek shuni ko‘rish mumkinki, bolaning ijtimoiylashtirish jarayonidagi muvaffaqiyati faqatgina pedagogning yondashuviga emas, balki ota-onalarning ishtirokiga ham bevosita bog‘liq. Tajriba guruhidagi bolalarning ota-onalari bilan olib borilgan hamkorlik mashg‘ulotlari bola rivojlanishida ijobiy dinamika bergan. Bu holat ijtimoiylashtirishni oilaviy tizimga bog‘langan holda olib borish zaruratini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni isbotladiki, ijtimoiylashtirish bo‘yicha an’anaviy metodlardan farqli o‘laroq, **individual differensial yondashuv, ko‘pkanalli sezgi muhitlari**, va **emosional muloqotga asoslangan faoliyatlar** bolaning jamiyatga qo‘shilishida ko‘proq samara beradi. Bundan tashqari, nogironligi bo‘lgan bolalar bilan ishlashda faqat ko‘nikmalarni emas, balki *hayotiy mazmunli holatlar* orqali o‘rganishni tashkil etish muhimdir.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun esa quyidagi yo‘nalishlar tavsiya etiladi: har bir nogironlik turiga mos maxsus metodikalar ishlab chiqish, ota-onalar uchun trening dasturlarini keng joriy etish va pedagoglar uchun inklyuziv metodika bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan kurslarni kengaytirish.

Xulosa

Ushbu tadqiqot maktabgacha ta’lim muassasalarida nogironligi bo‘lgan bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonini chuqur tahlil qilishga qaratildi va o‘tkazilgan kuzatuv, suhbat hamda eksperimental faoliyatlar orqali bir qator muhim ilmiy-amaliy natijalarga erishildi. Avvalo, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiylashtirish jarayonida bolaning shaxsiy emotsional ehtiyojlarini hisobga olgan holda tuzilgan individual yondashuvlar an’anaviy metodlardan ko‘ra samaraliroqdir.

Tajriba asosida aniqlanishicha, bolaning ijtimoiy faollik darajasi, tashabbuskorligi va tengdoshlar bilan muloqotga kirishish ko‘nikmalari sezilarli

darajada oshgan. Ayniqsa, Floortime va DIR yondashuvlariga asoslangan emosional-sensevoy metodlar bolalarning o‘z fikrini ifoda etishi, tashqi dunyo bilan aloqada bo‘lishi hamda ijtimoiy muhitga moslashuvini rag‘batlantirgan. Bu holat, nogironligi bo‘lgan bolalarda ham to‘laqonli ijtimoiylashuvga erishish mumkinligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligi pedagogik jamoaning metodik savodxonligi, ota-onalarning ishtiroki va ta'lim muassasasida yaratilgan muhit sifatiga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ayni paytda ko‘plab maktabgacha ta'lim muassasalarida metodik yetishmovchiliklar, inklyuziv muhitning to‘liq shakllanmaganligi va resurs taqchilligi mavjud bo‘lib, bu borada tizimli yondashuvlar zarur.

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Ijtimoiylashtirishda emotsional-sensitiv yondashuv, rolli o‘yinlar va sensorli muhitlar yuqori samaradorlikka ega;
- Tarbiyachi va ota-ona hamkorligi bolaning ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biridir;
- Maxsus metodik tayyorgarlikka ega pedagoglar ishtirokidagi dasturlar ijtimoiylashtirish jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Shu bois, kelgusidagi izlanishlar nogironligi bo‘lgan bolalar uchun moslashtirilgan pedagogik dasturlarni ishlab chiqish, metodik qo‘llanmalar yaratish va ularni keng amaliyotga joriy etishga qaratilishi lozim. Shuningdek, pedagoglar va ota-onalar uchun doimiy trening va maslahat markazlari tashkil etilishi tavsiya etiladi. Ushbu yondashuvlar maktabgacha ta'limdagi inklyuziv jarayonlarni chuqurlashtirish va nogironligi bo‘lgan bolalarning to‘laqonli jamiyat a'zosi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N. V. Mandel, “Preimushchestva emosional’no-smyslovogo podkhoda v sotsializatsii detey s autizmom,” *Razvitie territoriy*, no. 2(8), pp. 28–31, 2017.
2. E. I. Alyoshina, “Osobennosti metodiki zanyatiy fizicheskimi uprazhneniyami korrektsionnoy napravlennosti so studentami s narusheniyami zreniya,” in *Cherepovetskie nauchnye chteniya–2014*, Cherepovets State University, 2015, pp.3–5.
3. S. Greenspan and S. Wieder, *Engaging Autism: Using the Floortime Approach to Help Children Relate, Communicate, and Think*. Da Capo Lifelong Books, 2006.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-dekabrdagi 833-son qarori “Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy etish to‘g‘risida.”
5. M. M. Nikolskaia, E. R. Bayenskaya, and M. M. Libling, *Autichnyy rebenok: puti pomoshchi*. 6-e izdanie. Moscow: Terevinf, 2015.
6. S. L. Shishova, “Inklusivnoye obrazovaniye: opyt i problemy v doshkol’nykh uchrezhdeniyakh,” *Obrazovaniye i nauka*, vol. 23, no. 5, pp. 17–24, 2021.
7. V. V. Rubtsov, “Psikhologo-pedagogicheskaya podderzhka detey s OOVZ v inklyuzivnoy srede,” *Psikhologicheskaya nauka i obrazovaniye*, vol. 22, no. 2, pp. 5–14, 2020.
8. T. V. Sinyel’nikova, M. Sosnovskiy, and N. S. Niyasova, “Vozmozhnosti fizicheskoy kultury dlya korrektsii razvitiya detey s narusheniyami,” *ChNU*, vol. 2, pp. 10–15, 2014.
9. L. S. Vygotsky, *Problemy obshchey psikhologii*. Moscow: Pedagogika, 1983.

KIMYO DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASINING SAMR MODELI

Merzayeva Xamida Juraqulovna,
Navoiy viloyati PMM metodisti

Annotatsiya. *Zamonaviy axborot texnologiyalari bizning ta'lim berish va ta'lim olish usullarimizga shu qadar kuchli ta'sir ko'rsatdiki, biz ta'limning yangi davriga kirib bormoqdamiz.Ta'lim va axborot texnologiyalari integratsiyasini SAMR nomli model bilan izohladi.Endilikda axborot texnologiyalari ta'lim olish tajribasini oshirishdan ta'lim olish imkoniyatlarini haddan tashqari kengaytirish yo'liga o'tmoqda.Bunda geografik va til chegaralari yo'qoladi, ma'lumotlar zudlik bilan tarqaladi, butun olam bitta sinf xonaga aylanadi.*

Аннотация. *Современные информационные технологии оказали настолько сильное влияние на наши методы преподавания и обучения, что мы вступаем в новую эру образования.Интеграция образования и информационных технологий объясняется моделью, называемой SAMR. Сегодня информационные технологии переходят от улучшения процесса обучения к расширению образовательных возможностей до предела. В этом случае географические и языковые границы стираются, информация мгновенно распространяется, и весь мир становится единым классом.*

Abstract. *Modern information technologies have had such a strong impact on our teaching and learning methods that we are entering a new era of education.The integration of education and information technologies is explained by a model called SAMR. Now information technologies are moving from enhancing the learning experience to expanding educational opportunities to the extreme. In this, geographical and language boundaries disappear, information is instantly distributed, and the whole world becomes one classroom.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim jarayoni, dars, topshiriq, zamonaviy axborot texnologiyalari, SAMR modeli*

Keywords: *Educational process, lesson, assignment, modern information technologies, SAMR model*

Hozirgi davrda ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Kimyo fanini o'qitishda raqamli vositalar dars samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi va bilimlarni amaliy qo'llash imkonini yaratadi. Axborot texnologiyalarini darsga integratsiya qilishda SAMR modeli metodik yondashuvi o'qituvchiga texnologiyani oddiy qo'shimcha vosita sifatida emas, balki yangi ta'limiy imkoniyatlarni ochuvchi tizim sifatida qo'llashni ta'minlaydi. Ushbu maqolada kimyo darslarida SAMR modelining bosqichlari va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni darslarga integratsiya qilish o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Kimyo fani tabiatan murakkab tushunchalar, abstrakt jarayonlar va molekulyar tuzilmalarni o'z ichiga olgani bois, ularni o'quvchilarga sodda va tushunarli qilib yetkazishda innovatsion metodlardan foydalanish zarur. Shu nuqtai nazardan, SAMR modeli darslarda axborot texnologiyalarini bosqichma-bosqich integratsiya qilish imkonini beradi. Ta'lim tadqiqotchisi doktor Ruben Puentedura ta'lim axborot texnologiyalari integratsiyasini SAMR (Puentadura, 2014) nomli model bilan izohladi,

o‘qituvchilarni texnologiyalarni qo‘llash samaradorligini tizimli ravishda oshirishga yo‘naltiradi.

SAMR modelining nazariy asoslari hamda kimyo ta’limida AKT qo‘llanilishi, kimyo darslarida elektron resurslar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiya dasturlari va interaktiv platformalardan foydalanish afzalliklari, imkoniyatlari yoritib berildi.

SAMR modelining kimyo ta’limidagi amaliy qo‘llanishi quyidagi natijalarni beradi:

Substitutsiya (o‘rin almashish): funksional o‘zgarishlar yuz bermagan holda, oddiy o‘quv qurollari o‘rnini texnika egallashi. An’anaviy doska va daftar o‘rniga PowerPoint taqdimotlari va elektron kitoblar qo‘llanilganda, o‘quvchilar mavzuni tushunishda qulaylik his qiladilar, ammo darsning mazmuniy samaradorligida sezilarli o‘zgarish kuzatilmaydi.

Augmentatsiya (kengaytirish): funksional o‘zgarishlar yuz bergan holda, oddiy o‘quv qurollari o‘rnini texnika egallashi. Kimyoviy jarayonlarning animatsiyalari va onlayn testlardan foydalanish darsning interaktivligini oshiradi, o‘quvchilar o‘z bilimlarini tezkor baholash imkoniga ega bo‘ladilar.

Modifikatsiya (o‘zgartirish):Axborot texnologiyalari topshiriqlarni qayta ishlashga katta imkon yaratishi. Virtual laboratoriyalar yordamida murakkab kimyoviy reaksiyalarni xavfsiz muhitda sinab ko‘rish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Redefinitsiya (qayta izohlash): Axborot texnologiyalari misli ko‘rilmagan darajada yangi topshiriqlarni yaratishga imkon beradi. Onlayn kollaborativ platformalarda o‘quvchilarning guruhlarda ilmiy loyiha tayyorlashlari ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qiladi hamda kreativ yondashuvlarini kuchaytiradi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, kimyo darslarida axborot texnologiyalarini faqat Substitution bosqichida qo‘llash o‘qituvchiga darsni qulay tashkil etishda yordam beradi, ammo o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirmaydi. Augmentation va Modification bosqichlarida esa dars jarayoni yanada samarali va interaktiv tus oladi. Eng yuqori natijalar esa Redefinition bosqichida kuzatiladi, chunki bunda o‘quvchilar kimyo fanini chuqur o‘rganib, ijodiy faoliyatga jalb qilinadi.

Kimyo darslarida SAMR modelidan to‘liq foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ilmiy izlanishlari va zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Kimyo ta’limida SAMR modeli axborot texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali dars jarayonini zamonaviylashtirishning samarali vositasi hisoblanadi. SAMR modeli o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshiradi, kimyoviy jarayonlarni amaliy tajribasiz ham anglash imkonini beradi hamda ta’lim jarayonini interaktiv va innovatsion yo‘nalishga olib chiqadi.

Samolyotda uchayotgan yo‘lovchi geografik chegaralar inson tomonidan sun’iy tarzda o‘rnatilganini anglaydi.Real hayotda dunyodagi barcha narsalar o‘zaro chambarchas bog‘liq va o‘zgaruvchandir.Internetning imkoniyatlari sababli ushbu g‘oyani sinfxonaga nisbatan tadbiq etish mumkin. Endilikda biz bilgan an’anaviy ta’lim daqiqalar , tanaffuslar va hafta kunlari bilan chegaralanib qolmasdan, ta’lim olishni har qanday joyda, har qanday vaqtda amalga oshirish mumkin. Bu an’anaviy o‘qitish usulidan uzoqlashish yo‘lidagi navbatdagi qadamdir. Auditoriyadagilar uchun umumiy bo‘lgan vazifalar kompyuter yoki mobil qurilmalar yordamida amalga oshiriladi. O‘qituvchi va o‘quvchi rollari o‘zgargan sinfxonada o‘quvchilar darsga

kelishdan oldin mavzuni mustaqil o‘rganadilar, bu ularga darhol faol muhokamaga kirishish va yangi narsalarni o‘rganishga imkon beradi.Shunda darsga ajratilgan vaqt ta’limga sarflangan sermahsul vaqtga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X. To‘xtayeva, M. O‘rinboyeva (2020). *Kimyo o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi*. Toshkent.
2. A. Abduqodirov, S. Azizxo‘jayev (2018). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Toshkent.
3. Ю. Б. Зеер, Э. Ф. Зеер (2017). *Информационно-коммуникационные технологии в образовании*. Москва.
4. M.M.Nafasov. The effectiveness of the use of mobile technologies in the educational process //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – 2020. – C. 142-166.
5. F.M.Zakirova, M.M.Nafasov. Ta’lim jarayonida mobil ilovalardan foydalanishning pedagogik asoslari // Academic research in educational sciences. 2022. №4. –C. 917-925.
6. Özmen, H. (2008). *The influence of computer-assisted instruction on students’ conceptual understanding of chemical bonding and attitude toward chemistry: A case for Turkey*. Computers & Education.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KASBLAR HAQIDA DASTLABKI TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Adizova Nilufar Quvondiq qizi,
Navoiy viloyati PMM metodisti

Annotatsiya. *Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish muhim psixologik-pedagogik vazifalardan biridir. Ushbu maqolada bolalarning kasblar haqidagi tushunchalarini shakllantirish jarayoni, uning psixologik va pedagogik asoslari, shuningdek, ushbu jarayonni samarali amalga oshirishning metodik usullari tahlil qilingan. Bolalar o‘rganayotgan kasblar, ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga, dunyoqarashining shakllanishiga ta’sir qiladi. Maqolada kasb tanlashning yoshga mos tavsiyalari, pedagoglar va ota-onalarning roli, shuningdek, amaliy tavsiyalar ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar*: Maktabgacha yosh, kasblar, bolalar tasavvuri, psixologik rivojlanish, pedagogik asoslar, kasbga tayyorlash.*

Abstract. *The formation of initial concepts about professions in preschool children is one of the important psychological and pedagogical tasks. This article analyzes the process of shaping children's ideas about professions, its psychological and pedagogical foundations, as well as methodological approaches for effectively implementing this process. The professions children learn about influence their social and personal development and the formation of their worldview. The article discusses age-appropriate recommendations for career choice, the role of educators and parents, and provides practical suggestions for the effective development of professional concepts in early childhood.*

Keywords*: Preschool age, professions, children's concepts, psychological development, pedagogical foundations, career guidance.*

Kasb tanlash oddiygina ishdek tuyulsa-da, uning keyinchalik inson taqdiriga ta'siri haqida nuqtai-nazardan yondashsak, bu har bir insonning hayot debochasi yoki umri mazmunini tashkil etuvchi omil ekanligini tushunib yetamiz.Kasb-hunarga yo'naltirish ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uyg'un tarzda olib borilishi buni bolalar bilan maktabgacha ta'lim yoshidan boshlash maqsadga muvofiq.Yurtimizda maktabgacha yoshdagi bolalarning bilimli,intellektual, axloqiy, estetik, qobiliyatli va jismoniy rivojlanishi uchun barcha yetarli shart-sharoitlarni yaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, faol pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni tadbiq etish, bu O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PQ-4312da belgilab berilgan.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni shakllantirishda tarbiyachi har bir bolaning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ularni shu kasbga yo'naltirishlari lozim. Tarbiyachi har bir kasbning ahamiyatini bolaga uning yoshiga mos tarzda tushuntirishi, davlatimiz tomonidan har bir kasb egalariga berilayotgan e'tibor, ular uchun yaratilgan imtiyoz va shartsharoitlar haqida ham esda qolarli qilib so'zlab berishi zarur. Ana shunda, aytish mumkinki,

-bolalarda kasb-xunarga xayrixohlik, qiziqishni uyg'otish;

-kasb-xunarning amaliy ahamiyatini bolaning ehtiyojiga bog'lab tushuntirish;

-kasb-xunarlar bilan tanishtirishda dastlab bolalar e'tiborini mehnat natijasi, mahsuliga, so'ngra esa mehnat jarayoni va unda qo'llaniladigan vositalarga qaratish imkoni hosil bo'ladi. Bolalarning kelajakda qanday inson bo'lishlari va qaysi kasbni egallashlari aynan maktabgacha yosh davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Bizning maqsadimiz ham yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shadigan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Shu sababdan, maktabgacha yosh davridan bolalarni kasb tanlashga qiziqishni shakllantirish muhim hisoblanadi.Maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashlari va tushunchalari hali shakllanib bo'lmagan bo'lsa-da, ular atrof-muhitdan o'ziga xos tasavvurlarni qabul qilishadi. Bu davrda bolalar o'zlarining ijtimoiy rolini anglashga boshlaydilar. Psixologik nuqtai nazardan, bolalar orasida kasblarga bo'lgan qiziqishlarning shakllanishi ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyat bilan o'zaro aloqalar orqali amalga oshadi. Lev Vygotskiy (Vgotskiy) asosan bolalar rivojlanishi, til, muloqot va ijtimoiy-o'quv jarayoni haqida nazariyalar yaratgan mashhur psixologdir.Uning ijtimoiy rivojlanish va o'rganish nazariyalari maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblarga qiziqishni shakllantirishga ham taalluqli.Vygotskiyning asosiy qarashlari va kasblarga qiziqish bilan bog'liq jihatlar:

Ijtimoiy muloqot va o'rganishning roli

Vygotskiy ta'kidlaganidek, bolaning rivojlanishi asosan ijtimoiy muhit va o'zaro aloqalar orqali amalga oshadi. Kasblar haqida qiziqish ham ijtimoiy muhitda – ota-ona, pedagoglar, tengdoshlar bilan muloqot orqali shakllanadi.

Zonaviy rivojlanish – ya'ni yaqin rivojlanish zonasining ahamiyati

Bola hozirda mustaqil bajara olmaydigan, ammo yordam bilan amalga oshira oladigan vazifalarni bajarishda rivojlanadi. Kasblarga qiziqishni uyg'otishda pedagoglar va ota-onalar bola qobiliyatlari va qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirib, bu "yaqin rivojlanish zonasida" qo'llab-quvvatlash kerak.

Rollar orqali o'rganish

Vygotskiy nazariyasida bolalar ijtimoiy rollarni o'rganadi va taqlid qiladi. Kasblarga qiziqish ham aynan shu jarayonda, ya'ni rol o'yinlari, modellashtirish orqali paydo bo'ladi.Leontyevning so'zlariga ko'ra, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda boshqa odamning faoliyatini baholash, o'zini boshqa insonlarning hayot faoliyati bilan

solishtirish qobiliyati paydo bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalarda kattalar dunyosiga va ularning turli-tuman faoliyatiga bevosita qiziqish mavjud.T.A.Markova va V.G.Nechayevalar ekskursiyaga kata ahamiyat berganlar. Ular ekskursiyani maktabgacha yoshdagi bolalarning kasblar haqidagi g‘oyalarini shakllantirishning eng samarali usuli deb hisoblashgan.

Pedagogik nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda tarbiyachilarning rolini e’tiborga olish zarur. Mashg‘ulotlar va o‘yinlar orqali bolalarga kasblarning xilma-xilligi va har bir kasbning o‘ziga xos ahamiyati tushuntirilishi kerak. Bu jarayonning muvaffaqiyati tarbiyachining metodik yondashuvi, materiallarning mazmuni va bolalarning yoshiga moslashtirilganligini talab qiladi. Ota-onalar bolalariga kasblar haqida ma’lumot berishda asosiy qo‘llab-quvvatlovchilar hisoblanadi. Uyda tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan turli kasblarga oid suhbatlar, bolalar uchun o‘yinlar va real hayotdan misollar yordamida kasblar haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash mumkin.Har bir yosh davri bolalarda kasblar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblarga qiziqishning shakllanishi va rivojlanishida kichik o‘ylar va amaliy mashg‘ulotlar yordam beradi. Bu yoshdagi bolalar uchun eng samarali metod o‘yin orqali ta'limdir.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish, nafaqat kasb tanlash jarayonini osonlashtiradi, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Kasb haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda psixologik-pedagogik asoslar va metodik yondashuvlarning ahamiyati juda katta. Ota-onalar va tarbiyachilar bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi, shuning uchun ularning kasblar haqidagi ma'lumot va tushunchalari bolalar uchun to‘g‘ri yo‘l-yo‘riqni taqdim etishi kerak. Shu bois, bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun tarbiyachilarning va ota-onalarning bilimi va metodik yondashuvlari doimiy ravishda takomillashtirilishi zarur.

Takliflar:

1. Maktabgacha ta’lim muassasalarida kasblar haqidagi tushunchalarni yanada kengaytirish uchun maxsus o‘yinlar va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etilishi zarur.
2. Pedagoglarga kasblar haqidagi tushunchalarni bolalarga samarali yetkazish uchun yangi metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi lozim.
3. Ota-onalar uchun kasb tanlash va rivojlantirish bo‘yicha maxsus treninglar va seminarlar tashkil etilishi foydali bo‘ladi.
4. Bolalarga kasblar haqida o‘rganish imkoniyatlarini yaratish uchun real hayotdan misollar va tajribalar orqali ta'lim berish muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi
2. Takomillashtirilgan ilk qadam o‘quv dasturi 2022
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Harvard University Press.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarga interfaol metodlarni qo‘llash usuli. Turdiyeva Izzatoy Sadikovna
5. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirishning dasturiy ta’minotini maktabgacha ta’lim tashkilotlariga joriy etish mexanizmlar N.N.Djamilova

BOLALARDA DO‘STLIK, HAMKORLIK VA MEHR TUYG‘USINI RIVOJLANTIRISH

Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi,
Navoiy viloyati PMM o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maktabgacha ta'lim davri bolalar uchun eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biridir, chunki aynan shu davrda ularning ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalari shakllanadi. Bolalar o‘z atrofidagi insonlar bilan muloqot qilishni, o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashni va boshqalarni tushunishni o‘rganadilar. Bu jarayonda do‘stlik, hamkorlik va mehr tuyg‘ularini rivojlantirishning o‘rni beqiyosdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga nafaqat bilimlar, balki ijtimoiy ko‘nikmalar ham berilishi lozim. Do‘stlik, hamkorlik va mehrni shakllantirish esa, bolalarning to‘g‘ri ijtimoiylashuviga, o‘zaro hurmatga, bir-birini qo‘llab-quvvatlashga va kelajakda muvaffaqiyatli ijtimoiy hayot kechirishlariga zamin yaratadi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, hamkorlik, jamoada ishlash, markazalardagi faoliyat, ijtimoiylashuv,tarbiyachi, bola, mashg‘ulot.*

Аннотация: *Дошкольный период – один из важнейших этапов развития детей, поскольку именно в этот период формируются их социальные и эмоциональные навыки. Дети учатся общаться с окружающими людьми, выражать свои чувства и понимать других. Роль развития чувств дружбы, сотрудничества и привязанности в этом процессе неоценима. В дошкольных образовательных организациях детям необходимо давать не только знания, но и социальные навыки. Формирование дружбы, сотрудничества и привязанности создаёт основу для правильной социализации детей, взаимного уважения, поддержки друг друга и успешной социальной жизни в будущем.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, сотрудничество, командная работа, деятельность в центрах, социализация, воспитатель, ребенок, обучение.*

Abstract: *The preschool period is one of the most important stages of development for children, since it is during this period that their social and emotional skills are formed. Children learn to communicate with the people around them, express their feelings and understand others. The role of developing feelings of Friendship, Cooperation and affection in this process is incomparable. In preschool educational organizations, children should be given not only knowledge, but also social skills. The formation of Friendship, Cooperation, and affection sets the stage for proper child socialization, mutual respect, mutual support, and a successful social life in the future.*

Keywords: *preschool education, cooperation, teamwork, activities in centers, socialization, educator, child, training.*

Kirish. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun do‘stlik, hamkorlik va mehr tuyg‘ularini rivojlantirish bugungi kunda ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bolalar jismonan rivojlanish bilan birga, ularning ijtimoiy, hissiy va axloqiy jihatlari ham shakllanib boradi. Shuningdek, bolalar o‘zaro muloqot qilishni, jamoaviy ishlarni bajarishni va boshqalar bilan birgalikda harakat qilishni o‘rganishlari kerak. Bularning barchasi do‘stlik va hamkorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Bunday ko‘nikmalar nafaqat bolalar o‘rtasidagi aloqalarni yaxshilash, balki

ularning kelajakda muvaffaqiyatli ijtimoiy va professional faoliyat yuritishlariga ham asos bo‘ladi.

Tarbiyachilar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagogikasi do‘stlik va hamkorlik kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratishi kerak. Bolalar o‘zlarining hissiyotlari, fikrlari va xatti-harakatlarini boshqarishni o‘rganishlari, shu bilan birga, boshqa bolalar bilan o‘zaro ijtimoiy aloqalarni o‘rnatishlari zarur. Ushbu jarayonda tarbiyachilar o‘zaro mehr-muhabbat va hamkorlikka asoslangan ta'lim metodlari orqali bolalar o‘rtasida ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishlari mumkin.

Mazkur maqolada bolalarda do‘stlik, hamkorlik va mehr tuyg‘ularini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Loyihada, bolalar o‘rtasida mustahkam ijtimoiy aloqalarni shakllantirish, jamoaviy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlashni o‘rgatishga qaratilgan tavsiyalar beriladi. Shuningdek, do‘stlik va hamkorlikni rivojlantirishdagi asosiy muammolar va ularni yechish yo‘llari tahlil qilinadi. Loyihaning maqsadi bolalarda ijtimoiy-hissiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash va ularning o‘zaro aloqalarini yaxshilashga yordam berishdir.

Maqolada da keltirilgan nazariy asoslar va amaliy tavsiyalar pedagogik faoliyatda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan usullarni o‘z ichiga oladi. Shu orqali tarbiyachilar va boshqa pedagoglar bolalarga o‘zaro do‘stlik, hamkorlik va mehrni shakllantirishda samarali yondashuvlarni tatbiq etishlari mumkin.

Adabiyotlarni tahlili va usullari: Do‘stlik, hamkorlik va mehr tuyg‘ulari bolalar o‘rtasida mustahkam ijtimoiy aloqalarni shakllantiruvchi asosiy omillardir. Psixologik jihatdan, do‘stlik – bu bolalar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va samimiy munosabatlar bo‘lib, ular bir-biriga yordam berish, hissiy qo‘llab-quvvatlash va o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatini beradi. Hamkorlik esa, birgalikda ishlash va o‘zaro yordam ko‘rsatish orqali bolalar ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. Mehr tuyg‘usi esa, bolalarning bir-biriga nisbatan iliqlik, yordam ko‘rsatish va o‘zaro jismoniy yaqinlikni his qilishlarini anglatadi. Psixologik nuqtai nazardan, bu tuyg‘ular bolalarda empatiya, o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘yish va ijtimoiy o‘zgaruvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik nuqtai nazardan, bu tuyg‘ularni rivojlantirish uchun pedagoglar bolalarga o‘yinlar, rolli faoliyatlar, guruhli ishlar orqali ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantiradilar. Pedagogik asosda, do‘stlik va hamkorlik bolalar uchun muhim tarbiyaviy qadriyat sifatida shakllantiriladi, bu esa ularning shaxsiy rivojlanishiga va ijtimoiy aloqalarining mustahkamlashiga xizmat qiladi.

Natijalar: Tarbiyachilar bolalarga boshqalar his-tuyg‘ularini anglashni o‘rgatishlari va ularni o‘zaro muloqotda hurmat bilan muomala qilishga yo‘naltirishlari lozim. Shu maqsadda, turli mavzularda rasmli hikoyalar o‘qish, bolalarga his-tuyg‘ularni anglash uchun mashqlar o‘tkazish mumkin.

Mashg‘ulot ishlanma: "Men va mening do‘stim"

Maqsad: Bolalarda do‘stlik, hamkorlik va mehr tuyg‘ularini rivojlantirish, o‘zaro hurmat va yordamni o‘rgatish.

Vazifa:

Bolalar o‘rtasida do‘stlik va hamkorlikni shakllantirish.

Ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Bolalar o‘rtasidagi muloqotni yaxshilash.

O‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlashni o‘rgatish.

Yosh guruhi:5-6 yosh

Muddat:30-40 daqiqa

Metodlar: Interaktiv metodlar, O‘yin usullari, Rolli o‘yinlar, Kreativ faoliyat (rassomlik, qo‘l mehnati)

Materiallar: Rasmli kartochkalar (do‘stlikni ifodalovchi tasvirlar), Rangli qog‘ozlar, Qalamlar, bo‘yoqlar, O‘yinchoqlar, Yuzni ifodalovchi kartochkalar (baxtli, g‘amgin, xursand), Yumshoq to‘p (bolalar bir-biriga uzatadi)

Mashg‘ulotning borishi:

1. Kirish (5 daqiqa)

Tarbiyachi bolalarni salomlashadi va do‘stlik va hamkorlikning ahamiyati haqida qisqacha gapiradi.

Tarbiyachi bolalarga do‘stlik va hamkorlikning nima ekanligini tushuntiradi: “Do‘stlik - bu bir-birimizni qo‘llab-quvvatlash, yordam berish, birga o‘ynash, bir-birimizni sevish va hurmat qilishdir”.

Bolalar bilan muloqot qilib, “Sizningcha, do‘st bo‘lishning qanday afzalliklari bor?” degan savol bilan boshlanadi.

2. Asosiy qism (20 daqiqa)

“Do‘stlik rasmlari” (10 daqiqa)

Tarbiyachi bolalarga do‘stlik va hamkorlikni ifodalovchi rasmlar taqdim etadi.

Har bir bola o‘z rasmida qanday do‘stlikni tasvirlashi kerakligini tushuntiradi. Bolalar rangli qog‘ozlar va bo‘yoqlar yordamida bir-biriga yordam beradigan yoki birga o‘ynayotgan bolalarning tasvirlarini chizadilar.

Tasvirlar yakunlangach, bolalar o‘z rasmlarini bir-birlariga ko‘rsatib, nima tasvirlanganini tushuntiradilar. Tarbiyachi bolalarga "Do‘stlar bir-biriga qanday yordam beradi?" deb savollar beradi.

“Do‘stlar o‘ynayapti” (10 daqiqa)

Bolalar o‘rtasida rolli o‘yinlar tashkil qilinadi.

Bolalarga bir necha o‘yinchoqlar taqdim etiladi va ular bir-biriga yordam berib, o‘ynashadi. Masalan, bir bola o‘yinchoqni boshqa bolaga berib, “Bu sening o‘yining, endi sen o‘ynashni boshlaysan”, deydi.

Tarbiyachi har bir bola o‘z o‘yinida do‘stlik va hamkorlikni qanday ko‘rsatganini ta'kidlaydi.

“To‘pni o‘tkazish” (10 daqiqa)

Bolalar yumshoq to‘pni bir-biriga uzatadilar, lekin har bir bola to‘pni uzatishdan oldin "Do‘st bo‘lish" yoki "Hamkorlik qilish" haqida bir gap aytishi kerak. Masalan: "Men seni sevaman!", "Keling birgalikda o‘ynaylik!"

Tarbiyachi bolalarga "Sizningcha, do‘stlikda eng muhim narsa nima?" deb so‘raydi va bolalar o‘z fikrlarini aytadilar.

3. Xulosa (5 daqiqa)

Tarbiyachi mashg‘ulot yakunida bolalar bilan qisqacha suhbat o‘tkazadi. "Bugun nima o‘rgandik? Do‘stlik va hamkorlik nima?" deb savol beradi.

Har bir bola o‘z fikrini aytib, mashg‘ulotda o‘rganilgan narsalar haqida qisqacha mulohaza qiladi.

Tarbiyachi bolalarga do‘stlik va hamkorlikning hayotda qanday ahamiyatga ega ekanligini tushuntiradi va bolalarni bir-birini qo‘llab-quvvatlashga, do‘st bo‘lishga undaydi.

Mashg‘ulotning yakunlari:

Bolalar do‘stlik va hamkorlik haqida ko‘proq bilib oldilar.

Ular bir-biriga yordam berishni, o‘zaro muloqot qilishni va qo‘llab-quvvatlashni o‘rgandilar.

Mashg‘ulot orqali bolalarda o‘zaro hurmat, sevgi va mehr tuyg‘ulari mustahkamlandi.

Muhokama: Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, jamoani shakllantirishning o‘ziga xos uslubiy asoslari yo‘q. Bu ishtirokchilarni birlashtirishi va hissiy qulaylik muhitini yaratishi lozim bo‘lgan maxsus tanlangan vazifalar, mashqlar, o‘yinlar to‘plamidir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarida jamoaviy munosabatlarni tashkil etishga doir ilmiy-amaliy tajribalarni o‘rganish tarbiyalanuvchilarda jamoaviy ko‘nikmalarni tarkib toptirishda quyidagi jihatlarni hisobga olish lozimligini ko‘rsatdi:

- jamoaviy mashg‘ulotlarda bolalarning yoshga xos xususiyatlarini inobatga olish lozim;
- jamoaviy munosabatlarni tashkil etishda tarbiyalanuvchilar o‘rtasida do‘stlik, bir-biriga yordam berish, hamkorlik sifatlarini shakllantirishga e’tibor qaratish;
- bolalar bilan ochiq chexra va muloyimlik bilan suhbatlashish;
- kattalar (tarbiyachilar, ota-onalar) va bolalarni do‘stona hamkorligini ta’minlash;
- jamoaviy munosabatlarda raqobatlashishga doir mashg‘ulotlarni kamroq o‘tkazish;
- diqqatini jalb qilishga qiynaladigan, tez-tez chalg‘ib qoluvchi bolalar bilan xushmuomala bo‘lish;
- mashg‘ulotlarni tashkil etishda yetarlicha metodik va didaktik ta’minotini ta’minlash;
- o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘tkazishda xavfsizlik qoidalariga amal qilish;
- jamoaviy mashg‘ulotlardan o‘zini chetga olib qochuvchi bolalar bilan alohida shug‘ullanish, ularni o‘zini erkin his etishi uchun yaqin insonlarini mashg‘ulotlarda birga ishtirok etishini ta’minlash;
- tarbiyalanuvchilarning xatti-harakatini baholamaslik;
- jamoaviy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda oila a’zolarining yordamiga suyanish;
- jamoaviy mashg‘ulotlar, ularning mazmuni, turlari, o‘tkazish bosqichlari, jamoaviy munosabatlarni tashkil etishning tashkiliy, didaktik, metodik va pedagogik-psixologik shart-sharoitlari haqida tarbiyachilarga muntazam bilim berish, metodik yordam ko‘rsatish.

Yuqorida bayon etilgan jihatlarni hisobga olish nafaqat jamoaviy mashg‘ulotlarning sifati, samaradorligi, turli-tumanligini ta’minlaydi, balki bolalarda jamoaviy ko‘nikmalar va ijtimoiy fazilatlarni tarkib toptirishga ham ijobiy ta’sir etadi. Syujetli-rolli rivojlanish markazida bolalar faoliyati orqali bolalarda ijtimoiy muhitga moslashuvchanlik ko‘nikmasi rivojlanadi. Shu bilan birgalikda bu markazning jihozlanishi va u yerdagi atributlar bolaning bilish jarayoning rivojlanishiga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning olgan bilim ko‘nikma va malakalarining hayotga tadbiq etishning ilk boshqichlaridan biri bu markaz deyishimiz mumkin.

Maktabgacha ta’limning Davlat standartining tarkibiy qismlari ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari; maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi; maktabgacha ta’lim tashkilotlarini o‘yinlar to‘plami, o‘yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik,

reabilitatsiya vositalari bilan jihozlash me’yorlaridan[1] iborat bo‘lib mazkur talablar maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini belgilab beradi.

Xulosalar: Maktabgacha ta’lim muhitida do‘stlik, hamkorlik va mehr tuyg‘ularini rivojlantirish bolalar o‘rtasida ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bolalar o‘zaro do‘stlikni, hamkorlikni va mehrni o‘rganish orqali bir-birlariga nisbatan g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, birgalikda ishlash va o‘z hissiyotlarini boshqalarga ifodalashni o‘rganadilar. Bu jarayonlar bolalar o‘rtasida ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va ijtimoiy-hissiy rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Pedagoglar, tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasidagi samarali hamkorlik, bolalarga do‘stlik, hamkorlik va mehrni rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi. O‘yinlar, amaliy faoliyatlar va suhbatlar bolalar o‘rtasida ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun samarali pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Do‘stlik va hamkorlikni rivojlantirish bolalarda o‘zaro hurmat va empatiya tuyg‘ularini uyg‘otadi, bu esa ular uchun ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi.

Bolalar o‘rtasida bu tuyg‘ularni rivojlantirish nafaqat maktabgacha ta’limning asosiy maqsadlaridan biri, balki ularning kelajakdagi ijtimoiy hayoti va shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N. T. Saidaxmedov – Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006.
2. X. Yo‘ldoshev – Ilk yoshdagi bolalar psixologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 2002.
3. S. S. Usmonov – Maktabgacha ta’lim psixologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2015.
4. Sh. A. Xolmatov – Axloqiy tarbiya asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2014.
5. M. X. Turaev – Maktabgacha tarbiya nazariyasi va metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2009.
6. Q. M. To‘xtaxodjayev – Pedagogik mahorat. – T.: Iqtisod-moliya, 2018.
7. M. Jo‘raev – Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini shakllantirish. – T.: Fan, 2020.
8. “Maktabgacha ta’lim” jurnalining maxsus sonlari (2019–2024 yillar)

ONA TILI DARSLARIDA MODELLASHTIRISH METODI

Xakimova Dilorom Ikromovna,
Navoiy viloyati PMM metodisti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim va tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning afzalliklari, modellashtirish metodidan foydalanish, axborot uzatuvchi modellarning shakllari, ona tili darslarida modellashtirish metodidan fanlararo integratsiyada foydalanish masalalari o‘z aksini topgan.*

Аннотация. *В данной статье отражены преимущества использования педагогических технологий в процессе обучения и воспитания. Рассматриваются применение метода моделирования, формы моделей передачи информации, а также вопросы использования метода моделирования на уроках родного языка в контексте межпредметной интеграции.*

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son Qarori.

Annotation. *This article highlights the advantages of using pedagogical technologies in the process of education and upbringing. It discusses the application of the modeling method, the forms of information-transmitting models, and the use of the modeling method in mother tongue lessons within the context of interdisciplinary integration.*

Kalit so‘zlar: *Modellashtirish, model, grafik va belgili modellar, integratsiya, diagrammalar, jadvallar, xaritalar.*

Ключевые слова: *Моделирование, модель, графические и символьные модели, интеграция, диаграммы, таблицы, карты.*

Keywords: *Modeling, model, graphical and symbolic models, integration, diagrams, tables, maps.*

So‘nggi yillarda mamlakatimizda boshqa sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim sohasida ham yangi islohotlar joriy etilmoqda. Islohotlardan ko‘zlangan maqsad shuki, ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishdir. Qaysi sohada bo‘lmasin, inson egallangan bilimlarini, nazariy ilmini o‘z hayotida amaliy maqsadda texnologiyalardan foydalanib tadbiq etadi.

Texnologiya (yunoncha techne – san’at, mohirlik, uquv) har bir sohada bo‘ladi, shu jumladan, ta’lim sohasida ham. Ta’lim va tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi uchun o‘ziga xos afzalliklari bor. Pedagogik texnologiyalar – pedagogik jarayonni yangicha boshqarish va tashkil etish mexanizmidir.

Biz bilamizki, PISA xalqaro tadqiqoti o‘qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Shini ta’kidlagan holda shuni aytish kerakki, har bir yo‘nalishda axborotli ma’lumotlarning matn shaklidagi ko‘rinishlari mavjud. O‘qish savodxonligi juda muhim jarayon bo‘lib, u matn shaklida berilgan ma’lumotlarni tushuna olishi va ularga reaksiya bera olish ko‘nikmasini, o‘qigan ma'lumotlaridan hayotiy vaziyatlarda foydalana olish, bilim va imkoniyatlarini oshira olish ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim omili ekanligini anglash mumkin. Modelli matnlar bilan ishlash shaxsning turli hayotiy vaziyatlar va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo‘llay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, matnlardagi modellar hayotning turli sohalarida duch kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni matematik savodxonlikka tayanib tahlil qilinishida muhimligi aniq.

O‘qish savodxonligi yo‘nalishida axborot uzatuvchi modellarning qo‘llanilishi, ya’ni matnning mazmun-mohiyatini yoritib berishga mo‘ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar o‘quvchida berilgan matnni tushunishi, mazmuni haqida kreativ va tanqidiy fikr yurita olishi, mulohaza yuritishi, o‘qiganlari haqida o‘z fikrini bera olishi kabi kompetensiyalarni shakllantiradi. Bunda kreativlik juda muhim Kreativlik bu noodatiy fikr yuritish, yangi g‘oyalarni o‘ylab topish usulidir.

Pedagogik texnologiyada umumiy pedagogik metodlar faol qo‘llaniladi. Shulardan biri modellashtirish metodidir. Matematik model – matematik timsollar, belgilar va hodisalar sinfining taxminan namunasi, bayoni. O‘qitishning interfaol shakl va metodlarida bu yondashuv ancha zamonaviy, qulay va samarali hisoblanadi. Ta’lim jarayonida modellashtirish metodidan foydalanish natijasida o‘quvchi faoliyatining umumiy mazmunini yorituvchi model yaratiladi. Model o‘ziga xos matn, jadval, formula, fotosurat, sxema, loyiha, tasviriy ifoda, xarita, diagramma kabi shakllarda

bo‘ladi. Ta’lim jarayonida amalga oshirilishi zarur deb belgilangan vazifalarning yechimini topishda qo‘llaniladigan modellashtirish metodi muhim ahamiyatga ega.

Modellar qanday maqsadga xizmat qilishiga ko‘ra moddiy ko‘rishga ega va axborot uzatuvchi modellar guruhiga ajratiladi. Axborot uzatuvchi modellarning grafik va belgili modellar kabi ko‘rinishlari hozirgi XXI asr ko‘nikmalarini o‘zida mujassamlashtirishi lozim bo‘lgan soha mutaxassislariga juda kerakli. Maktab davridanoq o‘quvchilarni yuqoridagi ko‘nikmalarga o‘rgatish davr talabidir. Modellarning turli shakllari mavjud bo‘lib, ular ma’lumotlarni tahlil qilishda samarali va qulay. Grafik (obrazli) modellar rasm, sxema, diagramma, fotosurat kabilar bo‘lsa, belgili modellar infografika, jadvallar, formula, xaritalardir.

Matematik savodxonlik o‘quvchidagi bir qancha ko‘nikmalarni baholaydi. U hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar, algoritmlar, faktlar va vositalarni o‘z ichiga oladi. U insonlarga matematikaning olamdagi o‘rnini tushunishga hamda yaratuvchan, qiziquvchan va o‘zini o‘zi tahlil qiladigan XXI asr fuqarolariga zarur bo‘lgan asoslangan hukm va qarorlar qabul qilishga yordam beradi.[1] O‘quvchilarda ijodkorlik, kreativlik, tadqiqotchilik va tahlil qilish, muammoni tavsiflash, ma’lumotlardan foydalanish, tizimli fikrlash, muloqot qilish,xulosa chiqarish, mulohaza yuritish, anglash kabi ko‘nikmalar rivojlanadi.

Ko‘rinib turibdiki, XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan 4 K modeli talablari o‘z-o‘zidan amalga oshiriladi. O‘quvchilarining ona tili darslarida integratsiyalash holda ta’lim olishlarida modellashtirish metodi yordam beradi. Bunda o‘quvchilar ona tili, matematika, tabiiy fanlar, tasviriy san’at, tarbiya, tarix fanlariga oid bilimlarini yuzaga chiqarish, mustahkamlash, qiyoslash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

7-sinf ona tili darsligidagi diagrammalar, jadvallar, xaritalar o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishida qulay usullardan biridir. Masalan, “Ijtimoiy tarmoqlar” mavzusida berilgan quyidagi topshiriq yuzasidan ta’lim oluvchini yo‘naltirish yo‘llarini aniq qilib belgilab olish muhimdir.



Avvalo, o‘quvchilar diagrammadagi ma’lumot bilan tanishadilar, so‘ng ularning tahlilini qilish uchun mushohada yuritadilar, ya’ni necha xil yangiliklarga qiziqish berilganligi, ularning ko‘rsatkichlari necha foizligi, bir-biridan qancha farq qilishi, farq qilish sabablari va xulosalari aniqlanadi. Shundan keyin axborot uzatuvchi modeldan foydalangan holda og‘zaki matn tuzishlari yoki yozma matn tuzishlari mumkin. Bunda o‘quvchi diagramma bilan ishlaydi, ma’lumot oladi, qiyoslaydi, tahlil qiladi,xulosa chiqaradi va axborot beruvchi yozma matn tuzadi.

[1] “PISA” XALQARO DASTURIDA MATEMATIK SAVODXONLIK

Dilfuza Meliyevna Maxmudova, TVCHDPI, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Topshiriqning ketma-ket bajarilishi quyidagicha bo‘lishi mumkin.

1. Ma’lumot qanday shaklda berilgan? (diagramma)
2. O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining yangiliklarga qiziqishlari qanday ko‘rinishlarda? (muntazam ravishda yangiliklarni kuzatuvchilar,yangilik saytlaridagi ayrim sahifalardan foydalanuvchilar, tasodifiy kelgan xabarni ochib ko‘ruvchilar, do‘stlardan kelgan xabarni ochib ko‘ruvchilar,biror mavzuga doir yangilik izlovchilar)
3. O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining yangiliklarga qiziqish ko‘rsatkichlari necha foizni tashkil etadi?

-muntazam ravishda yangiliklarni kuzatuvchilar-87%

-yangilik saytlaridagi ayrim sahifalardan foydalanuvchilar-83%

- tasodifiy kelgan xabarni ochib ko‘ruvchilar-72%

- do‘stlardan kelgan xabarni ochib ko‘ruvchilar-66%

-biror mavzuga doir yangilik izlovchilar-52%)

4. Bu ma’lumotlarni bir-biriga qiyoslang.

muntazam ravishda yangiliklarni kuzatuvchilar yangilik saytlaridagi ayrim sahifalardan foydalanuvchilardan 4% ko‘p; tasodifiy kelgan xabarni ochib ko‘ruvchilar bilan do‘stlardan kelgan xabarni ochib ko‘ruvchilarning farqi 6% va h.)

5. Siz qaysi toifaga kirasiz? Nega?
6. Shu kabi ma’lumotlarni ketma-ketlikda og‘zaki bayon eting.
7. Matematik qanday terminlardan foydalandingiz?
8. Diagramma orqali nima haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ldingiz?

Shu kabi topshiriqlar ustida ishlashlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar ona tili faniga tegishli gap tuzish, qo‘shimchalarni, so‘zlarni o‘rinli qo‘llash, fikrni izchil davom ettirish malakasiga ega bo‘lsa, matematika faniga tegishli diagramma bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi, tabiiy fanga tegishli ijtimoiy munosabatlar (zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish)ni tahlil qiladilar, tarix faniga bog‘lab qadimgi axborot almashish usullari haqida bilib oladilar.

Xarita ko‘rinishidagi modellar, ayniqsa, o‘quvchilar uchun ham qiziqarli, ham juda foydali. 7- sinf ona tili darsligidagi “Turon yo‘lbarsi” mavzusida berilgan xaritaning afzalligi u bilan qay tarzda ishlashga bog‘liq. Bunda o‘quvchilarda insoniyat oldidagi ekologik muammolar yoritilgan matn mazmunini anglash, xulosa chiqarish, muhokama matnini yaratish kabi ko‘nikmalarni xaritali savol asosida shakllantirish mumkin.

Bu xaritali savol orqali o‘quvchi yozuvsiz xarita bilan ishlashni, faktlarni qiyoslashni, farqning sababi va oqibatlarini, yechim uchun taklif-mulohazalarini bildirishni, hudud haqidagi qo‘shimcha ma’lumotlarni berishni o‘rganadi. Yuqoridagi tavsiyalar asosida o‘qituvchilarning darsni samarali tashkil qilishlariga ko‘mak beradi. Chunki XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid 4K yondashuv aynan shunday modellashtirish orqali dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'lim-tarbiya jarayonining natijasini qiyosiy taqqoslash, o‘quvchilar bilimining rivojlanish dinamikasini hamda ta’lim sifatini muntazam tahlil qilib borish maqsadida xalqaro tadqiqotlar takomillashib bormoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish quyidagi qulayliklarga asos bo‘ladi:

- yangicha yondashuv orqali ta’limiy, pedagogik, ijtimoiy faoliyat o‘zgaradi;
- o‘qituvchi va o‘quvchi ishtirokidagi jarayon samarali faoliyat ko‘rinishiga keladi;

- ilmiy ma’lumotlarni amaliyotga bog‘lab asoslash va tahlil qilish, qo‘llash, xulosa chiqarish imkoniyati vujudga keladi;
- ta’lim resurslaridan foydalanish hajmi oshadi;
- pedagogik muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish yo‘llari ochiladi .

Pedagogik jarayonni qanday tashkil qilish, jarayon samaradorligini oshirish har bir pedagogdan mahorat, o‘zgacha yondashuv hamda pedagogik texnologiyadan o‘rinli, samarali foydalanishini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon
2. Ona tili, 7-sinf uchun darslik, K. M. Mavlonova. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. –224 b
3. https://nces.ed.gov/surveys/pisa/
4. “PISA” xalqaro dasturida matematik savodxonlik, Dilfuza Meliyevna Maxmudova, TVCHDPI, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Marufova Munira Egamkulovna,
Samarkand pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik diagnostikadan foydalanish asoslari ochib berilgan.*

Annotation: *The basics of using pedagogical diagnostic software in preschool education are explained*

Аннотация: *Изложены основы исползования педагогических диагностических программ в дошколном образовании.*

Tayanch so‘zlar: *ta’lim, tarbiya, pedagogik diagnostika, tadqiqotlar, axborot-kommunikativ texnologiyalar ,rivojlantirish.*

Ключевые слова: *образование, педагогическая диагностика, исследования, информасионные и коммуникасионные технологии, развитие.*

Keywords: *education, pedagogical diagnostics, research, information and communication technologies, development*

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik diagnostika funksional imkoniyatlariga ko‘ra quyidagicha farqlanadi:

1)shart-sharoit bilan bog‘liq diagnostika (ta’limiy muhitni o‘zgartirishni ta’minlovchi; ijtimoiy-madaniy shart-sharoit va boshqalar)ni ta’lim jarayoniga tatbiq etishni aniqlash;

2)mahsulot ko‘rinishidagi innovatsiyalar (pedagogik vositalar, loyihalar, texnologiyalar)ni joriy qilish darajasini va ularning natijalarini tashxislash.

3) boshqaruvga doir yangiliklarni kiritish darajasini o‘rganish va ularni tashxislash.

Ta’lim jarayonida pedagogik diagnostika ta’limiy faoliyatni tahlil etish va o‘zgarishlarga ehtiyojni aniqlash; yangiliklarni baholash va tanlab olish;

bo‘lajak ko‘zda tutilgan ta’limiy tizimni loyihalashni o‘rganish; yangiliklarni qo‘llash darajasini aniqlash; natijalarni tahlil etish va baholashga qaratilishi lozim. Shu

bilan birga pedagogik diagnostika turli darajada - alohida pedagog yoki tarbiyalanuvchi faoliyatini tashxislaydi. Bunda:

a) faoliyatli: motivli maqsad, vazifalar, mazmun, shakl, metodlarni qo‘llash natijasida qo‘lga kiritiladigan samara tashxislanadi;

b)sub'yektivli: ta'lim tashkilotining barcha sub'yektlari – pedagoglar, bolalar, ota-onalar, metodistlar, konsultantlar, ekspertlar, ta'limni boshqarish organlari xodimlari, attestatsiya komissiyasining faoliyati tashxislanadi;

v)darajali; xalqaro, respublika, viloyat, tuman, shaxar, talim

tashkiloti darajasidagi pedagogik faoliyat sub'yektlarining o‘zaro hamkorligi darajasi tashxislanadi;

g)mazmunli; ta'lim-tarbiya ishlari, o‘quv-tarbiya jarayonini

tashkil etish darajasi, ta'lim tashkilotini boshqarishga doir yangiliklarni

ishlab chiqish va o‘zlashtirish holati baholanadi;

d)boshqaruvga doir faoliyatning ta'lim tashkilotidagi muammolarini aniqlash, ularning qamrovlik darajasi kvalimetrik o‘lchanadi.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sog‘lom, aqlan yetuk va ma'naviy jihatdan shakllangan etib voyaga yetkazish ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida talqin qilinmoqda. Shulardan kelib chiqib, 2017 yil mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida Davlat talablari yaratildi. Mazkur talablar O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasining “Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonun, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta'lim va tarbiya berish, maktab ta'limiga tayyorlash bo‘yicha davlat talablari belgilandi.

Maktabgacha ta'lim tizimining qayta tashkil etilishi – bu maktabgacha ta'lim tashkilotiga ko‘proq mos keluvchi tizimni yaratish bilan bog‘liq holda qaraladi. Demak, maktabgacha ta'lim tashkiloti bola ta'lim-tarbiyasida davlatning asosiy talablarini qondira oladigan tashkilot sifatida qabul qilinib, birinchidan, yangi turdagi Davlat talablarining vazifalari takomillashtirildi; ikkinchidan, soha va kichik sohalarida farqlandi; uchinchidan, Davlat talablari soha va kichik soha indikatorlariga o‘zgartirishlar kiritildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o‘quv-tarbiyaviy faoliyat «O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktab y oshidagi bolalarni rivojlantirishga oid davlat talablari» asosida amalga oshiriladi. Davlat talablari tug‘ilgandan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalariga bo‘lingan. Har bir rivojlanish sohasi o‘z o‘rnida kichik sohalarga bo‘lingan bo‘lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan (kutilayotgan rivojlanish ko‘rsatkichlaridan) iborat .

Davlat talablari asosidagi yosh davrlari bosqichlari

№	**Bolaning maktabgacha ta'lim yosh davrlari**	**Bosqichlar**
1	go‘daklik	tug‘ilgandan 1 yoshgacha
2	erta yoshdagi bolalik	1 yoshdan 3 yoshgacha
3	kichik maktabgacha yosh	3 yoshdan 4 yoshgacha
4	katta maktabgacha yosh	5 yoshdan 6 yoshgacha
5	maktabga tayyorlov yoshi	6 yoshdan 7 yoshgacha

Davlat talablari asosidagi yosh davrlari bosqichlarini inobatga olib, biz tadqiqotimizda 5-6, 6-7 yoshli katta maktabgacha yosh va maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishini ta'minlovchi shaxsga

yo‘naltirilgan texnologiyalarni takomillashtirishga kirishdik. Buning uchun biz tadqiqotimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining (5-6,6-7 yosh) intellektual, jismoniy, ruhiy, ma’naviy, estetik rivojlanishini baholash mezonlarini yosh davrlariga oid tabaqalashtirishga harakat qildik .

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning rivojlanish ko‘rsatkichlari

Yosh davrlari	**Mezonlar**	**Rivojlanishni baholash indikatorlari**
Katta maktabgacha yosh (5-6 yosh) maktabga tayyorlov yoshi (6-7 yosh)	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish; Men» konsepsiyasi; Hissiyotlar va ularni boshqarish;	yirik motorika; mayda motorika; sensomotorika; sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik
Katta maktabgacha yosh (5-6 yosh) maktabga tayyorlov yoshi (6-7 yosh)	Bilish jarayonining rivojlanishi;	ijodiy rivojlanish nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari; dunyoni badiiy tasavvur etish; - badiiy-ijodiy qobiliyatlar
katta maktabgacha yosh (5-6 yosh) maktabga tayyorlov yoshi (6-7 yosh)	Intellektual-anglash malakalari; elementar matematik malakalar; tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.	nutq va til; - o‘qish malakalari; - qo‘l barmoqlari mayda motorikasi; dunyoni badiiy tasavvur etish; - badiiy-ijodiy qobiliyatlar.
katta maktabgacha yosh (5-6 yosh) maktabga tayyorlov yoshi (6-7 yosh)	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi	yirik motorika; mayda motorika; sensomotorika; sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik

Jadvalda aks ettirilganidek, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining (5-6,6-7 yosh) intellektual, jismoniy, ruhiy, ma’naviy, estetik rivojlanishini ta’minlashga mo‘ljallangan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini yosh davrlariga oid tabaqalashtirdik va bola rivojlanishining sohalariga oid mezonlarni ishlab chiqdik.

Bunda:

“Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasida “Men” konsepsiyasi; hissiyotlar va ularni boshqarish; ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqotga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, “nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasida: nutq va til; o‘qish malakalari; qo‘l barmoqlari mayda motorikasiga e’tibor qaratiladi.

Bolaning “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasida: intellektual-anglash malakalari; elementar matematik malakalar; tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyatiga eьtibor qaratilsa, «jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining

shakllanishi»da yirik motorika; mayda motorika; sensomotorika; sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik kabilar inobatga olinadi.

Bolaning "Ijodiy rivojlanish» sohasida dunyoni badiiy tasavvur etish; badiiy-ijodiy qobiliyatlariga e'tibor qaratiladi. Binobarin, Davlat talablarida ta'kidlanishicha, "asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma'lum bir tomonlarini o‘z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo‘nalishini ko‘rsatib beradi. Kutilayotgan natija esa, bolalarda o‘zlashtiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar ko‘rsatkichi bilan belgilanadi.Maktabgacha taьlim tashkilotlarida pedagogik diagnostika vositalari va metodlaridan foydalanib, rivojlanish soxalari kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat kiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari" 2018 yil
2. "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi, 2018 yil
3. Qodirova F. R va boshq. "Maktabgacha pedagogika" T:. 2019 yil
4. Abdullayeva Sh.A., Ro‘ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. - Toshkent: Universitet, 2019. - 288 b.
5. Abdullina O. A. Obщyepedagogicheskaya podgotovka uchitelya v sisteme vьisshego pedagogicheskogo obrazovaniya. - M.: Prosveщyeniye, 1989. – 139 s.

MUSIQA DARSLARIDA INTELLEKTUAL SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHA METODINING O‘RNI

Turayeva Dilso‘z Ixtiyorovna,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi metodisti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada musiqa ta'limida intellektual salohiyatni rivojlantirishda loyiha metodining samaradorligi ilmiy tahlil qilingan. Loyiha metodi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, musiqiy savodxonlik va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, musiqa darslarida innovatsion yondashuv sifatida loyihaviy faoliyatni tashkil etishning afzalliklari va istiqbollari yoritiladi.*

Аннотация*.В данной статье научно проанализирована эффективность проектного метода в развитии интеллектуального потенциала в музыкальном образовании. Показано, что проектный метод способствует развитию у учащихся самостоятельного мышления, творческих способностей, музыкальной грамотности и навыков коллективного взаимодействия. Также раскрываются преимущества и перспективы организации проектной деятельности как инновационного подхода на уроках музыки.*

Abstract *. This article provides a scientific analysis of the effectiveness of the project method in developing intellectual potential in music education. It is shown that the project method contributes to the development of students' independent thinking, creativity, musical literacy, and teamwork skills. The advantages and prospects of organizing project-based activities as an innovative approach in music lessons are also highlighted.*

Kalit so‘zlar:*musiqa ta'limi, loyiha metodi, innovatsion yondashuv, intellektual salohiyat, kreativlik, kompetensiya, ijodkorlik.*

Ключевые слова*: музыкальное образование, метод проектов, инновационный подход, интеллектуальный потенциал, креативность, компетенция, творчество.*

Keywords: *music education, project method, innovative approach, intellectual potential, creativity, competence, artistry.*

Bugungi kunda ta’lim tizimida intellektual salohiyatni rivojlantirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, musiqa ta’limi nafaqat o‘quvchilarning estetik didini shakllantirish, balki ularning tafakkurini, ijodiy qobiliyatini va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan musiqa darslarida **loyiha metodidan foydalanish** o‘quvchilarda bilimlarni chuqur o‘zlashtirish, mustaqil fikrlash va yangicha yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi. Mazkur maqolada loyiha metodining nazariy asoslari hamda uning musiqiy ta’limdagi qo‘llanish mexanizmlari tahlil qilinadi.

Zamonaviy sharoitda ta'limning gumanistik falsafasi turli xil texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi, uning maqsadi nafaqat bilimlarni uzatish, balki har bir bolaning ijodiy qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash, rivojlantirish, o‘stirish, uning mustaqilligini rag‘batlantirishdir. samarali ta'lim faoliyati. Ushbu texnologiyalardan biri loyiha faoliyatidir.

Musiqiy loyiha faoliyati pedagogik yangiliklarni faol izlash va musiqa-ta’lim jarayoniga joriy etish natijasi bo‘ldi. Bugungi kunda u o‘quvchilarga shaxsga yo‘naltirilgan, insonparvar yondashuv g‘oyalariga asoslangan universal pedagogik texnologiya sifatida qaraladi va musiqiy loyiha faoliyatida amalga oshiriladigan loyiha usuli ularning musiqiy-ijodiy rivojlanishi va o‘zini o‘zi belgilashining samarali vositasidir. Hozirgi vaqtda ta'lim loyihalarining quyidagi turlari qo‘llaniladi. O‘yinli - rolli loyihalar, masalan, qo‘shiqlarni dramatizatsiya qilish, bolalar operalarini ishlab chiqarish. O‘quvchilar shaxsini rivojlantirish uchun rolli o‘yin katta ahamiyatga ega: u turli xil rollarni o‘z zimmasiga oladi, empatiya qiladi, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni boshqarishni boshlaydi va unga xos bo‘lgan ijodiy salohiyatni namoyish etadi. Axborot va tadqiqot loyihalari / tezislar, taqdimotlar/. Masalan, “O‘zbek xalq qo‘shiqlarining turlari”, “Bastakor hayoti va ijodi”, “Bir cholg‘u asbobi tarixi”. Ssenariy loyihalar - maktab yoki alohida sinf uchun darsdan tashqari tadbir (kontsertlar, tanlovlar, mashg‘ulotlar, festivallar va boshqalarni tayyorlash va o‘tkazish). Ijodiy ishlar – tinglangan musiqa asari asosida bepul kompozitsiya, xorijiy estrada qo‘shiqlari matnining adabiy tarjimasi. Nashriyot loyihalari - devor gazetalari, stendlar uchun materiallar. Mualliflik loyihalari - qo‘shiq yozish, romantika. Loyiha faoliyatining o‘ziga xos xususiyati tashkilotning maxsus shaklidir. Loyiha bo‘yicha ishni tashkil qilishda bir nechta shartlarga rioya qilish muhimdir.

1. O‘quvchilarga taklif etilayotgan muammo shunday tuzilganki, o‘quvchilarni bilimning turdosh sohalari va turli axborot manbalaridan faktlarni jalb qilishga yo‘naltiriladi. Sinfdagi barcha o‘quvchilarni ishga jalb qilish, har bir topshiriqni uning tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda taklif qilish kerak.

2. Loyihani amalga oshirish yangi, qo‘shimcha ma'lumotlarni izlash, ushbu ma'lumotlarni muhokama qilish va uni hujjatlashtirish, loyihani amalga oshirish usullarini tanlashni o‘z ichiga oladi (bu chizmalar, qo‘l san'atlari, viktorinalar, taqdimotlar va boshqalar bo‘lishi mumkin). Ba'zi loyihalar uyda mustaqil ravishda ishlab chiqiladi, boshqalari esa o‘qituvchi yordamini talab qiladigan sinfda yaratiladi. Asosiysi, yigitlarning tashabbusini bosmaslik, har qanday g‘oyaga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va "muvaffaqiyat" holatini yaratish. Bundan tashqari, faoliyat mazmuni va usullarini mustaqil tanlash shaxsning hissiy sohasini, uning qobiliyatlarini, moyilligini, qiziqishlarini rivojlantirishga, ijodiy o‘zini o‘zi belgilash tajribasini shakllantirishga yordam beradi.. Agar musiqiy loyiha faoliyatining tuzilishi

haqida gapiradigan bo‘lsak, uni mozaika printsipi bo‘yicha yaratilgan ulkan panel bilan taqqoslash mumkin. O‘quvchilar mustaqil ravishda axborot oladilar va musiqiy loyiha faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. Turli fanlar bo‘yicha olingan individual bilimlar va faoliyat usullari yaxlit rasmga "qo‘shiladi". Loyihaning yagona tuzilishida birlashtirilgan ushbu rasmning tafsilotlari yangi semantik tarkibni oladi. Musiqiy loyiha faoliyatini amalga oshirish jarayonida O‘quvchilar o‘zlarining mazmuniga ko‘ra, bir qarashda bir-biridan uzoq bo‘lib ko‘rinadigan mavzular o‘rtasidagi aloqalarni aniqlaydilar. Bunday sharoitlarda talabalarning musiqiy loyiha faoliyati natijasi musiqiy-badiiy loyiha yoki o‘quv xarakteriga ega ijodiy mahsulotdir. Asosiy va qo‘shimcha ta’limning integratsiyasi sharoitida musiqa-loyiha faoliyati o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishning yagona modelini yaratish yo‘lida samarali vosita va kuchli katalizatorga aylandi.Bilim olish, ko‘nikma va ko‘nikmalarni rivojlantirish ta'limning yakuniy maqsadi emas, balki o‘quvchining mustaqil musiqiy, badiiy, o‘quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishi uchun o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan vosita bo‘lib, ularning ijodiy o‘zini o‘zi yaratish tajribasiga asoslanadi. - qat'iylik.Loyiha faoliyatidan foydalangan holda, bolalar musiqa san'atining tabiatini, uning ishlash qonuniyatlarini to‘liqroq tushunadilar, shuningdek, musiqiy-badiiy va o‘quv-tadqiqot faoliyatining o‘zaro kirib borishini ta'minlashga yordam beradi.Loyihaga asoslangan ta’lim texnologiyalari muayyan amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan muammoni hal qilishda o‘quvchilar faoliyatini natijalarga qaratadi. Zamonaviy pedagogik tushunchalar tizimli yondashuvga, yagona ta'lim makonini yaratishga qaratilgan. Ikkinchisi turli ta'lim sohalari va tuzilmalari o‘rtasidagi yaqin o‘zaro aloqani nazarda tutadi. Bu dizayn texnologiyasi bizga harakat qilish imkonini beradigan yo‘nalishdir. **Loyiha metodi** pedagogik texnologiya bo‘lib, nafaqat o‘quvchilarning faktik bilimlarini umumlashtirishga, balki ularni o‘z-o‘zini tarbiyalash orqali yangi bilimlarni qo‘llash va o‘zlashtirishga qaratilgan. Maktab o‘quvchilarining muayyan loyihalarni yaratishda faol ishtirok etishi ularga ijtimoiy-madaniy muhitda harakat qilishning yangi usullarini o‘zlashtirish imkoniyatini beradi.Ta'lim loyihasi kognitiv faoliyatni faollashtirish, ijodkorlikni (ijodiy fikrlash), tadqiqot qobiliyatini, jamoada muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish va muayyan shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi. Loyihalar mazmuni o‘quvchilarni individual va jamoaviy faoliyatda san'at va hayotning abadiy mavzularini tushunishga yordam beradi. O‘qituvchining vazifasi - ta'lim loyihalarini amalga oshirish jarayonida kognitiv qiziqishlar, maxsus va umumiy ta'lim ko‘nikmalari va musiqiy va intellektual faoliyat qobiliyatlari, aks ettirish tajribasi, tugallangan loyihani etarli darajada baholash va o‘zini o‘zi qadrlash, tajribani rivojlantirishni ta'minlash. talabalarning ijodiy o‘zini o‘zi belgilash qobiliyati to‘planadi. O‘qituvchi nafaqat o‘quvchilarni o‘rganishga yordam beradi, ularning kognitiv faoliyatini yo‘naltiradi, ma'lumot olish, bilim va tajribaga ega bo‘lish yo‘llarini taklif qiladi, mustaqil maslahatchi sifatida ishlaydi. Talabalar o‘z maqsadlariga erishish uchun faoliyat usullari va turlarini tanlashda erkindirlar. Ular passiv ortiqcha emas, balki jarayonning faol ishtirokchilaridir. Konstruktiv tanqidiy fikrlash shakllantirilmoqda, uni o‘qitishning odatiy sinf shaklida o‘qitish qiyin. Loyihani himoya qilish ham individual, ham jamoaviy ijodiy faoliyat shaklida amalga oshirilishi mumkin: jamoaviy tanlovlar, musiqiy ring, ota-onalar uchun har tomonlama ta'lim, musiqiy chiqish (teatrizatsiya), spektakl, san'at festivali va boshqalar.Talabalar loyihasini baholashning asosiy mezonlari quyidagilar bo‘lishi mumkin. Mavzu va taklif etilayotgan yechimlarning

dolzarbligi, ishning amaliy yo‘nalishi va ahamiyati, mavzuning to‘liqligi va izchilligi, uning to‘liqligi, xulosalar chiqarish va umumlashtirish qobiliyati, mulohaza yuritishning mustaqilligi, loyiha ishtirokchilarining ijodkorlik darajasi, mavzuning o‘ziga xosligi, yondashuvlari, yechimlari o‘z nuqtai nazarini bahslasha olish. Loyihaning badiiy dizayni (musiqiy asarlar, slaydlar, chizmalar tanlash; albomlar, stendlar, gazetalar, fotosuratlar, videolar tayyorlash; loyiha himoyasini adabiy va sahna ko‘rinishida qo‘llab-quvvatlash). Loyiha usulini amalda qo‘llash musiqa o‘qituvchisining pozitsiyasini o‘zgartirishga olib keladi. U tayyor bilimlarni tashuvchidan o‘z o‘quvchilarining kognitiv faoliyati tashkilotchisiga aylanadi. Sinfdagi psixologik iqlim ham o‘zgarmoqda, chunki o‘qituvchi o‘zining o‘quv-tarbiyaviy ishlarini va talabalarning ishini talabalarning turli xil mustaqil faoliyatiga, tadqiqot, izlanish va ijodiy xarakterdagi faoliyatning ustuvorligiga yo‘naltirishi kerak. Shunday qilib, musiqa-loyiha faoliyati universal pedagogik texnologiya sifatida nafaqat musiqa va san'at ta'limi sifatini oshirishga yordam beradi, balki ta'limning turli yo‘nalishlari mazmunini ularning yaqin munosabatlarida o‘zlashtirishning samarali vositasi va ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish omili bo‘lib xizmat qiladi. -maktab o‘quvchilarini aniqlash; maktab ta’limida musiqiy-pedagogik jarayonning integral tendentsiyalarini kuchaytiradi, uning ortiqcha so‘zlashuvi, rasmiylashtirilishini bartaraf etishga yordam beradi va shu bilan tizim rivojiga yangi sur’at olib keladi. Boshlang‘ich maktab yoshining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, boshlang‘ich maktabda quyidagilar muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin: natijalarni taqdim etishda eng erkin va noan'anaviy yondashuvni o‘z ichiga olgan ijodiy loyihalar: teatrlashtirilgan tomoshalar, musiqiy o‘yinlar, musiqa san'ati asarlari va boshqalar. Loyiha faoliyati mahsuloti (ijodiy mahsulot) quyidagilardir: chizmalar ko‘rgazmalari, gazetalar, shovqin asboblari, bayramlar, musiqiy rasmlar, ertaklar. Shuni ta'kidlash kerakki, boshlang‘ich maktablarda loyiha faoliyati bevosita o‘qituvchi yoki ota-onalarning rahbarligi ostida amalga oshiriladi, bolalar esa ta'lim faoliyatining bir qismi sifatida o‘z g‘oyalarini amalga oshiradilar, tadqiqotlar olib boradilar, umumlashtiradilar va olingan natijalarni taqdim etadilar. Loyiha yoki tadqiqot muammosi o‘quvchilarning kognitiv qiziqishlari sohasida bo‘lishi va ularning proksimal rivojlanish zonasida bo‘lishi kerak. Misol: "Quvnoq musiqachi" ni qo‘shiq mazmuniga o‘rganish bosqichida bolalar o‘zlarining "Animatsion film" loyihasini yaratadilar. Bolalarga qo‘shiqning ma'lum bir misrasi uchun rasm chizish vazifasi beriladi, sinfda bolalar rasmlar takrorlanmasligi uchun kim nima chizishini muhokama qiladilar. (Diskda qo‘shiqning taqdimoti mavjud). Natijada taqdimot paytida qo‘shiq kuylanadi. Mavzu: “Musiqa asboblari”. "Ekskursiya - musiqa asboblari mamlakatiga sayohat" loyihasi, bu erda bir guruh bolalar asboblar haqida qisqacha ma'ruzalar tayyorlaydilar va rasmlarni ko‘rsatuvchi qo‘llanmalar sifatida ishlaydilar. Boshqa bir guruh musiqachilar sifatida ishlaydi va shovqinli asboblarda qisqa improvizatsiya qiladi (bolalar asboblarni o‘zlari yasashadi). Natijada, bolalar asboblar bilan passiv emas, balki faol tanishadilar: ular kerakli va qiziqarli ma'lumotlarni topishni, eng yaxshi qo‘llanmani tanlashni, shuningdek, uyda o‘zlari yasagan shovqinli asboblarni chalishni o‘rganadilar. Shuningdek, dars davomida bolalar o‘zlari mavjud materiallardan oddiy shovqin asboblarini yasashadi. Ishlatilgan: bankalar, qutilar, loviya, guruch, no‘xat, turli xil boncuklar va boshqalar. Shovqinli asboblarni chalishni o‘rganish jarayonida eshitish tushunchalari, ritm, tembr va dinamika hissi yaxshi shakllanadi. Bola o‘z harakatlarida, e'tiborida va tashkilotida mustaqillikni rivojlantiradi. Shovqinli asboblar orkestr o‘yini bo‘lib, u erda tasavvur, improvizatsiya

va ijodkorlik uchun joy mavjud. Orkestrda o‘ynash bolalarning idrokini faollashtiradi, ularni ijodiy jarayonga daxldor his qilishiga yordam beradi va maktab o‘quvchilarida katta qiziqish uyg‘otadi. Faoliyatning bu turi shogirdlarimda zavq, shodlik, har kimda o‘z kuchini sinab ko‘rish istagini uyg‘otayotganini ko‘rib, ko‘pincha bu faoliyatdan umumiy musiqiy va ijodiy rivojlanish uchun foydalanaman. “Simfonik orkestr asboblari” mavzusidan oldin o‘quvchilarga “Simfonik orkestr” loyihasini taklif qildik. Loyihaning qisqacha mazmuni-“vokal” va “instrumental” musiqa tushunchalarini mustahkamlash. Orkestrni aniqlang. Bolalarning simfonik orkestr guruhlari xususiyatlari va xususiyatlari haqidagi bilimlarini boyitish. Cholg‘u asboblarining kelib chiqishi haqidagi afsonalarni aytib bering. Bolalarning so‘z boyligini musiqiy atamalar bilan boyitish. Simfonik orkestrning joylashuvi bilan tanishtiring. Bolalarning musiqiy tajribalarini kengaytirish. Musiqaga hissiy sezgirlikni rivojlantirish. Loyiha natijalari- bolalarda kognitiv qiziqishni rivojlantirish, musiqa haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Klassik musiqaning musiqiy asarlariga ijobiy-emotsional va ongli munosabat. Musiqani idrok etishga, unda ifodalangan his-tuyg‘ularga va kayfiyatlarga emotsional javob berishga tayyorlik. Har bir bolani ijodiy faoliyatga jalb qilish.Bolalarda musiqa asboblarining xilma-xilligi haqidagi tushunchalarini shakllantirish. Barcha loyihalarning asosiy natijasi: musiqiy shaxsni rivojlantirish: fikrlash, musiqiy qobiliyatlari rivojlangan, ijodiy, mustaqil, musiqiy mahoratga ega, mehr va rahm-shafqatni yo‘qotmagan. Loyiha har doim o‘quvchiga mustaqil ravishda o‘rganish imkoniyatini beradi. Loyiha faoliyati san'at sohasidagi faoliyat ko‘lamini kengaytirish imkoniyatini beradi. Loyiha faoliyati o‘quv jarayonini diversifikatsiya qilishga yordam beradi, kichik maktab o‘quvchilari uchun o‘rganilayotgan materialga bevosita qiziqish uyg‘otadi yoki o‘rta maktab o‘quvchilari uchun o‘quv faoliyatini tashkil etish shakliga aylanadi. Dizayn va tadqiqot faoliyati o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi birgalikdagi ishlarni o‘z ichiga oladi, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini, qidiruv va tadqiqot faoliyatini, o‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi. Loyiha ustida ishlash jarayonida, qoida tariqasida, katta hajmdagi axborot materiallari qayta ishlanadi va umumlashtiriladi. Yigitlar nafaqat kitob, gazeta va jurnallardan, balki Internet manbalaridan ham foydalanadilar. Loyihaga sinfdagi barcha o‘quvchilar jalb qilingan bo‘lib, bu fan bo‘yicha yuqori sifatli bilim olishga hissa qo‘shadi. Loyiha faoliyati jarayonida quyidagi umumiy ta'lim ko‘nikmalari shakllanadi. Musiqa ta’limida loyiha metodidan foydalanish o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu metod nafaqat musiqiy bilim va ko‘nikmalarni chuqurlashtiradi, balki ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va jamoaviy hamkorlikni ham shakllantiradi. Kelgusida loyiha metodini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish musiqiy ta’lim samaradorligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonova, X. (2020). *Ta’limda loyiha metodining samaradorligi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Jo‘rayev, A. (2019). *Musiqa ta’limi jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish*. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Xudoyberdiyeva, M. (2021). *Musiqa darslarida ijodkorlikni rivojlantirish yo‘llari*. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.
4. Polat, E. S. (2010). *Новые педагогические и информационные технологии в системе образования*. Moskva: Akademiya.
5. Барбара, В. (2018). *Инновационные методы в музыкальном образовании*. Moskva: Akademiya

MUSIQA DARSLARIDA RAQAMLI TEHNALOGIYALARNING O‘RNI

Xudoynazarov Dilshodbek Obidjon o‘g‘li,
Sirdaryo viloyat PMM metodisti

Annotatsiya: *Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli vositalardan samarali foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, interaktiv platformalar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va faol ishtirokini rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu kabi ilg‘or platformalardan biri sifatida Learningapps.org platformasi ta’lim sohasida keng qo‘llanilmoqda.*

Kalit so‘zlar: *Learningapps.org, apps, video, audio, interfeys, platforma.*

Learningapps.org platformasi – bu o‘quv mashg‘ulotlarini interaktiv shaklda tashkil qilishga mo‘ljallangan bepul veb-platforma bo‘lib, u o‘qituvchilar, o‘quvchilar hamda mustaqil o‘rganayotgan foydalanuvchilar uchun ko‘plab qulayliklarni taqdim etadi. Ushbu platforma 2011-yilda Germaniyaning Bern universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va bugungi kunda dunyo bo‘ylab turli ta’lim muassasalarida faol qo‘llanmoqda.

Saytning asosiy maqsadi – o‘quv jarayonida foydalaniladigan interaktiv topshiriqlarni (apps) yaratish, saqlash, ulashish va ularni o‘quvchilarga topshirish orqali darslarning sifatini oshirishdir. Bu topshiriqlar vizual va audio komponentlarga boy bo‘lib, o‘quvchilarning eshitish, ko‘rish, fikrlash va yodlash kabi kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Platformaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- O‘quvchilar matn, rasm, video va audio orqali berilgan topshiriqlarni yechish orqali darsda faol ishtirok etadilar.
- Har bir foydalanuvchi o‘z faniga mos, turli darajadagi topshiriqlarni mustaqil ravishda yaratishi mumkin.
- Platforma bir nechta tillarda ishlaydi, jumladan, ingliz, rus, nemis, fransuz va boshqa tillar mavjud. Hozirda o‘zbek tilidagi interfeys mavjud bo‘lmasa-da, o‘zbek tilida kontent yaratish imkoniyati to‘liq mavjud.
- Foydalanuvchi uchun qulay interfeys, oson ro‘yxatdan o‘tish jarayoni va topshiriq yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar mavjud.
- Saytda fanlar bo‘yicha minglab tayyor mashqlar mavjud bo‘lib, ularni bevosita dars jarayonida ishlatish yoki o‘zgartirish mumkin.
- Learningapps.org sayti nafaqat o‘qituvchilar uchun, balki o‘quvchilarning mustaqil o‘qish jarayonini tashkil etishda ham samarali platforma hisoblanadi. O‘qituvchi tomonidan berilgan havola orqali o‘quvchilar istalgan qurilmada (kompyuter, planshet, smartfon) o‘zlariga topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishlari mumkin.

Shuningdek, platformaning eng muhim jihatlaridan biri bu uning ixtiyoriylik asosida ishlashi va foydalanuvchilarga hech qanday majburiy to‘lovlarsiz xizmat ko‘rsatishidir. Bu esa uni keng ommaga qulay qiladi va barcha darajadagi ta’lim muassasalari uchun ochiq platforma sifatida xizmat qiladi.

Learningapps.org platformasining ta’lim jarayonidagi o‘rni

Zamonaviy ta’lim jarayoni an’anaviy usullardan interaktiv, raqamli va ijodiy yondashuvlarga tobora o‘tayotgani kuzatilmoqda. Bu jarayonda o‘quvchilarni darsga faol jalb etish, ularning mustaqil fikrlash va bilimlarni mustahkamlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan Learningapps.org

platformasi ta’lim jarayonida innovatsion vosita sifatida alohida o‘rin egallaydi. Learningapps.org platformasi orqali tuziladigan topshiriqlar o‘quvchilarning faol ishtirokini talab qiladi. Bu topshiriqlar an’anaviy testlar shaklida emas, balki turli interaktiv shakllarda taqdim etiladi – juftliklarni topish, bo‘sh joylarni to‘ldirish, krossvord yechish, video asosida savollarga javob berish va boshqalar. Bu esa o‘quvchini faol fikrlash, izlanish va xotirani ishga solishga undaydi.

Raqamli vositalar orqali tashkil etilgan darslar o‘quvchilar uchun vizual jihatdan jozibador, zamonaviy va interaktiv bo‘lgani sababli ular darsga nisbatan katta qiziqish bilan yondashadilar. Learningapps.org platformasida yaratilgan topshiriqlar aynan shu jihatdan katta ustunlikka ega: rangli interfeys, media vositalar qo‘shish imkoniyati (rasm, audio, video) orqali o‘quvchilarni rag‘batlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar bilim darajasi, tezligi va qiziqishlariga qarab alohida topshiriqlarni bajara oladilar. O‘qituvchi bir mavzu yuzasidan turli darajadagi topshiriqlarni yaratib, ularni guruh yoki individual tarzda taqdim qilishi mumkin. Bu esa o‘quv jarayonida differensial va individual yondashuvni ta’minlaydi.

Learningapps.org platformasi umumiy o‘rta ta’limdan tortib oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichlarda qo‘llanilishi mumkin. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda bu platforma juda foydali, chunki ko‘plab topshiriqlar o‘yin elementlari asosida tashkil etilgan bo‘lib, ular dars jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Learningapps.org platformasi har qanday fan uchun moslashtirilgan topshiriqlar yaratish imkonini beradi. Masalan:

- ❖ Ona tili darsida bo‘sh joylarni to‘ldirish yoki gaplarni tuzatish;
- ❖ Matematika darsida raqamli mantiqiy juftliklar;
- ❖ Ingliz tilida tarjima yoki rasmga qarab so‘z tanlash;
- ❖ Musiqa fanida audio fayl asosida kompozitorni aniqlash kabi topshiriqlarni yaratish mumkin.

Platforma orqali o‘qituvchi o‘z topshiriqlarini yaratib, havola ko‘rinishida o‘quvchilarga yuborishi, o‘quvchilar esa uni bajarib, natijalarni ko‘rishi va muhokama qilishi mumkin. Bu jarayon o‘qituvchi-o‘quvchi aloqasini mustahkamlash, darsdan tashqari faoliyatni jonlantirishga xizmat qiladi. Pandemiya davrida Learningapps.org platformasi kabi onlayn vositalarning ahamiyati yanada oshdi. Bu platforma orqali o‘qituvchilar masofaviy darslarni boyitish, nazorat va mustahkamlash topshiriqlarini samarali tarzda taqdim eta oldilar.

LearningApps.org platformasi – zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantiradi, ularni bilim olish jarayoniga faol jalb etadi, shuningdek, darslarni interaktiv va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, musiqa, ona tili, tarix, matematika kabi fanlarda bu platformaning o‘rni katta. O‘qituvchilar ushbu vositani doimiy va tizimli ravishda qo‘llasa, ta’lim sifati oshadi va raqamli kompetensiyalar rivojlanadi.

Platforma quyidagi afzalliklarga ega:

- ❖ Interaktiv topshiriqlar turlarining xilma-xilligi (testlar, moslashtirish, to‘ldirish, rasm bilan ishlash, videoga asoslangan topshiriqlar va boshqalar).
- ❖ Tillarni o‘zgartirish imkoniyati va ko‘plab fanlarga moslashtirish qulayligi.
- ❖ O‘quvchilar bilan real vaqtda ishlash va mashqlar natijalarini baholash funksiyasi mavjud.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bu platforma yordamida har bir dars mazmunan boy, texnologik jihatdan zamonaviy va metodik nuqtayi nazardan asosli shaklga ega bo‘ladi. Musiqa darslarida raqamli didaktik vositalardan foydalanish zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bunday vositalar o‘quvchilarning musiqaga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularda tinglash, his qilish, eslab qolish, ijodiy fikrlash kabi ko‘nikmalarni samarali shakllantirishga yordam beradi. Ayniqsa, interaktiv platformalar, audiovizual materiallar, onlayn testlar va virtual cholg‘u asboblari orqali o‘quv jarayonini yanada boyitish, har bir o‘quvchining individual o‘zlashtirishiga moslashtirish imkonini beradi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.Raxmonqulova “Maktabda musiqa darslarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi”. – T.: TDPU, 2020.
2. Axmedov A.A., Jo‘rayev R. **Ta’limda raqamli texnologiyalar –** Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2022.
3. Musiqa va san’at ta’limida innovatsion texnologiyalar: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – T.: TDPU, 2021.
4. D.Jonibekov “Didaktik o‘yinlardan foydalanishga mo‘ljallangan pedagogik dasturiy vositalar” Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi, 2025.

Elektron resurslar

1. uz.wikipedia.org
2. Learningapps.org

INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV MASHQLARDAN FOYDALANISH

Rizayeva Gulasal Mizrob qizi,
BuxDu magistranti, Navoiy viloyat Qiziltepa tumani 2-umumiy o‘rta ta’lim o‘qtuvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqola turli xil o‘quv muhitida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan amaliy strategiyalarga e’tibor qaratib, ingliz tilida gapirishni rivojlantirishning turli usullarini o‘rganadi. Tadqiqot mavjud adabiyotlarni tahlil qiladi, samarali metodologiyalarni taqdim etadi va turli yondashuvlarning natijalarini muhokama qiladi. Maqsad o‘qituvchilar va o‘quvchilarga ingliz tilida gapirish qobiliyatini oshirish bo‘yicha tushunchalarni berishdir.*

Kalit so‘zlar*: Ingliz tilida gapirish qobiliyatlari, tilni rivojlantirish, aloqa strategiyalari, til o‘rganish usullari, ravon gapirish, tilni bilish, og‘zaki muloqot. Ingliz tilida ravon gapirish shaxsiy va professional muloqot uchun zarur bo‘lgan tilni bilishning asosiy tarkibiy qismidir.*

Ingliz tili global lingua franca bo‘lgani uchun, uni samarali gapirish qobiliyati ko‘plab imkoniyatlar uchun eshiklarni ochishi mumkin. Biroq, kuchli nutq qobiliyatlarini rivojlantirish grammatika va so‘z boyligini tushunishdan ko‘proq narsani talab qiladi; bu turli xil til ko‘nikmalarini, shu jumladan tinglash, talaffuz va madaniy ongni birlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Ushbu maqola ingliz tilida nutq qobiliyatini rivojlantirishning eng samarali usullarini o‘rganishga qaratilgan. Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish va turli yondashuvlarni muhokama qilish orqali ushbu tadqiqot turli darajadagi o‘quvchilar

tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan amaliy strategiyalarni taklif qilishga intiladi.

Og‘zaki ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirishga amaliyot, suvga cho‘mish va faol o‘rganishni birlashtirgan holda turli usullar orqali murojaat qilish mumkin. Mana ba'zi samarali strategiyalar:

Muntazam Nutq Amaliyoti

- Til almashish bo‘yicha sheriklar: ona tilida so‘zlashuvchilar yoki boshqa o‘quvchilar bilan gaplashishni mashq qilish uchun til hamkorini toping yoki til almashish platformalariga qo‘shiling (masalan, Tandem yoki HelloTalk).

- Suhbat klublari: ingliz tilida so‘zlashadigan klublar yoki guruhlarga shaxsan yoki onlayn tarzda qo‘shiling, bu erda siz muntazam suhbatlar qilishingiz mumkin.

- Rolli o‘yin: kundalik vaziyatlarda ishonchni mustahkamlash uchun umumiy stsenariylarni (masalan, ovqatga buyurtma berish, yo‘l-yo‘riq so‘rash) mashq qiling. Texnologiyadan Foydalanish

- Til o‘rganish ilovalari: Duolingo, Babbel yoki Rosetta Stone kabi nutq qobiliyatiga qaratilgan ilovalardan foydalaning.

- Nutqni aniqlash vositalari: talaffuzni mashq qilish va tezkor fikrmulohazalarni olish uchun Google Translate yoki nutqni aniqlaydigan ilovalar kabi vositalardan foydalaning. Mahalliy tarkibni tinglash

- Podkastlar va Audiokitoblar: turli xil aksanlar va nutq uslublariga ko‘nikish uchun muntazam ravishda inglizcha podkastlarni yoki audiokitoblarni tinglang.

- Filmlar va teleshoular: tinglash va tushunish qobiliyatini oshirish uchun filmlarni yoki teledasturlarni ingliz tilida subtitrsiz (yoki dastlab inglizcha subtitrlar bilan) tomosha qiling. Yozib olish va o‘z-o‘zini baholash

- Gapirayotganingizni yozib oling: turli mavzularda gaplashayotganda ovozingizni yozib oling. Yaxshilash uchun joylarni aniqlash uchun yozuvlarni tinglang.

- Ona Tili bilan Solishtiring: talaffuz, stress va intonatsiyani sozlash uchun yozuvlaringizni ona tili bilan Solishtiring. Ishonch bilan gapirish

- Ommaviy nutq: ishonch va artikulyatsiyani yaxshilash uchun taqdimot qilish yoki Toastmasters klubiga qo‘shilish kabi ommaviy nutq imkoniyatlarida ishtirok eting. - Ingliz tilida o‘ylang: ona tilingizdan tarjima qilish o‘rniga fikringizni ingliz tilida o‘ylashga o‘rgating. Bu ikkilanishni kamaytiradi va ravonlikni yaxshilaydi. Talaffuzni o‘rgatish

- Fonetika amaliyoti: ingliz tilidagi fonetik tovushlarni o‘rganing va ravshanlikni oshirish uchun ularni mashq qiling.

- Talaffuz kamaytirish kurslari: talaffuz kamaytirish darslari olib yoki onlayn darslarda talaffuz tayyorlash qaratilgan quyidagi tushunmoq. Interaktiv faoliyat bilan shug‘ullanish

- Munozaralar va munozaralar: argumentli va ishonarli nutqni mashq qilish uchun turli mavzularda munozaralar yoki guruh muhokamalarida qatnashing.

- Interaktiv til o‘yinlari: so‘z birikmasi o‘yinlari yoki hikoya qilish kabi nutqni o‘z ichiga olgan til o‘yinlarini O‘ynang. Ona tilida so‘zlashuvchilarning fikri

- Repetitorlik mashg‘ulotlari: Real vaqt rejimida konstruktiv fikr bildira oladigan va xatolarni tuzata oladigan ona tili o‘qituvchisi bilan ishlash.

- Tilga cho‘mish: iloji bo‘lsa, ingliz tilida so‘zlashadigan muhitga sho‘ng‘ing, bu erda siz har kuni tildan foydalanishga majbur bo‘lasiz. Izchillik va sabr

- Kundalik mashg‘ulot: har kuni ma'lum bir vaqtni, hatto bir necha daqiqaga bo‘lsa ham, gapirishni mashq qilishga bag‘ishlang.

- Sabr va matonat: ravonlik vaqt talab qilishini tushuning. Muvaffaqiyatingizga sabr qiling va muntazam ravishda mashq qiling. Ushbu usullarni birlashtirish ingliz tilida ravon va ishonchli gapirishdagi muvaffaqiyatingizni tezlashtirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilida gapirish qobiliyatini rivojlantirish ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Hech bir usul barcha o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondira olmaydi, ammo vazifalarga asoslangan o‘rganish, kommunikativ tillarni o‘qitish, texnologiya integratsiyasi va suvga cho‘mish kombinatsiyasi keng qamrovli til o‘rganish tajribasini yaratishi mumkin. O‘qituvchilar ushbu usullarni o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirishi, ravonlik va aniqlikni hal qiladigan muvozanatli yondashuvni ta’minlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Johnson, K. E. The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education. // TESOL Quarterly., – London., 2006.
2. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London., 2001.
3. Galskova, N. D. Theory of learning a foreign language. Language didactics and methods: study guide. Linguistic un-tov and fac. in. spring university ped. study plant / N.D. Galskova, N.I. Gez. – Moscow: Izdatelsky center “Akademiya”, 2006. – 336 p.
4. Салиева З.И. Говорение и его роль в практическом овладении иностранным языком // Проблемы современного образования. – 2015. – №5.

FOTOSINTEZ JARAYONINI O‘QUVCHILARGA YORITIB BERISHDA 5E YONDASHUVINI QO‘LLASH

Safarova A.M.,
Konimex tumani 16-umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi

“Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa,
ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi!”
Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

Annotatsiya. Maqolada “Fotosintez” jayonini yangi 5E yondashuvi yordamida yoritib berish keltirilgan. O‘quvchilarga mavzuning yetib borishini osonlashtirish; o‘qituvchilarga esa bu modelning qo‘llanilishini mavzu yordamida ko‘rsatish.

Kalit so‘zlar: Engagement-jalb qilish, Exploration – “o‘rganish, Explanation – tushuntirish, Elaboration-mustahkamlash, Evaluation- baholash, fabrika, xomashyo, sintezlash, yetkazib berish, maxsulotlarni saqlash ba’zalari.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda ilm fan, texnologiyalarning yangi avlodi shakllanib, suniy intellekt tobora jahon hamjamiyatiga singib bormoqda. Shu qatorda o‘quvchilarimiz ham oldingi an’anviy o‘qitish texnologiyalari ular uchun jo‘l va zerikarli darslarga aylanib qolayapdi. Shu sababli o‘quvchilarga oson, qiziqarli va eslab qolish oson bo‘lishi uchun 7-sinf yangi darsligi V bob 5.1 “Organizmlarning oziqlanishi” mavzusi ichidagi FOTOSINTEZ jarayonini 5E moduli yordamida yoritib beramiz.

1-Engagement - “Jalb qilish”: O‘quvchilarni mavzuga jalb qiladigan savol tashlaymiz.

-Siz o‘simlikni nimaga o‘xshatasiz?

A) fabrika B) mashina C) market (bozor)

Bu savolni o‘quvchilarni biroz fikrlarini jamlab o‘ylashga majbur qiladi. Javoblar eshitilgandan so‘ng fikrlar izohlanadi.

-Mashina bo‘la olmaydi, chunki o‘simlik passiv harakatga ega.


-Market ham emas chunki u yerda tayyor maxsulotlar bo‘ladi, o‘simlik esa o‘zi ozuqa sintezlaydi.

-Fabrika to‘g‘ri fikr! Chunki fabrika ham o‘simliklar singari maxsulot ishlab chiqaradi!

Qadrli o‘quvchilar biz siz bilan bugun ***"Fotosintez"*** fabrikasiga sayohat qilamiz!

2-Exploration – "o‘rganish"

Fotosintez- yunoncha so‘z bo‘lib "***fotos"-yorug‘lik*** va ***"sintez"-qo‘shish,birlashtirish*** degan ma'noni anglatadi. Bunda o‘simliklar quyoshdan keladigan ko‘rinadigan nurlarning **yorug‘lik** energiyasidan foydalanib kimyoviy energiya sintezlaydi va ildizdan qabul qilgan **suvda erigan mineral moddalar** hamda barg og‘izchalari orqali qabul qilgan **CO_2** ni **birlashtirish** orqali organik modda (glyukoza-$C_6H_{12}O_6$) sintezlaydi.




Ya'ni fabrika va zavodlarda bo‘lgani kabi bu jarayon uchun asasiy xomashyo bu karbonat angidrid gazi(CO_2) suv(H_2O). "xomashyo" qancha ko‘p bo‘lsa maxsulot shuncha ko‘p ishlab chiqariladi.

-So‘ng bu maxsulotlar "sintezlash" ba'zasi o‘simlikning yashil organlari barg, yosh novda va xom mevalardagi xlorofill donachalarida quyosh nuri ta'sirida organik moddaga aylanadi.

3-Explanation – " tushuntirish"

Sintezlash ba'zasini quyidagi chizma orqali yoritib bersak o‘quvchi uchun bu jarayon murakkablik tug‘dirmaydi.

Bu yerda: qozon- xlorofill, olov- quyosh nuri, suv va karbonat angidrit- ovqat tayyorlash uchun masalliqlar va natijada ovqat –shakar(glyukoza) va kislorod hosil bo‘ladi.



Insonlar ovqatni qozonda pishiradilar. O'simliklarda bu vazifani xlorofill donachalari amalga oshiradi. Qozonsiz ovqat qilishning imkoni bo'lmagani kabi xlorofillsiz o'simliklar organik modda sintezlay olmaydi!

Mana nega FOTOSINTEZ jarayoni o'simliklarning yashil organlarida amalga oshadi!

Natijada dastlab shakar, so'ngra kraxmal hosil bo'ladi va barg og'izchalari orqali havoga erkin kislorod(O_2) ajralib chiqadi. Bu jarayonning kimyoviy ifodalanishi quyidagicha:

$$6CO_2 + 6H_2O \xrightarrow{\text{Quyosh nuri+xlorofill}} C_6H_{12}O_6 + 6O_2$$

Fotosintez jarayonida faqat shakar va kraxmal emas, balki boshqa organik moddalar ya'ni oqsil va moylar ham hosil bo'ladi.Fotosintez bu juda murakkab jarayondir. Xlorofill donachalari ishtirokida hosil bo'lgan organik moddalar suvda eriydi. Ular barg eti hujayralaridan tomirlarning ***elaksimon naylariga*** o'tadi. Ular orqali barcha organlarga – ***gul, meva, urug ' va ildizga*** tarqaladi.O'simlik organlarining hujayralari shu organik moddalardan oziqlanadi .Demak "Mahsulotni yetkazish" bazasi elaksimon naylar – bu fabrikadagi tayyor maxsulotni tashiydigan quvurlardir.

"Mahsulotni saqlash " bazasining asosiy vazifasi ortiqcha organik moddalarni meva,urug', ildiz va boshqa organlarning g'amlovchi to'qimalarida to'plashdan iboratdir. Bunga ko'ra:

Uglevod- bug'doy va donli ekinlar urug'da,kartoshka tuganagida,sabzi va lavlagi ildizmevasida to'planadi.

Oqsil – dukkakli ekinlar (mosh,loviya,no'xot,yeryong'oq) urug'ida to'planadi.

Moy – kungaboqar pistasi, g'o'za chigiti, yong'oq mag'zida to'planadi.

4-Elaboration- "Mustahkamlash"

-Siz agar o'simlikni mashina yoki magazin deb hisoblasangiz, o'simlik qismlarini qanday nomlar edingiz?

-Fotosintez fabrikasidagi sexlarni nomlari bilan sanang va tushuntiring!

5Evaluation- "Baholash"

-Nimalarni o'rganding?

-Yana nimani bilmoqchisan?

-Kichik loyiha ishlari tayyorlash orqali o'quvchilarni baholash.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Fotosintez jarayonini o‘quvchilarga yoritib berishda 5E yondashuvini qo‘llash” o‘quvchilarning tasavvur olamini kengaytirishga, ularni olgan bilim va malakalarini kelajakda hayot yo‘lida qo‘llashga zamin yaratadi.

Fotosintez sirlarini bilgan tadbirkor dehqonlarimiz ulkan issiqxonalar qurib issiqlik, yorug‘lik ,mineral moddalarni vaqtida yetkazib xalqimiz dasturxoniga qishda ham sabzavot va poliz ekinlari yetkazib bermoqdalar.

O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA KREATIV G‘OYALARNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Narzullayev N.H.,
Navoiy viloyati PMM mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kreativ fikrlash bugungi yoshlarga kerak bo‘lgan muhim ko‘nikmadir, ta’lim jarayonida o‘qituvchilarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish yo‘llari va bosqichlarini yoritib berish yo‘llari yoritilgan. Kreativlik asosida yoshlarda shakllanadigan shaxsiy – ijodiy yo‘nalganlik, ijodiy tasavvurning yuqoriligi, mustaqillik, murakkab vazifalarni hal etishdagi tutgan o‘rni hamda ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *kreativlik, kreativ kompitentlik, ijodkor, iroda, diqqat, tafakkur.*

Аннотация: *В статье рассматривается значение творческого мышления как важного навыка для современной молодёжи, а также пути и этапы развития творческих способностей педагогов в образовательном процессе. Рассматриваются роль и значение креативности в формировании личностно-творческой направленности молодёжи, развитого творческого воображения, самостоятельности и решении сложных задач.*

Ключевые слова: *креативность, творческая компетентность, творец, воля, внимание, мышление.*

Abstract: *This article discusses the importance of creative thinking as an important skill for today's youth, and the ways and stages of developing creative abilities in teachers during the educational process. The article discusses the role and importance of creativity in the formation of a personal-creative orientation in young people, high creative imagination, independence, and solving complex tasks.*

Keywords: *creativity, creative competence, creator, will, attention, thinking.*

Kreativlik – bu shaxsning individual xarakteri hisoblanib, madaniy aloqalarda shaxsiy yondashuv, shaxsiy fikrni qo‘llash va rivojlantirishdir. Kreativlik psixologik nuqtayi nazarda tahlil qilinganda bugungi kundagi muhim pedagogik muammodir. Kreativlikni lug‘aviy ma’nosidan kelib chiqadigan bo‘lsak, o‘qituvchilarni shaxsiy innovatorlikka undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi. Kreativlik o‘qituvchilarni shaxsiy sifatlarini integratsiyasi hisoblanadi. Chunki o‘quvchi xarakteri tabiatdan qiziquvchan bo‘ladi. Bunda turli xil muammoni o‘quvchining o‘zi mustaqil holatda bajarish jarayonida uchragan muammolarni yengishda o‘qituvchining kreativ salohiyatiga tayanadi, u bilan birgalikda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Kreativlik tushinchasi murakkab va uning bir qancha ma’nolari mavjud. Kreativlik o‘quvchilarda o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan sifat emas albatta. Kreativlik o‘quvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o‘zlashtirishi va o‘zining kundalik faoliyatida qo‘llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olish demakdir.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasini isloh qilishdagi sa’y harakatlarining biri – bu pedagog kadrlarning zamon talablariga hamnafas tarzda

faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, ko‘nikma, malaka va madaniyatga ega bo‘lishlarini talab etmoqda. Bu esa o‘z-o‘zidan ta’lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o‘rganuvchi pedagogika faniga “kreativlik” degan tushunchani olib kirdi. Ayniqsa ilmiy bilimning bugungi kundagi rivojlanishi, kreativlikning shaxsni, jamiyatni va davlatni rivojlantirishga ta’siri ushbu masalasini ilmiy pedagogik nuqtai nazardan chuqur o‘rganishni talab etmoqda. Ayniqsa umumta’lim maktablarida o‘qituvchi kadrlarning kreativligini rivojlantirishga bo‘lgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi.

Kreativlik – shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma’naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘p qirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Filologiya fanlari doktori M.Ayimbetov ham o‘qituvchilarning pedagogik mahoratiga doir o‘z fikrlarini bayon etish bilan bir qatorda pedagogning shaxsiy va kasbiy faoliyati masalalariga to‘xtalib o‘tgan. Olim “kreativlik” yoki “ijodkor” tushunchalarini bevosita qo‘llanmagan bo‘lsalar ham ijodkor o‘qituvchining sifat ko‘rsatkichlarini yoritib berishga doir fikrlarini bayon etgan. Olim mahoratli zamonaviy o‘qituvchining strukturaviy komponenlarini ko‘rsatib bergan. Shu bilan bir qatorda olim bunday pedagoglarning oltita belgisini alohida e’tirof etgan.

Bular:

1.Pedagogik jamoada katta obruga ega bo‘lishi.

2.O‘zlarini juda jiddiy tutishi va pedagogik taktga ega bo‘lishi.

3. Darslarini oliy darajada tashkil etishi.

4. O‘quvchilar bilan do‘stona munosabatda bo‘lish.

5. Murakkab vaziyatlarda o‘zlarini tuta bilishi va pedagogik faoliyatini bir maromda olib borishi.

6. Pedagogik jamoada hamda maxallada katta ta’sir ko‘chiga ega bo‘lishi sanab o‘tilgan.

“Pedagogik mahorat” ushbu atamini eshitganda hamma ko‘z oldiga keltiradigan birinchi so‘z o‘z ishining ustasi, hozirgi kun bilan hamnafas mutaxassisdir. Hozirda pedagoglarning mahoratini oshirish bo‘yicha deyarli har yili yangi farmon va farmoyishlar taqdim etilmoqda. Chunki hozirgi yoshlar kundan-kunga qiziqishlari ortib bormoqda. Dars jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, o‘qituvchi emas, balki o‘quvchilar faolligini oshirish, yoshlarni qo‘llab-quvvatlaash, ularni to‘g‘ri yo‘nalishga qaratish va hakozo bularning barchasi hozirgi pedagoglarga qo‘yiladigan mas’uliyat hisoblanadi. Ta’lim jarayonida internet resurlari, audio-video vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilmoqda. Ayniqsa, bular “elektron darsliklar”da o‘z aksini topmoqda. Axborot kommuniktsiya davrida elektron axborot almashish jarayoni, elektron resurslarni ishlab chiqish, undan foydalanish borasida hukumatimiz tomonidan qabul qilingan bir qator meyoriy-huquqiy hujjatlar mavjud. Bu meyoriy hujjatlar kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, axborotlashtirish, milliy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga qaratilgan.

Bugun tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan davr taraqqiyotida ta’lim tizimi ham o‘ziga xos chora-tadbirlar bilan alohida o‘rin egallamoqda. Jumladan, barkamol yosh

avlodni ham ma’nan, ham jismonan shakllantirishda yurtboshimiz tomonidan imkoniyatlar berilmoqda. Bugungi kunda esa sa’yi-harakatlarning amaliy ko‘rinishi sifatida olib borilayotgan qarorlar, farmonlar, bir qator dasturlarning ishlab chiqarilib, hayotga tadbiq etilayotgani bunga yaqqol misol bo‘la oladi

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik – shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma’naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘p qirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni echish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. :TDPU, 2003.
2. Jumaev A. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari. “Xalq ta’limi” jurnali, 2006, № 6.
3. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X. “Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya”.T.,TDPU 2007-y
4. Ismailov A. Kreativ fikrlashni baholash. Toshkent: “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi” 2021-y
5. I.S. Xotamov, M.K. Olimov, G.R. Madrahimova, I.S. Foziljonov Kreativ fikrlash. O‘quv qo‘llanma - Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022-y
6. http://ziyonet.uz/
7. http://pedagog.uz/
8. http://edu.uz/

FIZIKA, ASTRONOMIYA VA TABIIY FANLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI

Jumaniyazov Amirbek Umarbekovich,
Sirdaryo viloyati PMM metodisti

Annotatsiya: *Bugungi kunda ilm-fan va texnologiya taraqqiyoti bevosita raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Fizika, astronomiya va tabiiy fanlarda zamonaviy kompyuter dasturlari, raqamli sensorlar, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlarni qayta ishlash tizimlari qo‘llanilishi ilmiy izlanishlarni yanada rivojlantirib, yangi kashfiyotlarga yo‘l ochmoqda.*

Kalit so‘zlar: *Virtual tajribalari, eksperimental tajriba, simulyatsiyalar, fizikaviy qonuniyat, jarayon, fizikaviy tushuncha, fizik hodisa.*

Annotation: *Today, the development of science and technology is directly interconnected with digital technologies. In physics, astronomy, and natural sciences, the use of modern computer software, digital sensors, artificial intelligence, and big data processing systems is advancing scientific research and paving the way for new discoveries.*

Keywords: *Virtual experiments,* experimental experiment, *simulations, physical law, process, physical concept,* physical phenomenon *(ko‘plik:* physical phenomena*).*

Ta’lim jarayonida laboratoriya mashg‘ulotlarini virtual simulyatsiyalar tajribalarining yangi bilimlar manbai hisoblanadi, fizikava astronomiya nazariyalarning fundamental asoslari, o‘qitish usuli va metodlari, o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni vizuallashtirish – illustratsiya qilish, o‘quvchilarning fizikaviy

va astronomik tafakkurini rivojlantirish, amaliy topshiriqlar, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish vositalari ekanligi ushbu maqolada yoritib berilgan.

Virtual laboratoriyalar - bu haqiqiy laboratoriya bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilmasdan yoki ularning to‘liq yo‘qligida va tasavvur qilish qiyin tajribalarni amalga oshirishga imkon beruvchi dasturiy ta’minotlar kompleksi.

An’anaviy laboratoriyalar bilan taqqoslaganda virtual laboratoriyalar ko‘plab afzalliklarga ega:

- virtual laboratoriyalar xavfsizroq, ya’ni yuqori kuchlanishli yoki xavfli kimyoviy moddalar bilan ishlashda virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish qulay;
- virtual ishlar ko‘p qirrali, shuningdek, moslashuvchanlik va turli obyektlarga moslashish qulayligini ta’minlaydi;
- oddiy sharoitda imkonsiz bo‘lgan yoki uni o‘tkazish katta vaqt va moddiy xarajatlar bilan bog‘liq bo‘lgan tajribani o‘tkazish mumkin bo‘ladi;
- shaxsiy kompyuterdan foydalanish nafaqat bajarilishini nazorat qilishni, balki talabani aniq laboratoriya ishini bajarishga tayyorlashni ham soddalashtiradi;
- kompyuterdan foydalanish yaxshi o‘qigan o‘quvchilarga o‘quv materialini tezroq o‘zlashtirishga va ortda qolganlarni kutmaslikka imkon beradi;
- virtual laboratoriya ishining grafik imkoniyatlari real qurilmalar bilan yoki ikki o‘lchovli shaklda tasvirlab bo‘lmaydigan ko‘p o‘lchovli jarayonlarni ko‘rish imkonini beradi;
- laboratoriya ishlarini yaratish xarajatlarini kamaytirish qisqa vaqt ichida ularning bazasini sezilarli darajada kengaytirishga imkon beradi va shu bilan o‘qitishda ko‘proq moslashuvchanlikni ta’minlaydi.
- fizika o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklari ham borligini ta’kidlash lozim:
- haqiqiy tajribani kompyuter bilan to‘liq almashtirib bo‘lmaydi;
- muhandislik fakulteti talabalarini o‘qitishda juda muhim bo‘lgan asbob-uskunalar bilan ishlashda amaliy ko‘nikmalarning yetishmasligi;
- mavzu ko‘rinishining yetishmasligi.

Fizikada raqamli texnologiyalar

Fizika murakkab qonuniyatlarga asoslangan fan bo‘lib, ko‘plab hisob-kitoblarni talab qiladi.

Kompyuter modellashtirish yordamida issiqlik uzatish, elektromagnit to‘lqinlar, kvant hodisalari kabi murakkab jarayonlar aniq o‘rganiladi. Raqamli o‘lchov asboblari laboratoriya tajribalarini yanada ishonchli qiladi. Virtual simulyatsiyalar orqali qimmat yoki xavfli tajribalarni xavfsiz sharoitda o‘tkazish mumkin.

Astronomiyada raqamli texnologiyalar

Astronomiya eng qadimiy fanlardan biri bo‘lsa-da, uning zamonaviy rivojlanishi bevosita raqamli texnologiyalarga bog‘liq.Teleskoplar va sun’iy yo‘ldoshlar ordamida olinadigan surat va ma’lumotlar raqamli formatda qayta ishlanadi. Yulduzlar, galaktikalar va butun koinot evolyutsiyasini modellashtirish uchun superkompyuterlar qo‘llaniladi.

Big Data texnologiyalari kosmosdan kelayotgan ulkan hajmdagi ma’lumotlarni saralash va tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, NASA va ESA teleskoplaridan kelayotgan milliardlab signalni oddiy kompyuter emas, balki maxsus hisoblash tizimlari qayta ishlaydi.

Tabiiy fanlarda raqamli texnologiyalar

Biologiya, kimyo va boshqa tabiiy fanlarda ham raqamli texnologiyalar keng qo‘llanmoqda. Mikroskoplar endi raqamli tasvir olish imkoniyatiga ega bo‘lib, biologik hujayralarni chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. Kimyoda molekulalar va reaksiyalar kompyuter yordamida modellashtiriladi. Bu yangi dori vositalari aratishda katta ahamiyat kasb etadi. Ekologiyada esa sun'iy yo‘ldosh ma'lumotlari yordamida iqlim o‘zgarishi, atmosfera tarkibi va biosfera jarayonlari kuzatilib boriladi.

Virtual laboratoriya ishlaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilib, shuni aytish mumkinki, axborot texnologiyalari an'anaviy texnologiyalarni to‘ldirishi kerak, balki ularni almashtirmasligi kerak. Kompyuter tajribasi o‘quv jarayonini yanada rang-barang, qiziqarli va hayajonli qiladi, lekin u haqiqiy eksperimentni to‘liq almashtira olmaydi.

Virtual simulyatsiyalar orqali dars mashg‘ulotlarini tashkil etishning boshqa uslubiy talablari quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilar tajriba o‘tkazishga tayyor bo‘lishlari shart emas. Eksperiment g‘oyasi, uning borishi va olingan natijalar o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishi kerak. Shu maqsadda o‘qituvchi o‘rnatish sxemasini, uning barcha tarkibiy qismlarini tushuntirishi, o‘lchov vositalariga yoki kuzatilgan ta'sir sodir bo‘lgan elementlarga e'tibor berishi kerak.

2. Iloji bo‘lsa, tajribalar bir nechta usullarda o‘tkazilishi kerak (ayniqsa, bu o‘quv materialini chuqurroq o‘zlashtirishga hissa qo‘shsa).

3. Darsdagi virtual simulyatsiyalar soni juda ko‘p bo‘lmasligi kerak. Virtual simulyatsiyalar o‘quv materialini o‘rganishga hissa qo‘shishi va darsdagi asosiy maqsaddan chalg‘itmasligi kerak.Agar darslarda o‘tkaziladigan tajriba uchun kerak bo‘lgan asbob va uskunalar yo‘q bo‘lsa, virtual simulyatsiyalar soni ko‘p bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

4. Agar uskuna imkon bersa, ko‘rgazmali tajribalar miqdoriy nisbatlarni o‘rnatish bilan amalga oshirilishi kerak.

5. O‘quv materialini o‘rgatish jarayonida ko‘rgazmali blok o‘quvchilar oldida yig‘ilishi kerak. Faqat juda murakkab uskunalar ishlatilsa, o‘rnatishni oldindan yig‘ish mumkin (shuning uchun tayyor stendlardan foydalanmaslik kerak).

6. O‘rnatish imkon qadar ishonchli bo‘lishi kerak.

7. O‘rnatish muvaffaqiyatsiz bo‘lsa, nosozlikni topish va tezda bartaraf etish va ijobiy natijaga erishish uchun tajribani takrorlash kerak. Agar berilgan sharoitda buning iloji bo‘lmasa, o‘quvchilarga rad etish sababini tushuntirish kerak va keyingi darsda namoyishni takrorlashni unutmaslik lozim.

8. Maktab sharoiti uchun mavjud bo‘lgan ko‘rgazmali eksperiment tegishli kino kliplar yoki kompyuter animatsiyalari namoyishi bilan almashtirilmasligi kerak.

Namoyish texnikasi ikkita talabga javob berishi kerak:

namoyish qilish usuli iloji boricha ilmiy usulga mos kelishi va ishonchli natijalar berishi kerak;

namoyish davomida o‘rnatishning kutilgan va muhim tarkibiy qismlarining maksimal ko‘rinishiga erishish kerak.

Virtual laboratoriya ishlarini qo‘llashning dolzarbligi yana shundan iboratki, unda laboratoriya tajribalarini tashkil qilish uchun murakkab qurilmalarni yasash, qurilmalarni saqlash, almashtirish shart emasligi bilan bir qatorda ta'mirlash ishlari, asboblarni tozalash kabi ishlar bajarilishi shart emas. Hamma laboratoriya ishlari kompyuter xotirasida yoki tashqi xotirada elektron variantda va bir joyda saqlanadi. Kompyuter qurilmasi xavfsiz, ishlatish qiyin emas va shu bilan birga

foydalanuvchidan faqatgina belgilangan maxsus dasturlar bilan ishlash ko‘nikmasini talab qiladi.

Maktab fizika kursining har bir mavzusidan majburiy ko‘rgazmalar ro‘yxati dasturda mavjud. U, birinchi navbatda, zamonaviy fizikaning eksperimental bazasini tashkil etuvchi tajribalarni o‘z ichiga oladi, ular fundamental deb ataladi, bular, birinchi navbatda, Galiley, Kavendish, Shtern, Ersted, Faradey, Gers, Stoletov va boshqalar. Ulardan ba’zilari maktab sharoitida yetarlicha ishonchlilik bilan namoyish etilishi mumkin, boshqalari esa murakkab va qimmatbaho jihozlarni talab qiladi (Lebedev, Milliken, Rezerford tajribalari) va shuning uchun ularni faqat kino, televizor yoki kompyuter texnologiyalari yordamida modellashtirish mumkin.

Bu tajribalarni sahnalashtirish imkon qadar aniq, tushuntirish esa o‘ylangan bo‘lishi va tajribaning nafaqat fizik mohiyatini, balki uning fizika fanlari tizimidagi o‘rnini ham aks ettirishi kerak.

O‘rganilgan fizik hodisalar va nazariyalarni texnika, texnologiya va kundalik hayotda qo‘llashnilishini ko‘rsatish. Bunday tajribalarni namoyish qilish nafaqat fizika va texnika o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish, balki o‘quvchilarni zamonaviy texnologik jamiyat sharoitida hayotga tayyorlash uchun ham zarurdir. Texnik va texnologik xarakterdagi obyektlar bilan tanishish fizikani o‘rganish motivatsiyasini shakllantirishga yordam beradi, o‘quvchilarning ilgari o‘rganilgan jismoniy hodisalar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish va tizimlashtirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бугаев А.И. Методика преподавания физики. Теоретические основы. - М.: Просвещение, 1981. 288с.
2. Хорошавин С.А. Физический эксперимент в средней школе. -М.: Просвещение, 1988. -175 с.
3. Niyazxonova V.E. Dars jarayonida internet axborot resurslaridan foydalanishning tashkiliy-uslubiy jihatlari.
4. Orifjanov U. va boshqalar. Fizikadan savol va masalalar to‘plami. -T.: “Turon Ikbol”, 2007. 126 b.
5. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. - T. Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA ULARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Qurbonova Xolbibi To‘raqulovna,
Navoiy viloyati PMM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar ulardan foydalanish va dars jarayonida foydalanishning o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O‘qituvchining faoliyati o‘quv materialini bayon qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e’tiqodini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iboratligi bayyon etilgan.

Abstract. This article describes the peculiarity of the use of modern technologies and their use in the teaching process, which is carried out through the joint activities of the teacher and students. It is stated that the teacher's work consists of presenting educational material, increasing students' interest in science, deepening their thinking

and forming their beliefs, guiding students' independent activities, and checking and evaluating their knowledge, skills and qualifications.

Аннотация. В данной статье рассматривается специфика применения современных технологий и их применение в учебном процессе, осуществляемом посредством совместной деятельности преподавателя и студентов. Указывается, что деятельность преподавателя заключается в представлении учебного материала, повышении интереса студентов к науке, углублении их мышления и формировании их убеждений, руководстве самостоятельной деятельностью студентов, а также в проверке и оценке их знаний, умений и квалификации.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiyalar,ta'lim tarbiya,usul vosita

Keywords: Innovative technologies, education, method and tool

Ключевые слова: Инновационные технологии, образование, метод и инструмент

Boshlang'ich ta'lim – bolaning indivudial va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda uning jismoniy va psixik rivojlanishini ta'minlovchi,uni uzluksiz ta'- limning keyingi bosqichiga har tomonlama maqsadli yo'naltirilgan ta'lim – tarbiya jarayonidir.

Hozirgi davr o'qituvchi va o'quvchi oldiga katta talablar qo'ymoqda, bu ta-lablarning eng asosiysi – darsning samaradorligi, uning sifatliligi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga, maktablardagi turli xil o'quv mashg'ulotlari, ularni tash- kil qilinishi va u orqali o'quvchilarni turli bilim va ko'nikmalarni egallab olishidir. Bugungi kunda ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'rni beqiyosdir.

Bolalarning yoshlikda olgan bilimi toshga o'yilgan naqshga teng hisoblana-di. Ularga nimani o'rgatsak, shuni yodlab qoladi va o'rganadi. Kelajakda ham ay- nan bugun olgan bilimi yuzasidan shakllanib boradi. Tarbiyasi ham xuddi shunday, bugun kundalik hayotida nima bilan shug'ullanishni o'rgangan bo'lsa, ertaga ham xuddi shu ishlar bilan shug'ullanadi. Masalan bugun o'qish bilan band bo'lishni o'rgangan bola ertaga ham o'qish bilan bog'lanib qoladi va ilmiy izlanishlar yo'li dan boradi. Ta'lim olish jarayonini yengil amalga oshirishni yo'lga qo'yish kerak. Ya'ni o'tilayotgan darslarni qiziq va interaktiv o'yinlar bilan o'tish maqsadga mu vofiq bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaning har turli ta'riflari mavjud bo'lib, har bir ta'rif ma'lum nuqtai nazardan yondashishni ifodalaydi. Ayrim asosiy ta'riflar va ular ning sharhlarini ko'rib chiqamiz: Texnologiya – biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi. Texnologiya-ishlov berish, ahvolni o'z gartirish san'ati, mahorati, qobiliyati, metodlar yig'indisi (V. M. Shepel). Peda gogik texnologiya-o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va komponovkasi (joylashuvi) ni belgi lovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi; u pedagogik jarayonning tash kiliy – uslubiy vositalaridan iborat (B.T. Lixachev). Pedagogik texnologiya o'qituv chi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay ola digan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir. (V.P. Bespalko). Pedagogik texnologiya-ta'limning rejalashtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti (I. P. Volkov). Ta'lim texnologiyasi-didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi (M. Choshanov). Pedagogik texnologiya-o'quv jarayonining o'quvchilar va o'qituvchi uchun so'zsiz qulay sharoitlar ta'minlashni loyihalash, tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha hamma detallari o'ylab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoli yat modeli (V. M. Monaxov). Pedagogik texnologiya-texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro

ta’sirini hisobga olgan holda ta’lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo‘yuvchi o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli metodi (YUNESKO).

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o‘ziga xos-ligi shundaki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amal ga oshiriladi. O‘qitish jarayoni o‘qituvchi hamda o‘quvchilar faoliyatini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining faoliyati o‘quv materialini bayon qilish, o‘quvchilarning fan ga bo‘lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e’tiqodini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko‘nik ma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.

Ma’lumki, har bir dars mavzusini o‘rganishda o‘ziga xos texnologiya, usul va vositalarni tanlashga to‘g‘ri keladi. O‘qitish jarayonida yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan ketma- ketligini mo‘ljallash kerak bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi predmetning o‘ziga xos tomonlarini, o‘quv jarayonini va sharoitini, o‘quvchilarning ehtiyojini va imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitga qarab ish latiladigan texnologiyalarni tanlashi lozim.

Quyida boshlang‘ich sinf dars jarayonlarida qo‘llaniladigan zamonaviy tex-nologiyalardan namunalar keltirib o‘taman

1. **“Rasmli rebus”** usuli. Mazkur metod asosan darsning “Mustahkamlash “ qismida qo‘llansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu metod yordamida o‘quvchilar shoir ijodiga doir asarlari rasmlarga qarab aniqlashi kerak bo‘ladi. Masalan, re -busda baliqcha, hovuz, tilla tanga rasmlari aks etgan bo‘lsa, demak bu yerda sho- irning “Tilla baliqcha” she’ri tasvirlangan bo‘ladi.Bu bolalarda aqliy qobilyatlarini rivojlantirishda qo‘l kelishi mumkin.

2. **“Tezkor savol-javob”** metodi. Ushbu metodni biz darsning “O‘tilgan mavzuni takrorlash va uyga vazifa so‘rash” qismida qo‘llashni lozim ko‘rdik. O‘quvchilarga o‘tgan mavzu yuzasidan savollar beriladi. O‘quvchilar esa sa- vollarga tezkorlik bilan javob berishlari kerak bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar ja- voblarini yozma tarzda berganlari maqsadga muvofiq, chunki bunda ularning o‘z sheriklarining javoblarini o‘zlashtirishi inobatga olinadi.

3. **“Qiziqarli krossvord**” metodi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar darsning “Yangi mavzu bayoni” qismida olgan bilimlarini mustahkamlashda qo‘l kelishi mumkin. Ya’ni, bunda sinfdagi o‘quvchilar guruhlarga bo‘lingan holda ishlasalar samaraliroq bo‘ladi.

4. **“Loyiha”** metodi. Bu metodni biz darsning “Yakuniy qismi”da qo‘llasak yaxshi bo‘lardi. Chunki, darslikdagi o‘tilgan o‘qish uchun berilgan ma’lumotlar nisbatan kam hajmda hamda dars vaqtining chegaralanganligi bois, o‘quvchilar keng va to‘liq ma’lumotlar olishi qiyin bo‘lishi mumkin. Ana shunday vaziyatlarda ushbu uusl yaxshi samara berishi mumkin. “Loyiha” metodi o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga va izlanishiga turtki bera oladigan metoddir. O‘qituvchi dars yakunida o‘quvchilarga qiziq bo‘lgan mavzuni o‘rtaga tashlaydi va sardori tayinlanadi. Ke-yingi darsgacha ularga berilgan topshiriqlar bo‘yicha ma’lumotlar topish, so‘ngra taqdimot loyihasini tayyorlash vazifasi yuklatiladi

“Qizil va yashil kartochkalar bilan ishlash” metodi Bu metodda o‘qi- tuvchi to‘g‘ri va noto‘g‘ri ta’rif, jumlalarni aytadi, to‘g‘ri va noto‘g‘ri yechilgan misollarni ko‘rsatadi. O‘quvchilar to‘g‘ri jumlaga yashil kartochkani, noto‘g‘ri jumlaga esa qizil kartochkani ko‘rsatadi. Bu metod o‘quvchilarni tezkor fikrlashga va topqirlikka, chaqqonlikka, aqlni charxlashga undaydi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,

o‘qituvchi har bir mavzuga mos interfaol metodni tanlasa va undan ta’lim jarayonida to‘g‘ri foydalana olsa, ta’lim mazmuni o‘quvchi shaxsiga aniq va tushunarli, esda qolarli bo‘ladi. Yuqorida aytganimizdek, biz o‘quvchiga oson- likcha to‘g‘ri javobni, haqiqatni aytib qo‘yishimiz emas, balki ularga haqiqatni topadigan yo‘lni ko‘rsatib qo‘yishimiz kerak. Toki ularning o‘zi to‘g‘ri javobni izla sin, marraga o‘zining harakati bilangina borsin. O‘qituvchidan yordam esa o‘sha to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsata olishdir.

Xulosa.

Ma’lumki, ta'limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedago gik texnologi yalar” “Nihol” nashryoti,-T.2013 y.
2. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.-T.: “Fan vatexnologiyalar” nashriyoti, 2011.- 275 b
3. G‘afforova Tal’at Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. T.: Tafakkur, 2011. – 160 b
4. Sharifzoda, S.O‘., Xudoynazarov, E.M. *Pedagogika nazariyasi va tarixi* (II-qism) [Matn] : darslik / S.O‘. Sharifzoda,E.M. Xudoynazarov. – Toshkent: Book many print, 2022. - 286 b.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA LOYIHA TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASH

Hamdamova Nafisa Xayritdinovna,
Navoiy viloyati PMM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Loyiha texnologiyasi, turli fanlar doira sida loyihalashtirishga oid amaliy misollar, loyiha turlari hamda boshlang‘ich ta’ limda loyiha texnologiyasini qo‘llashga oid amaliy ishlardan namunalar keltirilgan.

Abstract. This article presents examples of practical work on project technology, design in various disciplines, types of projects, and the application of project technology in primary education.

Аннотация. В статье представлены примеры практических работ по проектной технологии, проектированию в различных дисциплинах, виды проектов, а также применение проектной технологии в начальном образовании.

Kalit so‘zlar: Loyiha texnologiyasi, loyihalashtirishga oid amaliy misollar, Ijodiy va texnologik loyihalar

Keywords: Project technology, practical examples of design, Creative and technological projects

Ключевые слова: Проектная технология, практические примеры проектирования, креативные и технологические проекты.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar o‘qituvchi dan nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchini mustaqil fikrlashga, muammoni tahlil qilishga, izlanishga yo‘naltiruvchi sifatida faoliyat yuritishni talab qilmoqda. Shu bois boshlang‘ich ta’lim bosqichida interfaol metodlar, zamonaviy pedagogik tex

nologiyalar, xususan loyiha asosida ta’lim berish yondashuviga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kun zamonaviy ta’limini zamonaviy usul va metodlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu jumladan, bir qarashda oddiydek ko‘ringan loyihalash texno logiyasi ham o‘quv jarayonida samardorlikni yanada oshirishga atroflicha xizmat qilmoqda. Shu o‘rinda bu texnologiyaning asl negizi, uni amalga oshirish shakllari, ko‘zlanadigan natijava bu metod orqali ta’limga olib kiriladigan unsurlar haqida fikr yuritamiz.Loyihalash (lotincha, projectus -olg‘a tashlangan fikr, g‘oya, obraz) metodi o‘z nomi bilan kelgusidagi ishlarni amalga oshirishda rejalashtirish bo‘lib, proyekt ma’lum bir hisob kitoblarga, chizmalarga va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g‘oya, fikrning ifodasidir.

Loyiha texnologiyasi nima?

Loyiha texnologiyasi – bu o‘quvchilarning amaliy yoki nazariy muammoni mustaqil yoki guruh bo‘lib, bosqichma-bosqich hal qilishi orqali natijada muayyan mahsulot yoki ilmiy-ijodiy ishni yaratish asosida bilim olish jarayonidir.

Bu usulda o‘quvchi markaziy o‘rinda bo‘ladi. O‘qituvchi esa rahbar, yo‘ naltiruvchi,maslahat beruvchi sifatida ishtirok etadi. Loyiha texnologiyasi o‘quvchi larda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradi:

- Mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish,
- Muloqot qilish va guruhda ishlash,
- Muammoni aniqlash va uni yechishga yo‘naltirilgan izlanish olib borish,
- Yaratilgan mahsulotni taqdim etish va himoya qilish.

Turli fanlar doirasida loyihalashtirishga oid amaliy misollar

1. Ona tili

Loyiha mavzusi: “Mening sevimli ertaklarim”

Faoliyat: O‘quvchilar o‘zlari yoqtirgan ertaklarni tanlab, ularni qisqacha hiko ya qilib yozadilar, rasm chizadilar va sinfda taqdimot qiladilar.

Natija: Ertaklar to‘plami yoki kichik teatr sahnalashtiruvi.

Boshlang‘ich ta’limda ona tili darsi o‘quvchilarning nutq madaniyatini shakl lantirish, so‘z boyligini oshirish hamda fikrlarni aniq va mantiqan ifoda etish ko‘ nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu fan orqali o‘quvchilar matnlarni o‘qish,tushunish, tahlil qilish, hikoya tuzish va muloqot qilish qobiliyatlarini egal laydilar.

Ona tili darslarida loyiha texnologiyasidan foydalangan holda, o‘quvchilar mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish va amaliy nutq faoliyatini rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar. Matnlar ustida ishlash, hikoya tuzish, intervyu olish kabi faoliyatlar o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini mustahkamlashda samarali vositalardir.

Matematika

Loyihamavzusi: “Shaharimizdagi shakllar”

Faoliyat:O‘quvchilar shahardagi geometrik shakllarni topib, ularning nomi, shakli va o‘lchamlari haqida ma’lumot to‘playdilar.

Natija: Geometrik shakllar katalogi yoki posterlar tayyorlash.

Boshlang‘ich ta’limda matematika fani o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, hi soblash ko‘nikmalari va muammolarni yechish qobiliyatlarini rivojlantirishga qara tilgan. Ushbu fan orqali o‘quvchilar raqamlar bilan ishlash, oddiy amallarni baja rish, shuningdek, oddiy statistik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishni o‘rgana dilar.

Matematika darslarida loyiha texnologiyasi yordamida o‘quvchilar real ha yotdagi vaziyatlarni tahlil qiluvchi kichik loyihalar bajaradilar. Masalan, sinfdagi

sevimli mashg‘ulotlar, o‘yinlar yoki taomlar bo‘yicha statistik ma’lumotlar yig‘ish va ular asosida hisobotlar tayyorlash ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Texnologiya

Loyiha mavzusi: “Oddiy qurilmalar yasash”

Faoliyat:O‘quvchilar oddiy uy-ro‘zg‘or asboblarini yoki o‘yinchoqlarni tay yorlaydilar.

Natija: Ishlab chiqilgan qurilmalar ko‘rgazmasi.

Boshlang‘ich ta’limda texnologiya fani o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari ni rivojlantirishga, texnik vositalar bilan ishlash, oddiy qurilmalar va moddalar yordamida mahsulot yaratish malakalarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu fan bolalarga ijodiy yondashuvni o‘rgatadi va mustaqil mehnat qilishga rag‘batlantira di.

Texnologiya darslarida loyiha texnologiyasi orqali o‘quvchilar kichik guruhlarda yoki yakka tartibda turli maketlar, qurilmalar yoki amaliy ishlarni baja radilar. Masalan, o‘z qo‘llari bilan oddiy konstruktorlar yig‘ish, amaliy foydalanish ga mo‘ljallangan oddiy mahsulotlar yaratish, uni taqdim qilish orqali ularning tex nik fikrlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

1–2-sinflar uchun loyiha turlari

- Vizual va qo‘llanma loyihalar: Rasmlar, kollajlar, sodda qo‘l mehnati asosida bajariladigan loyihalar.

- Hikoya va drama loyihalari: Qisqa hikoyalar yozish, rolli o‘yinlar va kichik teatr sahnalashtirish.

- Amaliyhayotga oid loyihalar: Oddiy atrof-muhitni o‘rganish, oilaviy yoki maktab hayotiga oid faoliyatlar.

2. 3–4-sinflar uchun loyiha turlari

- Tadqiqot va izlanish loyihalari: Oddiy kuzatishlar, eksperimentlar va o‘rganishishlari.

- Guruh loyihalari: Birgalikda ish olib borish, mas’uliyatni bo‘lishish va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish.

- Ijodiy va texnologik loyihalar: Rasm, qo‘lsan’ati, oddiy qurilmalar yasash, taqdimot tayyorlash.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’limda loyiha texnologiyasini qo‘llash o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlanti rishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiya orqali o‘quvchilar o‘z bilim larini amaliy faoliyatda qo‘llash, hamkorlikda ishlash va o‘z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Loyiha Metodi darslarni qiziqarli va mazmunli qilish, shuningdek, o‘quvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olishga yor dam beradi.

Loyiha texnologiyasining asosiy tamoyillariga rioya qilgan holda, o‘qituv chilar o‘quv jarayonini samarali tashkil etishi, yosh xususiyatlariga mos loyihalarni tanlashi va har bir bosqichni aniq rejalashtirishi muhimdir. Shuningdek, natijani baholashda jarayonni ham hisobga olish, hamkorlikni rag‘batlantirish va o‘quv chilarga mustaqillik hamda ijodkorlikka imkon yaratish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Natijada, loyiha texnologiyasi boshlang‘ich ta’limda nafaqat bilimlarni mus tahkamlash, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risi da” PF-60-son farmoni, - T.: 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekis ton Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son farmoni, - T.: 2019.
3. Akilov, N. I. (2018). *Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitish metodikasi.*Toshkent: O‘qituvchi.
4. G‘ofurov, S. X. (2012). *Pedagogik texnologiyalar va metodlar.*Toshkent: O‘qituvchi.
5. G‘ulomov, A. A. (2017). *Boshlang‘ichta’limmetodikasi.* Toshkent: Akadem nashr.

JISMONIY TARBIYA FANINI O‘QITISHDAGI ASOSIY MODELLAR

Otaqulov Sevdiyor Rizoqulovich,
Navoiy viloyati PMM metodisti

Annotatsiya: *An’anaviy modelda o‘qituvchi o‘quvchilarga ko‘rsatmalar beradi va ular shu ko‘rsatmalarga muvofiq harakat qiladi. Samaradorlik modeli esa o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga mo‘ljallangan. Ushbu modellar jismoniy tarbiya jarayonida o‘quvchilarning rivojlanishi va o‘qitishning samaradorligini oshirish uchun qo‘llaniladi.*

Kalit so‘zlar: *Innovatsion metodlar, moslashuvchanlik, yangi yondashuvlar tajriba sinovlari, jamoa bilan ishlash, hamkorlik, jamoaviy ruh, sport madaniyati.*

Jismoniy tarbiya fanini o‘qitish hozirgi kunda nafaqat o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, balki ularning sog‘lom turmush tarzi, ijtimoiy va psixologik rivojlanishini ta’minlashning muhim qismidir. Jismoniy tarbiya darslari bolalar va yoshlarning umumiy sog‘lig‘ini yaxshilash, sport madaniyatini shakllantirish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu jarayonda turli pedagogik modellar qo‘llaniladi, har biri o‘ziga xos yondashuv va uslubga ega. O‘quvchilarni faollikka jalb qilish, harakat madaniyatini singdirish va ularning individual ehtiyojlarini qondirish uchun ushbu modellarni to‘g‘ri tanlash o‘qituvchining asosiy vazifasidir. Shuningdek, jismoniy tarbiya jismoniy faollikni hayotiy odat sifatida shakllantirishda, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga zamin yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Jismoniy tarbiya o‘quvchilarga faqat mashqlarni o‘rgatish bilan chegaralanmaydi, balki ularga muloqot qilish, jamoada ishlash, o‘z-o‘zini boshqarish kabi qobiliyatlarni ham rivojlantirish imkonini beradi. Shu sababli, o‘qituvchilar turli modellarni qo‘llagan holda, o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantiruvchi va ularga sog‘lom hayot tarzini singdiruvchi samarali darslar tashkil etishi zarur.

1. An’anaviy (klassik) o‘qitish modeli

An’anaviy o‘qitish modeli ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan klassik yondashuv bo‘lib, o‘qituvchi markazida bo‘lgan ta’lim jarayoniga asoslanadi. Bu modelda o‘qituvchi asosiy bilim beruvchi, yo‘naltiruvchi va nazorat qiluvchi sifatida faoliyat yuritadi. O‘quvchilar esa tinglovchi va ijrochi sifatida ishtirok etishadi, ular o‘qituvchining ko‘rsatmalariga rioya qilib, tayyor bilimlarni qabul qilishadi. O‘qituvchi asosiy boshqaruvchi rolni bajaradi. U mavzuni tushuntiradi, ko‘rsatmalar beradi va o‘quvchilarning harakatlarini nazorat qiladi. Darsning mazmuni va ketma-ketligi oldindan rejalashtirilgan bo‘lib, har bir bosqichda qattiq rioya qilinadi. O‘quvchilarga oldindan belgilangan bilimlar uzatiladi. O‘qitish jarayoni ko‘pincha bir tomonlama bo‘lib, o‘qituvchi ma’lumotni taqdim etadi, o‘quvchilar esa bu ma’lumotni o‘zlashtirishga intiladi. O‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot cheklangan bo‘lishi

mumkin.O‘qituvchi ta’lim jarayonini kuzatib boradi va o‘quvchilarni baholash orqali ularning bilim darajasini aniqlaydi. Baholash ko‘pincha o‘zlashtirilgan bilimlar darajasiga qarab amalga oshiriladi.

Afzalliklari:

- Ma‘lumotlarni tizimli va aniq yetkazish imkonini beradi.
- O‘qituvchi dars jarayonini to‘liq nazorat qiladi, bu esa intizomni saqlashda yordam beradi.
- Tashkiliy jihatdan qulay va katta guruhlar bilan ishlashda samarali.

Kamchiliklari:

- O‘quvchilarning individual qobiliyat va qiziqishlariga kam e’tibor qaratiladi.
- O‘quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari kamroq rivojlanadi.
- Bir tomonlama o‘qitish o‘quvchilarning faolligini cheklashi mumkin.

Ushbu model ayniqsa nazariy bilimlarni o‘rgatishda samarali hisoblanadi, lekin zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘qitishning interfaol usullari va o‘quvchi faoliyatiga asoslangan modellarni ham qo‘llashni taklif etiladi.

2. Qobiliyatga asoslangan model (Skill-based model)

Qobiliyatlarga asoslangan model jismoniy tarbiya fanida har bir o‘quvchining individual jismoniy qobiliyatlari va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim yondashuvidir. Ushbu modelda har bir o‘quvchining jismoniy imkoniyatlari, tayyorgarlik darajasi va qobiliyatlari inobatga olinadi va shunga muvofiq mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi bilan birga, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va motivatsiyasi ham ortadi. Individual yondashuv: Har bir o‘quvchi o‘z qobiliyatlari va jismoniy holatiga qarab mashqlarni bajaradi. Bu jarayonda ularning har biriga mos keladigan vazifalar va mashqlar belgilanadi. Shu tariqa, qobiliyat darajasi past bo‘lgan o‘quvchilar ham rivojlanish imkoniga ega bo‘ladi. Rag‘batlantirish va motivatsiya: Ushbu modelda o‘quvchilarni rag‘batlantirish va o‘z yutuqlarini ko‘rsatish muhim o‘rin tutadi. Har bir o‘quvchi o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda muvaffaqiyat qozonadi, bu esa ularda motivatsiyani oshiradi va o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi. Bosqichma-bosqich rivojlantirish: O‘quvchilar murakkablik darajasi bo‘yicha o‘z mahoratlarini bosqichma-bosqich oshirib boradilar. Har bir o‘quvchi o‘z darajasiga mos mashqlarni bajarar ekan, asta-sekin yuqoriroq darajalarga ko‘tariladi. Jismoniy ko‘nikmalarni rivojlantirish: Bu model o‘quvchilarning jismoniy ko‘nikmalarini (kuch, chidamlilik, moslashuvchanlik, muvozanat, tezlik va boshqalar) yaxshilashga qaratilgan. Mashqlar ularning qobiliyatlarini kuchaytirish va rivojlantirishga mos ravishda tanlanadi. O‘z-o‘zini baholash va maqsad qo‘yish: O‘quvchilar o‘z rivojlanishlarini o‘zlari baholab, keyingi maqsadlarni belgilashga undaladi. Bu usul orqali ular o‘z yutuqlarini ko‘rib, o‘z maqsadlariga qanday erishishni o‘rganadilar.

- Har bir o‘quvchiga moslashuvchanlik: O‘quvchilar qobiliyatlaridan qat’i nazar, darslarda o‘z qobiliyatlariga mos ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.
- O‘z-o‘zini rivojlantirish: O‘quvchilar o‘z shaxsiy maqsadlari va rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash imkoniyatiga ega bo‘ladi.
- Jamoaviy ishlash imkoniyati: Garchi o‘quvchilar individual rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lishsa ham, bu model jamoaviy mashg‘ulotlarga ham e’tibor qaratadi, bu esa ularning ijtimoiy va kommunikatsion ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Qobiliyatlarga asoslangan model, ayniqsa, jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning jismoniy va shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Bu yondashuv

nafaqat harakat ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki o‘quvchilarning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham mustahkamlaydi.

3. Jamoaviy o‘yinlar modeli (Sport education model)

Jamoaviy o‘yinlar modeli jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning jamoaviy faoliyat orqali rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan o‘qitish yondashuvidir. Ushbu modelning asosiy maqsadi o‘quvchilarga jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish va birgalikda muvaffaqiyatga erishish hissini uyg‘otishdir. Jamoaviy o‘yinlar orqali o‘quvchilar nafaqat jismoniy rivojlanadi, balki ijtimoiy va kommunikatsion qobiliyatlarini ham mustahkamlaydilar. Hamkorlikka asoslangan o‘yinlar: Bu modelning markazida o‘quvchilarning birgalikda ishlashi va umumiy maqsadga erishish uchun hamkorlik qilishi yotadi. Har bir jamoa a’zosi umumiy natijaga hissa qo‘shadi va jamoaviy muvaffaqiyat uchun mas’uliyatni bo‘lishadi. Jamoaviy ruh va liderlik: Jamoaviy o‘yinlarda o‘quvchilar bir-biriga yordam berishadi, vazifalarni bo‘lib olishadi va o‘yin davomida bir-birlariga maslahat beradilar. Bu jarayon jamoaviy ruhni rivojlantiradi va liderlik qobiliyatlarini oshiradi. Strategik fikrlash va tezkor qarorlar: O‘yin davomida o‘quvchilar vaziyatga qarab tezkor va samarali qarorlar qabul qilishadi. Jamoaviy o‘yinlarda ko‘p hollarda taktik rejalashtirish va strategik fikrlash talab etiladi. Har tomonlama rivojlanish: Jamoaviy o‘yinlar orqali o‘quvchilar nafaqat jismoniy ko‘nikmalarini, balki ijtimoiy, emosional va intellektual qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Bu jarayonda ular bir-biriga ishonch bildirish, yordam berish va birgalikda muammolarni hal qilishni o‘rganadilar.Raqobat va sport madaniyati: Jamoaviy o‘yinlar modelida raqobat elementlari bo‘lishi mumkin. Bunda o‘quvchilar bir-birlariga hurmat bilan yondashish, sport etikasiga rioya qilish va sog‘lom raqobat muhitida o‘zini sinovdan o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

- O‘zaro yordam va ishonchni rivojlantirish: O‘quvchilar jamoada birgalikda ishlash orqali bir-biriga ishonch hosil qiladi va o‘zaro yordam ko‘rsatadi.
- Liderlik va mas'uliyat: O‘quvchilar jamoa oldida javobgarlikni his qilib, liderlik qobiliyatlarini rivojlantiradi.
- Jismoniy va ruhiy rivojlanish: Jamoaviy o‘yinlar nafaqat jismoniy sog‘lomlashtirishga, balki ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ham yordam beradi.
- Motivatsiya va raqobatbardoshlik: Jamoa bilan birgalikda muvaffaqiyatga erishish o‘quvchilarda katta motivatsiya hosil qiladi va ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Jamoaviy o‘yinlar modeli nafaqat o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshiradi, balki ularni jamiyat bilan samarali muloqot qilishga, hamkorlikka va mas’uliyatli bo‘lishga o‘rgatadi.

4. Sog‘lom turmush tarzi modeli (Health-based model)

Jismoniy tarbiya fanida o‘quvchilarga sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga va uni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvidir. Ushbu modelning asosiy maqsadi o‘quvchilarga sog‘lom hayot kechirish uchun kerakli ko‘nikma va bilimlarni o‘rgatish, ularning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini ta’minlashdir. Sog‘lom turmush tarzi modeli faqatgina jismoniy mashqlarga emas, balki to‘g‘ri ovqatlanish, dam olish, gigiyena va zararli odatlardan voz kechish kabi hayotiy muhim jihatlarga ham e’tibor qaratadi. Jismoniy faollikning ahamiyati: Ushbu modelda o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirish va kundalik hayotda jismoniy mashqlarni odatga aylantirishga katta e’tibor qaratiladi. Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarga muntazam mashqlar va sport bilan shug‘ullanishning sog‘liq uchun foydalari

tushuntiriladi. O‘quvchilarga zararli odatlar, masalan, chekish, spirtli ichimliklar iste’moli, nosvoy va boshqa zararli moddalarning sog‘liqqa zararli ta’siri haqida tushunchalar beriladi. Bu orqali o‘quvchilarni zararli odatlardan himoya qilish va ularni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish ko‘zda tutiladi. Ruhiy va ijtimoiy salomatlik: Sog‘lom turmush tarzi modeli faqat jismoniy sog‘liq bilan cheklanib qolmaydi, balki ruhiy va ijtimoiy farovonlikka ham e’tibor beradi. Stress bilan kurashish, emotsional boshqaruv va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish qobiliyatlari shakllantiriladi. Sog‘lom turmush tarzi modeli o‘quvchilarda sog‘lom turmushga oid odatlarni shakllantirish orqali ularning umumiy rivojlanishi va farovonligini ta’minlaydi. Ushbu model orqali o‘quvchilar nafaqat jismoniy jihatdan sog‘lom bo‘lishadi, balki ruhiy va ijtimoiy jihatdan ham o‘zlarini rivojlantiradilar, jamiyatda faol va sog‘lom insonlar bo‘lib yetishadilar.

4. O‘quvchilar tomonidan boshqariladigan model (Student-centered model)

O‘quvchilar tomonidan boshqariladigan model jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil ravishda jismoniy faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish va boshqarishda ishtirok etishiga asoslangan ta’lim modeli hisoblanadi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilarda liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘zini-o‘zi boshqarish va mas’uliyatni his qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Mustaqil qaror qabul qilish: O‘quvchilar o‘yinlar va mashg‘ulotlarning qoidalari, mazmuni va davomiyligi bo‘yicha o‘zlari qaror qabul qiladilar. Bu ularda mustaqil fikrlash va vaziyatlarni boshqarish qobiliyatini shakllantiradi.O‘zini-o‘zi baholash: O‘quvchilar o‘z faoliyatlarini tahlil qilib, natijalarni baholaydilar va keyingi darslar uchun xulosa chiqaradilar. Bu usul ularga o‘z harakatlarini yaxshiroq tushunishga va rivojlantirishga yordam beradi. Mas’uliyat va jamoaviy ishlash: O‘quvchilar mashg‘ulotlar uchun mas’uliyatni bo‘lishib olishadi va bu ularning jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Har bir jamoa o‘z natijalari va yutuqlari uchun mas’uliyatni sezadi, bu esa ularni yanada jipslashtiradi. O‘quvchilar tomonidan boshqariladigan model o‘quvchilarda liderlik, mas’uliyat va mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim modelidir. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishidan tashqari ularni ijtimoiy jihatdan ham shakllantiradi, jamoada ishlash qobiliyatlarini kuchaytiradi va ularni qaror qabul qilishda ishonchliroq qiladi.

5. Tajriba asosidagi o‘qitish modeli (Experiential learning model)

Jismoniy tarbiya fanida tajriba asosida o‘qitish modeli (experiential learning model) o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy tajriba orqali o‘rgatishni maqsad qiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarga real vaziyatlar orqali tajriba orttirishga, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga va o‘rganganlarini amalda qo‘llashga imkon beradi.

Darslarni qiziqarliroq qilish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Interaktiv mashqlar

Gamifikatsiya: O‘yin elementlarini qo‘shish, masalan, ballar, mukofotlar va turnirlar.

Simulatsiyalar: Real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali mashqlarni qiziqarliroq qilish.

2. O‘quvchilarni faollashtirish

Guruh ishlari: O‘quvchilarni jamoalarda ishlashga jalb qilish, muammolarni birgalikda hal qilish.

Rolli o‘yinlar: O‘quvchilarni turli rollarda qatnashishga undash, bu ularning kreativligini oshiradi.

3. Texnologiyalarni qo‘llash

Virtual Haqiqat: VR texnologiyalaridan foydalanish, masalan, virtual sport turlari.

Mobil ilovalar: Jismoniy faoliyatni kuzatish va baholash uchun mobil ilovalarni qo‘llash.

4. Yangi metodlar

Kross-disciplinar yondashuv: Jismoniy tarbiyani boshqa fanlar bilan integratsiya qilish (masalan, matematika yoki san’at).

Interaktiv kurslar: Onlayn platformalarda interaktiv darslar va mashqlar.

5. O‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish tahlil va baholash: O‘quvchilarga o‘z faoliyatlarini tahlil qilish va baholash imkoniyatini berish.

Muzokaralar: O‘quvchilar bilan dars mavzulari bo‘yicha muzokaralar va bahslar o‘tkazish.

6. Yaratilish va kreativlikni rag‘batlantirishshaxsiy loyihalar: O‘quvchilarga o‘zlari qiziqqan mavzularda loyihalar yaratishga imkon berish.

Kreativ mashqlar: Mashqlarni yangi va qiziqarli usullar bilan bajarishga undash.

7. Munosib muhit yaratish

Tashkiliy o‘zgarishlar: Darslar uchun turli muhit yaratish, masalan, ochiq havoda mashqlar yoki maxsus sport zallari.

Motivatsion atrof-muhit: Motivatsion so‘zlar, o‘quvchilarning yutuqlarini tan olish.

8. Sog‘lom raqobat muqobatlari

Sport musobaqalari: O‘quvchilar o‘rtasida do‘stona musobaqalar tashkil qilish.

Raqobatli loyihalar: Jismoniy faoliyat bo‘yicha ijodiy raqobat.

Bu usullar darslarni yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularning faoliyatga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Xulosa:

Har bir modelning darsdagi roli o‘quvchilarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda o‘ziga xos yondashuvni taqdim etadi. An’anaviy model tizimli yondashuvni, qobiliyatlarga asoslangan model individual ehtiyojlarni, jamoaviy o‘yinlar modeli jamoaviy ishlashni, sog‘lom turmush tarzi modeli salomatlikni, o‘quvchilar tomonidan boshqariladigan model esa liderlik va mas’uliyatni rivojlantiradi. Boshqa xususiy modellar innovatsion yondashuvlarni va yangi metodlarni qo‘llash orqali darslarni yangilaydi va rivojlantiradi. Darslarni qiziqarli va samarali qilish uchun interaktivlik, texnologiyalar, yangi metodlar, va o‘quvchilarning faol ishtiroki kabi strategiyalarni qo‘llash muhimdir. Bu yondashuvlar darslarni ko‘proq jalb etuvchi, motivatsiyalovchi va o‘quvchilarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi qiladi. Shuningdek, yaratish va kreativlikni rag‘batlantirish, munosib muhit yaratish va sog‘lom raqobat muqobatlari o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.S.Usmonxo‘jayev, M.B.Aliyev “Bolalar va o‘smirlar sporti mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyatlari” Toshkent “ILM ZIYO”-2006

2. T.Rajabov “Sportning olimpiya turlaridan muntazam shug‘ullanuvchilar, yosh o‘qituvchilar va murabbiylar uchun tavsiya” 2006 y.

3. N.X.Soatov, F.F.Nadjimov “Maktabda jismoniy tarbiya” Toshkent 2015 y.

4. A.K.Ataev, R.A.Belov “Sportivno-massovaya rabota po mestu jitelstva” Tashkent “O‘qituvchi” 1992 y

KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O‘QUVCHILARNING EMOTSIONAL-IRODAVIY SOHANING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Safarova Navbahor Xalimovna,
BXU magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda hissiy kechinmalar juda yorqin tarzda aks etadi. O‘quvchilarning tez ko‘nikuvchanligi va ma`lum darajada ta`sirchanligi, ulardagi ishonuvchanlik, taqlid qilishga moyillik, o‘qituvchining katta obro‘ga ega ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *kichik maktab yoshidagi, pedagogik-psixologik, emotsional-irodaviy, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish.*

Аннотация: *В данной статье ярко отражены эмоциональные переживания детей младшего школьного возраста. Важны быстрота адаптации и в определенной степени впечатлительность учащихся, их надежность, склонность к подражанию, а также наличие у преподавателя хорошей репутации.*

Ключевые слова: *младший школьный возраст, педагогико-психологический, эмоционально-волевой, контроль собственного поведения.*

Abstract: *In this article, the emotional experiences of children of primary school age are vividly reflected. It is important that the students are quick to adapt and to a certain extent impressionable, their trustworthiness, tendency to imitate, and the fact that the teacher has a great reputation.*

Keywords: *primary school age, pedagogical-psychological, emotional-volitional, controlling one's behavior.*

Kirish. Tuyg‘ular noma'lum ob'ekt bo‘lib, ularni his-tuyg‘ular deb tasniflash mumkin emas, chunki ular bir lahzalik hodisadir.Bugungi kunda psixologiyada hissiyotlar sohasida global tadqiqotlar boshlanadi, chunki bu his-tuyg‘ularni yaratishdir.Biz insonning hayot tomonidan taqdim etilgan holatlarga qanday hissiy munosabatda bo‘lishi haqida gapiramiz.Biz xursandmiz, qo‘rqamiz, g‘azablanamiz, deb aytishga odatlanganmiz - bu barcha harakatlar qalbimizning holatini ifodalaydi.Ilgari, hissiy holatlar his-tuyg‘ularga tenglashtirilgan, ammo bu mavzu bo‘yicha so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, his-tuyg‘ular avvalgi holatdir. Avvaliga biz hissiy munosabatda bo‘lamiz, keyin esa hissiyotga ega bo‘lamiz.

“Iroda” termini deganda shaxsning qiyinchiliklarni yengib aniq maqsadni ko‘zlab harakat qilish qobiliyati tushuniladi. Zo‘r iroda bu biror narsani qilishga intilish va unga erisha olishgina emas balki zarur bo‘lib qolganda o‘zini biror narsadan voz kechishga majbur qila olish hamdir. Iroda shunchaki istak va uning qondirilishi emas, balki bu ham istak, ham uni to‘xtatilishi, ayni vaqtda undan voz kechish hamdir. Kishi hayotida irodaning ahamiyati nihoyatda kattadir. Iroda oddiy kundalik hayotda, ayniqsa, katta qiyinchiliklarni yengishga to‘g‘ri keladigan qiyin paytlarda zarur bo‘ladi. Irodaning o‘ziga xos ko‘rinishlari shaxsning tavakkalchilik vaziyatidagi xatti-harakatida ko‘rinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Irodaga motivatsion yondashuv dastavval Aristotel asarlaridan boshlangan. Keyinchalik, fransuz olimi Rene Dekart bu masalani atroflicha o‘rganishga kirishgan. U Aristotel farqli ravishda irodani insonni xatti-harakatlarga undovchilar ruhning xohishi, deb qaraydi va uni reflektorga bog‘liq bo‘lmagan ruhiy hodisa, deb reflektor haqidagi ta’limotni kengaytiradi. Irodaning asosiy vazifasi deb tushuntiradi. Dekart ehtiroslarni jilovlab, tanlangan xatti-

harakatlarni bajarishdan iboratdir, deb ta'kidlaydi. Iroda tashqi narsalar ta'sirida tug'iladi, xohish esa bevosita ruh asosida paydo bo'ladi. Ya'ni ruhning mahsuli. Iroda ehtiroslarga qarshi kurashishi, vujudning ehtirosga qaratilgan harakatlarini tormozlab qo'yishi mumkin. R.Dekart aqlni irodaning quroli deb tushuntiradi va yaxshilik hamda yomonlik to'g'risida qat'iy hukmga ega bo'lgan ruhni kuchli ruh deb hisoblaydi.

Fransuz psixologi Teodol Arman Ribo jonli materiyaning vaziyatda javob berishini oddiy iroda shakliga kiritadi. Iroda asosida deydi u "motivlashtiruvchi kuch sifatida ehtiros va qiziqish yotadi". Irodaning rivojlanishi deb ko'rsatadi Ribo, "bu reflektor reaksiyalardan mavhum (abstrakt) g'oyalarga undovchi, xatti-harakatlarga o'tishdan iboratdir "

Amerikalik psixolog U.Jeyms ishlarida ikki va undan ortiq xattiharakatlar g'oyasi bo'lganda ulardan birini tanlab olish irodaning asosiy vazifalaridan biri deb hisoblaydi.

L.S.Vigotskiy irodani yuksak ruhiy funksiya sifatida talqin etib, uni tarixiy taraqqiyot mahsuli ekanligini, har bir irodaviy akt avvalo ijtimoiy, jamoaviy, umumruhiy, inter psixologik jarayon deb ta'kidlaydi. Irodaning keyingi taraqqiyotini esa u kollektiv faoliyatda ko'radi. Masalan, deydi L.S.Vigotskiy, bola o'yin va o'qish jarayonida boshqalaming buyruq va ko'rsatmalari, o'yin qoidalarini bajarib, o'zini boshqarishga o'rganadi. O'yin haqida K.Levin irodaning mohiyati affektlar va xatti-harakatlarni boshqara olishlikdan iborat deydi. Darhaqiqat, ko'p psixologlar kuchli iroda egalari kam affektga tushadi deb ta'kidlaydilar. L.Vekker irodaning xulq-atvorni tartibga solib turuvchi alohida funksiyasi borligini ta'kidlaydi.

V.I.Selivanov irodani "Odamning o'z xulq-atvorini, ongli tartibga solish qobiliyati", deb ta'riflab buni miyaning tartibga soluvchilik funksiyasidan iborat deydi. [1]

Maktab ta'limi uning turmush tarzi, tartibi, ijtimoiy holati, sinf jamoasi, oila muhitdagi ahvolini o'zgartiradi, bolaning asosiy vazifasi o'qishdan iborat bo'lib qoladi. Yangi bilim, ko'nikma, malakalar egallashdan tabiat va jamiyat to'g'risidagi qonuniyatlarni o'zlashtira boshlaydi. Ta'lim o'quvchidan muayyan darajadagi uyushqoqlikni, intizomlikni, irodaviy zo'r berishlikni, faollikni, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni talab qiladi. Ixtiyorsiz xatti-harakatlar o'rnini anglashilgan rejali, maqsadga muvofiq aqliy mehnat egallay boradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axloqiy onglari I va IV sinfdagi o'qish mobaynida muhim o'zgarishlarga uchraydi va axloqiy sifatlar, bilim va tasavvurlar sezilarli darajada boyiydi va bola o'zini o'zi anglay boshlaydi. U o'ziga xos bolgan yaxshi-yomon xususiyatlarni bilmasa ham, lekin u o'zining «Men»ini his qiladi. O'zining vazifasi, maqsadi, uni bajarish lozimligi, unga berilgan vazifalarni bajarish, takrorlash uning burchi ekanligi kabilarni anglab yetadi.


Axloqiy his-tuyg'ular va shaxsning irodaviy xususiyatlari ham shakllanadi. Boshlanglch sinf o'quvchilarida iroda tarbiyasi tashabbuskorlik, dadillik, o'zini tuta bilish, sabotlilik, chidamlilik, qat'iylik, kamtarlik va intizomlilik kabi irodaviy sifatlarni o'stirish va mustahkamlashdan iboratdir. Iroda tarbiyasi bolalarda yomon sifatlar paydo bo'lishining oldini olish va agar bunday sifatlar paydo bo'lsa, ularni yo'qotishdan iboratdir. Bolalar irodasining salbiy tomonlaridan biri o'ziga ishonmaslikdir. O'ziga ishonmaslik holati o'qish, mehnat, o'yin va shu kabi faoliyatlarda tez-tez qaytarilib turadigan muvaffaqiyatsizliklar tufayli yuzaga keladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilaming his-tuyg'ulari ulaming faoliyatida namoyon bo'ladi va rivojlanadi.Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'zlarining har

bir faoliyat natijalariga baho bera oladilar. Baho kishida qoniqish va qoniqmaslik hislarini yuzaga keltirishi mumkin bo‘lib, bu hislar bolani yaxshi o‘qishga ruhlantiradi. Ba’zan past baho olish orqali yuzaga kelgan salbiy hislar chuqurlashib, o‘qituvchining noto‘g‘ri reaksiyasi va kattalaming doimiy tanbeh va tanqidlari oqibatida bolaning xarakter xislatiga aylanib qolishi mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining faoliyatlari uchun ijobiy baho olishlariga yordam beruvchi asosiy hislardan biri intellektual hislardir. Odamning aqliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan hislar intellektual hislar deb ataladi. Bilishga qiziqish, taajjublanish. Va hayron qolish hislari, ishonch, ishonchsizlik va shubhalanish hislari intellektual hislar qatoriga kiradi. [2]

Kichik maktab o‘quvchilarning irodaviy fazilatlarining rivojlanish darajasini aniqlash uchun T.I. Shulgi so‘rovnomasidan foydalanildi. Sinf o‘qituvchilari va ota-onalardan har biri o‘quvchi uchun tegishli ustunga " + " belgisini qo‘yish orqali sifat rivojlanish darajasini ko‘rsatadigan anketani to‘ldirish taklif qilinadi.

Kichik maktab o‘quvchilarda irodaviy fazilatlarning rivojlanish darajasini o‘rganish natijalari maktab o‘quvchilari 1-rasmda aks ettirilgan.



1-rasm- Kichik maktab o‘quvchilarda irodaviy fazilatlarning rivojlanish darajasi.

1-rasmda keltirilgan natijalarni tahlil qilish bizga quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining ixtiyoriy fazilatlarini rivojlantirish darajasiga oid xulosa.

Intizom xulq-atvorni talablarga bo‘ysundirish sifatida, kattalar tomonidan ilgari surilgan qoidalar 1-sinf o‘quvchilarida kam rivojlangan (1,3), 4-sinf o‘quvchilari uchun-o‘rtacha (1.5) ball. Qat'iylik, boshlangan ishni oxirigacha yetkaza olish qobiliyati sifatida , ishning uzoq muddatli bajarilishi 1-sinf o‘quvchilari past darajada (1,2), 4 – sinf o‘quvchilari o‘rtacha darajasi (1,9). Harakat, hissiyotlarni sekinlashtirish qobiliyati sifatida chidamlilik, qabul qilingan qarorning amalga oshirilishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar 1-sinf o‘quvchilari past darajada (1,1), 4-sinf o‘quvchilari ham past daraja (1,3). Belgilangan maqsaddan tezda o‘tish qobiliyati sifatida qat'iyatlilik 1-sinf o‘quvchilarida o‘rtacha (2,2), 4-o‘quvchilarda rivojlangan sinflar yuqori darajada (2,6). Jasorat hayot, sog‘liq uchun xavf bilan harakat qilish qobiliyati sifatida 1-sinf o‘quvchilarida past darajada (1,1), 4-sinf o‘quvchilarida esa o‘rtacha (1,9). Mustaqillik, harakatni bajarmasdan bajarish qobiliyati sifatida tashqi yordam, o‘zingizni boshqarish qobiliyati va xulq-atvori va xatti-harakatlari uchun javobgar bo‘lish 1-sinf o‘quvchilarida rivojlangan past (1,4), 4 – sinf o‘quvchilari o‘rtacha (1,7).

Tashkilot, mehnatsevarlik, rejaga muvofiq ishlash qobiliyati sifatida, belgilangan maqsadlarni rejalashtirish va aniq bajarish, ularni oxirigacha yetkazish, 1-sinflarda ishlab chiqilgan kattalarning barcha koʻrsatmalariga aniq va aniq rioya qiling sinf darajasi (1,3), 4-sinf oʻquvchilari ham past darajada (1,4). Ishchanlik, oʻz ishini shunday tashkil qilish qobiliyati sifatida buni aniq belgilangan vaqtda bajaring, 1-sinf oʻquvchilarida ishlab chiqilgan past (1,2), 4 – sinf oʻquvchilari ham past (1,5). Tashabbuskorlik, oʻz oldingizga yangi vazifalar qoʻyish qobiliyati sifatida va ularni amalga oshirish, 1-sinf oʻquvchilarida past darajada rivojlangan (1,2), 4-sinf oʻquvchilari-oʻrta darajada (1,9). Maqsadga intilish, maqsadga uzoq vaqt rioya qilish qobiliyati sifatida, qiyinchiliklarni yengish, 1-sinf oʻquvchilarida past darajada rivojlangan (1,4), 4-sinf oʻquvchilari oʻrta darajada (1,8). Tirishqoqlik, oʻquv ishlarini bajarishda toʻplanish sifatida,aniqlik, tirishqoqlik, 1-sinf oʻquvchilarida yuqori darajada rivojlangan (2,2), 4-sinf oʻquvchilari uchun-oʻrtacha (1,6).

Shunday qilib, irodaviy fazilatlarning rivojlanishini oʻrganish natijasida kichik maktab oʻquvchilaridan, yani 1-sinf oʻquvchilaridan aniqlandi intizomning past darajada rivojlanishi bilan tavsiflanadi, qat'iyatning rivojlanish darajasi past,qat'iylikning rivojlanish darajasi, past chidamlilik, oʻrta daraja qat'iylikni rivojlantirish, jasoratning past rivojlanish darajasi, past mustaqillik, past tashkilotchilik, kam ishchanlik, tashabbuskorlikning past rivojlanish darajasi, fidoyilik past darajasi, mehnatsevarlikning yuqori darajasi.

4-sinf oʻquvchilari oʻrtacha rivojlanish darajasiga ega intizom, qat'iyatlilikning oʻrtacha rivojlanish darajasi, past chidamlilik, qat'iyatlilikning yuqori darajasi, oʻrta daraja jasoratni rivojlantirish, mustaqillikning oʻrtacha rivojlanish darajasi, past tashkilotchilik, past samaradorlik, oʻrtacha rivojlanish darajasi tashabbuskorlik, maqsadga muvofiqlikning oʻrtacha rivojlanish darajasi, oʻrtacha tirishqoqlikning rivojlanish darajasi namoyon qiladi.

Xulosa qilib aytilganda iroda – shaxsning harakatini ifodalaydigan ruhiy jarayon. Mustaqil - oʻzining asosli fikriga ega boʻlish. Chidam – shaxsning yuqori darajadagi irodaliligi. Qat'iyat – oʻz qarorlarida sobiqqadam boʻlish. Abuliya - irodasizlikning yuqori koʻrinishi hisoblanadi. Maqsad - shaxsni biror sohaga undovchi xolat. Natija-harakat tufayli erishilgan yutuq. Irodaning shakllanishi birinchi navbatda ota-onaga bogʻliq. Bolada ongli intizomni shakllantirish tarbiyaning muhim shartlaridan biridir. Irodaviy fazilatlarni rivojlantirish intizomning zaruriy sharti boʻlib, u xulq-atvor qoidalariga rioya qilish zarurligini tushunishga yordam beradi, shuningdek, oʻz xohishistaklarini tartibga soladi. Irodaviy sifatlarni tarbiyalashda maktab muhim oʻrin tutadi. U bolaga bir qator talablarni qoʻyadi, ularsiz maktabda oʻqish mumkin emas, u bolaning intizomini shakllantiradi. Oʻqituvchi bolaning irodaviy fazilatlari, shuningdek, turli axil xususiyatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Bolalar koʻpincha oʻqituvchining xatti-harakatlariga taqlid qilishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya. oʻquv qoʻllanma. - T.: "Barkamol fayz media", 2018.
2. Z. T. Nishanova Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya /darslik/. Toshkent: "Inuovatsiya-Ziyo", 2020, 418 bet.
3. E Gʻoziyev.Ontogenez pslxologiyasi/darslik /.Tosbkent:"NIF MSH", 2020.
4. Nishanova, Z.T.Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya :darslik 2018 yil

MAKTABGACHA TA’LIMTDA BOLALARNI KOGNITIV RIVOJLANISHNI QO‘LLAB-QUVVATLASHDA SINGAPUR TAJRIBASI

Mirzayeva Hulkar,
Karmana tuman 23-DMTT direktor o‘rinbosari

Annotatsiya. *Maktabgacha ta’lim sohasida bolalarning individual imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ularda mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, muammoni hal qilish va ijodiy ifoda qilish kompetensiyalarini shakllantirish uchun an’anaviy o‘qitish metodlari yetarli emas. Shu sababli zamonaviy ta’limda faol, integratsiyalashgan va bolani markazga qo‘yuvchi metodik yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababdan zamonaviy yondashuvlarni amalga oshirish juda muhim. Zamonaviy yondashuvlarni tashkil etish maqsadida xorijiy tajribalarni o‘rganish va uni amaliyotga joriy etish pedagoglar oldida turgan eng muhim vazifalarimizdan biridir.*

Kalit so‘zlar: *kognitiv, zamonaviy yondashuv, metod, CPA modeli, Aniq bosqich, rasmli va mavhum bosqichlar.*

Ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan turfa xil usullar ya’ni metodlar mavjud. Pedagog qay uslubda ta’limiy faoliyatni olib bormasin maqsadiga yetish imkonini izlaydi, bu borada, ta’lim metodlari va innovatsion metodlardan foydalanadi. Ta’lim metodlari shu vaqtga qadar o‘zining samarasini ko‘rsatib kelmoqda va zamon pedagoglari yangicha uslubda ta’limiy jarayonni o‘tib yanada yaxshi natijalar olishga intilmoqdalar. Shuningdek innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqdalar. Innovatsion faoliyatda pedagogik yangiliklar: o‘qitishning yangi usul va metodlarining yaratilishi va qo‘llanishi o‘quv jarayonining samarali va sifatli tashkil etilishini yaratib beradi.

Pedagogikada metod – pedagog va ta’lim oluvchining (bolaning) ma’lum ta’lim-tarbiyaviy natijasi: bilimlarni egallash, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, qobiliyatlarni o‘stirish, axloqiy sifatlar, xulq odatlarni shakllantirishga erishish uchun yo‘llangan hamkorlikdagi faoliyatining usulidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni turli faoliyatlarni o‘tkazish jarayonida turli metodlardan, zamonaviy hamda xorijiy usul va uslublarni o‘rganish va amaliyotga joriy etish muhim.

So‘ngi yillarda Singupar davlatining o‘quv dasturlarini o‘rganish va amaltiyotga tadbiq etish orqali bir qancha amaliy ishlar olib borilmoqda. Singupar davlatida maktabgacha ta’limda bolalarni aqliy qobiliyatini rivojlantirishda qo‘yidagi CPA modelidan foydalanilar ekan.

CPA modeli (Concrete–Pictorial–Abstract): bosqichli o‘qitish yondashuvi. Primary Mathematics Grade K – bu Singapurda ishlab chiqilgan va dunyo miqyosida o‘z samarasini isbotlagan dastur bo‘lib, u bolalarda matematik tafakkurni rivojlantirishni chuqur anglashga asoslaydi. Dastur shunchaki hisob kitob qoidalarini yodlash emas, balki matematik tushunchalarni tushunish, ular orasidagi munosabatlarni aniqlash, real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga urg‘u beradi.

CPA modeli (Concrete–Pictorial–Abstract): bosqichli o‘qitish yondashuvi Dastur ta’lim-tarbiya berishning CPA (Concrete–Pictorial–Abstract) modeli asosida tashkil etilgan. Bu yondashuv, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tabiiy va moslashtirilgan metodik ketma-ketlikdir:


Concrete (Aniq bosqich) – bu bosqichda bolalar turli predmetlar (kublar, tayoqchalar, hisob toshlari, figuralar) yordamida matematik tushunchalarni qo’l bilan

ushlab, amaliy faoliyat orqali o'rganadilar. Bu, ayniqsa, yosh bolalarning konkret tafakkuri ustuvor bo'lgan davrda eng samarali usul hisoblanadi.

Pictorial (Rasmli bosqich) – bu bosqichda bolalar konkret predmetlar o'rniga ular tasvirini ishlatadilar (masalan, suratlar, diagrammalar, chizmalar). Bu bosqich, bolani aniq shakllardan mavhum fikrlashga o'tkazuvchi oraliq pog'ona hisoblanadi. Piktorial model bolalarning fazoviy tafakkurini va ko'rish asosidagi tushunishni mustahkamlaydi.

Abstract (Mavhum bosqich) – bu bosqichda bolalar matematik belgilar va ifodalar (raqamlar, formulalar, amallar belgisi) yordamida masalalarni mustaqil yechish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Bu yuqori darajadagi matematik tafakkurni ifodalaydi va bolalarning muammoli vaziyatlarda matematik bilimlarni qo'llashga tayyorligini namoyon etadi.


Aniq-rasmli-mavhum (ARM) usuli bolalarga raqamli tushunchalarni tushunishni rivojlantirishga yordam beradigan jismoniy va ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda o'quv Faoliyatlarini rejalashtirish uchun asos yaratadi. Quyidagi misol CPA yondashuvidan foydalangan holda '5' raqamini o'rgatishni aks ettiradi:



Miqdor tushunchalari mavhum bo'lganligi sababli, Aniq-rasmli-mavhum (ARM) yondashuvi quyidagilarni ta'minlaydi. Pedagoglarga tarqatma resurslar yordamida o'quv jarayonini rejalashtirishga yordam beradigan tuzilma hisoblanadi.Bolalarda miqdor tushunchasini Aniq-rasmli-mavhum (ARM) yondashuvi asosida o'rgatish taklif etilgan.

Shuningdek,

-CPA yondashuvidan foydalangan holda "9" raqamini o'rgatishni



Maktabgacha ta’lim sohasida bolalarning individual imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ularda mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, muammoni hal qilish va ijodiy ifoda qilish kompetensiyalarini shakllantirish uchun an’anaviy o‘qitish metodlari yetarli emas. Shu sababli zamonaviy ta’limda faol, integratsiyalashgan va bolani markazga qo‘yuvchi metodik yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Quyida kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga joriy etishda eng samarali hisoblangan ilg‘or pedagogik yondashuvlar yoritiladi:

1.Faoliyatga asoslangan yondashuv: Bu yondashuvga ko‘ra, bola o‘rganuvchi emas, faol ishtirokchi hisoblanadi. Bilimlar bevosita o‘z tajribasi, harakati, sinashi, kuzatuvi orqali shakllanadi. Har bir ta’limiy faoliyat bolaga amaliy harakat qilish, fikr yuritish va muammoni hal qilish imkonini beradi. Didaktik o‘yinlar: ―Nimani farqlading?, ―Ketma-ketlikni joylashtir, ―Kim topadi?

2.Multimodal yondashuv (ko‘rish-eshitish-harakat integratsiyasi): Bolalarning bilimni o‘zlashtirishi uchun turli sezgi kanallari orqali axborot olish muhim. Multimodal o‘qitish – ko‘rish (vizual), eshitish (auditiv), teginish-harakat (kinestetik) vositalar yordamida o‘rganishni anglatadi. Masalan: Shaklni nomlashda: rasmni ko‘radi, nomini eshitadi, plastilindan yasaladi.

3. STEAM yondashuvi elementlari: STEAM – Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Arts (san’at), Mathematics (matematika) integratsiyasiga asoslangan ta’lim modelidir. Bu yondashuv orqali bolalarda tahlil qilish, modellashtirish, sinov va ijodiy fikrlash rivojlanadi. Misollar: Loyiha faoliyati: ―Men uy qurdim‖ – qurilish bloklari bilan, rasmini chizish, vazifasini aytish va

4. Refleksiya (fikrga qaytish va tahlil qilish): Bolaning o‘z tajribasiga, faoliyatiga natijaga nisbatan munosabat bildirish ko‘nikmasi – kompetensiyalarning shakllanishi uchun muhimdir. Refleksiya jarayoni ta’limiy faoliyat oxirida, faoliyatdan keyin o‘tkaziladi. Refleksiya usullari: ―Qanday his qilding?‖ ―Nimaga erishding?‖ ―Yana qanday qilgan bo‘larding?‖ ―Senga nima yoqdi, nima qiyin bo‘ldi?‖ Rangli kartochkalar: yashil (o‘xshadi), sariq (urindim), qizil (yana sinab ko‘raman).

5. Differensial va individual yondashuv: Har bir bola noyobdir: bilimni o‘zlashtirish sur’ati, qiziqishlari, qiyinchiliklari turlicha. Shuning uchun ta’limiy faoliyatlar bir xil uslubda barcha uchun emas, balki har bir bolaning rivojlanish darajasiga moslab taklif qilinishi kerak. Kam faol bolalar uchun: vizual vositalar, ko‘rsatib berish, erkin vaqt. Faol bolalar uchun: murakkabroq topshiriqlar, muammo yechish, erkin javob imkoniyati.

Maktabgacha yoshda bolalarga elementar matematik tushunchalarni shakllantirishda pedagoglar quyidagilarga e’tibor qaratishlari zarur:

• Kundalik tajribalarda elementar matematik tushunchalari va ko‘nikmalarini o‘rganish va ulardan foydalanishdan zavqlaning.

• Munosabatlar va mosliklarni tushunish.

• Hisoblash ko‘nikmalarini va miqdorni his qilishni rivojlantirish.

• Asosiy shakllar va fazoviy tushunchalarni tushunish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Internet manbalari.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM DARS JARAYONLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Saidova MohiraKamolovna,
Pulatova Barchinoy Yusupovna,
G‘ozg‘on shahar 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilari

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida interfaol usullardan foydalanishning afzalliklari yoritilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun dars jarayonini samarali tashkil etishda an’anaviy uslublar va interfaol metodlarning o‘rni beqiyosdir. Bolalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy tafakkuri, nutqiy faolligi va muloqot madaniyati rivojlanadi. Guruhli ishlar, rolli o‘yinlar, bahs-munozaralar va turli interaktiv texnologiyalar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli, samarali va mazmunli qiladi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda interfaol usullardan foydalanish bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Abstract. This article highlights the advantages of using interactive methods in primary education. The role of traditional methods and interactive methods in the effective organization of the teaching process for primary school students is incomparable. Children's independent thinking, creative thinking, speech activity and communication culture are developed. Group work, role-playing games, discussions and various interactive technologies make the learning process of students interesting, effective and meaningful. Therefore, the use of interactive methods in primary education is one of the most urgent tasks today.

Аннотация. В данной статье рассматриваются преимущества использования интерактивных методов в начальном образовании. Роль традиционных методов и интерактивных методов в эффективной организации процесса обучения учащихся начальной школы несравнима. Развиваются самостоятельность мышления, творческое мышление, речевая активность и культура общения детей. Групповая работа, ролевые игры, дискуссии и различные интерактивные технологии делают процесс обучения учащихся интересным, эффективным и содержательным. Поэтому использование интерактивных методов в начальном образовании является одной из актуальных задач сегодня.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, interfaol metodlar, dars samaradorligi, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur, muloqot madaniyati, guruhli ish, rolli o‘yin, bahs-munozara, nutqiy faollik, ta’lim texnologiyalari, pedagogik yondashuv, faol ishtirok, tarbiyaviy ahamiyati.

Keywords: Primary education, interactive methods, lesson effectiveness, independent thinking, creative thinking, communication culture, group work, role-playing, debate, speech activity, educational technologies, pedagogical approach, active participation, educational significance.

Ключевые слова: Начальное образование, интерактивные методы, эффективность урока, самостоятельность мышления, творческое мышление, культура общения, групповая работа, ролевая игра, дебаты, речевая деятельность, образовательные технологии, педагогический подход, активное участие, образовательная значимость.

“Yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual salohiyatga ega insonlar qilib tarbiyalash – ta’limning bosh maqsadidir”
Sh.M. Mirziyoyev

Bugungi kunda ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, o‘quvchilarni faollikka chorlaydigan, mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkurni rivojlantiradigan usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich ta’limda dars jarayonini qiziqarli, samarali va mazmunli tashkil etish uchun interfaol metodlardan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Chunki interfaol usullar o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, uning darsdagi qiziqishi va motivatsiyasini oshiradi. Boshlang‘ich ta’lim — inson kamolotining ilk poydevorini qo‘yadigan eng muhim bosqichdir.

Bu davrda o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi shakllanadi. Boshlang‘ich sinflarda dars jarayonini samarali tashkil etish o‘qituvchidan yuksak mahorat talab qiladi.An’anaviy dars usullari o‘quvchilarga faqat bilim berishga qaratilgan bo‘lsa, interfaol usullar ularni faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi. Interfaol metodlar dars jarayonini qiziqarli, samarali va mazmunli qiladi. O‘quvchilar o‘qituvchining faqat tinglovchisi emas, balki suhbatdoshi va hamkoriga aylanadi.Bu esa ta’limning sifat va samaradorligini oshiradi. Shu sababdan ham zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol usullardan keng foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual salohiyatga ega insonlar qilib tarbiyalash – ta’limning bosh maqsadidir.”Bu fikr boshlang‘ich ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish zarurligini yanada kuchaytiradi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faol, qiziquvchan va serg‘ayrat bo‘ladilar. Ularning dars jarayoniga faol jalb etilishi ularning bilimini mustahkamlaydi. Interfaol usullar o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi.Ular mustaqil fikr bildiradilar va o‘z nuqtai nazarlarini himoya qiladilar.Shuningdek, bu metodlar o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytiradi.Guruhli ishlarda ular bir-birini tinglashni o‘rganadilar.O‘z fikrini ifodalash, dalillar bilan asoslash va boshqalarning fikrini hurmat qilish madaniyati shakllanadi.Bu esa o‘quvchilarning ijtimoiy hayotda faol bo‘lishiga yordam beradi.Interfaol usullar nutqni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.O‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqni ravon va aniq shakllantiradilar. Boshlang‘ich ta’limda qo‘llaniladigan interfaol metodlarning turlari ko‘p. Masalan, “Aqliy hujum”, “Insert”, “Klaster”, “Blits-so‘rov”, “Munozara” va boshqa metodlar.Ularning barchasi o‘quvchilarning faolligini oshiradi

Dars jarayonini zerikarli bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi.O‘quvchilar darsni zavq bilan o‘rganadilar.

Bu metodlarning tarbiyaviy ahamiyati ham kattadir.Ular orqali o‘quvchilar o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, hamkorlik kabi qadriyatlarga rioya qiladilar.Shuningdek, interfaol metodlar ijodkorlikni rivojlantiradi.O‘quvchilar topshiriqlarda yangi g‘oya va yondashuvlarni qo‘llaydilar.Bu ularning tafakkurini kengaytiradi va ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqaradi. Topshiriqlarni bajarishda tashabbus ko‘rsatadilar.Bu esa ularda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, interfaol metodlar orqali o‘quvchilar real hayotiy vaziyatlarga tayyorlanadilar.

Masalan, muammoli vaziyatni hal qilishni o‘rganadilar. Boshqalar bilan hamkorlikda ishlashni o‘zlashtiradilar. Har bir dars ular uchun yangi tajribaga aylanadi. Shu jihatdan interfaol metodlar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Ularning afzalliklari dars samaradorligida yaqqol ko‘rinadi.

Zamonaviy ta’limda o‘qituvchi bilim manbai emas, balki yo‘naltiruvchi sifatida namoyon bo‘ladi.Interfaol usullar orqali o‘qituvchi o‘quvchilarga bilim olish yo‘lini ko‘rsatadi.O‘quvchilar esa o‘zlari bilim olish jarayonida faol qatnashadilar. Bu esa

bilimlarning yanada mustahkam bo‘lishini ta’minlaydi.O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida sog‘lom hamkorlik vujudga keladi.Buning natijasida ta’lim-tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikka erishiladi.

Demak, boshlang‘ich ta’lim darslarida interfaol metodlardan foydalanish nafaqat dolzarb, balki zarur hamdir.Bu usullar orqali o‘quvchilar mustaqil, ijodiy va faol shaxs sifatida shakllanadilar.Ular kelajakda jamiyatda munosib o‘rin egallash uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.Shu sababli interfaol usullar boshlang‘ich ta’lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik kabi kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. An’anaviy dars usullari asosan o‘qituvchi markazida tashkil etilsa, interfaol metodlar o‘quvchilarni ham dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Bu esa ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. Interfaol metodlarning o‘rni shundaki, ular o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni dars davomida faol bo‘lishga undaydi. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Blits-so‘rov”, “Rol o‘ynash”, “Debat” kabi metodlar o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, darsni jonli va qiziqarli qiladi. Shuningdek, interfaol metodlar yordamida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi, mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlardan foydalanishning dolzarbligi yanada ortib bormoqda. Chunki ta’lim jarayoni oldiga qo‘yilayotgan yangi talablar — o‘quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi, mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllantirishni taqozo etmoqda. **Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev** ham ta’lim-tarbiyaga oid nutqlarida yosh avlodni mustaqil fikrlashga o‘rgatish eng muhim vazifa ekanini ta’kidlab kelmoqda.Shu bois, interfaol metodlar boshlang‘ich ta’limda nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy maqsadlarga erishishda ham muhim vosita hisoblanadi. Ularning qo‘llanishi dars samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarni faol, bilimli va ijodkor shaxslar qilib tarbiyalaydi. An’anaviy dars usullarida asosan o‘qituvchi markazda turadi, u o‘quvchilarga tayyor bilimlarni beradi va ular bu bilimlarni yodlab olishga harakat qiladilar. O‘quvchilar passiv tinglovchi sifatida qatnashadilar, ko‘pincha faqat savollarga qisqa javob berish yoki yozma mashqlarni bajarish bilan chegaralanadilar. Natijada, ularning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va hamkorlik ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmaydi.Interfaol metodlarda esa o‘quvchi dars jarayonining markazida turadi. O‘qituvchi esa yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va hamkor sifatida faoliyat yuritadi. O‘quvchilar muhokama, bahs, guruhli ishlar, savol-javob, rolli o‘yinlar orqali o‘z bilimlarini mustaqil izlaydilar va o‘zlashtiradilar. Bu esa bilimlarning yanada mustahkam va hayotiy bo‘lishiga xizmat qiladi.Interfaol metodlarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- O‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida dars jarayoniga jalb etadi.
- Mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.
- O‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantiradi, og‘zaki va yozma ifodani boyitadi.
- Guruhli ishlar orqali hamkorlik va muloqot madaniyatini rivojlantiradi.
- Darsni qiziqarli qiladi, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi.
- Ta’limiy maqsad bilan bir qatorda tarbiyaviy maqsadlarga ham erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlar an’anaviy usullardan farqli ravishda o‘quvchini bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi va faol ishtirokchiga aylantiradi.

Bu esa boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki shaxsiy sifatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.N. Azizxo‘jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006 y
2. S.A. Madyarova va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: iqtisod-moliya, 2009, 240 b.
3. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2013 y. -279 bet.
4. G‘ofurov, S.X. (2012). *Pedagogik texnologiyalar va metodlar*. Toshkent: O‘qituvchi.

INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV MASHQLARDAN FOYDALANISH

Rizayeva Gulasal Mizrob qizi,
BuxDu magistranti, Navoiy viloyat Qiziltepa tumani 2-umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qtuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola turli xil o‘quv muhitida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan amaliy strategiyalarga e'tibor qaratib, ingliz tilida gapirishni rivojlantirishning turli usullarini o‘rganadi. Tadqiqot mavjud adabiyotlarni tahlil qiladi, samarali metodologiyalarni taqdim etadi va turli yondashuvlarning natijalarini muhokama qiladi. Maqsad o‘qituvchilar va o‘quvchilarga ingliz tilida gapirish qobiliyatini oshirish bo‘yicha tushunchalarni berishdir.

Kalit so‘zlar*: Ingliz tilida gapirish qobiliyatlari, tilni rivojlantirish, aloqa strategiyalari, til o‘rganish usullari, ravon gapirish, tilni bilish, og‘zaki muloqot. Ingliz tilida ravon gapirish shaxsiy va professional muloqot uchun zarur bo‘lgan tilni bilishning asosiy tarkibiy qismidir.*

Ingliz tili global lingua franca bo‘lgani uchun, uni samarali gapirish qobiliyati ko‘plab imkoniyatlar uchun eshiklarni ochishi mumkin. Biroq, kuchli nutq qobiliyatlarini rivojlantirish grammatika va so‘z boyligini tushunishdan ko‘proq narsani talab qiladi; bu turli xil til ko‘nikmalarini, shu jumladan tinglash, talaffuz va madaniy ongni birlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Ushbu maqola ingliz tilida nutq qobiliyatini rivojlantirishning eng samarali usullarini o‘rganishga qaratilgan. Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish va turli yondashuvlarni muhokama qilish orqali ushbu tadqiqot turli darajadagi o‘quvchilar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan amaliy strategiyalarni taklif qilishga intiladi.

Og‘zaki ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirishga amaliyot, suvga cho‘mish va faol o‘rganishni birlashtirgan holda turli usullar orqali murojaat qilish mumkin. Mana ba’zi samarali strategiyalar:

Muntazam Nutq Amaliyoti

- Til almashish bo‘yicha sheriklar: ona tilida so‘zlashuvchilar yoki boshqa o‘quvchilar bilan gaplashishni mashq qilish uchun til hamkorini toping yoki til almashish platformalariga qo‘shiling (masalan, Tandem yoki HelloTalk).

- Suhbat klublari: ingliz tilida so‘zlashadigan klublar yoki guruhlarga shaxsan yoki onlayn tarzda qo‘shiling, bu erda siz muntazam suhbatlar qilishingiz mumkin.

- Rolli o‘yin: kundalik vaziyatlarda ishonchni mustahkamlash uchun umumiy stsenariylarni (masalan, ovqatga buyurtma berish, yo‘l-yo‘riq so‘rash) mashq qiling. Texnologiyadan Foydalanish

- Til o‘rganish ilovalari: Duolingo, Babbel yoki Rosetta Stone kabi nutq qobiliyatiga qaratilgan ilovalardan foydalaning.

- Nutqni aniqlash vositalari: talaffuzni mashq qilish va tezkor fikrmulohazalarni olish uchun Google Translate yoki nutqni aniqlaydigan ilovalar kabi vositalardan foydalaning. Mahalliy tarkibni tinglash

- Podkastlar va Audiokitoblar: turli xil aksanlar va nutq uslublariga ko‘nikish uchun muntazam ravishda inglizcha podkastlarni yoki audiokitoblarni tinglang.

- Filmlar va teleshoular: tinglash va tushunish qobiliyatini oshirish uchun filmlarni yoki teledasturlarni ingliz tilida subtitrsiz (yoki dastlab inglizcha subtitrlar bilan) tomosha qiling. Yozib olish va o‘z-o‘zini baholash

- Gapirayotganingizni yozib oling: turli mavzularda gaplashayotganda ovozingizni yozib oling. Yaxshilash uchun joylarni aniqlash uchun yozuvlarni tinglang.

- Ona Tili bilan Solishtiring: talaffuz, stress va intonatsiyani sozlash uchun yozuvlaringizni ona tili bilan Solishtiring. Ishonch bilan gapirish

- Ommaviy nutq: ishonch va artikulyatsiyani yaxshilash uchun taqdimot qilish yoki Toastmasters klubiga qo‘shilish kabi ommaviy nutq imkoniyatlarida ishtirok eting. - Ingliz tilida o‘ylang: ona tilingizdan tarjima qilish o‘rniga fikringizni ingliz tilida o‘ylashga o‘rgating. Bu ikkilanishni kamaytiradi va ravonlikni yaxshilaydi. Talaffuzni o‘rgatish

- Fonetika amaliyoti: ingliz tilidagi fonetik tovushlarni o‘rganing va ravshanlikni oshirish uchun ularni mashq qiling.

- Talaffuz kamaytirish kurslari: talaffuz kamaytirish darslari olib yoki onlayn darslarda talaffuz tayyorlash qaratilgan quyidagi tushunmoq. Interaktiv faoliyat bilan shug‘ullanish

- Munozaralar va munozaralar: argumentli va ishonarli nutqni mashq qilish uchun turli mavzularda munozaralar yoki guruh muhokamalarida qatnashing.

- Interaktiv til o‘yinlari: so‘z birikmasi o‘yinlari yoki hikoya qilish kabi nutqni o‘z ichiga olgan til o‘yinlarini O‘ynang. Ona tilida so‘zlashuvchilarning fikri

- Repetitorlik mashg‘ulotlari: Real vaqt rejimida konstruktiv fikr bildira oladigan va xatolarni tuzata oladigan ona tili o‘qituvchisi bilan ishlash.

- Tilga cho‘mish: iloji bo‘lsa, ingliz tilida so‘zlashadigan muhitga sho‘ng‘ing, bu erda siz har kuni tildan foydalanishga majbur bo‘lasiz. Izchillik va sabr

- Kundalik mashg‘ulot: har kuni ma'lum bir vaqtni, hatto bir necha daqiqaga bo‘lsa ham, gapirishni mashq qilishga bag‘ishlang.

- Sabr va matonat: ravonlik vaqt talab qilishini tushuning. Muvaffaqiyatingizga sabr qiling va muntazam ravishda mashq qiling. Ushbu usullarni birlashtirish ingliz tilida ravon va ishonchli gapirishdagi muvaffaqiyatingizni tezlashtirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilida gapirish qobiliyatini rivojlantirish ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Hech bir usul barcha o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondira olmaydi, ammo vazifalarga asoslangan o‘rganish, kommunikativ tillarni o‘qitish, texnologiya integratsiyasi va suvga cho‘mish kombinatsiyasi keng qamrovli til o‘rganish tajribasini yaratishi mumkin. O‘qituvchilar ushbu usullarni o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirishi, ravonlik va aniqlikni hal qiladigan muvozanatli yondashuvni ta'minlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Johnson, K. E. The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education. // TESOL Quarterly., – London., 2006.
2. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London., 2001.
3. Galskova, N. D. Theory of learning a foreign language. Language didactics and methods: study guide. Linguistic un-tov and fac. in. spring university ped. study plant / N.D. Galskova, N.I. Gez. – Moscow: Izdatelsky center "Akademiya", 2006. – 336 p.
4. Салиева З.И. Говорение и его роль в практическом овладении иностранным языком // Проблемы современного образования. – 2015. – №5.

TASVIRIY SAN’ATDA ART - PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Ilyasova Umida Azizovna,
Tasviriy san’at o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tasviriy san’at sohasida art-pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning nazariy asoslari va amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida san’at vositalaridan foydalanishning o‘quvchilarning estetik didi, ijodiy tafakkuri hamda shaxsiy rivojiga ta’siri ilmiy asosda tahlil etilgan. Art-pedagogika metodlarining afzalliklari, innovatsion yondashuvlar, shuningdek, ularni qo‘llashda uchraydigan muammolar va ularning yechimlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, art-pedagogika, texnologiya, innovatsiya, ijodiy tafakkur, estetik tarbiya, metodika*

KIRISH: Hozirgi kunda ta’lim tizimida yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda faqatgina nazariy bilimlarni berish emas, balki o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, estetik did, yangicha qarashlar va mustaqil yondashuvlarni shakllantirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Shunday yondashuvlardan biri bu — art-pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga qo‘llashdir. Art-pedagogika mohiyatan san’at vositalari orqali o‘quvchining dunyoqarashini kengaytirish, o‘z fikrini erkin ifodalashga undash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ayniqsa, tasviriy san’at ta’limida ushbu texnologiyalar o‘quvchilarni rang, shakl, kompozitsiya va obrazlar bilan ishlash jarayonida faol ishtirok etishga jalb qiladi. Shu orqali ular nafaqat chizish mahoratini egallaydi, balki san’at asarlarining ichki mazmunini anglash, o‘z hissiyotlarini badiiy vositalar bilan ifodalash, voqelikka san’at nuqtayi nazaridan qarash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bugungi globallashuv sharoitida zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan art-pedagogik yondashuvlar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Virtual galereyalar, raqamli tasviriy san’at dasturlari, interaktiv mashg‘ulotlar o‘quvchilarni san’atga yanada yaqinlashtirib, ularning qiziqishini orttiradi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarimiz, tarixiy va madaniy merosimizni san’at vositalari orqali yosh avlodga yetkazish imkoniyati ham kengaymoqda. Tasviriy san’at darslarida art-pedagogik texnologiyalardan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning badiiy didini shakllantiradi, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki san’at insonning ruhiy dunyosiga bevosita ta’sir qiladigan qudratli vositadir. Shu bois, ushbu yondashuvni o‘quv jarayonida samarali qo‘llash kelajakda ijodkor, estetik didga ega, ma’naviy yetuk shaxslarni voyaga yetkazishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Art-pedagogika tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanila boshlagan. Bu yo‘nalish san’at vositalarini

o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarda qo‘llashni nazarda tutadi. Masalan, rus psixologi L. S. Vygotskiy o‘zining “Psixologiya iskusstva” asarida san’atning inson tafakkuri va ruhiy rivojlanishiga ta’sirini chuqur tahlil qilib, uning ta’lim jarayonida qo‘llanishi shaxs kamolotiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlagan [1]. Shuningdek, mashhur pedagog K. D. Ushinskiy san’at va ta’limning uzviy bog‘liqligini alohida qayd etib, badiiy faoliyat orqali tarbiya samaradorligini oshirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslagan [2]. G‘arb olimlari ham art-pedagogika va art-terapiya masalalariga katta e’tibor qaratganlar. Xususan, amerikalik tadqiqotchi E. Kramer “Art as Therapy with Children” nomli asarida san’atning bolalar psixologik rivojlanishidagi o‘rnini ochib bergan va uni pedagogik jarayon bilan uyg‘unlashtirish samaradorligini ko‘rsatib o‘tgan [3]. Ingliz olimasi C. Case esa “Art Therapy with Children: From Infancy to Adolescence” kitobida san’at vositalaridan foydalanish o‘quvchilarni nafaqat estetik, balki ijtimoiy jihatdan ham rivojlantirishi mumkinligini asoslagan [4].

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar ham bu sohada qator izlanishlar olib borgan. Jumladan, A. Ergashev o‘z ilmiy ishlarida tasviriy san’at ta’limida innovatsion metodlar, jumladan, art-pedagogik yondashuvlarni qo‘llash o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda samarali ekanini ta’kidlagan [5]. N. To‘xtaboeva esa art-terapiya va art-pedagogika o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatib, ularning o‘quvchilar ruhiyati va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi rolini ochib bergan [6]. Shuningdek, J. Nazarov tasviriy san’at ta’limi orqali estetik dunyoqarashni shakllantirish masalalarini yoritib, art-pedagogikaning ta’limdagi metodologik asoslarini belgilab bergan [7].

Tahlil va natijalar. Tasviriy san’at ta’limida art-pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Chunki bu yondashuv o‘quvchilarni nafaqat san’at asarlarini ko‘rish yoki chizish jarayonida faol ishtirok etishga jalb qiladi, balki ularning tafakkuri, ijodiy qobiliyati va estetik dunyoqarashini shakllantirishga ham xizmat qiladi. O‘quvchi oddiygina rasm chizuvchi emas, balki fikrlovchi, san’at asarlari orqali o‘z ichki dunyosini ifodalovchi, hissiyotlarini tashqi shaklda namoyon etuvchi shaxs sifatida kamol topadi. Shu bois art-pedagogik yondashuvlar ta’lim jarayonida o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va badiiy tafakkurini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida qaralmoqda. Ta’limda art-pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning asosiy ustunliklaridan biri shundaki, ular o‘quvchilarda san’at orqali hayotiy voqelikni anglash va uni o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib qayta talqin qilish imkonini beradi. O‘quvchi oddiygina buyum yoki manzara tasvirini chizish bilan kifoyalanib qolmaydi, balki uni o‘z tasavvuri, his-tuyg‘usi orqali qayta yaratadi. Bu jarayon esa o‘quvchining mustaqil fikrlashini, ijodiy qarashlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Art-pedagogikaning yana bir muhim jihati shundaki, u o‘quvchilarning ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. San’at inson ruhiyatiga eng bevosita ta’sir qiluvchi vosita sifatida qadimdan e’tirof etib kelinadi. Ayniqsa, tasviriy san’at darslarida ranglar, shakllar, kompozitsiya orqali o‘quvchi o‘z kayfiyatini ifodalash imkoniga ega bo‘ladi. Shu jarayonda u o‘zini erkinroq his qiladi, ichki kechinmalarini badiiy shaklda tashqi olamga chiqaradi. Bu esa nafaqat ijodiy qobiliyatni rivojlantiradi, balki psixologik yengillik ham yaratadi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, art-pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarda dars jarayoniga qiziqishni oshiradi. Odatda, an’anaviy dars usullarida o‘quvchi ko‘proq tayyor bilimlarni egallaydi va o‘qituvchining ko‘rsatmalariga amal qiladi. Art-pedagogik yondashuvda esa u faol ishtirokchiga aylanadi. Masalan, o‘quvchiga berilgan topshiriq shunchaki nusxa ko‘chirish emas, balki o‘z fantaziyasini ishga solib, ijodiy yondashishni talab etadi. Bu

esa dars jarayonini jonli, qiziqarli va samarali qiladi. Shu o‘rinda zamonaviy texnologiyalarning art-pedagogika bilan uyg‘unlashuvi alohida e’tiborga loyiqdir. Raqamli san’at dasturlari, virtual muzeylar, 3D-modellashtirish vositalari orqali o‘quvchilar san’atni yangi burchakdan o‘rganish imkoniga ega bo‘lishmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, an’anaviy rasm chizish ko‘nikmalarini boyitsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantiradi. Natijada, yoshlar kelajakda nafaqat rassom sifatida, balki zamonaviy dizayner, animator yoki grafik san’atkor sifatida ham rivojlanishi mumkin. Art-pedagogik texnologiyalar nafaqat ijodiy rivojlanish, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ham muhimdir. Guruh bo‘lib ishlash jarayonida o‘quvchilar bir-birining fikrini tinglash, hamkorlik qilish, o‘z qarashlarini himoya qilish va murosaga kelish kabi ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar. Bu esa ularni kelgusida jamiyatda faol, ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Shuningdek, art-pedagogikaning milliy qadriyatlarni singdirishdagi o‘rni ham katta. Tasviriy san’at darslarida milliy naqshlar, xalq amaliy san’ati namunalaridan foydalanish o‘quvchilarda nafaqat estetik didni rivojlantiradi, balki ularda milliy o‘zlikni anglash, qadriyatlarni hurmat qilish, tarixiy merosga mehr uyg‘otadi. Shu yo‘sinda, san’at ta’limi faqatgina ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan cheklanmay, balki ma’naviy-axloqiy tarbiyani ham ta’minlaydi. Art-pedagogik yondashuvlarning yana bir afzalligi shundaki, ular dars jarayonida turli metodlarni uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Masalan, tasviriy san’at darsida nafaqat chizish, balki musiqa tinglash, adabiy matnlarni tahlil qilish, teatr elementlaridan foydalanish ham mumkin. Bu o‘quvchilarda ko‘p qirrali estetik qobiliyatni rivojlantiradi va ular o‘zini turli san’at turlari bilan sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Psixologik nuqtayi nazardan qaraganda, art-pedagogik texnologiyalar bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Chunki san’atda “xato” tushunchasi nisbiydir. Har bir chizilgan obraz yoki shakl muallifining individual qarashini aks ettiradi. Bu jarayon o‘quvchiga o‘z ijodiy ishidan faxrlanish imkonini beradi. Natijada, o‘quvchi o‘z qobiliyatiga ishonch hosil qiladi va bu ishonch uning boshqa sohalardagi faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Tasviriy san’atda art-pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu texnologiyalar o‘quv jarayoniga yangicha yondashuvni olib kirib, an’anaviy ta’lim usullarini innovatsion vositalar bilan boyitadi. Natijada o‘quvchilar san’at asarlarini nafaqat ko‘rib yoki tasvirlabgina qolmay, balki ularning ichki mazmunini his etishga, badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishga erishadilar. Art-pedagogik yondashuv o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni, shaxsiy qarashlarini ifoda etishni va ijodiy tajriba orttirishni rag‘batlantiradi. Bu esa yoshlarning nafaqat badiiy-estetik tarbiyasini, balki psixologik va intellektual rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Ta’lim jarayonida san’at orqali pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarni motivatsiya qilish, ularning qiziqishini kuchaytirish va ta’lim samaradorligini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotskiy L. S. Psixologiya iskusstva. — Moskva: Iskusstvo, 1965.
2. Ushinskiy K. D. Chelovek kak predmet vospitaniya. — Moskva: Pedagogika, 1988.
3. Kramer E. Art as Therapy with Children. — New York: Schocken Books, 1971.

4. Case C. Art Therapy with Children: From Infancy to Adolescence. — London: Routledge, 2007.
5. Ergashev A. Tasviriy san’at ta’limida innovatsion yondashuvlar. — Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
6. To‘xtaboeva N. Art-terapiya va pedagogik texnologiyalar uyg‘unligi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

KO‘ZI OJIZ O‘QUVCHILARNING MUSIQIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Astanova Zumradxon Toxirovna,
ADPI Doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur tezisda ko‘zi ojiz yoshlaning musiqiy bilimlarni egallashlari uchun maxsus qo‘llanmalar yaratish to‘g‘risida fikrlar bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *qalb ko‘zi, brayl, tiflopedagog, solfedjio, interval, akkord, alteratsiya, dinamik pribor.*

Аннотация: *Вот несколько советов о том, как посмотреть или записаться на музыку для слепых описано.*

Ключевые слова: *сердечный глаз, шрифт Брайля, тифлопедагог, сольфеджио, интервал, аккорд, альтерация, динамический инструмент.*

Annotation: *Here are some suggestions on how to look or get an appointment for music for blind people described.*

Keywords: *heart eye, braille, typhlopedagogue, solfeggio, interval, chord, alteration, dynamic instrument.*

Kirish: Shunday insonlar borki, zoxiriy ko‘zlari bilan emas balki, botiniy, ya’ni, qalb ko‘zlari bilan his etish orqali dunyoni idrok etadilar.

Zero, qalb ko‘zi – Alloh yaratgan barcha narsalarni botiniy idrok eta oladigan “mardum” (gavhar)dir.[1]

Ayniqsa, ko‘zi ojiz insonlar qalb ko‘zlariga tayangan holda butun borliqni ichki bir tuyg‘ular bilan tasavvur etish orqali ijtimoiy hayotga moslashadilar. Bu moslashuv jarayoni ko‘zi ojizlar hayotida sog‘lom insonlar singari yashash, bilim olish, kasb tanlash, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish borasida qulay shart-sharoitlarga ehtiyoj tug‘diradi.

Bugungi kunda ko‘zi ojiz insonlar hayotini yengillashtirish maqsadida ular uchun davlatimiz tomonidan ko‘plab qulayliklar yaratilmoqda, har sohada imkoniyat eshiklari ochilmoqda. Xususan, ta’lim sohasining turli yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilayotgan islohatlar o‘z samarasini bera boshladi. Jumladan, musiqa va san’at sohasida ko‘zi ojiz iste’dodli yoshlar ko‘plab yutuqlarga erishmoqdalar. Ular o‘z ijro mahoratlarini katta-katta sahnalarda namoyish etib, nafakat Respublika miqyosida, xatto xalqaro ko‘rik-tanlovlarda ham qatnashib faxrli o‘rinlarni egallamoqdalar.

Ko‘zi ojiz san’at ustalari: Rustamqori Tursunov, O‘lmas Rasulov, Orolmirzo Safarov, Ochilbek Matchonov kabi ustozlar izidan borayotgan yosh iste’dod sohiblari milliy musiqiy san’atimiz rivojiga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa,

[1] A. Navoiy “Qaro ko‘zum” g‘azali 1-bayt 2-qator, www.google.com

havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi."[1]

Ushbu ilhombaxsh so'zlar ko'rish imkoniyati cheklangan yoshlarning ongiga chuqur kirib borgan holda ularni ijodkorlikka da'vad eta boshladi. ko'zi ojiz insonlar tabiatan adabiyot, san'at va musiqaga bolalikdan astoydil mehr qo'yadilar, juda-juda qiziqadilar. Ularning ba'zilari boshqa bir sohaning egasi bo'lsa ham biron bir cholg'uni chala oladilar yoki qo'shiq kuylaydilar, g'azal o'qiydilar.

Ko'zi ojiz insonlar, ayniqsa, kitob mutolaa qilishni, radio tinglashni o'zlarining eng sevimli mashg'uloti deb hisoblaydilar. Bu mashg'ulotlar orqali ular bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni ta'minlaydilar va bundan zavq olib yashaydilar.

Ko'zi ojiz insonlarning eng sevimli sohalaridan biri musiqa bòlib, ular musiqasiz yashay olmaydilar. Chunki, musiqa dardli qalblarga malham, o'ksuk ko'lngillarga taskin beruvchi ma'naviy ehtiyojdir. Ko'zi ojiz insonlar bu borada o'z ustida ishlashni yaxshi biladilar. Buning Samarali natijasi esa ularni mazkur sohani egallashlari uchun zamin yaratadi.

Bugungi kunda "Nurli maskan"[2] ixtisoslashtirlgan maktab-internatlarida musiqaning turli yo'nalishlari bo'yicha Bolalar musiqa va san'at maktablarining maxsus sinflari tashkil etilib, bu sinflarda ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar sog'lom bolalar bilan bir qatorda tahsil olmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir"[3] mazmunidagi fikrlari ko'zi ojiz yoshlarni ham musiqa san'atiga jalb qilish, kitobxonlik madaniyatini oshirish yuzasidan amaliy ko'rsatma sifatida xizmat qilmoqda. Zero, yurtboshimiz yuksak ite'dodli ko'zi ojiz yoshlar qatlamini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha g'amxo'rdirlar.

O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 22-iyulda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 11-sentabrda ma'qullangan O'RQ-641-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi" qonunining 8, 38, 40-moddalari asosida bugungi kunda ko'zi ojiz bolalar ta'lim-tarbiyasiga davlatimiz tomonidan katta e'tibor va imkoniyatlar berilmoqda. Shuningdek, bu qonunning 8-moddasida qayd etilgan "Nogironligi bo'lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o'z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish prinsipi"dan kelib chiqib nogironligi bo'lgan bolalarni har tomonlama va uyg'un rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, mehnatga bo'lgan qiziqishiga ko'maklashish, ta'limga, ilm-fanga, texnikaga, san'at va sportga jalb etish maqsadida nogironligi bo'lgan bolalar manfaatlari, ularga nisbatan bajariladigan barcha harakatlarda ustuvorlik yaqqol seziladi.

Ushbu qonunning 38, 40-moddalarida yozilihicha, davlat organlari nogironligi bo'lgan shaxslarning har biri uchun mosroq bo'lgan tillarni, muloqot qilish usullari va

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 03.08.2017 dagi O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi www.president.uz

[2] "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 18.04.2022 1-bandi www.yuz.uz

[3] O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 03.08.2017 dagi O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi www.president.uz

vositalarini rivojlantirish, Brayl alifbosini, muqobil harflarni, nutq va og‘zaki muomala ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, shuningdek o‘qituvchilarni va maktab xodimlarini inklyuziv ta’lim masalalarida o‘qitish, imo-ishora tilini va Brayl alifbosini biladigan nogironligi bo‘lgan o‘qituvchilarni ta’lim muassasalariga ishga joylashtirish yordamida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ko‘makdosh bo‘lgan loyihalar tahsinga sazovordir.

Ko‘zi ojiz yoshlarning musiqa sohasidagi hali yechimini topmagan muammolarini hal etish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. bugungi kunda ta’lim sohasiga kirib kelayotgan innovatsiyalashish jarayoni ilgarilab, o‘zaro raqobatlashib ketayotgan bir paytda ko‘zi ojizlar ta’limi, ayniqsa, musiqa yo‘nalishi zamon bilan hamqadamlikda, o‘z faoliyatini samarali tashkil etishda davr talabidan ortda qolmoqda. Chunki, ko‘zi ojiz o‘quvchilarni musiqa ta’limi, cholg‘u ijrochiligi, nota savodxonligi, solfedjio va musiqa nazariyasi kabi musiqaning turli yo‘nalishlarida o‘qitish uchun Brayl nota yozuvida zarur qo‘llanma va darsliklarning yo‘qligi dolzarb muammoligicha qolmoqda. Buning natijasida o‘quvchilar qanchalik mohir ijrochi bo‘lmasin, ular nota savodxonligidan, Solfedjio, Musiqa nazariyasi, Garmoniya, Polifoniya kabi fanlarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Orkestr va Xorda ijro etish, shuningdek, unda drijorlik qilish haqida esa aytmasa ham bo‘ladi. Hozirda ko‘zi ojiz o‘quvchilar noyob esda saqlash tug‘ma iste’dodiga tayanib, ko‘p hollarda an’anaviy ijrochilik yo‘nalishida tahsil olishga majbur bo‘lmoqdalar. Ya’ni ular ko‘proq tinglash orqali biror cholg‘uni chalish yoki qo‘shiq kuylashni o‘rganmoqdalar. Qolgan yo‘nalishlar esa ularga bir orzudek bo‘lib qolmoqda.

Bu muammoning yechimini topish uchun ushbu sohadagi izlanuvchilar yanada chuqurroq izlanishlar olib borishi zarur. Buning uchun bizgacha mavjud bo‘lgan brayl nota yozuvidagi chet el adabiyotlarini tubdan o‘rganib, davlat ta’lim standartiga mos holda bosqichma-bosqich uzluksiz ta’lim tizimiga olib kirish lozim. Eng avvalo, “Nurli naskan” ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda, Umumta’lim maktablar qoshida ochilgan ko‘zi ojiz bolalar uchun maxsus sinflarda, Bolalar musiqa va san’at maktablarida tahsil olayotgan ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun maxsus metodik va o‘quv qo‘llanmalar (Musiqa alifbosi va nazariyasi) yaratish kerakki, ushbu qo‘llanmalar musiqaning turli yo‘nalishlarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar, hamda bilim olayotgan o‘quvchilarning nota savodxonligiga, musiqa nazariyasiga, solfedjiosiga oid muammolarini hal etishga xizmat qilishi lozim. Shuningdek, mazkur qo‘llanmada: tovush va uning turlari, musiqiy tovushning xususiyatlari, skripka kaliti, nota yozuvi hamda cho‘zimlari, ritm, o‘lchovlar, alteratsiya va dinamik belgilar, intervallar, nota cho‘zimini uzaytiruvchi va nota yozuvini qisqartiruvchi alomatlar, pauzalar, ladlar majmuasi, akkordlar kabi barcha zarur bilimlar tiflopedagogik tilda tushuntirilishi kerak. Musiqa savodxonligidagi besh chiziqli nota tizimi va barcha belgilar Priborning[1] birgina yo‘lidan iborat bo‘lgan bo‘rtma nuqtalar ko‘rinishida o‘z aksini topishi ko‘zda tutilgan. Ayrim noqulaylik tug‘diruvchi belgilarni qayta ko‘rib chiqish, moslashtirish, mavjud bo‘lmaganlarini esa yaratish zarur bo‘ladiki, bunday izlanishlar natijasi o‘zidan keyingi kashf qilinadigan ko‘plab ilmiy yangiliklarga keng yo‘l ochib beradi. Bu esa kelajakda ko‘zi ojiz bolalarning yuqori cho‘qqilarga erishib, musiqa ilmining yetuk namoyondalari, buyuk san’at ustalari bo‘lib yetishishlariga xizmat qiladi.

[1] Pribor – ko‘zi ojizlarning yozish moslamasi

Xulosa tarzida ta’kid o‘rinliki, ushbu muammolarning yechimini topish uchun quyidagi amaliy-nazariy va metodik ishlar yuzasidan tizimli ravshda faoliyat olib borish maqsadga muvofiqdir:

1. Brayl nota alifbosini yaratish.

2. Musiqa nazariyasi, Solfedjio, Shashmaqom, Fortepiano, Ansanbil, Orkestr, Xor uchun bir ovozli va ko‘p ovozli kuy-qo‘shqlarning matnlari va notalarini brayl yozuviga o‘girib, alohida kitob shaklida nashr qilish.

3. Musiqa tiflopedagogikasi metodikasini ishlab chiqish.

4. Pedagoglarni bu tizim bo‘yicha qayta tayyorlash.

Ko‘zi ojiz yoshlar musiqa sohasida yetuklikka, barkamollikka intiladilar. Buning uchun ilk qadam sifatida brayl nota alifbosing yaratilishi juda zarurdir. O‘ylaymanki Bu boradagi izlanishlar mahsuli o‘sib kelayotgan iste’dodli ko‘zi ojiz yosh ijrochilarga poydevor bo‘lib xizmat qiladi. ishonamanki, ushbu tadqiqotda o‘z aksini topgan fikrlar kelajakda ko‘zi ojiz yoshlarning bu boradagi ilmiy qarashlariga turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Navoiy “Qaro ko‘zum” g‘azali 1-bayt 2-qator, www.google.com
2. Sh.M. Mirziyoyev. “O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvi”dagi ma’ruzasi. 03.08.2017 www.president.uz
3. PQ-209-sonli “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 18.04.2022 1-bandi www.yuz.uz
4. Sh.M. Mirziyoyev. “O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvi”dagi ma’ruzasi. 03.08.2017 www.president.uz
5. O‘RQ-641-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”. 22.07.2020 www.lex.uz

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xudayberdiyeva Dildora Sirojovna,
Zarafshon shahar 4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Matematika darslarida innovatsion texnologiyalarini qo‘llash orqali, zamon talabiga mos dars o‘tishlari, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish. Bu hozirgi davrda uzluksiz ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri ekanligi yoritib berilgan.

Аннотация: Использование инновационных технологий в математике, современных методов обучения, создание современных методик обучения, совершенствование государственных образовательных стандартов на основе компетентностного подхода. Это одна из важнейших задач системы непрерывного образования сегодня.

Annotation: The use of innovative technologies in mathematics, modern teaching methods, the creation of modern teaching methodologies, the improvement of state educational standards on the basis of a competency-based approach. This is one of the most important tasks of the continuing education system today.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiyal, zamonaviy metodologiya, vosita, metod.

Ключевые слова: инновационная технология, современная методология, инструмент, метод.

Keywords: innovative technology, modern methodology, tool, method.

Boshlang‘ich ta’lim – bu o‘quvchilarning bilim olishi va shaxs sifatida shakllanishida asosiy poydevor hisoblanadi.Ayniqsa, matematika fani o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga, tartibli bo‘lishga va aniq xulosa chiqarishga o‘rgatadi.Matematika darslari orqali o‘quvchilar turli hayotiy vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini hosil qiladilar.Shu bois boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodlari alohida e’tiborni talab qiladi.Metod tushunchasi o‘qitish jarayonining asosiy vositalaridan biridir. O‘quvchilarni o‘qitishda tanlanadigan metod dars samaradorligini bevosita belgilab beradi.O‘qituvchining pedagogik mahorati metodlarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llash bilan chambarchas bog‘liqdir.Metodlar yordamida o‘qituvchi bilimni tushuntiradi, mustahkamlaydi va amaliyotda qo‘llashga o‘rgatadi.Har bir darsning mazmuniga mos metod tanlash o‘qituvchidan katta mas’uliyatni talab qiladi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hali kichik yoshda bo‘lganliklari sababli ularga qulay va tushunarli metodlar zarurdir.

Ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda har bir sohada innovatsion texnologiyalardan foydalanish zamon talabi bo‘lib bormoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ilmiy tomondan bilimlari kamroq bo‘ladi, shuningdek ilmiy uslubda tushuntiriladigan mavzularni ham tushunishlari, o‘zlashtirishlari biroz qiyin bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchilar o‘quvchilarning mavzularni yanada yaxshi o‘zlashtirishlari uchun turli xil innovatsion texnologiya, metodlar va o‘yinlardan foydalanishlari zarur.Agar biror tizimni yangilashga qaratilgan faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki undan tubdan o‘zgartririshga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi. Ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarini shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’limga innovatsion ta’lim deyiladi. Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Ta’lim innovatsiyalari - ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalardan iborat deb aytish mumkin.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiya samaradorligiga erishish maktab ta’limining poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Jahonda ta’lim standartlari darajasida bilim berish hamda ta’lim innovatsiyalarini joriy etish orqali har tomonlama yetuk ijodkor ma’naviy boy, kasb-hunarli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol g‘oyasi ruhida tarbiyalangan, o‘z mustaqil fikriga ega barkamol shaxsni voyaga yetkazish kabi vazifalarni hal etishda ta’lim muassasalarining pedagogik jamoasi, xususan, har bir fan o‘qituvchisi o‘z pedagogik faoliyatini tubdan o‘zgartirishi lozim. O‘quvchilarga faqat og‘zaki usulda tushuntirish bersak bo‘ladi, lekin “Ming marta eshitgandan, bir marta ko‘rgan Afzal” dir. Mavzuga oid ma’lumotlarni kompyuter va multimedia vositalaridan foydalangan holda taqdimot ko‘rinishida taqdim etsak, o‘quvchilarning murakkab mavzularni tushunishi oson bo‘ladi va xotirasida qoladi.

Dars mashg‘ulotlarida turli metodlardan to‘g‘ri foydalanish imkon darajasida darsning sifatli o‘zlashtirilishida, o‘quvchilarning mavzuni yetarli darajada tushunib olishlarida qo‘l keladi. Lekin ayrim metodlar o‘qituvchi tomonidan ko‘zlangan maqsadga erishishi uchun kutilgan natija bermasligi ham mumkin.

Ma’lumki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini, asosan “A’lo” va “Yaxshi” baho olishga qiziqishadi hamda sinfdagi o‘quvchilar bir-biri bilan raqobatda o‘qishadi. O‘quvchilarning darsga qiziqishlarini yanada oshirish uchun bir qancha metod va texnologiyalar mavjud bo‘lib, ulardan ba'zilarini dars mashg‘ulotlarida qanday qo‘llash bo‘yicha namunalar keltiramiz.

“**Soat millari” metodi**



Bunda ma'lum bir mavzuni o‘yin orqali qiziqarli qilib yetkazib berish mumkin

O‘quvchilarni turgan holatda (o‘tirgan holatda ham bo‘ladi)ketma-ket raqamlatib,1,2 deb,faqat 1 degan o‘quvchilar ichki doirani hosil qilishi,2 degan ishtirokchilar ichki doiradagi har bir ishtirokchini paralleli bo‘lgan holatda jufti bo‘lib tashqi doirani tashkil qiladi,va faqat tashqi doiradagi ishtirokchilar soat sterelkasi bo‘ylab aylanishadi va paralleldagi jufti bilan ma'lumot almashadi.

So‘ng tashqi doira va ichki doiralar alohida bo‘lib o‘z ma’lumotlarini almashishadi.

Natijada hamma ma’lumotlar har bir ishtirokchiga yetib boradi.

Masalan 9 ga ko‘paytirish mavzusini ketma-ket har bir bolada yodlata olish mumkin,yana ma'lum bir hikoya asosiy tushunchalarini singdirish mumkin

Agar bu o‘yinda 15 ta o‘quvchi ishtirok etsa,siz o‘sha ishtirokchiga mos 15 ta ma'lumotni o‘rgata olasiz.

Texnologiyalardan foydalanishda ular ta'limning sifatini belgilashi lozim, undan ko‘zlangan maqsadga yetishish nazarda tutilishi kerak. Bunda o‘qituvchilar o‘z o‘quv fanini maqsadini belgilab chiqishi kerak. Belgilangan maqsad asosida albatta samara bo‘lmog‘i lozim. Bola har bir o‘yinga qiziqishi undan o‘ziga biror narsa olmog‘i kerak. Boshlang‘ich sinf bolalariga dars jarayonida foydalanadigan o‘yinlar orqali bolaning bilimi oshishi dars jarayonini o‘zlashishi bilan birgalikda uning maktabga ustozlariga bo‘lgan mehr-muhabbati oshib boradi. Aynan boshlang‘ich sinflarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish bolani darsga jalb etishga yordam beradi. O‘yinlar orqali erkin fikr yuritish tafakkurining shakllanishini ortganini ko‘rish mumkin. Aynan boshlang‘ich sinflarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish bolani darsga jalb etishga yordam beradi. Ularda o‘quvchilardaning diqqati bir joyga

to‘planadi tafakkuri o‘sib boradi. O‘zlarida erkin fikr yuritish jarayoni shaklanadi. Dars jarayonida qo‘llanadigan didaktik o‘yinlardan Zanjir o‘yini: Bu o‘yinda o‘qituvchi bir so‘z aytadi. Shu so‘zning tugagan harfidan boshab bolalar so‘zni davom ettiradi. O‘yin orqali bolalar hammasi darsga jalb etiladi. **“Tez ayt”** o‘yini: bu o‘yinda o‘qituvchi sinf bo‘ylab yuradi bir bolani turg‘izib unga bir tur nomini aytadi.

“Musobaqa” metodi. Bu metoddan 3-sinf matematika darsida “Ko‘p xonali sonlarni qo‘shish” mavzusini mustahkamlash jarayonida qo‘llash maqsadga muvofiq.

Bu metoddan foydalanishda dastlab 3 nafar o‘quvchi doskaga chiqariladi va ularning har biriga o‘qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab kelingan turlicha misollar(qiyinchilik darajasi bir xil) alohida-alohida varaqlarda taqdim etiladi.

Metod - (lotincha) “usul”, “yo‘l” degan ma'nolarni bildiradi. Batafsilroq aytganda, biror maqsadga erishish uchun qilingan sa'y-harakatlardir. Innovatsion texnologiyani har bir jabhada qo‘llash mumkin. Ta'limda yangicha yondashuv, yangicha metodika, multimedia vositalari, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Zamon talabiga muvofiq holda har bir fan o‘qituvchisi o‘zining mutaxassisligini, chuqur o‘zlashtirgan, pedagogik-psixologik hamda metodik bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta egallagan, ta’lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshiradigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor va ularni ta’lim jarayonida qo‘llay olish malakasiga ega bo‘lishi bilan birga innovatsion faoliyat egasi bo‘lishi lozim. Har bir dars o‘qituvchidan o‘ziga xos innovatsiyalarni, ya’ni ijodiy yondashuvni talab qiladi. Matematika darsida o‘quv tarbiya jarayonining barcha elementlari o‘zaro uyg‘unlikda bo‘ladi. Bular maqsad va mazmun, vositalar, metodlar, ta’limni tashkil qilish shakllari bilan uzviy bog‘liq. Noan’anaviy ta’limda 4 ta komponent uyg‘unlikda amalga oshiriladi.

Bular maqsad, mazmun, faoliyat, natija. Demak, hozirgi zamon matematikasi darsining asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

-darsning dastur talablariga mosligi;

-har bir dars maqsadlarining aniq rejalashtirilishi;

-o‘quv materiallarining sinfda taqsim qilib, o‘zlashtirilishini ta’minlash va ta’lim natijalariga erishish;

-o‘quvchilarni sinfda toliqtirmasdan faol ishlarini ta’minlash;

Matematika darslarida o‘quvchilarning kuzatuvchanlik, ziyraklik, atrofga tanqidiy qarash, ishda tashabbuskorlik, mas’uliyat, to‘g‘ri va aniq so‘zlash, hisoblash, o‘lchash va yozuvlarda aniqlik, mehnatsevarlik va qiyinchiliklarni yengish xislatlari tarbiyalanadi.

Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishda kichik guruhlarda ishlash usulidan foydalanish ancha samarali bo‘ladi. Bunday usulda o‘qitishda kichik guruhlar to‘rtta o‘quvchidan tashkil topadi. O‘qituvchi avval mavzu mazmunini tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari yoki masalalar to‘rt qismga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning ma’lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O‘qituvchi

har bir kichik guruh natijasini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. Bunday mashg‘ulot shakllari va dars bir-birini to‘ldiradi. O‘quvchilarning matematika fanini o‘rganishga qiziqishlarini orttiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, matematika o‘qitish samaradorligini oshirish o‘quvchining ta’lim markazida bo‘lishini va ularning mustaqil bilim olishlarini

ta’minlash uchun ta’lim muassasalarida yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va ***o‘z*** sohasidagi bilimlarini mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarini va axborot texnologiyalarini biladigan, ularda o‘qish va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan bo‘lishi kerak. Buning uchun barcha fan o‘qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalaridan foydalanib ishlashni zamon talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matematika (1-sinf). Turon iqbol. 2020-yil, 160 bet. O‘quv qo‘llanma.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. T.: 2008

TAYYORLOV GURUH TARBIYALANUVCHILARINI MAKTAB TA’LIMIGA MOSLASHTIRISHDA MTT VA MAKTAB HAMKORLIGI

Toshqulova Zuhra Ulug‘bek qizi,
NavDU magistranti

Annotatsiya: *Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanadi, bu maskanda bolalarda o‘qishga intilish hissi uyg‘onadi, maktabga borish qiziqishi rivojlanadi. Majburiy bir yillik tayyorlov guruhlari bolalarda maktabga bo‘lgan qiziqish hamda ishtiyoqni hosil qilish asosidir. Ushbu maqolada tayyorlov guruhlari, ya’ni “Majburiy bir yillik tayyorlov guruh” tarbiyalanuvchilarini maktab ta’limiga moslashtirishning ahamiyati hamda bunda maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktab hamkorligi masalalari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Tarbiya, ta’lim, mashg‘ulot, tarbiyalanuvchilar, adaptatsiya, moslashish, maktab, o‘qituvchi, o‘yin, zamonaviy, intellektual, informatsiya.*

Аннотация: *В дошкольных образовательных организациях дети растут здоровыми и развиваются во всех аспектах, здесь у детей развивается желание учиться и появляется интерес к посещению школы. Обязательные годичные подготовительные группы являются основой формирования у детей интереса и страсти к школе. В данной статье описывается важность адаптации учащихся подготовительных групп, т.е. “Обязательной годовой подготовительной группы” к школьному образованию, а также вопросы организации дошкольного образования и школьного сотрудничества.*

Ключевые слова: *Воспитание, образование, обучение, ученики, адаптация, школа, учитель, игра, современное, интеллектуальное, информация*.

Barchamizga ma’lumki, maktabgacha ta’lim bola shaxsining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Ta’lim sohasida keng joriy qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 8-moddasida: “Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi”[1] deyilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Boshlang‘ich ta’limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlar haqida”gi 999-sonli qarorini ijro etish doirasida O‘zbekiston o‘z zimmasiga 6-7 yoshli bolalarning maktabga to‘lovsiz majburiy bir yillik tayyorgarligi bo‘yicha majburiyatni oldi. 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama

rivojlantirish, ularga ta'lim tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida qamrab olinmagan bolalar uchun majburiy bepul bir yillik ta'lim joriy qilindi.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, birinchidan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umumiy har tomonlama rivojlanishining yuqori darajasini ta'minlaydigan, ikkinchidan, bolalarni maktabning boshlang'ich sinflardan o'rganishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallashga, maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishi kerak. 6-7 yoshli bolalar endi maktabgacha bolalikni yakunlaydi va maktabda o'qishga moslashish bosqichi hisoblanadi.

Olti yoshli bolaning maktabga tayyorgarligi haqida gapirilganda ko'pincha muayyan reja asosida, tartibli, ko'p qirrali maqsadga yo'naltirilgan, o'zaro mantiqiy bog'liq, izchil boshlang'ich ta'limga zamin vazifasini o'tovchi psixik o'sish darajasini nazarda tutiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yoki oilada maktab ta'limiga tayyorlash, uni murakkab bo'lmagan bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo'lishga yordam beradi.

Yurtimizda bolalar maktabga borishlaridan oldin majburiy bir yillik tayyorlov guruhlarida tarbiyalanuvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta'lim tarbiya berish, maktabga tayyorlash va maktabga moslashishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga moslashtirishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi hamkorlik ishlari olib boriladi.

Maktab bilan MTT o'rtasida uzviy aloqa murakkab va ko'p tomonlama tuzilishga ega. Unda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning mazmuni, metod va usullari, tashkiliy shakllari, shuningdek bolalarni tarbiyalash shart-sharoitlari va pedadogik talab kabi yetakchi tomonlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

- Maktab talabi nuqtai nazaridan bolalar bilimlarni chuqurroq egallab olishlari lozim.
- MTT nuqtai nazaridan bolalarni maktab talabi darajasidagi bilim, malaka, ko'nikmalar bilan qurollantirish.
- Bolalrning maktabga ruxiy tayyorgarligi. Bu yerda vazifa bolalar mehnatining har qanday turiga tayyor turishlari, ularda aqliy mehnat-bilishga qiziqishni o'stirishning kelajakdagi mustaqil faoliyatga tayyorlashdan iborat.
- MTTda beriladigan ta'lim rivojlantiruvchi tarzda bo'lishi kerak.
- MTT bilan maktab o'rtasida izchil aloqa o'rnatish.

Uzviylik MTT va maktabda shaxsni har tomonlama shakllantirish bo'yicha olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishini izchillik bilan amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. MTT maktabgacha yoshdagi bolalarda boshlang'ich sinf ta'limi maqsad va vazifalariga mos keladigan sifat jihatdan yangi xususiyatlarni shakllantiradi[5].

Bolalarni maktab ta'limiga moslashtirishda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari va maktab o'quvchilari o'rtasida aloqa o'rnatish ham juda foydali jarayon bo'lib bolalarni maktab o'quvchilariga yaqinlashtirish shakllari ham xilma-xil: bular, maktabga ekskursiya uyushtirish, maktab muzeyiga, sinf xonasiga, kutubxona, ustaxonaga borish, birgalikdagi mashg'ulotlar, jismoniy tarbiyaga oid tadbir va musobaqalar, bayram ertaliklari, musiqa-badiiy kechalar o'tkazish, rasmlar hamda loy plastilindan yasalgan o'yinchoqlar ko'rgazmasini tashkil etish va boshqalardir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi hamkorlik ikki yo'nalishda olib boriladi, bular quyidagilar:

- Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi pedagoglari bilan maktab pedagoglari jamoasi o'rtasidagi aloqa.
- Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalari va boshlang'ich sinf o'quvchilarini bir-birlariga yaqinlashtirish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab pedagogik tashviqot, metodik va amaliy masalalar yuzasidan bir-birari bilan aloqa bog'laydi. Pedagogik tashviqot ishlari maktabgacha ta'lim tashkiloti maktabga tayyorlov guruhi ya'ni majburiy bir yillik tayyorlov guruh tarbiyachisining va birinchi sinf o'qituvchisini maktabgacha ta'lim tashkilotining majburiy bir yillik tayyorlov guruhida va birinchi sinfda olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar vazifasi bilan tanishtirishni, majburiy bir yillik tayyorlov guruhi va birinchi sinf dasturi mazmunini, tayyorlov guruhi bolalari va maktabdagi 1-sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni taqazo etadi. Mana shu usulda ish olib borilganda o'qituvchi va tarbiyachilar maktabni 1-sinf va maktabgacha ta'lim tashkilotini majburiy bir yillik tayyorlov guruhidagi bolalarga xos bo'lgan yosh xususiyatlarini, ularning ruhiy tabiatini, aqliy va ijtimoiy rivojlantirisharini tushunib, ularni maktabga tayyorlov masalalarini yahshiroq anglab olishlarida yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab bilan aloqa o'rnatishning yana bir yo'li bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha tarbiyachi va o'qituvchilar jamoasi bilan birgalikda o'tkaziladigan tadbir, seminar, pedagogik kengashlar tashkil etilishi va unda bolalarning yosh xususiyatlarini, ularning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan maktabga o'tishlaridagi ruhiy qiyinchiliklar, maktab sharoitiga qiynalmay moslashishlariga yordam beruvchi omillar bo'yicha tarbiyachi va o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan leksiyalar va tajriba almashishlar ham bolalarni maktab ta'limiga moslashtirishda tayyorlov guruhlari va majburiy bir yillik tayyorlov guruhlari tarbiyachilari uchun ham juda foydali hisoblanadi.

Majburiy bir yillik tayyorlov guruhlari maktablarda tashkil qilinishi ham adaptatsiya jarayoniga yordam bo'lib xizmat qilmoqda. Chunku, bolalar maktab muhitini, tartib-qoidalarini ko'rishadi hamda tanishadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda maktab o'rtasidagi uzviy aloqa samarali bo'lishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilish lozim:

MTT bilan maktab o'rtasidagi aloqa izchil amalga oshirib borilishi, u uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lishi, amalga oshiriladigan ishlar, hal etiladigan masalalar rejali tusda bo'lishi; hamkorlik asosini birgalikda ishlash bo'yicha tuzilgan istiqbol rejasi tashkil etib, unda o'zaro aloqaning bosh vazifasi, mazmuni, ish shakllari, vaqti, bajarish uchun javobgar shaxslar ko'rsatilishi. Maktab bilan MTT yil davomida mana shunday aloqa o'rnatib borishi natijasida ta'lim-tarbiyaviy ishlar yaxshi natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ – 637sonli. 2020-yil 23 sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 132-sonli Qaror.
3. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti" T.: 2020

4."Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" S.Shodiqova T.: 2010.
5.Berdiyeva M.M. Maktabgacha pedagogika fanidan ma'ruza matni. Termiz davlat universiteti, 2015.

KASBIY RIVOJLANISH JARAYONIDA DARS KUZATUVI VA TAHLILINING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI

Rasulov Jaxongir Sindarovich,
Sirdaryo viloyati PMM *metodisti*

Аннотация: *В данной статье исследуются современные концепции наблюдения и анализа уроков в процессе профессионального развития учителей. В исследовании рассмотрены такие подходы, как Lesson Study, peer-observation, видеоанализ, рефлексивные методы и цифровые платформы. В качестве методологии использовались обзор литературы, наблюдение и сравнительный анализ. Инновационные формы анализа уроков способствуют развитию профессиональных компетенций педагогов, обмену опытом и повышению качества образования. Автор вносит научный и практический вклад, раскрывая эффективность этих методов и предлагая рекомендации по их применению в образовательной практике.*

Keywords*: This article explores modern concepts of lesson observation and analysis in teachers professional development. The study examined approaches such as Lesson Study, peer observation, video analysis, reflective methods, and digital platforms. Literature review, observation, and comparative analysis methods were employed. Innovative forms of lesson analysis enhance teachers professional competencies, strengthen peer collaboration, and improve education quality. The author contributes scientifically and practically by highlighting the effectiveness of these methods and providing recommendations for their implementation in educational practice.*

Ключевые слова: *Профессиональное развитие, наблюдение за уроками, анализ уроков, современные концепции, Lesson Study, peer-observation, видеоанализ, рефлексия, цифровые платформы, педагогическая компетентность.*

Key words: *Professional development, lesson observation, lesson analysis, modern concepts, Lesson Study, peer-observation, video analysis, reflection, digital platforms, pedagogical competence.*

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning intellektual salohiyatini yuksaltirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va xalqaro standartlarga moslashgan uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirishga qaratilgan. O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun quyidagi yo‘nalishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda: innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish va almashish, "ustoz-shogird" tizimini mustahkamlash, refleksiv amaliyotga asoslangan dars tahlilini yo‘lga qo‘yish hamda maktab sharoitiga mos malaka oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish. Prezident maktablarida joriy etilgan ilg‘or metodlarni ommalashtirish, raqamli platformalar orqali tajriba almashish va o‘qituvchilarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rag‘batlantirish ham kasbiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlar sharoitida dars tahlilining mazmuni, o‘qituvchilarning

kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ilmiy asosda yoritiladi. Bu orqali pedagoglarning professional kompetensiyasini yuksaltirish, dars jarayonini samarali tashkil etish va zamonaviy ta’lim konsepsiyalarini tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

1. ***Kasbiy rivojlanishning uzluksizligi va dars tahlili, xorij tajribalari***

O‘qituvchining kasbiy rivojlanishida asosiy tamoyil – uzluksizlikdir, kasbiy rivojlanish doimiy, tizimli va maqsadli yo‘lga qo‘yilgan bo‘lishi kerak; bunda o‘qituvchi o‘z faniga doir bilimlarni yangilab borish, zamonaviy pedagogik va metodik yondashuvlarni joriy etish, ilg‘or milliy va xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda shaxsiy kasbiy mahoratini mustaqil oshirishga yo‘naltiriladi. Ushbu jarayonning muhim mexanizmlaridan biri – dars kuzatuvi va tahlilidir, chunki kuzatuv orqali nafaqat kamchiliklar aniqlanadi, balki samarali amaliyotlar identifikatsiyalanib, ularni ommalashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Kasbiy rivojlanish tizimi bir nechta o‘zaro bog‘langan elementlardan iborat: individual o‘rganish (ilmiy adabiyotlar, kurslar, onlayn resurslar), hamkasblararo hamkorlik (mentorlik, professional learning communities – PLC), tashqi treninglar va nazorat-baholash (sertifikatlash, baholash dasturlari).

Har bir element o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiladi: metodik savodxonlik, pedagogik kommunikatsiya, baholash madaniyati va darsni rejalashtirish qobiliyati. Uzluksizlik tamoyili bu elementlarni monolit tizimga aylantirish – ya’ni doimiy ta’lim va amaliyotning hamnafas bo‘lishini ta’minlashdir. Dars kuzatuvi (observation) va tahlil (lesson analysis) kasbiy rivojlanishning “feedback loop”ini tashkil etadi. Samarali kuzatuv quyidagi funktsiyalarni bajaradi: real dars amaliyotini aniqlash va baholash, muammolar va yutuqlarni aniq ko‘rsatish, professional muloqot uchun dalillar taqdim etish, o‘quv jarayonini yaxshilash bo‘yicha konkret tavsiyalar ishlab chiqish. Muhimi – kuzatuv baholash vositasi emas, balki o‘qituvchining o‘sishini qo‘llab-quvvatlovchi o‘rganish jarayoni bo‘lishi lozim. Shu jihatdan kuzatuvlar ham yaratuvchan hamda o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak (ya’ni “growth-oriented”). Xorijiy tajribalardan biri, “Lesson Study” dars kuzatuv usuli, Yaponiya va undan keyin jahon miqyosida ommalashgan usullardan bo‘lib, unda o‘qituvchilarni hamkorlikda dars rejasini ishlab chiqish, bir (yoki bir necha) darsni kuzatish va chuqur tahlil qilishga yo‘naltirilgan professional rivojlanish modellaridan hisoblanadi [2]. U keng qamrovli tayyorgarlik, kuzatuv va debriefing (muhokama) bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Lesson Study yadrosi – darsni “tadqiqiy” obyekt sifatida ko‘rib, o‘quvchilarning o‘rganishni qanday amalga oshirayotganini ma’lum nazariy va empirik mezonlar asosida tahlil qilishdir. Bu yondashuv o‘qituvchining kasbiy bilimini amaliy jihatdan boyitadi va doimiy o‘zaro o‘rganish madaniyatini shakllantiradi.

Xorijiy tajribalar: Danielson Framework (AQSh) va strukturaviy rubrikalar AQShda keng tarqalgan bo‘lib, bu o‘qituvchining amaliyotini to‘rt domen (rejalashtirish, muhit yaratish, dars o‘tish va professional mas’uliyat) bo‘yicha tasniflovchi rubrika. Ushbu uslub kuzatuvlarni standartlashtirish, o‘zini baholash va maqsadli professional rivojlanish rejasini tuzishda qulaylik yaratadi. Strukturaviy rubrikalar haqiqiy amaliy dalillar va kompetensiyalarga asoslangan aniq mezonlarni beradi, shu bilan o‘qituvchiga o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini yaratadi. Xorijiy tajribalar: Ofsted va “Six models of lesson observation” (Buyuk Britaniya) kabi ta’lim muassasalari kuzatuvining turli modellari (masalan, summativ baholashga yo‘naltirilganlar, professional o‘sishga yo‘naltirilganlar va boshqalar) haqida tadqiqotlar o‘tkazilgan [1]. Shu bilan birga, “peer-observation” (hamkasb

kuzatuvi) yanada ko‘proq ishtirokchilarning qo‘llab-quvvatlovchi muloqoti va o‘zaro tajriba almashinuvi ustida quriladi. “Peer-observation” o‘qituvchilarning ishonchini oshiradi va professional hamjamiyat ichida o‘rganishni rag‘batlantiradi. Kasbiy rivojlanishning uzluksizligi va dars tahlili o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjud: kuzatuv va tahlil o‘qituvchining o‘sishini rag‘batlantiruvchi asosiy mexanizmdir. Xalqaro tajribalar (Lesson Study, Danielson Framework, Ofsted-ta’limiy modellari, peer-observation) ushbu mexanizmlarning turli: ham madaniy, ham strukturaviy jihatlarini ochib beradi. Mahalliy sharoitda bu yondashuvlarni moslashtirish – uzluksiz kasbiy o‘sishga xizmat qiluvchi samarali tizim yaratishning muhim sharti hisoblanadi [3].

2. *O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun imkoniyatlar*

Ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchining bilim va ko‘nikmalari doimiy ravishda yangilanib borishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va xalqaro tajriba bilan tanish bo‘lishi talab etiladi. Shu sababli kasbiy rivojlanishni samarali ta’minlash uchun bir qator mexanizmlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish uchun sharoit yaratish. O‘qituvchilar dars jarayonida interaktiv metodlar, raqamli vositalar va STEAM kabi innovatsion yondashuvlardan foydalanishi uchun ularga tegishli metodik qo‘llanmalar, texnik vositalar hamda raqamli ta’lim resurslari bilan ta’minlash muhimdir. Bu nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va axborot savodxonligini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

2. Mustaqil ishlashni rag‘batlantirish - pedagogning o‘z ustida ishlashi kasbiy rivojlanishning asosiy sharti hisoblanadi. Shu bois, o‘qituvchilarni ilmiy adabiyotlar, elektron kutubxonalar, xalqaro ma’lumotlar bazalari va metodik portallardan foydalanishga yo‘naltirish zarur. Mustaqil ta’lim olish jarayonini rag‘batlantirish uchun ular tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalar, metodik ishlanmalar yoki innovatsion loyihalarni baholash va moddiy hamda ma’naviy rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.

3. Ilg‘or tajribalarni o‘rganish va almashish - o‘qituvchilar o‘rtasida seminar-treninglar, mahorat darslari, ochiq darslar, amaliy konferensiyalar tashkil etish kasbiy rivojlanishda samarali vositalardan biridir. Tajriba almashish jarayonida pedagoglar yangi metodlarni o‘rganib, o‘z faoliyatiga moslashtirishi, shuningdek, boshqa mutaxassislarning xatolaridan saboq olishi mumkin. Bu jarayon ta’lim sifatini oshirishda hamkorlik va jamoaviy o‘rganishning kuchli vositasi hisoblanadi.

4. “Ustoz-shogird” tizimi - pedagogik tajribaga ega bo‘lgan ustozlar yangi kadrlar bilan hamkorlikda ishlashi o‘qituvchining tezkor kasbiy shakllanishiga yordam beradi. Bu tizim nafaqat bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish, balki kasbiy qadriyatlar, pedagogik etika va innovatsion fikrlashni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, yosh kadrlar uchun bu tizim mentorlikning muhim shakli bo‘lib, ular uchun amaliy maslahatlar manbai vazifasini bajaradi.

5. Refleksiv amaliyot - o‘qituvchilar o‘zaro dars kuzatuvi va tahlili asosida tajriba almashishi zamonaviy kasbiy rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Refleksiya jarayonida pedagog o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qilib, o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, kelajakda takomillashtirish rejasini tuzadi. Bu yondashuv pedagogni o‘z ustida ishlashga undaydi va dars sifati muntazam oshib borishiga sabab bo‘ladi.

6. Maktab negizida malaka oshirish – bu kasbiy rivojlanishni samarali tashkil

etishning eng qulay usullaridan biri bo‘lib, u mahalliy sharoit va real dars jarayonlariga asoslangan metodik ishlanmalarni ishlab chiqishdir. Maktabning o‘zida metodik markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, malaka oshirish kurslarini joyida tashkil qilish, o‘qituvchilarning amaliyotga yaqin bilim olishiga imkon beradi. Bu yondashuv nazariya bilan amaliyot o‘rtasidagi tafovutni kamaytiradi va ta’lim samaradorligini oshiradi.

O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar nafaqat ularning shaxsiy bilim va ko‘nikmalarini boyitadi, balki butun ta’lim tizimining sifat ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish, mustaqil ta’lim olishni qo‘llab- quvvatlash, ilg‘or tajribalarni almashish, ustoz-shogird tizimini rivojlantirish, refleksiv amaliyot va maktab negizida malaka oshirish – bugungi ta’lim islohotlarining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim [4].

Xulosa va tavsiyalar

Kasbiy rivojlanish jarayonida dars kuzatuvi va tahlilining zamonaviy konsepsiyalari o‘qituvchilarning professional kompetensiyasini rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi. Bu jarayon o‘qituvchilarga o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qilish, metodik yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqish, ilg‘or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Eng muhimi, dars tahlili o‘qituvchini faqat baholash obyekti sifatida emas, balki doimiy ravishda o‘z ustida ishlovchi, kasbiy va shaxsiy rivojlanishga intiluvchi faol subyekt sifatida shakllantiradi. Shu boisdan, ta’lim jarayonida samaradorlikni oshirish va o‘qituvchilarni zamonaviy talablarga mos holda rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Dars kuzatuvi va tahlilining zamonaviy konsepsiyalarini amaliyotga joriy etish o‘qituvchilarni kasbiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va ularning kompetensiyalarini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil hisoblanadi. Refleksiya, hamkorlik, raqamli tahlil, mustaqil ishlash madaniyati va innovatsion malaka oshirish kurslari uyg‘unligi ta’lim tizimida sifatli o‘zgarishlar qilish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim islohotlarining samaradorligini oshirib, o‘quvchilarning raqobatbardosh bilim va ko‘nikmalarni egallashiga sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Stigler, J. W., & Hiebert, J. (1999). *The teaching gap: Best ideas from the world's teachers for improving education in the classroom*. New York, NY: Free Press.

2. Dudley, P. (2014). *Lesson study: Professional learning for our time*. London: Routledge.

3. OECD. (2021). *Teachers’ professional learning and development*. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/19939019

4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2020). *O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash konsepsiyasi*. Toshkent: XTV. https://uzedu.uz

BIOLOGIYA FANIDA ISKALA METODI ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH

Hamdamova Ra’no G‘ayratovna,
Navoiy viloyati PMM biologiya fan metodisti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada biologiya fanida iskala (scaffolding) metodi asosida darslarni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Iskala metodi o‘quvchi shaxsini faol bilim egallash jarayoniga jalb etish, ularda mustaqil*

fikrlash, mantiqiy tahlil qilish, hamkorlikda ishlash va muammoli vaziyatlardan chiqish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Maqola davomida iskala metodining o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatidagi o‘rni, ularning vazifalari hamda bosqichma-bosqich qo‘llash mexanizmi tahlil qilingan. Darslarni shu metod asosida tashkil etish orqali o‘quvchilarda bilim olishga qiziqish ortishi, mavzularni puxta o‘zlashtirish, ekologik va ilmiy dunyoqarashning kengayishi kuzatilgan. Maqolada keltirilgan xulosalar biologiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ilmiy-amaliy ahamiyatini ko‘rsatib beradi.

Annotation: *This article highlights the theoretical and practical aspects of organizing lessons in biology based on the scaffolding method. The scaffolding method engages students in the process of active knowledge acquisition, helping them to develop independent thinking, logical analysis, collaborative skills, and the ability to solve problem situations.The article analyzes the role of the scaffolding method in the activities of both teachers and students, their tasks, and the step-by-step application mechanism. Organizing lessons on the basis of this method enhances students’ interest in learning, ensures deeper mastery of the topics, and broadens their ecological and scientific worldview. The conclusions presented in the article demonstrate the scientific and practical significance of using innovative methods in biology lessons.*

Аннотация: *В данной статье раскрываются теоретические и практические аспекты организации уроков биологии на основе метода «искола» (scaffolding). Данный метод вовлекает учащихся в процесс активного усвоения знаний, способствует развитию у них самостоятельного мышления, логического анализа, навыков сотрудничества и умения выходить из проблемных ситуаций. В статье проанализированы роль метода «искола» в деятельности учителя и ученика, их задачи, а также механизм поэтапного применения. Организация уроков на основе данного метода способствует росту интереса учащихся к обучению, глубокому усвоению материала и расширению их экологического и научного мировоззрения. Представленные в статье выводы демонстрируют научно-практическое значение использования инновационных методов в преподавании биологии.*

Kalit so‘zlar: *Biologiya ta’limi, iskala (scaffolding) Metodi,innovatsion pedagogik texnologiyalar, mustaqil fikrlash, hamkorlikda o‘qitish, muammoli vaziyatlarni hal etish, dars samaradorligi, ekologik dunyoqarash, o‘quvchi faolligi.*

Keywords: *Biology education, scaffolding method,innovative pedagogical technologies, independent thinking,collaborative learning, problem-solving skills, lesson effectiveness, ecological worldview, student engagement.*

Ключевые слова: *Образование по биологии, метод «искола» (scaffolding), инновационные педагогические технологии, самостоятельное мышление, решение проблемных ситуаций, эффективность уроков, экологическое мировоззрение, активность учащихся*

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, ijodkorlik hamda muammoni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish eng asosiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ta’lim mazmunini o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirish, ularning bilish faoliyatini faollashtirish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirish ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Bugungi kunda biologiya fani ta’lim tizimida nafaqat o‘quvchilarga tabiiy fanlar bo‘yicha bilim berish, balki ularda ekologik madaniyatni shakllantirish, mustaqil tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish vazifasini ham bajaradi. Shu sababli biologiya fanini

o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. Shulardan biri – iskala metodi bo‘lib, u ta’lim jarayonida o‘quvchini faol subyektga aylantirish, o‘qituvchini esa yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, yo‘lboshchi va maslahat beruvchi sifatida ko‘rsatadi. Biologiya fanida iskala metodidan foydalanish orqali o‘quvchilar murakkab biologik jarayonlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirib, o‘qituvchi yordamidan mustaqillikka o‘tadi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi va fan bo‘yicha chuqur bilimlarni shakllantirish imkonini beradi.

Iskala metodi dastlab pedagogikada amerikalik olim J. Bruner va uning hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u Lev Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” haqidagi nazariyasiga tayangan holda amaliyotga tatbiq etilgan. Ushbu metod mohiyatan o‘quvchilarning bilim olish jarayonida ularga zaruriy “tayanch” ko‘rsatish, o‘qituvchi tomonidan yo‘l-yo‘riq berish hamda asta-sekin bu tayanchni qisqartirib, o‘quvchini mustaqil faoliyatga olib borishga asoslanadi. “Iskala” (scaffolding) atamasi qurilishda ishlatiladigan vaqtinchalik tayanchni anglatadi. Pedagogikada esa bu tushuncha o‘qituvchi tomonidan o‘quvchiga beriladigan vaqtinchalik yordamni bildiradi. Metodning didaktik asoslari L. S. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga borib taqaladi. Vygotskiy fikricha, o‘quvchi mustaqil bajara olmaydigan vazifani tajribali yo‘lboshchi yordamida bajarishi mumkin. Iskala metodining maqsadi esa o‘quvchining shu zonadagi faoliyatini kengaytirib, uni mustaqil bilim olish darajasiga olib chiqishdir. J. Bruner va uning ilmiy maktabi bu nazariyani rivojlantirib, o‘qituvchi o‘quvchiga dastlab aniq yo‘l-yo‘riq va yordam ko‘rsatishi, keyinchalik esa bu yordamni bosqichma-bosqich qisqartirib, o‘quvchini mustaqil faoliyatga o‘rgatishi lozimligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Iskala metodida o‘qituvchi va o‘quvchi vazifalari	
O‘qituvchi vazifasi	**O‘quvchi vazifasi**
Yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi	Mustaqil izlanadi
O‘quvchi uchun tayanch yaratadi	Faol ishtirok etadi
Kichik guruhlar tashkil etadi	Guruhlarda bahs-munozarada ishtirok etadi
Motivatsiya beradi	Qo‘shimcha izlanadi
Yordamni bosqichma-bosqich kamaytirib boradi	Faol tajriba va kuzatuvlar o‘tkazadi
Baholaydi va tahlil qiladi	Xulosa chiqaradi

Iskala metodida o‘qituvchi – yo‘lboshchi, o‘quvchi – izlanishchi sifatida ishtirok etadi. O‘qituvchi yordamining bosqichma-bosqich kamayib borishi o‘quvchini mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvga o‘rgatadi, o‘quvchi oxir-oqibat mustaqil bilim egasiga aylanadi.

Biologiya darslarida iskala metodini qo‘llash nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, tabiat hodisalarini tahlil qilish, ekologik tafakkurni rivojlantirish va hayotiy muammolarni ilmiy asosda hal etishga o‘rgatishda ham muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda biologiya darslarida an’anaviy uslublar bilan bir qatorda innovatsion metodlarni joriy etish, xususan, iskala metodidan foydalanish ta’lim samaradorligini keskin oshirishi mumkin.

Iskala metodining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

Bosqichma-bosqichlik – o‘qituvchi dastlab kengroq yordam beradi, keyinchalik yordam hajmi kamayadi.

Faollik va hamkorlik – o‘quvchi o‘z faoliyatida faol ishtirok etadi, o‘qituvchi esa sherik sifatida unga ko‘maklashadi.

Moslashuvchanlik – yordam o‘quvchining individual qobiliyatlari va ehtiyojlariga qarab belgilanadi.

Mustaqillikka yo‘naltirish – metodning yakuniy maqsadi o‘quvchini mustaqil bilim olishga o‘rgatishdir.

Biologiya fani tabiatdagi murakkab hodisalarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda o‘quvchilardan yuqori darajada tahliliy fikrlash, kuzatuvchanlik va xulosalar chiqarish talab etiladi. An’anaviy metodlar orqali bu jarayonni to‘liq amalga oshirish qiyin bo‘lishi mumkin. Shu sababli iskala metodini qo‘llash quyidagi afzalliklarni beradi:

1. **Ilmiy tafakkurni rivojlantiradi** – o‘quvchilar biologik jarayonlarni o‘qituvchi rahbarligida tushunib boradilar va asta-sekin mustaqil tahlil qilishga o‘tadilar.
2. **Bilimlarni chuqur o‘zlashtiradi** – vaqtinchalik yordam orqali murakkab tushunchalar bosqichma-bosqich o‘zlashtiriladi.
3. **O‘quvchi faolligini oshadi** – metodda o‘quvchi faol ishtirokchi sifatida qaraladi, u passiv tinglovchiga aylanib qolmaydi.
4. **Hamkorlik muhiti shakllanadi** – o‘quvchilar o‘zaro fikr almashadi, guruhlarda ishlaydi, natijada kommunikativ ko‘nikmalari rivojlanadi.
5. **Motivatsiya kuchayadi** – o‘quvchi yordam orqali muvaffaqiyatni tezroq his qiladi, bu esa unga keyingi bosqichlarda mustaqil ishlashga turtki bo‘ladi.

Biologiya fanida iskala metodining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Jumladan, biologiya murakkab tushunchalarga boy fan bo‘lgani uchun iskala metodi uni o‘rganishda samarali hisoblanadi. O‘quvchilar fotosintez, DNK replikatsiyasi, yurak faoliyati kabi jarayonlarni dastlab o‘qituvchi yordamida tushunadi. Keyinchalik ular o‘zlari tajriba o‘tkazib, tahlil qilishga o‘tadi. Shu yo‘l bilan o‘quvchi bilimni chuqurroq o‘zlashtiradi. Masalan, ekologiya darsida “biosfera qatlamlari” mavzusini o‘rganishda o‘qituvchi sxemalar orqali tushuntiradi. Keyinchalik o‘quvchilar guruhlarda ishlash orqali mustaqil taqdimot tayyorlashadi.

Botanika darslarida “Fotosintez jarayoni” mavzusida o‘qituvchi dastlab sxemalar, animatsiyalar va izohlar orqali o‘quvchilarga tayanch beradi. Keyinchalik o‘quvchilar o‘zlari jarayonning bosqichlarini mustaqil tushuntirib berishadi, tajribalar o‘tkazishadi.

Zoologiya darslarida “Hayvonlarning nerv tizimi” mavzusida avval o‘qituvchi asosiy sxemalarni izohlaydi, so‘ngra o‘quvchilarga turli hayvonlarning nerv tizimlarini taqqoslash vazifasi topshiriladi. Bu jarayonda dastlabki yordam qisqaradi, o‘quvchilar mustaqil xulosa chiqarishga o‘tadi.

Odam anatomiyasi va fiziologiyasi darslarida, “Qon aylanish tizimi” mavzusini o‘rganishda o‘qituvchi tayyor jadval va modellarni ko‘rsatadi. Keyinchalik o‘quvchilar bu model asosida yurak va tomirlarning faoliyatini mustaqil tushuntiradi.

Iskala (skaffolding) – o‘qituvchining o‘quvchilarga o‘quv materialini o‘zlashtirishda yoki o‘quv topshirig‘ini bajarishda tegishli usul va vositalar orqali tizimli yordam berishi. Iskalaning asosiy g‘oyasi shundaki, dars davomida o‘qituvchi o‘quvchining ehtiyojiga qarab yordam ko‘rsatadi. o‘qituvchining yordami yo‘naltiruvchi savollar yoki ko‘rsatmalar berish, vizual vositalardan foydalanish orqali amalga oshishi mumkin. o‘quvchi yangio‘quv materialini qanchalikyaxshi o‘zlashtirsa, unga yordam kamroq kerak bo‘ladi va oxir-oqibat o‘qituvchining yordamiga ehtiyoj

qolmaydi. Quyida biologiya darsida “Fotosintez” mavzusida iskala metodi orqali bir soatlik dars ishlanmasi bilan tanishib o‘tasiz.

Dars maqsadlari

1. Ta’limiy maqsad: O‘quvchilarga fotosintez jarayonining mohiyati, shart-sharoitlari va bosqichlari haqida ilmiy asoslangan bilim berish. Yorug‘lik fazasi va qorong‘ilik fazasi bosqichlarini tushuntirish.

2. Tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirish, tabiatga ongli munosabatni tarbiyalash.

3. Rivojlantiruvchi maqsad: Mustaqil fikrlash, tahlil qilish, kuzatish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Jamoada ishlash va o‘z fikrini asoslab berish malakasini mustahkamlash.

Dars jihozi:

Xloroplast modeli yoki rasmiy plakat.

Fotosintez jarayonining sxemasi.

Multimediali taqdimot (slaydlar, animatsiyalar).

Oddiy tajriba uchun: yashil barg, suv, shisha idish, quyosh yorug‘ligi.

Dars jarayoni (Iskala metodi asosida)

1. Yo‘naltirish bosqichi (o‘qituvchi faolroq) - O‘qituvchi savol beradi: “O‘simliklar o‘sishi va yashashi uchun energiyani qayerdan oladi?”

- O‘quvchilarning javoblari eshitiladi.

O‘qituvchi “fotosintez” tushunchasiga izoh beradi va asosiy jarayonni qisqacha sxema yoki jadvallar orqali ko‘rsatadi.

2. Hamkorlik bosqichi (o‘qituvchi va o‘quvchi birgalikda) - O‘qituvchi fotosintezning ikki bosqichini, yorug‘lik va qorong‘ilik bosqichlarini tushuntirib beradi. O‘quvchilar bilan birgalikda xloroplast ichidagi jarayonni rasm orqali izohlaydilar va o‘quvchilarni guruhlarga taqsimlab, topshiriq beradi:

1-guruh: Fotosintez uchun zarur shart-sharoitlar.

2-guruh: Yorug‘lik fazasi jarayonlari.

3-guruh: Qorong‘ilik fazasi jarayonlari.

3. Amaliyot bosqichi (o‘quvchilar faolroq) -Oddiy tajriba: Bargni quyosh nurida va qorong‘ida qoldirish orqali kraxmal to‘planishini tajriba orqali kuzatadilar. Bunda o‘qituvchi yo‘l-yo‘riq beradi, o‘quvchilar bajaradi. O‘quvchilar tajriba natijasidan xulosa chiqaradi.

4. Mustaqillikka o‘tish bosqichi (o‘quvchi mustaqil)- Har bir guruh o‘z mavzusini taqdim qiladi. O‘quvchilar fotosintez jarayonining umumiy sxemasini mustaqil chizib tushuntirib beradi.

O‘qituvchi guruhlar uchun yakuniy savollarni beradi:

1. Fotosintez jarayonining asosiy mahsulotlari nima?

2. Nega fotosintez biosfera hayoti uchun muhim?

3. Atmosfera kislorodi va oziq zanjiri bilan qanday bog‘liq?

Baholash uchun -Guruhlarning taqdimoti (5 ballgacha).

- Mustaqil chizilgan fotosintez sxemasi (5 ballgacha).
- Savol-javoblarda ishtirok (5 ballgacha).

Dars yakunida o‘quvchilar fotosintezning mohiyati, shartlari va bosqichlarini tushunib oladi. Tabiiy jarayonlarning hayotdagi ahamiyatini anglaydi. Mustaqil fikrlash va ilmiy xulosa chiqarishga o‘rganadi.

Uyga vazifa berilib dars yakunlanadi.

Turli tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iskala metodidan foydalanilgan darslarda o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish darajasi yuqoriroq bo‘ladi. Xususan, eksperimental sinflarda o‘quvchilar mustaqil ishlashga tezroq o‘rganadi, ilmiy terminlardan to‘g‘ri foydalanadi, biologik jarayonlarni chuqur tahlil qiladi. Pedagogik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, iskala metodidan foydalangan darslarda: o‘quvchilarning 80 foizi mavzuni to‘liq o‘zlashtiradi; mustaqil ishlash qobiliyatida 25–30 foizlik o‘sish kuzatiladi; dars jarayonida savol-javoblar soni ikki baravar oshadi; o‘quvchilarning ijodiy fikrlash va guruhlarda ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Metodning afzalliklari quyidagi xususiyatlarda aks etadi:

O‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantiradi;

Murakkab mavzularni bosqichma-bosqich o‘zlashtirishni ta’minlaydi;

Hamkorlik va guruhli ishlarni rivojlantiradi;

O‘quvchilar motivatsiyasini oshiradi;

Albatta metodning kamchiliklari ham bor. Jumladan**,** har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini inobatga olish zarur hisoblanadi. Bu esa o‘qituvchidan yuqori darajada tayyorgarlik talab etadi. Vaqt jihatidan an’anaviy darslarga qaraganda ko‘proq sarflanadi.

Xulosa qilib aytganda, biologiya darslarida iskala metodini qo‘llash o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtiradi, ularda ilmiy dunyoqarashni rivojlantiradi hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ushbu metod an’anaviy o‘qitish usullariga samarali qo‘shimcha bo‘lib xizmat qiladi va o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini ochishga yordam beradi. “Fotosintez jarayoni” mavzusini iskala metodi asosida o‘qitish natijasida o‘quvchilarda nafaqat biologik bilimlar kengaydi, balki ularning mustaqil fikrlash, izlanish, hamkorlikda ishlash va o‘z qarashlarini asoslab berish ko‘nikmalari ham shakllandi. Ushbu metod o‘quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirdi.

Avvalo, dars boshida o‘qituvchi tomonidan berilgan yo‘naltiruvchi savollar va tushuntirishlar o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlarini aniqlashga va yangi bilimlarni qabul qilishga tayyorlashga xizmat qildi. Keyinchalik, kichik guruhlarda ishlash, tajriba o‘tkazish va kuzatishlar orqali o‘quvchilarning bilimlari asta-sekin mustahkamlandi. Oxirgi bosqichda esa ular mustaqil ravishda umumlashtirishlar qilish, tajriba natijasini izohlash va fotosintezning hayotiy ahamiyatini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Shu asosda aytish mumkinki, **iskala metodidan foydalanish biologiya fanini samarali o‘qitishning muhim omili bo‘lib**, u o‘quvchilarni dars jarayonida faol, izlanuvchan va mustaqil bilim oluvchi shaxsga aylantiradi. Ayniqsa, murakkab biologik jarayonlardan biri bo‘lgan fotosintez mavzusini o‘qitishda bu metod o‘quvchilarning mavzuni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PQ–5712-son Qarori. – Toshkent, 2019.

2. Xudoyberdiyev, A., & Yo‘ldosheva, M. *Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar*. – Toshkent: Noshir, 2021.

3. Qodirova, F. *Innovatsion metodlar asosida biologiya ta’limini takomillashtirish*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. Abdullayeva Sh. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Toshkent, 2020.

4. Qodirov A. *Biologiya o‘qitish metodikasi*. Toshkent, 2019.

INKLYUZIV TA’LIMDA MAXSUS YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNI O‘QITISH

Qurbonova Nilufar To‘raqulovna,
Karmana tumani 25-sonli alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internati tarbiyachisi

Annotatsiya:Ushbu maqolada jamiyatimizning bir bo‘lagi bo‘lgan maxsus yordamga muhtoj bolalar va o‘smirlarni ijtimoiy qo‘llab - quvvatlash, ularga ta’lim-tarbiya berish, kasb – hunarga yo‘llash, sog‘lom bolalar qatoridan o‘rin olib, o‘z qobiliyati va imkoniyatlaridan foydalana oladigan inson qilib voyaga yetkazishga doir fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ta'lim, bolalar, nogironlar, maxsus ta'lim, umumiy ta'lim, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy ajratish, maktab, nogironlar, yaxlit, jins, umumiy ta'lim muassasalari.

Аннотация.В данной статье социальная поддержка детей и подростков, нуждающихся в особой помощи, являющихся частью нашего общества, обеспечение их воспитанием и обучением, направление в профессию, занятие места среди здоровых детей, мысли и мнения о взрослении представляются как человек, умеющий использовать свои способности и возможности.

Ключевые слова:Образование, дети, инвалиды, специальное образование, общее образование, инклюзивное образование, социальная эксклюзия, школа, инвалиды, целостный, гендер, общеобразовательные учреждения.

Abstract.In this state, social support for children and adolescents, emergency workers and personal assistants, the promotion of our society, the provision of education and training, rehabilitation in the profession, healthy children, thinking and thinking about growing up as a person, able to use their abilities and opportunities .

Keywords:Education, child, disability, special education, general education, inclusive education, social exclusion, school, disability, total, gender, general education.

Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, xususiyatlari va qobiliyatlariga ko‘ra maxsus yoki umumiy ta'lim tizimida ta'limni amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi amalga oshirilmoqda.Inklyuziv ta'lim madaniyati! Salamanka deklaratsiyasiga muvofiq har bir o‘quvchi xususiyatlarini isloh qilishni qo‘llab-quvvatlovchi va ma'qullovchi dalil sifatida qaraladi. Uning maqsadlari jinsi, irqi, madaniyati, ijtimoiy millati, dini, individual imkoniyati va qobiliyati farqlar sabab ijtimoiy segregatsiya oldini olish uchun emas. Dunyo tajribasiga ko‘ra, maktablarda kiritish ko‘pincha tengdoshlari bilan birga o‘rta maktablarda nogironlar ta'lim sifatida qaraladi (Judi Kugel'mas) biroq, inklyuziv ta'lim mohiyati bilim va bilim hali jamiyatda yetarli emas. "Inklyuziv "va" integrallashgan " terminlari ko‘pincha bir xil ma'noda ishlatiladi.

Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniylarning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta’limning ta’siri to‘g‘risidagi qarashlari inklyuziv talim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi.[1]

Davlatimizning ustivor siyosati yosh avlodni aqlan teran,jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk har tomonlama rivojlangan komil inson qilib voyaga yetkazishdan iborat. Jamiyatimizning bir bo‘lagi bo‘lgan maxsus yordamga muhtoj bolalar va o‘s mirlarni ijtimoiy qo‘llab - quvvatlash, ta’lim- tarbiya berish, kasb – hunarga yo‘llash, sog‘lom bolalar qatori o‘rin olib, o‘z qobiliyati va imkoniyatlaridan foydalana oladigan inson qilib voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining bir bo‘lagi bo‘lib hisoblanadi.Inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim - tarbiya berishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta’lim olishi, o‘zlashtirishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga o‘rganish uchun maxsus yordamga ega bo‘lishi, darslarga qatnamay qo‘ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi. Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi - yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarga samarali bilim olish uchun sharoit yaratishdir.Ushbu sharoitda yordamga muhtoj bolalarni integrasiyalash va reabilitasiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali inklyuziv talim turini tanlash lozim.Ta’lim sohasida yordamga muhtoj bolalarning tahsil olishlari hamisha jamiyatning diqqat markazida turgan dolzarb masala hisoblanadi. Shunday ekan, ularga ta’lim beruvchi pedagoglar va mutaxassislar malakasini oshirish, zarur zamonaviy qo‘llanmalar, jihozlar bilan ta’minlash ham bu masalani hal qilish uchun qo‘yilgan qadamlardan biri hisoblanadi.[1]

Davlat rahbarining 2020−2025 yillarda respublikada inklyuziv ta’limni rivoj lantirish, boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarni ochish va maktab-internatlarni optimallashtirishga oid qarori qabul qilindi.Prezident 2020- yil 13 oktyabr kuni “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorga imzo chekdi.Mazkur qaror bilan 2020−2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi, ushbu konsepsiyani 2020−2021 yiilarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” hamda Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limini 2025 yilgacha rivojlantirishning maqsadli parametrlari tasdiqlandi.

Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko‘rsatkich va tegishli davrga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqib, 2020- yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alohida “yo‘l xaritasi” asosida bosqichma-bosqich amalga oshi- riladi. Inklyuziv ta’lim tizimini qo‘llab-quvvatlashda siyosat asosiy rol o‘ynay- di.Siyosat tomonidan inklyuziv ta’limning qo‘llab quvvatlanishi bu ta’lim tizi- mining samarasini va rivojlanishini ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy etish ustida olib borilgan tajribalardan shu narsa o‘z isbotini topdiki, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o‘z vaqtida aniqlab mutaxassislarga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o‘z vaqtida olib borilsa albatta ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. Ya’ni inklyuziv ta’limning samarasi yuqori darajada bo‘ladi.

Inklyuziv ta’limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog‘lom bolalar qatoriga qo‘shib sifatli ta’lim olishini ta'min- lagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va harakatlarini rivojlantirishdir.Juda

uzoq vaqt davomida maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga nisbatan maxsus segregatsion ta'lim muassasalarida ta'lim- tarbiya berish samarali deb hisoblanib kelindi.1970-1980 yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik g‘oyasining ilgari surilishi maxsus ehtiyojli bolalarga e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi.

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;
- o‘quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog‘lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash huquqini ro‘yobga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va o‘smirlarga nisbatan do‘stona va mehr-muhabbatli munosabatini shakllantirishdir.

Inklyuziv ta'limning prinsiplari:

1. Insonning qadr qimmati, uning qobiliyati va yutug‘iga bog‘liq emas.
2. Har bir inson o‘ylash vahis qilish qobiliyatiga ega.
3. Har bir kishi eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga ega.
4. Har bir kishi bir-biriga muhtoj.
5. Shaxsning to‘liq va haqiqiy ta'lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi.
6. Hamma kishilar o‘z tengdoshlarini qo‘llab-quvvatlashga muhtoj.
7. Hamma ta'lim oluvchilarni yutuqga erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas , balki nimanidir qila olishidir.
8. Hamkorlik qilish kishi hayotini har tomonlama kuchaytiradi.

Inklyuziv ta'lim tizimi quyidagi ta'lim muassasalarni o‘z ichiga oladi; maktabgacha umuta'lim, umuy o‘rta ta'lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim.Bu ta'lim muassasalarning maqsadi bolalarning ta'lim olishi va kasb-hunarga tayyorlashda ularning o‘rtasidagi to‘siqlikni bartaraf etib ochiq ta'lim muhitini yaratishdan iborat. Umumta'lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo‘lmaydi. Inklyuziv ta'lim tizimi integratsiyalashgan ta'lim tizimidan uzinig mazmun - mohiyati, maqsadi, vazifalari va xarakat dasturi bilan farqlanadi.

Bolaning tarbiya va o‘quv faoliyatida orqada qolishi psixik funksiyalarni o‘zlashtirmaganligi natijasidir. Masalan, bolaning kiyim kiyishida ketma-ketlikning buzilishi uning xotirasi zaifligidan emas, balki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan malakalarni egallamaganligi tufayli ro‘y beradi.[1] Bunday psixikmuammoni psixoreksiyalash usullari bilan birga bolaga kiyimlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda kiyish tasvirlangan rasmlar taqdim etilishi mumkin. L.S.Vigotskiy ijtimoiy muhit sog‘ligi imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir, degan g‘oyani ilgari suradi.Xuddi shuningdek, u imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishini ildizi yomon o‘simlikka o‘xshatadi. “Uning ingichkagina ildizlari oziqlantiruvchi tuproqning qatlamlari va shakliga mos kelmaydi. Ular o‘z-o‘zicha tuproqning oziqa beruvchi qatlamlariga yetib borolmay, quruq va zaharli

qatlamga kirib qoladi. Bunday o‘simlik muvofiq sharoitlarda gullashi mumkin edi, biroq odatdagi sharoitda taraqqiyotning cho‘qqisiga yetmasdan, bujmayib so‘lib qoldi”, deydi.

Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini har bir millat va elatning o‘ziga xos tomonlari, milliy an'analari, urf-odatlari, davlatning maqsad-vazifalari hamda tarbiyalanuvchilarning ruhiy va jismoniy rivojlanishidagi xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.Imkoniyati cheklangan bolalarda kattalar bolaning rayiga, mustaqil bo‘lishiga qarshi turmasdan, mumkin qadar istagi, intilishiga yordam bersalar, uning shaxsini shakllantirish jarayonidagi qiyinchiliklar o‘z-o‘zidan barham topadi. Imkoniyati cheklangan bolada o‘jarlik, qaysarlik, itoatsizlik xususiyatlari paydo bo‘lishi bu kattalarning haddan tashqari paypaslaganliklari oqibatida vujudga keladi.

Psixolog olima L.M.Krijanovskaya imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta'lim tizimida ta’lim-tarbiya berishda psixologik korreksiyalash metodlari orqali tarbiyalash yo‘llarini keng yoritib bergan. Uning fikricha, inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya ishlarining samarali bo‘lishi, yaxshi yutuqlarga erishishda maktab psixologi, pedagog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi uzviy bog‘langan bo‘lishi lozim.

Inklyuziv ta'lim tizimida jahon miqyosida amaliyotga joriy qilish borasida bugungi kunga qadar ham juda ko‘plab muammolar va to‘siqlar mavjud.Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: Salbiy munosabat; Hamjamiyatda ko‘rinmaslik; Moddiy mablag‘ muammolari; Jismoniy moslashtirish; Sinfdagi o‘quvchilar soni; Qaramlik; Jinsiy belgilarga qarab kamsitish; Favqulodda vaziyatlar, mojorolar va qochoqlar. Salbiy munosabat-maxsus ehtiyojli bolalarning umumta'lim muasasalari tizimida ta'lim tarbiya olaishlari uchun eng katta to‘siq bo‘lsa kerak. Salbiy munosabat muammosining mazmuni shundaki, ota-onalar, hamjamiyat a'zolari, o‘qituvchilar, umumta'lim muassasalari hodimlari, boshqaruv organlaridagi hatto maxsus ehtiyojli bolalrning o‘zlaridagi umumta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya olishlariga nisbatanqashiliklari va buni istamasliklaridir.[1]Bunga sabab nogironlarga nisbatan insonlardagi noto‘g‘ri fikr, ular to‘g‘risida ma'lumotlarning yetishmasligi, nogiron bolalarning chegaralangan muhitda o‘sganligi va boshqalardir. Ham jamiyatda ko‘rinmaslik muammosining mazmuni shundaki, ko‘pincha ko‘plab maxsus ehtiyojli bolalar ota-onalar tomonidan qattiq bekitiladi. Ularni uyga qamab hech kimga ko‘rsatmaydilar, ro‘yxatga olish jarayonida nogiron bolasi to‘g‘risida hech bir ma'lumot berilmaydi. Natijada ko‘plab nogiron bolalar hamjamiyatda ishtirok etishdan mahrum bo‘ladilar. Ular to‘g‘risida hech bir ma'lumotni bo‘lmasligi ta'lim-tarbiya muassasalariga qatnamasliklariga olib keladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak ,inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish ustida olib borilgan tajribalardan shu narsa o‘z isbotini topdiki, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o‘z vaqtida aniqlab mutaxassislarga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o‘z vaqtida olibib borilsa albatta ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. Ya'ni inklyuziv ta’limning samarasi yuqori darajada bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Дефект и сверхкомпенсация. // «Проблема дефектологии». М., 1996. -С. 42.

.

2. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов. - М.: «Владос», 2013. 83-б.
3. Maktablar hamma uchun - Save the children - 2002y. 20\23 bet
4. Pulatov Sh.N.Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1-2, 2020.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MATEMATIK TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Mansurova Zulfiya Ravshanovna,
Samarqand viloyati Ishtixon Pedagogika kolleji maxsus fan o‘qituvchisi

Annotasiya. *An’anaviy o‘qitish usullariga qo‘shimcha ravishda innovatsion texnologiyalarning, jumladan, axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT), raqamli o‘yinlar, vizual-multimedia vositalaridan foydalanish bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuning uchun ham maktabgacha ta’limda matematik tushunchalarni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘lar*; innovatsion texnologiya, ta’lim jarayonini modernizatsiyalash, ta’limiy maqsad, maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalar.*

Maktabgacha yoshdagi bolalarni innovatsion texnologiyalaridan foydalanib tarbiyalashning asosiy maqsadi ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishdan iboratdir. Buning uchun bolalar bog‘chalarining pedagogik jamoalari bolalarni tarbiyalash va intellektual rivojlantirishninng boshqa ta’lim tashkilotlaridan farq qiladigan eng yangi modellarini ishlab chiqishdan iborat. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashdan iborat.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida matematika o‘qitish bo‘yicha so‘nggi yillarda xorijiy tajribalarni o‘rgani va amaliyotga qo‘llash bo‘yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, Singapur davlatining NEL dasturida bolalarni tanqidiy fikrlash, elementar matematika malakalarini shakllantirish bo‘yicha mantiqiy fikrlashga oid bir qancha metodikalar joriy etilmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar sodda, ilk matematika tushunchalar bo‘yicha o‘z ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi hamda rivojlantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar son va sanoq geometrik shakllar vaqt va fazo haqida kattaliklarni o‘rganadi. Shu bilan birga eng soda geometrik figuralar bilan ularning ba’zi xossalari bilan tanishadilar, taqqoslash orqali shaklini tahlil qiladilar va baholashni o‘rganadilar.

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim muassalarida matematik ta’lim berish usulining mazmuni qo‘yidagilardan iborat:

1. Matematika o‘qitishda koz‘da tutilgan maqsadlarni asoslash, (matematika qay tarzda o‘qitiladi?);

2. Maktabgacha ta’lim muassasalarida matematika o‘qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (nimalarni o‘rgatish o‘rgatiladi?);

3. Matematik bilim berish usullarini ilmiy ishlab berish ya’ni bolalar hozirgi kunda zarur bo‘lgan bilimlarni, malaka, ko‘nikmalarni va aqliy faoliyatni qobiliyatlarni egallab oladigan bo‘lishlari uchun o‘quv ishlari metodikasi qanday bo‘lishi kerakligi;

4. Matematik bilim berish vositalarini darsliklar ,didaktik materiallar ko‘rsatma – qo‘llanmalar, pedagogik texnologiyalar va texnik vositalarni ishlab cniqish juda muhimdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida matematikani o‘rgatishning ta'limiy maqsadlari, bolalarga real olamdagi yuz beradigan eng sodda hodisalardagi miqdoriy nisbatlarni tushunishiga va olamdagi fazoviy shaklllarni, ularning joylashishlarini, natural son, geometrik shakl miqdor va boshqa tushunchalar muhim o‘rgatiladi.

Tarbyaviy maqsadlari matematikaga doir bajariladigan ishlar bolalarni boshqa oladigan bilimlariga qaraganda ko‘proq tirishqoqlikka, puxtalikka, aniqlikka o‘z fikr xulosalarini nazorat qila oladigan, tanqidiy fikrlashga undaydi.

Matematik tasavvurlarini shakllantirishda olib boriladigan asosiy shakl –bu mashg‘ulotdir. Mashg‘ulotlaridan tashqari vaqtlarda o‘yinlar tashkil qilinadi, bolalarning matematik tasavvuri mustahkamlanadi, chuqurlashtiriladi va kengaytiriladi.

Maktabgacha ta'lim tayyorlov guruhi bolalari misolida narsalarni 10 gacha sanay olish uchun ularga,

Ya'ni necha ?, Qancha ?, nechanchi? Kabi savollariga javob bera olishi o‘rgatiladi.

Maktabgacha tayyorlov guruhi uchun elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirishda bolalarning oldingi bosqichlarda olgan bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirishi o‘rgatiladi. Ushbu maqolada innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularning pedagogiik asoslari o‘rganilib, o‘quv jarayonida zamonaviy texnologiyalardan interaktiv metodlardan foydalanish samaraliroqdir. **“Smart Board”** (aqlli doska) yordamida interaktiv matematik mashg‘ulotlar **“Mozaik 3D”, “Khan Academy Kids”** kabi ilovalar orqali vizual tasavvurni kuchaytirish, **LEGO Education**, **Montessori materiallari** orqali amaliy-matematik ko‘nikmalarni shakllantirish, **“ScratchJr”** orqali dastlabki algoritmik fikrlashni o‘rgatish hozirgi pedagoglar uchun juda muhimdir.

“Smart Board” yordamida interaktiv matematik mashg‘ulotlar

Smart Board — bu sensorli ekranli, kompyuterga ulangan interaktiv doska bo‘lib, u o‘qituvchiga turli o‘yinlar, animatsiyalar, testlar va mashqlar orqali bolalar bilan jonli muloqotda dars o‘tish imkonini beradi.

📌 **Afzalliklari:**

- **Vizual ko‘mak:** Rangli grafikalar, shakllar, multfilmlar orqali matematik tushunchalarni oson tushuntirish.
- **Ishtirokni kuchaytiradi:** Bolalar doskaga chiqib bevosita misol yechadi, shakllarni joylashtiradi yoki raqamlarni harakatlantiradi.
- **Interaktiv o‘yinlar:** Masalan, sonlarni tartib bilan joylashtirish, geometrik shakllarni tanish o‘yinlari.
- **Tezkor baholash:** Test yoki mashq yechilgach natijani avtomatik tekshiradi.

📓 **Misollar:**

- 1 dan 10 gacha bo‘lgan raqamlarni to‘g‘ri tartibda joylashtirish o‘yini
- Shakllarni kattaligi yoki rangi bo‘yicha ajratish
- Oddiy misollarni (3+2, 5−1) turli xil variantlar bilan tanlash orqali yechish

👩‍💻 **Amaliy qo‘llanish:**O‘qituvchi “Smart Board” orqali **PowerPoint** yoki maxsus interaktiv dasturlar (masalan, **SMART Notebook**) yordamida dars tayyorlaydi. Bolalar esa doskaga chiqib topshiriqlarni bajaradilar, bu esa ularning e'tiborini jalb qiladi va faol ishtirokini ta'minlaydi.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN TA'LIMIY O‘YIN FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Mirzayeva Zebiniso Sharipovna,
Kattakurg‘on tuman 18 son DMMTT direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: *Ushbu maqola maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning mashg‘ulot jarayonida qo‘llaniladigan o‘yinlarning o‘rni va uning ahamiyati haqida so‘z yurtiladi.*

Kalit so‘zlar*: Tarbiya, o‘yin, maktabgacha ta’lim, o‘yinchoq, oila, uzluksiz ta’lim.*

‘‘Bola o‘yinda qanday bo‘lsa,o‘sib ulg‘aygach ishda ham ko‘pincha, ko‘p jixatdan shunday bo‘ladi”(A.S.Makarenko)

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning etakchi faoliyati bu o‘yindir. Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yin faoliyati masalasi asrlar davomida juda ko‘p olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘zlarining o‘yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg‘a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Bog‘cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosobatda bo‘lishga intiladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yinlari atrofdagi narsa va hodisalarni bilish quroli bo‘lishi bilan birga yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Boshqacharoq qilib aytganda, o‘yin qudratli tarbiya qurolidir. Bolalarning o‘yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, yuksak insoniy hislatlarni tarbiyalash mumkin. Hozirgi vaqtda o‘yin faoliyati to‘liq amalga oshirilgandagina bola shaxsi rivojlanadi. O‘yin faoliyatini bevosita kattalar bilan birga amalga oshiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ta’lim sohasidagi islohatlar avvalo oiladan bashlanadi.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning asosiy bug`ini hisoblanadi. Avvalo bu tizimga ota-onalarning ijtimoiy faoliyati va farzandlari uchun shart-sharoit yaratishlari nazarda tutilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ish mazmuniga esa kichkintoylarni maktab bosqichida o‘qishga tayyorlashdir. Maqsadimiz bilimni sifatini ko‘tarish va dunyo andozalari darajasiga olib chiqish. O‘yinning bolalar psixik tarakkiyotidagi kudratli roli mashxur pedagog va psixologlardan tashqari mutafakkir yozuvchilarni xam dikkat e’tiborini jalb etgan.

Adabiyotlar tahlili. Masalan rus yozuvchilaridan biri M.Gorkiy bolalar o‘yin va uning mohiyati hakida shunday degan edi. “O‘yin bolalar uchun uzlari yashab turgan dunyoni bilish hamda uni uzgartirish qurolidir”. O‘yin bolalar xayotida shunday kup qirrali faoliyatki unda bolalarga mansub bulgan mehnat ham, narsalar hakida fikr yuritish ham, hayol qilish, dam olish va xushchakchaklik manbalari xam mujassamlashgan. Mana shu jarayonlarning barchasi o‘yin faoliyatida namoyon buladi. Bolaning ongida uni qurshab turgan voelik to‘g‘risidagi xilma-xil o‘yin faoliyatini takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan.

N.M.Aksarinaning ta’kidlashicha, o‘yin o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit bo‘lishi lozim:

a) taassurotlar tarkib topishi;

b) har xil ko‘rinishdagi o‘yinchoqlar va tarbiyaviy ta’sir vositalarining muhayyoligi;

v) bolalarning kattalar bilan tez -tez muomala va muloqotga kirishuvi. Bunda kattalarning bolaga bevosita ta’sir kursatish uslubi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. D.B.Elkonin uz tadqiqotida rolli o‘yinning syujeti bilan bir qatorda, uning mazmuni

ham mavjud ekanini yozadi. Uning fikricha, o‘yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihatini aniqroq aks ettirishi o‘yinning mazmunini tashkil qiladi. O‘yin o‘z mohiyati jihatidan katta kishilarning hatti–harakatlari va xulq-atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo‘lishi tufayli bolalarda ma’naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob – axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o‘yin jarayonida tabiblik yoki muallimlik rolini bajarayotgan bo‘lsa, shu kasbga tegishli barcha sifatlarni namoyon qilishga intiladi. Ular o‘yinga juda berilib ketsalar, bajarayotgan rollariga xos sifatlar shunchalik samimiy, ijodiy tarzda namoyon bo‘ladi. Bolalar uchun o‘yin mazmunining hech bir chegarasi yo‘q. Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o‘z o‘yinlarida aks ettira oladilar. O‘yinning ahamiyati bola shaxsining o‘sib, kamolotga etishiga ta’sir ko‘rsatishdan iboratdir. O‘yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolaning moddiy dunyoga, kishilarga o‘z-o‘ziga munosabati o‘zgarayotgan o‘yinda namoyon bo‘ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqish (xavas) lari bevosita o‘yinda ifodalanadi. O‘yin bolalarning xayolparastligi tufayli narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma’qul tomonga “o‘zgartirish” imkoniyatini beradigan faoliyatdir.

Rus pedagogi A.S. Makarenko “Bola o‘yinda qanday bo‘lsa, o‘sib ulg‘aygach ishda ham ko‘pincha, ko‘p jixatdan shunday bo‘ladi” –deb to‘g‘ri aytgan edi. Haqiqatdan ham o‘yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi hayotni va kishilar o‘rtasidagi turli munosabatlarni har tomonlama bilib olishga qaratilgan faoliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolaning o‘yin faoliyati mazmun jihatdan har kungi vaziyatga qarab o‘zgarib turadi. O‘yin doimo o‘zgarib turganligi tufayli bola o‘ynab charchamaydi, zerikmaydi. Bolaning atrof muhitga kishilarga, narsalarga va o‘ziga bo‘lgan turli munosabatlari mazmun hamda shakl jihatdan har doim o‘zgarib turadigan o‘yin jarayonida namoyon bo‘ladi.

BOLALAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Ximmatova Gulmira Murotjon qizi,
SamDU talabasi,
Ximmatova Maftuna Muritjonovna,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti talabasi

Bola – jamiyat va davlatning eng qimmatli boyligidir. Bolalarning huquq va erkinliklarini himoya qilish masalasi butun dunyo miqyosida eng muhim ijtimoiy-huquqiy vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki har bir bola to‘laqonli hayot kechirish, ta’lim olish, sog‘lom bo‘lib ulg‘ayish va shaxs sifatida shakllanish huquqiga ega. Shu bois, bolalar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari milliy qonunchilikda ham, xalqaro normalarda ham keng ko‘lamda belgilab qo‘yilgan.

Bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha eng muhim xalqaro hujjatlar quyidagilardan iborat:

- **BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi (1989)** – bolalarning hayot, ta’lim, sog‘liqni saqlash, oilada yashash, fikr bildirish va diskriminatsiyadan himoya qilinish kabi asosiy huquqlarini belgilaydi.
- **BMTning Bola mehnatiga oid konvensiyalari (Mehnatning eng yomon shakllarini taqiqlash, 1999)** – bolalarning majburiy mehnatdan himoya qilinishini kafolatlaydi.

- **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948)** va **BMTning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi paktlari (1966)** – bolalarning asosiy huquqlarini umumiy inson huquqlari tizimida mustahkamlaydi.
- **UNESCOning Ta’lim to‘g‘risidagi konvensiyalari** – bolalarning sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlaydi.

Bu hujjatlar O‘zbekiston tomonidan ham ratifikatsiya qilingan bo‘lib, ular milliy qonunchilikka integratsiya qilinmoqda.

O‘zbekistonda bolalar huquqlari alohida e’tiborda bo‘lib, quyidagi normativ-huquqiy asoslar mavjud:

- **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi** (2023-yilgi yangi tahrir) – unda bolalarning huquqlari, ta’lim olish va sog‘liqni saqlash huquqi, shuningdek, ularni kamsitishning taqiqlanishi mustahkamlangan.
- **“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun** (2008) – bolalarning asosiy huquqlarini aniq belgilaydi va davlatning ularni himoya qilish majburiyatini ko‘rsatadi.
- **“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun** (2020) – bolalarning bepul va majburiy umumiy ta’lim olish huquqini kafolatlaydi.
- **Mehnat kodeksi** – bolalar mehnatini cheklash, ularni xavfli va og‘ir mehnat turlarida ishlatishni taqiqlash qoidalarini o‘z ichiga oladi.
- **Oila kodeksi** – ota-onalarning farzandlarni tarbiyalash, ta’minlash va ularning manfaatlarini himoya qilish majburiyatlarini belgilaydi.
- **Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar faoliyati** – bolalarni huquqiy himoya qilishda muhim organlardan biri hisoblanadi.

Bolalar huquqlarini himoya qilishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardir:

- **Ta’lim huquqi** – har bir bola sifatli va bepul umumiy ta’lim olish imkoniyatiga ega.
- **Sog‘liqni saqlash huquqi** – bolalarni bepul tibbiy xizmat bilan ta’minlash, ularning sog‘lom o‘sishi uchun shart-sharoit yaratish.
- **Ijtimoiy himoya** – yetim bolalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardagi bolalarni qo‘llab-quvvatlash.
- **Zo‘ravonlikdan himoya** – bolalarni jismoniy, ruhiy va jinsiy zo‘ravonlikdan himoya qilish.
- **Fikr bildirish huquqi** – bolaning o‘z fikri va manfaatini erkin ifoda etishi, qarorlar qabul qilishda uning ovozini inobatga olish.
- **Madaniy va shaxsiy rivojlanish** – bolalarning iste’dodini yuzaga chiqarish uchun sharoit yaratish.

Shu bilan birga, bolalar huquqlarini himoya qilish borasida muammolar ham mavjud:

- Qishloq joylarda ta’lim sifati va tibbiy xizmatning yetarli darajada emasligi;
- Bola mehnatidan noqonuniy foydalanish holatlari;
- Oilaviy zo‘ravonlik va psixologik tazyiq;
- Yetim bolalarning to‘laqonli ijtimoiy integratsiyasi muammolari.

Ularni hal etish uchun:

- Huquqiy targ‘ibot va huquqiy madaniyatni oshirish;
- Maxsus davlat dasturlari orqali bolalarga qo‘shimcha ijtimoiy yordam ko‘rsatish;
- Ta’lim va tibbiy xizmatning sifatini oshirish;

- Nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish muhimdir.

Bolalar huquqlarini himoya qilish – jamiyatning ertangi kuni, davlatning barqarorligi va taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli huquqiy asoslarni yanada mustahkamlash, ularni amalda samarali tatbiq etish, bolalar manfaatlarini har qanday vaziyatda birinchi o‘ringa qo‘yish – davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. **“Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”**, 20 noyabr 1989-yil.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 10-dekabr 1948-yil.

3-SHO‘BA: MA’NAVIY MEROS VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O‘QITILISHIDA INNOVATSION YONDOSHUVNING O‘RNI VA AHAMIYATI.

OYDIN HOJIYEVA SHE’RIYATIDA QO‘LLANGAN TERMINLARNING POETIK OBRAZ YARATISHDAGI ROLI

Mardanov Uktamjon Rustamovich,
Navoiy viloyati PMM direktori

Annotatsiya. Maqolada Oydin Hojiyeva she’riyatida sohaviy terminlarning lingvopoetik funksiyasi tahlil qilinadi. Shoiraning terminlardan badiiy maqsadda foydalanish mahorati ularning estetik, emotsional va aksiologik yuk kasb etishida namoyon bo‘ladi. Zoologiya, botanika va dehqonchilik terminlari poetik obraz darajasiga ko‘tarilib, milliy tafakkur hamda madaniy qadriyatlarni ifodalovchi vosita sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar*: lingvopoetika, sohaviy terminlar, badiiylik, emotsional rezonans, poetik obraz, milliy tafakkur, she’riyatda til birliklari, estetik energiya.*

Аннотация: В статье анализируется лингвопоэтическая функция отраслевых терминов в поэзии Ойдин Хаджиевой. Мастерство поэтессы в использовании терминов в художественных целях проявляется в их эстетической, эмоциональной и аксиологической нагрузке. Термины зоологии, ботаники и земледелия поднимаются до уровня поэтического образа и интерпретируются как средство выражения национального мышления и культурных ценностей.

Ключевые слова: *лингвопоэтика, отраслевые термины, художественность, эмоциональный резонанс, поэтический образ, национальное мышление, языковые единицы в поэзии, эстетическая энергия.*

Abstract: The article analyzes the linguopoetic function of specialized terms in Oydin Hojiyeva's poetry. The poetess's skill in using terms for artistic purposes is manifested in their aesthetic, emotional, and axiological load. The terms zoology, botany, and agriculture have risen to the level of a poetic image and are interpreted as a means of expressing national thinking and cultural values.

Keywords: *linguopoetics, specialized terminology, poetic artistry, emotional resonance, poetic imagery, national thought, linguistic units in poetry, aesthetic energy.*

Kirish.

She’riyat – inson ruhining eng nozik kechinmalarini, qalb hayratlarini va tafakkur olamidagi teranliklarni ifoda etuvchi badiiy so‘z san’atidir. Har bir ijodkor o‘zining ichki olami, estetik didi va tilga bo‘lgan munosabati orqali she’riyatga o‘ziga xos rang, ohang va mazmun olib kiradi. Oydin Hojiyeva ana shunday iste’dodli shoiralardan biri bo‘lib, uning she’rlarida tilning barcha qatlamlari, xususan, sohaviy terminlar poetik obraz yaratishning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shoira ijodida terminlar oddiy ilmiy tushunchalar sifatida emas, balki ruhiy-falsafiy mazmun yuklangan, emotsional rezonans hosil qiluvchi lingvopoetik birliklar sifatida talqin etiladi. Zoologiya, botanika, dehqonchilik kabi sohalarga oid terminlar Oydin Hojiyeva she’riyatida milliy tafakkur, madaniy qadriyatlar va estetik energiyani ifodalovchi kuchli badiiy vositaga aylanadi. Ushbu maqolada shoiraning she’riy

to‘plamlarida qo‘llangan terminlarning poetik funksiyasi, semantik o‘zgarishi va lingvopoetik tizimdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Asosiy qism.

Iste’dodli shoira Oydin Hojiyeva ko‘ngil kechinmalarini so‘z vositasida o‘ziga xos mahorat bilan yorqin bo‘yoqlarda tasvirlab beradi. Uning ijodida barcha til birliklari qatorida terminlarning ham o‘rni nihoyatda beqiyosdir.

Oydin Hojiyevaning tildan foydalanishga bo‘lgan talabchanligi va javobgarlik hissini shoiraning o‘tli she’rlaridan ham bilib olsa bo‘ladi. Bu mulohazalar nafaqat badiiy ijod bilan shug‘ullanuvchilar, balki ona tilidan foydalanuvchi barcha insonlarning hayotida asqotishi mumkinligi inobatga olinib, ushbu kichik tadqiqotda keltirish lozim topildi.

Shoira xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan “Men sevgan qo‘shiq”, “Zarkokil qiz va quyosh” (1972), “Manzillar” (1975), “Navo” (1977), “Tarovat” (1978), “Tong tuyg‘ulari”, “Yurakdagi tuyg‘ular”, “Shukrona”, “Sirlashuv”, “Shom shu’lalari” (2010) kabi qator she’riy to‘plamlarni she’riyat muxlislariga taqdim etgan.

Ana shu to‘plamlarida keltirilgan she’rlarida qo‘llangan sohaviy terminlar lingvopoetikaning asosiy kategoriyalaridan biri sifatida Oydin Hojiyeva she’riyatida badiiylikni yuzaga keltiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Ular tilning denotativ qatlamidan chiqib, konnotativ, emotsional va aksiologik qiymat kasb etadi.

Shoira she’riyatida sohaviy terminlar tildagi estetik energiyani faollashtiruvchi, milliy tafakkur va madaniyatni aks ettiruvchi, badiiylikni shakllantiruvchi kuchli lingvopoetik vosita sifatida o‘z o‘rnini topgan.

Toj-u taxt egasi – shahzodalarim,
Orzu hayollari ozodalarim,
Ot bosmagan izni bosgan toylarim,
Yalpizli, rayhonli shabbodalarim! (Yoshlarga deganim)

Yuqoridagi misralarda zoologiyaga oid “ot”, “toy”: botanikaga oid “yalpiz”, “rayhon” kabi sohaviy terminlar o‘zining asl lug‘aviy ma’nosidan yiroqlashib, obraz yaratishning asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ijodkor mazkur terminlarga ruhiy, falsafiy va madaniy mazmun yuklab, ularni poetik obraz sifatida transformatsiya qiladi. Yuqoridagi misralarda ot – ota timsoli sifatida talqin qilingan bo‘lsa, toy – otaning ezgu ishlarini davom ettirayotgan solih farzand timsoli sifatida tasvirlangan. Yalpizli, rayhonli shabbodalar esa farovonlik, go‘zallik va sadoqat ramzi sifatida talqin qilinadi.

Terminlar Oydin Hojiyeva she’riyatida nafaqat mazmuniy birlik, balki kompozitsion markaz sifatida ham xizmat qiladi. Shoiraning ko‘plab she’rlarida ilmiy termin poetik ritmni belgilaydi va asosiy semantik yadroni tashkil etadi.

Shoiraning “Tanbeh” she’rida zoologiyaga oid terminlar xuddi shunday poetik maqsadga yo‘naltirilgan:

Oxurdan bosh ko‘tarmagan
Novvos bo‘lma –
Novvoslarni semirtirib
So‘yarlar!
Nafsi xarom bo‘lma –
Qopqonlarga
Kart dumbalar qo‘yarlar.
Bo‘zto‘rg‘ayim!
Bo‘zlab-bo‘zlab erkin uch!

O‘zing urma aslo
Tillo qafasga.
Tutqunlikning ming yili hech
Arzirmikan
Dashtlardagi
Bir kunlik
XUR
Nafasga!
Arslon panjasiga
Tushgan kiyikdan
Sadqa ne titragan
bir jondan ortiq.

Oydin Hojiyeva she’riyatida kasb-hunarga oid terminlar inson ongida mavjud bo‘lgan tabiat, jon, nur, maysa, oftobro‘ya, ko‘klamoq kabi konseptlar bilan integratsiyalanadi. Bu esa terminlarning yangi kognitiv xaritasini hosil qiladi. Masalan, “maysa” so‘zi dehqonchilikka oid tushuncha bo‘lsa-da, ijodkor she’riyatida u inson ruhiy quvvati, ichki motivatsiyasi ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu holatda termin idrok jarayonida emotsional va semantik ko‘prik hosil qiladi:

Bug‘doy doni bo‘ldim, oftobro‘yada
Maysaday ko‘kladim, tomir otdim men.
Yurak chigit bo‘ldi, jon – himoyada,
Qora sovuqda ham nurga botdi men…

Ushbu tahlillar natijasida aniq bo‘ladiki, terminlar Oydin Hojiyeva she’riyatida ruhiy-falsafiy mazmunni ifodalash, milliy qadriyatlarni poetik shaklda tiklash va o‘quvchi idrokida emotsional rezonans hosil qilishga xizmat qiladi. Demak, sohaviy terminlar shoiraning lingvopoetik tizimida markaziy o‘rin tutadi.

Xulosa.

Oydin Hojiyeva she’riyatida sohaviy terminlardan foydalanish nafaqat tilning ilmiy qatlamini badiiy nutqqa olib kirish, balki ularni poetik obrazga aylantirish orqali ruhiy-falsafiy mazmun yaratish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Zoologiya, botanika, dehqonchilik kabi sohalarga oid terminlar shoiraning she’rlarida o‘zining lug‘aviy ma’nosidan yiroqlashib, emotsional, aksiologik va estetik yuklanma kasb etadi. Bu holat lingvopoetik tizimda terminlarning semantik yadroni shakllantiruvchi, kompozitsion markaz vazifasini bajaruvchi kuchli vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Shoira tilga bo‘lgan talabchanligi, badiiy ifoda vositalarini chuqur anglash qobiliyati va milliy tafakkurga sodiqligi orqali terminlarni o‘quvchi idrokida emotsional rezonans hosil qiluvchi poetik elementga aylantiradi. Natijada, Oydin Hojiyeva she’riyatida sohaviy terminlar nafaqat mazmuniy, balki estetik va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa lingvopoetik tahlil uchun yangi yondashuvlar va kognitiv asoslar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyeva O. *Shom shu’lalari*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2010. – 160 b.
2. Hojiyeva O. *Zarkokil qiz va quyosh*. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1972. – 112 b.
3. Hojiyeva O. *Manzillar*. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1975. – 96 b.
4. Hojiyeva O. *Navo*. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1977. – 104 b.
5. Hojiyeva O. *Tarovat*. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1978. – 120 b.
6. Jo‘raev N. *Lingvopoetika asoslari*. – Toshkent: Fan, 2008. – 232 b.

7. G‘afurov N. *Badiiy matn lingvistikasi*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015. – 256 b.
8. Karimov A. *She’riy matn poetikasi*. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 208 b.
9. Sa’dullayev A. *Adabiyot nazariyasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. – 320 b.
10. Normurodov B. *Til va badiiy tafakkur*. – Toshkent: Fan, 2006. – 210 b.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA TARBIYAVIY ISHLARNI AMALGA OSHIRISH METODIKASI

Karimova Dilfuza Abduqayumovna,
Navoiy viloyati PMM dotsenti Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida ta’lim-tarbiyaning milliy ma’naviy negizlari, ma’naviy-axloqiy tarbiya va uning asosiy tarkibiy qismi, tarbiya metodlari, tarbiya qoidasi, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini o‘quvchilar ongi va qalbiga singdirish aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, ta’lim, tarbiya, axloq, odob, xulq, qadriyat, meros, ajdodlar, jamiyat, o‘quvchi, millat, xalq, yoshlar.

Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan. [1]

Sh.Mirziyoyev

Jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin – asta ko‘nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushohada qilishi qobiliyatni tarbiyalaydi va aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma’naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta – sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchilardan uzoq davom etadigan mas’uliyat, sharafli mehnat va qunt, irodani talab etadi. Bunda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatini e’tiborga olishi zarur.

Tarbiyaning samarali bo‘lishi nimalarga bog‘liq?

Ma’naviy va insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va munosabat muhim o‘rin egallaydi. Bolalarni taqlidchanlik xususiyati mavjudligi tufayli ularni tarbiyalashda ota – onaning ongi, ma’naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga egadir.

Yoshlar barcha sohada yetakchi bo‘lishlari uchun eng avvalo, go‘zal odob-axloqli bo‘lishlari lozim. Chunki, islomiy ta’limotga ko‘ra, odob oxirat ne’matlariga yetkazuvchi asosiy vositalardan biridir. Qur’oni Karimda ham, Rasulullоh (alayhissalom) hadislarida ham odob-axloq masalasiga alohida e’tibor berilgan. Farzand tarbiyasi haqida ilgari ham juda ko‘p yozilgan.

Buyuk ajdodlarimizga xos azmu shijoat, xalqimizning metin irodasi, tobora ulg‘ayib kelayotgan barkamol avlodimizga tayanib, jamiyatimiz hayotini tubdan yangilash yo‘lini izchil davom ettirish - eng dolzarb vazifamizdir.

Bu millat kishilik taraqqiyotiga o‘zining o‘chmas ulushini qo‘shgan, mamlakatimiz shuhratini olamga taratgan, tarix sahifalariga abadul-abad muhrlangan. Zaminimiz azaldan buyuk allomalar, mutafakkirlar, o‘z zamonasidan o‘zib ketgan daholar yurti bo‘lib kelgan. Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg‘oniy, Muhammad al Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Bakr Qaffol Shoshiy, Abu Mansur Moturidiy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Abulmuin Nasafiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Imom Dorimiy nomlarining o‘zi bir kitob bo‘ladi. [2]

Jumladan, Amir Temur axloqi husniya - yaxshi xulqlar egasi bo‘lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda ham shoshmashosharlik va adolatsizlikka yo‘l qo‘ymagan, balki yetti o‘lchab bir kesgan. Amir Temur singari jahon ma’naviyati saltanatida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan buyuk bobokalonlarimizning axloq, go‘zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi. “O‘g‘illarim! Millatning ulug‘ martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o‘qing, aslo unutmang va tatbiq eting. Millatning dardlariga darmon bo‘lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo‘riqlang, yo‘qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsin”. [3]

Ismoil Al-Buxoriy “Axloqning yaxshi bo‘lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik shart, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo‘lsang ham zarari yo‘qdir”, – deb yozadi. O‘rta Osiyo mutafakkirlarining axloq haqidagi fikrlari, o‘gitlari shunday kuchga egaki, ular o‘quvchilar qalbida insoniylik urug‘larining unib chiqishiga, katta hayot yo‘liga olib chiqishga yordam qiladi, ma’naviy kuch-quvvat beradi. Ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida tarbiyaviy soatlar, ertalabgi saflanish, ma’naviyat kunlari kabi tadbirlarda Buxoriy avlodlari, Marg‘inoniy izdoshlari, Moturidiy va Naqshband davomchilari, Islom sivilizatsiyasi bilimdoni shiori ostida ochiq darslarni o‘tishdan eng asosiy maqsad ham maktab o‘quvchilarining vatanparvarlik e’tiqodini shakllantirishdir. Vatanni sevmoq uchun, dastavval, uning ma’nosini, tarixini, taqdiri va istiqbolini chuqur anglab yetmoq kerak. [4]

Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda:

• xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an’analari, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish;

• milliy va umuminsoniy fazilatlarni shakllantirish va mustahkamlashda keng jamoatchilik kuchi va tajribasiga tayanish zarur.

Barkamol avlodni shakllantirishning muhim shartlari:

birinchidan, yosh avlodga o‘zligimiz, muqaddas an’analarimizni anglash tuyg‘ularini, xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu fazilatlarini, jamiyat oldida turgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish;

ikkinchidan, jamiyatimizda bugungi kunda mavjud bo‘lgan hurfikrlilikka tayangan holda yoshlarni xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g‘oya – milliy mafkuraga sadoqat o‘yin yakuni sifatida odamlar nega taqiqlangan xatti-harakatlarni sodir etishlari, oilaviy hayotga zid bo‘lgan xatti-harakatlarni amalga oshirishlarining sabablari aniqlanadi. Ushbu yakuniy xulosalar kichik guruhlarda ham ishlab chiqilishi mumkin.

uchinchidan, yoshlarni O‘zbekistonga munosib voris bo‘la oladigan baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash;

to‘rtinchidan, yosh avlodni ulug‘ ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar, Davlatimiz rahbari ta'kidlab o‘tganidek:

birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko‘rsatishiga;

ikkinchidan, insonning hayotda o‘z o‘rnini topishiga;

uchinchidan, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga;

to‘rtinchidan, insondagi mavjud salohiyatni to‘la ro‘yobga chiqarishga;

beshinchidan, umumiy va maxsus bilimlarga, zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lgan ongli, tafakkuri tiniq, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Tarbiya metodlari - o‘quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayoniga taalluqli ko‘pgina tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi etib tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi.

Tarbiya metodlari - bu o‘qituvchi (tarbiyachi) va jamoa tomonidan g‘oyaviy va ma'naviy e'tiqodlarini, ma'naviy his-tuyg‘u va odatlarini tarkib toptirish maqsadida qo‘llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko‘rsatish usullari demakdir. Tarbiya metodlari o‘quvchi(tarbiyalanuvchilar)ning o‘z shaxsini takomillashtirish borasidagi harakatni ham tashkil etishni nazarda tutadi. Shu bois ta'lim tizimida tarbiya metodlari o‘qituvchi va o‘quvchilarning tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga qaratilgan o‘zaro bog‘langan, birgalikdagi faoliyati usuli sifatida qarab chiqiladi.

Tarbiya qoidasi - pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang‘ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari o‘qituvchi, tarbiyachilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalar hisoblanadi, yangi kishini shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari Sharq va Markaziy Osiyo faylasuf — donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiya qoidalari mustaqil xarakterga ega bo‘lib, tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini va qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda bu qoidalarga rioya qilish uning samarasini oshiradi, yaxshi natijalarga olib keladi.[5]

Farzandlarimizning kelajakda komil inson bo‘lib yetishishlarida oila va jamiyatda yaxshi tarbiya olishning o‘rni beqiyosdir. Ota-ona, ustoz-murabbiylar, rahbar va yoshi kattalar qancha madaniyatli, odobli bo‘lsa, shu jamiyat va muhitda o‘sayotgan shaxslar ham shunchalik odobli bo‘lib yetishadi. Bunday sermas'uliyat ijtimoiy ishni amalga oshirish, ya'ni yoshlarimizning odobli, xushxulqli, vijdoni pok kishilar bo‘lib yetishishlari uchun o‘z xulq-atvorimiz bilan ularga yaxshi ibrat va namuna bo‘lishimiz bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Ilgarigi zamonda shunday maqol bor edi: “Domlaning aytganini qil-u, qilganini qilma”. Hozir bu maqol eskirdi: o‘smir va o‘spirinlar ko‘pincha ustozlari va kattalarning tashqi yashash tarzidan o‘rnak oladilar, ya'ni ular “domlaning qilganini qilishadi”. Bu o‘rinda ularning quyidagi haqli e'tirozlarini inobatga olish zarur.: “Nima uchun chekmagin, ichmagin deyishadi-yu, o‘zlari chekishadi, ichishadi?”, “Nima uchun rost gapirgin deydilar-u, o‘zlari yolg‘on so‘zlaydilar?”. Agar o‘qituvchi va boshqalar ana shunday so‘zda to‘g‘ri-yu, amalda noto‘g‘ri ish tutishsa, shogirdlari qanday qilib uni hurmatlaydi? Undan nimani o‘rnak qilib oladilar? Shu ma'noda tarbiyachi har vaqt o‘z

so‘ziga amal qilishi va so‘zining ustidan chiqishi kerak. Ibratning aynan ana shu jihati komil inson tarbiyasida katta ahamiyatga ega.

Ibrat tarbiyasi insonni qadimdan qiziqtirib kelgan. Bu ayniqsa, Yunonistonnning mashhur mutafakkirlari Aflotun va Arastuning nomi bilan bog‘liq pandnomalaridan keng o‘rin olgan. Jumladan, Sharq mamlakatlarida Aflotunning Arastuga, Arastuning Iskandarga nasihati va vasiyatnomalari yaxlit asar sifatida tarqalgan. Arastuning aytishicha, tarbiyachining o‘zi tarbiya ko‘rgan, insoniy fazilatlarni egallagan bo‘lishi darkor.

Bulardan tashqari Sharq mamlakatlarida axloq va ta'lim-tarbiyaga oid “Rushnoinoma”, “Qobusnoma” Farididdin Attorning “Pandnoma”si, O‘bayd Zakoniyning “Sad pand” kabi asarlari keng tarqalgan. Ilk o‘rta asrlarda Arastu va uning izdoshlarining risolalari arab tiliga tarjima qilindi va ularning ta'limotlari Al-Kindiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Jomiy, Navoiy va boshqa Sharq faylasuflari tomonidan o‘rganildi va boyitildi.

Demak, bugungi yoshlarimizning kamoloti va unga mos dunyoqarashi muntazam ravishda takomillashib, rivojlanib borishida ibrat-namunaning o‘rni beqiyosdir. Bu o‘z navbatida Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratuvchilarining ongli a'zolarini tayyorlashni kafolatlaydi. [6]

Farzandlarimizning kelajakda barkamol inson bo‘lib yetishishi avvalo, uning yoshligida olgan odob-axloqi hamda ilm-ma'rifatiga bog‘liqdir. Shuning uchun bir hadisi sharifda shunday deyiladi: “Yoshlikda o‘rganilgan ilm toshga o‘yilgan naqsh kabidir”. To‘g‘ri, bola yoshlik qilib ta'lim-tarbiya olishning ahamiyatini to‘liq anglamasligi, tushunmasligi mumkin. Shuning uchun barcha ota-onalar farzandlarini yoshlik chog‘laridan boshlab odob-axloqli qilib tarbiyalash bilan birga, ilm-u-fanning barcha qirralarini egallashga qiziqtirib borishlari lozim. Ta'lim muassasasida berilayotgan darslarni o‘quvchilar puxta o‘zlashtirishiga alohida e'tibor qaratish har bir ota-ona va ustozlarning mas'uliyatli burchidir. **Mustaqilligimizni asrab-avaylash, uning qadriga yetadigan, o‘z bilimi va mehnati bilan** uni mustahkamlab, Uchinchi renessans poydevorini yaratadigan barkamol avlod tarbiyasi haqida qayg‘urar ekanmiz, diqqat markazimizda hamisha ana shunday sog‘lom dunyoqarashga ega yoshlarimiz kamol topadigan ma'naviy muhitni barpo etish muhim vazifa bo‘lib qolaveradi.

Shaxsni o‘quvchilar jamoasida tarbiyalash va kamol toptirish – barkamol shaxs tarbiyasining asosiy qoidasidir. Bola shaxsi faqat jamoadagina, uning ta'siridagina haqiqiy shaxs sifatida shakllanadi. Hozirgi sharoitda jamiyatning har bir a'zosi biror bir pedagogik jamoaning faol a'zosi bo‘lishi zarur. [7]

Ilg‘or pedagogik tajribalarning ko‘rsatishicha, o‘quvchilar ahil jamoa bo‘lib uyushgandagina tarbiya ishlarini amalga oshirish ancha yengil bo‘ladi va muvaffaqiyati ta'minlanadi. Yaxshi uyushgan, sog‘lom jamoada o‘quvchilarning fikri juda katta tarbiyaviy kuchga ega bo‘ladi va tarbiya jarayonida o‘qituvchilarning tayanchiga aylanadi. O‘quvchilarining ma'naviy va ma'rifiy tarbiyasini tashkil etishda o‘qituvchilar, tarbiyachilar, bolalar yetakchisi, psixolog, ota-onalar, shuningdek ta'lim muassasasi rahbariyati mahalla, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar, huquq-tartibot idoralari, maktabning jamoatchilik komissiyasi, tegishli davlat va nodavlat tashkilotlari, ijodiy uyushmalar hamkorlikda faoliyat yuritadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda ta'lim va tarbiya tizimining to‘xtovsiz rivojlanishi, ilmiy yangiliklar bilan boyib borishi zarurligini tushunishimiz va bu yo‘nalishda umumbashariy tamoyillarga murojaat qilishimiz,

milliy va zamonaviy bilimlarga asoslangan fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi.– Toshkent: O'zbekiston, 2017.06.15
2. Mirziyoev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
3. Amir Temur "Temur tuzuklari" -Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2018
4. Imom Buxoriy hadislar to'plami - Toshkent: "O'zbekiston" , 2010
5. Ishmuhamedov R. J, Yuldashev M. A. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013.
6. M.Quronov "Milliy tarniya". – T., "Ma'naviyat", 2007 y
7. I.Sh. Alqarov, R.Mamatquliva, H.D.Norqulov "Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi" -T .: «Fan va texnologiya», 2009

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQI RIVOJLANISHINING SENZITIV DAVRLARI

Xurvalieva Tarmiza Latipovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
Abdikarimova Inobat,
Maxmudova Fotima,
Xamroeva Zuxra,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari

Аннотация. *В статье освещены особенности развития речи детей дошкольного возраста. Приведён анализ особенностей речевого развития в разные возрастные периоды по М.Монтессори. Также рассматриваются методические приёмы, используемые в процессе обучения и воспитания детей.*
Ключевые слова*: речь, сензитивный (чувствительный) период, слово, произношение, буква, звук, этика и нравственность, общение, потребность.*

Annotation*. The article highlights the features of speech development in preschool children. It provides an analysis of the characteristics of speech development at different age stages according to M. Montessori. The article also discusses methodological approaches used in the process of educating and upbringing children.*
Keywords: *speech, sensitive period, word, pronunciation, letter, sound, ethics and morality, communication, need.*

Bolalarda nutq rivojlanishining senzitiv davri tug'ilganidan olti yoshgacha davom etadi**.** Bu davr 1 yoshdan 4 yoshgacha davom etadi. Bu yoshdagi bolalarga harakatchanlik kuchli bo'ladi. Chunki, harakatlanish natijasida qon kislorod bilan to'yinadi, bosh miya rivojlanadi, psixik jarayon rivojlanishi faollashadi. Bilish faoliyati juda yuqori bo'ladi, harakatlari ham jadallashadi. Bu yoshdagi bolalar uchun shunday faoliyat turlari tanlanishi kerakki, harakatlanish cheklanmasligi lozim. O'quv-tarbiyaviy jarayonlarda bolalar ko'p o'tirishi mumkin emas, ular zo'riqmasligi uchun jismoniy daqiqalar o'tkazish zarur. 2 yoshdan 6 yoshgacha bolalar xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtiradi. Bolalar atrofida qanday voqea-hodisalarni ko'rsa shunga

ta'sirlanadi, shuning uchun ular bilan muloqot madaniyatiga xos ravishda munosabatda bo'lish muhim.

Italiyalik olima M.Montessori 0-6 yoshgacha bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishini senzitiv davrlarini aniqlagan:

0-4 oylik- bola tovushlarni anglaydi, ovoz chiqqan tomonga qaraydi, tovushlarni eshitadi va taqlid qiladi.

1-1,5 yoshda- so'zlarni talaffuz qiladi va nutqni tinglaydi.

2-2,5 yosh-so'z boyligi yig'iladi, hissiyotlari va istaklarini ifodalaydi. O'zbek tilini grammatik me'yorlarini o'zlashtiradi.

2,5-3 yoshda bola eshitganlarini o'ylaydi va nutq so'zlashni yoqtiradi. O'z fikrlarini so'zlaydi.

3,5-4 yoshda–foydalangan so'zlar va nutqini anglaydi.

4-4,5 yosh- muammolarni echish uchun nutqdan foydalandi.

5 yoshda-tovush va harflarga qiziqadi. O'z fikrlarini ifodlaydi. O'qishni o'rganadi va boshqalar fikrini tushunadi.

0 -3 yoshda bolalar atrof muhitdagi voqeliklarni anglaydi va tushunadi "[11]. Mariya Montessori bolalarni turmush tarzi tartiblariga o'rgatish lozimlini tavsiya etadi. Bolalar oilada tartib qoidaga o'rgatiladi. Odamlar uchun pol yurishga mo'ljallangan, suv baliqlar uchun, ular esa suvda suzadi. Bolalar yotishi uchun krovati bor, o'yinchoqlar uchun javon. Bolalar oyoq kiyimlar uchun javon alohida ekanligini tushunadi, idish tovoqlar oshxonada turishini biladi. Agarda onasi otasini oyoq kiyimini kiyib olsa, hayratlanadi. Har bir oila a'zosini vazifalarini anglaydi (ona-ovqat pishardi, kir yuvadi, uyni tozalaydi... v.h.). Bolalar uchun kundalik tartib ham muhim hisoblanadi. Bolaning bir yoshligidanoq, tartibga o'rgatish zarur. Ertalablabki nonushtadan so'ng sayrga chiqish, uyqudan oldin qo'l va tishlarni tozalab yuvish kabi sog'lom turmush tarziga o'rgatiladi. Kattalarning bolalarga bo'lgan talablari muntazam va aniq bo'lishi lozim, masalan ovqat vaqtida gapirmaslik, ovqatdan oldin va keyin qo'llarni yuvish, kattalar so'zlashayotganda aralashmaslik kabi odob-axloq qoidalari o'rgatib boriladi. 3 yoshda bolaga o'rgatilgan odob-axloq me'yorlari va tartib-intizom kelgusi hayotida ham zamin bo'ladi. M.Montessori, sensor tarbiyani tafakkurning asosi deb ta'riflaydi, so'z boyligi ko'payadi, matematik idrok, yozish malakalari, estetik tarbiya rivojlanadi. Atrof olamni sezish orqali anglaydi, hissiy idrok rivojlanadi. Bolalarda tajribalar shakllandi, turli shakllar, miqdor va rangni idrok qiladi. Ularda ko'rish, eshitish va taktil sezgi rivojlanadi.

Tartibni idrok qilish davri. Tug'ilganidan 3 yoshgacha yuz beradi. 1,5 -2,5 yoshgacha bolalar mayda buyumlarni idrok qiladi, maslan: tugmachalar, konstruktor o'yinlarni yig'adi va mayda qismlarga ajratadi. Bu esa bolalarga atrof olam haqidagi tushunchalarni shakllanishiga yordam beradi, butun va qismning mohiyatini anglaydi. Bu bola rivojlanishing muhim davri sanalib, tug'ilgan vaqtida tartib, ozodalik nimaligini farqlamaydi, atrof muhit u uchun oddiy xaotik hisoblanadi. asta sekin u atrof olamni kuzatadi, so'ngra tartib qoida haqida tushuncha paydo bo'la boshlaydi. Uy ro'zg'or buyumlarini farqlaydi, oziq-ovqatlar muzlatgichda turadi, kitoblar esa javonda, har bir kishini o'z kiyimlari bor ekanligini anglaydi. Narsa buyumlarni vazifasini tushunadi, qoshiqda ovqatlanish, stulchada o'tirish, stolga dasturxon tuzatish lozimligini biladi. Kunlik tartibni o'zlashtiradi, ertalab uyqudan uyg'ongach yuz – qo'lni yuvish, so'ngra ovqalanish va boshq. Ota-onalarning vazifasi esa, bola uchun kunlik tartibga amal qilishni ta'minlashdan iborat.Kattalar bilan muloqot qilishga o'rgatiladi. Ushbu bosqchida ota-oanalarga katta ma'suliyat yuklanadi, bolaning tabiiy

ehtiyojlarini qondirish, kundalik turmush tarziga o‘rgatish kabilarni bajaradilar. Bir yoshgacha tovushlarni eshitadi, turlicha ovozlar chikaradi, ularni chuzib aytadi. Passiv so‘z zaxirasi paydo bo‘la boshlaydi, bola so‘z mazmunini tushunsa ham o‘zi mustaqil talaffuz qila olmaydi. Bir yarim yoshlarga etganda, yangi so‘zlarni o‘zlashtira boshlaydi. Bola gapirishni xoxlasada, buni uddalay olmaydi. Uch yoshlarga borganda gaplarni teskari tuza boshlaydi(masalan: men keldim bog‘chadan, maktabga opam ketdi). Bolada nutq rivojlanish bosqichi boshlanadi, u gapirmasa ham ma'lumotlarni o‘zlashtira oladi. So‘zlarni tushuna boshlagach, ketma-ketlikda gapiradi. Shuning uchun ota-onalar va kattalar bolaga ifodali, ravon va grammatik jihatdan to‘g‘ri gapishlari lozim. Ushbu davrda ko‘proq bola bilan so‘zlashish, she'r va ertaklar o‘qib berish, murakkab bo‘lmgan qo‘shiqlar kuylash maqsadga muvofiq. Uch yoshdan keyin bolalar "o‘z-o‘zi" bilan so‘zlasha boshlaydi. Bu esa nutq rivojlanishining eng zarur bosqichi bo‘lib, nimani eshitsa shuni o‘ylab gapiradi, asta-sekin o‘zi haqida fikrlay boshlaydi. To‘rt yoshdagi bolalar uchun harflar qiziqarli tuyula boshlaydi, ularni grafik tasvirlash bilan birga ma'nosini ham anglay boshlaydi. Harflarga so‘zlar aytadi masalan: A harfiga -ayiq, ari, asal, arra, anor, avtobus va boshq. So‘zlayotgan harf va tovushlar o‘rtasidagi aloqadorlikni tushunadi. Bu davrda barcha sezgi organlari rivojlanadi. Bu yoshdagi bolalar rang, shakl, katta va kichikni idrok qila boshlaydi. Narsa-buyumlarning xususiyati va belgilarini his qilishga intiladi. O‘yinchoqlarni tanlab o‘ynaydi. Eng muhim bolada tanlov imkoniyati paydo bo‘ladi.

Kattalar bolalarga yurish, so‘zlashish, o‘qish, yozishni, hatti-harakatni o‘rgasa, ular uchun oson kechadi. Ota-onalar birgalikda bolalar bilan barcha harakatlarni bajarishlari lozim. Bolalarga atrof olamdagi voqea-hodisalar ta'sir qiladi, shuning uchun sezitiv davrda ular bilan birga o‘ynash, suhbatlashish, ularning hoxish va istaklarini inobatga olish muhim. Shundagina bolalarda produktiv tafakkur rivojlanishiga erishiladi. Mariya Montessori fikricha, "hech qachon bolalarga biror narsani to‘liq o‘rgata olmaymiz, qachonki, senzitiv davrga mos ravishda ta'lim-tarbiyani tashkil etilmasa". Ayni senzitiv davrda bolalarda muayan ko‘nikma shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Давletshin. M.G., Sh.Do‘stmuhamedova va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.O‘quv metodik qo‘llanma.-T.: 2004-129 b.
2. Козина Е.Ф. Методика ознакомления с окружающим миром в предшколном возрасте.М.: Изд..Прометей-2011-690 с.
3. Qodirova F.R.,.Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi .Darslik. T.:Istiqlol, 2006-247 b.
4. Монтессори М. Помоги мне сделат это самому.М.: И.Д.Карапуз, 2002.-252 с.

TO‘Y ETNOGRAFIZMINING LINGVOMADANIY TADQIQI
(Navoiy viloyati misolida)

Suvanova Mavjuda Xamrakulovna,
Navoiy viloyati PMM dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada to‘y marosimlariga oid etnografizmlar lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. O‘zbek xalqining an'analari, urf-odatlari va marosim madaniyati orqali shakllangan til birliklari o‘rganiladi. To‘y marosimida qo‘llanadigan atamalar, ramziy ifodalar hamda xalqona iboralarning milliy mentalitet va qadriyatlarni aks ettirishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *to‘y, etnografizm, lingvomadaniyat, an’ana, urf-odat, ramz, marosim.*

Аннотация. *В статье рассматриваются этнографизмы, связанные со свадебными обрядами, с точки зрения лингвокультурологии. Анализируются языковые единицы, сформированные через традиции, обычаи и обрядовую культуру узбекского народа. Особое внимание уделяется свадебной терминологии, символическим выражениям и народным фразам, отражающим национальный менталитет и ценности.*

Ключевые слова: *свадьба, этнографизм, лингвокультура, традиция, обычай, символ, обряд.*

Abstract. *This article examines ethnographisms related to wedding ceremonies from a linguo-cultural perspective. It analyzes linguistic units shaped by the traditions, customs, and ritual culture of the Uzbek people. Particular attention is given to wedding terminology, symbolic expressions, and folk phrases that reflect national mentality and cultural values.*

Keywords: *wedding, ethnographism, linguo-culture, tradition, custom, symbol, ritual.*

Har bir xalqning o‘z an’ana va qadriyatlariga xos bo‘lgan bir qancha urf-odat va milliy marosimlari mavjud. Ana shunday marosimlar jumlasiga to‘y marosimlari va ularni o‘tkazish jarayonlari bilan bog‘liq an’analar, udumlar, hamda ularni uyushtirishga mansub vositalar kiradi. Chunki to‘y marosimlari barcha xalqlarda qadimdan shakllangan ham etnografik, ham umuminsoniy qadriyatlari hisoblanadi. Ularda muayyan xalqning azaliy urf-odatlari, an’analari, milliy madaniyati ifodalangan bo‘lib, ularga nisbatan madaniy meros, madaniy jarayon, madaniy makon, madaniy an’ana va madaniy fond kabi tushunchalar qo‘llanilib kelinmoqda. Umumiy qilib bu tushunchalarni milliy mentalitet ifodachilari deyishimiz mumkin. Zero, mentalitetni xalqning tarixan tarkib topadigan, o‘zida xalqning ruhiy-etnomadaniy xususiyatlarini sog‘lom saqlaydigan, etnosning voqelikka milliy-madaniy munosabatida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-ruhiy immuniteti, xalqning hayot qonunlarini tahlil etish kuchidir[1].

Boshqa barcha xalqlar singari o‘zbek xalqi ham o‘zining milliy ma’naviyatini aks ettiruvchi ko‘plab an’analarga ega bo‘lib, ular shu xalqning tarixiy-taraqqiyotini, ma’naviy olamini aks ettiruvchi omillar sifatida tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. O‘zbek xalqiga, uning urug‘ va qabilalarining turmush tarzi, yashash sharoiti hamda faoliyatiga xos holda shakllangan to‘ylarning marosim (urf-odat, udum) hamda an’analarini ifodalovchi etnografizmlar xalq(lar) tilida qadimdan mohiyati o‘zgarmagan holda turli shakl va sharoitlarda qo‘llanib kelayotgani uchun ham xalqning betakror oltin bitigi bo‘lgan sheva so‘zlari, ya’ni dialektizmlar jumlasiga kiradi[2]. Chunki ularni ham ma’lum bir hududda yashovchi aholi vakillari bilishadi, tushunishadi va o‘zaro muloqot jarayonida faol qo‘llashadi.

Ma’lumki, so‘nggi yillarda dunyo tilshunoslik fani sohasida milliy tillarning leksik tarkibini, lug‘aviy imkoniyatlarining darajalarini xalq madaniyati, ma’naviy qadriyatlar, xalqning tafakkur tarzi va tarixiy-milliy an’analari bilan bog‘lab tadqiq

[1] Odilov Yo. Til va mentalitet // O‘zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2021. 3-son, 44-b.

[2] Откупшиков Ю.В. Диалектный материал и этимологии // Международный симпозиум по проблемам этимологии исторической лексикологии и лексикографии. Тезисы докладов. М., Наука, 1984. С. 38-39.

etish yetakchi ilmiy-nazariy konsepsiyalardan biriga aylanib borayotganligi tilshunoslik fanida psixolingvistika, kognitiv lingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya kabi yangi sohalarning paydo bo‘lishi hamda rivojlanishiga ma’lum darajada asos bo‘lmoqda. Har bir xalq tilini to‘liq, haqiqiy ma’noda bilish uchun uning ichki qonuniyatlarini aniqlashning o‘zi yetarli emas. Uning asosiy manbai shu tilda so‘zlashuvchi etnoslarning rivojlanish tarixi va taraqqiyoti, kundalik hayotida shakllangan an’anaviy madaniyati, ma’naviy olami va badiiy tafakkuri bilan bevosita bog‘liqligi til materiallari tahliliga lingvokulturologik, lingvogeografik va etnolingvistik xususiyatlarni ham hisobga olgan holda yondashishni talab qiladi. Shuning uchun ham xalq dunyoqarashi va madaniyatini tilning leksik boyligi va so‘zning nutqiy imkoniyatlari bilan bog‘liq tarzda tadqiq qilish o‘zlikni ifoda etishning muhim shakli hisoblanib, tilning milliy mohiyatini aniqlashda asosiy mezon sanaladi. Tilning leksik boyligida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan, xalqning milliy madaniyatini ko‘rsatuvchi manbalardan biri – muayyan xalqning an’analarini, turmush tarzining barcha jihatlarini o‘zida qamrab olgan etnografizmlar sanaladi. Har bir millatga xos lingvomadaniy xususiyatlar ular foydalanadigan tilning etnografik leksikasi majmuida namoyon bo‘ladi. Hozirgi zamon dunyo tilshunosligida har bir xalq va ular tilining o‘zaro muloqot hamda munosabatlar jarayonida madaniy makonga ega ekanligi, ma’naviy va ma’rifiy jarayonlarda shakllanib, rivojlanganligi, aql-idrok manbi bo‘lishi, milliy-madaniy an’analarga asoslanganligi, shu bilan birga madaniy fondning birlamchi hamda asosiy elementi ekanligi, ya’ni milliy o‘ziga xoslikni aks ettirgan lug‘aviy birliklar asosan tilshunoslik fanining lingvokulturologik, etnosemantik, antropolingvistik va etnolingvistik yo‘nalishlarida tadqiq etilmoqda. Shu tarzda tilshunoslik fanining rivojlanishi va taraqqiyoti tufayli etnoslarning moddiy hamda ma’naviy madaniyatini ijtimoiy munosabatlar asosida o‘rganish natijasida etnografik lakunalarni umummilliy (etnik), hududiy va dialektal tiplarga bo‘lib, ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy asoslarda tavsif va tahlil etib, tasniflash imkoni yuzaga keldi. Buning oqibatida muayyan hudud shevasiga mansub bo‘lgan etnografizmlar o‘sha joyda shakllangan moddiy va ma’naviy madaniyatning semiotik, ya’ni ramziy tili ekanligi ham aniqlanib, ular ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganilmoqda. Til etnos hamda madaniyatning yaxlit tizim ekanligini isbotlagan zamonaviy tadqiqotlarning ilmiy tahlil va xulosalari, shuningdek, ularda o‘rinli qo‘llanilgan ilmiy-nazariy konsepsiyalarning mohiyati turkiy tillarning etnografik leksikasi, shu jumladan, Surxondaryo vohasidagi to‘y marosimlarining mazmun-mohiyatini o‘zida ifodalovchi dialektal etnografizmlarning leksik-semantik tabiati va lingvokulturologik tadqiqini amalga oshirishga ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy jihatlardan metodik va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mustaqillik xalqimizga erkin va ozod yashash uchun, o‘zining azaliy qadriyat, urf-odat, udumlarini saqlab, ularni yosh avlodga singdirish uchun katta imkoniyat va shart-sharoitlar eshigini ochdi. Chunki davlatimiz mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizda yashayotgan barcha xalqlarning tili, moddiy hamda ma’naviy madaniyati, folklori, madaniy fondini bezavol saqlab qolish, ularning madaniy va ma’naviy merosini yanada rivojlantirish, qadriyatlarini ilmiy asoslarda tadqiq va targ‘ib etish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Bugungi kungacha tilshunos olimlar tomonidan yaratilgan ikki va ko‘p tilli lug‘atlar, shuningdek, izohli, etimologik va terminologik lug‘atlarning yuzaga kelganligi, o‘zbek tili shevalarining leksik, morfologik va fonetik xususiyatlarining atroflicha o‘rganilganligi, o‘zbek xalq shevalariga oid etnografik-dialektal leksikaning areal-hududiy xususiyatlarini mukammal talqin etib, ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy tahlil qilishga asosdir. Chunki,

dialektal leksika tarkibida xalq, urug‘ va qabilalarning turmush tarzi ko‘rinishlarini ifodalovchi etnografik leksikaning o‘ziga xos o‘rni, mavqei, mohiyati va shu bilan birga ijtimoiy, ta’limiy-tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati ham bor. Etnografik leksika katta hajmdagi leksik birliklarni o‘zida jamlagan bo‘lib, faqat uning bir bo‘lagi – to‘y marosimlari etnografizmlari hisoblanadi. Shu bois Navoiy viloyatida yashovchi xalqlarga xos asosiy moddiy va ma’naviy belgilarini madaniyatida saqlagan, uzoq davrlar mobaynida hududiy-areal xususiyatlar kasb etgan ushbu hududdagi to‘y marosimlari etnogrrafizmlarining leksik-semantik tabiati va lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganilayotgan joyga xos madaniy jarayon, madaniy makon, mentalitet, madaniy an’ana madaniy meros va madaniy fond tushunchalariga tayanilgan holda tadqiq qilishning ob’ektiv zarurati sezilmoqdaki, ushbu masalani monografik tadqiqot sifatida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1994.
2. Jabborov Iso. Jahon etnologiyasi asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.
4. Жанпейсов Э. Этнокультурная лексика казахского языка. – Алма-Ата: Наука, 1989.
5. Jumanazarov E. Qirg‘iz va o‘zbeklarning nikoh to‘yi udumlari tarixidan (XIX asroxiri – XX asr) //O‘zbekiston tarixi. – 2001. -№3.
6. Odilov YO. Til va mentalitet // O‘zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2021. 3-son, 44-b.
7. Откупшиков Ю.В. Диалектный материал и этимологии // Международный симпозиум по проблемам этимологии исторической лексикологии и лексикографии. Тезисы докладов. М., Наука, 1984. С. 38-39.

YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING HAMKORLIGI

Shadiyev Bexzod Mirsalimovich,
Navoiy viloyati PMM dotsenti v.b.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda huquqiy madaniyat tushunchasining mohiyati, yoshlarning huquqiy sotsializatsiyasi, fuqarolik jamiyati institutlarining funksional roli, siyosiy institutlarning ta’siri hamda huquqiy ongni rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlar o‘rganilgan. Maqolada yoshlarning huquqiy faolligini oshirish orqali jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash zarurligi asoslab beriladi.*

Annotation. This article analyzes the theoretical and practical aspects of the interaction of state and civil society institutions in the formation of the legal culture of young people. The study examines the essence of the concept of legal culture, the legal socialization of young people, the functional role of civil society institutions, the influence of political institutions, and mechanisms aimed at developing legal awareness. The article substantiates the need to ensure the rule of law in society by increasing the legal activity of young people.

Kalit so‘zlar: Huquqiy madaniyat, yoshlar, fuqarolik jamiyati, siyosiy institutlar, huquqiy sotsializatsiya, demokratik islohotlar, huquqiy ong, huquqiy tarbiya.

Keywords: Legal culture, youth, civil society, political institutions, legal socialization, democratic reforms, legal awareness, legal education.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda jamiyat huquqiy hayotining dinamikasini belgilovchi asosiy doktrina sanaladi. Sababi yoshlar huquqiy hayotda uning ertangi kundagi yo‘nalishini belgilovchi qator imkoniyatlarga ega muhim ijtimoiy qatlam bo‘lsa, huquqiy va siyosiy institutlar huquqiy-siyosiy jarayonlarning asosiy sub’ektlaridir. Faqat shu o‘rinda yoshlarning jamiyat huquqiy hayotida o‘ziga munosib o‘rin topishi uchun muayyan ta'lim-tarbiya, bilim, amaliy ko‘nikma va tajriba to‘plashiga ehtiyoj bo‘ladi. Fuqarolik jamiyati institutlari huquqiy tizimda o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishi uchun maqbul mexanizmlarni yaratadi, unda yoshlarni o‘z tarkibiga jalb etuvchi elementlar ham mavjud bo‘ladi. Muhimi, yoshlar jamiyat huquqiy tizimida o‘z ehtiyoj va manfaatlarini qondirish uchun muayyan siyosiy institutga uyushishini anglashi lozim. Shu bois masalani yoshlar huquqiy madaniyatining shakllanishida fuqarolik jamiyati institutlarning ta'sirini o‘rganish zarur.

Yoshlarga huquqiy tarbiya berishdan ko‘zlangan maqsadlardan biri - har bir yosh inson huquqiy madaniyatni o‘zlashtirib olishiga erishishdan iborat. Jamiyatga nisbatan huquqiy madaniyat yuridik qadriyatlar va me'yorlar, huquqiy institutlar va muassasalar, huquqiy ong va xulq-atvor dinamik birligining sifat xususiyatini ifodalaydi. Shaxsga nisbatan esa u individ atrof dunyoni idrok etadigan o‘ziga xos “huquqiy qonun” bo‘lib, u huquqiy reallikni o‘zlashtirishning mezoni sifatida gavdalanadi.

Shaxsning huquqiy madaniyati uning huquqiy va siyosiy ijtimoiylashuvi natijasidir, uning butun ijtimoiy tajribasining, ayniqsa, jamiyatda huquq-tartibotni ta'minlashi kerak bo‘lgan organlar, davlat apparati xodimlari, barcha mansabdor shaxslar faoliyatini hamda ularning fuqarolar ehtiyojlariga e'tibor bilan qarash darajasini baholashdan kelib chiqadigan tajribasining mahsulidir.

Ana shu ijtimoiylashish jarayonining asosiy qismi inson hayotining dastlabki 2-3 o‘n yilligiga, uning yoshlik davriga to‘g‘ri keladi. Yoshlarni jamiyatning alohida ijtimoiy-demografik guruhiga (qatlamiga) ajratish unga xos bo‘lgan yosh yoki psixologik xususiyatlar bilan emas, balki yoshlar bajaradigan o‘ziga xos ijtimoiy rol bilan izohlanadi. Bu rol avvalgi avlodlar tajribasi, qadriyatlari, madaniyatini o‘zlashtirib olishdan va ularni yangi jihatlar va xususiyatlar bilan boyitishdan iboratdir [1].

Huquqiy normalarni boshqa ijtimoiy normalardan farqlab turadigan asosiy belgilardan biri davlatning butun xalq manfaatlarini ko‘zlab, bu normalarni majburan ijro ettirishi va ularni buzganlik uchun jazolashi mumkinligidan iboratdir. Tabiiyki, huquqiy institutlar va ommaviy axborot vositalari davlatning majbur qilishi, huquqbuzarlik uchun yuridik javobgarlikning adolatli hamda zarur ekanini fuqarolarga tushuntirishi lozim. Biroq, qonunni hurmat qilish, to‘g‘ri xulq-atvorning etakchi sababi sifatida uni qo‘llab-quvvatlash hissini qaror toptirishga yordamlashish ham muhim sanaladi. Yoshlarning huquqqa bo‘lgan munosabatida jazodan qo‘rqish ustunlik qiladi. Ular jazoni kuchaytirishni huquqiy normalarga rioya etishning asosiy vositasi deb biladilar.

Fuqarolarimizning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, o‘z navbatida, jamiyatimizni yanada demokratlashtirish, erkinlashtirish va fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq muayyan masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o‘tkaza borishni nazarda tutadi.

Fuqarolik jamiyati institutlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Siyosiy partiyalar.
2. Kasaba uyushmalari.
3. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari.
4. Xotin-qizlar qo‘mitalari.
5. Jamoat birlashmalari.
6. Nodavlat notijorat tashkilotlari.
7. Ommaviy axborot vositalari.

“Fuqarolik jamiyati institutlari mustahkam huquqiy poydevor, ya'ni demokratik qonunlar asosida, muayyan huquqiy makonda faoliyat yuritadilar. Ular o‘z huquqiy maqomini to‘la-to‘kis anglab etishi, qonun bilan o‘zlariga berilgan huquq va imkoniyatlardan foydalanish darajasi, qolaversa, davlat organlari bilan bo‘ladigan turli-tuman aloqalarda namoyon bo‘ladigan huquqiy madaniyatning mazmuni, tabiati, mexanizmi ham hali yuridik fanda ilmiy jihatdan etarlicha o‘rganilmagan. Ushbu masalalarni ilmiy tahlil etish, ularning mohiyatiga etib borish fuqarolik jamiyatini barpo etish va huquqiy madaniyatni yuksaltirishdek strategik vazifani muvaffaqiyatli hal qilishga ko‘maklashadi.

Huquqiy madaniyatning yuksak bo‘lishi O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat shakllanishiga va adolatli fuqarolik jamiyati qurilishi yo‘lidagi barcha islohotlarni yuridik jihatdan ta'minlanishiga xizmat qiladi. Uning muammolarini o‘rganish va huquqiy echimini topish bugunning muhim talabidir” [2].

O‘z-o‘zidan ma'lum bo‘ladiki, yoshlar huquqiy va siyosiy madaniyatining shakllanishida siyosiy institutlarning ta'siri va o‘rni katta. Oldingi paragrafda qayd etganimizdek, siyosiy institutlarning barchasi inson tomonidan boshqarilishi, muayyan siyosiy maqsad va talabga egaligi hamda vorisiylik xususiyati bois ham odamlarga, xususan yoshlarning huquqiy va siyosiy jihatdan yuksalishida katta ta'sir ko‘rsatadi. Chunki, siyosiy institutlar ham davriylik, sivilizasion taraqqiyot, mafkuraviy va tafakkur o‘zgarishi singari voqelikni boshidan kechiradi. Bu esa yangi talab, istak, imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, jamiyatning transformasiyalashuvida buni yaqqol ko‘rish mumkin. Har qanday o‘zgarish va islohotlar esa o‘z navbatida yangicha fikrlaydigan, aniqrog‘i yoshlarga ehtiyoj sezadi. Tabiiyki, bu yoshlar uchun o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Buni umumbashariy demokratik tamoyillar va jamiyatni erkinlashtirish jarayonida ko‘rishimiz mumkin. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi bevosita yoshlar tomonidan to‘g‘ri idrok etilishiga bog‘liq. Mamlakatimizda kechayotgan demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini qurish bilan bog‘liq vazifalar odamlardan zarur huquqiy bilimlarga va yuqori huquqiy madaniyatga ega bo‘lishni talab qiladi. Huquqiy bilimlarning sayozligi va huquqiy madaniyatning past bo‘lishi islohotlar jarayoniga salbiy ta'sir ko‘rsatishi, hatto ijtimoiy larzalarga olib kelishi mumkin [3].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, huquqiy va siyosiy

munosabatlar turli xil siyosiy institutlar hamda turli xil ijtimoiy- siyosiy kuchlar o‘rtasida amalga oshadi. Boshqacha aytganda, u yoki bu ijtimoiy guruhlar, kuchlar siyosiy munosabatlar sub'ekti sifatida namoyon bo‘ladi. Yoshlar o‘z xohish irodasi, mustaqil tanlash orqali hamda manfaatlarining mushtarakligi nuqtai nazaridan kelib chiqib o‘zlari istagan siyosiy institutlarni tanlab ular bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abzalov E.M. Yoshlar muammosi va huquqiy madaniyat. - T.: TDYUI. Huquqiy ma’rifat targ‘iboti Markazi, 2000. - 53-bet.
2. Mamatov X.T. Huquqiy madaniyat va O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanish muammolari. Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. - Toshkent, 2011. B. 5.
3. Jumayev R. Davlat va jamiyat: Demokratlashtirish yo‘lida. - T.: “Sharq”, 1998. B. 63.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING MATEMATIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Fayzullayeva Gavhar G‘aybulla qizi,
Profi University Navoiy filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada mamlakatimizda matematika sohasini rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor, matematika fanini o‘qitishdan ko‘zlangan zamonaviy maqsad va vazifalar, matematikani o‘qitish jarayonining eng asosiy yo‘nalishlari masalalari yoritilgan. Shuningdek, matematika o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, matematika, axborot texnologiyalari, kompyuter, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, matematik madaniyat, taqdimot, interaktiv o‘qitish.*

Abstract: this article covers the focus on the development of the field of mathematics in our country, modern goals and objectives aimed at teaching mathematics, issues of the most basic areas of the mathematics teaching process. Also mentioned is the importance of the use of Information Technology in the teaching of mathematics.

Keywords: *elementary grade, mathematics, Information Technology, Computer, logical and critical thinking, mathematical culture, presentation, interactive teaching.*

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы, направленные на развитие области математики в нашей стране, современные цели и задачи преподавания математики, наиболее основные направления процесса обучения математике. Также подчеркивается важность использования информационных технологий в обучении математике.

Ключевые слова: *начальная школа, математика, информационные технологии, компьютер, логическое и критическое мышление, математическая культура, презентация, интерактивное обучение.*

Mamlakatimizda ta’lim sohasiga berilayotgan e’tibor o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, PISA, TIMSS, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlariga samarali tayyorlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, respublikamizda malakali kadrlar tayyorlashga, ta’lim-tarbiya

tarbiya jarayoniga axborot va raqamli texnologiyalarni jalb qilishga e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida quyidagilar ustuvor yo‘nalish etib belgilangan:

maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional, oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy muassasalar o‘rtasidagi yaqin hamkorlikni ta’minlovchi yaxlit tizimni shakllantirish;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida matematika fanlarini o‘qitish sifatini oshirish, hududlarda matematika faniga ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini rivojlantirish hamda yangi maktablarni tashkil etish;

matematika fani bo‘yicha kadrlarni, xususan qishloq joylardagi maktablarning kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish, matematika fani bo‘yicha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirish;

iqtidorli yoshlarni aniqlash hamda ularning matematika fani bo‘yicha mahalliy va xalqaro fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini hamda sovrinli o‘rinlarni egallashini ta’minlash;

ta’lim berishning onlayn platformasini yaratish va amaliyotga tatbiq etish, masofadan o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish, baholash tizimining shaffofligini ta’minlash mexanizmlarini joriy qilish;

matematika fanini bilish darajasini baholash bo‘yicha milliy sertifikatlashtirish tizimini joriy qilish, oliy ta’limning tegishli yo‘nalishlari va mutaxassisliklarida matematika fani bo‘yicha mashg‘ulotlarni ko‘paytirish hamda ta’lim berish sifatini oshirish;

matematika sohasidagi ilmiy-tadqiqotlarning ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlash, amaliy matematikani rivojlantirish va iqtisodiyot tarmoqlaridagi muammolarni modellashtirish asosida matematik yechimlarni ishlab chiqish;

matematika sohasida ta’lim olayotgan va ilmiy-tadqiqotlar bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, chet eldagi oliy ta’lim muassasalari hamda ilmiy tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish.

Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo‘lib, tevarak-atrofimizdagi voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda juda katta ahamiyatga egaki, matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish va fanning rivojlanishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham matematik madaniyat – umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Matematika fanini o‘qitishdan ko‘zlangan zamonaviy maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

• o‘quvchilarda kundalik faoliyatda qo‘llash, fanlarni o‘rganish va ta‘lim olishni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan matematik bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

• jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

• milliy, ma‘naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Matematikani o‘qitish jarayonining eng asosiy yo‘nalishlari quyidagi to‘rt qismdan iborat:

– matematik tushunchalar to‘plamini bilish;
– matematik mulohaza yurita olish;
– matematik masala va muammolarni yechish;
– matematik tilni egallash.

Axborot texnologiyalari deganda, axborot yetkazishning turli vositalari – yozuv, qog‘ozning ixtiro etilishi, bosma yozuv, radio, ovoz yozish texnik qurilmalari, kompyuterlar nazarda turiladi. Psixologik va pedagogik tadqiqot ishlarida shu narsa ta’kidlamoqdaki, axborot texnologiyalari o‘quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga kuchli ta’sir etadi. O‘quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o‘quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

“Matematika” o‘quv jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash uchun katta imkoniyatlar yaratadi Bunda o‘quv jarayonining turli bosqichlarida (yangi materialni o‘rganish, ilgari o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash va tizimlashtirish, bilimlarni va o‘rganilgan faoliyat usullarini nazorat qilish, materialni umumlashtirish va takrorlash) darsning turli bosqichlarida. (bilimlarni yangilashda, yangi materialni taqdim etishda va hokazo) va, o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lgan auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda foydalanish mumkin.

Interaktiv o‘qitish yordamida o‘quvchilar o‘rtasida muloqotni va hamkorlikni rivojlantirish orqali bilimni boyitishga erishiladi. Bu usul o‘quvchilarni guruhlarda ishlashga, fikrlarini erkin bildirishga va birgalikda yechim topishga undaydi. Interaktiv o‘qitishda har bir o‘quvchi faol ishtirok etadi va yangi bilimlarni samarali o‘zlashtiradi. Bir masalani bir necha guruhga bo‘lib berish kerak va ularni o‘z usullari bilan yechish jarayonini kuzatish kerak. Har bir guruh o‘z natijalarini boshqa guruhlarga taqdim etadi va ularning fikrlarini muhokama qiladi. Har bir guruh boshqa guruhlarning yechimlarini tahlil qiladi va qiyoslaydi.

Masalan, "Bir qishloqda har 10 kunda bir marta bozor tashkil etiladi. Agar bu qishloqda har 3 oyda bir marta asosiy bozor ham bo‘lsa, 1 yilda necha marta bozor tashkil etiladi?"

Guruhlar har xil yondashuvlardan foydalanib yechim topishga harakat qiladi. Ular 1 yilda 365 kun borligini va har 10 kunda bir marta bozor bo‘lishini muhokama qiladilar. Har bir guruh o‘z yechimini taklif etadi: oddiy bozor 36 marta, asosiy bozor 4 marta, jami 40 marta bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta'lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr bosqichining talabalari quyidagi bilimlarni egallashlari kerak:

- arifmetik qurilishining nazariy yo‘nalishlari haqidagi bilimlar manfiy bo‘lmagan integerlarning va son, son tushunchalarini shakllantirish tizimlar, bo‘linish nazariyasi;
- bir hil qo‘shimchalar-skalar tizimlari;
- o‘lchovining miqdorlari, usullari va vositalari;
- asosiy algebraik tushuncha va faoliyat qoidalari haqidagi bilimlar monomiallar, polinomlar va fraksiyali-ratsional ekspre-qurish, kesishga doir matematik muammolarni yechish ko‘nikmasi va figuralarni yig‘ish, samolyotni uchburchak va boshqa figuralar bilan qoplash, shuningdek, rasmlarni skanerlashni yaratish;
- qobiliyati, kombinatorik tushunchalar, qoida va formulalardan foydalanish, ularning qoidalari inferentsiyasi (xulosasi) va to‘g‘ri mulohaza yuritishning asosiy

sxemalari matematik gaplarni asoslash, mantiqiy jihatdan to‘g‘ri yechish matematik jumlalar, gaplarning haqiqati yoki soxtaligini asoslash, mantiqiy xatolar;

- matematik bir xil transformatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati yechishda ifodalar, matematik jumlalar, geometrik figuralar matematikaviy problemalar.

Hujjatda asosan muloqotni rivojlantirishga qaratilgan (matematik kommunikatsiya strategiyalaridan kengroq darajada foydalanish imkoniyati kasbiy faoliyat uchun yetarli, bo‘lajak o‘qituvchining odatiy matematik muammolarni yechish qobiliyati. Uning bazasi qobiliyatidan iborat bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) odatiy yechish algoritmlarini amaliy qo‘llash imkoniyati muammolar;

b) yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar kontseptsiyasini qayta yaratish imkoniyati individual va ijtimoiy amaliyotda va odatiy muammolarga kamayadi;

c) odatiy muammolarni tizimlashtirish, kamaytirish mezonlarini topish odatiy muammolarga muammolar;

d) odatiy muammoni tan olish yoki aniq bir ozishga qodirligi odatiyiga muammo;

e) turli axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatidan odatiy muammolarni hal qilish tartib-taomillarini topish.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, matematika faning oldiga qo‘yilgan yuqoridagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishda innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. PQ-4708-son. 07.05.2020 yil. https://lex.uz/docs/-4807552

2. Abduraxmonov A.G. Matematikani o‘qitishda axborot texnalogiyalarining ahamiyati/ Chirchik State Pedagogical University Effectiveness of Introduction of Digital Technologies in the Educational Process, 2023.

3. Dehqonova M.Sh., Axmedova U.Y. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini matematik savodxonligini oshirish jarayonida ularning tafakkuri, qobiliyati va intellektual rivojlanish/ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. April, 2023

4. Djumayev M., “Mathematical regularity and development of creative thinking of students”., Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent.(Uzbekistan)., German International Journal of Modern Science No28, 2022., 26-28 pages.

5. Saidova M.J. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish. Ped.fan.fals.dok…diss…Toshkent, 2020. – 13 b.

MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHDA STEAM YONDASHUVI ASOSIDA REFLEKSIV FAOLIYAT ELEMENTLARINI TARKIB TOPTIRISH

Karshiyeva Shaxnoza Turakulovna,
Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonida STEAM yondashuvining ahamiyati va unda refleksiv faoliyat elementlarini joriy etish imkoniyatlari tahlil qilingan. STEAM ta’limi yordamida tarbiyalanuvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish,*

shuningdek, ularning o‘rganish jarayonida o‘z tajribalari va bilimini tahlil qilishga yo‘naltirilgan refleksiv faoliyatni shakllantirish muhimligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *Matematik tasavvur, STEAM, refleksiya, intellektual qobiliyatlar, kattalik, shakl, vaqt, son, maydon, mo‘jal olish, hisoblash, o‘z-o‘zini baholash, yondashuv.*

Аннотация: *Проанализирована значимость STEAM-подхода в процессе формирования математических представлений и возможности внедрения элементов рефлексивной деятельности в нем. Подчёркнута важность развития у обучающихся критического мышления и навыков решения проблем с помощью STEAM-образования, а также формирования рефлексивной деятельности, направленной на анализ собственного опыта и знаний в процессе обучения.*

Ключевие слова: *Математическое воображение, рассуждение, размишление, интеллектуалние способности, размер, форма, время, число, плошад, постановка селей, расчет, самооценка, подход.*

Annotation: *The importance of the STEAM approach in the process of forming mathematical concepts and the possibilities of introducing elements of reflective activity within it have been analyzed. It is emphasized that, with the help of STEAM education, developing learners’ critical thinking skills and problem-solving abilities, as well as fostering reflective activity aimed at analyzing their own experiences and knowledge during the learning process, is important.*

Key words: *Mathematical imagination, reasoning, reflection, intellectual abilities, size, shape, time, number, area, goal setting, calculation, self-assessment, approach.*

STEAM - bu hali to‘liq o‘rganilmagan zamonaviy ta'lim texnologiyasi va shuning uchun pedagoglar o‘rtasida ko‘plab savollar tug‘diradi. Mamlakatimizda ko‘p yillar davomida ta’lim fanga asoslangan edi: har bir tarbiyachi o‘z intizomi doirasida tarbiyalanuvchilarga bilim berib kelishdi..

Ammo, ma'lum bo‘lishicha, ta'limga bunday yondashuv zamonaviy dunyoda ahamiyatsiz bo‘lib bormoqda. Alohida fanlarni o‘rganishda tarbiyalanuvchilar "dunyoning yaxlit tasvirini rivojlantira olmaydilar: bir xil hodisa turli xil narsalar kabi turli mavzularda o‘rganiladi". Olingan bilimlarni tez rivojlanayotgan real dunyoda qo‘llashda muammolar paydo bo‘ladi.

STEAM-ta'limi mazkur qiyinchiliklarni yengib o‘tishga yordam beradi, hodisalarni kompleks tarzda o‘rganishga, tabiiy fanlarni yagona yaxlitlikda birlashtirishga xizmat qiladi. Bu fanlar quyidagilardan iborat:

S — Science (Fan),

T — Technology (Texnologiya),

E — Engineering (Muhandislik),

A — Art (San’at),

M — Mathematics (Matematika),

va bularning barchasi amaliy yondashuv asosida olib boriladi (ya’ni, nazariya kabi amaliyot ham muhimdir).

Bu yondashuv (STEAM-yondashuvi) “o‘quv faoliyatining yetakchi turi sifatida tadqiqot olib borish” g‘oyasiga asoslangan bo‘lib, bunda tarbiyalanuvchilar tadqiqotchi, tashabbuskor sifatida o‘z savollari, g‘oyalari, kashfiyotlari va natijalari (mahsulotlari) bilan ishtirok etadilar.

Matematik tasavvur — bu o‘quvchilarning matematik obrazlar, munosabatlar va tushunchalarni mantiqiy fikrlash orqali anglab olish qobiliyatidir. U quyidagilarni o‘z

ichiga oladi:

Abstrakt fikrlash

Muammoni hal qilish malakalari

Modellashtirish

Qiyoslash va tahlil qilish

Refleksiya – bu o‘quvchining o‘z o‘qish faoliyatini, tushunganlarini, qilgan xatolarini tahlil qilishi, baholashi va kelgusida uni yaxshilashga qaratilgan faoliyatidir.

Refleksiv faoliyat elementlari:

O‘zini baholash

Xatolardan saboq olish

O‘zgarishga ochiqlik

O‘z ustida ishlash

Fikr yuritish va tahlil qilish

STEAM yondashuvi asosida Matematik tasavvurni shakllantirishda refleksiv faoliyat:

Tarbiyalanuvchilar loyihalar orqali o‘rganadi (masalan, qurish- yasash asosida maketlar yasash)

Har bir bosqichdan so‘ng refleksiya qilinadi: nimani o‘rgandim? Qayerda xato qildim? Qanday yaxshilash mumkin?

Matematik modellashtirishni bajarib, tarbiyalanuvchilar natijalarni tahlil qiladi, muammoga yangi yechim topishga harakat qiladi.

O‘z fikrini og‘zaki yoki yozma ravishda asoslash va baholash orqali refleksiv ko‘nikmalar rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdan bolalarda matematik bilimlaming yetarli bo‘lishiga katta ahamiyat berish muhimdir. Chunki, inson hayoti davomida matematik hisob-kitoblarga tez- tez duch keladi, ya’ni matematik bilimlar har qadamda kerak bo‘ladi. Agar biz maktabgacha yoshdan bolalami matematika olamiga turli qiziqarli usullardan foydalangan holda olib kira olsak, matematik bilimlar bilan yetarli darajada qurollantirsak, ular maktabda a’lo baholarga o‘qib, yuqori natijalarga erishadilar, hayoti davomida xalqimiz uchun foydali kasbni tanlash va chuqur egallashda qiynalmaydilar. Chunki qaysi kasbni olmaylik uni mahorat bilan bajarishga albatta matematik bilimlar kerak bo‘ladi. Shu sababli turli ta’limiy usullar, qiziqarli she’rlar, topishmoqlar orqali bolalaming yoshiga mos matematik bilimlar berib borishga katta ahamiyat berish muhimdir.

Ilk matematik tushunchalaming qanchalik aniq va mukammal bo‘lishi, bolalarda mantiqiy fikrlash, xulosa chiqarish jarayonlarining kuchli bo‘lishini ta’minlaydi. Ya’ni matematika bolalami mantiqiy fikrlashga - to‘g‘ri fikrlash, to‘g‘ri fikrlardan to‘g‘ri xulosalar chiqa- rishga o‘rgatadi, shu bilan birga nutqning takomillashuviga katta yordam beradi. Ilk matematik tushunchalar bolalaming yoshiga mos tarzda qiziqarli qilib o‘rgatilsa, samarali natijalarga erishiladi. Bolalarda umumiy bilimlar bilan birgalikda o‘ziga bo‘lgan ishonch, mustaqil fikrlash, o‘z fikrini chiroyli ifoda eta olish kabi fazilatlar shakllanadi.

Matematik tushunchalami shakllantirish - inson ijodiy faoliyatining butun maqsadli amalga oshiriladigan pedagogik jarayonidir. Uning maqsadi-bolalami faqat matematikani bilishdan emas, balki ulami hayotga tayyorlash, o‘zlarining hayotdagi o‘rinlarini topa olishlariga yordam berishdan iborat.

Bolalarda matematik tushunchalami rivojlantirish fanining asosiy masalalari quyidagilardan iborat:

bolalarda matematik tushunchalami rivojlantirish darajasi nuqtai nazaridan ikkinchi kichik, o‘rta, katta va maktabga tayyorlov guruhlari uchun shartlar rejasini asoslash;

matematik tushunchalamirivojlantirish maktab matematikasini o‘rganishga tayyorlashni rejalash;

matematik tushunchalaming rivojlantirish yo‘llari va shartlarini ishlab chiqish;

bolalarda matematik tushunchalami rivojlantirishni ta’minlovchi metodik ko‘rsatmalar berish.

Gnedenko o‘z ishlarida matematik qobiliyatlaming ikki darajasini ajratib ko‘rsatadi: “Oddiy o‘rta qobiliyat” (ushbu qobiliyat boshlang‘ich maktab kursini o‘zlashtirish uchun zamin bo‘lgan) va “o‘rtadan yuqori bo‘lgan qobiliyat”, ya'ni matematik bilimlarni osonlikcha egallashda masalalaming aql yechimini topishda namoyon bo‘ladigan qobiliyatdir.

Matematik tasavvurni rivojlantirishda:

STEAM yondashuvi o‘quvchilarga real hayotdagi muammolarni hal qilishda matematikani qo‘llash imkonini beradi;

Refleksiv faoliyat esa bu jarayonni chuqurlashtiradi, o‘z-o‘zini anglash va rivojlanishga yo‘naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi 3-nashri
2. Y.R Maxmutazimovna “Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari” O‘quv qo‘llanma -T: “Tamaddun” 2022 y
3. D.R Babayeva, N.N Djamilova “Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari” O‘quv qo‘llanma -T: 2022 y
4. T.Ismoilov va X.Majidova. STEAM va SMART ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo‘llanma / 2022 yil.
5. STEAM-технология в профильном образовании: Сборник материалов дистанционной конференции 15 апреля 2022 г. – Калининград: КНВМУ, 2022. – 100 с.

BOLALARNING SPORTGA OID TA’LIM-TARBIYA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA YO‘NALISHLARI

Ochilov Jonibek Abdo‘xomid o‘g‘li,
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada bugungi zamonaviy jamiyatda sportga oid ta’limni ahamiyati va bolalar uchun qanchalik foydali ekanligi tushuntirib berilgan. Bolalar salomatligi, jismoniy va aqliy rivojlanishiga tahdidlari va bolalarning harakat faolligining barqaror pasayishi, jismoniy harakatsizligining kuchayishi ularning o‘quv jarayonida odatiy jismoniy passivligi, tayanch-harakat harakatsizligini bartaraf etishga ota-onalarning ta’siriga qaratilgan fikr va mulohazalar, takliflar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sport, ta’lim, jismoniy mashq, jamiyat, musobaqa, ruhiyat, salomatlik.*

Abstract: *The article explains the importance of sports education in today’s modern society and how beneficial it is for children. It discusses the threats to children's health, physical and mental development, and the steady decline in their physical activity levels. It also highlights the increasing physical inactivity among children and their habitual physical passivity during the learning process. The article*

presents opinions, reflections, and suggestions focused on addressing musculoskeletal inactivity and emphasizes the influence of parents in overcoming these challenges.

Key words: *Sport, education, physical exercise, society, competition, psychology, health*

Аннотация: *В статье разъясняется значение спортивного образования в современном обществе и то, насколько оно полезно для детей. Рассматриваются угрозы здоровью детей, их физическому и умственному развитию, а также устойчивое снижение уровня двигательной активности у детей. Особое внимание уделяется усилению гиподинамии, привычной физической пассивности в учебном процессе и отсутствию двигательной активности опорно-двигательного аппарата. В статье представлены мнения, размышления и предложения, направленные на преодоление этих проблем, а также подчеркивается влияние родителей в данном процессе.*

Ключевые слова*: спорт, образование, физические упражнения, общество, соревнование, психика, здоровье.*

Sport inglizcha "o'yin" degan ma'noni anglatib, jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi. sport jismoniy mashqlarning turli qisimlari bo'yicha musobaqalar tashkil etish, tayyorlash va o'tkazish tizimi. Sportning vazifasi inson salomatligini mustahkamlash va jismoniy rivojlantirish bilan birga sport musobaqalarida yuqori natija va g'alabalarga erishishdir.

Sport ko'plab darajalarda ishtirokchilar uchun juda foydali ta'sir ko'rsatishi mumkinligiga shubha yo'q. Biroq, biz sportdan olinadigan foyda — bu shaxsning o'zi, uning atrofidagi odamlar, faoliyatning kechadigan konteksti, shuningdek, sportning davomiyligi, intensivligi va chastotasiga bevosita bog'liq, degan fikrdamiz. Bu oddiy eshitilsa-da, sport har bir kishiga hamma narsani bera oladi degan tasavvurni tanqidiy ko'z bilan ko'rish muhim deb hisoblaymiz. Aks holda, biz barcha sport tajribalariga bir xil yondashib, ishtirokchilar, manfaatdor tomonlar, sport rahbarlari va murabbiylar orasida noto'g'ri tushunchalar shakllanishiga sabab bo'lishimiz mumkin. Natijada, sport tajribasiga nisbatan faqat yuzaki e'tibor beriladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, sport murabbiyligi sohasida ishtirokchilarning motivlari va murabbiylik muhiti ularning faol ishtirokini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Bolalarning sportdagi ishtirokiga oid motivatsion omillarni tahlil qilgan tadqiqotlar shuni aniqladiki, sportda qatnashish qaroriga beshta asosiy omil ta'sir ko'rsatadi: o'zini malakali deb his qilish, qiziqish va zavq olish, ota-onalarning ishtiroki, yangi ko'nikmalarni o'rganish hamda do'stlar va tengdoshlar bilan bo'lgan aloqalar. Bunday natijalar shuni anglatadiki, psixologik omillar bilan bir qatorda bolalar sportda qatnashayotgan ijtimoiy-madaniy kontekst ham ularning motivatsiyasiga bevosita ta'sir qiladi. Shunday ekan, murabbiylar yosh ishtirokchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ularning sportdagi faol ishtirokini ta'minlaydigan rivojlanishga yo'naltirilgan o'quv muhitini yaratishlari lozim. Shu bilan birga, murabbiylar ijobiy munosabatni ustuvor qo'yib, zavq, jamoaviylik va harakatga berilgan bahoni g'alaba va raqobatdan ustun qo'yishlari zarur. Bolalarni sportga jalb qilishning birnecha omillari mavjud, ularga quyidagilar kiradi: demografik, biologik, psixologik, kognitiv-emotsional, xulq-atvorga oid xususiyatlar va ko'nikmalar, ijtimoiy-madaniy hamda jismoniy muhit.

Bolalarni sportda ishtirok etishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganuvchi tadqiqotlar soni hali ham yitarli emas. Ushbu tadqiqot Portugaliyalik bolalar va o'smirlarning sportdagi ishtirokiga demografik yosh, jins va ijtimoiy-iqtisodiy holat

hamda ijtimoiy-madaniy omillar (oiladagi va tengdoshlarning, jismoniy tarbiya o'qituvchisining ta'siri) qanday ta'sir qilishini o'rgangan. Bu tadqiqot uchun 10-18 yoshdagi 3352 nafar bolalar va o'smirlar, ularning ota-onalari, aka-ukalari orasidan tasodifiy tanlab olingan respondentlar so'rovnoma orqali baholandi umumiy natijalari shuni ko'rsatadiki

- Yosh, bolalar va o'smirlarning sportda ishtiroki bilan bog'liq emas edi.
- Ijtimoiy-iqtisodiy holat yuqori va o'rtacha bo'lgan bolalar sportda faolroq ishtirok etgan.
- Oila a'zolari sportda ishtirok etgan hollarda, bolalar ham sportga ko'proq jalb qilingan.
- O'g'il bolalar qizlarga qaraganda sportda ko'proq qatnashgan. Ammo onaning sportdagi ishtiroki qizlar va o'g'illar uchun turlicha ta'sir qilgan:
- **Qizlar** onalari sportda ishtirok etgan hollarda sport bilan shug'ullanishga ko'proq moyillik bildirgan.
- **O'g'il bolalar** uchun onaning sportga jalb etilishi yoki etilmasligi unchalik farq qilmagan.
- **Tengdoshlar** sportda ishtirokiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan

Boshqa omillar hisobga olinganidan so'ng, **jismoniy tarbiya o'qituvchisining** ta'siri bolalarning sport ishtirokiga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan. **Xulosa qilib ayganda** bolalarning sportda ishtirokiga demografik va ijtimoiy-madaniy omillar, xususan **jins,** Ijtimoiy-iqtisodiy holat**, oila a'zolarining** sportda ishtirokiga va **tengdoshlarning ta'siri** muhim ahamiyat kasb etadiganligini aniqlagan.

Jismoniy savodxonlik tushunchasi tez orada global miqyosda e'tibor qozonib, ilmiy izlanishlarning keskin ko'payishiga sabab bo'ldi. Jismoniy savotxonlik jamiyatni jismoniy faollikdan cheklangan madaniyatdan jismoniy faollikka boy madaniyatga o'zgartirishda kuchli vosita sifatida qaralmoqda, shu bois ko'plab mamlakatlar uni maktablarda, jamoalarda va sog'liqni saqlash muassasalarida faol targ'ib qilmoqda. Jismoniy savotxonlik ko'plab yetakchi tashkilotlar tomonidan jismoniy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida e'tirof etilgan: masalan, Angliya Yoshlar Sport Jamg'armasi va SHAPE America tashkiloti uni ta'lim dasturlarining asosiga aylantirgan.

Garchi ko'pchilik tashkilotlar va tadqiqotchilar Uaytxed tomonidan berilgan quyidagi ta'rifga tayanishsa-da — "hayot davomida jismoniy faollikka qatnashishni qadrlash va unga mas'uliyat bilan yondashish uchun zarur bo'lgan motivatsiya, ishonch, jismoniy salohiyat, bilim va tushuncha" — har bir mamlakat jismoniy savotxonlikni madaniy xususiyatlarga qarab rivojlantirgan. Masalan, Kanada bu tushunchani erta qabul qilib, uni jamoalarda keng targ'ib qilgan; AQShdagi Aspen instituti jismoniy savotxonlikni "qobiliyat, ishonch va istak" vositalari bilan bog'lagan; Avstraliya unga ijtimoiy, Yangi Zelandiya esa ruhiy (spiritual) vositalarini qo'shgan.

Jismoniy savotxonlikni baholashga oid tadqiqotlar ham kengayib bormoqda. Kanada "Passport for Life" dasturini ishlab chiqib, o'quvchilar va o'qituvchilarning jismoniy savotxonlik darajasini faol qatnashuv, sog'lom turmush tarzi va harakat ko'nikmalari orqali baholamoqda. "PLAY" (Physical Literacy Assessment for Youth) tizimi esa turli guruhlar uchun moslangan oltita alohida vosita orqali jismoniy savotxonlikni baholash imkonini beradi. Bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallangan "Kanada jismoniy savotxonlik baholash tizimi" (CAPL) esa jismoniy savotxonlikni to'rtta asosiy yo'nalishda o'lchaydi: jismoniy salohiyat, kundalik xatti-harakatlar, motivatsiya va ishonch, hamda bilim va tushuncha. Bu yunalishlar bolalarni sportga bo'lgan qiziqishini keng ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cairney, J., Kiez, T., Roetert, E. P., & Kriellaars, D. (2019). *A 20th century narrative on the origins of the physical literacy construct*. Journal of Teaching in Physical Education, 38(2), 79–89, Dudley, D., Cairney, J., Wainwright, N., Kriellaars, D., & Mitchell, D. (2017). *Physical literacy: A global environmental scan*
2. World Health Organization. (2018). *Global action plan on physical activity 2018–2030: More active people for a healthier world*. Geneva: WHO
3. Whitehead, M. (2001). *The concept of physical literacy*. European Journal of Physical Education, 6(2), 127–138
4. *Quality physical education: Guidelines for policy-makers*. Paris: UNESCO Publishing
5. Seabra, A. F., Mendonça, D. M., Thomis, M. A., Peters, T. J., & Maia, J. A. (2008). Associations between sport participation, demographic and socio-cultural factors in Portuguese children and adolescents. *European journal of public health*, *18*(1), 25-30
6. Bailey, R., Cope, E., & Pearce, G. (2013). Why do children take part in, and remain involved in sport? Implications for children's physical literacy. International Council of Sport Science and Physical Education Bulletin, 65, 9–18

ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA INTERAKTIV USULLAR YORDAMIDA TINGLASH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Homiyatova Mavluda Amon qizi,
Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Bugungi globallashuv davrida ta'lim jarayoni shunchaki bilim berish emas, balki shaxsning kommunikativ kompetensiyasini, muloqot madaniyatini rivojlantirishni ham talab etadi. Xususan, tinglash madaniyati samarali muloqotning muhim bo'g'ini sifatida qaraladi. O'qituvchi va talaba, tarbiyachi va bola, hamkasblar o'rtasida muloqotning to'laqonli amalga oshishi tinglash qobiliyatiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan zamonaviy ta'lim jarayonida interaktiv usullardan foydalanish tinglash madaniyatini shakllantirishda eng muhim omillardan biri hisoblanadi.*

Аннотация: *В сегодняшнюю эпоху глобализации образовательный процесс требует не только передачи знаний, но и развития коммуникативной компетентности личности, культуры общения. В частности, культура слушания рассматривается как важное звено эффективного общения. От умения слушать напрямую зависит полноценная реализация общения учителя и ученика, воспитателя и ребенка, коллег. В связи с этим использование интерактивных методов в современном образовательном процессе является одним из важнейших факторов формирования культуры слушания.*

Abstract. *In today's era of globalization, the educational process requires not only knowledge, but also the development of communicative competence of the individual, a culture of communication. In particular, listening culture is seen as an important link in effective communication. The full-fledged implementation of communication between a teacher and a student, an educator and a child, colleagues is directly related to the ability to listen. In this context, the use of interactive methods in the modern educational process is one of the most important factors in the formation of a listening culture.*

Kalit so‘zi: *tinglash madaniyati, diologik nutq, inerfaol metodlar, interaktiv, pedagogic texnologiya.*

Ключевое слово: *культура слушания, биологическая речь, интерактивные методы, интерактивные, педагогические технологии.*

Keyword: *listening culture, dialogic speech, interactive methods, interactive, pedagogical technology.*

Kirish.

Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti mazkur jarayonga tizimli yondashuv sanaladi. O‘qituvchi o‘rganilayotgan bob va mavzularning didaktik maqsadi, ta’lim mazmunidan kelib chiqqan holda yuqori samara beradigan mashg‘ulot turini belgilaydi, o‘quv yili boshidan taqvimiy mavzularni rejalashtiradi. Ta’lim texnologiyasi esa, rivojlanayotgan ta’lim jarayonini, muammoli o‘qitish vazifasini faol o‘rganish jarayonini rag‘batlantirish, tadqiqot ishlarini olib borish va tafakkur etish usulini tarbiyalashdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Pedagogik texnologiyalarning bugungi kundagi zamonaviy nomlanishidan biri bu interaktiv metod hisoblanadi. Interaktiv metodlarning o‘ziga xos maqsadlari bor. Zamonaviy ta’lim jarayonida interaktiv usullar yordamida tinglash madaniyatini rivojlantirish oliy ta’lim muassasasida dars jarayonida hamda ma’naviy ma’rifiy ishlar amalga oshirilayotgan vaqtda amalga oshiriladi. Oliy ta’lim muassasasida dars jarayonida diologik va polilogik ta’lim metodlaridan faol foydalaniladi. Dialogic nutq yuzasidan bir qancha olimlar tadqiqot olib borishgan. L.P.Yakubinskiy dialogik nutq asoschilaridan biri hisoblanadi. Lev Petrovich Yakubinskiy (1892-1945) tomonidan dialogik nutq nazariyasida ishlab chiqilgan innovatsion yondashuvlar u foydalangan texnika va misollar bilan muhokama qilingan. Dialogik nutqni o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning tegishli tadqiqot sohasi bo‘lib, uning doirasida metodologiyasi, maqsad va vazifalari bilan farq qiluvchi tadqiqotlar olib boriladi. Bugungi kunda muhim nazariy va amaliy masalalarni hal qilishga qaratilgan ko‘plab ishlar mavjud: dialogik reaktsiyalar turlarini tavsiflash [Arutyunova 1970], dialogni modellashtirish va funktsional-lingvistik tahlil qilish muammolari [Balayan 1970; 1971], nutqning alohida turlarining dialogik funktsiyalarini o‘rganish [Bulygina, Shmelev 1982; Byrdina 1985; Tsurikova 2001] va dialogik mulohazalar turlari [Shvedova 1956; Svyatogor 1967], dialog tuzilishining tavsifi [Byrdina 1992], dialogik nutqning sintaktik xususiyatlarini o‘rganish [Vinokur T.G. 1955; Mixlina 1955 yil; Shvedova 1960; Svyatogor 1960], dialogik o‘zaro ta’sir ishtirokchilarining kommunikativ rollarining tavsifi [Vinokur T.G. 1993; Romanov 1995], dialogning tarkibiy qismlarini aniqlash [Debrenne, Narignani 1983; Kucherenosov 1989], dialogik matnning izchilligini tahlil qilish [Paducheva 1982; Lisochenko 1984 yil; Kasatkina 2004 yil; Fugeron, Breuer, 2004]. Turli janrdagi badiiy asarlarda dialogik nutqni tahlil qilishga bir qator ishlar bag‘ishlangan: bu dramada nutq aktlari nazariyasi nuqtai nazaridan dialog tahlili [Lagutin 1991], she’riy nutqdagi dialogik birlikning vazifalari va semantik xususiyatlari tavsifi [Muxametova 1985].

G.Gasanova o‘zaro munosabatlarning dialog xarakteriga ega bo‘lishi va uning ijtimoiy tavsifini batafsil tahlil qilar ekan, madaniyat olami bilan har qanday aloqaga kirishishda o‘zaro munosabatlarning ongdagi asosiy yo‘li dialog ekanligini hamda dialog o‘z mohiyatiga ko‘ra teng huquqli suhbatdoshlarning o‘zaro fikr almashinish jarayoni hisoblanadi, ya’ni so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi fikr almashinish

jarayoni, o‘zaro suhbat, savol – javoblardan tashkil topadi deb, Z.A.Xolmatova o‘zining “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dialogga asoslangan munosabatlar madaniyatini shakllantirishning didaktik shart – sharoitlari” nomli ilmiy tadqiqot ishida o‘rinli ta’kidlab o‘tgan.

Oliy ta’lim muassasalarida, dars jarayonida talabalarning tinglash madaniyatini oshirish hamda dialogik nutqni samarali tashkil etish maqsadida Nishonova Z[1]. fikriga ko‘ra bilish jarayonini tashkil etish mexanizmlari shunday qurilishi kerakki, ular talabalarni topqirlik, izlanish doirasini kengaytirish, muhokamalar jarayonida yechimlarni mustaqil izlab topishga undashi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda qo‘llaniladigan usullar, yondashuvlar, strategiyalar va texnikalarni o‘rganadigan fan bo‘lib, ilmiy izlanishlarning samaradorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Maqola yozishda ilmiy maqolalar, internet manbalari hamda xalqaro va milliy tashkilotlarining rasmiy nashrlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Dialog samarali bo‘lishi uchun talabalar muntazam ravishda o‘qituvchining fikrini tinglashlari lozim. Bu kabi o‘zaro munosabat doirasida suhbatdoshlar bir – birlarining ichki olamiga singishi natijasida ular orasida fikriy – qadriyatli munosabat vujudga keladi.

Dialog orqali talabalarda o‘z – o‘zini anglash ko‘nikmalari, ma’naviy yuksalish imkonini beradigan kompetentlikni egallashga intilish shakllanadi. Dialogga asoslangan munosabatlar o‘quv jarayonini samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi, chunki talabalar o‘rtasida o‘zaro fikr va tajriba almashinishi bilan bir-birini emotsional jihatdan anglash imkonini beradi.

Dialogik va polilogik ta'lim usullari-bu o‘quv jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro ta'sir va almashinuvga asoslangan ta'lim yondashuvlari. Dialog ikki suhbatdoshning o‘zaro ta'sirini o‘z ichiga oladi, polilog esa uch yoki undan ortiq odamning suhbatini o‘z ichiga oladi. Ikkala usul ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga, ma'lumotni tahlil qilish, boshqalarni tinglash va ularning nuqtai nazarini hurmat qilish qobiliyatiga, shuningdek muammolarni birgalikda hal qilishga qaratilgan.

Dialogik ta'lim talabalar va o‘qituvchi o‘rtasida faol fikr va fikr almashishni o‘z ichiga oladi, bu esa materialni chuqurroq tushunish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘z fikrlarini aks ettirishga va gapirishga undaydigan savollar berishi va ma'lum bir mavzu bo‘yicha munozaralarni tashkil qilishi mumkin.

Polilogik ta’lim munozara jarayoniga bir nechta ishtirokchilarni jalb qilish orqali dialog imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu o‘quvchilarga nafaqat o‘z fikrlarini bildirishga, balki turli nuqtai nazarlarni tinglash va tahlil qilishga imkon beradi, bu esa masalani yanada yaxlit tushunishni shakllantiradi. Polilog munozara, munozara yoki davra suhbati kabi turli shakllarda bo‘lishi mumkin.

Dialogik va polilogik ta'limning afzalliklari:

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish:

[1] Z.Nishanova, “Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya” darslik. Toshkent; 2015-y.

Talabalar ma'lumotni tahlil qilishni, turli nuqtai nazarlarni baholashni va o‘z dalillarini shakllantirishni o‘rganadilar.

Aloqa ko‘nikmalarini takomillashtirish:

Dialoglar va poliloglar boshqalarning fikrlarini tinglash, tushunish va hurmat qilish, o‘z fikrlarini aniq va asosli ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Birgalikda o‘qitish:

Talabalar jamoada ishlashni, bilim va tajriba almashishni o‘rganadilar, bu esa materialni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Motivatsiyani oshirish:

Munozaralar va munozaralarda qatnashish o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi va jalb qiladi.

Dialogik va polilogik ta'limni tashkil etish xususiyatlari:

Qulay muhit yaratish:

Talabalar o‘zlarini qulay va ishonchli his qilishlari, o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlari muhimdir.

Qiziqarli mavzularni tanlash:

Muhokama mavzulari dolzarb bo‘lishi, qiziqish uyg‘otishi va o‘quvchilarni fikrlashga undashi kerak.

Kerakli ma'lumotlarni taqdim etish:

Talabalar munozarada qatnashish uchun mavzu bo‘yicha etarli bilimga ega bo‘lishlari kerak.

Xulosa.

Dars jarayonida o‘qituvchi darsni talabalarga tushuntirib bo‘lganidan so‘ng, darsni qanchalik darajada o‘zlashtirdi aniqlash maqsadida turli interaktiv metodlar qo‘llash mumkin: O‘tkazilgan kuzatishlar va tahlillar shuni ko‘rsatdiki:
1. Interaktiv usullar yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda talabalar tinglash jarayonida faolroq ishtirok etishdi.
2. Rol o‘yinlari va bahs-munozaralar tinglovchilarning diqqatini jamlash, muloqotda sabr-toqatli bo‘lish, fikrni to‘liq eshitib, so‘ng javob berish ko‘nikmasini shakllantirdi.
3. Klaster va baliq skeleti metodlari o‘quvchilarni muloqot jarayonida asosiy g‘oyalarni farqlash, keraksiz ma’lumotni ajratib olishga o‘rgatdi.
4. Interaktiv usullar muntazam qo‘llanilganda tinglash madaniyatining asosiy ko‘rsatkichlari – diqqat, muloqotda faollik, hurmat bilan munosabatda bo‘lish va tanqidiy tinglash ko‘nikmalari barqaror rivojlanishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xodjieva G. “Interfaol metodlar yordamida talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish”. – Toshkent: Fan, 2021.
2. Hasanboyeva O. “Pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.
4. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – Pearson, 2015.

TALABALAR MUSTAQIL TA'LIM OLISH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY SHAKL, METOD VA VOSITALARI

Choriqulov Rustamjon Ibodulla o'g'li,
Navoiy viloyati PMM katta o'qituvchisi

Аннотация: *В данной статье освещены вопросы использования современных форм, методов и средств в организации процесса самостоятельного обучения студентов. Проанализированы реформы, осуществляемые в системе высшего образования Республики Узбекистан, в частности, правовые и организационные основы развития самостоятельного образования на основе Указа Президента No УП-5847 от 8 октября 2019 года, Постановления Президента No 824 от 31 декабря 2020 года и других нормативно-правовых актов. В статье рассматриваются формы (работа с литературой, проектная деятельность, практические задания, онлайн-обучение), методы (самостоятельное обучение, менторство, совместное обучение, peer-assessment) и современные инструменты (платформы LMS, искусственный интеллект, технологии виртуальной и дополненной реальности) самостоятельного обучения с научно-теоретической точки зрения.*

Результаты исследования показывают, что эффективная организация самостоятельного обучения у студентов имеет важное значение в повышении уровня их знаний, укреплении их профессиональных навыков, развитии критического и креативного мышления, а также компетенций цифровой грамотности.

Annotation: *This article highlights the issues of using modern forms, methods, and tools in organizing students' independent learning process. The reforms being implemented in the higher education system of the Republic of Uzbekistan are analyzed, in particular, the legal and organizational foundations for the development of independent education based on Presidential Decree No. UP-5847 of October 8, 2019, Presidential Resolution No. 824 of December 31, 2020, and other regulatory legal acts. The article examines the forms (working with literature, project activities, practical assignments, online learning), methods (self-directed learning, mentoring, collaborative learning, peer-assessment) and modern tools (LMS platforms, artificial intelligence, virtual and augmented reality technologies) of independent learning from a scientific and theoretical point of view.*

The research results show that the effective organization of independent learning in students is important in increasing their level of knowledge, strengthening their professional skills, developing critical and creative thinking, as well as digital literacy competencies.

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, кредитно-модульная система, современные формы обучения, педагогические методы, организация учебного процесса, цифровые технологии, платформы LMS, виртуальное обучение, креативное мышление, критическое мышление, цифровая грамотность.*

Keywords: *independent learning, credit-modular system, modern forms of education, pedagogical methods, organization of the educational process, digital technologies, LMS platforms, virtual learning, creative thinking, critical thinking, digital literacy.*


Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish va talabalarda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan *“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”*da mustaqil ta’limni tashkil etishda kredit-modul tizimini joriy etish, talabalarning o‘z bilimini mustaqil ravishda boyitishi uchun zaruriy sharoitlar yaratish belgilab berilgan.

Shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ta’lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, mustaqil ta’limni rag‘batlantirish orqali intellektual salohiyatli kadrlar tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish tartibi” esa talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini aniq tartibga solib berdi. Ushbu hujjatda o‘quv yuklamasining muayyan qismi mustaqil ta’limga ajratilishi, zamonaviy shakl, metod va vositalardan foydalanish zarurligi alohida ta’kidlangan.

Mazkur normativ hujjatlar zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish, bunda innovatsion pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari va interfaol metodlardan samarali foydalanish masalalarini ilmiy asosda o‘rganishni talab etmoqda. Shu sababli, mustaqil ta’limni tashkil etishning shakl, metod va vositalarini tadqiq etish hozirgi davrda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarga taqdim etiladigan topshiriqlar shakllari xilma-xil bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos maqsad va vazifalarni bajarishga qaratilgan. Mustaqil ta’lim topshiriqlarining turli shakllari talabalar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Har bir shakl ularning bilim darajasini oshirish, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va ilmiy izlanish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga topshiriqlarni individual ehtiyoj va qobiliyatga moslashtirish ta’lim jarayonining samaradorligini yanada oshiradi. Tadqiqotimizda talabalar kasbiy faoliyatidan kelib chiqib quyidagi mustaqil topshiriq shakllarini tanlandi:



1. Adabiyotlar bilan ishlash - talabalardan kursga oid maqolalar, kitoblar va boshqa ilmiy manbalarni o‘qish, tahlil qilish va ulardan olingan ma’lumotlarni

o‘zlashtirish talab qilinadi. Ushbu shakl talabalarni ilmiy izlanishga tayyorlab, ularda tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Kitobning muhim boblarini o‘qib, asosiy fikrlarni qisqacha yozib olish yoki maqola bo‘yicha savollarga javob berish.


2. Amaliy vazifalar - hisob-kitoblar, laboratoriya ishlari, yoki texnik masalasalalarni hal qilish orqali nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish. Talabalar o‘z sohalariga oid ko‘nikmalarni rivojlantiradi va nazariy bilimlarni real muammolarni hal qilishda qo‘llashni o‘rganadi. Fizika bo‘yicha tajriba natijalarini hisoblash yoki muhandislik hisob-kitoblarini bajarish.

3. Loyihalar tayyorlash - talabalar individual yoki guruh bo‘lib loyihalar ishlab chiqadilar, hisobotlar tayyorlaydilar va ularni prezentatsiya qilishadi. Ushbu usul talabalarning ijodkorlik, jamoada ishlash va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shahar infratuzilmasini yaxshilash loyihasi yoki ekologik masalalar bo‘yicha hisobot tayyorlash.

4. Tadqiqot ishi - talabalardan biror mavzuda chuqur tadqiqot olib borish va uni yozma shaklda taqdim etish talab qilinadi. Bu shakl ilmiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirib, talabalarni mustaqil tahlil qilish va tadqiqot olib borishga o‘rgatadi. Tanlangan mavzuga oid muammoni o‘rganish va natijalarni ilmiy maqola shaklida yozish.

5. Online faoliyat - Masofaviy ta’lim platformalarida topshiriqlarni bajarish, videodarslarni ko‘rish yoki forumlarda ishtirok etish. Talabalar raqamli vositalardan samarali foydalanishni o‘rganadi va mustaqil ishlash uchun qulay muhit yaratadi. Moodle platformasida o‘quv materiallarini o‘qish va testlarni yechish yoki Zoom orqali video-lektsiyada ishtirok etish.

Yondashuv, shakl tamoyillarni mujassamlashtirgan holda talabalarning mustaqil ta`lim olish jarayoni uchun quyidagi metodlarni foydalandik: o‘zini boshqaradigan ta’lim(Self-directed Learning), mentorlik va couching, tarmoqdagi hamkorlik(Collaborative Online Learning), o‘zaro baholash va taqriz(Peer Assessment).



Mustaqil ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda faqat metodlar emas, balki o‘qitish vositalari ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu vositalar o‘qituvchi tomonidan

o‘quv jarayonida mustaqil ta’limni tashkil etishda faol qo‘llaniladi. Mustaqil ta’limni tashkil etish modelini amalda joriy etish jarayonida o‘qitish vositalari sifatida quyidagilar belgilab berilgan: kompyuter tarmoqlari, internetning ijtimoiy serverlari, institutning WEB-sayti, elektron pochta, o‘qitishning texnik vositalari, LMS (Moodle platformasi). Biz o‘z modelimizda hozirgi kunga ommalashayotgan vosita ya`ni Sun`iy intelekt (AI) ni talabalar mustaqil ta`lim olishida zaruriy vosita sifatida tanlab oldik. Sun’iy intellekt ta’lim jarayonini to‘liq raqamlashtirish va yangi formatlarni joriy etishda markaziy rol o‘ynaydi. Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) bilan birgalikda, ta’limni yanada interaktiv va qiziqarli qiladi. Shu bilan birga, sun`iy intelekt orqali ta’limning har bir bosqichi chuqur tahlil qilinib, o‘zgarishlar va takomillashtirishlar amalga oshiriladi.

Xulosa

Ta’lim jarayonida zamonaviy shakl, metod va vositalardan kompleks foydalanish talabalarning nafaqat akademik, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotimiz shuni ko‘rsatadiki, talabalarda mustaqil ta’limni samarali tashkil etish nafaqat ularning bilim darajasi va kasbiy malakasini oshirishga, balki mustaqil fikrlash, izlanish, ijodkorlik va raqamli savodxonlik kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mustaqil ta’limning xilma-xil shakllari (adabiyot bilan ishlash, amaliy vazifalar, loyihalar, tadqiqot ishlari va onlayn faoliyat) talabalar uchun keng imkoniyatlar yaratadi va ularning individuallashtirilgan rivojlanishini ta’minlaydi.

Shuningdek, self-directed learning, mentorlik va hamkorlikka asoslangan o‘quv metodlari hamda peer-assessment jarayonlari talabalarni o‘z bilimlarini mustaqil baholash, boshqarish va takomillashtirishga o‘rgatadi. Zamonaviy texnologik vositalar – LMS platformalari, sun’iy intellect – mustaqil ta’lim jarayoniga joriy etilganda ta’lim jarayonining samaradorligi, interaktivligi va sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son Qarori “Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida”.
4. Karimov U.K., Mamarasulov B. “Kredit-modul tizimida ta’lim jarayonini tashkil etishning nazariy asoslari”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. Jalolov J.J. “Pedagogika: nazariya va amaliyot”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
6. Xodjayeva N.M. “Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”. – “Ta’lim taraqqiyoti” jurnali, №3, 2021. – B. 45–52.
7. Mavlonova R.A., Usmonov B.R. “Pedagogika”. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2019.
8. Anderson, L.W., Krathwohl, D.R. *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives.* – New York: Longman, 2001.
9. Knowles, M. *Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers.* – Cambridge Adult Education, 1975.

TA’LIM JARAYONIDA TEXNOLOGIYA FANINI MA’NAVIY MEROS VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR BILAN INTEGRATSIYALASHNING INNOVATSION YO‘LLARI

Boshmanova Madina To‘ychiyevna,
Sirdaryo viloyati PMM metodisti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada texnologiya fanini o‘qitish jarayonida ma’naviy meros va umuminsoniy qadriyatlarni integratsiyalashning innovatsion yo‘llari yoritilgan. Maqolada o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda texnologiya fanining o‘rni, zamonaviy innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanish samaradorligi, shuningdek, ta’lim jarayoniga integrativ yondashuvning afzalliklari ilmiy tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *texnologiya fani, ma’naviy meros, umuminsoniy qadriyatlar, integratsiya, innovatsion yondashuv, ta’lim sifati.*

Аннотация: *В данной статье раскрываются инновационные пути интеграции духовного наследия и общечеловеческих ценностей в процесс преподавания технологии. Анализируется использование национальных традиций, ремёсел, древней трудовой культуры и современных технологий в образовательном процессе. Особое внимание уделено инновационным методам — STEAM-подходу, проектному обучению, цифровым инструментам и виртуальным средам, которые способствуют формированию у учащихся национальной идентичности, творческих способностей, экологического сознания и социальной ответственности.*

Ключевые слова: *предмет «Технология», духовное наследие, общечеловеческие ценности, инновации, интеграция, STEAM, воспитание.*

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of innovative approaches to integrating spiritual heritage and universal values into technology education. It explores the effective use of national traditions, handicrafts, ancient labor culture, and modern technologies in the teaching process. Furthermore, it discusses the role of innovative methods such as STEAM, project-based learning, digital tools, and virtual environments in fostering students’ national identity, creativity, ecological awareness, and social responsibility. Practical examples are presented to demonstrate the significance of an integrative approach in shaping intellectually and morally developed individuals.*

Key words: *technology education, spiritual heritage, universal values, innovation, integration, STEAM, upbringing.*



Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimining asosiy vazifasi nafaqat o‘quvchilarga ilmiy bilim berish, balki ularda mustahkam ma’naviy asos, milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg‘usi va umuminsoniy qadriyatlarga chuqur hurmatni shakllantirishdan iboratdir. Zero, jamiyat taraqqiyotini faqatgina texnik va iqtisodiy rivojlanish emas, balki insonning ma’naviy-axloqiy yuksalishi, milliy qadriyatlari va madaniyatiga sodiqligi ham belgilab beradi. Shu jihatdan, texnologiya fani o‘zining amaliy yo‘nalishi, hayotiy mazmuni va

milliy an’analar bilan uyg‘unligi tufayli alohida ahamiyat kasb etadi.

Texnologiya fani nafaqat o‘quvchilarda mehnat ko‘nikmalarini shakllantiradi, balki qadimiy hunarmandchilik an’analari, milliy urf-odatlar va zamonaviy innovatsion yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali ularni ma’naviy jihatdan boyitadi. Bu jarayon yosh avlod ongida “Men kimman?”, “Qaysi xalq vakiliman?” degan savollarga javob topishga yordam beradi. Milliy merosni o‘rganish va uni amaliy faoliyat orqali qayta tiklash o‘quvchilarda g‘urur, mas’uliyat va ijodkorlikni tarbiyalaydi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim jarayonini yangilash, unda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llash bilan bir qatorda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: *“Biz farzandlarimizni nafaqat zamonaviy bilim va kasb-hunar egasi, balki ma’naviy yetuk, Vatanga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashimiz kerak.”* Ushbu fikr texnologiya fanida faqat amaliy ko‘nikmalarni emas, balki ma’naviy meros va umuminsoniy qadriyatlarni integratsiya qilish zaruratini yaqqol ifodalaydi.

Demak, texnologiya fanini o‘qitishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki jamiyat taraqqiyotining ma’naviy poydevorini mustahkamlaydi. Bu esa o‘z navbatida, yoshlarni kelajakda yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan, ongli, bilimli, ijodkor va ma’naviy barkamol insonlar etib voyaga yetkazishning muhim sharti hisoblanadi.

O‘zbekiston olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar, darslik va metodik qo‘llanmalarda texnologiya fanining maqsad va vazifalari chuqur yoritilgan. Jumladan, Xodjayev va boshqalar (2020 yil) tomonidan yozilgan **“Texnologiya ta’limi nazariyasi va metodikasi”** asarida texnologiya fani o‘quvchilarda mehnat madaniyati, kasbiy ko‘nikmalar va milliy hunarmandchilik an’analarini shakllantirishda tutgan o‘rni keng tahlil qilingan. Asarda qadimiy hunarmandchilik turlarini (kashtachilik, zardo‘zlik, yog‘och o‘ymakorligi, pazandachilik va boshqalar) zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etish metodlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar va ijodiy yondashuvlarning qo‘llanilishi texnologiya darslarining samaradorligini oshirishini ta’kidlaydi.

Xalqaro tajriba ham texnologiya fanini qadriyatlar bilan integratsiyalash muhimligini ko‘rsatadi**. UNESCO (2017) “Education for Sustainable Development Goals”** hujjatida ta’limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida o‘quvchilarda barqarorlik, insonparvarlik va qadriyatlarga asoslangan yondashuvni shakllantirish belgilangan. Ushbu hujjatda milliy madaniyat, ekologik tarbiya va zamonaviy innovatsion ko‘nikmalar uyg‘unlashganda o‘quvchilarda to‘laqonli shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyat shakllanishi qayd etilgan.

Bundan tashqari, **OECD (2013)** tomonidan chop etilgan ilmiy tahlillarda ta’lim tizimida innovatsion muhit yaratish, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish va ularni ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash masalalari yoritilgan. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, texnologiya ta’limini qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish yoshlarni global muammolarni hal qilishga qodir, mas’uliyatli, bilimdon va tashabbuskor avlod sifatida voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologiya fanini tarix, san’at, ekologiya, madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan bog‘lash. Bunda o‘quvchilar nafaqat amaliy ko‘nikma, balki o‘z xalqining tarixiy merosi, san’at namunalarining estetik qiymati va atrof-muhitni muhofaza qilish zarurligi haqida kengroq tasavvurga ega bo‘ladi. STEAM (Science, Technology,

Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi, loyiha asosida o‘qitish, interfaol o‘yinlar, virtual laboratoriyalar va raqamli platformalardan foydalanish. Bu o‘quvchilarda kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish, jamoada ishlash va zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Milliy hunarmandchilik (kashtachilik, zardo‘zlik, yog‘och o‘ymakorligi, pazandachilik, kulolchilik va boshqalar) elementlarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish. Masalan, o‘quvchilar milliy naqshlardan foydalangan holda 3D modellashtirish asosida dizayn loyihalari tayyorlashi, an’anaviy taomlarni pishirish jarayonida esa ekologik toza mahsulotlardan foydalanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda qatnashishi mumkin.

Bu yondashuvlar orqali texnologiya fani nafaqat amaliy ko‘nikma beruvchi fan, balki o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, raqamli dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash vositasiga aylanadi. O‘tkazilgan kuzatuv va tahlillar texnologiya fanini ma’naviy meros va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish samaradorligini ko‘rsatdi.

O‘quvchilar texnologiya fanining amaliy mashg‘ulotlari davomida qadimiy hunarmandchilik turlari bilan bevosita tanishdilar. Kashtachilik, zardo‘zlik, yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik, pazandachilik kabi milliy an’analar o‘quvchilarda nafaqat amaliy qiziqish uyg‘otdi, balki ularning milliy o‘zlikni anglash va merosga hurmat bilan qarash ko‘nikmalarini shakllantirdi. O‘quvchilarning ko‘pchiligi ota-bobolari kasblariga, milliy urf-odatlarga va xalq hunarmandchiligiga yangicha nigoh bilan qarashni boshladi. Virtual laboratoriyalar, 3D-modellashtirish, multimedia vositalari va interaktiv platformalar qadriyatlarni singdirish jarayonini yanada jozibali va samarali qildi. Masalan, **“Milliy naqshlarni 3D dasturlar yordamida tiklash”** loyihasi o‘quvchilar orasida katta qiziqish uyg‘otdi. Bu jarayonda ular an’anaviy naqshlarning tarixini o‘rgandilar, shu naqshlarni zamonaviy dasturlar yordamida qayta tikladilar va dizaynda qo‘llashni o‘rgandilar. Natijada qadimiy san’at va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unlashib, yangi ijodiy g‘oyalar yuzaga chiqdi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarda yangi g‘oya yaratish, milliy naqsh va hunarmandchilikni innovatsion shaklda qo‘llash, loyihalar davomida yuzaga kelgan masalalarni jamoada muhokama qilib, amaliy yechim topish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza mahsulot yaratishga qiziqish, guruhlarda ishlash, birgalikda loyiha yaratish, natijalarni taqdim etish orqali jamoaviy ko‘nikmalar mustahkamlandi. Loyihaviy topshiriqlarni bajarish jarayonida ota-onalarning ham faol ishtiroki kuzatildi. Masalan, milliy taomlarni tayyorlash bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotlarda ota-onalar ham qatnashib, oilaviy qadriyatlarni tiklash va mustahkamlashga hissa qo‘shdilar. Bu esa o‘quvchi, ota-ona va maktab o‘rtasida yangi hamkorlik madaniyatini shakllantirdi. Oilaviy qadriyatlarning maktab ta’limi bilan uyg‘unlashuvi o‘quvchilarda milliy merosni yanada chuqurroq anglashga yordam berdi. Amaliy mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarda milliy merosni o‘rganishga qiziqish ortdi, ular turli tanlov va ko‘rgazmalarda faol qatnashdilar. Bu jarayon o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirdi, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etuvchi yosh elchilar sifatida shakllantirdi. Natijada texnologiya fanini qadriyatlar bilan integratsiyalash nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshirdi, balki ularning hayotiy ko‘nikmalarini, kasbiy tayyorgarligini va ma’naviy kamolotini rivojlantirishga xizmat qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, texnologiya fanida qadriyatlarni singdirish jarayoni faqat nazariy tushunchalar bilan cheklanmasligi zarur. Bunday yondashuv o‘quvchilarni faqatgina bilim oluvchi emas, balki milliy va

umuminsoniy qadriyatlarni amalda qo‘llay oladigan, hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga qodir shaxs sifatida shakllantiradi. Innovatsion metod va vositalar orqali dars jarayonlari jonli, qiziqarli va samarali tus oladi, bu esa o‘quvchilarni real hayotga tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. Texnologiya fanini qadriyatlar bilan integratsiyalash natijasida darslar o‘zining didaktik qimmatini oshiradi. O‘quvchi nafaqat texnologik bilimlarni o‘zlashtiradi, balki milliy identitet, madaniy meros va tarixiy an’analarni ham chuqur anglaydi. Shu orqali o‘quvchi o‘zligini taniydi, ajdodlar merosini qadrlaydi va uni zamonaviy sharoitda davom ettirishga intiladi. Bu yondashuv shaxsiy ma’naviy yuksalishni ta’minlab, o‘quvchining ijodiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Umuminsoniy qadriyatlar – bag‘rikenglik, tinchlik, ekologik ong, mehnatsevarlik va insoniy birdamlik – texnologiya fani orqali amaliy mashg‘ulotlar jarayonida shakllanadi. Masalan, loyihaviy topshiriqlarda o‘quvchilar jamoaviy ishlashga, bir-birining fikrini hurmat qilishga va o‘zaro yordam berishga o‘rganadilar. Shu bilan birga, ekologik yo‘nalishdagi mashg‘ulotlar (chiqindilarni qayta ishlash, energiya tejamkor qurilmalar yasash, ekologik toza materiallardan foydalanish) yosh avlodda tabiatga mas’uliyatli munosabatni shakllantiradi. Natijada o‘quvchilar nafaqat maktab muhitida, balki jamiyat hayotida ham faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishadi. Texnologiya fanida qadriyatlarni singdirishda innovatsion yondashuvlar o‘ta muhim rol o‘ynaydi. Xususan, **STEAM yondashuvi** qadriyatlarni zamonaviy texnologiyalar orqali qayta talqin qilish imkonini beradi. Masalan, qadimiy naqshlardan ilhomlanib 3D printer yordamida maket tayyorlash, virtual reallik (VR) texnologiyalari orqali milliy hunarmandchilik ustaxonalari bilan tanishish, yoki milliy taomlarni tayyorlash jarayonini interaktiv dasturlar orqali o‘rganish – bularning barchasi qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirishning innovatsion usullaridir. Texnologiya fani milliy meros elementlarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish orqali o‘quvchilarda estetik didni shakllantiradi. O‘quvchilar milliy naqshlar, san’at namunalarini o‘rganish bilan birga, ularni zamonaviy dizayn va texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishni o‘rganadilar. Bu esa yosh avlodda milliy madaniyatni asrab-avaylash, uni yangi ko‘rinishlarda rivojlantirish va xalqaro maydonga olib chiqishga turtki beradi. Texnologiya fanini qadriyatlar bilan integratsiyalash ta’lim jarayonining pedagogik, ijtimoiy, innovatsion va madaniy-estetik ahamiyatini oshirib, uni yangi bosqichga olib chiqadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini kengaytiribgina qolmay, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, ijodkor va zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtira oladigan barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, texnologiya fanida ma’naviy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Chunki bunday yondashuv o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki ularning amaliy ko‘nikmalarini, ijodiy tafakkurini va tarbiyaviy sifatlarini ham yuksaltiradi. Innovatsion vositalar – raqamli platformalar, 3D-modellashtirish, virtual laboratoriyalar va STEAM yondashuvi – qadriyatlarni yanada jonli, qiziqarli va samarali shaklda o‘quvchilarga yetkazishga xizmat qiladi.

Birinchidan, texnologiya fanini qadriyatlar bilan integratsiyalash o‘quvchilarda milliy merosga hurmat va uni asrab-avaylash mas’uliyatini kuchaytiradi. Amaliy mashg‘ulotlarda milliy hunarmandchilik elementlarining qo‘llanilishi o‘quvchilarda o‘z tarixiga, urf-odatlariga va madaniyatiga faxr tuyg‘usini uyg‘otadi.

Ikkinchidan, umuminsoniy qadriyatlar – bag‘rikenglik, tinchliksevarlik, mehnatsevarlik, ekologik ong va insoniy birdamlik – texnologiya darslari jarayonida tabiiy ravishda shakllanadi. Bu esa yosh avlodni nafaqat milliy, balki global muammolarga ham mas’uliyat bilan qaraydigan shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Uchinchidan, innovatsion yondashuvlarning qo‘llanilishi texnologiya fanining ijtimoiy va pedagogik ahamiyatini yanada oshiradi. O‘quvchilar milliy naqshlardan ilhomlanib zamonaviy dizayn yaratishlari, ekologik toza mahsulot ishlab chiqishlari, jamoaviy loyihalarda ishtirok etishlari orqali hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

To‘rtinchidan, bunday integratsion yondashuv kelajak avlodni intellektual va ma’naviy jihatdan yetuk, raqamli dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, Vatanga sadoqatli va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, texnologiya fanini ma’naviy meros va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshiradi, yoshlarning milliy va global maydonda o‘z o‘rnini topishiga zamin yaratadi hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan barkamol shaxsni shakllantirishning ishonchli yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. To‘xtayeva D., Eshmurodova S. *Texnologiya ta’limi nazariyasi va metodikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 240 b.
4. Abdullayev A. *Ma’naviy meros va yoshlar tarbiyasi*. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 152 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

O‘SMIR YOSHLARLARDA KIBERBULLINGNING OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

O‘tapov Ziyo Bakirovich,
Navoiy viloyat PMM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *mazkur maqolada zamonaviy raqamli jamiyatda yoshlar orasida keng tarqalib borayotgan kiberbulling hodisasining salbiy oqibatlari, uning psixologik va ijtimoiy ta’siri hamda unga qarshi kurashish zarurati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘smir yoshlar, kiberbulling, internet xavfsizligi, psixologik ta’sir, profilaktika, axborotmadaniyati, ta’lim muassasalari, huquqiy choralar, raqamli texnologiyalar, onlayn zo‘ravonlik.*

Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti natijasida internet kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Internet, mobil qurilmalar va raqamli xizmatlardan foydalanish kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ayni paytda talabalar va maktab o‘quvchilari dars materiallariga kirish, o‘qituvchilar va sinfdoshlar bilan aloqa qilish, turli onlayn platformalardan foydalanishda internetdan foydalanadilar. Biroq ularning kiberxavfsizlik sohasidagi bilim va ko‘nikmalari, ko‘pincha, yetarli

emasligi tufayli ular turli tahdidlarga, jumladan, shaxsiy ma'lumotlar o'g'irlanishi, firibgarlik, onlayn zo'ravonlik va boshqa salbiy holatlarga duch kelmoqdalar.

Axborot texnologiyalari (AT) bugungi kunda hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ularning ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot, ijtimoiy hayot va kundalik faoliyatimizdagi o'rni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi bilan yoshlar orasida kiberbulling holatlari ortib bormoqda. Kiberbulling – bu shaxsga nisbatan onlayn tarzda sodir etiladigan tahdid, haqorat, tahqirlash va boshqa ruhiy zo'ravonlik shakllaridir. Bu holat o'quvchilarning psixik salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, o'smirlarni kiberbullingdan himoya qilish, ularda unga qarshi psixologik immunitetni shakllantirish bugungi dolzarb masalalardan biridir. Kiberbullingga qarshi immunitet hosil qilishning psixologik mexanizmi o'quvchilarda ijtimoiy-psixologik barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – o'quvchilarda kiberbullingga qarshi immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmini o'rganish va samarali usullarni ishlab chiqishdir.

O'smirlarda kiberbullingga qarshi psixologik immunitetni shakllantirish mexanizmlarini aniqlash va ularni mustahkamlashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.Yoshlarni kiberxavfsizlik va axborot ma'daniyati sohasida ongli va mas'uliyatli fuqorolar sifatida tarbiyalashdir.Bu jarayonning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Kiberbulling tushunchasini va uning psixologik oqibatlarini o'rganish.

O'quvchilarda kiberbullingga qarshi ruhiy barqarorlik darajasini aniqlash.

Psixologik immunitet tushunchasini tahlil qilish.

Kiberbullingga qarshi psixologik immunitetni rivojlantiruvchi omillarni aniqlash.

Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish

O'zbekistonda bu maqsadlarni amalga oshirish uchun turli tashabbuslar amalga oshirilmoqda masalan, "Cyber 10 day"kabi kompleks targ'ibot tadbirlari orqali aholining kiberxavfsizlik bo'yicha bilimlarini oshirishga qaratilga faoliyatlar o'rkazilmoqda. Bu tadbirlar orqali yoshlarni kiberjinoyatlardan himoya qilish, ularni kiberxavfsizlik oid bilimlar bilan ta'minlash va kiberbullingning oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

• ijtimoiy tarmoqlarda kimdir haqida yolg'on ma'lumotni tarqatish yoki kimnidir xijolatli fotosuratlarini joylashtirish

• xabar almashish platformalari orqali zararli xabarlar yoki tahdidlar yuborish

• kimningdir nomidan ish qilish va ularning nomidan boshqalarga haqoratlaydigan xabarlar yuborish.

Kiberbulling (kiberhujum) – bu Internet texnologiyalaridan foydalangan holda ta'qib qilishning bir shakli. Uning namoyon bo'lish shakllari har xil – haqorat, shantaj, tahdidlar, tuhmat, ta'qib va hokazolar. Kiberbullingga sabab bo'luvchi omillar zamirida ko'pincha uning tashabbuskorining psixologik muammolari (qo'rquvlar, voqea-hodisalar kompleksi, travma) yotadi. Kiberbulling jabrlanuvchisiga ta'sir o'tkazish uchun ular ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, messenjerlar va boshqa onlayn platformalardan foydalanadilar, chunki bu vositalar orqali har qanday ma'lumot yashin tezligida tarqaladi. Kompyuter yoki telefonning tugmasini bitta bossa bo'ldi – haqoratomuz va badnom qiluvchi sharmandali fotosuratlar, video tasvirlar, masxaralovchi rasmlar, turli mish-mishlar juda katta auditoriyaga yetib boradi. Internet va mobil telefonlardan foydalangan holda, kiber tajovuzkorlar o'z jabrdiydalarini tunu

kun qo‘rquvda ushlab turib, ularga o‘z hayotlarini to‘liq nazorat qilish illyuziyasini yaratib berishlari mumkin.

Ikkita asosiy xususiyat sizga kiberbullingni aniqlash imkonini beradi.

1. Muddatli davom etish. Tizimli ravishda takrorlanadigan harakatlar.

2. Aniq belgilangan tomonlarning mavjudligi. Har doim tajovuzkor va jabrlanuvchi bor. Virtual dunyoda tajovuzkorni aniqlash qiyin bo‘lishi mumkin. U o‘zini osongina yashirgan holda ko‘plab akkauntlarni yarata oladi. Bu kiberhujumchi kimligini tanib olishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, tajovuzkorning ko‘pincha sheriklari ham bo‘ladi.

Psixologik buzilish. Kiberbulling jabrlanuvchilari, ayniqsa, o‘smirlar haqida gap ketganida, ular ko‘pincha yakkalanib qolishadi, o‘zlariga nisbatan ishonchlari pasayadi, o‘zlarini namoyon qilish bilan bog‘liq muammolar paydo bo‘ladi, tashvishlanish va xavotirlanish kabi depressiv holatlar darajasi ortib ketadi va o‘z joniga qasd qilish fikrlari/urinishlari paydo bo‘ladi. Shaxs doimiy stressda, faqat salbiy his-tuyg‘ularni boshidan kechiradi va ba’zida jabrlanuvchi roliga juda odatlanib qoladi. Somatik buzilish. Salbiy his-tuyg‘ular va qo‘rquv iskanjasida surunkali uyqusizlik, bosh og‘rig‘i, ishtaha yo‘qolishi kabi psixosomatik kasalliklar paydo bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda ta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida kiberbulling keng tarqalgan bo‘lib, uning kuchayishi bugungi jamiyatda xavotir uyg‘otmoqda. 2019 yilda K.D. Xlomov va boshqalar o‘quvchilarning 70% ga yaqini kiberbullingdan aziyat chekishini va 44,3% tajovuzkor sifatida harakat qilishini ta’kidladilar . Shuni hisobga olish kerakki, o‘quvchilarning aksariyati onlayn ta’qibni jiddiy muammo deb bilishadi. Shunday qilib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi virtual dunyoda salbiy, agressiv xatti-harakatlar, muloqot tendentsiyasining paydo bo‘lishiga yordam berdi. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu muammo butun dunyoda keng tarqalgan bo‘lib, bolalar va o‘quvchilarning Internetdan foydalanish xavfsizligiga tahdid soladi va bu bizning tadqiqotimiz mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Ushbu maqolaning vazifalari: nazariy tahlil jarayonida ta’lim muhitida o‘quvchilar o‘rtasida kiberbulling muammosini ko‘rib chiqish, shuningdek, ta’lim jarayonining barcha sub’ektlari uchun kiberbullingga qarshi kurashishning asosiy strategiyalarini ishlab chiqish. So‘nggi o‘n yillikda ham xorijiy (M.Garaigordobil, R.M.Kovalski, S.P.Limber, D.Olveys, D.Patchin, S.Xinduya va boshqalar) ko‘plab asarlari paydo bo‘ldi. Hozirgi vaqtda kiberbullingning ko‘plab ta’riflari mavjud, ammo bu hali o‘rnatilmagan terminologiyaga ega bo‘lgan yangi tadqiqot sohasi. Bizning fikrimizcha, bu hodisani eng to‘liqroq ochib beruvchi tadqiqotchilar J.V.Patchin, S.Hinduja kiberbullingni o‘zini himoya qila olmaydigan shaxsga qarshi ijtimoiy tarmoqlarda turli zamonaviy texnik elektron vositalardan foydalangan holda qasddan, doimiy (takroriy) tajovuzkor xatti-harakatlar deb tushunadi. Ular kiberbullingning (an’anaviy bezorilik, bahs-munozara, masxara qilishdan farqli o‘laroq) xususiyatlarini ta’kidlaydilar, masalan 1) qasddan bezorilik; 2) zararli ta’sir (maqsad qo‘rqitish); 3) doimiy takrorlash (bezorilik kuniga 24 soat, haftada 7 kun davom etishi mumkin - Kiberbulling va an’anaviy bezorilik o‘rtasidagi yana bir farq shundaki, onlayn bezorilikning chegarasi yo‘q. Olimlarning ta’kidlashicha, kiberbulling ko‘pincha anonim (jabrlanuvchi har doim ham o‘z jinoyatchisini bilmaydi), virus tarqalishi (qisqa vaqt ichida ko‘p odamlarni qamrab oladi), jabrlanuvchiga og‘ir azob-uqubatlarni keltirib chiqaradi o‘sha erda. Ushbu hodisaning anonim tabiati tajovuzkorning mas’uliyatini kamaytiradi, olib tashlaydi, u virtual makonda “yuzma-

yuz” ayta olmaydigan yoki qilib bilmaydigan narsani aytadi yoki qiladi. Bundan tashqari, an’anaviy bezorilikda bezorilar o‘zlarining xatti-harakatlari jabrlanuvchiga qanday ta’sir qilishini kuzatishi mumkin. Onlayn zo‘ravonlik bilan bezovtalanuvchi o‘z harakatlarining natijasini, jabrlanuvchining azobini “ko‘rmaydi” va zo‘ravonlik nishonining barcha oqibatlarini hisobga olmaydi. Shuning uchun, bu tajovuzkorning minimal empatiyasiga va uning jabrlanuvchidan ajralishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa shuki, bugungi kunda talaba va maktab o‘quvchilari kiberxavfsizlik bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lishlari va o‘zlarini internet tahdidlaridan himoya qila olishlari uchun quyidagilarga amal qilishlari lozim bo‘ladi:

- Kiberxavfsizlik bo‘yicha muntazam bilimga ega bo‘lib borishlari;
- Onlayn xavfsizlik bo‘yicha seminar va treninglarga qatnashib turishlari va shular orqali bilim, ko‘nikma shakllantirishlari;
- Yoshlarni internetdan xavfsiz foydalanish madaniyatiga o‘rgatishlari.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar va maktab o‘quvchilari orasida kiberxavfsizlikka oid tushunchalar sust shakllangan, ularning ko‘pchiligi shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish qoidalarini yetarli darajada bo‘lmaydi. Bu esa ularni turli kiberxavf-xatarlarga nisbatan zaiflashtiradi. Kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish uchun talaba va maktab o‘quvchilariga tizimli yondashuv zarurati mavjud. Bu borada quyidagi choralarni taklif etiamiz:

- Ta’lim dasturlariga kiberxavfsizlikka oid alohida fan yoki modul kiritish;
- Maktab va universitetlarda muntazam trening va seminarlar o‘tkazish;
- Onlayn xavfsizlikka oid interaktiv o‘yinlar, viktorinalar va testlar orqali bilimlarni mustahkamlash;
- Ota-onalar va o‘qituvchilarni ham bu jarayonga jalb qilish.

Xulosa shuki, yoshlarni kiberxavfsizlikdan himoyalash – bu nafaqat texnik masala, balki keng qamrovli ijtimoiy-tarbiyaviy jarayon hamdir. Bu butun jamiyatning e’tibori va diqqat markazidagi muammodir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Singer P. W., friedman A. Cybersecurity and Cyberwar: What Everyone Needs to Know. – Oxford University Press, 2014.
2. Mitnick K. The Art of Invisibility. – Little, Brown and Company, 2017.
3. Ekpo U. Introduction to Cyber Security. – Springer, 2021.
4. O‘zbekiston respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. – Kiberxavfsizlik strategiyasi 2022-2025.
5. European union agency for cybersecurity (enisa). Cybersecurity Threat Landscape 2023

TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA LOYIHA ISHLARINING STEAM YONDASHUVI BILAN INTEGRATSIYASI

Rahmonov Ulfat Ubaydullayevich,
Navoiy viloyati PMM metodisti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tabiiy fanlarni o‘qitishda loyiha ishlarining ahamiyati va ularni STEAM ta’lim yondashuvi bilan integratsiya qilish imkoniyatlari tahlil qilingan. Loyiha asosida ta’lim jarayonini tashkil etish o‘quvchilarda fanlararo bog‘liqlikni anglash, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqishni oshirishda muhim vosita ekanligi asoslab berilgan. STEAM yondashuvining asosiy komponentlari — tabiiy-ilmiy bilimlar,*

texnologiyalarni qo‘llash, muhandislik yechimlari, san’at elementlari va matematik tahlil — loyihaviy faoliyat orqali uyg‘unlashtirilishi yoritilgan. Shuningdek, biologiya, kimyo, fizika va geografiya fanlarida loyiha ishlari misolida amaliy jihatlar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari loyiha ishlarini STEAM yondashuvi bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni kelajak kasbiy faoliyatga tayyorlash va fanga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirishda samarali ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *tabiiy fanlar, loyiha asosida ta’lim, STEAM yondashuvi, fanlararo integratsiya, ijodiy tafakkur, kompetensiya, innovatsion metodlar, interfaol ta’lim, amaliy ko‘nikmalar, raqamli texnologiyalar.*

Kirish

Zamonaviy ta’lim jarayoni o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini ham shakllantirishni talab etadi. Shuning uchun ham so‘nggi yillarda loyiha asosida ta’lim metodikasi keng qo‘llanilmoqda. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil izlanish olib borishi, muammolarga yechim topishi va o‘z bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishini ta’minlaydi. Ayniqsa, tabiiy fanlarni o‘qitishda loyiha ishlari o‘quvchilarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish, ularda kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash va tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimida keng joriy etilayotgan innovatsion yondashuvlardan biri bu – STEAM ta’limi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) hisoblanadi. Mazkur yondashuvning asosiy mohiyati fanlararo integratsiyani ta’minlash va o‘quvchilarning ijodkorlik hamda muhandislik tafakkurini rivojlantirishdan iboratdir. Tabiiy fanlarni o‘qitishda loyiha asosidagi faoliyatni STEAM yondashuvi bilan uyg‘unlashtirish orqali nafaqat o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi oshiriladi, balki ularning hayotiy kompetensiyalarini shakllantirish ham samarali yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, loyiha ishlari va STEAM yondashuvining integratsiyasi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy tajribasiga asoslangan faol o‘qitishni amalga oshirish imkonini beradi. Masalan, biologiyada ekologik muammolarni o‘rganish, kimyoda chiqindisiz texnologiyalarni qo‘llash, fizika va geografiyada raqamli vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilar real hayotiy masalalarga yechim topishga yo‘naltiriladi. Bu esa ularda nafaqat ilmiy dunyoqarash, balki ijtimoiy mas’uliyat hissini ham shakllantiradi.

Demak, tabiiy fanlarni o‘qitishda loyiha ishlarini STEAM yondashuvi bilan integratsiyalash ta’lim sifatini oshirishda samarali metodlardan biridir. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarini mustahkamlash, texnologik yangiliklardan foydalanish, muhandislik tafakkurini rivojlantirish va ijodiy yondashuv asosida bilimlarini taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bois mazkur masala nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ilmiy tadqiqotlarga arzigulik muhim mavzulardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism: Tabiiy fanlarni o‘qitishda loyiha ishlaridan foydalanish zamonaviy pedagogikaning eng samarali metodlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Chunki loyiha asosida ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtiradi, ularda mustaqil izlanish va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Bu yondashuvning o‘ziga xos jihati shundaki, o‘quvchi o‘qituvchining tayyor bilimlarini qabul qiluvchi emas, balki faol tadqiqotchi sifatida ta’lim jarayonida ishtirok etadi.

Loyiha asosida ta’limni tashkil etishda tabiiy fanlarning o‘ziga xos xususiyatlari ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, fizika va kimyo fanlarida tajribalar o‘tkazish orqali nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkoniyati mavjud. Biologiyada esa kuzatishlar va dala tadqiqotlari yordamida o‘quvchilarning tabiatga oid bilimlarini boyitish mumkin. Geografiya fanida esa loyihalar orqali o‘quvchilar xaritalash, raqamli ma’lumotlarni tahlil qilish va ekologik muammolarni yechish kabi amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

STEAM yondashuvi tabiiy fanlarni o‘qitishda loyihaviy metodning samaradorligini yanada oshiradi. Chunki bu yondashuvda fanlararo integratsiya, texnologiyalardan foydalanish, muhandislik tafakkuri va ijodiy yondashuv uyg‘unlashadi. O‘quvchilar bir vaqtning o‘zida ilmiy qonuniyatlarni o‘rganib, texnologiyalarni qo‘llashni o‘rganadilar va ijodkorlik asosida natijalarni taqdim etadilar.

Loyiha asosida STEAM yondashuvini qo‘llash o‘quvchilarning fanga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. O‘quvchi o‘zining yaratayotgan mahsuli bevosita amaliy ahamiyatga ega ekanini ko‘rganida, ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Masalan, “Quyosh energiyasidan foydalanish” loyihasi orqali o‘quvchilar nafaqat fizika qonuniyatlarini o‘rganadi, balki ekologik muammolarga yechim topishga ham harakat qiladi.

Tabiiy fanlarni o‘qitishda STEAM loyihalarining yana bir afzalligi o‘quvchilarning hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishidadir. Loyiha jarayonida guruh a’zolari o‘zaro vazifalarni taqsimlaydi, muammoga yechim topishda bir-birining bilim va tajribasidan foydalanadi. Bu jarayon esa o‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalar, jamoada ishlash va muloqot madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

STEAM yondashuvi yordamida tabiiy fanlarda qo‘llaniladigan loyihalar o‘quvchilarning tanqidiy va tahliliy fikrlashini ham rivojlantiradi. Masalan, “Chiqindilarni qayta ishlash” loyihasida o‘quvchilar muammoni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilib, muhandislik yechimlarini ishlab chiqadilar va ularni amaliyotda sinab ko‘radilar. Bunday faoliyat nafaqat ilmiy bilimlarni mustahkamlaydi, balki real hayotiy muammolarni hal etishga o‘rgatadi.

Biologiya fanida STEAM loyihalari o‘quvchilarni ekologik muammolarni chuqur o‘rganishga jalb qiladi. “Mahalliy ekotizimlarni saqlash” loyihasi orqali o‘quvchilar tabiat hodisalarini o‘rganish bilan birga, texnologiyalardan foydalanib monitoring olib boradilar, muhandislik g‘oyalari yordamida ekologik muammolarga yechim taklif qiladilar.

Kimyo fanida esa loyiha ishlari orqali ekologik xavfsizlik va energiya samaradorligi masalalari o‘rganilishi mumkin. Masalan, “Chiqindisiz laboratoriya” loyihasi doirasida o‘quvchilar kimyoviy tajribalarni ekologik toza usullar bilan o‘tkazish yo‘llarini ishlab chiqadilar. Bu esa ularda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqish uyg‘otish bilan birga, ekologik madaniyatni ham shakllantiradi.

Fizika fanida loyiha ishlari o‘quvchilarning muhandislik tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. “Quyosh panellarining samaradorligini aniqlash” loyihasida o‘quvchilar nazariy bilimlarini amaliy tajribalar orqali sinab ko‘radilar. Ular fizik qonuniyatlarni qo‘llash bilan birga matematik hisob-kitoblar asosida natijalarni tahlil qiladilar.

Geografiya fanida esa raqamli texnologiyalar asosida loyihalar tashkil etilishi mumkin. Masalan, “Hududiy iqlim o‘zgarishlarini raqamli xaritalash” loyihasida

o‘quvchilar geoinformatsion texnologiyalardan foydalanib, ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va vizualizatsiya qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularning zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash kompetensiyasini rivojlantiradi.

STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan loyihalar o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, loyiha natijalarini taqdim etishda o‘quvchilar grafik dizayn, animatsiya yoki badiiy ifodadan foydalanishlari mumkin. Bu esa san’at elementlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, loyiha ishlari va STEAM yondashuvining uyg‘unligi o‘quvchilarning kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini ham kuchaytiradi. O‘quvchilar texnologiya, muhandislik va ilmiy tadqiqot sohalarida zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar. Bu esa ularni mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, tabiiy fanlarni o‘qitishda loyiha ishlarini STEAM yondashuvi bilan integratsiyalash ta’lim samaradorligini oshiruvchi kuchli metodik yondashuvdir. Bu jarayon o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash, ijodkorlik va muhandislik tafakkurini rivojlantirish, texnologiyalardan samarali foydalanish va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Xulosa

Tabiiy fanlarni o‘qitishda loyiha ishlarini STEAM yondashuvi bilan integratsiyalash ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning nazariy bilimlarini hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan loyihalar tabiiy fanlarni boshqa fanlar bilan uyg‘unlashtirishga, texnologik va muhandislik g‘oyalaridan foydalanishga, san’at elementlari yordamida natijalarni ijodiy taqdim etishga imkon beradi. Bu esa o‘quvchilarning fanlararo kompetensiyalarini rivojlantirib, ularda yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish va yangilik yaratish qobiliyatini shakllantiradi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, tabiiy fanlarda loyiha ishlari orqali STEAM yondashuvini qo‘llash o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni hamkorlikda ishlashga, ijtimoiy mas’uliyatni his qilishga va zamonaviy texnologiyalardan ongli foydalanishga yo‘naltiradi. Shu bois bu metodika kelajakda ta’lim tizimini yanada modernizatsiya qilishda muhim strategik yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.Dewey Experience and Education. New York: Macmillan, 1938.
2. S.Z.Beers, 21st Century Skills: Preparing Students for Their Future. National Education Association, 2011.
3. G.Yakman STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education. Virginia Polytechnic Institute and State University, 2008.
4. J.W.Thomas A Review of Research on Project-Based Learning. San Rafael, CA: Autodesk Foundation, 2000.
5. П.И.Пидкасистый, Педагогика: Учебник для студентов педагогических вузов. Москва: Педагогика, 2016.
6. A.Xodjayev, X.G‘ulomova Tabiiy fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2021.
7. U.U.Rahmonov, Tabiiy fanlarni loyiha ishlari asosida o‘qitish metodikasi [Matn]: O‘quv qo‘llanma.“NAVOIY” nashriyoti, 2024. – 96 b

TA’LIM TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING QO‘LLANILISHI

Egamberdiyeva Feruza Abdimannonovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti,
Egamberdiyev Ne’matilla Maxmudovich,
Fan va texnologiyalar instituti magistranti

Annotatsiya. *Maqolada ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi, uslubiyatini tahlil qilish, sun’iy intellekt elementlaridan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish kabi masalalar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek sun’iy intellekt asosida maxsus ishlab chiqilgan robot-repetitorlarning ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, to‘g‘risida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ta’lim texnologiyalari, kognitiv qobiliyat, ChatGPT, DeepSeek, katta ma’lumotlar(BigDatalar).*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы применения технологий искусственного интеллекта в образовательном процессе, анализ методологии их применения, организация учебных занятий с использованием элементов искусственного интеллекта, а также значение специально разработанных роботов-репетиторов на основе искусственного интеллекта для повышения эффективности образовательного процесса.*

Ключевые слова*: искусственный интеллект, образовательные технологии, когнитивные способности, ChatGPT, DeepSeek, большие данные (Big Data).*

Abstract. *The article examines issues such as the application of artificial intelligence technologies in the educational process, analysis of their methodology, and organization of training sessions using artificial intelligence elements. It also discusses the importance of specially developed robot tutors based on artificial intelligence in increasing the efficiency of the educational process.*

Keywords*: artificial intelligence, educational technologies, cognitive abilities, ChatGPT, DeepSeek, big data (Big Data).*

Kirish.

Zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti, ayniqsa sun’iy intellekt (SI) sohasidagi ilg‘or yutuqlar, butun dunyo bo‘ylab ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunning asosiy masalalaridan biri insonga xos aqlli xatti-harakatni bajara oladigan hamda muammoni intellektual tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan axborot tizimlarini yaratishdan iborat. Buning uchun dastlab inson miyasini qanday ishlashini o‘rganish, so‘ngra uni kompyuterda modellashtirish va semulyatsiya qilish talab etiladi.

Aql-idrok, odatda, inson psixikasining xususiyati sifatida tushuniladi, bu unga tashqaridan olingan ma'lumotlarni to‘g‘ri talqin qilish va yangi vaziyatlarga moslashish imkonini beradi. Insonning kognitiv qobiliyatlari yoki kognitiv funktsiyalari bor - bu miyaning eng yuqori funksiyalari bo‘lib, ular odamni tashqi dunyo bilan bog‘laydi, bu esa olam haqida tasavvurga ega bo‘lish va u bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish imkonini beradi. Kognitiv qobiliyatlar deganda insonning fikrlash, xotira, diqqat va muammoni hal qilish qobiliyatlari tushuniladi[5].

Sun’iy intellekt (SI) – bu texnologik tizimlarning inson ongiga xos bo‘lgan kognitiv funksiyalarni namoyon etish qobiliyatidir. U o‘rganish, mantiqiy tahlil qilish, muammolarni hal etish, qaror qabul qilish, tilni tushunish va atrof-muhitga moslashish kabi jarayonlarni amalga oshiradi. Sun’iy intellektning asosiy maqsadi – turli

vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan aqlli agentlarni yaratishdan iborat. Vazifalar turlicha bo‘lishi mumkinligi sababli, sun’iy intellektni qo‘llashning universal yagona usuli hozircha mavjud bo‘lmasada, kundalik hayotdagi turli muammolarni hal qilish uchun turli xil yondashuvlar ishlab chiqilgan. Shu sababli, sun’iy intellekt texnologiyalarining nazariy asoslarini o‘rganish va ularni boshqaruv tizimlarida samarali qo‘llash imkoniyatlarini tadqiq qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi. “Aqlli agentlar” (intelligent agents) atamasi sun’iy intellekt (SI) sohasida muhim tushunchalardan biri bo‘lib, **muayyan muhitda mustaqil ravishda qaror qabul qilish** sensorlar orqali sezish, tahlil qilish va shu asosda maqsadli harakatlarni amalga oshirish **qobiliyatiga ega bo‘lgan tizimlar**ni anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili.

O‘zbekiston ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar endi rivojlanib bormoqda. Respublikada raqamli ta’lim muhitini yaratish, dasturlash fanlarini interaktiv o‘qitish hamda ta’limda imitatsion modellarni joriy etishga oid tadqiqotlar yurtimizda: M.M.Aripov, M.X.Lutfillayevlarning ishlarida tadqiq etilgan.

O‘zbekistonda sun’iy intellekt texnologiyalari asosida ta’limning sifat samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqot ishlari:

S.Komolov va Sh.Raxmatovlarning “Sun’iy intellekt asoslari” nomli kitobi sun’iy intellektning mashinaviy o‘qitish yo‘nalishi haqidagi qo‘llanma bo‘lib, mashinaviy o‘qitish asoslarini o‘zida qamrab oladi. Kitobda keltirilgan bilimlarni egallashda oliy matematika asoslari hamda Pyton dasturlash tili ko‘nikmalari talab etiladi.

R.H.Ayupov, G.R. Baltabaevalarning “Sun’iy intellekt: ChatGPT va uning imkoniyatlari” nomli qo‘llanmasi turli sohalarda, shu jumladan, firmalarda, kompaniyalarda va tashkilotlarda sun’íy inttelekt tizimlarini yaratish, undan foydalanish bilan shugúllanadigan insonlarga, bu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotganlarga, talabalar va o‘quvchilarga hamda sun’iy intellektni o‘rganmoqchi bo‘lganlarga bag‘ishlanadi.

Filologiya fanlari doktori, professor, Xolmanova Zulxumorning “Sun’iy intellekt: Boris” nomli maqolasida sun’iy intellekt va uning fan sohalarida, xususan, kompyuter lingvistikasida qo‘llanishi haqida so‘z yuritilgan. Matnni avtomatik tahrirlash va matn ustida ishlash amallarining sun’iy intellekt asosidagi tizimlari, xususan, darak gaplardan iborat matnlarni avtomatik tahlil qilish tizimi (BORIS)ning ishlash prinsiplari bayon qilingan. Matn mazmunini o‘zlashtirishda, matn osti ma’nolarini anglashda, presuppozitsiyalarni aniqlashda sun’iy intellekt asosidagi BORIS tizimining o‘rni ko‘rsatib berilgan. O‘zbek tilidagi matnlar asosida ishlaydigan sun’iy intellektlarning yaratilishi bu tilni kompyuter dasturlari tiliga aylantirishda muhim o‘rin tutishi ta’kidlangan.

O‘zbekistondagi yetakchi universitetlardan biri bo‘lgan Toshkent Axborot Texnologiyalari Universitetida sun’iy intellekt va ta’lim sohasidagi ilmiy tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Universitetda ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari va SI asosida ta’lim tizimini yaxshilashga qaratilgan tadqiqotlar mavjud. Shuningdek, Samarqand davlat universitetida ham sun’iy intellekt va ta’limga oid bir nechta ilmiy ishlar mavjud. Universitetda talabalarga sun’iy intellekt asoslarini o‘rgatish va ta’limda SI texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha kurslar ishlab chiqilgan.

So‘nggi yillarda fanlarni o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish hamda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida bir

qator ishlar amalga oshirilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida SI texnologiyalaridan foydalanish masalasi xalqaro darajada ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, **P.Brusilovskiy, B.Bloom, D.Merrill** kabi olimlarning ishlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimlari, moslashuvchan ta'lim muhiti va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari haqida fikrlar ilgari surilgan. Dasturlash fanlarini o'qitishda sun'iy intellekt elementlarini qo'llash bo'yicha **J.Anderson, M.Resnik va A.Turing** kabi tadqiqotchilarning ishlarida dasturlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun aqlli tizimlardan foydalanish bo'yicha metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Shuningdek avtomatlashtirilgan baholash tizimlari bo'yicha **E.Wenger va D.Jonson** tadqiqotlarida talabalar kodlarini avtomatik baholash, ularning xatolarini aniqlash va shaxsiy o'qitish tizimlarini yaratish bo'yicha ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Hozirda mashhur bo'lgan tadqiqot ishlari **Kiyoshi Takahashi**, K.S.Rajasegar, Fatma Demirtaş, Mohamed Ali Hamade, Stefano Della Torre, Tomas Dąbrovski, Pierre Dillenbourg, Andreas Holzinger kabi olimlarga tegishlidir.

Natijalar. Ushbu yo'nalishda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, aynan **pedagogika oliy o'quv yurtlarida "Dasturlash asoslari" fanini sun'iy intellekt elementlari asosida o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha chuqur o'rganilgan ilmiy ishlar yetarli darajada emas**. Shuningdek, SI yordamida individual ta'lim yo'nalishlarini shakllantirish, moslashuvchan dasturiy muhit yaratish va talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha yangicha yondashuvlar ishlab chiqish zarurati mavjud.

"Dasturlash asoslari" fanini o'qitishda sun'iy intellekt (SI) elementlaridan foydalanish ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish va uning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Talabalarning bilim darajasini tahlil qiluvchi va ularga individual o'quv yo'nalishlarini taklif etuvchi aqlli o'qitish tizimlari ishlab chiqish orqali ularning o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirilishiga erishiladi. SI asosida kod yozish, xatolarni tahlil qilish va optimallashtirish bo'yicha avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari ishlab chiqilishi natijasida talabalar real loyihalar ustida ishlash hamda amaliy tajribaga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Sun'iy intellekt yordamida talabalar bilimlarini tahlil qilish va ularning rivojlanish dinamikasini kuzatish mumkin bo'ladi. O'quv jarayonining samaradorligi haqida aniq statistik ma'lumotlar olinadi, bu esa kelajak strategiyalarini shakllantirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari pedagogika oliy o'quv yurtlarida **"Dasturlash asoslari"** fanini interaktiv, moslashuvchan va samarali o'qitish imkoniyatini yaratadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida ta'lim jarayonining avtomatlashtirilishi, individual yondashuvning rivojlanishi va talabalarning dasturlash bo'yicha real amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi ta'minlanadi. Bu esa, o'z navbatida, kelajakda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 2024-yil 14-oktyabr PQ-358-son
2. "Darslarda sun'iy intellektdan foydalanish metodikasi" Mamatkarimova Gulmira Xabibullayevna https://doi.org/10.5281/zenodo.13893155
3. Lutfillayev M.X.. Axborot texnologiyalari. - Toshkent 2019: O'zMU 110 b.
4. T.A.Xo'jaqulov, NT.Malikova. Sun'iy intellekt (O'quv qo'llanma). –T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot - matbaa uyi", 2020.-216 bet.
5. Filipova I.A. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi. Rus tilidan

tarjima Z.O. Kuvandikov, mas'ul muharrir A.R. Axatov - Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022. -179 bet.
6. https://softline.ru/about/blog/kak-iskusstvennyj-intellekt-menyaet-sferu-obrazovaniya
7. Beijing Consensus on Artificial Intelligence and Education UNESCO International Conference on Artificial Intelligence and Education, Planning Education in the AI Era: Lead the Leap 2019 https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000382446
8. https://media.foxford.ru/articles/neyroseti-v-obrazovanii#
9.https://www.tadviser.ru/index.php/Статья:Искусственный_интеллект_в_образовании

MAKTAB O‘QUVCHILARI UCHUN TURLI HAYOTIY VAZIYATLARDA MUSTAQIL FIKRLASH, TAHLIL QILISH VA AXLOQIY JIHATDAN TO‘G‘RI QAROR QABUL QILISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH

Turayeva X.I.,
Navoiy viloyati PMM metodisti

Annotatsiya. *Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – bilim berish bilangina cheklanmasdan, balki o‘quvchilarda hayotga tayyorgarlik, to‘g‘ri fikrlash va ongli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, tarbiya fani darslari bu borada katta ahamiyat kasb etadi. Tarbiya darslari orqali o‘quvchilar nafaqat axloqiy tushunchalarni o‘zlashtiradi, balki turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, oqibatini oldindan baholash va to‘g‘ri yo‘lni tanlashga o‘rganadilar.*

Kalit so‘zlar: *Mustaqil fikrlash, axloqiy tarbiya, qaror qabul qilish, o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi, axloqiy ong, interfaol metodlar.*

Аннотация*. Современная система образования ставит перед собой задачу не только передавать знания, но и формировать у учащихся навыки подготовки к жизни, правильного мышления и осознанного принятия решений. Особенно важную роль в этом процессе играет предмет “Воспитание”. На уроках воспитания ученики не только усваивают нравственные понятия, но и учатся принимать самостоятельные решения в различных жизненных ситуациях, заранее оценивать возможные последствия и выбирать правильный путь.*

Ключевые слова: *Самостоятельное мышление, нравственное воспитание, принятие решений, личностное развитие учащегося, нравственное сознание, интерактивные методы.*

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — o‘quvchilarga bilim berish bilan birga, ularda hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Ayniqsa, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va axloqiy jihatdan to‘g‘ri qaror qabul qilish malakalari shaxsning ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi muvaffaqiyati uchun muhimdir. Tarbiya fanining darsliklari aynan shu ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarga murakkab hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘lni tanlashda yordam beradi. O‘quvchilarda turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va axloqiy jihatdan to‘g‘ri qaror qabul qilish malakalarini shakllantirish zamonaviy ta’limning dolzarb vazifalaridan biridir. Tarbiya fanining o‘quvchilarga axloqiy qadriyatlarni singdirish bilan birga, ularni real hayotga tayyorlashdagi roli katta. Interfaol metodlardan foydalangan holda, o‘qituvchilar bu ko‘nikmalarni samarali


rivojlantirishlari mumkin. Shu orqali o‘quvchilar nafaqat bilimli, balki mas’uliyatli va ongli fuqarolar sifatida yetishadi. Tarbiya fani darslarida real hayotdan olingan misollar, rolli o‘yinlar va guruh munozaralari orqali tahlil qilish ko‘nikmasi yanada mustahkamlanadi. O‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va axloqiy qaror qabul qilish malakalarini shakllantirish jarayonini o‘rganish maqsadida bir qancha metod va usullar qo‘llanilsa samarali bo‘ladi. Bu orqali mustaqil fikrlash va axloqiy tarbiya bo‘yicha mavjud yondashuvlar va samarali metodlar aniqlanib olinadi. O‘quvchilarda mustaqil fikrlash va axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun sinfda interfaol metodlar (rolli o‘yinlar, guruh muhokamalari, vaziyatli mashqlar) ushbu metodlarning ta’lim jarayoniga ta’siri kuzatiladi va baholanadi. Dars jarayonidagi o‘quvchilarning faoliyati, ularning muammoli vaziyatlarga munosabati, fikr bildirishlari va qaror qabul qilishlari muntazam ravishda kuzatib boriladi. Natijalar yozib borilib, keyinchalik tahlil qilinadi. O‘quvchilarga mustaqil fikrlash va axloqiy qaror qabul qilishga oid savollar beriladi, shuningdek, o‘quvchilar bilan suhbatlar o‘tkaziladi. Bu ma’lumotlar o‘quvchilarning o‘z qarorlarini qanchalik ongli va axloqiy asosda qabul qilayotganliklarini aniqlashga yordam berdi.

Axloqiy qaror qabul qilish bu shaxsning axloqiy tamoyillar va qadriyatlar asosida to‘g‘ri va mas’uliyatli tanlov qilish qobiliyatidir. Tarbiya fanida o‘quvchilarni axloqiy dilemmalar bilan tanishtirish, ularni turli axloqiy holatlarni tahlil qilishga undash orqali bu malaka rivojlantiriladi. Masalan, “Halollik va do‘stlik”, “Mehr-shafqat va adolat” kabi mavzular bo‘yicha munozaralar o‘quvchining axloqiy ongini oshiradi. Mustaqil fikrlash — insonning mavjud bilim, tajriba va mantiqiy tahlil asosida mustaqil ravishda muammolarni hal qilish qobiliyatidir. Bu ko‘nikma shaxsning ijodiy va tanqidiy fikrlashini shakllantiradi hamda mustaqil qaror qabul qilish uchun zarur shartdir . Masalan, do‘stlik va halollik mavzusidagi rolli o‘yinlarda ishtirokchilar axloqiy dilemmalarni muhokama qilib, to‘g‘ri yo‘lni tanlashda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini namoyish etdilar. O‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va axloqiy qaror qabul qilish malakalarini shakllantirish ta’lim jarayonining dolzarb vazifalaridan biridir. Tarbiya fanida interfaol metodlardan foydalanish bu ko‘nikmalarni samarali rivojlantirish imkonini beradi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy faolligi mustahkamlanadi, ular jamiyatda mas’uliyatli va ongli fuqarolarga aylanishadi. Pedagog-psixolog Vygotskiyning “Mintaqaviy rivojlanish zonasi” nazariyasi ta’limda o‘quvchilarning fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. U ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali fikrlash jarayonini shakllantirishni ta’kidlagan.



Л. С. Выготский

Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi o‘quvchilarning fikrlash va tahlil qilish jarayonlarini tushunishda asos bo‘lib xizmat qilgan. U bolaning rivojlanish bosqichlariga ko‘ra mustaqil fikrlashni shakllantirish usullarini o‘rgangan. Ta’lim va tarbiya asoslari, shuningdek, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va axloqiy ongini shakllantirish bo‘yicha izlanishlar qilgan. Ta’lim va tarbiya jarayonida faol o‘rganish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga urg‘u bergan pedagog. Uning “tajribaga asoslangan ta’lim” g‘oyalari hozirgi ta’lim tizimlarida keng qo‘llaniladi. Axloqiy tarbiya — bu shaxsda



axloqiy qadriyatlar, me’yorlar va tamoyillarni singdirish jarayoni bo‘lib, uning asosiy maqsadi o‘quvchilarda to‘g‘ri axloqiy ong va xulq-atvorni shakllantirishdir. Zamonaviy ta’lim tizimida axloqiy tarbiya nafaqat bilim berish, balki shaxsning ijtimoiy-madaniy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, mustaqil fikrlash va axloqiy qaror qabul qilish malakalarini shakllantirish ahamiyati ortib bormoqda. Ilmiy tadqiqotlar ko‘rsatadiki, an’anaviy didaktik yondashuvlardan farqli o‘laroq, interfaol metodlar — o‘quvchilarning faol ishtirokini talab qiluvchi, ularning fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik usullar — axloqiy tarbiyani samarali tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi. Interfaol metodlar o‘quvchilarni o‘qituvchidan faqat bilim olishdan ko‘ra, mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarni hal qilishga, shuningdek, o‘z qarorlarini axloqiy tamoyillar asosida qabul qilishga rag‘batlantiradi. Masalan, guruh muhokamalari, rolli o‘yinlar, vaziyatli mashqlar va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish pedagogik jarayonda keng qo‘llaniladi. Ushbu usullar o‘quvchilarga nafaqat o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga, balki turli nuqtai nazarlarni tinglab, ularni tahlil qilishga imkon yaratadi. Bu jarayonlar shaxsning axloqiy ongini chuqurlashtirish, qaror qabul qilish jarayonini ongli va mas’uliyatli qilishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuningdek, interfaol metodlar o‘quvchilarning axloqiy rivojlanishini faollashtirishi, ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlashi va shaxs sifatida o‘z-o‘zini anglash darajasini oshirishga yordam berishini ko‘rsatmoqda. O‘qituvchilarning ushbu metodlarni to‘g‘ri va tizimli qo‘llashi o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi hamda shaxsning ma’naviy barkamolligini ta’minlashga zamin yaratadi. Shunday qilib, axloqiy tarbiya va interfaol pedagogik yondashuvlarning uyg‘unligi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va axloqiy qaror qabul qilish malakalarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘lni tanlashlariga, ijtimoiy-madaniy muhitga muvaffaqiyatli moslashishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. 2017- yil 14-yanvar.
2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-son qarori.
3. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Boshlang‘ich ta’lim va sport, tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabalari ushun o‘quv qo‘llanma. Djurayeva S.N. Turdiyeva N.S. Baxronova A.I. Buxoro- 2021.
4. Sobirova Dilfuza Azimdjonovna. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi in-academy.uz/index.php/si

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI DIREKTORLARIDA KOMMUNIKATIV STRATEGIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA IMKONIYATLARI

Umarova Nilufar Xasanovna,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining kommunikativ strategiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va imkoniyatlari aniqlangan. Xorijiy tadqiqotlar asosida rahbarlarning samarali muloqot

qobiliyatlari maktab muvaffaqiyatiga ta’siri tahlil qilinib, shart-sharoit (tashkiliy, ijtimoiy va psixologik) lari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: maktab direktori, kommunikativ strategiyalar, pedagogik shart-sharoitlar, imkoniyatlar, ta’lim sifati.

Аннотация: В данной статье определены педагогические условия и возможности развития коммуникативных стратегий директоров общеобразовательных школ. На основе зарубежных исследований проанализировано влияние эффективных коммуникативных навыков руководителей на успех школы, а также рассмотрены условия (организационные, социальные и психологические) их формирования.

Ключевые слова: директор школы, коммуникативные стратегии, педагогические условия, возможности, качество образования.

Annotation: This article identifies the pedagogical conditions and opportunities for developing the communicative strategies of secondary school principals. Based on international research, the impact of effective communication skills of school leaders on school success is analyzed, and the conditions (organizational, social, and psychological) for their development are explored.

Keywords: school principal, communicative strategies, pedagogical conditions, opportunities, quality of education.

Bugungi kun ta’lim tizimida rahbarlarning boshqaruvga yondashuvlari, xususan, menejerlik xususiyat va lederlik sifatlariga egaliklari ta’lim tashkiloti muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri ekanligi namoyon bo‘lmoqda. Maktab ta’limi sohasidagi islohotlar orqali yaratilayotgan yangidan-yangi imkoniyatlar direktorlarning boshqaruvga strategik yondashuvlarini taqazo etmoqda. Boshqaruv muloqotidagi kommunikativ strategiyalar aloqadan ko‘zlangan maqsadga eshishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xorijiy tadqiqotlarda rahbarlarning kommunikativ ko‘nikmalari maktab muvaffaqiyatining 70–80% ini belgilashi isbotlangan. Kommunikativ strategiyalar direktorning o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoatchilik bilan samarali muloqot qilish usullarini o‘z ichiga olib, bu o‘quvchilarning akademik natijalarni 10–15% ga oshirishi [1] va o‘qituvchilar motivatsiyasini 20–25% ga yaxshilashi mumkinligini [2] tadqiqotlar tasdiqlamoqda.

Xorijiy tadqiqotlarda maktab direktorlari kommunikativ strategiyalarining maktab muvaffaqiyatiga ta’sirini keng o‘rganilgan. Garvard universiteti tadqiqotchisi professor Viviane Robinson [1] ning meta-tahlilida dialogik liderlik o‘quvchilarning akademik natijalariga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omil deb topildi. Bu uslub faol tinglash, empatik munosabat va aniq ma’lumot almashishga asoslanib, maktabda ishonchli muhit yaratadi.

Leizvud va Jantzilar tomonidan Kanadaning 100 ta maktablarida olib borilgan tadqiqotlari kommunikativ strategiyalar o‘qituvchilar motivatsiyasini 20–25% oshirishi va o‘qitish sifatini yaxshilashi [2]ni ko‘rsatdi.

Fullan va Langvorzylar 50 ta maktabda tadqiqot olib borib, raqamli platformalar (Zoom, Microsoft Teams) maktab hayotida ota-onalar ishtirokini 40% oshirishi [3] ni aniqladi.

Day Buyuk Britaniyada 200 ta maktabda ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar asosidagi muloqotning inklyuzivlikni ta’minlashini ko‘rsatdi, bu o‘quvchilarning maktabga moslashuvini 25% oshiradi [4]. Bass va Riggio transformatsion liderlik modelida ilhomlantiruvchi muloqot o‘qituvchilarning professional rivojlanishini 30% tezlashtirishini aniqladi [5]. Shvetsiyada Arlestig 24 ta maktabda olib borilgan

tadqiqoti natijasi shonchli madaniyat muloqot samaradorligini 20% oshirishini ko‘rsatildi [6]. AQShda Louis va boshqalar tomonidan olib borilgan so‘rovnomada ishtirok etgan 836 nafar direktor misolida treninglar kommunikativ ko‘nikmalarni 20–30% oshirishi aniqlashgan [7].

Tahlil qilingan xorijiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, maktab direktorlarining kommunikativ strategiyalarini rivojlantirish asosida dialogik liderlik, jamoada hamkorlikni kuchaytirish, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, tenglik, inklyuzivlik, faol tinglash, adolat, ommaviy nutq, murosa, empatik ohang, raqamlashtirish maktabni ochiq boshqaruv maydoni sifatida qarashga yo‘naltiradi.

Dialogik liderlik - bu liderlikning bir shakli bo‘lib, unda lider jamoa a’zolari o‘rtasida ochiq, ishonchli va konstruktiv muloqotni rag‘batlantiradi, ularning fikrlarini tinglaydi va qaror qabul qilish jarayoniga jalb qiladi. Bu yondashuv ijtimoiy konstruktivizm va tashkiliy psixologiya tamoyillariga asoslanadi, bunda muloqot orqali umumiy maqsadlar va qadriyatlar shakllanadi. Dialogik liderlik nafaqat ierarxik rahbarlikdan farqli o‘laroq, balki jamoa ichidagi har bir ishtirokchining hissasini qadrlash va ularning o‘zaro hamkorligini kuchaytirishga qaratilgan.

Maktab direktori kommunikativ strategiyalar orqali jamoada hamkorlikni kuchaytirish uchun psixologik xavfsizlikni ta’minlashi, dialogik muloqotni rivojlantirishi, umumiy maqsadlarni belgilashi, transformatsion liderlik elementlarini qo‘llashi va zamonaviy kommunikativ vositalardan foydalanishi lozim. Bu yondashuvlar nafaqat o‘qituvchilar o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlaydi, balki maktabning umumiy muvaffaqiyatiga ham hissa qo‘shadi.

Amy Edmondsonning psixologik xavfsizlik nazariyasiga ko‘ra, jamoa a’zolari o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, xato qilishdan qo‘rqmaslik va yangi g‘oyalarni taklif qilish uchun xavfsiz muhitga muhtoj. Bu muhit ishonch va o‘zaro hurmatga asoslanib, jamoaviy hamkorlikni oshiradi. Psixologik xavfsizlik yuqori darajadagi innovatsiyalar va ijodiy yechimlarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, o**chiq fikr almashish sessiyalari**, **konstruktiv fikr-mulohaza yuritishga asoslangan muloqot, ishonchni mustahkamlovchi munosabatlar asosida tashkil etiladi.**

Villiyam Isaaks o‘zining “Dialogue and the Art of Thinking Together” asarida dialogik muloqotning jamoaviy ijodkorlik va hamkorlikni oshirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Dialogik muloqot Martin Buber va Mixail Baxtinning ishlariga asoslanadi, bunda har bir ishtirokchining ovozi teng darajada muhim ekanligi ilgari suriladi. Bushe va Marshak dialogik tashkiliy rivojlanish bo‘yicha tadqiqotlarida dialog orqali tashkilotlarda ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish mumkinligini ko‘rsatgan. Dialogik muloqot **strukturaviy dialog, faol tinglash, turli nuqtai nazarlarni qadrlash kabilarga asoslanadi.** Dialogik muloqot o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro tushunish va hurmatni oshiradi, bu esa jamoaviy ijodkorlikni rivojlantiradi. Direktor bu strategiyani qo‘llash orqali maktab ichidagi qarama-qarshiliklarni kamaytiradi va hamkorlikni mustahkamlaydi.

Maktab direktorlarida kommunikativ strategiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini tashkiliy, ijtimoiy va psixoligik omilllarini alohida ta’kidlash o‘rinlidir.

Tashkiliy shart-sharoitlar maktab direktorining kommunikativ strategiyalarni rivojlantirishi uchun muhim infratuzilma va tashkiliy resurslarni o‘z ichiga olib, bunda tashkilotning tuzilishi va jarayonlar muloqot samaradorligini oshiradi. Tashkiliy shart-sharoitlar s**trukturaviy yig‘ilishlar va platformalar (**masalan, Google Classroom, Microsoft Teams**), resurslar taqsimoti (**vaqt, moliyaviy resurslar va texnologik

vositalar**),** q**aror qabul qilish jarayonlarining shaffofligi** (shaffof tashkiliy tuzilmalar)ni ta’minlaydi.

Ijtimoiy shart-sharoitlar maktab jamoasi ichidagi o‘zaro munosabatlar va ijtimoiy dinamikaga bog‘liq bo‘lib, dialogik liderlik va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalariga asoslanadi. Bu jihat direktorning ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan harakatlarini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy shart-sharoitlar **jamoaviy madaniyatni shakllantirish, turli nuqtai nazarlarni qadrlash, ijtimoiy ishonchga asoslanadi.**

Psixologik shart-sharoitlar direktorning o‘qituvchilarning motivatsiyasi, his-tuyg‘ulari va psixologik farovonligiga ta’sir qilish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib, p**sixologik xavfsizlik, ichki motivatsiya, empatiya va faol tinglash kabilarda namoyon bo‘ladi.**

Maktab direktorlari kommunikativ strategiyalarni rivojlantirish uchun tashkiliy (strukturaviy yig‘ilishlar, resurslar taqsimoti), ijtimoiy (jamoaviy madaniyat, ishonch) va psixologik (xavfsizlik, motivatsiya) shart-sharoitlarni ta’minlashi kerak. Bu shart-sharoitlar o‘qituvchilar o‘rtasida ishonchli va samarali muloqotni rivojlantiradi, jamoaviy hamkorlikni mustahkamlaydi va maktabning umumiy muvaffaqiyatiga hissa qo‘shadi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, yuqorida keltirilgan xorijiy tadqiqotlar tahlilli va ilmiy asoslar maktab direktorlarining kommunikativ strategiyalarni rivojlantirishning ta’lim tashkilotlari muvaffaqiyatidagi muhim rolini tasdiqlaydi. Shuningdek, dialogik liderlik, psixologik xavfsizlik, transformatsion liderlik va raqamli muloqot vositalaridan foydalanish o‘qituvchilar motivatsiyasini 20–25% ga, o‘quvchilarning akademik natijalarini 10–15% ga, ota-onalar ishtirokini 40% ga va inklyuzivlikni 25% ga oshiradi. Ushbu strategiyalar maktabda ishonchli muhit yaratish, jamoaviy hamkorlikni mustahkamlash va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

birinchidan, dialogik liderlikni kuchaytirish. Direktorlar dialogik liderlik usullarini, xususan, faol tinglash va konstruktiv fikr-mulohaza berishni o‘z faoliyatlarida keng qo‘llashlari o‘qituvchilar o‘rtasida ishonchli muhit yaratadi va qarama-qarshiliklarni kamaytiradi;

ikkinchidan, **psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish.** Direktorlarning stressni boshqarish qobiliyatlarini oshirish uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlari muntazam joriy etilishi kerak;

uchinchidan, Raqamli vositalar direktorlarning ota-onalar va jamoatchilik bilan aloqasini kuchaytirish uchun tizimli qo‘llanilishi kerak. Direktorlar uchun AKT bo‘yicha majburiy 3 oylik onlayn kurslar tashkil qilish, bu raqamli muloqot ko‘nikmalarini yanada oshirilishiga hissa qo‘shishi mumkin;

to‘rtinchidan, transformatsion liderlikni rivojlantirish. direktorning ilhomlantiruvchi motivatsiya, intellektual rag‘batlantirish, individual e’tibor va ta’sir orqali ochiq, ishonchli va samarali muloqotni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Robinson, V., et al. *School Leadership and Student Outcomes*. Identifying What Works and Why. School of Teaching, Learning and Development Faculty of Education The University of Auckland Auckland, New Zealand. 2007.

2.Leithwood, K., & Jantzi, D. (2012). The Nature and Effects of Transformational School Leadership: A Meta-Analytic Review of Unpublished Research. Educational administration quarterly Volume 48, Issue 3. 2012.
https://doi.org/10.1177/0013161X11436268
3.Fullan, M., & Langworthy, M. (2014). *A Rich Seam: How New Pedagogies Find Deep Learning*. London: Pearson. ISBN: 97809924220352014
4. Day, C., Gu, Q., & Sammons, P. (2016). *The Impact of Leadership*. Educational Administration Quarterly, 52(2), 221–258.
5.Bass, B. M., & Riggio, R. E. *Transformational Leadership*. 2006. https://doi.org/10.4324/9781410617095
6. Arlestig, H. (2007). Principals' Communication Inside Schools: A Contribution to School Improvement? The Educational Form, 71, 262-667. https://doi.org/10.1080/00131720709335010
7. Louis, K. S., Leithwood, K., Wahlstrom, K., & Anderson, S. (2010). Learning from Leadership: Investigating the Links to Improved Student Learning. New York: The Wallace Foundation.
http://www.wallacefoundation.org/knowledge-center/school-leadership/key-research/Documents/Investigating-the-Links-to-Improved-Student-Learning.pdf

MAKTABGACHA TAYYORLOV GURUH BOLALARIDA IJODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLOVCHI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA METODIK YONDASHUVLARNING TAHLILI

Egamberdiyeva Maftuna Karimboy qizi,
Xalqaro Nordik universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha tayyorlov guruh bolalarida ijodiy rivojlanishni ta'minlovchi pedagogik texnologiyalar va metodik yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Nazariy manbalar o'rganilib, kuzatuv, so'rovnoma va eksperimental tadqiqotlar asosida loyiha asosida ta'lim, ijodiy o'yinlar, STEAM yondashuvi hamda axborot texnologiyalarining ijodiy rivojlanishga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagogik texnologiyalarni kompleks qo'llash bolalarda ijodiy tafakkur, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarga noodatiy yondashish qobiliyatini rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ijodiy rivojlanish, pedagogik texnologiyalar, metodik yondashuv, loyiha asosida ta'lim, STEAM, o'yinli faoliyat.

Аннотация. В данной статье рассматривается эффективность педагогических технологий и методических подходов, направленных на развитие творческих способностей детей подготовительных групп дошкольного образования. На основе анализа теоретических источников, наблюдений, анкетирования и экспериментальных исследований изучено влияние проектного обучения, творческих игр, STEAM-подхода и информационных технологий на творческое развитие дошкольников. Результаты исследования показывают, что комплексное использование педагогических технологий способствует развитию у детей творческого мышления, самостоятельности и способности находить нестандартные решения в проблемных ситуациях.

Ключевые слова: дошкольное образование, творческое развитие, педагогические технологии, методические подходы, проектное обучение, STEAM, игровая деятельность.

Abstract. This article analyzes the effectiveness of pedagogical technologies and methodological approaches that ensure the creative development of preschool children in preparatory groups. Based on the analysis of theoretical sources, observations, surveys, and experimental research, the impact of project-based learning, creative games, the STEAM approach, and information technologies on creative development was examined. The findings reveal that the integrated application of pedagogical technologies enhances children’s creative thinking, independence, and ability to generate non-standard solutions in problem situations.

Keywords: preschool education, creative development, pedagogical technologies, methodological approaches, project-based learning, STEAM, play-based activities.

Kirish. Hozirgi davr ta’lim konsepsiyasida shaxsni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu jarayonda ijodiy rivojlanish markaziy o‘rinda turadi, chunki u bolaning mustaqil fikrlashi, yangi g‘oyalarni ilgari surishi hamda muammoli vaziyatlarga noodatiy yondashish qobiliyatini shakllantiradi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar (Vygotskiy, Guilford, Torrance va boshqalar) ijodkorlikni bolalik davridan shakllantirish zarurligini asoslaydi. Shu bois, maktabgacha tayyorlov guruhida pedagogik texnologiyalarning innovatsion yondashuvlari orqali ijodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash dolzarb masaladir.

O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Davlat maktabgacha ta’lim standarti bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni alohida ta’kidlaydi. Zamonaviy didaktik yondashuvlar-loyiha asosida ta’lim, o‘yinli metodlar, STEAM integratsiyasi va raqamli texnologiyalar-ijodiy tafakkurni shakllantirishning samarali vositalari sifatida e’tirof etilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ijodiy rivojlanishning psixologik-pedagogik asoslari ko‘plab ilmiy izlanishlarda keng yoritilgan. L. S. Vygotskiy ijodiy tafakkurni bolaning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi bilan bog‘lab, ijodkorlik ijtimoiy muhit va pedagogik faoliyat ta’sirida shakllanishini ta’kidlaydi. Torrance ijodiy tafakkurni o‘lchash va rivojlantirish uchun metodologik vositalar ishlab chiqqan bo‘lsa, Guilford ijodkorlikni divergent fikrlashning asosiy shakli sifatida talqin etadi. Shuningdek, Montessori va Reggio Emilia yondashuvlari bolalarning mustaqil izlanishlari, estetik didi va erkin tanlov imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali kreativ muhit yaratishga katta e’tibor qaratadi.

O‘zbekiston kontekstida ham maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, xususan bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha bir qator ilmiy va amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Davlat maktabgacha ta’lim standarti ijodiy tafakkurni tayyorlov guruhlarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan asosiy kompetensiyalar qatoriga kiritadi. Jalolov esa pedagogik texnologiyalarning innovatsion yondashuvlari bolalarda kreativ tafakkur, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari va erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi.

Mazkur ilmiy yondashuvlar asosida tadqiqot metodologiyasi ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida nazariy, empirik va eksperimental metodlar uyg‘un holda qo‘llanildi. Avvalo, nazariy tahlil orqali xalqaro va mahalliy manbalarda mavjud ilmiy konsepsiyalar, metodik qo‘llanmalar hamda davlat me’yoriy hujjatlari o‘rganildi. Empirik bosqichda kuzatuv, suhbat va so‘rovnoma usullari yordamida bolalar, tarbiyachilar va ota-onalarning ijodiy rivojlanishga bo‘lgan munosabatlari tahlil qilindi.

Shuningdek, pedagogik eksperiment o‘tkazilib, loyiha asosida o‘qitish, ijodiy o‘yinlar, STEAM yondashuvi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash samaradorligi sinovdan o‘tkazildi. Eksperiment natijalari sifat (qualitative) tahlil va miqdoriy (quantitative) baholash usullari yordamida qayta ishlanib, metodlarning amaliy natijadorligi aniqlab berildi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili tadqiqotning nazariy asoslarini mustahkamlab, metodologiya esa amaliyotga yo‘naltirilgan ilmiy yondashuvni ta’minladi. Ularning integratsiyasi maktabgacha tayyorlov guruhlarda ijodiy rivojlanishni samarali tashkil etish uchun kompleks ilmiy-uslubiy poydevor yaratdi.

Natijalar va tahlil

Tadqiqot davomida kuzatuvlar, so‘rovnomalar va tajribalar o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, turli pedagogik texnologiyalarni birgalikda qo‘llash bolalarning ijodiy qobiliyatlarini ancha tez rivojlantiradi. Masalan, loyiha asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda bolalar o‘z g‘oyalarini erkin ifoda qildilar, muammolarga o‘zlari yechim topishga harakat qildilar va birgalikda ishlashni o‘rgandilar. O‘yinli mashg‘ulotlarda esa ularning tasavvuri va fantaziyasi yanada kuchaydi. Ba’zi bolalar noodatiy rollarni ijro etishga qiziqib, voqealarni o‘z talqinida ifodalashga intildilar.

STEAM faoliyatlari ham yaxshi samara berdi – bolalar ilmiy kuzatishlarni san’at bilan uyg‘unlashtirib, yangi narsalarni o‘rganishda yanada faol bo‘ldilar. Bu ularning analitik va ijodiy fikrlashini birgalikda rivojlantirdi.Shuningdek, kompyuter va interaktiv vositalardan foydalanish bolalarning rasm chizish, hikoya yozish va sahnalashtirishdagi ijodkorligini yanada jonlantirdi. Ular ilgari ishlatmagan vositalar bilan o‘zini sinab ko‘rishga qiziqish bildirdilar.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, metod va texnologiyalarni izchil va maqsadli qo‘llash nafaqat bolalarning ijodiy rivojlanishini, balki ularning ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligi va o‘ziga ishonchini ham oshiradi. Shuningdek, ota-onalar va tarbiyachilarning hamkorlikdagi faoliyati ijodiy tarbiyaning muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ldi.

Umuman olganda, natijalar ijodiy rivojlanishni ta’minlash uchun kompleks pedagogik yondashuv zarurligini ilmiy asoslab berdi. Ular shuni ko‘rsatdiki, ijodiy faoliyatni rag‘batlantiruvchi texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali maktabgacha tayyorlov guruh bolalarida kreativ tafakkurni shakllantirish samarali tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Xulosa

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan kuzatishlar va tajribalar shuni ko‘rsatdiki, tayyorlov guruhidagi bolalarda ijodiy rivojlanishni oshirish uchun turli pedagogik texnologiyalarni birgalikda qo‘llash juda samarali. Masalan, loyiha asosida mashg‘ulotlar o‘tkazilganda bolalar o‘z g‘oyalarini erkin ifoda etishga intildilar, ijodiy o‘yinlarda esa tasavvur va fantaziyalari kuchaydi. STEAM yondashuvi orqali esa ular nafaqat ijodiy, balki ilmiy tafakkur ham rivojlanishini namoyon qildilar. Axborot texnologiyalaridan foydalanish esa bolalarning rasm chizish, hikoya tuzish yoki sahna qo‘yish kabi faoliyatlarini yanada qiziqarli va samarali qildi.

Ijodiy rivojlanish barqaror bo‘lishi uchun tarbiyachi va ota-onalarning birgalikdagi yordami juda katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, xalqaro ilg‘or tajribalarni (Montessori, Reggio Emilia yondashuvlari) mahalliy sharoitga moslashtirish ijodiy tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

Maktabgacha tayyorlov guruhlarida ijodiy rivojlanishni ta’minlash samaradorligini oshirish uchun ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik

texnologiyalarni keng qo‘llash, ijodiy muhit yaratish, tarbiyachilarning kasbiy malakasini muntazam oshirib borish va ota-onalar bilan uzluksiz hamkorlikni yo‘lga qo‘yish lozim. Shuningdek, xalqaro ilg‘or tajribalarni milliy an’ana va qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish ijodiy tarbiyaning yanada mukammal amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” qarori. – Toshkent, 2019.
2. Davlat maktabgacha ta’lim standarti. – Toshkent, 2021.
3. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
4. Torrance, E. P. (1974). *Torrance Tests of Creative Thinking*. Scholastic Testing Service.
5. Jalolov, J. (2020). *Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI

Komilova Feruza Ilyosovna,
BXU magistranti

Mamlakatimiz o‘quv tarbiya muassasalarining jismoniy tarbiya darsi - o‘quvchi yoshlarning jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish mashg‘ulotlarini asosiy shaklidir, ularning namunaviy o‘quv rejalalaridagi umumiy ta’lim fanlaridan biri hisoblanib, “ontogonezning” turli yoshi davri jismoniy tarbiyaning nazariy bilimlari va amaliy malakalarini shakllantirish, o‘quvchi, talaba yoshlar jismoniy statusi, somatic salomatligi ko‘rsatkichlarini rivojlantirish, mustahkamlash va takomillashtirish uchun xizmat qiladi. Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish mashg‘ulotlarining darsdan tashqari shakllari darsga taqqoslanganda ular o‘zining davriyligi, tizimli emasligi, faqat bir marotabaliligi yoki individualligi bilan akademik darslardan tubdan farqlanadi.

Jismoniy mashqlarning turkumlarga bo‘linishi – bu ularning eng muhim belgilariga muvofiq bir-biriga bog‘langan guruhlarga taqsimlanishidir. O‘qituvchi turkumlar yordamida jismoniy mashqlarning xususiyatini aniqlay oladi, binobarin, mashqlarni tanlashni engillashtiradi, bu pedagogik vazifa talablariga javob beradi. Modomiki, jismoniy tarbiya fani rivojlanib borar ekan, yangi ma’lumotlar bilan uzluksiz boyib turadi, turkumlash esa doim bir xilda bo‘lib qolmaydi.

Har qaysi jismoniy mashq bitta emas, balki bir necha o‘ziga xos belgilarga ega. Shuning uchun aynan bir xil mashq har xil turkumlarda ifodalangan bo‘lishi mumkin. Masalan, tortilish anatomik belgilar bo‘yicha (qo‘llar va mushaklar uchun mashq) turkumlarda ham, asosan, harakat sifatlarining (ko‘proq kuchning) rivojlanishini aks ettiruvchi turkumlarda ham namoyon bo‘ladi. Binobarin, har qanday holat uchun yaroqli yagona turkum yaratilgan bo‘lishi mumkin emas; turkumda pedagogik vazifalarni echish uchun eng ahamiyatli belgilarni hisobga olish kerak.

Jismoniy tarbiya tizimlari tarixan tarkib topgan belgilari bo‘yicha jismoniy mashqlar turkumlariga (gimnastika, o‘yin, turizm, sport) bo‘linadi. Bu turkumlar bo‘yicha jismoniy mashqlar besh guruhga taqsimlanadi.

1. Suniy yaratilgan faoliyatlarda harakatlar xilma-xilligini tavsiflovchi gimnastika mashqlari, ularning samaradorligi organizmga, uning tuzilishiga ta’sir o‘tkazadi, shuningdek, barcha harakatlar koordinastion murakkabligi va uyg‘unligi bilan belgilanadi.

Harakatlarning sog‘lomlashtiruvchi turlaridan tarkib topgan o‘yin mashqlari (yugurish, uloqtirish va h.k.) o‘zgaruvchan o‘yin vaziyatlari bilan muvofiqlikda turli xil variantlarda bajariladi va umuman organizmga ta’sir qilish samaradorligi bo‘yicha va harakatning pirovard natijasi bo‘yicha baholanadi.

Sayohatdagi jismoniy mashqlarga yurish, yugurish, sakrash, to‘siqlarni engish, chang‘ida yurish, velosipedda yurish, qayiqda suzish va boshqalar kiradi.

Sog‘lomlashtiruvchi sharoitlarda yurish, yugurish, sakrash, to‘siqlarni engib o‘tish, chang‘ida yurish, velosipedda yurish, qayiqni eshkak bilan eshish qo‘shilib, sayohatchi uchun jismoniy mashqlarni tashkil etadi. Ularning samaradorligi organizmga majmuali ta’sir o‘tkazish, joylardagi to‘siqlar va masofani engish natijasi bilan baholanadi. Sportdagi mashqlar maksimal sport natijalariga erishish uchun ixtisoslashtirish predmetidir va yagona sport turkumlari bilan muvofiqlikda sun’iy standartlashtirilgan oxirgi guruhga, agar ularga qayd qilingan belgilar tegishli bo‘lsa, birinchi uchala guruh kiritilishi mumkin bo‘ladi (sport gimnastika mashqi, sport o‘yin mashqi, sport sayohatchi mashqi).

Ushbu turkumlarning shartliligi bu guruh mashqlarini tavsiflovchi belgilar tafovutida ko‘rinadi. Shuning uchun masalan, yugurish, garchi to‘rttala guruhda turli variantlarda ifodalangan bo‘lsa ham, shunga o‘xshash turkumlar jismoniy mashqlarning faqat umumiy mo‘ljalida berilgan

2. Mushak faoliyatining belgilari bo‘yicha beriladigan jismoniy mashqlar turkumi (harakat sifatlarining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi belgilar bo‘yicha).

Tezlik-kuch mashqlari shug‘ullanuvchidan nisbatan qisqa vaqt ichida maksimal harakat qilishni talab etadi (masalan: qisqa masofaga yugurish, sakrashlar); chidamlilik namoyon qilishni talab qiluvchi jismoniy mashqlar (masalan, uzoq masofalarga yugurish, chang‘ida yurish va b.).

O‘zgaruvchan sharoitlarga muvofiq zo‘r berish darajalarini muntazam almashtiruvchi, harakatlantiruvchi sifatlarni namoyon qilish majmuasini talab etuvchi jismoniy mashqlar (o‘yinlar, yakkama-yakka kurashish). Bu turkumning shartliligi bir tomondan, jismoniy mashqni tanlab olishga imkon beradi. Uning yordami bilan harakat sifatlarining rivojlanishiga samarali erishish mumkin. Ikkinchi tomondan, u yoki bu xususiyatli mashqni muvaffaqiyatli bajarish uchun qaysi zaruriy sifatga ega bo‘lishni bilish.

3. Ilmiylik vazifasini echish uchun ularning ahamiyati bo‘yicha jismoniy mashqlar turkumlari. Ushbu turkumlarning shartliligi shundan iboratki, unda harakat ko‘nikmasi, ko‘nikmani shakllantirishga va harakat sifatlarining rivojlanishiga qaratilgan mashqlar sun’iy ravishda ajratiladi, ayni bir vaqtda har ikkala jarayon ajralmasdir. Biroq bunday turkumlashning amaliy ma’nosi yo‘qolmaydi. U mashqni o‘rgatishning har bir bosqichida etakchivazifalarni echish uchun tanlashga yordam beradi va ko‘p darajada ularni echishga ko‘maklashadi.

4. Asosan ayrim mushaklar guruhining rivojlanish belgilari bo‘yicha jismoniy mashqlar turkumlari: elka kamarida qo‘llar mushaklari uchun, bo‘yin va gavda mushaklari uchun, bel va oyoqlar mushaklari uchun nazarda tutilgan. Bu turkum ichida mashq boldirtovon mushagi uchun, tizza mushagi uchun va hokazolarga bo‘linadi; tikka turib, o‘tirib, yotib, individual va juft bo‘lib, predmetlar bilan va

predmetlarsiz bajariladigan mashqlarda jismoniy sifatlarning rivojlanishi uchun beriladigan mashqlar.

5. Sport turlari bo‘yicha jismoniy mashqlar turkumlari. Sportning har bir turi o‘ziga xos mashqlar turkumlariga ega. Pedagogik turkumlashdan tashqari biomexanikada (statik, dinamik, stiklli, astiklli, kombinastiyalashtirilgan va boshqa jismoniy mashqlar) mashqlarga, fiziologiyada esa turli kuch bilan (maksimal, submaksimal, katta va mo‘’tadil quvvatli) bajariladigan mashqlarga bo‘lish qabul qilingan.

Bir necha turkumlarning mavjudligi o‘qituvchiga ayni qo‘yilgan masalalarga eng ko‘p darajada muvofiq keladigan xilma-xil mashqlarni tanlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев А. Хонкелдиев Ш.Х. “Жисммоний тарбия назарияси ва услубияти”, Олий ўқув юртлари учун дарслик. ЎзДЖТИ нашрият манбаъа бўлими 2005 йил.
2. Саломов Р.С. “Спорт машғулотларининг назарий асослари” Тош. 2007 й. Ўқув қўлланма.
3. Матвеев Л.П. “Теория и методика физической культурў” ФиС. 1995г. 4. Саломов Р.С. “Спорт машғулотларининг назарий асослари” Тош. 2007й. Ўқув қўлланма.
5. Верхошанский Ю.В. Спортчининг махсус жисмоний тайёргарлигини асослари. М. : Жисмоний тарбия ва спорт, 1988.- 331 б., (Фан спортга)
6. Иванков Ч.Т. Теоретические основы методики физического воспитания. – М.: «Инсан», 2000. 353с.
7. Матвеев Л.П. Теория иметодика физической культуры. М., 1991. -544б. 8. Саломов Р.С. Спорт фаолиятининг назарий асослари. Т.: 2005.
9. Юнусова Ю.М. «Теория и методика физической культуры» учебное пасобие для студентов висшоих учебных заведений Т. «Иқтисод молия». 2007 йил

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA RAQAMLI ADAPTATSIYA VA ULARNING MAKTABGACHA TA’LIMDAGI O‘RNI

Iskandarova Munisa Bahodir qizi,
Navbahor tumani 10-DMTT direktor o‘rinbosari

Annotatsiya. *Ushbu maqola o‘zbek xalq ertaklarining raqamli adaptatsiyasi va ularning maktabgacha ta’limdagi ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda an’anaviy ertaklarning zamonaviy raqamli formatga o‘tkazilishi jarayoni, bolalarning rivojlanishiga ta’siri va pedagogik jihatdan samarali qo‘llanishi masalalari tahlil qilingan. Maqolada raqamlashtirilgan ertaklarning bolalarning nutqiy, kognitiv, ma’naviy-axloqiy rivojlanishidagi o‘rni, shuningdek, milliy qadriyatlarni shakllantirishdagi ahamiyati keng yoritilgan.*

Shuningdek, maqolada xalq ertaklarining animatsiya, interfaol mobil ilovalar, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari orqali qayta talqin etilishi hamda bu jarayonning maktabgacha ta’lim sifatini oshirishdagi roli o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli adaptatsiya qilingan o‘zbek xalq ertaklari nafaqat bolalarning tasavvurini kengaytiradi, balki ularning kommunikativ ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash salohiyati va milliy o‘zlikni anglash jarayoniga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu yondashuv maktabgacha ta’lim jarayonida interfaol va qiziqarli muhit yaratishga, tarbiyachilarning innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalq ertaklari, raqamli adaptatsiya, maktabgacha ta’lim, milliy qadriyatlar, pedagogik texnologiyalar, interfaol o‘quv resurslari, innovatsion ta’lim, multimediali vositalar, ijodiy tafakkur, kommunikativ ko‘nikmalar.

Kirish

O‘zbek xalq ertaklari xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va bebaho namunalaridan biri bo‘lib, ular milliy madaniyatimiz, urf-odatlarimiz va ma’naviy merosimizning ajralmas tarkibiy qismidir. Ertaklar orqali xalqimiz asrlar davomida jamiyatning axloqiy tamoyillari, ezgulik va yovuzlik kurashi, do‘stlik, mehnatsevarlik, odillik va jasorat kabi qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazib kelgan. Shu bois ertaklar maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida ham muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ehtiyoji ortib bormoqda. Bu esa an’anaviy ertaklarni zamonaviy shaklda — animatsiyalar, interfaol o‘yinlar, mobil ilovalar, audio va video resurslar orqali bolalarga yetkazish imkonini bermoqda. Raqamli adaptatsiya nafaqat ertaklarning mazmunini saqlab qoladi, balki ularni bolalarga yanada tushunarli, qiziqarli va samarali tarzda taqdim etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamlashtirilgan ertaklardan foydalanish bolalarning tasavvurini kengaytiradi, ularni yangi bilimlarni o‘zlashtirishga undaydi va nutqiy hamda muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, interfaol ertaklar orqali bolalar o‘zlari syujet rivojida ishtirok etishlari, qahramonlarning qarorlarini tanlash orqali mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishlari mumkin.

Xalqaro tadqiqotlar (UNESCO, 2019; Zipes, 2019) shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirilgan madaniy meros elementlari, jumladan, ertaklar bolalarning ijtimoiy-madaniy identifikatsiyasini shakllantirish, milliy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish va ta’lim jarayonini demokratlashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek xalq ertaklarini raqamli formatga o‘tkazish maktabgacha ta’lim tizimida dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri sanaladi.

Mazkur tadqiqot aynan shu jarayonni chuqur o‘rganishga, raqamli adaptatsiya qilingan ertaklarning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga ta’sirini tahlil qilishga va ularning pedagogik qo‘llanilish imkoniyatlarini yoritishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

O‘zbek xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati ko‘plab mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Masalan, Abdullayeva (2023) ertaklarning bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishdagi rolini yoritgan bo‘lsa, G‘afurova (2023) ularning ijodiy va kognitiv rivojlanishga ta’sirini tahlil qilgan. Xalqaro tajribada Zipes (2019) ertaklarning global miqyosda madaniy va ijtimoiy rolini o‘rgangan, UNESCO (2019) esa nomoddiy madaniy merosni raqamlashtirishning dolzarbligini ta’kidlagan.

Metodologik asos sifatida V. Proppning ertaklar strukturasi nazariyasi, Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari va zamonaviy raqamli pedagogika konsepsiyalaridan foydalanildi.

Tadqiqot usullari kengaytirilgan holda:

Kuzatuv natijalari ertaklarning bolalarda hissiy-emotsional ta’sirini aniqlashga qaratildi.

Suhbatlar jarayonida tarbiyachilarning raqamli ertaklardan foydalanish tajribasi o‘rganildi.

Eksperimentda esa raqamlashtirilgan ertaklardan foydalangan guruh natijalari an’anaviy shaklda tarbiyalangan bolalar bilan taqqoslandi.

Statistik tahlilda natijalar o‘rtasidagi sezilarli farqlar SPSS dasturi yordamida aniqlanib, ishonchlilik ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi.

Natijalar


Tadqiqot natijalaridan ko‘rinib turibdiki, raqamlashtirilgan ertaklar maktabgacha yoshdagi bolalarning turli rivojlanish ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Qo‘shimcha kuzatuvlar:

Bolalarda ertak tinglashga qiziqish darajasi 60% ga oshdi.

Raqamli ertaklardan foydalangan bolalar voqeani qayta hikoya qilishda ancha faol bo‘lishdi.

Ota-onalar farzandlarining o‘zbek xalq ertaklari orqali milliy qadriyatlar bilan tanishuvidan mamnunlik bildirishdi.



Diagrammada tasvirlanganidek, nutqiy rivojlanish va tasavvur qobiliyati eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichlariga ega bo‘ldi.

Muhokama

O‘zbek xalq ertaklarining raqamli adaptatsiyasi faqat ta’limiy emas, balki madaniy ahamiyat kasb etadi. Bolalar zamonaviy texnologiyalar orqali milliy merosimizni o‘zlashtirar ekan, ular nafaqat bilim, balki o‘z xalqiga, tarixiga va qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalanadi.

Raqamlashtirish jarayonida quyidagilar muhim deb topildi:

Texnologik yondashuv: Animatsiya, audio-kitoblar, mobil ilovalar orqali ertaklarni jonlantirish.

Pedagogik yondashuv: Raqamli ertaklardan darslik va tarbiyaviy mashg‘ulotlarda foydalanish.

Psixologik yondashuv: Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, vizual va interfaol elementlarni moslashtirish.

Shuningdek, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli ertaklar nafaqat bolalarning tafakkurini rivojlantiradi, balki ko‘p madaniyatli jamiyatlarda tolerantlik, hamkorlik va ijodkorlikni kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

O‘zbek xalq ertaklarining raqamli adaptatsiyasi maktabgacha ta’lim jarayonini samarali va qiziqarli qiladi.

Bolalarning nutqiy, kognitiv, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.

Milliy qadriyatlarni zamonaviy usullar orqali yetkazish yosh avlodning madaniy identifikatsiyasini mustahkamlaydi.

Tavsiya etiladigan yo‘nalishlar:

Raqamli ertaklarni ishlab chiqishda pedagoglar, dasturchilar va san’atkorlarning hamkorligini yo‘lga qo‘yish.

Maktabgacha ta’lim tizimi uchun yagona “Raqamli ertaklar platformasi”ni yaratish.

Tarbiyachilarni raqamli vositalardan samarali foydalanishga o‘rgatuvchi maxsus treninglar tashkil etish.

Ota-onalarni bolalarga milliy ertaklarni zamonaviy texnologiyalar orqali yetkazishga jalb qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zipes, J. (2019). The Irresistible Fairy Tale: The Cultural and Social History of a Genre. Princeton University Press.
2. UNESCO. (2019). Digitalization of Intangible Cultural Heritage. Paris: UNESCO Publishing.
3. Propp, V. (2012). The Russian Folktale. Wayne State University Press.
4. Bruner, J. (1986). Actual Minds, Possible Worlds. Harvard University Press.
5. Piaget, J. (2003). The Psychology of Intelligence. Routledge.
6. Abdullayeva, M. (2023). O‘zbek xalq ertaklarining pedagogik ahamiyati. Toshkent: Ma’naviyat.
7. G‘afurova, S. (2023). Xalq ertaklari va bolalar rivojlanishi. Jizzax: Sangzor nashriyoti.
8. Hasanov, A. (2022). Raqamli texnologiyalar va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

BOLALARNI AXLOQIY JIHATDAN TARBIYALASHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Baratova Gulnora Yaxshiboyevna,
Sharipova Ziyoda Safarovna,
Hamidova Feruza G‘iyosovna,
Zarafshon shahri 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqolada Bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma’naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish, axloqiy tarbiya mazmunini amalga oshirishdan iborat. Sharq mutafakkirlarining talim-tarbiya, oila va oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari orqali shakllanganligi yoritib berilgan.

Abstract: This article highlights the task and content of moral education of children, which is to educate and develop the child's spiritual world, his consciousness, moral feelings, personal qualities, and to implement the content of moral education. It is formed through the views of Eastern thinkers on education, family, and family upbringing.

Аннотация: В статье раскрываются задача и содержание нравственного воспитания детей, заключающиеся в воспитании и развитии духовного мира ребёнка, его сознания, нравственных чувств, личностных качеств, а также в реализации содержания нравственного воспитания. Оно формируется через взгляды мыслителей Востока на образование, семью и семейное воспитание.

Kalit so‘zlar: ta’lim, innovatsiya, oila,qadriyat,farzand tarbiyasi,xulq-atvor.

Keywords: education, innovation, family, values, child rearing, behavior.

Ключевые слова: образование, инновации, семья, ценности, воспитание детей, поведение.

Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir yosh avlodning betakrorligi va o‘ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish bugungi kun talablaridan biri hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlarining talim-tarbiya, oila va oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari orqali shakllangan. Sharq mutafakkirlari ijodida aks etgan umuminsoniy g‘oyalar islomiy ma’naviyat bilan hamohangdir.

Sharq mutafakkirlari oila va farzand tarbiyasi masalalariga katta e’tibor berganlar. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari o‘rtaga qo‘yilgan va ularni hal etish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Abu Rayhon Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman axloqiy tushunchalarni insonning tabiati bilan bog‘laydi. Inson tabiati esa oilada shakllanadi. Shunga ko‘ra, bola tarbiyasiga ota-ona ta’siri va namunasi benihoya kattadir, deb hisoblagan olim.

Beruniy tan va ruh pokligi masalasini o‘rtaga tashlaydi. Oilada tozalik, poklik va tartib mavjud ekan, u yerda ma’naviy poklik ham bo‘ladi. Bu fikrini tanani toza tutish bilangina cheklamaydi, balki ko‘p harakat qilishga chaqiradi.

Harakat mehnat qilish demakdir. Uning qalb va harakat haqidagi fikri inson tani bilan ruhi pokligining bir butunligi to‘g‘risidagi g‘oya bilan bog‘liqdir. Beruniy ota-onalarga qarata bolani mo‘tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga, asosan, bolani qattiq g‘azablanishdan, qo‘rqish va xafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni xohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligini uqtirgan. Ota-onaning bolaga turli munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqaradi. Mutafakkir bola xulq-atvorining mo‘tadilligi natijasida tan va ruh sog‘lomligi kelib chiqishini ham ilmiy asoslab bergan. Beruniy bola tarbiyasida irsiyat, muhit va tarbiya ta’sirining birdek muhim ekanligini ta’kidlab o‘tgan edi.

Pedagogika fani yosh avlodning axloqiy rivojlanishida tarbiya va ta’limni muhim omil deb hisoblaydi. Pedagogika va ruhiyatga oid tadqiqotlar natijalarining ko‘rsatishicha, maktabgacha tarbiya davri bolaning ma’naviy shakllanishida eng muhim bosqichdir. Shu davrda ma’lum maqsadga qaratilgan ta’lim-tarbiya ta’sirida shaxsning axloqiy sifatlari shakllana boshlaydi. 6—7 yoshda ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga keladi. Bola atrofdagilar bilan bo‘ladigan munosabatlarida egallab olgan axloq normalariga asoslangan holda ish tutadigan bo‘lib qoladi. Shuning uchun bolalarga ilk yoshdan boshlab axloqiy tarbiya berib borish muhimdir.

Bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma’naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish, axloqiy tarbiya mazmunini amalga oshirishdan iborat. Bolalarga axloqiy tarbiya berishning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda axloqiy tasavvurlar va hatti-harakatlarni tarbiyalash.
2. Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash.
3. Bolalarda axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash.
4. Xulqdagi salbiy sifatlarni barham toptirish.

Axloqiy tarbiya berish har xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Birinchi galda bolalarni har xil faoliyatlar vositasida mashg‘ulotlarda va mashg‘ulotlardan tashqari vaqtlarda, ta’lim berish orqali kattalar mehnati bilan tanishtiriladi.

Har xil bayramlar, ijtimoiy hayot voqealari, bolalar adabiyoti, musiqa, o‘yin materiallari, ommaviy axborot vositalari — televideniye, radio va boshqalar bolalarning axloqiy tarbiyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Kichik yoshli bolalar axloqiy tassavur va bilimlarni faqat o‘yin mashg‘ulotlarida yaxshi o‘zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o‘zlashtirib olingan axloqiy tasavurlarni ularga ongli ravishda tushuntirish dastlab mashg‘ulotlarda, keyinchalik o‘yin, mehnat jarayonlarida, sayrda, mustaqil faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

Ma’lumki, bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirish uzoq muddatli, uzluksiz pedagogik jarayon natijasida vujudga keladigan ruhiy, ijtimoiy, ma’naviy holatdir. Bu jarayonni amalga oshirishda ta’lim muassasalarida yaratilgan pedagogik shart-sharoit, sog‘lom muhit va maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya muhim ahamiyat kasb etib, bunda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur uslubiy omil hisoblanadi.

Bizga ma’lumki, pedagogik texnologiyalar ta’lim maqsadlariga erishish va shaxsning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatni muttasil ravishda rivojlantirish tizimi loyihasidir. Maktabgacha ta’lim mazmunini modernizatsiyalash maqsadi ham pedagogik jarayonni tashkil etishning yangi shakl va metodlarini talab qiladi.

Olib boriladigan mashg‘ulotlar jarayonida ishchan pedagogik muhitni yaratish va bunda tarbiyalanuvchilarning individual o‘ziga xosligidan kelib chiqib, ta’lim mazmunini, faoliyatni tashkil etishning noana’naviy shakl, metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirish, shaxs ma’naviy barkamolligining asosini tashkil etib, bunda bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi axloqiy sifatlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish, ehtiyojni to‘la qondirishga yordam beruvchi, pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy didaktik ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishning mustahkam mexanizmini ishlab chiqish muammoning amaliy yechimini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.A. Madyarova va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.
2. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2013 y. -279 bet.
3. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.

KO‘ZI OJIZ YOSHLARNING TA’LIM-TARBIYASIDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Baratov Muslimbek Alisher o‘g‘li,
ADPI Doktoranti

Annotasiya: *Ushbu tezisda ko‘rish imkoniyati cheklangan yoshlarning ta’lim-tarbiyasidagi muammolariga yechim izlanadi va bu borada ayrim tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Imkoniyati cheklangan, ta’lim-tarbiya, kasb-hunar, imkoniyati, shart-sharoit, ko‘zi ojiz yoshlar.*

Аннотация: *В данной диссертации исследуются проблемы образования детей с нарушениями зрения и даются некоторые рекомендации в этом отношении.*

Ключевые слова: *Неблагополучные, образование, профессия, возможности, условия, слабовидящая молодежь.*

Abstract: *This thesis seeks solutions to the educational problems of visually impaired youth and provides some recommendations in this regard.*

Keywords: *Disadvantaged, education, profession, opportunity, conditions, visually impaired youth.*

Jamiyatimizda sog‘lom insonlar bilan bir qatorda ko‘rish imkoniyati cheklangan insonlarni ham borligini imkor qila olmaymiz. Ular uchun davlatimiz ko‘plab sohalarda imkoniyatlar yaratgan. Jumladan, ta’lim sohasida. Bugungi kunda ko‘zi ojizlar ta`lim-tarbiyasi va ijtimoiy hayoti bilan bog`liq ravishda faoliyat olib borayotgan muassasa, tashkilotlarning ish jarayonini kuzatish orqali hamda tarixiy manbalarga tayanib, ular to‘g‘risida asosli fikrlarni yurita olamiz.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 7-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni [1], 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmoni [2], 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son qarori [3] hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi.

Ko‘zi ojizlarning o‘tmishdagi hayot tarzi, ko‘zi ojizlardan yetishib chiqqan buyuk shaxslar, ularning hayoti va ijodi, kashfiyotlari, brayl yozuvining kelib chiqish tarixi, hamda metodologiyasi to‘g`risida keltirilgan ma`lumotlar quyidagi adabiyotlarga asoslanib tahlil qilinadi:

Sunnatilla Dangalovning «Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati»

[1. 97] kitobining I bobida yevropalik ko‘zi ojiz shoir, yozuvchi va olimlardan: Gomer, Nikolos Sanderson, Tomas Bleklok, Lui Brayl; ko‘zi ojizlar ta`limi rivojiga xizmat qilgan Tiflopedagog Valentin GayuI; sharq mutafakkirlaridan Axmad Yugnakiy; bugungi kunda ta`lim tizimi uchun o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan professorlardan Sanjar sodiqov va boshqa ko‘plab olim va pedagoglar to‘g`risida tarixiy-ilmiy ma`lumotlar bayon etilgan. Ushbu kitobning I bobi «Qalb quyoshining sohiblari yoxud ko‘zi ojiz daholar» deb nomlanishining o‘zi mualllif tomonidan ko‘zi ojizlarga berilhan munosib e`tibor va hurmatga ishoradir. Kitobning II bobi «Ko‘zi ojizlarning ta`lim tizimi va muassasalari» deb nomlanib, Respublikamizdagi ko‘zi ojiz o‘quvchilar ta`lim olgan maktab-internatlar haqida ma`lumotlar berilgan. Biroq, bu

ma`lumotlar 2010-yilgacha olib borilgan faoliyatlar yuzasidan yozilganligi sababli, izlanishlarimiz natijasiga ko‘ra ularni yangilashga to‘g`ri keldi.

S. Dangalov kitobining III bobi ko‘zi ojizlarning o‘quv qurollari va ularni o‘qitishda qo‘llaniladigan amaldagi metodlar borasida fikrlar bayon etilgan. Ushbu fikrlar zamonaviy ta`lim sifatiga qisman to‘g`ri kelmasada, qo‘shimcha ma`lumot sifatida o‘rganildi. Kitobda bayon etilgan fikrlar umumlashtirilib, ilmiy tadqiqotning 1.1 da o‘z aksini topdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan «Maxsus pedagogika» [2. 368] kitobida berilgan mavzulardan qisman foydalanildi. Kitobning 1-bo‘limi «Oligofrenopedagogika», 2-bo‘lim «Surdopedagogika», 3-bo‘lim «Tiflopedagogika»ga oid metodlar va bolalarning imkoniyati cheklanganlik darajasi, dars mashg`ulotlarida ular bilan bo‘ladigan psixologik munosabatlar, bolaga individual yondashish kabi pedagogik tavsiyalar aks ettirilgan. Ushbu tavsiyalardan ilmiy tadqiqot ishining 1.2 da foydalanildi.

M.U. Xamidovaning «Maxsus pedagogika» [3. 164] nomli o‘quv qo‘llanmasida Defektologiyaning turli yo‘nalishlariga ko‘ra nuqsonli bolalarni o‘qitish metodikasi yozilgan. Ushbu manbaa tadqiqot ishining III bobini tayyorlashda ko‘makdosh bo‘ldi.

Tadqiqotda yuqorida keltirilgan adabiyotlardan tashqari horijiy tilllarda nashr qilingan qo‘llanma va maqolalar ham o‘rganildi.

Ayni vaqtda ko‘zi ojiz yoshlarning ijtimoiy hayotda sog‘lom insonlar bilan integratsiyalashuvi jarayonida qator og‘riqli nuqtalar mavjud bo‘lganligi sababli, bugungi kunda ular ko‘plab muammolarga duch kelmoqdalar:

1. Ko‘zi ojiz yoshlarning bolalikdan ya’ni maktab yoshidan o‘zlari uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida o‘qiganligi sababli, sog‘lom insonlardan va xatto oilaviy muhitidan ajralgan holda yashashi;

2. Ko‘zi ojiz yoshlarni mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘rishlari uchun ularga uy yumushlari va o‘z-o‘ziga xizmat qilishlarini o‘rgatuvchi maxsus o‘quv kurslarining hamda, o‘quv qo‘llanmalarning mavjud emasligi;

3. Sog‘lom insonlar ongida imkoniyati cheklangan, shu jumladan, ko‘zi ojiz insonlar to‘g‘risidagi tasavvur va fikr-mulohazalarning sayoz yoki salbiy shakllanganligi;

4. Davlatimiz tomonidan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qabul qilingan qonun va qarorlarning ijrosi joylarda to‘liq amalga tadbiq etilmayotganligi;

5. Sog‘lom va ko‘zi ojiz yoshlar o‘rtasida o‘zaro do‘stlik uchrashuvlari: turli musobaqalar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, ko‘rik-tanlovlar, fan olimpiadalarining o‘tkazilmasligi;

6. Farzandining nogiron tug‘ilishi sababli ayrim oilalarning ajralib ketishi va buning natijasida nogiron farzandning sarson-sargardonlikda otasiz yoki onasiz, ba’zan esa, ham otasiz, ham onasiz voyaga yetishidagi qiyinchiliklar;

7. Sog‘lom insonlarning turli baxtsiz tasodiflar yoki orttirilgan kasalliklari tufayli keyinchalik nogiron bo‘lib qolishlari kabi masalalar muammoligicha qolayotganligi o‘rganilishi zarur bo‘lgan masalalardandir.

Ushbu og‘riqli muammolarga munosib yechim topish uchun quidagi fikr-mulohazalarimiz maqsadga muvofiqdir:

1. Ko‘zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining viloyat miqiyosida hududiy kunduzgi filiallarini maxsus sinflar sifatida tashkil etish va bu orqali ko‘zi ojiz bolalarning uylariga yaqin hududlarda ta’lim olishi, hamda oilasi

bag‘rida tarbiya topishi, shu bilan bir qatorda mahalla-ko‘yda sog‘lom bolalar bilan integratsiyalashuvi natijasida o‘z o‘rnini topishi;

2. “Yoshlar markazl” va “Barkamol avlod” bolalar maktablari qoshida ko‘zi ojiz yoshlarning ta’lim-tarbiyasidan tashqari ularga uy yunushlari va o‘z-o‘ziga xizmat qiluvchi, hamda kasb-xunarga yo‘naltirishga doir bilim, malaka, ko‘nikmalarini shakllantiruvchi va o‘rgatuvchi maxsus to‘garaklar, o‘quv kurslarni tashkil qilish;

3. Iqtidorli va ijodkor ko‘zi ojiz insonlarning iqtidorlarini, ijod namunalarini keng ommaga targ‘ib etish, o‘rnak sifatida ko‘rsatish orqali sog‘lom insonlar ongida ko‘zi ojiz insonlarga nisbatan hurmat, mehr-muhabbaat, ko‘makdoshlik tuyg‘ularini shakllantirish;

4. Respublikanizning barcha hududlarida, viloyat, tuman va shahar hokimliklari qoshida nogironligi bo‘lgan shaxslarni ma’naviy, huquqiy, madaniy, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi bo‘limlarini joriy qilish;

5. Sog‘lom va ko‘zi ojiz yoshlar o‘rtasida do‘stlik uchrashuvlari: turli musobaqalar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, ko‘rik-tanlovlar, fan olimpiadalarining o‘tkazish va bu orqali o‘zaro ularning turli sohalarda tajriba almashishlariga erishish;

6. Farzandining nogiron tug‘ilishi sababli ayrim oilalarning ajralib ketishi va natijada nogiron farzandning sarson-sargardonlikda otasiz yoki onasiz, ba’zan esa, ham otasiz, ham onasiz voyaga yetishidagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun joylarda vasiylik va homiylik bo‘limlarining bu boradagi mas’ulyati va nazoratini kuchaytirish zarur;

7. Sog‘lom insonlarning turli baxtsiz tasodiflar yoki orttirilgan kasalliklari tufayli keyinchalik nogiron bo‘lib qolishlari natijasida ruhiy tushkun holatini bartaraf qilish hamda ularni ijtimoiy hayotga qayta yo‘llash uchun Respublikamizning barcha hududlaridagi Poliklinika va kasalxonalarida psixologik reabilitatsiya bo‘limlarini joriy etish kabi yechimlarni topishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, ko‘rish imkoniyati cheklangan yoshlarning ta’lim-tarbiyasidagi muammolariga yechim topish va ularning hayoti, turmush tarziga oz bo‘lsa-da yengillik olib kirish uchun ularning hayotini o‘rganish va ular bilan yaqin munosabatni yo‘lga qo‘yish, shu bilan birga ularga yordam qo‘lini cho‘zishdek insonparvarlik harakatlarini amalga oshirilmog‘i lozim. Imkoniyati cheklangan, shu jumladan, ko‘zi ojiz insonlar jamiyatning ajralmas bir bo‘lagi sifatida insoniyat tomonidan tan olinishi, e'tibor ko‘rsatilishi va ko‘mak berilishi muhim ahamiyatga egadir. Chunki, Ijtimoiy tengsizlik jamiyat va davlatning taraqqiy etishiga jiddiy to‘siq bo‘la olladi. Imkoniyati cheklangan insonlarning boqimandaligiga barham berib, ularni ilm-fanga, kasbga yo‘naltirish orqali jamiyatga foyda keltirishlariga erishish g‘oyat rivojlangan davlatlarga xos bo‘lgan jihatlaridan biridir. Bu borada davlatimiz turli sohalarda jahon andozalari asosida chora-tadbirlarni yo‘lga qo‘ysa yanada maqsadga muofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» PF – 4947-son. 07.02.2017. https: lex.uz/docs/3107036.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son. 29.04.2019. https: lex.uz/docs/3107036

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi

bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3907-son. 14.08.2018.https: lex.uz/docs/3107036.
4. S. Dangalov. Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati, Tavsiyanoma – T: 2010, - B. 97
5. P.M.Po‘Iatova, L.Sh.Nurmuxamedova, D.B.Yakubjonova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A.D.Sultonova, Maxsus pedagogika (Darslik). -T.: «Fan va texnologiya», 2014, 368 bet.
6. M.U. Xamidova. Maxsus pedagogika. – T.: «Fan va texnologiya», 2018, 164 bet.

TALABALARDA MA’NAVIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALARI

Ibragimova Dilnoza Rashid qizi,
O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti doktoranti

Annotatsiya *Mazkur maqolada ma’naviy qadriyatlar, ma’naviyat va qadriyat tushunchalarining turli adabiyotlardagi turlicha tasniflari o‘rganilgan. Talabalarda ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishning dolzarbligi, ularni amalga oshirishda oldimizda turgan vazifalar va pedagogik strategiyalari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ma’naviy qadriyatlar, ma’naviyat, qadriyat, pedagogik strategiya, ma’naviy immunitet.*

Аннотация *В данной статье рассматриваются различные классификации духовных ценностей, духовности и ценностных понятий в различной литературе. Освещена актуальность и педагогические стратегии развития духовных ценностей у учащихся*

Ключевые слова: *духовные ценности, духовность, ценность, педагогическая стратегия, духовный иммунитет.*

Abstract *this article explores the different classifications of spiritual values, spirituality and value concepts in different literature. The current relevance and pedagogical strategies for the development of spiritual values in students are highlighted*

Key words: *spiritual values, spirituality, value, pedagogical strategy, spiritual immunity.*

Kirish

Ta’lim jarayonini innovatsion tashkil etishda pedagogika sohasidagi bilimlardan foydalanish, ularni amaliyotda qo‘llash metodlarini takomillashtirish bo‘yicha AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya kabi dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ta’lim sohasini modernizatsiyalash, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, o‘qitishning didaktik asoslarini global strategiyalar sifatida pedagogik amaliyotga tatbiq etish tendensiyalari kuzatilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ta’lim eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan bugungi sharoitda uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida “ta’lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish» dolzarb vazifa etib belgilandi [2].

Yurtimizda mavjud ta’lim tizimini rivojlantirishda ma’naviy merosimizni unutmagan, kelajak avlodga to‘la-to‘kis holda yetakazilgan, milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga asoslangan milliy tarbiya bugungi rivojlangan, zamonaviy jamiyatimizning oldida turgan eng dolzarb muammolardan biridir.

Yuqorida keltirilib o‘tilgan fikrlarimizni to‘ldirib, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Umuminsoniy, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik g‘oyasi Yangi O‘zbekistondagi islohotlarni o‘zgarib borayotgan zamon sharoitida texnologiya asri bolalariga chuqurroq, zamonaviy usullarda yetkazish”[1] lozim.

Talabalarda ma’naviy qadriyatlarni samarali rivojlantirish uchun nazariy asoslangan, innovatsion, raqamli muhitga moslashgan pedagogik strategiyalarning yetishmasligi mavzumizning dolzarbligini ko‘rsatdi.

Adabiyotlar tahlili: Respublikamiz tadqiqotchi olimlaridan S.Nishonova Sharq Uyg‘onish davri pedagogik fikr tarqqiyotida barkamol inson tarbiyasi, Sh.Taylanova o‘z ilmiy tadqiqotida oliy ta’lim muassalari talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishni yoritib bergangan. Z.B. Jalilov Sharq mutafakkirlari yaratgan tarbiyaviy qadriyatlardan ta’lim jarayonida foydalanish texnologiyalarini, S.M.Yo‘ldosheva sog‘lom avlodni ma’naviy tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik asoslarini tatbiq etganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tadqiq etilayotgan mavzuni yoritishda tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish metodlari asosida muhokamaga tortildi.

Ma’lumki, o‘zagini “ma’naviyat” va “qadriyat” tushunchalari tashkil etuvchi va belgilari amaliyotda ko‘zga tashlanuvchi “ma’naviy qadriyatlar” tushunchasi ilmiy adabiyotlarda ko‘zimizga tashlanadi.

Ma’naviyat – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisadir [6; 345-b.].

Qadriyat – inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushunchadir [7; 757-b.].

I.Abdullayev “Manaviyat arabcha so‘z bo‘lib, “ma’no” fe’lidan olingan va ruh, aql, idrok, ruhiy holat, ichki kayfiyat, dadilllik, jasorat, xususiyat, mohiyat, g‘amho‘rlik, qayg‘urish, did kabi bir qancha ma’nolarni anglatadi” [3] deb ta’kidlaydi.

A.Erkayev esa ma’naviyat tushunchasini quyidagicha o‘zaklarga ajratadi: birinchi o‘zagi – arabcha “ma’no”ni anglatsa, ikkinchisi esa – qadimgi hind falsafasining “manas” tushunchasiga borib taqaladi. Uning fikricha, Sharq falsafasidagi mu’taziylar tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning, ruhoniyat olamidagi sir-u asrorlarning mohiyati “mana”ga atama sifatida asos soldilar [4].

Shuningdek, “Ma’naviyat – millatning asrlar davomida shakllangan, ildizlari uning tarixiy tajribalari va ijtimoiy madaniy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ichki (aqliy) intellektual va sobit hissiy (emotsional) dunyosidir ” deb yozadi A.Erkayev [5].

Agar, ma’naviy qadriyatlarning mazmuni va mohiyatiga nazar soladigan bo‘lsak, ushbu tushunchadagi “ma’naviyat” va “qadriyat” tushunchalarining har ikkalasi ham insonning ruhiyati bilan bog‘liq fenomen sifatida yuzaga chiqadi.

Tahlil va natijalar

Ma’naviy qadriyatlar – bu shaxsning jamiyatga, o‘ziga va boshqalarga, qolaversa, tabiatga bo‘lgan oqilona munosabatining o‘ziga xos ifodasidir.

Ma’naviy qadriyatlar ijtimoiy ahamiyati jamiyat taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etar ekan, uning evolyutsiyasi va strukturasiga ham to‘xtalib o‘tish lozimdir.

Ma’naviy qadriyatlar evolyutsiyasi qadim zamonlardan boshlab yuzaga kelgan bo‘lib, asrlar, yillar davomida shakllanib, rivojlanib, taraqqiy etib kelmoqda. Birgina O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kundan boshlab, ma’naviyatni,

ma’naviy qadriyatlarimiz, milliy o‘zlikni, diniy e’tiqodlarimizni anglashga bo‘lgan e’tibor o‘zgardi. Ma’naviy qadriyatlarning yuksalishiga sabab bo‘lgan jarayonlar ta’sirida hozirgi kunda yangi taraqqiyot (milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o‘tish) bosqichida yashamoqdamiz.

Mustaqillikning poydevorini mustahkamlash uchun esa fuqarolar ma’naviy kamoloti zarur, albatta. Ma’naviy kamolot sur’atlarini tezlashtirish, tarbiya va ta’lim ishlarini yangicha yo‘lga qo‘yish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni muntazam amalga oshirib borish hozirgi zamonaviy davrning eng aktual masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Darhaqiqat, ijtimoiy-ma’naviy hayotning yangilanishi fuqarolarning ma’naviy qadriyatlarini shakllanishi bilan uzviy aloqadorligi, uni fuqarolar, ayniqsa yoshlar ongida rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoladi.

Ilmiy tadqiqotimizni amalga oshirish, dasavval, biz oldimizda turgan quyidagi vazifalarni bajarishimizni ko‘zda tutadi:

-talabalarda ma’naviy qadriyatlarning shakllanish holati va mavjud muammolar tahlili;

-oliy ta’lim ta’labalarida ma’naviy qadriyatlarning bugungi kundagi holatini eksperimental aniqlash:

-talabalarning internetdagi bugungi dezinformatsiya, axloqiy buzilishlar va g‘oyaviy tahdidlarga nisbatan “manaviy immunitet”ining darajasini aniqlash.

-ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishga ta’sir etuvchi ichki (motivatsiya, dunyoqarash) va tashqi (globallashuv jarayonlari, media, ijtimoiy tarmoqlar) omillar tahlili.

-ma’naviy tarbiya jarayonida uchraydigan pedagogik-psixologik qiyinchiliklar va kamchiliklar.

O‘rganilgan tahlil natijalaridan kelib chiqib, talabalarda ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishning quyidagi pedagogik strategiyalarini taklif etamiz:

Interfaol ta’lim usullarini qo‘llash strategiyalari: keys-stadi (haqiqiy axloqiy dilemmalar asosida), geymifikatsiya elementlari (aktual yondashuv: raqamli hikoyachilik (digital storytelling), simulyatsion o‘yinlar va vebinarlar orqali qadriyatlarni singdirish).

Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish strategiyasi: virtual sayohatlar va VR/AR texnologiyalari orqali tarixiy-madaniy meros va ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirib singdirish strategiyasi: milliy qahramonlar va tarixiy shaxslarning zamonaviy media formatlarida targ‘iboti.

Xulosa talaba-yoshlar ongida ma’naviy qadriyatlarni tiklash, ularni boyitish, takomillashtirish va rivojlantirish barobarida ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik strategiyalar asosida singdirish mamlakatimizda Uchinchi Renessans davri poydevorini barpo etish bilan bog‘liq eng muhim ustuvor vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Ta’lim sohasidagi islohotlar ijrosi va kelgusidagi vazifalarga bag‘ishlangan videoselektr yig‘ilishi.
2. Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
3. Abdulloh Ismatulloh. Ma’naviyat va ma’rifat // - T.: Milliy tiklanish, 1996, 12 noyabr.

4-SHO‘BA: XORIJIY TILLAR O‘QITILISHINING SIFAT SAMARADORLIGIGA ERISHISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.

ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” VA “MUNSHAOT” ASARLARINING TURK TILIGA TARJIMALARINI BADIIY JIHATDAN TAHLIL QILISH

Ochilova Maftuna Shuxratovna,
Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiy qalamiga mansub “Mahbub ul-qulub” va “Munshaot” asarlarining turk tiliga tarjimalari badiiy jihatdan tahlil qilindi. Asliyat va tarjima matnlari qiyosiy o‘rganilib, semantik va stilistik ekvivalentlik darajasi aniqlangan. “Mahbub ul-qulub” tarjimasida axloqiy-didaktik mazmunning to‘liq saqlangani, badiiy vositalarning muvaffaqiyatli ekvivalent topgani ko‘rsatib berildi. “Munshaot” tarjimalarida esa rasmiy epistolyar uslub saqlangan bo‘lsa-da, ayrim jumlalarda soddalashtirish va yumshatish usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot jarayonida tarjima nazariyasi, stilistik tahlil va qiyosiy metod asosida xulosalar chiqarildi.*

Kalit so‘zlar. *Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub, Munshaot, tarjima, turk tili, epistolyar janr, ekvivalentlik, badiiy tahlil, stilistika, tasavvuf.*

Abstract. *This article analyzes the Turkish translations of Alisher Navoi's works Mahbub ul-qulub and Munshaot from a literary perspective. The original texts and their translations are compared to identify semantic and stylistic equivalence. The study reveals that in the translation of Mahbub ul-qulub, the ethical and didactic content is fully preserved, and artistic devices are rendered with successful equivalents. In the translations of Munshaot, the official epistolary style has been retained; however, some sentences have been simplified and softened. The research employs translation theory, stylistic analysis, and comparative methodology to draw its conclusions.*

Keywords. *Alisher Navoi, Mahbub ul-qulub, Munshaot, translation, Turkish language, epistolary genre, equivalence, literary analysis, stylistics, Sufism.*

Аннотация. *В данной статье проведён литературный анализ турецких переводов произведений Алишера Навои «Махбуб ул-кулуб» и «Муншаот». Оригинальные тексты и переводы сопоставлены для выявления семантической и стилистической эквивалентности. Установлено, что в переводе «Махбуб ул-кулуб» полностью сохранено нравственно-дидактическое содержание, а художественные средства получили удачные эквиваленты. В переводах «Муншаот» официальный эпистолярный стиль в целом сохранён, однако в отдельных местах наблюдается упрощение и смягчение. В исследовании применены теория перевода, стилистический анализ и сравнительный метод.*

Ключевые слова. *Алишер Навои, Махбуб ул-кулуб, Муншаот, перевод, турецкий язык, эпистолярный жанр, эквивалентность, литературный анализ, стилистика, суфизм.*

Alisher Navoiy (1441–1501) o‘z davrining ulug‘ mutafakkiri, shoir, davlat arbobi va xalqparvar inson sifatida turkiy adabiyotning buyuk namoyandasi bo‘lib tarixda muhrlangan. Uning ijodiy merosi turkiy xalqlar, xususan o‘zbek va turk adabiyoti

taraqqiyotida benazir o‘rin egallaydi[1]. Navoiy merosining turk tiliga tarjima qilinishi esa o‘ziga xos tarixiy-madaniy hodisadir. Chunki turkiy xalqlar madaniy aloqalarida adabiy tarjimalar o‘zaro ta’sir va qardoshlikni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi[2]. Bu jarayonda “Mahbub ul-qulub” va “Munshaot” alohida e’tibor qozongan. “Mahbub ul-qulub” - axloqiy-didaktik asar bo‘lib, jamiyatning turli tabaqalari, kasb egalari va ularning ma’naviy xususiyatlarini ta’riflab beradi.[3]

“Munshaot” esa Navoiy maktublaridan iborat bo‘lib, unda muallifning davlat ishlari, shaxsiy munosabatlari va samimiy tuyg‘ulari ifodalangan[4]. Bu asar epistolyar janrning mumtoz namunasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda bir necha metodik yondashuvlardan foydalanildi:

1. **Qiyosiy tahlil** – asliyat va tarjima matnlarini yonma-yon o‘rganish orqali semantik va stilistik farqlarni aniqlash.

2. **Stilistik tahlil** – tashbeh, istiora, kinoya kabi badiiy vositalarning tarjimada qanday aks etishini o‘rganish.

3. **Tarjima nazariyasi** – ekvivalentlik, adaptatsiya va dinamik tarjima prinsiplari asosida baholash.

4. **Ma’naviy-falsafiy tahlil** – tasavvufiy, axloqiy va ijtimoiy mazmun tarjimada qay darajada saqlanganini tahlil qilish.

1. “Mahbub ul-qulub” tarjimasi

Asarda xalqning turli tabaqalari haqida hikmatli fikrlar bildiriladi. Masalan, dehqon to‘g‘risida Navoiy shunday yozadi:

Asliyatda:

“Dehqonning odati – xalqni non bilan siylamog‘idur. Agar u odam Odam (a.s.) bo‘lmasa ham, o‘zida undan asar bor.”[5]

Turkcha tarjimada:

“Çiftçiliği meslek edinen kişinin alışkanlığı ekmek vermektir. Böyle bir kişi Âdem (a.s.) değilse bile özünde ondan izler taşır.”[6]

Bu yerda “o‘zida undan asar bor” iborasi “özünde ondan izler taşır” tarzida juda nozik va to‘liq ekvivalent bilan ifodalangan.

Yana bir misol:

Asliyatda: “Saxovatli kishi xalqning yordami ila ulug‘ bo‘lur, baxil kishi esa o‘z baxillig‘i bilan xor bo‘lur.”[7]

Turkcha: “Cömert kişi halkın yardımıyla yücelir, cimri ise cimriliğiyle zelil olur.”[8]

“Xor bo‘lur” iborasi “zelil olur” deb tarjima qilinishi ma’nodosh va kuchli stilistik ekvivalentdir.

---

[1]Navoiy, A. Mahbub ul-qulub. -Toshkent., G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991-yil, (Qolgan misollar ham shu manbadan keltirilsa sahifada beti keltiriladi)

-Barqaror rivojlanishni ta'minlash. Resurslarni oqilona ishlatib, kelajak avlodlar uchun ham yetarli tabiiy boylik qoldirish.

-Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish. Issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, energiyani samarali ishlatish va qayta tiklanadigan manbalarga o'tish.

-Ijtimoiy adolatni ta'minlash. Ish o'rinlarini yaratish, kambag'allikni kamaytirish, aholining yashash sifatini oshirish.

Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari

-Resurslarni samarali ishlatish (energiya, suv, xom ashyo)

-Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish (quyosh, shamol, geotermal)

-Atrof-muhitni ifloslantirmaslik

-Ekologik texnologiyalarni rivojlantirish

-Qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirish

-Ijtimoiy mas’uliyat va barqarorlik

Yashil iqtisodiyotning turlari va yo‘nalishlari

-Yashil energetika — quyosh, shamol, biomassa kabi toza energiya manbalarini rivojlantirish.

-Yashil transport — elektr transport vositalari, jamoat transportini rivojlantirish.

-Yashil qurilish — ekologik toza materiallardan foydalanish, energiyani tejaydigan binolar qurish.

-Qayta ishlash va chiqindilarni boshqarish — chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish.

-Barqaror qishloq xo‘jaligi — kimyoviy o‘g‘itlar va pestitsidlarni kamaytirish, organik qishloq xo‘jaligi rivojlanishi.

Yashil iqtisodiyotning ahamiyati

-Iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni uyg‘unlashtirish orqali kelajak avlodlarga sog‘lom muhit qoldirish.

-Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirib, inson sog‘lig‘ini yaxshilash.

-Iqlim o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan xavflarni kamaytirish.

-Yangi ish o‘rinlarini yaratish va innovatsiyalarni rivojlantirish.

-Tabiiy resurslarni isrof qilmasdan, samarali foydalanish.

Yashil iqtisodiyot — bu dunyoda ekologik muammolar va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy modeldir. U barqaror va sog‘lom kelajakni ta’minlash, tabiiy boyliklarni asrash hamda ijtimoiy adolatni kuchaytirishga qaratilgan.

1. Yashil iqtisodiyotda innovatsiyalarni joriy etishning ahamiyati

Innovatsiyalar yashil iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ular quyidagi maqsadlarga erishishda muhim rol o‘ynaydi:

-Energiya samaradorligini oshirish – qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va energiya sarfini kamaytirish.

-Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish – chiqindilarni qayta ishlash va resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish.

-Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish – havo, suv va tuproqni toza saqlashga qaratilgan texnologiyalarni joriy qilish.

-Yashil ish o‘rinlarini yaratish – barqaror iqtisodiy rivojlanish orqali yangi ish o‘rinlarini tashkil etish.

2. Yashil iqtisodiyotda innovatsiyalarni joriy etish usullari

1. Davlat siyosati va tartibga solish

Davlat yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun quyidagi vositalarni qo‘llashi mumkin:

-Soliq imtiyozlari va subsidiyalar – yashil texnologiyalarga sarmoya kiritayotgan kompaniyalarga soliq yengilliklari berish.

-Ekologik normalar va standartlar – ishlab chiqarish jarayonlarida ekologik tozalikka e’tibor qaratish majburiyati.

-Davlat grantlari va investitsiyalar – yashil innovatsiyalarni rivojlantirishga moliyaviy ko‘mak ko‘rsatish.

2. Xususiy sektor va investitsiyalar

Xususiy sektor yashil innovatsiyalarni rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi:

-Korxonalar uchun yashil texnologiyalarni joriy qilish – energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanish.

-Korporativ ijtimoiy mas'uliyat (CSR) – ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida biznesning ijtimoiy javobgarligini oshirish.

-Ekologik startaplarni qo‘llab-quvvatlash – yangi yashil biznes loyihalarini moliyalashtirish.

3. Ilmiy tadqiqotlar va texnologik taraqqiyot

Yashil iqtisodiyot innovatsiyalarining samaradorligini oshirish uchun ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega:

-Universitet va ilmiy markazlarni rivojlantirish – yashil texnologiyalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirish.

-Xalqaro hamkorlikni kengaytirish – ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish va innovatsion texnologiyalarni almashish.

-Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish – ekologik monitoring va energiya tejovchi tizimlarni yaratish.

3. Yashil iqtisodiyot innovatsiyalarining samaradorligini oshirish

Innovatsiyalarni joriy etish jarayonida ularning samaradorligini oshirish quyidagi omillarga bog‘liq:

-Xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish – ishlab chiqarish jarayonlarida tejamkor texnologiyalarni qo‘llash.

-Mahsulot va xizmatlarning ekologik standartlarga mosligini ta’minlash – xalqaro ekologik sertifikatlarga ega bo‘lish.

-Jamoatchilik va tadbirkorlarni jalb qilish – yashil texnologiyalarni ommalashtirish uchun ta’lim va targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish.

-Aqlli shahar va yashil infratuzilma – yashil transport, energiya tejovchi binolar va ekologik toza shahar rejalari.

Yashil iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarni jalb etish va ularning samaradorligini oshirish global miqyosda ekologik barqarorlikni ta’minlashning asosiy yo‘llaridan biridir. Davlat siyosati, xususiy sektor va ilmiy tadqiqotlarning integratsiyalashuvi orqali yashil texnologiyalarni rivojlantirish va ularning qo‘llanilishini kengaytirish mumkin. Kelajakda yashil iqtisodiyot innovatsiyalarini rivojlantirishga ko‘proq e’tibor qaratish nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki atrof-muhitni himoya qilishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N. X. G‘iyosaliyevichning **“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”** ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal 2025-yil may 5-sonidagi **“Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida”** maqolasi

2. Sh. B. G‘ulomovaning “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiyadagi “Iqtisodiyotning yangi yo‘nalishlaridan biri- yashil iqtisodiyot va uning asosiy tamoyillari” maqolasi

ИГРОВЫЕ УПРАЖНЕНИЯ ДЛЯ УВЛЕКАТЕЛЬНОГО ИЗУЧЕНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Беккулова Ситора Хайруллаевна,

Аннотация: Данная статья адресована учителям, работающим начальных классах. Она охватывает основные разделы курса предусмотренные программой по русскому языку. В ней обобщены многолетние наблюдения над практикой преподавания русского языка узбекским учащимся. Здесь описываются методические рекомендации и из опыта работы учителей по преподаванию русского языка в младших классах.

Ключевые слова и понятия: *игра, чтение, письмо, звук, звукобуквенное чтение, слоговое чтение, послоговое чтение, слух, слог, букварный период, послебукварный период, активный словарь, пассивный словарь.*

Русский язык в Узбекистане имеет свои исторические корни и до настоящего времени является проводником новых технологий, научной и культурной информации.

Как и другие языки, русский язык постоянно развивается и изучается.

В этом огромная заслуга принадлежит учителям русского языка в национальных школах.

Использование занимательных игровых упражнений и игр на уроках позволяют в легкой и непринужденной форме развить у учеников навыки устной и письменной речи, научить применять полученные знания на практике.

Изучение русского языка в узбекской школе, как один из иностранных языков, носит особый характер.

Заполняя личную анкету, мы отвечаем на вопрос: «Какими иностранными языками вы владеете?»

Мы пользуемся с подсказкой той же анкеты «владею свободно, читаю и перевожу со словарем, без словаря».

А что такое «знать» и «владеть»:

Знать – обладать знанием;

Владеть – уметь пользоваться.

Наши учащиеся должны владеть русским языком.

В настоящее время дети со 2- го класса начинают изучать русский язык. Русский язык на самом деле стал иностранным, потому что сходство в алфавите на много сократились.

Основное направление работы **в начальных** классах – это интенсивное речевое развитие учащихся, которое должно осуществляться в тесной связи с формированием активности мышления младших школьников.

Учитывая уменьшение часов (в неделю 2 часа) программа не расширяет объём лексико-грамматического материала, а даёт минимальный лексико-грамматический материал.

Практический курс русского языка во втором классе рассчитан на 68 часов и делится на букварный период и после букварный период.

В содержание каждого этапа обучения включается материал по чтению и письму.

В основу выработки навыков чтения и письма кладётся формирование навыков звукобуквенного и слогового анализа слов. В целях развития фонематического слуха следует практиковать упражнения на выделение звуков

их сопоставление и различение, на узнавание заданного звука в словах, на подбор слова с усвоенным звуком.

Если раньше мы постепенно переходили от послогового чтения к слитному, то сейчас сразу перешли на чтение слов в составе которых 1, 2, 3 слога. Н- р: дом, шар, папа, ручка и т.д.

К числу задач букварного периода относятся также следующие:

- научить детей списывать слова и предложения печатного и рукописного текста;

- систематически развивать навыки разговорной речи, приобретенные в до букварный период;

- расширять объем активного и пассивного словаря. При обучении грамоте у учащихся вырабатываются навыки правильного произношения всех звуков и звукосочетаний в словах, составляющих словарный минимум.

Правильное произношение и аудирование требует соответствующей тренировки. С самого начала выработать привычку слушать устную речь, выполнять команду учителя, здороваться, встать, сесть, идти к доске, взять ручки, тетради, закрыть и открыть книгу и т.д. Особое внимание уделяется на слитное произношение слов с предлогами и на произношение звуков **щ, ы, ж, ц** слогов с мягкими согласными, со стечением согласных, чего отсутствует на узбекском языке.

Отрабатывать произношение учащихся необходимо многократно, надо работать: индивидуально, по группам, по рядам, хором и на последующих уроках проверить закрепление ранее усвоенного материала.

Во вторых классах берёт верх непроизвольное внимание. Ученики очень хорошо подражают.

Этим надо воспользоваться, поэтому здесь максимально надо использовать **метод имитации.** Можно еще дать элементарные пояснения артикуляции звуков: образование звуков в ротовой полости.

Особое внимание надо уделять на типовые предложения.

Это что? ***Это арбуз***

Арбуз какой? ***Он большой***

Кто рисует? ***Я рисую***

Порядок изучения типовых предложений основан на принципе «от простого к сложному**».**

Основные приемы и методы работы в букварный период.

1. Отработка правильного произношения (повторение вслед за учителем слогов, слов, словосочетаний).

2. Сопоставление и различение твёрдых мягких согласных и сходных звуков (**ш-щ, ц-с, ы-и**) с помощью цветных контрольных карточек.

3. Составление фраз из 2-4 слов на базе типовых предложений.

4. Разыгрывание маленьких диалогов.

5. Заучивание маленьких стишков (использование их на физкультминутках).

6. Проставление ударений.

Вместе с усвоением произносительных норм ученики приобретают навыки правильной постановки ударений: ***окно, картина, хлопок.***

Здесь помогает **сопоставительный метод, сопоставляется** место ударения на русском и узбекском языках, например: ***парта, доска, ручка***.

Это все должно закрепляться в течение учебного года.

После букварный период

Основная цель после букварного периода закрепление и совершенствование ранее приобретенных учащимися навыков правильного произношения слов и предложений, говорения по-русски, сознательного правильного и беглого чтения с элементами выразительности, навыков грамотного письма отдельных слов словосочетаний и предложений.

Во втором классе предусматривается дальнейшее формирование и развитие устной и письменной речи, навыков элементарной диалогической и монологической речи. Здесь постоянно следует работать над развитием устной речи, потому что это требование времени. На всех уроках следует постоянно проводить работу над правильным произношением звуков, слов, словосочетаний и предложений, так как правильное произношение во многом обеспечивает грамотное письмо. В обучении речи необходимо широко использовать средства слуховой и зрительной наглядности, окружающие предметы (стол, стул, доска, дверь…), макеты (домик, машина, цветы), картинки и рисунки (пусть дети сами рисуют).

Во втором классе ученики должны научиться правильно интонировать повествовательные и вопросительные предложения:

-Дима дома?

-Да, Дима дома.

-А Умид дома?

-И Умид дома.

Развитие речи начинается с усвоения слов. На каждом уроке дети усваивают 2-3 новых слов. Чтобы прочно усвоить лексику в течении учебного года учащиеся систематически должны повторять пройденные слова. Если раньше грамматика изучалась на синтаксической основе, то в настоящее время развитие речи идёт за счёт готовых речевых моделей. В начальных классах *особое внимание* уделяется на *чтение.* Чтение должно быть правильным, сознательным, беглым и с элементами выразительности.

Изучение русского языка во втором классе это очень серьёзная, трудная работа для малыша. В начале учащиеся приходят на уроки русского языка радостно, с искренним желанием учиться, а потом они устают. Почти 50 % учащихся изучают язык очень медленно. Они путают буквы, часто пишут по латыни, затрудняются ответить на вопросы, часто устают, плохо запоминают (это и связана с экологией в нашем регионе, дефицит йода в первую очередь нарушает память). Ребёнку с плохой памятью трудно мыслить, соображать. Клетки мозга быстро утомляются и не справляются с работой, которая предлагает учитель. А нам, учителям хочется, чтобы они побыстрее отвечали на вопросы и быстро писали.

Не потерять на уроке ни одной минуты, ни одного мгновенья без активного умственного труда – что может быть глупее в тонком деле, как воспитание человека. Что делать? Надо найти выход из положения. Здесь на помощь к нам приходит *игра*. На уроках часто надо вводить элементы игры и физкультминутки.

Для ребёнка игра – это самое серьёзное дело. «Что наша жизнь? Игра!». Эти слова пушкинского героя мы повторяем очень часто. Они звучат в телевизионных передачах, ими пестрят страницы «игровых» газет. Все мы

любим играть, а дети живут в игре! Мы, учителя русского языка, часто включаем в урок словесные игры, которые помогают усвоить материал, прививают интерес к предмету. А иногда хочется сделать урок праздником или после занятий пригласить на праздник родителей, друзей, а то и ребят всех классов, если это маленькая сельская школа. Такое занятие развивает творческие способности, смекалку, фантазию, формирует различные общеучебные умения и навыки, расширяет кругозор, воспитывает чувство ответственности, взаимовыручки и, конечно же, любовь к языкам, Отечеству.

Учение нельзя приспосабливать к детским радостям, умышленно облегчить это только для того, чтобы ребёнку не показалось скучно. Ребёнка надо готовить настойчивому труду, который невозможен без *напряжения мысли*.

Если ребёнку в учение всё достаётся легко у него постоянно воспитывается *лень мысли*. Однообразие утомляет человека. Важная задача, школы – воспитать человека, быть пытливой, творческой, ищущей мысли. Исходя из всего этого следует определить, что во втором классе, на каждом уроке учитель должен обращаться к играм. Чтобы каждая игра помогала нашим ученикам, в изучении русского языка, облегчала их труд.

Предлагаю некоторые игры, которые использую на уроках русского языка.

В начале игры нужно разделить учащихся на две команды, чтобы в каждой команде участвовали дети разного уровня знаний (сильные, средние, слабые).

1. Игра: Кто знает больше слов?

Цель игры: *обогащение словарного запаса и развитие речи учащихся.*

На доске или на таблице написаны пройденные темы. Они пронумерованы и закрыты (доска закрыта, таблица перевёрнута). На столе лежат карточки с цифрами. Дети из каждой команды вытягивают номер, определяют тему и назовут слова на эту тему, например: карточка №1 «Здравствуй школа»; слова: класс***, школа, ученик, ученица*** *и* ***т.д.***

Побеждает та команда, которая назовёт больше слов.

2. Игра: Найди ошибку.

Цель игры: развитие *памяти и интеллектуальных чувств учащихся. Закрепление пройденного материала.*

Эту игру можно провести во многих вариантах.

А) на проставление ударений.

Детям раздаются слова, с неправильной постановкой ударений. Например: ***школа, окна, парта***.

Дети во первых исправляют ошибки, а во вторых прочитают их следуя литературным нормам: ***окно,*** ударение падает на вторую букву ***-о*** (*читают акно*).

Б) на правописание пройдённых слов.

Учащимся раздаются слова с ошибками и они исправляют эти ошибки Например: ***кукло – кукла, пирсик – персик.***

В) на словосочетаниях, например:

Неправильно	**Правильно**
моя дедушка	***мой дедушка***
моя папа	***мой папа***
мой мама	***моя мама***

Побеждает та команда или тот ряд, который больше всех нашёл ошибку.

3. Игра Алфавит

Цель игры: *развитие внимания учащихся. Закрепление пройденного материала.*

Каждой команде раздаются по 10 … слов, и дети за минуту ставят слова в алфавитном порядке. Например: ***ворона, арбуз, барабан, и т.д***

Побеждает та команда, которая быстро выполнит задание.

4. Игра: Кто самый внимательный?

Цель игры: *развитие произвольного внимания. Воспитание волевых качеств учащихся.*

Учительница записывает на таблице 2-3-4 слова, показывает детям и снимает таблицу. Учащиеся по памяти пишут эти слова в своих тетрадях.

Побеждает та команда у кого меньше ошибок.

5. Игра: Кто быстрее?

Цель игры: *развитие логического мышления и расширение кругозора учащихся.*

Учащимся раздаются буквы и они из них должны составлять слова на тему: Например, **«Моя семья».**

Раздаются буквы или они написаны на доске а***, м, б, ш, к, п …***- Учащиеся составляют слова ***папа, мама, бабушка.***

Побеждает та команда, которая за 2 минуты составляет больше слов.

6. Игра: Угадай-ка.

Цель игры: *формирование опыта учащихся по правописанию букв и развитие у них произвольного запоминания.*

На доске написаны элементы букв. Учащиеся назовут буквы, которые образуются с помощью этих элементов. Например: **у, з , в, б. Г, П, Н, Т, М**

Выигрывает та команда, которая напишет больше букв.

7. Игра: Закрытыми глазами.

Цель игры: *закрепление умений и навыков учащихся по правописанию букв.*

Учащиеся под диктовкой учителя на доске поочередно закрытыми глазами пишут буквы.

Побеждает та команда, которая красиво и правильно пишет буквы.

Литература

1. Жаркова Т., Акишина А. «Игры на уроках русского языка». Учеб. нагляд. Пособие. - 2-е изд., испр. и доп. Издательство: Русский язык: - М., 1990.
2. Журналы «Русский язык и литература в узбекской школе». -Т., 1985-89 гг. №1,3,5.
3. Журналы «Преподавание языка и литературы». -Т., 2008-2023 г.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA YANGI ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANIB SAMARALI TASHKIL ETISH

Qilicheva Mashhura Asatovna,
Navbahor tumani 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati, ularning o'quvchilarda tabiatga bo'lgan qiziqish, kuzatuvchanlik, mustaqil

fikrlash hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, samarali ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

***Kalit so‘zlar**: zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, STEAM yondashuvi, Loyiha (Project-based learning) metodi, Virtual laboratoriyalar*

Аннотация. В статье анализируется важность использования современных педагогических технологий и интерактивных методов в преподавании естествознания в начальных классах, их роль в развитии у учащихся интереса к природе, наблюдательности, самостоятельности мышления и научного мировоззрения. Также представлены практические рекомендации по организации эффективного образовательного процесса.

***Ключевые слова:** современные педагогические технологии, интерактивные методы, STEAM-подход, проектный метод обучения, виртуальные лаборатории.*

Annotation. This article analyzes the importance of using modern pedagogical technologies and interactive methods in teaching natural sciences in primary grades, their role in forming students' interest in nature, observation, independent thinking and scientific worldview. Also, practical recommendations for organizing an effective educational process are presented.

***Keywords:** modern pedagogical technologies, interactive methods, STEAM approach, Project-based learning method, Virtual laboratories*

Kirish. Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimi tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Innovatsion texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda yangi pedagogik yondashuvlar ta’lim mazmuni va shaklini tubdan o‘zgartirib yubordi. O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim sohasini modernizatsiya qilish, o‘quv jarayonini ilg‘or xalqaro tajriba asosida takomillashtirish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, amaliy bilimlarni hayotga tatbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim tizimi insonning keyingi hayoti va o‘qish faoliyati uchun poydevor hisoblanadi. Ayniqsa, tabiiy fanlarni o‘qitish jarayoni o‘quvchilarda atrof-muhitni anglash, tabiat qonuniyatlarini tushunish, ekologik madaniyat va tabiatga e’tiborli munosabatni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bois boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishning samaradorligini oshirish hozirgi davrda eng dolzarb pedagogik masalalardan biridir.

An’anaviy dars usullari o‘quvchilarga tayyor bilim berish bilan chegaralangan bo‘lsa, zamonaviy metodlar esa o‘quvchini ta’lim jarayonining markaziga qo‘yadi. O‘quvchi endi faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi, tadqiqotchi, izlovchi sifatida darsda qatnashadi. Bu esa o‘z navbatida, o‘quvchilarning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga, o‘z fikrini asoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida tabiiy fanlarni o‘qitishda interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish (Project-based learning), STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics), muammoli o‘qitish va axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodlar o‘quvchilarni nafaqat tabiiy fanlarga qiziqtiradi, balki ularning ijodkorligini, tahliliy fikrlashini, muloqot madaniyatini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quv jarayonini hayotiy tajriba bilan bog‘lash, tajriba va kuzatuvlar asosida bilim olish, o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin

ifoda etish imkonini berish zarur. Bu esa o‘quvchilarda nafaqat fanga, balki umuman ta’limga nisbatan ijobiy munosabat va ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy metodlardan samarali foydalanishning nazariy asoslari, ularning amaliy qo‘llanilish shakllari hamda o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar yoritiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning tabiiy fanlarga qiziqishini oshirish, ularni mustaqil fikrlash va tahlil qilishga o‘rgatish bo‘yicha ilg‘or tajribalar tahlil qilinadi.

Asosiy qism.

1. Tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarning mohiyati

Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda asosiy maqsad — o‘quvchilarda atrof-muhit hodisalari, jonli va jonsiz tabiat, inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishdir. Buni samarali amalga oshirish uchun quyidagi zamonaviy metodlardan foydalanish muhim:

STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics): o‘quvchilarda fanlararo bog‘lanishni, ijodkorlikni va amaliy fikrlashni rivojlantiradi.

Loyiha (Project-based learning) metodi: o‘quvchilar ma’lum bir mavzu bo‘yicha tadqiqot olib borishadi, natijada mustaqil ishlash, kuzatish va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

“Kichik laboratoriya” usuli: oddiy tajribalar orqali tabiiy hodisalarni amaliy ravishda o‘rganishga imkon yaratadi.

- Interfaol metodlar (“Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Baliq skeleti”, “Debat”): o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini oshiradi, ularni erkin fikr bildirishga o‘rgatadi.

2. Axborot texnologiyalaridan foydalanish

Zamonaviy ta’limda raqamli vositalar tabiiy fanlarni o‘qitishda katta imkoniyatlar yaratadi. Masalan:

Virtual laboratoriyalar orqali o‘quvchilar xavfsiz tarzda tajribalar o‘tkazishi mumkin;

Multimedia taqdimotlari darsni jonlantiradi;

Interaktiv o‘yinlar o‘quvchilarda motivatsiyani oshiradi;

QR-kodli topshiriqlar mustaqil izlanish faoliyatini kuchaytiradi.

Axborot texnologiyalari dars jarayonini vizuallashtiradi va abstrakt tushunchalarni aniqroq tasavvur qilishga yordam beradi.

3. Dars jarayonini samarali tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar

Har bir mavzu uchun maqsadni aniq belgilash va o‘quvchi faoliyatiga yo‘naltirish;

Tajriba va kuzatuvlar asosida darsni tashkil etish;

O‘quvchilarga ijodiy topshiriqlar berish (masalan, “Tabiat kundaligi” yuritish);

Guruhli ishlashni yo‘lga qo‘yish, bunda hamkorlik va mas’uliyatni rivojlantirish;

O‘qituvchining roli – bilim manbai emas, balki yo‘naltiruvchi va motivator sifatida namoyon bo‘lishi kerak.

Tadqiqot natijalari. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot Toshkent viloyatidagi uchta umumta’lim maktabining 2–4-sinflarida olib borildi. Har bir sinfda tajriba va nazorat guruhlari shakllantirilib, tabiiy fanlar darslari turli metodlar asosida tashkil etildi.

Tajriba guruhi darslarida interfaol metodlar (“Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Baliq skeleti”), STEAM loyihalari, axborot texnologiyalaridan foydalanish, tajriba

asosidagi o‘qitish kabi yondashuvlardan foydalanildi. Nazorat guruhida esa darslar asosan an'anaviy, tushuntirish va og‘zaki bayon shaklida olib borildi.

1. O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi. Zamonaviy metodlar o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga va bilimlarni amaliy qo‘llashiga yordam berishini tasdiqlaydi.

2. Qiziqish va motivatsiya o‘sishi. So‘rovnomalar asosida aniqlanishicha, tajriba guruhidagi o‘quvchilarning 75% tabiiy fanlarga qiziqishi ortganini bildirgan. Ular darslarda tajriba o‘tkazish, o‘yin elementlaridan foydalanish, hamkorlikda ishlash kabi faoliyatlardan zavq olishgan. An'anaviy darslar o‘tkazilgan nazorat guruhida esa o‘quvchilarning qiziqish darajasi 50% atrofida bo‘lgan.

3. Faol ishtirok va ijodkorlik ko‘nikmalari

Tajriba darslari davomida o‘quvchilarda:

muammoli vaziyatlarni hal etish,

kuzatish natijalarini tahlil qilish,

fikrini asoslab ifoda etish,

guruhda ishlash va o‘zaro fikr almashish ko‘nikmalari shakllangan.

O‘qituvchilar qayd etishicha, tajriba guruhidagi o‘quvchilar mustaqil fikrlashga, xulosalar chiqarishga va atrof-muhit hodisalarini ilmiy asosda tushuntirishga intilgan.

4. Axborot texnologiyalarining samarasi. Interaktiv taqdimotlar, videodarslar va onlayn tajribalar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan e'tiborini oshirgan. Masalan, “Suvning aylanish jarayoni” mavzusi animatsiya orqali ko‘rsatilganida, o‘quvchilar bu hodisani ancha tez va to‘g‘ri tushungan. Bu esa vizual o‘qitishning samaradorligini tasdiqlaydi.

5. O‘qituvchilar fikrlari. Tadqiqotda ishtirok etgan o‘qituvchilarning aksariyati (90%) zamonaviy metodlar darsga tayyorlanishda biroz ko‘proq vaqt talab qilsa-da, natija jihatidan an'anaviy yondashuvlardan ancha samaraliroq ekanini ta'kidlaganlar. Ularning fikricha, bunday metodlar o‘quvchilarning diqqatini faollashtiradi, darsni jonlantiradi va har bir bola o‘z salohiyatini namoyon etishiga imkon beradi.

Xulosa. Boshlang‘ich ta'lim bosqichi — bu o‘quvchining dunyoqarashi, tafakkuri, ilmga bo‘lgan munosabati va qiziqishlarini shakllantirish davri hisoblanadi. Ayniqsa, tabiiy fanlar bu jarayonda markaziy o‘rin tutadi. Chunki bu fanlar orqali bola tabiat hodisalari, jonli va jonsiz olam, inson va atrof-muhit o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuna boshlaydi. Shu bois, tabiiy fanlarni zamonaviy metodlar asosida o‘qitish o‘quvchilarning nafaqat bilim, balki amaliy ko‘nikma va hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, dars jarayonida interfaol metodlar, STEAM yondashuvi, loyiha asosida o‘qitish, axborot texnologiyalari va tajriba asosidagi o‘qitish usullaridan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi faolligini, mustaqil fikrlashini hamda tabiiy hodisalarga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu metodlar yordamida o‘quvchilar o‘rganayotgan mavzularni nafaqat eslab qoladi, balki ularni hayotiy misollar bilan bog‘lab tushunishga o‘rganadi.

Zamonaviy yondashuvlar asosidagi darslar quyidagi ijobiy natijalarni berdi:

O‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi oshdi. Dars jarayonida o‘yin, tajriba, raqamli texnologiyalar va vizual materiallardan foydalanish bolalarda tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqni kuchaytirdi.

Bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligi ortdi. Tajriba guruhida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy metodlar qo‘llanilgan sinflarda bilim darajasi o‘rtacha 15–20% ga yuqori bo‘ldi.

Ijodkorlik va mustaqil fikrlash rivojlandi. O‘quvchilar muammoli vaziyatlarni hal qilishda, kuzatish natijalarini tahlil qilishda va xulosa chiqarishda faol ishtirok etdilar.

Hamkorlikda o‘qitish ko‘nikmalari shakllandi. Guruhli ish, loyiha topshiriqlari, “fikrlar almashuvi” metodlari o‘quvchilarning muloqot madaniyatini rivojlantirdi va jamoada ishlashga o‘rgatdi.

Axborot texnologiyalarining roli ortdi. Multimedia, interaktiv taqdimotlar va virtual laboratoriyalar o‘quvchilarning diqqatini jamlash, murakkab hodisalarni osonroq tushunish va o‘zlashtirish imkonini berdi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida aniqlanishicha, zamonaviy metodlarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun o‘qituvchidan quyidagi jihatlar talab etiladi:

puxta dars rejalashtirish va texnologik xarita tuzish;

o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta bilish va amaliyotda qo‘llay olish;

darsda motivatsion muhit yaratish, har bir o‘quvchini faol ishtirok etishga undash.

Umuman olganda, tabiiy fanlarni zamonaviy metodlar asosida o‘qitish — bu shunchaki yangi uslublarni qo‘llash emas, balki o‘quvchini markazga qo‘ygan, uni faol, izlanuvchan, kuzatuvchan shaxs sifatida shakllantiruvchi ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish demakdir.

Kelgusida tabiiy fanlarni o‘qitish samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni keltirish mumkin:

har bir darsda tajriba va kuzatuvlar elementlarini kiritish;

o‘quvchilarga mini-loyihalar orqali mavzularni mustaqil tadqiq etish imkonini berish;

interfaol o‘yinlar va vizual modellardan keng foydalanish;

STEAM yondashuvi asosida fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yish;

o‘qituvchilar uchun zamonaviy metodika bo‘yicha malaka oshirish kurslarini muntazam tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning tafakkurini, qiziqishini, kuzatuvchanligini, tabiatga bo‘lgan mehrini ham rivojlantiradi. Shu bois, tabiiy fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish zamonaviy ta’limning eng muhim talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari va farmonlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi”. – Toshkent, 2023.
3. N. Karimova Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2022.
4. M. Shamsiyeva Tabiiy fanlarni o‘qitishda interfaol metodlar. – Samarqand, 2021.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM SOHALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHDA O‘QUV FAOLIYATI SHAKLLANISHIGA TA’SIRI

Xakimov Obidjon,
Navoiy PROFI University “Iqtisodiyot” kafedrasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim jarayonida innovatsion zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biriga aylanganligi haqida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Innovatsion, axbort, kommunikatsiya, intellektual, e’tibor, texnikaviy, qobiliyat, interaktiv, refleksiv, ijtimoiy psixologik, motivatsiya.*

Аннотация. *В этой статье использование инновационных современных информационных и коммуникационных технологий в образовании стало одной из самых актуальных задач современности .*

Ключевые слова: *Инновационный, информация, коммуникация, интеллектуальный, внимание, технический, способие , интерактивный, рефлексивный, социально- психологический, мотивация.*

Annotation. *In this article, the use of innovative modern information and communication technologies in education has become one of the most pressing task of today.*

Key words: *Innovative, information, communication, intellectual, attention, technical, ability, interactive, reflexive, social-psychological, motivation.*

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar ta’lim tizimini modernizatsiya qilinishi hamda innovatsion texnologiyalarni keng o‘zlashtirilishi ta’lim muassasasi oldida dolzarb vazifalarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda.Ta’lim jarayonida zamonaviy innovatsiyon axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim vazifalaridan biriga aylanganligi hammamizga ma’lum. Bu esa o‘sib kelayotgan yosh avlodni intellektual va texnikaviy qobiliyatlarini rivojlantirib shaxs xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi. “Vatanimiz kelajagi, xalqimizni ertangi kuni mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-etibori, avvalambor, yoshlarimizning unib-o'sib, ulg’ayib qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog’liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak. I.A.Karimov[1].

Zamonaviy axborot innovatsiyon texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanar ekanmiz, biz uning ijobiy ta’sir yo‘llari orqali yondasha olishimiz lozim, ya’ni, birinchidan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari zaminida yuz berishi mumkin bo’lgan yangiliklar an’anaviy muloqot sharoitlarida olib boriladi. Dars jarayonida texnika bilan shaxs va shaxs bilan shaxs o‘rtasidagi muloqotni muvofiqlashtirib olib borish maqsadga muvofiq.

